

Özb. 2
33
L-646

IKRAMOV M.A., PARDADEV M.Q.,
ABDUHALILOVA L.T.

MARKETING TADQIQOTLARIDA STATISTIK TAHLIL



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

026.2 MARKETING KAFEDRASI

33

1-46 IKRAMOV M.A., PARDADEV M.Q.,
ABDUHALILOVA L.T.,

MARKETING TADQIQOTLARIDA STATISTIK TAHLIL

O'quv qo'llanma

100% qo'llanma

«Sano-standart» nashriyoti
Toshkent -- 2019

UO'K: 517.951(075.8)

KBK: 65.290-2ya73

I 37

I 37 Ikramov M.A., Pardayev M.Q., Abduhalilova L.T.
Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil / o'quv
qo'llanma: – T.: «Sano-standart» nashriyoti, – 2019 – 464
bet.

“Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” fanini o'zganishning xususiyatlari joriy va potentsial talab bozori, bozor ulushi, xaridorlar, hamkorlar, raqobatchilar, iste'molchilarning qadriyatlar tizimi va ularning ehtiyojlarini qondirish jarayonidagi mavjud axborotlarni zamonaviy statistik tahlil metodlari va axborot-texnologiya kommunikatsiyalardan samarali foydalanshda aks etiladi.

O'quv qo'llanma iqtisodiy yo'nalish va mutaxassisliklarda ta'lim olayotgan talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar va marketing tadqiqotlari bilan qiziquvchi mutaxassislarga mo'hallangan.

Taqribchilar:

Toshkent davlat texnika universiteti «Iqtisodiyot va marketing» kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari doktori, prof. Mahkamova M.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Marketing” kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari doktori, prof. Ergashxodjayeva Sh.J.

UO'K: 517.951(075.8)

KBK: 65.290-2ya73

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-soni buyrug'iiga asosan o'quv qo'llanma sisatida nashr etishga ruxsat etildi.

ISBN: 978-9943-5912-5-7

© Ikramov M.A., Pardayev M.Q.,

Abduhalilova L.T.

© “Sano-standart”, 2019

MUNDARIJA

| | |
|-------------|---|
| Kirish..... | 8 |
|-------------|---|

1-BOB. MARKETING TADQIQOTLARIDA STATISTIK TAHLIL FANINING MOHIYATI

| | |
|--|----|
| 1.1. Marketing tadqiqotlarining asosiy tushunchalari | 16 |
| 1.2. Marketing tadqiqotlari tashnifi..... | 22 |
| 1.3. Marketing tadqiqotlari jarayoni va yo‘nalishlari | 26 |
| 1.4. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning ahamiyati.. | 32 |
| 1.5. Marketing tadqiqotlarining statistik ta’minoti..... | 41 |

2-BOB. MARKETING TADQIQOTLARI MUAMMOSINI ANIQLASH VA UNI O‘TKAZISHGA YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQISH

| | |
|--|----|
| 2.1. Marketing tadqiqotlari muammosini aniqlashning ahamiyati | 46 |
| 2.2. Yondashuvlarni ishlab chiqish va muammolarni aniqlash jarayoni | 55 |
| 2.3. Tadqiqot muammolarini aniqlash bilan bog‘liq masalalar..... | 58 |
| 2.4. Boshqaruv va marketing muammolari | 61 |

3-BOB. MARKETING TADQIQOTLARI LOYIHASI VA JARAYONI

| | |
|---|----|
| 3.1. Marketing tadqiqotlari jarayonining mohiyati va ahamiyati | 68 |
| 3.2. Marketing tadqiqotlarining dastlabki bosqichlari..... | 73 |
| 3.3. Tadqiqot loyihasini olib borish yondashuvlari | 78 |
| 3.4. Tadqiqot loyihasini olib borish byudjeti va jadvalini shakllantirish | 83 |
| 3.5. Tadqiqot o‘tkazish to‘g‘risidagi taklif va axborotga chtiyojni aniqlash | 85 |

4-BOB. MARKETING TADQIQOTLARINING AXBOROT MANBALARI

| | |
|---|-----|
| 4.1. Marketing tadqiqotlarida axborotning mohiyati va ularning turlari..... | 94 |
| 4.2. Marketing tadqiqotlari uchun ma'lumotlarni to'plash | 101 |
| 4.3. Marketing tadqiqotlarda axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish tamoyillari (prinsiplari) | 106 |
| 4.4. Marketingda axborot to'plash usullari..... | 110 |
| 4.5. Marketing tadqiqotlarda iqtisodiy tahsilning ahamiyati | 114 |
| 4.6. Ikkilamchi axborotdan foydalanish va ularning afzalliliklari..... | 117 |

5-BOB. INTERNET TARMOQIDA MARKETING TADQIQOTLARI O'TKAZISHNI TASHKIL ETISH

| | |
|---|-----|
| 5.1. Internetning rivojlanishi va marketing tadqiqotlaridagi o'rni | 125 |
| 5.2. Marketing qarorlarini statistik tahlil qilishda umumjahon o'tgimchak to'ri axborotlaridan foydalanish..... | 131 |
| 5.3. Internetda tadqiqotlar turlari va ularni tasniflanishi | 133 |
| 5.4. Internetda mijozlar xatti – harakatini o'tganish | 138 |
| 5.5. Internet va elektron pochta xizmati | 146 |

6-BOB. AXBOROT TO'PLASHNING QIDIRUV VA DESKRIPТИV TADQIQOT USULLARI

| | |
|---|-----|
| 6.1. Dastlabki axborot: sifat va miqdoriy marketing tadqiqotlari | 152 |
| 6.2. Sifatlari tadqiqotlar usullarini tasniflanishi | 155 |
| 6.3. Fokus – guruhlar, ularni rejalashtirish va faoliyatini yuritish..... | 161 |
| 6.4. So'rov o'tkazish usullari va ularni tanlash | 168 |
| 6.5. Kuzatuv usullari va ularning tasniflanishi | 173 |

7-BOB. SABAB – OQIBAT MARKETING

TADQIQOTLARI: EKSPERIMENT (TAJRIBA)

| | |
|---|-----|
| 7.1. Sabab – oqibat aloqalarining mazmuni | 180 |
| 7.2. Tajribaning (eksperiment) ishonchliligi va unga ta'sir etuvchi omillar | 187 |
| 7.3. Tashqi omillar nazorati..... | 189 |
| 7.4. Tajriba modellarini tasniflash..... | 191 |
| 7.5. Dastlabki va haqiqiy tajriba modellari | 193 |

8-BOB. O'LCHASH VA SHKALALASHTIRISH

| | |
|--|-----|
| 8.1. O'lhash va shkalalashtirish tushunchasi va mohiyati . | 198 |
| 8.2. Shkalalarning asosiy turlari | 203 |
| 8.3. Shkalalashtirish usullarini qiyoslash | 207 |
| 8.4. Marketing tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil usullarini taqqoslash | 210 |

9-BOB. STATISTIK TANLASHNI

SHAKLLANTIRISH

| | |
|---|-----|
| 9.1. Tanlovn shakllantirish jarayoni | 221 |
| 9.2. Tasodifiy tanlovn shakllantirish | 225 |
| 9.3. Tanlash ko'lamenti aniqlash usullari | 230 |
| 9.4. Tanlama to'plam ishonchliligi..... | 234 |
| 9.5. Marketing tadqiqotlarida tanlama to'plamlar turlari | 239 |

10-BOB. VARIATSIYA QATORI, BELGILARNING BOG'LANGANLIK JADVALLARI VA GIPOTEZALARINI TEKSHIRISH

| | |
|---|-----|
| 10.1. Variatsiya qatorining mohiyati | 249 |
| 10.2. Chastotalarni taqsimlash bilan bog'liq statistika | 254 |
| 10.3. Statistik tahlil usulini tanlashga ta'sir etuvchi omillar | 260 |
| 10.4. Gipotezalarni tekshirish..... | 264 |
| 10.5. Diskret variatsiya qatorlari | 270 |

11-BOB. DISPERSIYALI VA KOVARIATSIYALI TAHLIL

| | |
|--|-----|
| 11.1. Statistik tahlil usullarining o'zaro bog'liqligi..... | 276 |
| 11.2. Bir omilli dispersiya tahlili..... | 280 |
| 11.3. Dispersiyali tahlilda foydalananadigan mezonlar (ANOVA) | 291 |
| 11.4. Ko'p omillik dispersiyali tahlil..... | 296 |
| 11.5. O'Ichamli erkin o'zgaruvchilar | 302 |

12-BOB. KORRELYATSIYALI VA REGRESSIYA TAHILLAR

| | |
|--|-----|
| 12.1. Korrelyatsiyaon va regressiv tahlilning umumiyl tushunchalari | 309 |
| 12.2. Juftli korrelyatsiya..... | 314 |
| 12.3. Regression tahlil tushunchasi | 321 |
| 12.4. Juft regressiya tahlili | 328 |
| 12.5. Ko'p miqdorli regressiya bilan bog'liq statistika | 337 |

13 – BOB. DISKRIMINANT VA KANONIK TAHILLAR

| | |
|---|-----|
| 13.1. Diskriminant va kanonik tahlil konsepsiysi tushunchasi | 342 |
| 13.2. Dispersiyali va regressiyali tahlillarning o'zaro aloqasi..... | 346 |
| 13.3. Ko'p miqdorli va bosqichli diskriminant tahlil | 349 |
| 13.4. Kanonik korrelyatsiyali tahlil mazmuni | 350 |
| 13.5. Diskriminant o'zgaruvchilar omillari | 354 |
| 13.6. Sinergetik samara usuli | 359 |
| 13.7. Marketing tadqiqotlarida kovariatsion tahlilning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari | 362 |

14-BOB. OMILLI VA KLASTER TAHILLARI

| | |
|---------------------------------------|-----|
| 14.1. Omilli tahlilning mazmuni | 367 |
| 14.2. Omilli tahlil modeli | 371 |

| | |
|--|-----|
| 14.3. Klaster tahlilining mohiyati | 374 |
| 14.4. Klasterli tahlilni qo'llashdagi muammolar | 379 |
| 14.5. Klasterli tahlilni qo'llash bo'yicha tavsiyalar..... | 381 |

15-BOB. KO'P O'LCHAMLI SHKALALASHTIRISH VA QO'SHMA TAHLIL

| | |
|---|-----|
| 15.1. Ko'p o'lchamli shkalalashtirishning asosiy tushunchalari | 386 |
| 15.2. Ko'p o'lchamli shkalalashtirishni bajarish tartibi | 388 |
| 15.3.Birgalikdagi tahlil (<i>conjoint analyses</i>) | 393 |

16-BOB. MARKETING TADQIQOTLARINING NATIJALARI TO'G'RISIDA HISOBOTLAR TAYYORLASH VA UNING TAQDIMOTI

| | |
|---|-----|
| 16.1. Natijalarni taqdim etish | 400 |
| 16.2. Hisobot va taqdimot muhimligi | 402 |
| 16.3. Hisobot shakli..... | 405 |
| 16.4. Og'zaki taqdimot..... | 411 |

| | |
|--|-----|
| Testlar..... | 418 |
| Glossariy (izohli lug'at) | 442 |
| Tavsiya etiluvchi adabiyotlar ro'yxati | 456 |

Kirish

Zamonoviy innovatsion texnologiyalarni ilm-fan va texnika yutuqlari asosida iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy hamda boshqa sohalarga jadal tadbiq etish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartidir. Prezidentimizning 2018-yil 21 sentabrdagi “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘rasidagi Farmoni” bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqadi [12]. Ushbu muammonni samarali hal etishda joriy yilning 18–19-oktabr kunlari bizning Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston – Rossiya ta’lim forumi” ham katta hissa qo‘shadi.

Bu anjumanning shiori “Yangi iqtisodiyotga yangi kadrlar bilan” bo‘lib, unda Rossiya davlatining 82, O‘zbekistonning 80 ta oliy o‘quv yurilarining rektorlari qatnashdilar, o‘zaro 100 dan ortiq hamkorlik shartnomalar tuzildi. Mamlakatimizning ta’lim tizimida har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashda oldinga qo‘yilgan qadam tariqasida qabul qilinishi mumkin. Ushbu anjumanning Plenar qismida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘ribbosari A.Abduxakimov ma’ruzasida hozirgi kungi yoshlarning 10% oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgani, yana 27% yoshlar o‘qishni xohlayotganini ta’kidlab o’tdi. Xususan, ta’lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada takomillashtirish maqsadida, yoshlarni o‘qishga jalb etishni oshirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham o‘z aksini topdi [14]. Ushbu farmonda ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish ularning yutuqlarini amaliyatga joriy etishning

samarali mexanizmlarini yaratish kabi ustuvor vazafalar va yo'nalishlar belgilab berildi.

Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning muhim ustuvor yo'nalishlariiga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi nutqida Prezident Sh. Mirziyoyev quyidagini ta'kidlab o'tga: "Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlari. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur" [18]. Bu vazifani bajarishda yurtboshimizning 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775 -sonli Qarori aynan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bu borada Oliy ta'lim muassasalarining faol ishtirokini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolayotganligini alohida ta'kidlash lozim [17].

Marketing tadqiqotlari – murakkab va kompleks hisoblanadi. Ko'p tadbirkorlar tomonidan marketing tadqiqotlari deganda, birinchi navbatda har xil so'rovnomalar o'tkazish bilan bog'liq, dala tadqiqotlari tushuniladi. Bizning fikrimizcha, marketing tadqiqotlarining mohiyati korxonalardagi mavjud axborotlarni to'plash va tahlil qilish imkoniyati bilan ifodalanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki – bozor iqtisodiyoti sharoitida axborot va to'plangan ma'lumotlarning hajmi kun sayin oshib borishi, samarali boshqaruv yoki marketing qarorlarini qabul qilish uchun ularni tezkor va sifatli qayta ishlanishi muhim o'rinn egallaydi. Albatta, bu maqsadga erishish borasida rivojlanayotgan axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda marketing tadqiqotlari bilan shug'ullanayotgan kompaniyalar va mutaxassislar, hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar marketing bo'limlari olinayotgan dala ma'lumotlarini tahlil qilishda chegaralangan vositalarni qo'llagan holda, deyarli statistik uslublardan foydalanishrnayapti.

Vaholanki, statistik tahlil ma'lumotlar o'rtasidagi aloqalar va qonuniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababdan, marketing tadqiqotlarida hosil bo'lgan natijalarini, iste'molchilarning ehtiyojini qondirish usullarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish muhim o'rinn tutadi.

Statistik tahlil uslublaridan foydalanish o'zgaruvchanlar o'rtasidagi aloqa mavjudligi haqida gipoteza (tahmin, faraz)ni, mahsulot xususiyatlarining iste'molchilar munosabatlariga ta'siri, iste'molchilarni segmentlashtirish, bezor kon'yunkturasini o'zgarishini prognozlashtirishga o'xshagan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Ushbu qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda zamонави marketologlar nafaqat progressiv uslub va usullardan foydalanish, balki zaruriy ma'lumotlarni to'plash, taxlit etish va ular asosida oqilona qaror qabul qilishda innovatsion iqtisodiyot talablariga rivoja qilishlari zarurdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida "...boshqa davlatlarda mahsulot sotishning yangi bozorlarini izlash bo'yicha boshlangan ishlarni yanada faol davom ettirish kerak" deb ta'kidlab o'tgan edi [27]. Haqiqatdan ham, xalqaro bozorga chiqish uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, dunyo andozalariga mos bo'lishni ta'minlash, hamkorlik rishtalarini o'matish muhim o'rinn egallaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish borasida zamонави bozor talablariga javob beradigan, marketologlarni tayyorlash muhim o'rinn egallaydi.

Hozirgi kunda darslik va o'quv qo'llanmalar miqdori oshmoqda, ayniqsa Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kutubxonasida iqtisodiy adabiyotlar, ularning elektron ko'rinishlari to'la bo'lmasada yetarli darajada mayjud. Ammo, shu narsani ta'kidlash kerakki, qaysidir adabiyotlar tadqiqotlarning ma'lum qisimini jamlagan bo'lsa, bir hillari keng hajmini tashkil etib, ko'proq maxsus tayyorlangan xodimlarga mo'ljallangan. Xorijiy adabiyotlar, ayniqsa, ingliz tilidan rus tiliga o'girish davrida bir xilgi adabiyotlarning mazmuni o'zgarib qolishiga, qolaversa, buning respublikamiz sharoiti, mentaliteti, butun dunyo tan olgan "o'zbek modeli"ga mos emasligi ham haqiqatdir. Boshqa tillardan o'zbek tiliga o'girilganda tarjimonlar tadqiqot qonuniyatlarini to'la ochib bermasligi, adabiyotlarning asosiy – o'rgatuvchi, zaruriy ma'lumot yetkazuvchi – funksiyalarini amalga oshirilmasligiga olib kelmoqda. Bunday muammolarga lotin grafikasidagi adabiyotlar kamligi ham kiradi. Ushbu qo'llanmani yozilishining sababi ham, yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ilk qadamlardan hisoblanadi. Uning asosida to'rt yildan beri universitet magistratura bo'limida "Marketing tadqiqotlarida statistik tafsif" fani bo'yicha o'tilayotgan ma'ruzalar kursi hisoblanadi. O'quv qo'llanmada AQSh va Buyuk Britaniya oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan o'quv standartlari, marketing tadqiqotlarini o'qitish metodikasi, nazariy va amaliy bo'limlarni uzviylashtirish tizimidan foydalanilgan. Taklif etilayotgan o'quv qo'llanmaning tuzilmasi Djordjiya texnologik institutining professori N.Malxotraning "Marketing tadqiqotlari" darsligidan andoza olingan. Ushbu adabiyotdan ma'lum bir ma'lumotlar, keysstadilardan foydalanilgan. Undan tashqari qo'llanmani shakllantirishda AQSh olimlari Aaker D. ning « Стратегическое рыночное управлени » [32], Porter M. ning « Конкурентная стратегия» [47], Rossiyalik Kvinta V.I. ning Toshkentda bo'lib o'tgan ilmiy anjumandagi dokladidan foydalanilgan. Ammo, imkoniyat darajasida, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan

qonunlar, me'yoriy hujjatlar, "Marketing" kafedrasida olib borilayotgan ilmiy – uslubiy ishlammalardan foydalanilgan. Mualliflar tarkibida Samarqand iqtisodiyot va servis hamda Farg'ona politexnika institutlarining professor-o'qituvchilari bo'lganligi sababli hududiy muammolar va ularning yechimlari ham qo'llanmada aks ettirilgan.

"Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil" fani bakalavriaturada o'tilayotgan "Statistika", "Ehtimollar nazariyasi", "Marketing", "Marketingni boshqarish", "Marketing tadqiqotlari", magistratura bosqichida "Iqtisodiy matematik modellar va prognozlashtirish" fanlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, fanlarni o'rghanishda bir biriga yordam beradi.

Qo'llanmada keys-stadilarni yaratishda "Marketing" kafedrasi bilan innovatsion-integratsion hamkorlik qilayotgan "Fayz" xolding kompaniyasi, "O'zavtosanoatservis" korxonalarini tajribalaridan kelib chiqqan statistik, hisobot va kuzatuv materiallaridan foydalanilgan.

"Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil" fani qo'yilgan muammolarni hal qilishga nazariy asos solish bilan birga bo'lajak marketologlarda tahlilni o'tkazishda ixtisoslashgan dasturiy ta'minotlardan foydalanilgan holda, masalan, SPSS statistik dasturiy kompleks, amaliy ko'nikma hesil qilishga ko'maklashadi. Ushbu fanni o'zlashtirishdan so'ng talaba **bilishi kerak**:

- marketing tadqiqotlari sohasida foydalaniladigan bazaviy tushunchalar tizimini, marketing tadqiqotlarining qo'llanilish va o'tkazish tiziminining tasniflanishini, har turdag'i tadqiqotlarning xususiyatlarini;
- kompleks marketing tadqiqotlarini o'tkazish mohiyati va bosqichlar xususiyatini, ularning tayyorlov bosqichlari ketma-ketligini (vazifani qo'yilishini, ularning yechimini tayyorlashi va rejani ishlab chiqish);
- izlanish tadqiqotlarining imkoniyatlari va chegaralarini: ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish, fokus-guruqlar,

chuqurlashgan intervyyu, loyiha texnologiyalariga o'xshagan sifatli tadqiqotlar uslublarini;

- turli uslublar va tadqiqotlar dizayni asosida amalga oshiriladigan ifodalanuvchi ijobiylari salbiy tomonlarini;
- marketing tadqiqotlari orasidagi sababli tadqiqotlari o'mini, ushbu tadqiqotlarning maqsadi tadqiqotlarining va xususiyatlarini, turli xil ko'rnishdagi tajribalarini;
- marketing o'lchovlarini ishlab chiqish prinsiplarini, ma'lum turdag'i o'lchovlarni tanlash va ularning har xil holatdagi foydalanish imkoniyatlarini;
- so'rovnama (anketa) ga qo'yilgan talablarni, alohida savollarni ifodalash qoidalarini, ularning ketma-ketligini joylashtirishni, ko'paytirish va amaliyotda qo'llash prinsiplarini;
- marketing tadqiqotlarini o'tkazishda tanlov o'tkazishning prinsiplarini, uning asosiy bosqichlarining mohiyati va mazmunini;
- dala tadqiqotlarini o'tkazishning asosiy prinsiplarini;
- ma'lumotlarni tahlil qilishga tayyorlash prinsiplarini, ularni qayta ishslashni, statistik uslublaridan qo'llash imkoniyatlarini;
- ma'lumotlarni tahlil qilishdagi chuqurlashgan uslub va usullardan foydalanishda iqtisodiy matematik va statistik modellarni qo'llashni;

ko'nikmaga ega bo'lishi:

- marketing tadqiqotining gipoteza (ilmiy taxmin)sini ifodalash va vazifani qo'ya bilishi, uning yechimini topishda turli yondashuvlarning ustun va kamchiliklarini muhokama qilishni, hamda tadqiqot o'tkazish rejalarini qo'llashni;
- ichki marketing axborotlarini toplash va tahlil qilish muvofiqligini asoslashni;
- har xil holatda tashqi ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanishni baholashni, korxonaning maqsad va vazifalariga mosligini aniqlashni;
- fokus-guruhlarga stsenariylarni ishlab chiqishni, chuqurlashgan so'rov va intervyyu o'tkazishni;

- ifodalanuvchi tadqiqotlarni o'tkazishda uning dizayni va uslublarini tanlashni, axborot – texnologiyalarini qo'llash imkoniyatini yaratuvchi statistik usul va modellarni qo'llashni;
- oddiy-tasodifiy tanlovnini qo'llagan holda so'rov ma'lumotlarining statistik kamchiliklarini baholashni;
- taqqoslash va taqqoslab bo'lmaydigan shkalalashtirishning ustunlik va kamchiliklarini solishtirishni, ularning axborot toplash uslublarini bilishni;
- anketa savollarini ifodalashni, respondentlarning intervyuda qatnashuvini rad etmaslik usullarini bilishni va qo'yilgan savollarga rad etmaslik imkoniyatini yaratishni;
- korxonaning tadqiqot vazifalariga mos bo'lgan ehitimolli va boshqa tanlovnini o'tkazish uslublarini qo'llay olishni;
- oddiy so'rov va tadqiqot natijalarini kompyuterga kiritish maketini yaratishni va bu jarayonni tashkil etishni;
- respondentlar javoblarining ko'rsatkichlarning asosiy tendensiyalari bilan ishlashni turli xil javoblar statsistik tafsiflarini tahlil etishni va tasodifiy hajmlarga baho berishni;
- ma'lumotlarni tashkil etishda samarali chuqurlashgan uslublardan foydalanishni, marketing tadqiqotlarini o'tkazishda zamонавиу ахборот texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqligini asoslashni;
- tadqiqot asosida olingen natijalarni matn shaklida ifodalash va tashqi ko'rinishni tanlashni;

foydalana bilishi:

- marketing tadqiqotlarini o'tkazish zaruratida amaliyotdagи holatlarni aniqlash asosiy prinsiplarni qo'llashni;
- tanqidiy tahlil ko'nikmalari va korxona oldiga qo'yilgan vazifalarga mos tadqiqotlar o'tkazishni bilishi;
- fokus – guruhlarni modellashtirish bazaviy ko'nikmalari, chuqurlashgan intervyu o'tkazish va to'plangan materiallarni tahlil qilishni bilishi;

- test orqali marketing o'tkazish va tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- marketing faoliyatida o'zbekiston iqtisodiyotining resurs va iste'mol tuzilmasini hisobga olish ko'nikmasini shakllantirishi;

"Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda quyidagi shogirdlar ilmiy tadqiqot izlanishlari natijalari bilan ishtirok etishdi va quyidagi qo'llanmaning savollarini yoritishda o'z ulushlarini qo'shishdi: Nabiyeva N.M. 2-bobning 2.1 va 2.2. 11-bobning 11.3-paragraflari; Pardayev O. 3-bobning 3.1 va 3.6, 4-bobning 4.2 va 4.4 paragraflari; Po'latov M. 10 va 15-bob paragraflarini shakllantirishda faoliyat ko'rsatishdi. Ko'llanma texnik ishlarida I.Karimov stipendiyasi sovrindori G'.Alimovning ulushini ham alohida ta'kidlash lozim.

Tavsiya etilayotgan o'quv qo'llanma "Marketing" mutaxassisligida tahsil olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan bo'lsada, marketing tadqiqotlarini o'tkazish, ularning natijalarini tezkor va sifatli qayta ishlash, hamda ular asosida qaror qabul qilish bilan mashg'ul bo'lgan mutaxassislar, tadqiqotchi va amaliyoichilar ham foydalanishlari mumkin. Qo'llanmani boyitish borasidagi takliflar, qo'shimchalar, kamchiliklari haqida mulohazalarni Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, "Marketing" kafedrasi manzilida kutib qolamiz va oldindan minnatdorlik izhor qilamiz.

I BOB. MARKETING TADQIQOTLARIDA STATISTIK TAHLILGA KIRISH

1.1. Marketing tadqiqotlarining asosiy tushunchalari

Marketing tadqiqotlari (marketing research) – marketingning eng muhim va o'ziga xos tomonlarini ifodalovchi jarayon bo'lib, marketing qarorini qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni yetkazib berish asosiy, vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.



Bozorning intensiv rivojlanishi va raqobatning kuchayish davrida korxona yoki boshqa iqtisodiy faoliyat ko'rsatayotgan subyektni samarali boshqarish uchun bozor xususiyatni bilish, uning rivojlanish sur'atlari, holatini baholash, xaridorlarning mahsulot yoki xizmatga bo'lgan ehtiyojlar asosida tezkor boshqaruv qarorini qabul qilish zarur bo'ldi.

Agar korxona atrofidagi bozor muhitini noaniq bo'lmagan kenglik tariqasida qabul qilsak, unda marketologlarning asosiy vazifasi bo'lib ushbu noaniqliklarni doimiy ravishda minimallashtirish, bozor holatini to'g'ri tushungan holda iste'molchi va boshqa qatnashuvchilar harakatini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Ammo bozor, doimiy ravishda o'zgarib borishi, iste'molchilarining xatti-xarakatlari bir

maxal mantiqqa mos emasligi, ularning kayfiyati o'zgarishi yoki boshqa omillar ta'siri asosida sotuv haqidagi qarorlari o'zgarishi, iqtisodiy o'zgarishlar – siyosiy, tashkiliy, ekologik va boshqa omillar ta'sirida barqarorlikni bo'lishiga sabab bo'lishini hayotda o'zgartirib turishimiz mumkin.

Har bir marketinga yo'naltirilgan korxonaning faoliyatini oqilona yuritishda, aniq va samarali qaror qabul qilish uchun quyidagi bilimlar zarur: bozorning salohiyati, resurs bilan ta'minlanganligi, xaridor talabi, ularning hoxish va istaklari, imkoniyatlari, raqobatdoshlarning niyatlari va harakatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Bozorni bilish va undagi jarayonlarga baho bera olish tijorat risklarini, qolaversa, noto'g'ri qaror qabul qilish natijasidagi yo'qotish imkoniyatini kamaytiradi. Buning uchun marketing tadqiqotlariga murajat qilamiz. Quyidagi rasmida marketing tadqiqotlari zarurati aks ettirilgan.



1.1-rasm. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish¹

Har bir iqtisodiy subyektga obyektiv bilimlarni shakllantirish va ularni doimiy ravishda to'ldirib borish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazib turish kerak.

Iqtisodiy adabiyotlar va amaliyotda marketing tadqiqotlariga turlicha ta'riflarni uchratish mumkin. Masalan, AQSh marketing

¹ <http://www.refcity.ru/content/15963.html>

uyushmasining ta'rifi bo'yicha tadqiqotlarning axborot-bog'lovchi roliga alohida urg'u bergen holda, "Marketing tadqiqotlari"ning funksiyasi tariqasida iste'molchilar, mijozlar, jamiyat bilan marketologlar o'rtaida marketing imkoniyatlari va muammolarini qo'yilishi va aniqlanishi uchun axborotlardan foydalanish; marketing faoliyatini baholash va takomillashtirish; marketing faoliyati samaradorligini monitoring qilish; marketingni jarayon tadqiqotidagi tushunchasini rivojlantirish" – deb ifodalangan.²

Amerikalik marketolog Gilbert Cherchill fikri bo'yicha: "Marketing tadqiqotlarini firmani tashqi muhit bilan bog'lab turgan kommunikatsiya ko'lami tariqasida qabul qilish mumkin. Marketing tadqiqotlari asosida kompaniya tashqi muhiti haqida ma'lumotlar to'playdi, qayta ishlaydi va shu asosda o'zining marketing rejalarini ishlab chiqadi, ulardan foydalanadi va samaradorligini baholaydi".³

Zamonaviy marketing asoslaridan biri F.Kotlerning ta'rifi bo'yicha: "Marketing tadqiqotlari deb, turli yo'nalishlarni tizimli ravishda tayyorlash va o'tkazish, kompaniya oldiga qo'yilgan konkret marketing vazifasiga mos bo'lgan natija va xulosalarga ega bo'lish uchun olingan ma'lumotlarni tahlil etish jarayoni"⁴ tushuniladi.




² www. Ama. org

³ Черчиль Г., Браун Т. Маркетинговые исследования. 5 – ус изд. СПб.: Питер, 2014 – 28.6.

⁴ Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. 11-изд. СПб.: Питер, 2013 – 155 6.

O'rganilayotgan qo'llanmaning asosiy amerikalik olimlaridan Neresh K.Malxotra "Marketing tadqiqotlari" amaliy qo'llanmasida quyidagi yondashvuni keltirgan: "Marketing tadqiqotlari deb, marketing muammolari (imkoniyatlari)ni moslashtirish va yechimlarining samaradorligini oshirish uchun axborotlarni tizimli va obyektiv ravishda aniqlash, to'plash, tahlil qilish, tarqatish va foydalanish"⁵, deb e'tirof etilgan.



1.2 - rasm. Marketing tadqiqotlarining o'rni⁶

Rossiya olimlaridan E.P.Golubkov quyidagi yondashuvni ta'kidlab o'tgan: "Korxonalar uchun marketing tadqiqotlarining o'rni – marketing faoliyatining turli ko'rinishlaridagi ma'lumotlarni tizimli ravishda to'plash, aks ettirish va tahlil etib,

⁵ Малхотра Н.К. Маркетинговые исследования. Практ. Ру.во. – М.: ИД "Вильямс", 2012. – 33 б.

⁶ Галицкий, Е.Б. Маркетинговые исследования. теория и практика 2-е изд., пер. и доп. учебник для вузов / Е.Б. Галицкий, Е.Г. Галицкая. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 570 с.

ishlab chiqaruvchilarning bozorlar, iste'molchilar, raqobatchilar, marketingning boshqa tashqi muhit elementlari bilan axborot orqali bog'lashdan iboratdir⁷.

Boshqa rus marketolog D.V.Tyurin fikricha "Marketing tadqiqotlari – bu doimiy ravishda korxonanning ichki va tashqi muhiti haqidagi ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali noaniqlik sharoitida samarali strategik va taktik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqish jarayoniga aytildi", degan⁸.


Marketing tadqiqoti – marketingning ko'zları va quloglaridir.

Marketing tadqiqoti marketingning axborot ehtiyojlarini qondirishi ko'zda tutilgan tadqiqotchilik faoliyati turini ifodalaydi. Marketingning asosiy talablaridan biri bozor «shaffofligi» va uning rivojlanishini «oldindan aytib berish mumkinligi»ni ta'minlash hisoblanadi.

Marketing tadqiqotlari bozor jarayonlari va hodisalari xaqida axborot toplash va qayta ishlash, shuningdek, izlab topish va saqlashdan iborat. U to'plangan materiallarni sistematik tahlil qilish, amaliyatga to'g'ri keladigan nazariy jihatdan asoslangan xulosalar olish va niyoyat, kelajakdagi rivojlanish bashoratini o'z ichiga oladi. Marketing tadqiqoti jarayonida raqobat sharoitlarida marketing qarorlari qabul qilish uchun axboret-tahliliy asoslar yaratiladi. Marketing firma faoliyatini, uning ichki va tashqi muhit elementlarini, kommunikatsiya kanallar tizimini bog'laydi.

⁷ Голубков Е.П. Маркетинговые исследования: теория, методология и практика: учебник. – М.: Финпресс, 2012. -83 б.

⁸ Тюрин Д.В. Маркетинговые исследования: учебник. – М.: "Юрайт", 2013. – 15.6.



Marketing tadqiqoti – marketingning axborot-tahliliy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan har qanday tadqiqotchilik faoliyatidir.

Yuqoridagi ta'riflarga ko'ra biz quyidagicha talqin qilamiz: "Marketing menejerlarga marketing muammolarini o'z vaqtida aniqlash va yechimini topish hisobiga bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun obyektiv ravishda amalga oshirilayotgan o'lichash, toplash, tahlil va axborotni tarqatish jarayoniga marketing tadqiqotlari" deyiladi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif, birinchi navbatda, marketing masalalari bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun, shu sababdan, ushbu fanni o'zlashtiruvchi bakalavriat va magistratura talabalariga yordam beradi, degan umiddamiz. Ularning o'rnini nafaqat marketing tadqiqotlarini o'tkazishda, balki barcha iqtisodiyotimizda tutganligiga alohida urg'u beramiz va keyinchalik ham inson omiliga e'tiborni qaratamiz.

Inson qayerda ishlamasin, hayotda nima bilan mashg'ul bo'lmasin, doimiy ravishda maishiy ehtiyojlarini qondirish borasida marketing tadqiqotlarini o'tkazish zarurati bilan to'qnashadi. Ayniqsa, bozor munosabatlari rivojlana borgan sari, zaruriy tovar yoki xizmat axtarishimiz va tanlashimiz, malisulotlar

tavsiflarini taqqoslash tahlilini o'ikazish, narx-navo monitoringini olib borish zaruratiniz sezamiz.

Shunday qilib, marketing tadqiqotlari doimiy ravishda axborot to'plash, tahlil qilish, qayta ishslash va shular ijrosida qaror qabul qilish tushuniladi. Ushbu natijaviy va to'g'ri qabul qilingan qarorlar korxonaning istiqboliga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Marketing tadqiqotlari tasnifi

Marketing tadqiqotlarining turlari va ularning tasnifi haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, mazkur jarayonning ko'lami juda keng. Ma'lum maqsadlarga ko'ra marketing tadqiqotlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

➤ Razvedka tadqiqotlari – bunday tadqiqotlarning asosiy maqsadi – marketing faoliyatini keng qo'llashda ishlatalib, g'oyalari generatsiyasi va dastlabki axborotlar to'plami, gipotezalarni keltirish va muammolarni chuqurroq o'rGANISH uchun foydalaniadi.

Razvedkali tadqiqotlarning usullariga quyidagilar kiradi:

- ❖ Ikkilamchi axborotlarni tahlili;
- ❖ Tajribani o'rGANISH;
- ❖ Konkret vaziyatlar tahlili;
- ❖ Fokus – guruh ishlaridir.

➤ Yozuvli tadqiqotlar – gipoteza orqali ishlab chiqilgan ma'lum bir voqeanning paydo bo'lish chastotasiga qarab ishlataladi. Yozuvli tadqiqotlarda: Kim?, Nima , Qayerda?, Qachon? va Qanday? savollariga javob olinadi.

Yozuvli tadqiqotlarning asosiy usullari:

- ❖ Ikkilamchi axborotlarni tahlili;
- ❖ Kuzatuv;
- ❖ So'rovlar;
- ❖ Tajribalar.

➤ Kazual tadqiqotlar. U yoki bu hodisaga sabab –oqibat orqali bog'lanish tadqiqotlariga aytildi. Ushbu tadqiqotlar


davomida Nimaga? degan savolga javob olamiz va ishchi gipotezasini tekshirishga yordam beradi.

Kazual tadqiqotlar usuliga quyidagilar kiradi:

- ❖ Mantiqan – ma’noviy modellashtirish;
- ❖ Matematik modellashtirish;
- ❖ Tajribalar.

➤ Tajribali. (eksperimental). Ushbu tadqiqot turi yuqorida ta’kidlangan bo‘lsada, u tadqiq qilinayotgan bir xil turdag'i guruhlarning har xil turdag'i o‘zgarishlardagi qarashlar o‘rganiladi. Bunda birlamchi axborotlardan foydalaniлади.

Tajribaning asosiy usullari quyidagilar:



- ❖ laboratoriya sharoitida;
- ❖ dala tadqiqotlarida.

Undan tashqari, marketing tadqiqotlari bir necha turlarga tasniflanadi. Masalan, vaqt-i-vaqt bilan o’tkaziladigan tadqiqotlarga:

- Bir martalik – bir marotaba o’tkaziladi;
- “to’lqinli” – to’lqinlar o’rtasida odatda bir xil vaqtida o’tkaziladi;
- Bevosita – uzoq vaqt ichida doimiy o’tkaziladigan tadqiqotlar.

Shuningdek, ma'lum maqsadlarga ko'ra marketing tadqiqotlari bir qancha yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- bozorni tadqiq qiladi;
- iste'molni va iste'molchilarni tadqiq qiladi;
- ishlab chiqarayotgan tovar (xizmat)ni tadqiq qiladi;
- tovar (xizmat)ning bahosini tadqiq qiladi;
- raqobatdosh korxonalarini tadqiq qiladi.

Ushbu yo'nalishlarning hammasida marketing tadqiqoti o'tkaziladi va mazkur jarayonda uning turli xillaridan foydalaniлади. Biroq shunday turlari borki, ular nisbatan umumiyligiga ega bo'lganlar. Bular qaysi korxonalar uchun ishtirok etishi mumkin. Bularga quyidagi dasturiy kiritish mumkin (1.1-jadval).

Marketing tadqiqotining mazkur turlari xo'jalik yurituvchi subyektlar marketologlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu tufayli marketologlar qanday darajadagi korxona bo'lmasin tadqiqot elementlarini va uni o'tkazish usullarini yaxshi bilishlari lozim. Chunki yuqori samaradorlikni ta'minlash va bozorda o'z o'rni va aholi o'rtasida nufuzini mustahkamlab borishi uchun mazkur korxonadagi mutaxassislar ushbu talablarga javob beradigan bo'lishlari kerak.

1.1-jadval

Marketing tadqiqotlari ayrim belgilari bo'yicha tasnifi⁹

| Tasnifiy belgilari | Tadqiqotlarning turlari |
|---|---|
| Marketing tadqiqotlarini o'tkazish usuli bo'yicha | Kabinet tadqiqotlari Dala tadqiqotlari |
| Tadqiqotning maqsadi bo'yicha | Qidiruv tadqiqotlari Yozib boruvchi tadqiqotlar Tahlil qiluvchi tadqiqotlar |
| Axborotlarni to'plash xarakteri bo'yicha | Miqdoriy tadqiqotlar Sifat tadqiqotlar |

⁹ Герасимов, Б.И. Маркетинговые исследования рынка: Учебное пособие / Б.И. Герасимов, Н.Н. Мозгов. - М.: Форум, 2013. - 336 с.

Marketing tadqiqotlari turining har biri bo'yicha qisqacha tavsifini keltirish uchun har bir turining mazmuni bilan tanishish, ulardan qay darajada foydalanish uchun imkoniyat beradi. Chunki har bir tadqiqot turi ma'lum bir turdag'i korxonalarga mo'ljallanishi mumkin. Chunki korxonalar turlari ko'p bo'lganligi uchun, ba'zi korxonalarga bir marotabalik tadqiqotlarning o'zi ham yetadi, ba'zilarga esa doimiy tarzda tadqiqotlar o'tkazilishi tavsiya etiladi. Shu maqsadda har birining qisqacha tavsifini keltiramiz (1.2-jadval).

1.2-jadval

Marketing tadqiqotlari turlari va ularning tavsifi¹⁰

| Marketing tadqiqotlarining turiari | Marketing tadqiqotlarining mazmuni |
|------------------------------------|---|
| Kabinet tadqiqotlari | Tayyor holdagi ikkilamchi ma'lumotlar (nashr qilingan, oldindan hisobot va boshqa shakkarda tayyorlangan) asosida kabinetda o'tkaziladigan tadqiqotlar. |
| Dala tadqiqotlari | Hamisha ikkilamchi ma'lumotlar tadqiqotlar uchun yetarli bo'lganiga turli so'rovlar, kuzatishlar, anketalar va tajribalar yordamida birlamchi ma'lumotlarni to'plash. |
| Qidiruv tadqiqotlari | Muammoga chuqur kirib borish va uni hal qilishning mukammal yo'llarini ishlab chiqish maqsadida tegishli ma'lumotlarni va g'oyalarni to'plash. |
| Yozib boriluvchi tadqiqotlar | Bevosita bozorda sodir bo'ladigan hodisalarни yozib borish asosida vaziyatni o'rGANISH va ularni tizimlashtirish orqali tegishli strategiyani ishlab chiqish |
| Tahliliy tadqiqotlar | Natijaning ijobiy yoki salbiy holati nimalar evaziga sodir bo'lganligini tegishli dalillar asosida chuqur o'rGANISH. |
| Miqdoriy tadqiqotlar | Turli tahliliy usullardan foydalangan holda |

¹⁰ Карасев, А.П. Маркетинговые исследования и ситуационный анализ: Учебник и практикум / А.П. Карасев. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 323 с.

| | |
|--------------------|---|
| | kim, qayerda, qachon va qancha degan savollarga javob topish uchun qilinishi. |
| Sifat tadqiqotlari | Turli tahliliy usullardan foydalangan holda nima, qanday, nima uchun degan savollarga javob sifatiy baholash maqsadida chuqur tahliliy ishlarni amalga oshirish |

Ushbu holatlar marketing sohasining shu qirrasini bo'yicha batafsil xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Chunki ularning har bir turi tegishli tarzda tadqiq qilinadi. Bunday holatda bemalol marketing tadqiqoti natijasi asosida marketing strategiyasini ishlab chiqish mumkin.

1.3. Marketing tadqiqotlari jarayoni va yo'nalishlari

Bugungi kunga kelib, real sektor korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlarini joriy qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad, ishlab chiqarish rivojining yangi hamda zamонави shaklga keltirishga, iste'molchilarning xulq-atvori, didi, raqobatchilar va bozor kon'yunkturasini o'r ganishga qaratilgan amaliy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Korxonalar tomonidan marketing tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonida qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish yuzaga kelgan vaziyat sabablarini aniqlash va tushuntirib berish bo'yicha harakatlar keng doirasini hal qilish, shuningdek, firmaning raqobat ustunliklarini ta'minlashga yo'naltirilgan muayyan choratadbirlar taklif qilishga imkon beradi. Bu borada marketing tadqiqotlariga bo'lgan vazifalarni ko'rib chiqamiz. (1.3 – rasm).

Real sektor korxonalarida marketing tadqiqotlarining asosiy maqsadi, uning vujudga kelish, shakllanish va rivojlanishning obyektiv sabablari, zarurati bilan belgilandi, hamda uning maqsadi nixoyatda keng va murakkab masalalarni hal qilishga qaratilgandir. U ishlab chiqarishni xaridor ehtiyojiga moslashtirib, talab va taklifni muvozanatiga erishgan holda, uni tashkil etgan korxona, tashkilotlarga yuqori foyda keltirishdir.

Marketing faoliyati ko'lami jihatidan juda keng va murakkab jarayon. Ushbu jarayonning juda ko'p yo'nalishlari mavjud. Uning asosiy yo'nalishlaridan **biri ichki marketingdir**. Bu bitta mamlakat ichida amalga oshiriladigan marketing bo'lib hisoblanadi. Uning ham ikkita turi mavjud: mahalliy va butun mamlakat miqyosida. Bunda marketing tаддиқотлари shu doirada olib borildi.

- haridorlar (iste'molchilar) ehtiyojini o'rghanish
- tovariaga bo'lgan ichki va tashqi talablarni o'rghanish
- korxonanig faoliyatini haridorlar ehtiyojiga moslashtirish
- tahab va taklif to'g'risidagi olingan ma'lumotlar asosida bozorni o'rghanish
- tovarlar reklamasini rashkil etib, haridorlarni tovarlarni sotib olishga qiziqishini oshirish
- tovar yaratuvchi yoki uni sotuvchi korxona taddiqotlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash va tahbil qilish
- tovari bozorga chiqarishdagi barcha xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar olish
- to'ldiruvchi tovarlar va o'rnni bosuvchi tovarlar to'g'risida axborotlar vig'ish
- tovariarga bo'lgan talabni istiqbollash, ularni amalga oshirishni nazorat qilish

1.3-rasm. Marketing taddiqotlarini o'tkazishda qo'yiladigan vazifalar¹¹

Ikkinchchi yo'nalish bu xalqaro **marketing** bo'lib hisoblanadi. Bunda kompaniya ishlab chiqarilgan mahsulotini (xizmatini) eksport qilish orqali amalga oshiradi. Bunda tovari sotish marketingi bilan bevosita tovari sotib olgan mamlakat sotuvchilari shug'ullanadi.


Uchinchi yo'nalish **integratsiyalashgan marketing** bo'lib hisoblanadi. Bunda bir mamlakat firmasi (korxonasi, kompaniyasi) boshqa mamlakatlarda o'zlarining filiallarini, savdo uylarini ochib boshqa mamlakatlarda o'zları sotishni amalga

¹¹ Манба: Ўрганишган адабиётларга асосан муаллифлар томонидан тузилиди.

oshiradi. Bunga ko'pincha transmilliy kompaniyalarni misol keltirish mumkin.

To'rtinchi yo'naliш global marketing bo'lib hisoblanadi. Bunda nafaqat kompaniyaning mahsuloti (xizmati) ishtirok etadi, balki ish kuchi va kapital ham birgalikda olib boriladi. Bunda ushbu boyliklarning butun dunyo bo'ylab sotilishi amalga oshiriladi. Mos ravishda, marketing ham faqat tovar (xizmat) bilan cheklanib qolmasdan ish kuchi va kapital harakati bilan ham shug'ullanadi.

Ushbu yo'naliшlarning hammasi pirovardida marketing tadqiqotlari obyekti bo'lib hisoblanadi. Bunda marketingning asosiy quroli axborot bo'lib hisoblanadi. Marketing mos ravishda shu axborotlarga asosan iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchilar o'rtaсиda tovar (xizmat)lar orqali ularning oldi-sotdi munosabatlарini o'rnatadi.



Yuqorida ta'kidlanganidek, zamonaviy kompaniyalar tovarlarini bitta hudud yoki bitta mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda, imkonni bo'lsa global mashtabda sotishga harakat qilish kerak. Buning uchun esa, marketologlar bozorni muttasil o'rganib borishi lozim.

Shuningdek, marketing tadqiqotlari asosiy yo'naliшlarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, bularni tadqiq qilganda ushbu

jarayonning hamma yo'nalishlari bo'yicha samaradorligini inobatga olishni taqozo qiladi. Bu yo'nalishlar sotuvchining ham, oluvchining ham manfaatlariga zid bo'lmasligini taqozo qiladi.

Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda barcha yo'nalishlar kabi, ularni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'rganish lozim bo'ladi. Bularga reklama, sotish jarayoni, sotuvchining mas'uliyati, xaridorlining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, tovarning xususiyatlari, tovarning sotilish jarayoni va unda bozorning ahvolini inobatga olish kabilarni kiritish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida marketing tadqiqotlari keng doiradagi subyekt va obyektlarni o'z ichiga qamrab oladi. Marketing tadqiqotlarining yo'nalishlari turli – tuman bo'lib, 100 dan ortiq turini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yo'nalishlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1.3-jadval).

1.3-jadval

Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tasniflanishi

| t/r | Tadqiqotlar yo'nalishi (obyekt) | Tadqiqot savollari |
|-----|------------------------------------|---|
| 1. | Bozor | <ul style="list-style-type: none"> • Kon'yunktura • Tarkibi, geografik jihatlar • Maqsadli bozorni tanlash • Bozor hajmini prognozlash |
| 2. | Tovar | <ul style="list-style-type: none"> • Assortiment siyosati • Pozitsiyalash (o'rnini belgilash) • Sifat • Raqobatbardoshlik • Tovar – analog va raqobatchi tovarlarning iste'mol xususiyatlari • Tovarning tashqi ko'rinishi, dizayni, markalash, servis darajasining zamonaviy bozor talablariga muvofiq bo'lishi • Yangi tovarlar g'oyasini ro'plash |

| | | |
|----|-----------------------|--|
| | | <ul style="list-style-type: none"> • Tovar harakatining turli tizimlarini solishtirish • Tovar ishlab chiqaruvchilar, vositachilar, bo'lajak iste'molchilar, savdogarlar, raqobatchilar, bo'lajak iste'molchilar o'rni. |
| 3. | Iste'molchilar | <ul style="list-style-type: none"> • Tovar bilan ta'minlanganlik darajasi • Iste'mol tarkibi va tendensiyasi • Tovarni tanlash va xarid etishga ta'sir etuvchi asesiy omillari |
| 4. | Raqobatchilar | <ul style="list-style-type: none"> • Potensial (bo'lajak) raqobatchilarni aniqlash • Raqobatchilarning bozor ulushini egallashi • Raqobatchilarning moddiy va moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash • Raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlari |
| 5. | Narxlar | <ul style="list-style-type: none"> • Narxga nishbatan iste'molchilarning munosabati • Tovarlar narxi va talab o'rtasidagi bog'liqlik • Narx hajmiga ta'sir etuvchi omillar • Tevarning hayotiy siklining turli bosqichlariga narx siyosatini bashorat qilish |
| 6. | Kommunikativ aloqalar | <ul style="list-style-type: none"> • Reklamaning holati, rivojlanishi va samaradorligi • Tovar mahsulotiga talabni shakllantirish • Sotuvni rag'batlantirish uslub va usullari • Shaxsiy sotuvlarni tashkil etish va olib borish • Jamiyat bilan aloqani tashkil etish va amalga oshirish |

| | | |
|----|------------------------|---|
| 7. | Savdoni tashkili etish | <ul style="list-style-type: none"> • Magsadli bozor • Bozor sig‘imi • Savdo shakllari • Savdo uslublari va usuliari • Savdo korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar • Tovar sotuvining ombor va tranzit shakllari o‘rtasidagi munosabat. |
| 8. | Vositachilar | <ul style="list-style-type: none"> • Savdo korxonalari faoliyati haqida iste’molchilar va vositachilar fikri • Kreditning lizing, muddatga belgilangan va boshqa shakllari • Savdo vositachilari va agentlari va yokazolar. |

Bugungi kunda barcha tovar ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar va shu bilan birga boshqa soha xodimlari ham marketing nuqtai nazaridan fikrlay olishlari va undan samarali foydalanishlari lozim. Shu o‘rinda ushbu yo‘nalishlardan foydalanish sohasida marketing elementlaridan keng foydalanishni ko‘zda tutish lozim. Masalan, marketing vositalarini olamiz.

Marketing-miks 4P ahamiyati. Marketing tizimida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun xaridorlar va boshqa subyektlarga ta’sir etish uchun marketing vositalari, ya’ni marketing usullari yig‘indisi, uslublari zarurdir. Shunday vositalardan marketing-miks, marketing kompleksi hisoblanadi. Bularni marketing nazariyasiga 1964-yilda birinchi bo‘lib Garvard biznes maktabi professori Borden kiritgan. Marketologlar tayyorlash tizimida marketing kompleksi 4 “R” deb nomlanib, bu model Makkarti tomonidan 1960-yilda taklif etilgan. Ushbu modelda marketingning to‘rtta asosiy elementlari ajratib ko‘rsatilgan: tovar (product), narx (price), sotish (place), reklama-rag‘atlantirish (promotion).



Marketing faoliyatida ehtiyoj va muhtojlikni ayirboshlash orgali qondirish jarayonida albatta inson ishtirok etadi. Shuning uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan marketing elementlari tarkibiga 5 "R" ham kiritilib, u kishilar (people) ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgandir.

1968-yilda F.Kotler marketing-miks elementlari tarkibiga pablik-rileyshnz (public relations) va siyosatni (politics) qo'shib, oldingi 4 "R" ni 6 "R" ga kengaytirib ko'rsatdi.

4 "R" modelini qo'llanishini cheklanganligiga qaramasdan, marketing nazariyasini shakllanishi va amaliyotini rivojlanishida ilg'or rol o'yaydi.


Marketing-miks keng qo'llanadigan shaklda 4 ta marketing submikslari o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar: tovar miksi, shartnoma miksi, kommunikativ miks, taqsimot miksi. Tovar miksi tovar siyosatini shakllantiradi, tovar bilan bog'lik bo'lgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar: dizayn, uni bezatilishi, mahsulot sifati, o'rovi, xaridorlrga xizmat ko'rsatish, kafolat xizmati siyosati, tovar diversifikatsiyasi, assortment siyosati va hokazo.

1.4. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning ahamiyati

O'zbekiston bozorida ishtirok etayotgan yirik korxonalarining marketing bo'limlari hamda marketing tadqiqotlarini o'tkazishga ixtisoslashgan tashkilotlar amaliyotdagi mavjud ma'lumotlarni

toplash ularni qayta ishslash va boshqaruv yoki marketing qarorini qabul qilishga chegaralangan vosita va uslublardan, ma'lum holatda statistika apparatidan foydalanilmagan holda amalga oshirilib kelinmoqda. Bunday holat oqilonqa qaror qabul qilish muddatini cho'zish va raqobat bozorida muvoffaqiyatsizlikka olib keladi. Ma'lumki statistika tahlili ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik va qonuniyatlarini ochib berishga, ularning o'zaro nazaridan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tahlillarni statistik uslublar yordamida muvoffaqiyatlari amalga oshirish o'zgaruvchanlar o'rtasidagi aloqalar to'g'risidagi gipoteza (tahlili)ni isbotlab berish ushbu aloqalarga baho berish, iste'molchiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulot yoki xizmatning ma'lum taraflarini o'rganish, iste'molchilarini segmentlarga taqsimlash, bozor kon'yunkturasini o'rganishni istiqbolini belgilash imkoniyatini hosil qiladi.



Marketing borasida qaror qabul qilishni quvvatlovchi quiytizimga ega bo'lgan zaruratning kelgusida ham ortib borishi tabiiydir. Chunki axborot ko'lami va miqdorining nihoyat ko'pligi va uni boshqarishga sarflanadigan vaqtini tejash muhim ahamiyatga ega. Statistik va matematik modellar balki vositasida esa axborotni qayta ishslash va qaror qabul qilishda nisbatan kam hatoga yo'l qo'yiladi hamda jarayon tezlashadi.

Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan statistik tahlilni o'rganishga fan sifatida yondoshmoq lozim. Bu fanning obyekti marketing jarayonlarini tadqiq qilishdan iboratdir. Ushbu o'rganilayotgan obyektni murakkab iqtisodiy jarayonlar

majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqliklidan kelib chiqib, ularni o'rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelishni taqozo qiladi. Mazkur jarayonda amalga oshiriladigan amallar marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning sistemali (tizimi) yondashish metodologiyasini tashkil qiladi.



Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning metodologik asoslarini o'rganish uchun, unda qo'llaniladigan falsafiy kategoriyalarning qisqacha mazmuniga shu fan nuqtai nazaridan qarashni taqozo qiladi. Chunki falsafiy kategoriyalar jamiyat va tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarish va jarayonlarni o'rganishda qo'llaniladi. Marketing tadqiqotlari ham jamiyatda sodir bo'lган va bo'ладиган товарларни (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bularni raqamlarda ifodalab, statistik va tahliliy usullardan foydalangan holda tahlil qilish masalasi o'ta dolzarb va muhim bo'lib hisoblanadi. Endi marketing tadqiqotlarida statistik tahlil metodologiyasi tasnifi va tavsifiga e'tiborni qaratamiz. Ushbu kategoriyalarning yo'nalishlarini quyidagi jadvaldagi singari ifodalash mumkin (1.4-jadval).

1.4-jadval

Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil metodologiyasining tasnifi va tavsifi

| Falsafiy kategoriyalar | Falsafiy kategoriyalarning mazmuni |
|--|--|
| 1. Induksiya va deduksiya | |
| Induksiya | Xususiylikdan umumiyligiga, omillardan natijaga qarab o'rganish tushuniladi. |
| Deduksiya | Umumiylidan xususiylikga, natijadan omiga qarab o'rganish tushuniladi. |
| 2. Makon va zamon | |
| Makon | Korxonalar, firmalar kabi xo'jalik yurituvchi subyektlardan va marketing, menejment, boshqaruv kabi jarayonlardan iborat |
| Zamon | Tahlil qilinadigan davrlar (oy, chorak, yarim yillik va yillik) |
| Analiz va sintez (Tahlil va umumlashtirish) | |
| Tahlil (analiz) | Hisobot yilining natijasi choraklari, oylari bo'yicha o'rganilsa, korxona faoliyatini alohida bo'linmalari bo'yicha o'rganish tahlilni tashkil qiladi. Tahlilda umumiyni bo'laklarga bo'lib o'rganish tushuniladi. |
| Umumlashtirish (sintez) | Hisobot yilining umumiyligi natijasini alohida chorak va oylarini tahlil qilib umumlashtirish bo'yicha o'rganilsa, korxona umumiyligi natijasini alohida bo'linmalari bo'yicha o'rganib umumlashtiriladi. |
| Sabab va oqibat | |
| Sabab | Tahlilda omillardan iborat, deb qabul qilingan. Masalan, mahsulot hajmining |

| | |
|---------------|--|
| | o'zgarishiga xodimlar soni, mehnat unumдорligi, ish vaqt, kabilar ta'sir qiladi. Bular mahsulot hajmining o'zgarishiga sabablardir. |
| Oqibat | Natija, ya'ni mahsulot hajmi. Omillar ta'sirida oqibati yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. |
| | Shakl va mazmun |
| Shakl | Mahsulot turi. Masalan non mahsuloti. |
| Mazmun | Uning sifati, tarkibi, ya'ni uning navlar bo'yicha turlari (oliy, birinchi, ikkinchi va h.k.) va xomashyo tarkibi bo'yicha turlari (bug'doy noni, arpa noni, makkajo'xori noni kabilalar). |
| | Miqdor va sifat |
| Miqdor | Iqtisodiy ko'rsatkichlardan Foyda. Hajm ko'rsatkichlaridan yetishtirilgan yalpi paxta. |
| Sifat | Iqtisodiy sifat ko'rsatkichlaridan biri rentabellik. Paxtadan tolaning chiqishi kabilarni misol keltirish mumkin. |

Endi mazkur tasniflarning har birini nazariy va metodologik jihatdan qarab chiqish ushbu fanning mazmunini to'liq ochib berish imkonini beradi. Chunki marketing tadqiqotlarida statistik tahlilni amalga oshirishda yuqorida barcha kategoriyalardan to'liq foydalanishga to'g'ri keladi.

Induksiya va dedukiya kategoriyalari marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu kategoriylar marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan, Induksiya deganda o'r ganilayotgan obyektning xususiylikdan umumiyligka qarab o'r ganilishi tushuniladi. Bunga misol qilib sotilgan tovarlar

hajmining tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak uni bir soatda qancha sotilgan, bir kunlik, o'n kunlik, bir oylik, bir choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik, bir yillik oboroti qanday bo'lganligining darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko'rsatkichni makon nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, oldin bir kishining sotgan mahsulotini, bir bo'linmanikini va butun mehnat jamoasining umumiyligi sotgan mahsuloti miqdorigacha o'rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan obyekt umumiyligidan xususiylig sari, ya'ni umumiyligi ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada marketingni yaxshi yo'lga qo'yish natijasida olingan foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko'rsatkich oldin butun birlashma bo'yicha o'rganiladi, so'ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo'yicha, ularning alohida bo'linmalari bo'yicha ketma-kethikda o'rganilib, umumiyligi qaysi bug'in va bo'linmalarning ijobiy yoki salbiy ta'sir qilganligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Makon va **zamon** kategoriyalari ham marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo'jalik yurituvchi subyektda) ma'lum bir zamon doirasida (bir davr, vaqt mobaynida) sodir bo'ladi. Shu tufayli zamonning o'tishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natija boshqacha bo'lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining obyekti. Zamon deganda esa, ularning ma'lum bir hisobot davri tushuniladi. Makonda sodir bo'lgan jarayonlar ma'lum bir hisobot davri (zamon) o'tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma'lumot manbai bo'lib hisoblanadi.

Makon va zamon o'rtaсидаги hamda ularning amaliyot bilan bog'liqligini ifodalash uchun odatda korxonada sodir bo'lган marketing jarayonлари natijasini ma'lum davrlar bo'yicha dinamikada o'рганиш орқали erishish mumkin.

Analiz va sintez, ya'ni tahlil va umulashтириш kategoriysi ham marketing tadqiqotларida statistik tahlilning metodologik asoslaridan biri hisobланади. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'рганиш tushuniлади. Umumlashtирish (sintez) esa o'рганилайотган obyekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalанилади. Unda obyektning barcha bo'lakлari bo'yicha tahlil natijasida qilingan xulosalar asosida umumlashtирilади.

O'рганилайотган obyekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtирilади. Tahlil bor joyda umumlashtирish, umumlashtирish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriylar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qaralади. Bundan marketing tadqiqotларida statistik tahlilni amalga oshirishda ham bevosita foydalанилади.

Sabab va oqibat kategoriysi ham falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib, bevosita marketing tadqiqotларida statistik tahlilning metodologik asosi sifatida ham namoyon bo'ladi. Marketing tadqiqotларida statistik tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko'rsatkich natija ko'rsatkichi bo'lib hisobланади. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar bor. Bu sabablarni marketing tadqiqotлари statistik tahlilida omillar deb qaralади.


Sabab orqali oqibat yuzaga keladi. Xuddi shunday natijaning ham shakllanishiga bevosita omillar ta'sir qiladi. Ijobiy sabablar (omillar) yaxshi oqibatga, shuningdek, ijobiy omillar yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta'siri natijaning pasayishiga olib keladi. Shu

tufayli tahlil jarayonida natija ko'rsatkichlariga omillar ta'sirini batafsil o'rganishga to'g'ri keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, marketing tadqiqotlarida statistik tahlilga ham aloqadordir. Shaklning o'zgarishi mazmun o'zgarishiga, mazmunning o'zgarishi shakl o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog'liqlik juda yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroli va chidamli bo'lishi uchun, unga qimmatbaho materiallar, turli bezaklar ishlataladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimatliligi bilan o'zgaradi. Yoki oddiy material o'miga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo'lsa albatta shakli ham o'zgaradi.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham marketing tadqiqotlarda statistik tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Masałan, korxonada band bo'lgan hodimlar soni miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, ularning mehnat unumдорligi sifat ko'rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko'rsatkichidir.

Hozirgi kunda marketing tadqiqotlarida statistik tahlilni o'rganishda yangi uslub va texnologiyalardan foydalanish ixtisoslashgan dasturiy ta'minotni joriy etish, masalan, SPSS statistik dasturiy majmuani qo'llashni taqozo etadi.



1.4-rasm. Marketing tadqiqotlar jarayonida foydalananligidan statistik tahlil usullari

Anketadagi savollar va javoblarni kodlashtirish sxemasi ishlab chiqiladi. Anketa so'rovnomalari o'tkazgan interv'yulardan olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda tadqiqotchi

anketadagi savol va javoblardan kodlashtiradi SPSS tomonidan o'rnatilgan talablarga muvofiqlashtiriladi. O'tkazilayotgan tadqiqot davrida ma'lumotlar kiritilishi SPSS dasturida emas, balki boshqa dastur asosida masalan, Mikrasoft Assesni qo'llanganda, maxsuslashtirilgan ma'lumotlar bazasini shakillantirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Mavjud bo'lgan anketalarini kodlashtirish tizimidan foydalanigan holda kompyuterda dala ishlari o'tkazish jarayonida to'ldirilgan anketalar kiritiladi va SPSS formatidagi dastlabgi ma'lumotlar bazasi yaratiladi.

SPSS ga kiritilayotgan ma'lumotlar bazasini yakuni shakllangan holati keyingi bosqichda amalga oshirilib, o'zgaruvchilarga va ularning mohiyatiga bir xil belgilarni taqsimlanadi hamda olingan fayllar tizimlashadi. Shu bilan statistik tahlilga zarur bo'lgan ma'lumotlarga fayllar tayyorlanishi yakunlanadi.

1.5. Marketing tadqiqotlarining statistik ta'minoti

Marketing tadqiqotlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bo'lib statistik metodologiyadan keng foydalanish hisoblanadi. Marketing statistikasini umumiylashtirish, nazariyasi va ekonometrikadan keng ravishda foydalanib miqdorlarning absolют, о'рта ва nisbiy qiymati topiladi; variatsiya qatorlar tahlili, tasniflash va guruhlashtirish; indeks usullari; dispersiya tahlili; omili tahlil; ekspert baholash uslubi; korrelyatsiya tahlili; regressiya tahlili; chizma tahlil usullari; ko'p omilli strategik modellar; dinamik qator tahlili; kazual tahlil usullari va boshqalardan keng foydalaniladi.

Marketing iqtisodiyotga o'xshab ko'p parametrlari tizim tariqasida tasavvur qilmoq, uni tadqiq qilishga ko'p omilli statistik tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. Marketing tahlilini o'tkazish ko'p uslublari statistika uslublariga tayangan holda amalga oshiriladi. Masalan, mahsulotlarni bozordagi o'rmini belgilashda statistik guruhlashtirish uslublari asosida amalga oshiriladi. Segmentlashtirish ham statistik guruhlashtirishning turi hisoblanib, uning natijasida iste'molchilarining sifatli bir guruhga mansub bo'lganlar shakllanadi. Menejment tadqiqotlarida quyidagi statistik tahlilning uslublarida foydalaniladi:

1. Statistik ko'rsatkichlarni tuzish.

Hozirgi kunda mahsulot yoki brendning raqobatdoshlik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish vazifasi muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa dolzarb va qiziqarli vazifalardan biri reytingni tuzish hisoblanib ekspertlar baholash orqali ballar tartibli shakillar asosida qo'llaniladi.

2. Struktura (tuzilma)ning tahlil etish.

Marketing tadqiqtolarida tovar aylanish strukturasi, daromadni, foydani, sarflarni, iste'molchilarni, savdo korxonalarini va boshqalarni tahlili o'tkaziladi. Ushbu tahliliga talab iste'mol, sotuv, tovar aylanishining notekisligi tovar yoki xizmatning hayot siklining bosqichlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar keltiriladi.

3. Guruhlashtirish.

Marketing tadqiqtolarida statistik guruhlashtirish uslubidan keng foydalananib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida, bozorni segmentlarga taqsimlanishini keltirishimiz mumkin. Marketingda segmentlashtirish asosan iste'molchilarining tavsifi hamda mahsulot xizmatning xususiyati bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Tasniflash.

Statistikada qabul qilinishi bo'yicha tasniflash obyektlarni ma'lum bir sinfga mansubligini ko'rsatadi. Tovar yoki xizmatning ko'p darajali, ierarxik tasniflanishi assortiment yoki xilma – xillik darajasini ifodalaydi. Amalda tasniflash iste'molchilarining tavsifiga qarab segmentlashtirishning bir xilligi va yakunlovchi bosqichini aks etadi. Marketingda ushbu usul segmentatsiyasi tariqasida qabul qilingan.

5. Tanlovni o'tkazish.

Marketing tadqiqtolarida marketing muhiti holatini o'rganish jarayonidagi birlamichi ma'lumotlarni qo'llashda tanlov uslubi muhim o'rinni egallaydi. Tanlov kuzatuv obyektlari tariqasida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, raqobatchilar va boshqalar qabul qilingan. Tanlov uslubini qo'llashning bir yo'nalishlaridan biri iste'mol fanini yoki fokus guruhlarga kiruvchi zaruriy respondentlar miqdorini hisoblash hisoblanadi.

6. O'zaro bog'liqlikni tahlil etish.

Marketing tadqiqtari jumladan kazual tahlilini o'tkazishda keng foydalanimlib darajali korrelyatsiya uslublar asosida

respondentlarning solishtirma tahlili amalga oshiriladi. Iste'molchilarining tavsiyalarini iste'mol tanloviga ta'sir ko'rsatishini tahlilida keng foydalaniladi, ushbu ma'lumotlar asosida ta'sir ko'rsatish va dispersiya tahlili amalga oshiriladi.

7. Ko'p o'chamli tahlil uslublari va ko'p o'chamli ma'lumotlarni ko'rsatish.

Ko'p o'chamli tahlil uslublari marketing tadqiqotlarining zamonaviy vazifalarida bo'lish tovar siyosatini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ko'p o'chamli ma'lumotlarni ko'rsatish raqobat o'rnini belgilash va iste'molchilarini segmentlantirishda foydalaniladi. Mahsulot xizmatining bozordagi raqobatdoshligini tahlil qilganda tovari o'rinni egallash xaritasidan foydalaniladi. Ushbu xarita belgilar masofani, hajmini kamaytirish natijasida shakllanadi.

8. Variatsiya qatorlarini tahlili.

Variatsiya qatorlari – raqobatdoshlik darajasini hisoblash, iste'molchining va turli iste'molchilarga sotuvning notekisligini tahlil etishni asosi hisoblanadi. ABS – tahlilini o'tkazish funksional qiymat tahlilini amalga oshirishda ushbu uslub keng foydalaniladi.

9. Dinamika va prognozlashtirish tahlili.

Marketing tadqiqotlarini olib borishda indeks uslubi, progressiya tahlili, o'sish templarini tahlil etishga o'xshagan uslublardan keng foydalaniladi. Dinamika deganda nafaqat o'sish balki pasayish holati ham aks etadi. Hozirgi kunda bozor jarayonlari dinamikaning modellashtirish yoki iste'molchilar tomonidan tovari man etish jarayonini o'rGANISH muhim o'rIN egallaydi.

10. Marketing va statistika.

Statistika metodologiyasi va marketing vazifalari alohida marketing – statistika shakllanib marketing tadqiqotlarini vazifasini yechim topishiga yo'naltirilgan amaliy statistika bo'lishi tariqasida xizmat qiladi. Tavsiya qilinayotgan o'quv qo'llanmaning ham asosiy vazifasi tariqasida marketing tadqiqotlarida statistik uslublardan unumli foydalanish bo'lib xizmat qilsa, o'quvchi tomonidan matematika modellashtirish hamda marketing fanlarini chuqur o'rGANISHNI taqazo qiladi.

Marketing tadqiqotlari mahsulotni ishlab chiqarishdan tortib to bozorga chiqib ketgunga qadar bosqichlarni o'rganish va undagi ustunlik va muammolarni ajratish bo'lajak strategik rejalarini ishlab chiqarish va uni amalda tadbiq etishdan iborat. Bu borada mahsulot statistikasi quyidagi vazifalarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan bo'linmalardan iborat:

1. Mahsulotni absolyut va nisbiy baholash;
2. Tovarning xilma – xilligini tahlili;
3. Mahsulotni ishlab chiqish;
4. Tovar bo'yicha marketing qarorini qabul qilishga etuvchi omillar va sharoitlar tahlili;

5. Iste'molchilar hulqi va ular talablarining tahlili;

6. Mahsulot yoki korxonaning bozordagi o'rmini tahlili;

O'quv jarayonida statistika, statistika nazariyasi, iqtisodiy tahlil, menejment tadqiqotlari, marketingni boshqaruvga o'xshagan fanlar o'zaro kam bog'langan. Vaholangki zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda cheksiz bo'lgan ma'lumotlarni zaruriyatini tanlab olish, ularni qayta ishlash va qaror qabul qilish uchun barcha fanlardan olingan bilimlardan foydalanish muhim o'rinn tutadi.

Ushbu bobda marketing tadqiqotlari statistik tahlilning ayrim metodologik asoslariga to'xtaldik. Falsafiy kategoriylar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ijtimoiy hayotning bir bo'lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga bog'ishlangan marketing tadqiqotlari statistik tahlil ham shu falsafiy kategoriyalarga to'liq asoslanadi.

Qisqa xulosalar

Ushbu bobda biz marketing tadqiqotlari tushunchasi mohiyati va yo'naliishi, marketing tadqiqotlari oldiga qo'ygan vazifalar haqida batafsil gapirib o'tdik. Marketing tadqiqoti marketingning axborot ehtiyojlarini qondirishi ko'zda tutilgan tadqiqotchilik faoliyati turini ifodalaydi. Marketingning asosiy talablaridan biri bozor «shaffofligi» va uning rivojlanishini «oldindan aylib berish mumkinligi»ni ta'minlash hisoblanadi.

Marketing tadqiqoti – marketingning axborot-tahliliy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan har qanday tadqiqotchilik foliyati ekaniga amin bo'ldik.

Shuningdek, marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning metodologik asoslarini o'rghanish uchun, unda qo'llaniladigan falsafiy kategoriyalarning qisqacha mazmuniga shu fan nuqtai nazaridan qarashlar haqida tushunchalar berib o'tdik.

Tayunch iboralar: Marketing, ehtiyoj, iste'mol, talab, taklif, xaridor, iste'molchi, sotuvchi, ayriboshlash, bozor, tovar, xizmat, axborot, uslub, marketing tadqiqotlari, MTST fani predmeti, MTST fani metodi, MTST fani obyekti, MTST fani maqsadi, statistika, statistik tahlillar, statistik usullar, marketing qarorlari, ma'lumotni aniqlashtirish, toplash, tahlil etish, tarqatish va foydalanish.

Nazorat savollari

1. Marketing tadqiqotlari deganda nimani tushunasiz?
2. Marketing tadqiqotlari turlariga qanday usullar kiradi?
3. Yozuvli tadqiqotlarga nimalar kiradi?
4. Kazual tadqiqotlar usullariga qanday axborot toplash usullari kiradi?
5. Marketing tadqiqotlarining ayrim belgilari bo'yicha qanday tavsiflanadi?
6. Dala tadqiqotlarining tavsifini aytib bering.
7. Miqdoriy va sifat tadqiqotlari o'rtasidagi farqni aniqlab bering.
8. Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha qanday tavsiflanadi?
9. Marketing tadqiqotlarida statistikaning roli va ahamiyati nimalardan iborat?
10. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning metodologik asoslari nimalardan iborat?

II BOB. MARKETING TADQIQOTLARI MUAMMOSINI ANIQLASH VA UNI O'TKAZISHGA YONDASHUVLARNI ISHLAB CHIQISH

2.1. Marketing tadqiqotlari muammosini aniqlashning ahamiyati

Marketing tadqiqotlarini samarali o'tkazish uchun muammo aniq va to'g'ri belgilanishi lozim. Marketing tadqiqotlarining muammosini aniqlanishi barcha faoliyatni to'g'ri yuritilishiga, loyihani amalga oshirilishiga asos bo'lib hisoblanadi. Tibbiyot sohasida kasañni oldini olish yoki uni davolashda tashxis qo'yish qanchalik muhim o'rinn tutsa, marketing tadqiqotlarida uning muammosini aniqlanishi shunday rol o'ynaydi. Agar muammo noto'g'ri tushunilsa yoki aniqlansa unda vaqt va mablag' samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin. Muammoni aniqlash tadqiqotlari va muammoni hal etish tadqiqotlari mazmunan va metodologik nuqtai nazardan bar xil vazifalarni qaratilgan bo'lsada, ikkalasini jamlasa bo'ldi. Masalan, xorijiy kompaniyalar tajribasida ("Scott Paper" kompaniyasi) bozordagi ulushini karmayishini tadqiqot qilinganda, uning asosida raqobat kuchayotganligi (muammoni aniqlanishi) aniqlandi va raqobatchilar bilan kurashish uchun bozorga yangi tovarlar chiqarish zarurligi haqida qator qabul qilishgan (muammo yechimi).

Muammoni aniqlash uchun MT (problem identification research) – hozirgi yoki kelajakda mavjud bo'lishi mumkin aniq bo'lмаган muammoni muvofiqlashtirishga yordam berishda foydalaniladi.

Bozor munosabatlari sharoitida kutilmagan vaziyatlardan kam surf bilan chiqib ketish tadbirkorlik faoliyatida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Albatta, samarali faoliyat yuritishda ichki va tashqi omillarning ta'sirini oldindan bila olish, ularning zarariy ta'sirini karmaytirish hammani qo'lidan kelavermaydi. Shu sababdan marketing tadqiqotlarini o'tkazishni asosiy vazifalaridan bo'lmish, yuzaga kelgan va kelishi mumkin

bo‘lgan muammolarni oldindan bashoratlash vazifasi muhim o‘rin egallaydi. Bekorga biznesda “kim birinchi ma’lumotga ega bo‘lsa, o’sha bozorni egallaydi”, degan ibora o‘zining dolzarbligini ko‘rsatib kelmoqda.

Muammoni yechimi uchun marketing tadqiqotlari
(problem solving research) – aniq marketing muammoosini yechimini topish uchun foydalilaniladigan tadqiqot hisoblanadi.



Albatta, marketing tadqiqotlarining bu turi oldingiga nisbatan osonroq yechimiga egaligi bilan ajralib turadi. Sababi, aniq marketing muammoosini, masalan narx oshishi munosabati bilan oilaviy byudjetni boshqatdan ko‘rib chiqish, yoki iste’mol madaniyati oshgan sari tovar yoki xizmatlarga talab o‘rnatish va hokazo.

Har bir muammo o‘zining sharoiti, mablag‘i, vaqtiga, hamda kim hal qilishi bilan ajralib turadi. Konkret muammoni hal etishni rejalashtirish va oldindan sarf-xarajatini hisoblab chiqish mumkin. Shu bilan ta’kidlab o’tish kerakki, marketing tadqiqotlarini qaysi bir turini o’tkazishdan qat’iy nazar, ularni o’tkazishning asosan ikkita sababi mavjud.

Hozirgi kunda marketing tadqiqotlarida juda katta muammolar mavjud. Ularning soni va sanog‘iga yetish qiyin. Chunki tovar (xizmat)ning kinga, qachon va qayerda solilishi hamisha ham silliq ko‘chavermaydi. Bozor ham, xaridorlar talabi va didi ham

tez o'zgaruvchan tusga kirgan bugungi holida mo'ljalni olish bir muncha murakkab. Shu tufayli marketing tadqiqotlaridagi mumamolarni o'rghanish obyektiv zaruratga aylandi.

Hozirgi muammolar juda ko'pligidan to'g'ri xulosa qilish uchun ularni tasniflash maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha ularni quyidagicha tasnify belgilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish joyi bo'yicha muammolar;
- tovar (xizmat)larni sotish bozori bo'yicha muammolar;
- tovar (xizmat)larni sotish vaqt bo'yicha muammolar;
- tovar (xizmat)larni iste'molchilar bo'yicha muammolar;

Ushbu muammolarning bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1-rasm).



2.1-rasm, Marketing muammolarni tasniflash belgilari

Ushbu rasmda keltirilgan marketing muammolarining tasnifini uning har bir guruhi bo'yicha qarab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki ular bir-biri bilan uzviy bog'liq muammolardir. Birini hal qilib ikkinchisi e'tibordan chetda qolsa kutilgan natijani bermaydi. Shu tufayli hamisha barcha mavjud muammolarni aniqlash bilan birga ularni hal qilish yo'llarini ham aniqlashni taqozo qiladi.


Shuni alohida qayd qilish kerakki, muammolar ko'rinish turmaydi. Ular ko'rinnmasada o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, mahsulot (xizmat) sotilmayapti, sotilsa ham o'sish sur'ati kamayib bormoqda. Bu albatta ma'lum muammolarning ta'sirida sodir bo'ladi, amma ular, ta'kidlanganidek ko'rinish turmaydi. Shu

tufayli har bir muammoni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ushbu to'rtta yo'nalishdagi muammolarnining har birini tasniflashni taqozo qiladi. Quyida har bir guruh muammolarning tavsifiga alohida to'xtalishni lozim, deb topdik.

Marketing tadqiqotlarida muammolar va ularning tasnifi:

1. **Tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish joyi bo'yicha muammolar tasnifi.** Ushbu guruh muammolar ikkita yo'nalishda sodir bo'ladi. Birinchisi, ishlab chiqarish jarayonini marketing tamoyili asosida boshqarish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bevosita tashqi omillarga (xaridorlar didi va imkoniyatlarining o'zgarishi, raqobat maydoniga yangi raqobatchilarining kirib kelishi, innovatsiyaning korxonalarga bir xil darajada joriy qilinmayotganligi kabilalar) bog'liq bo'ladi. Ushbu muammolarni yaxlit holda qaraydigan bo'lsak, bular o'z navbatida bir qancha guruhlarga bo'linadi. Ushbu guruhlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari;
- chet mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari;
- mahalliy va chet mamlakatladagi ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari. Bularni quyidagi rasinda ifodalash mumkin (2.2-rasm).



2.2-rasm. Tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish joyi bo'yicha muammolar tasnifi

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari bevosita ishlab chiqarishning qaysi bozorga mo'ljallanganligi bilan ifodalanadi. Chunki tovar (ish va xizmat)larning bir qismi ichki bozorga va bir qismi tashqi bozorga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunda qancha tovar qachon va qayerda sotishini aniqlash ham o'ziga yarasha tadqiqotlarni talab qiladigan muammolardir.

Chet mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari ham o'ziga xos. Chunki, ularning ishlab chiqarish jarayonlari o'zlarining talab va ehtiyojini inobatga oladi va narx ham bizdan xoli holda shakllanadi. Shu tufayli bir xil tovar o'zimizda va xorijda ishlab chiqarilgan bo'lsada narxi turlicha bo'lishi mumkin. Endi qaysi tovar bilan muomila qilish masalasi ham ma'lum darajada muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarning statistik ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_j = \sum_{i=1}^p M_i;$$

Bunda: M_j – tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish joyi bo'yicha mayjud bo'lgan jami muammolar;

M_i – tovar (xizmat)larni ishlab chiqarish joyi bo'yicha mayjud muammolarning alohida i-turi;

\sum – jamlash belgisi;

I – muammoning turi;

p – muammoning umumiy soni.


2. Marketing tadqiqotlari muammolarining bir qismi tovar (xizmat)larni sotish bozori bilan bog'liqdir. Chunki ishlab chiqarilgan tovar (xizmat)ni qaysi bozorga sotishligi, qanday sotishligi, qachon va qancha sotishligi ham katta muammo. Ushbu muammolar ikki guruhga bo'linadi:

- ichki bozorda sotish muammosi;
- tashqi bozorda sotish muammosi.

Tashqi bozorda sotish ham ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Tovar (xizmat)ni sotish faqat xorijiy davlatlarga gagina emas, balki

o‘z mamlakatimizning ichida boshqa huddudlarda ham sotish tushumiladi. Shu tufayli buni ham ikki guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bularga:

- bir davlat ichida, ammo tovar (xizmat) ishlab chiqarilgan hududdan boshqa hududda;
- mazkur davlatdan tashqaridagi bozorda. Bu asosan tovar (xizmat)larni eksport qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tashqi bozordan xaridorlarni topish ham juda katta muammo. Ammo bugungi kunda ushbu masalaga keng yo‘l ochib berildi. Hozir tovar (xizmat)lar eksporti bilan har bir xorijiy mamlakatlarda joylashgan elchilarimiz ham shug‘ullanmoqda. Bu tovar (xizmat)larni ishlab chiqaruvchilar uchun ham katta imkoniyat yaratilganligidan dalolatdir. Bularning bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin (2.3-rasm).



2.3-rasm. Marketing tadqiqotlarida tovar (xizmat)larni sotish bozori bilan bog‘liq muammolar tasnifi

Marketing muammolaridan yana bir guruhi tovar (xizmat)larni sotish vaqtি bo‘yicha aniqlashdan iboratdir. Chunki, juda ko‘p jarayonlar mavsumiy xarakterga ega va ko‘p jihatdan belgilangan qonunchilik asosida bo‘lmasdan, an’anaga asoslangan holda bajariladigan yumushlardir. Ushbu muammolar ham o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi:

- doimiy muammolar;
- mavsumiy muammolar.

Mazkur guruhlar quyidagi rasmda keltirilgan (2.4-rasm).

| |
|---|
| Doimiy |
| <ul style="list-style-type: none">Ayrim tovar (xizmat)lar borki doimiy ishlab chiqariladi va doimiy iste'mol qilib borildi. Masalan, non, ishlab chiqarilishi ham iste'moli ham doimiy ravishda davom etadi. Bundagi marketing tadqiqotlari muammosi o'ziga xos. |
| Mavsumiy |
| <ul style="list-style-type: none">Mazkur guruh muammolar juda kartal. Chunki, shunday tovar (xizmat)lar borki, doimiy ravishda ishlab chiqariladi, ammo mavsumiy iste'mol qilinadi. Masalan, yozgi yoki qishki klyulular, baliq mahsulotlari. Ayrim tovarlar borki, mavsumiy ishlab chiqariladi, umum doimiy iste'mol qilinadi. Masalan, meva va sabzavotlar. |

2.4-rasm. Marketing muammolarini sotish vaqt bo'yicha tasniflash

Shuningdek, marketing muammosini aniqlash va uni hal etish 2.5 – rasmda marketing tadqiqotlarining tasnifiy belgilari asosida guruhlashtirish amalga oshirilgan.

Marketing tadqiqotlari muammolarini tovar (xizmat)lar iste'molchilari bo'yicha tasniflashda birinchi navbatda odamlarning *jinsi* bo'yicha tovar (xizmat)ni yetkazib berish muammolariga e'tiborni qaratish lozim. Ayrim tovar (xizmat)lar borki, ularni sotishda jinsiy tabaqlanish inobatga olinmaydi. Masalan, non va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, juda ko'p oilaviy umumiyligi foydalananadigan tovarlar (televizor, xolodilnik, avtomashina kabilar) shular jumlasiga kiradi. Ammo juda ko'p tovarlarning bir qismi faqat ayollarga yoki erkaklarga, ayrimlari esa, bolalarga mo'ljalangan. Bunga asosan kiyim-kechaklarni misol qilish mumkin. Har bir kiyim kechakdan qancha erkaklarga, qaysi o'lchamda, qanchasi ayollarga va ular ham o'lchami va boshqa assortiment turlari bo'yicha ishlab chiqarish lozimligi, keyin ularni sotish muammosi barchasi ushbu marketing muammosida jamlanadi. Bularning qay tarzda amalga oshirilishi mumkinligini ushbu muammolarining yechimi orqali hal bo'lishini inobatga olish lozim.


Marketing tadqiqotlari muammolarini tovar (xizmat)lar iste'molchilari bo'yicha tasniflashda kishilarning *kasbi* bo'yicha

tovar (xizmat)ni yetkazib berish masalasi ham muhim yo'nalishlardan biridir. Chunki, ayrim kasbdagi tovarlar maxsus shu kasbga yo'naltirilgan bo'ladi. Bularga tibbiyot xodimlarining maxsus kasbiy halati, ayrim yirik kompaniyalarning maxsus kiyimi, ishchilarning ish kiyimi kabilarni misol keltirish mumkin. Ushbu kiyimlarni ham qancha va qayerda ishlab chiqish, kimlarga sotish masalasi ham yechimini kutayotgan muammo tarzida hamisha kun tartibidan tushmaydi.

Marketing tadqiqotlari muammolarini tovar (xizmat)lar iste'molchilari bo'yicha tasniflashda odamlarning *yoshi* bo'yicha tovar (xizmat)ni yetkazib berish masalasiga ham e'tiborni qaratish lozim. Chunki, bir xil o'Ichamdag'i kostyum yoshiga qarab turli fasonda, ko'rinishda tikilishi mumkin. Qaysi rangdaligi ham odamlarning yoshiga qarab tanlash lozimligini taqozo qiladi.

Shunday qilib, marketing tadqiqotlari muammolarini tovar (xizmat)lar iste'molchilari bo'yicha tasniflash ham ko'rsatdiki, ushbu guruhning o'zida ham juda katta muammolar mavjud ekan. Shu tufayli ushbu masalada to'g'ri xulosalarni chiqarish, to'plangan axborotlarni tizimga keltirish uchun matematik, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Marketing tadqiqotlari muammosini aniqlash (problem definition) marketing tadqiqotlari muammosining umumiy va uning alohida qismlari bo'yicha aniqlashdan iborat. 2.5 – rasmida ushbu jarayonni olib borish chizmasi keltirilgan bo'lib, unda muammoni aniqlash vazifasini bajarish uchun qaror qabul qilayotgan shaxslar, tarmoq va boshqa ekspertlar bilan suhbat o'tkazish, ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil etish, ma'lum sifatlari tadqiqotlar o'tkazishdan iboratligi berilgan.



2.5- rasm. Marketing tadqiqotlarini taqsimlash

Oldin eslatib o'tkanimizdek, marketolog boshqaruvin qarorini qabul qilish va qanday maqsad ko'zlayotganini aniq bilishi kerak bo'lsa, menejerlar tomonidan marketing tadqiqotlarini har bir elementidan kutilayotgan natija qiziqitiradi.

Bu vazifani bajarish uchun, marketolog tomonidan tashqi muhit omillarini tahlil qilgan holda, muammoni paydo bo'lish holatlari yoritiladi. Boshqacha qilib aytganda, marketolog tomonidan har bir omilning ta'sirini ko'ra bilishi orqali boshqaruvin qarorini qanday qabul qilinishi yondashuvni ishlab chiqiladi. Buning uchun qaror qabul qiluvchi boshqa shaxslar bilan vazifalarni muhokama qilinishi, tarmoq ekspertlaridan interv'yu olinishi hamda ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilishi zarurdir.

2.2. Yondashuvlarni ishlab chiqish va muammolarni aniqlash jarayoni



Yuqorida keltirilgan marketing tadqiqotlarida muaminolarining tavsifi va ularning izoli shuni ko'rsatdiki, mazkur sohada muammolarni aniqlash bir qancha obyektiv zaruratga tayanishi bilan birga juda ko'p muhimliklarga va yondashuvlarga ham egaligidan dalolat beradi. Shu tufayli muammoni aniqlashda bir qancha usul va yondashuvlardan foydalaniлади.

Muammoning aniq va to'g'ri belgilanishi marketing tadqiqotlarini samarali o'tkazish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarining muammosini aniqlanishi barcha faoliyatni to'g'ri yuritilishiga, loyihami amalga oshirilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlanganimizdek, tibbiyot sohasida kasalni oldindan aniqlash va uni o'z vaqtida davolash uchun to'g'ri tashxis qo'yish qanchalik muhim bo'lsa, marketing tadqiqotlarida uning muammosini aniqlanishi ham xuddi shunday muhimbir. Agar muammo o'z vaqtida aniqlanmasa, aniqlangan taqdirda ham u noto'g'ri aniqlangan bo'lsa, o'tkazib yuborgan kasal qanday bo'lsa, korxonaning ahvoli ham xuddi shunday bo'ladi. Kasalni davolash mushkul bo'lgani singari, mazkur korxonanining ham jonlanib, oyoqqa turib ketishi juda qiyin kechadi. Chunki vaqt va mablag' samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, marketing sohasidagi muammolar aniq hisobotda ifodalanadigan ko'rsatkichlarda o'z aksini topmaydi. Shu tufayli mazkur sohada muammolarni aniqlashda sotsiologik

so'rov o'tkazish lozim bo'ladi. Shu tufayli sotsiologik so'rovlar bir qancha aniq savollarni qo'yishni taqozo qiladi. Ushbu so'rovnomalar mahsus tayyorlangan savollar yoki anketalar orqali aniqlanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Raqobatchilaringizni o'zingizdan kuchli deb hisoblaysizmi?
 - qancha subyektlari va mutahassislari bor?
 - ularidan nechta sizdan kuchli?
2. Siz nima qilsangiz raqobatbardoshlikni mustahkamlaysiz?
 - narxni tushurish kerakmi?
 - mahsulot sifatini oshirish lozimmi?
 - arzonlashtirilgan baho bilan tannarxingiz o'rtasidagi nisbat unchalik yaqin emasmi?
3. Muvoffaqiyatga erishish uchun muhim deb hisoblaydigan jihatleringiz nimada?
 - innovatsiyani joriy qilishda;
 - modernizatsiya qilib, tejamkor texnologiyalarni joriy qilishda;
 - bozorni diversifikatsiya qilishda;
 - 4. Sotilmay qolgan tovarlarning holati qanday?
 - sizda ushbu tovarlar bo'yicha me'yor bormi?
 - sotilmay qolgan tovarlar ko'paymayaptimi?
 - pul aylanishida qanday muammolar bor?
 - debitorlar ko'pmi, muddati o'tganlari qancha?
 - kreditorlaringiz bilan munosabatlardan qanday?
 - 5. Kommunal xizmatlardagi muammolarni aytинг?
 - elektr energiya ta'minotida qanday muammolar bor?
 - gaz ta'minotidagi muammolar?
 - suv ta'minotidagi muammolar bormi?
 - 6. Yana qanday muammolaringiz bor?
 - kadrlar masalasi va ularning malakasi yetarlimi?
 - bank bilan munosabatda qanday muammolar bor?
 - 7. Muammolarni hal qilish yo'li bormi? Agar bo'lsa, o'zingizning fikringizcha qanday chora-tadbirlarni qo'llash mumkinligi xususida qisqagina tadbirlar aytilib asoslanadi.


Sotsiologik so'rov natijasi umumlashtirilib muammolarning umumiyligi soni aniqlanadi va ular yo'nalishlari bo'yicha

tasniflanadi. Oqibatda qaysi yo'nalishda muammolar ko'pligi aniqlanib, ularni bartaraf qilish choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Bunda statistik metodlarning guruhlash, indeks usullaridan foydalaniлади.

Marketing tadqiqotlarida muammolarni aniqlash o'ta muhim jarayon hisobланади. Muammo bor narsa, ammo uni ko'rmasak, ularni hal qilish choralarini ishlab chiqmasak, oqibati nima bo'lishi tayin. Shu tufayli har yili korxonalarning umumiy soniga nisbatan 17-20 foiz subyektlar yangidan tashkil qilinadi, afsuski xuddi shuncha korxona "yukini tortolmasdan" bankrotlik holatga tushib qolayotganlarini o'zлari ham sezmay qolmoqda. Bulardan ham ko'riniб turibдiki, sotsiologik so'rov o'tkazish orqali muammolarni aniqlash ham o'ta muhim choralardan biridir. Uning muhimligiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Ushbu muammolarning hal qilinishi bilan birorta tovardan (xizmatdan) qayerda va qancha ishlab chiqarish lozimligini aniqlash imkonini beradi.
2. Ishlab chiqarilgan tovarni (xizmatni) qaerga, qancha miqdorda va qancha bahoda sotish mumkinligini aniqlash bilan birga qaysi bozorni tanlash yo'llarini ham ko'rsatib beradi.
3. Bozorni to'ldirish uchun qancha tovar (xizmatni)ni ichki ishlab chiqaruvchilar va qanchasini tashqaridan (boshqa hududlardan va tashqi mamlakatlardan) keltirish lozimligini ham hal qilish yo'llarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.
4. Tovar (xizmatni)ni vaqt nuqtai nazaridan (doimiy, mavsumiy) aniq belgilash imkonini tug'iladi va ular bilan yil davomida ta'minlashning imkoniyatlari qidiriladi.
5. Ishlab chiqarishni va bozorni bevosita aholining milliy tarkibidan kelib chiqqan holda talablarni qondirish uchun qancha ishlab chiqarish va sotish lozimligini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu jarayonni yaxlit holda quyidagicha tasvirlash mumkin (2.6-rasm)



2.6-rasm. Marketing tadqiqotlarida muammolarni aniqlashning muhimligi

2.6 – rasmdan ko‘rinib turibdiki, har qanday korxona faoliyatida muammoalar mavjud bo‘ladi. Marketing tadqiqotlarida ushbu muammolarni aniqlamasdan uning faoliyatini strategik rejalashtirib ham, uning samaradorligini oshirish masalalarini ham mukammal ishlab chiqishi qiyin kechadi. Shu jihatdan muammolarni aniqlab olish albatta kerak. Bu esa o‘z navbatida, mazkur masalaga statistik tahlil usullarini qo‘llashni taqozo qiladi. Shu tariqa marketing jarayonlaridagi muammolarni bartaraf qilish imkoniyati tug‘iladi va mos ravishda ularni hal qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Xillas, marketing tadqiqotlarida muammolarni aniqlashning muhimligi juda ko‘p yechimlarni hal qilish orqali korxonalar faoliyatini samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash yo‘llarini aniq belgilashga asos bo‘ladi.

2.3. Tadqiqot muammolarini aniqlash bilan bog‘liq masalalar

Marketing tadqiqotlarini muammosini paydo bo‘lish manbaasini tushunish uchun, korxonaning o‘zi va qaysi tarmoqda faoliyat yuritayotgani bilan tanishish kerak. Tadqiqot muammolarini aniqlash bilan bog‘liq masalalarga, avvalom bor, unga ta’sir ko‘rsatuvchi muhit omillariga murojaat qilamiz ularga quyidagilar kiradi:

- Oldingi ma’lumotlar va prognozlar
- Korxonaning resurslari va cheklanishi
- Maqsadlar
- Haridorlar xatti-harakati
- Iqtisodiy va qonuniy muhit
- Iqtisodiy va qonuniy muhit
- Firma personalining marketing va texnologik ko‘nikmalari

2.7. – rasm. Muammoni aniqlashda hisobga olinuvchi muhit omillari

Ushbu rasmida muammoni aniqlashdagi hisobga olinuvchi muhit omillari va ularning ketma – ketligi tasvirlangan, ya'ni korxona va tarmoqning oldingi holati va kelajak istiqboli haqidagi axborot; korxonaning resurslari va cheklanishi; qaror qabul qiluvchi shaxsnинг maqsadlari; xaridorlar xatti – harakati; iqtisodiy va qonuniy muhit; korxona hodimlarining marketing va texnologik ko'nikmalaridan iborat.

Muammoga ta'sir ko'rsatuvchi mubit omillari (**environmental context of the problem**)–Marketing tadqiqotlari muammosini aniqlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (oldingi va kelajak axborotlari, firmaning resurslari va chegaralari, qaror qabul qiluvchining maqsadi, xaridorlar xatti – harakati, huquq va iqtisodiy muhit, firma personalining marketing va texnologik ko'nikmalari) haqida gap ketadi.

Qarorlar qabul qilinishi ma'lum maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. Boshqaruv muammosini ifodalash ikki turdag'i maqsadlarni aniq tasavvur etish bilan bog'liq: tashkilot maqsadi va qaror qabul qilayotgan rahbarning shaxsiy manfaati. Ushbu ikkita maqsadni birlashtirish muhim, ammo juda og'ir kechadi. Uning sababi jamoa va shaxs manfaatlari o'rtaсидаги mavjud ziddiyatlardir.

Maqsadlar (objectives) - qaror qabul qilayotgan tashkilot yoki shaxsnинг qarorlaridan samarali marketing tadqiqotlarini o'tkazishda foydalanish ko'zda tutiladi.

Marketing tadqiqotlarining maqsadi ham samarali boshqaruv qarorini qabul qilishga kerakli axborot bazasini yaratishdan iborat. Ammo, bu jarayonda korxona va menejerlarning maqsadlarini muvofiqlashtirishda marketologning ham mahorati va tajribasi muhim roli o'yndaydi.

Marketing muammosining asosida iste'molchilarining xattixarakati, ularning iqtisodiy salohiyati, ehtiyoji va talablari tashqi muhit omillaridagi o'rni beqiyosdir.

Xaridorlar xatti – harakati (buyer behavior) – tashqi muhitning asosiy omili hisoblanib, iste'molchilarning individual xislatlarini ifodalaydi.

Marketing muammolarini manbasini aniqlashtirishda korxonaning u yoki bu xarakatiga iste'molchining munosabatini o'rganish muhim o'rinni egallaydi. Xaridorlar xatti – harakatini o'rganish marketing muammositing mohiyatini ochishga olib kelish mumkin.

Iste'molchilararning xatti – harakatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shuni ko'rsatmoqdaki, ular tarkibiga asosan quyidagilar kiritilishi mumkin:

- Xaridorlar miqdori va geografik joylashuvi;
- Demografik va psixologik tafsiflar;
- Iste'mol qilinayotgan mahsulotlar tafsiflari;
- Reklama va sotuvga xaridorlar munosabati;
- Narxga bo'lgan munosabat;
- Magazinlarga o'rganish holati;
- Iste'molchilarning tanlash erkinligi.

Har bir davlatda o'zining qonunlari, me'yoriy hujjatlari, davlat siyosati barcha tashkilot va aholi hayotiga ta'sir ko'rsatadi va muvofiqlashtirib turadi. Qonunlar ichida savdo markalari royligi, savdo kelishuvi, soliq va tariflar bilan munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi huquq normalari muhim o'rinni egallaydi. Davlatda qabul qilingan qonunlar marketing tadqiqotlarini o'tkazishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rstaadi hamda marketing tadqiqotlari muammolarini ifodalashda asosiy omil hisoblanadi.

Qonun muhiti (legal environment) – tashkilotning faoliyatini tashkil etishni muvofiqlashtiruvchi siyosat va me'yorlar.

Qonun muhitidan tashqari tashqi muhitning tarkibiga kiruvchi asosiy komponent tariqasida iqtisodiy muhitning ahamiyati katta.

Iqtisodiy mabit (economic environment) – daromad, narx, to'plangan zahira, kredit shartlari, umumiy iqtisodiy holat bilan ifodalananadi.

Iqtisodiy muhit omillari xaridorlarning sotib olish salohiyati, umumiy (yalpi) daromad, tovarlar assortimenti, narxlar va boshqa iqtisodiy tomonlarni inobatga oladi. Masalan, iste'molchi va korxonaning kredit olish imkoniyati iqtisodiyotning umumiy holatiga uzviy ravishda bog'liqdir. Davlat iqtisodiy barqarorligini o'sishi, aholiga kredit berish imkoniyati oshishiga zamin yaratadi.

2.4. Boshqaruv va marketing muammolar

Boshqaruv va marketing faoliyati bir yo'naliш va maqsadga qaratilgan: boshqaruv muammosi qanday qilib samarali qaror qabul qilish bo'lsa, marketing tadqiqotlari esa ushbu qaror qabul qilishga qanaqa axborot kerakligi hamda uni qanday qilib olishdan iboratdir.

Boshqaruv muammosi (management decision problem) – qaror qabul qiluvchi shaxsning duch kelayotgan muammosini ifodalaydi.

Bu muammoni "Qaror qabul qiluvchi shaxs nima qilishi kerak?" degan savol bilan ifodalash mumkin.

2.1 – jadvalda boshqaruv muammolarini va marketing tadqiqotlari muammollarini mazmunan taqqoslash o'tkazilgan bo'lib, ular o'rtaсидagi asosiy farqlar ko'rsatilgan.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish jarayoni uning natijalarining korxona faoliyatiga ta'sir ko'rsatisha, qaysi uslublar, mablag', vositalardan foydalanish bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Marketing tadqiqotlarining o'rniда korxona sharcitida zaruriy tashkil etuvchi omillarning o'zaro bir – biriga bog'liqligi va ta'siri ko'rib chiqiladi.

2.1. - jadval

**Boshqaruv muammolari bilan marketing tadqiqotlari
muammollarini taqqoslash**

| Boshqaruv muammosi | Marketing tadqiqotlari muammosi |
|--|--|
| Qaror qabul qiladigan shaxsga nima qilish kerakligini aniqlaydi | Qanday axborot kerak va ushbu axborotni qanday qilib qabul qilinishini aniqlaydi |
| Harakatga yo'naltirilgan | Ma'lumot qabul qilishga yo'naltirilgan |
| Natijalarga urg'u berish | Sabablarga urg'u berish |

Marketing tadqiqotlari muammosi (marketing research problem) – qanaqa axborot zarur va uni qanday samarali olish bilan bog'liq muammo hisoblanadi.

Masalan, bozordagi ulushning kamayishi, boshqaruv muammosi tariqasida qanday qilib bu ulushni qaytarish iloji bo'lsa ko'paytirishni hal etishga qaratiladi. Marketing muammosi tariqasida tovarni takomillashtirish, raqobat ustunliklarini oshirish, bozor segmentatsiyasini o'zgartirishdan iborat.

Marketing tadqiqotlarining muammosini aniqlash uning muhim bosqichlaridan hisoblanib, uning murakkabligi menejmentlarning ya'ni boshqaruv qarorini qabul qiluvchi mas'ullarning, korxonaning asosiy muammosini ham aniq tasavvur qilmasligi yoki manfaatlar o'rtaсидаги ziddiyatlar doirasidan chiqa olmaslik holati bo'lishidandir. Shu sababdan marketing tadqiqotlarini o'tkazuvchi mutaxassislar, marketologlar zimmasiga menejmentlarga oqilona qaror qabul qilishga ko'maklashish marketing tadqiqotlari muammosini aniq va ravshan ko'rsatib berishdan iborat. Marketing tadqiqotlari muammosini ifodalash bilan bog'liq vazifalar tarkibiga menejerlar bilan muhokama, tarmoq eksportlari bilan interv'yu ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil va sifatli tadqiqotlar o'tkazish kiradi. Ushbu

muammoni hal etilishi korxonadagi muammoga ta'sir etish imkoniyati bor. Hodimlarning bir maqsadga intilgan holda faoliyat ko'rsatishni taqazo etadi. Bu borada korxona yoki tashqaridan taklif etilgan marketing mutaxassislarining o'mi beqiyosdir.

Shu bilan birga marketing tadqiqotlari o'tkazilishi quyidagi elementlarini o'z tarkibiga oladi:

- Tadqiqot metodologiyasi;
- Tahliliy modullar;
- Izlanish savollari;
- Gipotezalar (Taxminlar);
- Omillar;

Ushbu ko'rsatib o'tilgan elementlar marketing tadqiqotlarining rejasiga ta'sir ko'rsatadi, ularning natijalarini alohida paragrflarda ko'tib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi deganda faoliyatning tuzilmasi, mantiqiy tashkil etilishi, uslub va vositalari haqidagi nazariy yondashuvlar tushuniladi. Marketing metodologiyasi quyidagi bosh elementni kiritishimiz mumkin:

1. Tamoyillar (prinsiplar);
2. Boshqaruv usullari;
3. Marketing tadqiqotlari vositalari;
4. Qaror qabul qilishning ijobiy uslublari;
5. Axborot to'lash uslublari.

Nazariya (theory) – ma'lum fundamental tasdiqlovchi (aksiomalar)larga tayangan holda ma'lum konsepsiyalarning o'zaro bog'liqligi.

Obyektiv ma'lumotlar (Objective evidence)– empirik tasdiqlangan holisona ma'lumotlardan iborat.

Marketing tadqiqotlari obyektiv ma'lumotlar va nazariy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Nazariy – metodologik yondashuv amalga oshirilayotganda marketolog tominidan mavjud mahalliy va xorijiy olimlar ishlasmalari, mavjud akademik manbalar (kitob, jurnal, monografiyalar), statistik hisobot va me'yoriy hujjalardan foydalanishi lozim.

Amaliy marketing tadqiqotlarida nazariyasini qo'llanilishi tadqiqoti tomonidan ijodiy yondashuvni ta'lab qiladi. 2.2 – jadvalda amaliy marketing tadqiqotining turli bosqichlardagi nazariyasining o'rni keltirilgan.

2.2 – jadval

Amaliy marketing tadqiqotlarida nazariyaning o'rni

| Marketing tadqiqotlarining vazifalari | Nazariyaning roli |
|---|---|
| 1. Konsepsiyanı ishlab chiqish va tayanch o'zgaruvchanlarni ajratish | Muammoli holat asosida yotgan jarayonlarni tushuntirish va metodologik asosini ta'minlash. |
| 2. Tayanch o'zgaruvchanlarni tadqiqot ishiga muvofiqlashtirish | Tadqiqotni haqiqiy holatini aks ettiruvchi nazariy asoslangan o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin. |
| 3. Tadqiqot yo'nalishlarini tanlash | Sabab oqibat qomuniyatlarini nazariyalari marketing tadqiqotlarining deskreptiv yoki sabab oqibat turlarini tanlashga yordam beradi. |
| 4. Taufov kuzatuvining turini aniqlash | Metodologiya asosida bosh to'plam va respondentlarini tanlash uchun o'zgaruvchilar aniqlanadi va kvotalar o'rnatiladi yoki bosh to'plam strafiksatsiyalanadi. |
| 5. Ma'lumotlar tahdili va ularni moslashtirish | Metodologiya ma'lumotlar tahdili uchun tanlangan strategiya va ular natijalarini moslashtirishga asos bo'ladi. |
| 6. Umumlashgan natijalar | Marketing tadqiqotlariga olingan natijalar o'dinga o'tkazilgan izlanishlar va to'plangan materiallar bilan umumlashtiriladi. |

Metodologiya zaruriy tahliliy modelni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahliliy model (analytical model) – real tizim yoki jarayonni ifodalash uchun zarur bo'lgan o'zgaruvchanlar va ularning o'zaro aloqalar to'plamining ta'rifi.

Verbal model (verbal model) – o'zgaruvchanlar va ular o'rtaqidagi aloqadorlikni yozma ravishda ifoda etilgan tahliliy modelni ifodalaydi.

Chizma modeli (graphical model)- o'zgaruvchilar bilan aloqali ko'rgazma tariqasida ifodalovchi tahliliy model.

Matematik model (mathematical model) – tenglik shaklida o'zgaruvchilar o'rtaqidagi aloqani ifodalaydigan tahliliy model.

Izlanish savollari (research questions)– muammoni ma'lum tomonlarini aniqlashtiradi.

Gipoteza (Hypothesis) – isbotlanmagan fikr yoki ma'lum omil yoki hodisa hususidagi tasavvurlar.

Elivant tasavvurlar (Relevant characteristics) – tadqiqot rejasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tovar yoki o'zgaruvchanlarning tavsifi omillari atributlarini ko'rsatadi.

Qisqa xulosalar

Bu bobda marketing tadqiqotlarining muammolarini aniqlash, muammolar yechimini topish yondashuvlari, obyektiv ma'lumotlarning o'rni o'rganib chiqildi. Marketing tadqiqotlarini samarali o'tkazish uchun muammoni aniq va to'g'ri belgilanishi lozim. Marketing tadqiqotlarining muammosini aniqlanishi barcha faoliyatni to'g'ri yuritilishiga, loyihami amalga oshirilishiga asos bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda marketing tadqiqotlarida juda katta muammolar mavjud. Ularning soni va sanog'iga yetish qiyin. Chunki tovar (xizmat)ning kimga, qachon va qayerda sotilishi hamisha ham silliq ko'chavermaydi. Bozor ham, xaridorlar talabi va didi ham tez o'zgaruvchan tusga kirgan bugungi holatda mo'ljalni olish bir

muncha murakkab. Shu tufayli marketing tadqiqotlariidan mumamolarni o'rganish obyektiv zaruratga aylandi.

Marketing muammolaridan yana bir guruhi tovar (xizmat)larni sotish vaqt bo'yicha aniqlashdan iboratdir. Chunki, juda ko'p jarayonlar mavsumiy xarakterga ega va ko'p jihatdan belgilangan qonunchilik asosida bo'lmasdan, an'anaga asoslangan holda bajariladigan yumushlardir.

Marketing tadqiqotlari muammolarini tovar (xizmat)lar iste'molchilari bo'yicha tasniflashda birinchi navbatda odamlarning *jinsi* bo'yicha tovar (xizmat)ni yetkazib berish muammolariga e'tiborni qaratish lozim. Ayrim tovar (xizmat)lar borki, ularni sotishda jinsiy tabaqalanish inobatga olinmaydi.

Marketing tadqiqotlarining maqsadi ham samarali boshqaruv qarorini qabul qilishga kerakli axborot bazasini yaratishdan iborat. Ammo, bu jarayonda korxona va menejerlarning maqsadlarini muvofiqlashtirishda marketologning ham mahorati va tajribasi muhim rol o'ynaydi.

Marketing muammosining asosida iste'molchilarning xattixarakati, ularning iqtisodiy salohiyati, ehtiyoji va talablari tashqi muhit omillaridagi o'rni begiyosdir.

Tayanch iboralar: marketing tadqiqotlari, muammo, muammoni o'rganish, muammoni yechish, muammolarni tasniflash, eksport, import, muammoga yondashuv, haridorlar xatti-harakati, boshqaruv, boshqaruv usullari nazorat, tashqi bozor, ichki bozor, doimiy muammolar, mavsumiy muammolar, vaqtinchalik muammolar, sotsiologik so'rovlar.

Nazorat savollari

1. Marketing tadqiqotlari muammosini aniqlashning zaruriyati nimada?
2. Muammoni aniqlash uchun qanday yondashuvlarga murojat qilinadi?
3. Nima uchun muammolarni tasniflash zarur?
4. Doimiy muammolarga nimalar kiradi?
5. Mavsumiy muammolarga nimalara kiradi?
6. Muammoni aniqlashda hisobga olinuvchi muhit omillari nimalardan iborat?
7. Chet mamlakatlarda ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari nimalardan iborat?
8. Mahalliy va chet mamlakatladiagi ishlab chiqaruvchilar bo'yicha marketing tadqiqotlari muammolari nima?
9. Ichki bozorda sotish muammosi nima uchun kerak?
10. Tashqi bozor deganda boshqa huddudlarda sotish muammosi nimalar bilan bog'liq?

3-BOB. MARKETING TADQIQOTLARI LOYIHASI VA JARAYONI

3.1. Marketing tadqiqotlari jarayonining mohiyati va ahamiyati

Marketing tadqiqotlarini belgilab olishdan va hal qilish usullarini ishlab chiqishdan keyingi jarayon bu - marketing tadqiqotlarini loyihalashtirish jarayonidir. Quyidagi 3.1 - rasmida marketing tadqiqotlari jarayoni bosqichlari aks ettirilgan.

| | |
|--|---|
|  | <ul style="list-style-type: none">Musmmoni aniqlash: Ushbu vaqtida marketing tadqiqot maqsadiga mos ma'lumotlar to'plashini, ular qaror qabul qilishdagidagi o'mi va ulardan qudayoy foydalanish kerakligiga aniqlash lozim |
|  | <ul style="list-style-type: none">Muammoni hal qilish bo'yicha reja ishlab chiqishi: Bu bosqichda marketing tadqiqotning nazarini tuzuvini uhlil qilish va uning modellari, qidiruv savollari, farazlarini shakillantirishini talib qiluvchi axborot va uning |
|  | <ul style="list-style-type: none">Tadqiqot rejasini ishlab chiqish, tadqiqot rejssi kerak bo'ladigan ma'lumotlarni olish uchun zarur jarayonlar yo'malishlarini butafsil tafsiflaydi. |
|  | <ul style="list-style-type: none">Ma'lumotlarni vig'adi ma'lumotlarni to'plash (kazatuv orqali, pochta orqali, shaxsiy yoki ofis telefonni va hkz.) ma'lumotlarni tayyorlaydi va tahlil qiladi. |
|  | <ul style="list-style-type: none">Hisobot tayyorlash va ularni taqdimot qilishi: Ushbu tahsilting hisoboti tayyorlanib, uni taqdimot qiladi. Bu hisobotda marketing tadqiqotining aniq savollari, uning rejsi va yechish osullari, ma'lumotlarni yig'ish jarayoni ba oxiri xulosha keltiradi. |

3.1. Marketing tadqiqoti jarayoni tuzilmasi va ketma-ketligi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda eng muhim omil tadqiqot o'tkazish jarayoni deyiladi. Ushbu jarayonni boshlashdan oldin bozor tadqiq qilinadi. Bozorni tadqiq qilish - marketing tadqiqotlarining ma'lum bir qismidir, xolos. Faqatgina shartli ravishdagina ularni marketing tadqiqotlarining asosi deb qabul qilish mumkin. Bozorni tadqiq qilish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:


➤ bozorga kiritilayotgan yoki unda mavjud bo'lgan mahsulotning mumkin bo'lgan sotish miqdori;

- tovarning iste'mol xususiyatidagi va boshqa xarakteristikalarining o'zgarishi tendensiyasi;
- yoshi, jinsi, hududiy, ijtimoiy, oilasidagi kishilar soni, o'zini tutishi, daromadi darajasi bo'yicha iste'molchilar guruhini aniqlash;
- assortimentni rejalshtirishda, sotish va reklamani tashkil qilishda xaridorlarning istagini aniqlash;
- mahsulotning sotilishi miqdori, uning umumbozor sig'imidiagi ulushi (hududlar va segmentlar bo'yicha xam);
- firmaning raqobatdoshligini va uning bozordagi o'rni.

Ko'rinib turibdiki, bozor to'g'risidagi ma'lumotlar miqdori katta va turli xarakterga ega. Shuning uchun bozorni tadqiq qilishda turli bilim sohalarining mutaxassislari qatnashadilar va bu tadqiqotlar ancha qimmatga tushadi, lekin firmalar bozorni iloji boricha tezroq o'zlashtirish maqsadida xarajatlardan qochmaydilar, chunki raqobatchilar bozorda yangi raqobatchi paydo bo'lishini oldini olish uchun qarshi choralar ko'radilar. Shuning uchun tadqiqotlar jarayoni, ayniqsa, uning natijalari olinganidan keyin va firma ularni marketing konsepsiyasini asoslash uchun qabul qilingandan so'ng tovarni sinovli sotishni tashkil qilish boshlanadi. Bu jarayonning asosiy vazifasi, firmaning bozordagi samarali o'rmini aniqlovchi o'ziga xos omillarni o'rganishdir.

Marketing tadqiqotlari jarayonini o'tkazishda uning asosiy tarkibini va bo'lib o'tadigan, kutiladigan hodisalar natijasini loyihalashtirish zarurligini anglab yetamiz. Bunda iste'molchilar xatti-harakatidan boshlab, raqobatchilar va axborot to'plash va ulardan foydalanish jaryonlari tahlil qilinadi.

Ushbu jarayonni boshqa usulda, ya'ni maqsadlar daraxtida ham aks ettirish mumkin.



3.2- rasm. Marketing tahlilining maqsadlar daraxti

Ushbu 3.2-rasmda keltirilganidek, marketing tadqiqotlarining rejasini ishlab chiqilishi marketing tahlili yoki uning maqsadli daraxtini shakllantirishdan boshlanadi. Bu tahlil o'z ichiga o'rganilayotgan bozorning kon'yukturasini tahliliy tasvirlari va omillarini qamrab oladi (3.3-rasm).

| Tovar bozoridagi holat | | | | | |
|--|----------|--|--------------------------------------|---|--|
| Taklif: milliy ishlab chiqarish, import | | Bozorning hajmi va tuzilmasi | | | Talab: Daromad- lar darajasi va tuzilmasi |
| Narx va infliyatsiya jarayonlar | Siklilik | Bozor rivoj lanishining barqaror ligi va bir tekisligi | Bozor sig'imi | Bozor rivojlani shining vektori, tendensi | Raqobat |
| Bandililik | | | Talab va taklif munosa- bat | ya va tezligi | Demogra- fik holat |
| Qimmat- baxo qo'g'uzdar bozoridagi holat | | Ishbilar- mon faolligi | Talabning narx elastikligi | Bozorda gi risklar | Siyosiy holat |
| Moliya va pul muomala- si | | Iste'molchi (xaridor) larning fikri xohish-istagi va xulqi | | | Tasodifiy omillar |
| Hom-ashyo bozoridagi holat | | Investitsiyalar | | | |

3.3-rasm. Kon'yunkturaviy tahlil tavsisi va omillari

Har doim tahlil etilganidek omillari tashqi va ichki holatlarini o'z tarkibiga kirgan holda, bozorning (tovar yoki xizmat) holati, uning hajmi, tuzilmasi, raqobat, rivojlanish barqarorligi, sig'imi, risklar va boshqa turli omillarni inobatga olinishini taqazo qiladi.

Marketing tadqiqotlari jarayonining rejasi (research design) – marketing tahlilini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarurdir. Marketing tahlili muammosini hal etish, yoki uning uchun zaruriy axborotlarni to'plash modelarini aniqlashtirish muhim o'rinni tutadi. Shu sababdan marketing rejasi ushbu tadqiqotlarni samarali o'tkazish jarayonida o'ziga xos ahamiyatga ega. O'z vazifasini samarali va yuqori sifatda bajarishda marketolog birinchi navbatda aniq o'ylangan marketing tahlil rejasini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, marketing tahlilining rejasi zaruriy axborotga ega bo'lib, marketing tahlili muammosini hal etishda foydalaniladigan metodlar (uslublar)ni aniqlashtiradi.

Marketing tadqiqotlari jarayoni rejasi o'z tarkibiga quyidagi vazifa yoki komponentlarni kiritadi:

1. Zaruriy axborotlarni aniqlash.
2. Tadqiqot izlanish, deskriptiv yoki sabab-oqibat fazalarini ishlab chiqish.
3. O'lehash va shkalalashtirish jarayonlarini aniqlashtirish.
4. Anketa (so'rovnama)ni shakllantirish yoki axborot to'plashning boshqa uslubini aniqlash.
5. Tanlash jarayonini aniqlash va uning hajmini belgilash.
6. Ma'lumotlar tahlilini o'tkazish rejasini ishlab chiqish.

Ushbu bosqichlar alohida boblarda ko'rib o'tilishi rejalashtirilgan va ushbu o'quv qo'llanmada amalga oshitilgan.

Albatta, birinchi navbatda tadqiqot rejasining turli hil ko'rinishlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Umuman olganda, marketing tadqiqotlari loyihasi – bu marketing tadqiqotlarini bajarish sxemasi bo'lib, unda ushbu tadqiqotning har bir bosqichi bayon qilinadi va talab qilinadigan axborotlarni olish uchun zarur barcha jarayonlar belgilab olinadi. U muammoni aniqlashga va ushbu muammoni hal qilish usulini tanlashga asoslanadi.

3.2. Marketing tadqiqotlarining dastlabki bosqichlari

Dastlabki yoki boshlang'ich tadqiqotlar – muammoli holatni aniqlash, asosiy g'oyani shakllantirish, tadqiqotchi oldida turgan muammoni mohiyatini aniq tasvirlashga qaratilgan. Boshlang'ich yoki dastlabki tadqiqotlar muammoni aniqlashga qaratilgan bo'lsa-da, lekin uning kelib chiqish manbalarini aniq tasavvurga ega bo'lmaganligi uchun unga murojat qilinaveradi.


Quyidagi 3.4-rasmida marketing tadqiqotlari rejalarini tasniflashtirish o'tkazilgan bo'lib, ulardan ko'rinish turgandek, tadqiqot rejasini asosan ikkiga taqsimlanib, izlanish va yakuniy tadqiqot rejalaridan iborat ekan. Ushbu rejalar o'rtasidagi farqlar 3.1-jadvalda aks ettirilgan. Izlanish tadqiqotlarining asosiy maqsadi bo'lib, tadqiqot ortida turgan muammoning mazmun va ahamiyatini aniqlashtirishdan iborat.

Izlanish tadqiqoti (expiatory research) – marketing tadqiqotlarining turlaridan biri hisoblanib, tadqiqotchi oldida turgan muammoni to'g'ri tushunishini ta'minlab berishga hizmat qiladi.

Izlanish tadqiqotlari asosan muammoni aniqlash, ularni yechimini topishda to'g'ri yondashuvga ega bo'llish holatida foydalaniladi. Bu bosqichda marketolog oldiga qo'yilgan vazifani aniq tasavvur eta olmagan holda, qanday axborot zarurligini aniqlashda izlanish tadqiqotlari navf beradi.

Yakuniy tadqiqot (conclusive research) - top-menejerga ma'lum holatda eng yaxshi harakatlar variantini aniqlash, baholash va tanlash uchun hizmat qiladigan marketing tadqiqotlaridir.

Quyidagi rasmida, marketing tadqiqotlari rejasini tasniflash aks ettirilgan.



3.4 - rasm. Marketing tadqiqotlar rejalarini tasniflashtirish

Tadqiqot izlanishlarning asosiy vazifalari muammo yoki holatini aniqroq o'rghanish, uning mohiyatini to'liq tushunishdan iborat. Marketolog oldiga qo'yilgan bunday katta vazifalarni amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- muammoni aniqlash va ifodalash;
- harakatlarning muqobil yo'nalishlarini aniqlash;
- gipotezalarni ishlab chiqish;
- asosiy o'zgaruvchilarni ajratish va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash;
- muammoni yechimida u yoki bu yondashuv variantini asoslash;
- kelajak tadqiqotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.

3.1-jadval

Izlanish va yakuniy marketing tadqiqotlari o'rtasidagi farqlar


| | Izlanish | Yakuniy |
|-----------|---|---|
| Maqsad | Marketing muammosini chuqur tushunish | Konkret gipotezalarni tekshirish va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rghanish |
| Tavsiflar | Zaruriy axborot noto'g'ri aniqlangan tadqiqot jarayoni o'zgaruvchan va tarkiblashtirilmagan Tanlov yuqori emas. | Zaruriy axborot to'g'ri aniqlanmagan |
| | Birlamchi ma'lumotlarni sifatli tahlil qilish | Tadqiqot jarayoni tartibga keltirilmagan |
| Natijalar | Dastlabki | Yakuniy |
| Yakun | Keyingi yo'naliш yoki yakuniy tadqiqot oldidan amalga oshiriladi | Natijalar boshqaruв qarorlarini qabul qilish jarayonida dastlabki manba tariqasida foydalaniлadi. |

Izlanish yoki qidiruv tadqiqotlari quyidagi metodlarni qo'llanishini taqazo etadi:

- ekspertlarni so'rov qilish;

- boshlang'ich tadqiqotlar;
- ikkilamchi axborotlar tahlili;
- sifatiy tadqiqotlar.

Shuningdek, marketing tadqiqotlarida ikkilamchi axborot manbalaridan xalqaro marketingni qo'llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.



3.5-rasm. Xalqaro marketing tadqiqotlari

Bozorning mazmun tavsiyalarini yoki marketing faoliyatini ma'lum jahbalarini ifodalashda deskriptiv tadqiqotlar muhim o'rinnegallaydi.

Deskriptiv tadqiqoti (*descriptive research*) – tadqiqotning bir turi bo'lib, uning asosiy maqsadi bo'lib, bozorning yoki marketing faoliyatining ma'lum jahbalarini ifodalashdan iborat.

Deskriptiv tadqiqotlarni o'tkazish borasida marketologlar muammoli holat to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi muhim o'rinn tutadi. Shu sababdan izlanish va deskriptiv tadqiqotlar

o'rtasidagi asosiy farq ham shundan iboratki, deskriptiv tadqiqotlar o'tkazayotganda marketologlar oldindan qanday ma'lumotga ega bo'lishini biladi, tadqiqot gipotezalarini aniq tasavvur qiladi. Deskriptiv tadqiqotlar oltita savolga aniq javob olishni taqazo etadi, ya'ni: kim, nima, qachon, qayerda, nima uchun va qanday (ingliz tilida six Ws).

Profil (qaytarilmaydigan) tadqiqotlar marketing tadqiqotlarini o'tkazishda ko'p holatda foydalaniadi.

Profil (qaytarilmaydigan) tadqiqotlar (cross-sectional designs) – tadqiqot rejasini turi, hisoblanib, bosh to'plamdan bir marotaba, tanlov tariqasida axborot to'plashni tushuniladi. Ko'pincha bunday tadqiqotlar tanlov so'rov (sample survey) tariqasida ifodalanadi. Uiar bir marotalab yoki ko'p profillik turlariga taqsimlanadi.

Bir marotabalik profil tadqiqotlar (single cross-sectional design) – bosh to'plamdan respondentlardan bitta tanovi olinib, undan ma'lumot faqat bir marotaba to'planadi.

Ko'p marotabalik profil tadqiqoti (multiple cross-sectional design) – bu holatda respondentlarning ikki yoki ortiqroq tanlovdan axboroiilar faqat bir marotaba to'planiladi.

Ma'lum bir paytda sodir etilayotgan hodisalarni tahlil etishda respondentlar kogort tariqasida qabul qiladi.

Kogort tahlili (cohort analysis) – ma'lum vaqtida so'rovlarning seriyasi bilan o'tkaziladigan ko'p marotabalik profil tadqiqotlardir. Kogorta deganda bir paytni o'zida bir hil hodisaga duch kelayotgan respondentlar guruhi hisoblanadi.

Bir hilgi mahal qayta izlanish yoki tekshirish ishlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Bunday holatlarda qayta izlanish amalga oshirilib, bosh to'plamdan olingan tanlov yoki tanlovlar boshqatdan tadqiq qilinadi.

Qayta tadqiqot (longitudinal design) – aniqlangan va asosiy to'plamdan tanlab olingan elementlar tavsiflari qayta o'chaniladi.

Qayta tadqiqot o'tkazish amaliyotida panel iborasi ko'p holatda ishlataladi.

Panel (panel) – uzoq muddat davomida ma'lum interval mobaynida ma'lumotlarni yetkazib, berishga rozi bo'lgan respondentlar tanlovi yoki guruhiga aytildi.

3.3. Tadqiqot loyihasini olib borish yondashuvlari

Zamonaviy tadbirkorlik davri o'zining bir qancha xususiyatlari ko'ra dastlabki davrlardan ajralib turadi. Bu birinchi navbatda marketing faoliyatining nazariy va amaliy jihatdan asosiy kurash vositasi, rivojlanish uslubi va dasturi sifatida tobora namoyon bo'layotganligida ko'rinishmoqda. Marketing xususida to'plangan axborotni o'z vaqtida ishlatalish, undan zaruriy yo'nalishlarni aniqlashda foydalananish natijasida, ko'pgina firmalar mashxurlikka erishdilar, doimiy xaridorlar ko'lamiga, ular e'tiboriga sazovor buldilar. Buuday firmalar jumlasiga, «Maykrosoft», «Nayk», «Ribok», «Simens» kabi bir kator firmalarni kiritish mumkin. Marketing faoliyatini tashkil etish va marketing axborotiga bo'lgan ommaviy zaruriyat quyidagi o'zgarishlarga bevosita bog'liq.

Birinchidan, zamonaviy tadbirkorlikning dastlabki rivojlanishida asosiy e'tibor xaridor ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi paytda asosiy e'tibor xaridorlar istaklarini qondirishga qaratilgan. Ehtiyoj – inson tomonidan his etilgan moddiy va ma'naviy ne'matlarga nisbatan yetishmovchilik demakdir. Ehtiyoj umumlashgan tarzda ushbu ne'matlarga egalik qilishni nazarda tutsa, xaridorlik istagi – alohida insonniq moddiy va ma'naviy yetuklik darajasiga ko'ra, muayyan tovarga bevosita egalik qilish va uni o'zlashtirish borasida zaruratidir.

Lekin, xaridor istagi tushunchasi to'la ma'noda xaridorning muayyan tovarni sotib olishga, foydalishga qodir va tayyor ekanligini anglatmaydi. Shu sababli, bu o'rinda xaridorlik talabi tushunchasini keltirish lozim. Xaridorlik talabi – muayyan tovarni sotib olishga qodirligi va tayyorligi bilan belgilanadigan xaridorlik istagining aniqlashtirilgan shaklidir. Boshqacha qilib aytganda, xaridorning xarid qilishda to'lovga qodirlilik darajasi va

imkoniyatida bo'lgan qismigina xaridor talabi chegarasini ifodalaydi.

Demak, zamonaviy tadbirkorlik va marketing faoliyati bиринчи о'ringa xaridорlarning umumlashgan tarzdagi ehtiyojini emas, balki individual xaridorning istagi, didi, xohishi va o'zlashtirish xususiyatlari bilan farqlanuvchi – xaridorlar ishtiyoqini qondirishga talab etadi. Shunday qilib turar joyga, ovqatlanishga, dam olishga bo'lgan ehtiyojni qondirishidan, muayyan tarzdagi xaridорlar istagini qondirishga, ya'ni ularning salmog'i, turmush tarzi, odatlari, mavqelari va boshqa xusuyatlarni nazarda tutib, uni qondirish sari yul tutilishi hozirgi paytdagi tadbirkorlik faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ikkinchidan, mahalliy miqyosdagi marketingdan, umum davlat va undan xalqaro marketing faoliyati sari o'tilishi oqibatida, firmalar o'z imkoniyatlarini samarali jihatlarini internatsionalizatsiya jarayonida qo'rmoqdalar. Mahalliy bozor talablarini qondirish uchun kurashda geografik cheklanishlarning yo'qolishi, yangi tovarlar va xizmatlar bilan yangi bozorlarni o'zlashtirish samarali ekanligini ushbu xususiyatning asosiy mohiyatini belgilaydi.

Ushbu nuqtai nazardan, marketing axborotiga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda. Marketing jarayonini samarali tashkil etishda marketing tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan marketing tadqiqoti jarayoni uchun to'rt muhim manfaatdorlikni ta'minlash lozim.

1. Tovarlar va xizmatlarni xaridorlarga yetkazishning firma va xaridor o'rta sidagi o'zaro manfaatli va samarali shaklini izlash. Xaridor uchun o'ta manfaatli savdo va xizmat ko'rsatish shakllari asosida xaridorning barcha psixologik, fiziologik va boshqa xaridor istaklarini qondirish. Bu jihatdan, «xaridor doim haq» tamoyili asosida firma o'z faoliyatini tashkil etishi lozim.

2. Xaridor uchun manfaatli va foydali bo'lgan manzildagi tovarlar va xizmatlarni taklif etishga intilish. Xaridor geografik

jihatdan cheklanish va xizmatlardan foydalanishdan yetishmovchilikni sezmasligi lozim.

3. Xarid etish vaqtin xarider uchun qulay va ko'p jihatdan manfaatlari bo'lishini ta'minlash yoxud kerakli va zaruriy vaqtida sotuvchining xaridorga tegishli tovarlar va xizmatlarni taklif eta olish qobiliyatini oshirish.

4. Xarid qilish va foydalanishdan xaridorning mammunligi va manfaatdorligini ta'minlash. Ko'pgina xollarda, xaridor o'zi uchun zarur tovarlarni sezmay qoladi va e'tibor bermaydi. Ana shu vaziyatda sotuvchi xaridor ishtiyoqini seza bilishi, uni ushbu bozorda kerakli tovarlar bilan ishtiroti muhim ekanligini anglashi zarur bo'ladi.

Ushbu manfaatdorlikka erishish uchun zaruriy shart – sharoitni marketing tadqiqoti amalga oshiradi. Yetarli axborotni to'plash kelgusi o'zgarishlarni belgilash uchun ushbu tadqiqotning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, yuqorida qayd etilgan manfaatdorlikni ta'minlash marketingning tarkibiy elementlarida o'z aksini topadi, ya'ni «Marketing – Miks» dasturi tarzida: boshqacha qilib aytganda to'rt «R», tovar, baho, manzil va tovarlarni talabga moslashtirish bo'yicha kelgusi amaliy tadbirlarda oydinlashtiriladi. Demak, marketing faoliyatiga xos bo'lgan barcha axborotlar, ma'lumotlar tadqiqotlar uchun muhim qurol sifatida shakllanadi.

3.6-rasmida marketing tadqiqotlarini o'tkazishda amal qilish lozim bo'lgan asosiy tamoyillar – tizimlilik, komplekslilik, obyektivlik, tejamkorlik, muntazamlik, tezkorlik, aniqlik va sinchkovlik aks ettirilgan. Bu tamoyillarning har biri o'zicha muhim bo'lsada, biroq ular birgalikda va uyg'unlikda yaxshi o'ylab chiqilgan va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan marketing tadqiqotlarini tayyorlashga imkon beradi.



3.6.-rasm. Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda amal qilish lozim bo'lgan asosiy tamoyillar¹²

Ushbu konsepsiyanı ishlab chiqish marketing tadqiqotlarini butun murakkabliklarini bilan ko'rishdan tashqari uni yanada oqilona usullari bilan hal qilish yo'llarini belgilashga imkon beradi. Bu esa yanada muhim ahamiyat kasb etadi.


Tovar ishlab chiqaruvchi istalgan korxona rahbariyati bozordagi holat, qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalar xarakteri hamda belgilangan strategiyadan kelib chiqqan holda qaysi marketing tadqiqotlarini va qanday ketma-ketlikda o'tkazish, qanday inson va moliya resurslarini ishga solish, nimani o'z kuchi bilan qilish, qaysi tadqiqotlarni chetdan bajaruvchilarga buyurtma qilish foydali ekanligini hal qilishga majbur.

Inson va moliya resurslarini tejash va bunda marketing tadqiqotlarini o'tkazishda katta natijaga erishish uchun ushbu

¹² Завъядов П.С. Маркетинг в схемах и рисунках. –М.:Инфра-М, 2013, 70-6

muammoni istiqbolda qanday bo'lishini konseptual jihatdan ko'rish zarur.

Murakkab va keng miqyosli marketing tadqiqotlarini o'tkazishda tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish, unda muammoni batafsil ochib berish, uni eng samarali usul bilan hal qilish yo'llari va vositalarini ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bunday konsepsiya asosida tadqiqot loyihasini, uni o'tkazish usulini ishlab chiqish, vazifalarni ifodalash, axborotni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Quyidagi rasmda marketing tadqiqotlarini o'tkazish loyihasining turli yo'llari ko'rsatilgan.



3.7-rasm. Marketing tadqiqotlarini loyihasini o'tkazish konsepsiysi¹³

Marketingli tadqiqotlar tizimida firma rahbariyatiga ichki buxgalteriya hisoboti va boshqa ma'lumotlardan tashqari, bozor

¹³ Завьялов П.С. Маркетинг в схемах и рисунках. –М.: Инфра-М, 2013, 72-6

kon'yunkturasi haqida, xaridorning aynan shu tovari sotib olishga nima majbur qilganligini tadqiq qilish, hududlar bo'yicha sotish miqdorini istiqbollash, reklama samaradorligini hisoblash kabi marketingli ma'lumotlar ham zarur. Bunday ma'lumotlarni maxsus marketingli tadqiqotlar orqali olish mumkin. Bu tadqiqotlar doimiy ravishda ma'lumotlarni loyihalash, yig'ish, tahsil qilish, e'lon qilish va o'ziga xos marketingli vaziyatlarda ularni qo'llash choralarini izlashdan iboratdir.

Firmalar marketingli tadqiqotlar natijasini turli yo'llar bilan olishlari mumkin. Masalan, kichik kompaniyalar bu tadqiqotlarni o'tkazishni universitet (institut) kafedralari yoki maxsus firmalarga buyurtma qilishlari mumkin. Yirik kompaniyalar ko'pchilik hollarda o'z strukturalarida marketingli tadqiqot bo'limlariga ega bo'ladilar.

3.4. Tadqiqot loyihasini olib borish byudjeti va jadvalini shakllantirish

Tadqiqot rejasি ishlab chiqilgandan va umumiyl xatolikka yo'lli qo'yish ustidan nazorat o'matilaganidan so'ng marketing tadqiqotlarini o'tkazish jadvali va byudjeti ishlab chiqilishi lozim bo'ladi. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish **byudjetini tuzish va jadvalini ishlab chiqish** (*budgeting and scheduling*) loyiha yetarli darajada moliyaviy, vaqt, mehnat va boshqa resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun zarurdir. Marketing tadqiqoti loyihalarini vaqt chegaralari o'matilganidan so'ng boshqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ushbu loyihani samarali boshqarishda ko'p holatda *tanjidiy* (*kritik*) *yo'l metodi* (*Critical Path Method*) foydalaniib, loyihani alohida bosqichlarga vaqt, ketma-ketligi va xarajatlarini inobatga olingan holda tartiblashtiriladi. Bunday tartibga olish turli jadval asosida amalga oshiriladi va undan keyin har bir harakatning tanqidiy yo'lli, ya'ni ma'lum holatda eng optimal bajarish yo'lli hisoblanadi.

Hozirgi kunda tanqidiy yo'l metodi (*SRM*)ning takomillashgan shakli dasturni bajarilishini baholash va tekshirish usuli (*Program Evaluation and Review Technique – PERT*)

hisoblanib, loyihaning amalga oshirish jadvalini tuzishga ehtimollik yondashuv bilan tasvirlanadi. Undan ham zamonaviy usullardan biri bo'lib *jadvaliy baholash va tekshirish* (*Graphical Evaluation and Review Technique – GERT*) usuli hisoblanadi. Bu usulda bajarish ehtimolligi, har faoliyatning xarajatlari turli jadval tariqasida aks ettiriladi.

Marketing tadqiqotlarining o'tkazish rejasи va byudjeti tasdiqlangandan so'ng uni olib borish takliflari ishlab chiqiladi. Marketing tadqiqotlarini amalga oshirish taklifi (marketing research proposal) marketing tadqiqotlarining mohiyatini ifodalab, tadqiqotchi va mijoz o'rtaqidagi shartnoma tariqasida qabul qilinadi. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish haqidagi taklif uning barcha bosqichlarini o'z ichiga qamrab oladi:

- tadqiqot oldidagi muammo;
- uning hal qilish uchun yondashuv;
- tadqiqot rejasи;
- ma'lumotlar qanday to'planiladi, qanday tahlil etiladi;
- qanday natijalar mijozga taqdim etiladi va boshqalar.

Bu taklifda barcha amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha xarajatlar hisob-kitob qilinadi va uning vaqtinchalik jadvali ishlab chiqiladi. Ushbu taklif quyidagi 10 ta bo'limdan iborat bo'ldi:

1. Rahbariyatga qisqacha ma'lumot (rezyume) tayyorlanadi.
2. Boshlang'ich manba ma'lumotlari.
3. Tadqiqotning muammosi va vazifalarini aniqlash.
4. Muammoga yondashish.
5. Tadqiqot o'tkazish rejasini ishlab chiqish.
6. Ma'lumotlarni to'plash yoki dala tadqiqotlari jarayonlariini amalga oshirish.
7. To'plangan ma'lumotlarni tahlil etish.
8. Hisobot tayyorlash va uning taqdimotini amalga oshirish.
9. Marketing tadqiqotlarini o'tkazishdagi bosqichlarining muddati va xarajatlarini hisoblash.
10. Bajarilgan ish bo'yicha ilovalatni (statistik yoki boshqa axborotlar) biriktirish.

Barcha to'plangan marketing ma'lumotlari tadqiqot o'tkazishdagi taklif va axborotga ehtiyojni aniqlashdan iborat bo'ladi.

3.5.Tadqiqot o'tkazish to'g'risidagi taklif va axborotga ehtiyojni aniqlash

Yuqorida ko'rib o'tilgan bo'limlarda biz tomondan marketing tadqiqotlarini o'tkazishga asos bo'ladigan taklif o'zi nimaligini yoritib berilgan edi. Ammo, bunday taklif faqat mijozning ehtiyoji yoki xohishidangina emas, balki marketologlar, yoki marketing muammosini tahlil qilayotgan boshqa mutaxassislar tashabbusi bilan ham amalga oshishi mumkin.

3.2.-jadvalda marketing ma'lumotlarini maqsadiga qarab guruhlashtirish tizimi tавсиya qilingan. Unda ma'lumotlarning turlari, oldiga qo'yilgan maqsadlar va manbalari ham ko'rsatilishi lozimdir. Ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi, mijoz tomondan qo'yilgan talablar, tadqiqot byudjeti, o'tkazish bosqichlari va boshqa omillarni inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir.

3.2.-jadval

Marketing ma'lumotlarini maqsadiga qarab guruhlashtirish

| Ma'lumot turi | Ma'lumotning maqsadi | Ma'lumot qayerdan olinganligi |
|---------------------|---|--|
| Ma'lumotuoma | Yordamchi, xizmat maqsadlari | Ma'lumotnoma, registrlar, byulletenlar, o'quv adabiyyotlar |
| Normativ | Turli me'yorlar va normativ dalolatnomalar, boshqaruv | Normativ ma'lumotnomalar, qonunlar va qarorlar to'plami |
| Taxliliy | Qonuniyatlar, tendensiya, o'zaro bog'liqlikni aniqlash va modellashtirish | Dinamik qatorlar, taqsimot qatorlari, guruhlashtirish va boshqalar |

| | | |
|---------------------|---|---|
| Tavsiya etiluvchi | Konsalting maqsadlari, ma'lumotlar bazasi | Buyurtma yoki kutiilmagan tadqiqotlar asosida tavsiya qilish, proqnozlar tuzish |
| Signallik | Monitoring (kuzaifuv) | Hisoblash va faktlar, qisqa muddatlai proqnoz va ekstropolyatsiya |
| Muvofiqlashtiruvchi | Kontrolling | Rejadan chiqish holati bo'yicha ma'lumotlar |

Marketing axborot tizimi

- Tuzilmaviy muammolar
- Hisobotlardan foydalanish
- Shavqatsiz tuzilma
- Ma'lumotlarning chegarali doirasi
- Qayta ishlamagan ma'lumotlardan foydalanib qaror qabul qilish samaradorligini oshirish

Qaror qabul qilishga yordam beruvchi tizim

- Tuzilmalashtirilmagan muammolar
- Modellardan foydalanish
- Do'stona portreys
- Moslashtirishlik
- "Agarda bo'lsa....." turidagi tahlil hisobiga qaror qabul qilish samaradorligini oshirish

3.8. Marketing axborot tizimi va qaror qabul qilishga yordam beruvchi tizimni taqqoslash

Shu sababdan 3.8 - rasmida marketing axborot tizimi va marketolog tomonidan qaror qabul qilishga yordam beruvchi tizimni taqqoslash amalga oshirilgan.

Shu sababdan marketing axborot tizimining va qaror qabul qilishga yordam beruvchi tizimni solishtirib ko'riliши, marketing tadqiqotlarining maqsadi, oldiga qo'yilgan vazifalarни amalgalо shirishda oqilona yo'l topishga xizmat qilади.

Deskriptiv tadqiqotlari asosan ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanishligini esdan chiqmasligi lozim. Ayniqsa, ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish jarayonida o'rganilayotgan obyektga mosligi, tarmoq, soha xususiyati, tashkilotdagи qo'yilgan maqsadlar, foydalanilayotgan metodlar, usullar va boshqalarni inobatga olinishi zarurdir.

Hozirgi davrda ma'lumotlarni yig'ish va taxlil qilishda zamonaviy axborot-texnologiyalardan kengroq foydalanish imkoniyatini amalgalо shirish, Internet tizimida marketing tadqiqotlarini o'tkazish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Marketing tadqiqoti natijalarini umumlashtirishda bir qancha masalalar qarab chiqilishi lozim. Bularni amalgalо shirish uchun quyidagi jihatlarga ahamiyat beriladi.

1. Marketing tadqiqotlari maqsad va vazifalariga to'liq erishilganligi qayd qilinadi.
2. Marketing tadqiqotlarining konsepsiysi bajarilganligi umumiylar tarzda qarab chiqiladi.
3. Marketing tadqiqotlari bo'yicha to'plangan axborotlarning to'g'riligiga baho berilib, xatoliklar darajasi aniqlanadi.
4. Marketing tadqiqotlari bo'yicha statistik tahlil amalgalо shiriladi. Bunda juda ko'p ko'rsatkichlar turli usullarni qo'llagan holda tahlil qilinadi. Chunki kutilayotgan natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqliklar funksional yoki stoxostik bo'lishi mumkin. Bular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashda oddiy tahliliy usullardan tortib korrelyatsion usullargacha foydalaniladi.
5. Marketing tadqiqotlarining statistik tahlili natijalari bo'yicha atroflichcha xulosa qilinadi va mahsulot (xizmat) bozorini takomillash-tirish bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.
6. Mazkur qarorni amalgalо shirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

7. Ushbu chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etishga kirishiladi. Bunda har bir mutaxassisiga tegishli tarzda vazifalar bo'lib beriladi va uning bajarilishi tizimli ravishda nazorat qilib boriladi.

Axborot to'plash «tanlab olish» asosida amalga oshiriluvchi marketing tadqiqotlarining asosiy tamoyili butun populyatsiya uchun uning kichik bir qismni tanlab olish asosida axborot olishdan iborat. Tanlab olish hajmi olingan natijalarning aniqlik darajasini belgilab beradi.

Klassik usul tasodifiy tanlab olish hisoblanadi. Iste'molchilarini tadqiq qilish uchun odatda tasodifiy raqamlar yoki «har birinchis» tamoyili bo'yicha tanlab olinuvchi ro'yxat qo'llanadi. Tanlov hajmi odatda bir necha yuz yoki mingtani tashkil etadi (masalan, Angliya uchun 30000 atrofida, ya'ni yoshi katta aholining mingdan bir qismi olinadi).

Normal taqsimot qonunini qabul qilishda o'rtacha kvadrati og'ish quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{p(100 - p)}{n}},$$

bu yerda

p – o'zgartirish lozim bo'lgan xislatga ega populyatsiya foizi;
 n – tanlab olish hajmi.

Masalan, 1000 ta uy egasi tanlab olishga jaib etilgan va ulardan 10% o'lchanayotgan belgiga ega bo'lsa, u holda qolgan 90% i ichida bir – biriga yaqinlari yoki o'xshashlari tanlab olinadi. Ushbu o'xshashlikdan yarmidan ko'pi ehtimollik darajasiga tayanadi.

Bu esa shuni anglatadi: 68% ehtimollik darajasi (bitta standart og'ish) bilan tasdiqlash mumkinki, natija 9,7 va 10,3% o'rtasida yotadi, ehtimollik darajasi 0,95 bo'lganda esa – 9,4 va 10,6% (og'ish ikki), n q 400 bo'lsa, oxirgi holatda 7-13% (standart og'ish 1,5%) bo'ladi. Shu sababli ko'pincha tanlab olish hajmi 1000 kishi qilib olinadi (3.3-jadvalga qarang).

3.3-jadval

Tanlab olish hajmi turlichcha bo'lganda aniqlik diapazonlari

| Hajm | Muvofiqlik darajasi 0,95 da kutilayotgan natija (%) | 10 ili 90 (±) | 30 ili 70 (±) | 50 (±) |
|------|---|---------------|---------------|--------|
| 50 | 9 (4,5) | 13 (6,5) | 14 (7) | |
| 100 | 6 (3) | 9 (4,5) | 10 (5) | |
| 200 | 4 (2) | 6 (3) | 7 (3,5) | |
| 500 | 3 (1,5) | 4 (2) | 4 (2) | |
| 1000 | 2 (1) | 3 (1,5) | 3 (1,5) | |
| 5000 | 1 (0,5) | 1 (0,5) | 1 (0,5) | |

To'plangan statistik ma'lumotlar turli tarzda tahlili qilinishi mumkin. Masalan, ko'p omilli regressiya tahlili, omillar tahlili, klaster tahlili va aloqalar tahlilidan foydalanish mumkin.

Klaster tahlilida bir guruh iste'molchilarini boshqa guruhdan keskin farq qiluvchi omillar izlanadi va shu tariqa bitta klaster boshqalardan «ichki bog'lanish» natijasida ajratiladi.

Marketing tadqiqotining yakuniy bosqichi uning natijalarini ehtiyoj bildirgan barcha shaxslarga taqdim etishdan iborat. Birinchidan, kim bu natijalarni foydali deb hisoblashini aniqlash kerak. Foydalananuvchilar uchun hisobot tilini soddalashtirish talab qilinishi mumkin, chunki kam sonli menejerlarga marketing tadqiqotlari atamalarini tushunadi.

Menejerlarga hisobot bilan quyidagi tarzda ishlash taklif etiladi.

Hisobotning birinchi betiga nazar tashlashdan oldin menejer o'zidan tadqiqot predmeti uning o'ziga xos ehtiyojlariga javob berishi haqida savol berishi lozim. Bundan tashqari, ishning hisobot bilan maqsadga muvofiqligini baholashni hisobot annotatsiyasiga ko'z yugurtirib chiqib ham bilish mumkin.

Eng muhim masala – tadqiqotning ishonchligini baholashdir. Hisobotning metodologiyasi bilan tanishishda (masalan, anketalar mazmuni bilan tanishishda) qo'pol baholashga yo'l qo'yilishi mumkin. Aniqliknini foydalanilayotgan tanlov hajmi bilan baholash lozim.



3.9-rasm. Mezonlarning asosiy ketma-ketligi¹⁴

Aksariyat hisobotlarda ma'lum bir tendensiylar kuzatiladi, chunki tadqiqotchining o'z qarashlaridan chetga chiqishi qiyin. Eng yaxshi hisobotlar tadqiq etiladigan narsalar va ularning natijalari qat'iy tezislaridan iborat oladi. Bu natjalarning «bezalishi»ni anglashga imkon beradi.

Hisobot ustida ishslashda yakuniy masala foydalaniladigan axborot doirasi qandayligidir. Javobni qanday masalalar ko'rib chiqilganligini to'g'ri tushunish uchun anketalar bilan tanishib chiqib olish mumkin.

Faqat bu ko'rsaikichlar bo'yicha baholagandan so'ng hisobotning asosiy qismini o'qishga o'tish lozim.

Tabiiyki, o'qishni annotatsiyadan boshlash, so'ngra detalli natjalarni anglashga o'tish lozim. Menejer tadqiqot natijasida olingan xulosalar bilan roziliginibildirishi, qaysi axborot uning uchun haqiqatlan ham yangi ekanligini farqlashi lozim. Va nihoyat, hisobot bilan tanishishni o'z annotatsiyasini yozish bilan yakunlash zarur bo'ladi.

¹⁴ Феденко В.П. Маркетинг. 100 экзаменационных ответов. Ростов на Дону, МарТ, 2012, с.129

Qisqa xulosalar

Bu bobda biz, marketing tadqiqotlari jarayoni, marketing tadqiqotlarini o'tkazishda eng muhim omil tadqiqot o'tkazish jarayoni va marketing tadqiqotlari jarayoni bosqichlarining ketma-ketligi, bozorni tadqiq qilish uchun zaruriy axborotlar manbai ma'lumotlari bilan tanishib chiqdik.

Shuningdek, marketing tadqiqotlari jarayonining rejası (*research design*) – marketing tahlilini muvaffaqiyatlil o'tkazish uchun zarurdir. Marketing tahlili muammosini hal etish, yoki uning uchun zaruriy axborotlarni toplash modellarini aniqlashtirish muhim o'rinn tutadi. Shu sababdan marketing rejası ushbu tadqiqotlarni samarali o'tkazish jarayonida o'ziga xos ahamiyatga ega. O'z vazifasini samarali va yuqori sifatda bajarishda marketolog birinchi navbatda aniq o'ylangan marketing tahlil rejasini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, marketing taxlilining rejası zaruriy axborotga ega bo'lib, marketing tahlili muammosini hal etishda foydalilaniladigan metodlar (uslublar)ni aniqlashtiradi.

Izlanish tadqiqoti (expiatory research) – marketing tadqiqotlarining turlaridan biri hisoblanib, tadqiqotchi oldida turgan muammoni to'g'ri tushunishini ta'minlab berishga hizmat qiladi.

Izlanish tadqiqotlari asosan muammoni aniqlash, ularni yechimini topishda to'g'ri yondashuvga ega bo'lish holatida foydalilaniladi. Bu bosqichda marketolog oldiga qo'yilgan vazifani aniq tasavvur eta olmagan holda, qanday axborot zarurligini aniqlashda izlanish tadqiqotlari navf beradi.

Yakuniy tadqiqot (conclusive research) - top-menejerga ma'lum holatda eng yaxshi harakatlar variantini aniqlash, baholash va tanlash uchun hizmat qiladigan marketing tadqiqotlaridir.

Deskriptiv tadqiqotlar oltita savolga aniq javob olishni taqazo etadi, ya'ni: kim, nima, qachon, qayerda, nima uchun va qanday (ingliz tilida six Ws).

Profil (qaytarilmaydigan) tadqiqotlar (cross-sectional desings) – tadqiqot rejasini turi, hisoblanib, bosh to'plamdan bir

marotaba, tanlov tariqasida axborot to'plashni tushuniladi. Ko'pincha bunday tadqiqotlar tanlov so'rov (sample survey) tariqasida ifodalanadi. Ular bir marotalab yoki ko'p profilistik turlariga taqsimlanadi.

Bir marotabalik profil tadqiqotlar (single cross-sectional design) – bosh to'plamdan respondentlardan bitta tanlovi olinib, undan ma'lumot faqat bir marotaba to'planadi.

Ko'p marotabalik profil tadqiqoti (multiple cross-sectional design) – bu holatda respondentlarning ikki yoki ortiqroq tanlovdan axborotlar faqat bir marotaba to'planiladi.

Qayta tadqiqot (longitudinal design) – aniqlangan va assosiy to'plamdan tanlab olingan elementlar tavsiflari qayta o'chaniladi.

Qayta tadqiqot o'tkazish analiyotida panel iborasi ko'p holatda ishlataladi.

Panel (panel) – uzoq muddat davomida ma'lum interval mobaynida ma'lumotlarni yetkazib, berishga rozi bo'lgan respondentlar tanlovi yoki guruhiga aytildi.

Tadqiqot loyihasini olib borish byujetini ishlab chiqish yo'llari bilan ham tanishib chiqdik.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish byudjetini tuzish va jadvalini ishlab chiqish (*budgeting and scheduling*) loyiha yetarli darajada moliyaviy, vaqt, mehnat va boshqa resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun zarurdir. Marketing tadqiqoti loyihalari vaqt chegaralari o'matilganidan so'ng boshqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tayanch iboralar: Marketing tadqiqotlari jarayoni, bozorni o'rGANISH, bosqichlar, maqsadli daraxt, rejani ishlab chiqish, Deskriptiv tadqiqoti, Profil (qaytarilmaydigan) tadqiqotlar, bir marotabalik profil, ko'p marotabalik profil, Kogort tahllili, qayta tadqiqot, panel (panel), loyiha byudjeti, ma'lumot turlari, klasterli tahllil.

Nazorat uchun savollar


1. Marketing tadqiqotlarining maqsadi nima?
2. Marketing tadqiqotlarining vazifalari nimalardan iborat?

3. Marketing tadqiqotlari konsepsiyasining shakllanish bosqichlari.
4. Marketing tadqiqotlarini rejalashtirishning mazmuni nimalardan ibora?
5. Marketing tadqiqotlari uchun ma'lumotlarni to'plashda talab qilinadigan jihatlarni aytib bering.
6. Ma'lumotlarni to'playdigan xodimlarni tanlash va ularga tegishli tarzda malakaviy maslahatlar berish kim tomonidan amalga oshiriladi?
7. Xodimlarni ushubiy ma'lumotlar bilan to'liq ta'minlash va ularni nazorat qilish shakli qanday yo'nalishlarda olib boriladi?
8. Ma'lumotlarni tizimlashtirishda qanday statistik usullardan foydaliladi?
9. So'raluvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar.
10. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish qanday ketma - ketlik zarur?

4-BOB. MARKETING AXBOROTI MANBALARI

4.1. Marketing tadqiqotlarida axborotning mohiyati va ularning turlari

Axborotlar deyilganda, hodisa yoki jarayonlar haqidagi dalil, ma'lumot, xabar, baho va raqamlarda ifoda etilgan, ularni tahlil qilib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar tushuniladi.




O'zbek tilining izohli lug'atida "Axborot" atamasiga "Ish, voqeа-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma'lumot"¹⁵, degan izoh berilgan. Ko'rinib turibdiki, axborotlar korxona va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarda ish, hayotda voqeа-hodisalar haqida tushuncha beruvchi xabar, ma'lumotlardan iborat. Demak hayotda qanchalik voqeа-hodisalar ko'p bo'lsa, ular haqida tushuncha beruvchi xabarlar ham, ularni ifoda etadigan ma'lumotlar ham shunchalik ko'p. Ularni o'rganish uchun ma'lum darajada tizimlashtirishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida ularni ma'lum belgilari bo'yicha tasniflash zaruratini tug'diradi.

¹⁵Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. ДИН, 2015. – 119-120 бетлар.

Marketing tadqiqotlarida axborotning mohiyati va ahaliyatini o'rganar ekanmiz, avvalam bor marketing axborot tizimi (MAT)ga murojat qilamiz. MAT – insonlar, texnik vositalar va amalga oshirish uslublaridan tashkil topib, muhim va to'g'ri axborotni to'plash, tartibga solish, tahlil qilish, uzatish natijasida marketing sohasida qaror qabul qiluvchiga samarali yordam ko'rsatish vazifasini bajaradi. (4.1 – rasm) Marketing axborot tizimi o'zaro mushtarak, bog'langan elementlar va munosabatlari majmuuni tashkil etadi.

Marketing axborot tizimi marketingli rejalahshtirishning takomillashtirish, marketing tadbirlarini amalga oshirish va tadbirlar ijrosi ustidan nazorat maqsadlarida foydalanish yuzasidan aniq qarorlar qabul qilish uchun zamonda axborotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash va tarqatish yuzasidan uzlucksiz va o'zaro bog'liq kishilar, asbob- uskunalar va jarayonlar yig'indisiga kiradi. Quyidagi rasmda marketing axborot tizimining ko'rinishi aks ettirilgan. (4.1 – rasm).



4.1-rasm. Marketing axboroti tizimining umumiy ko'rinishi¹⁶

¹⁶ Бейдина Н.В. Маркетинг в схемах. –М.:Изд ПРИОР, 2012 с.24

Yuqoridagi rasmdan ko'riniб turibdiki, axborotga bo'lgan ehtiyoj va axborotni natijaviy taqdim etish uchun, marketing bo'yicha mutaxassis maqsadga erishish uchun avvalo rejalashtirish jarayoni va to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib bo'lganidan so'ng uni taqdim etadi.

Marketingni boshqarish ishlini amalga oshirishda bizning bilimlarimizni ko'paytiradigan ma'lumot va axborotlarning barcha turlari axborotga kiradi. Bular yangi mashinalar, yangi texnologik jarayonlar ishlab chiqarishni tashkil qilish, tovarlarni sotish, raqobatbardosh mahsulotlar, ularning hojati, kelajagi va hokazolar to'g'risidagi axborotlardir. Har bir korxona, tashkilot yoki marketing bo'limi guruhidan qat'iy nazar axborotning statistika, operativ reja – iqtisodiy, buxgalteriya axborotlarini, moliyaviy axborot, moddiy texnika ta'minotiga oid axborot, kadrlarga oid axborot, texnologiya, konstrukturlik, spravka kabi turlari bo'ladi. Axborotlarni olish manbalariga ko'ra ichki va tashqi axborotga bo'lish mumkin.

Axborot tizimlarini shakllanishida axborotga bo'lgan ehtiyoj, zaruriy shakklardagi va talabdagagi axborotni taqdim etish tartibi va muddati muhim ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari axborot turlari manbalarini ham bilishimiz lozim bo'ladi. Ya'ni ularni tasniflash haqida gap bormoqda.

Axborotlarni tasniflashda A.Durovichning tavsiyasi¹⁷ diqqatimizni jalb qildi. Shu tufayli biz ham uni asos qilib olishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu quyidagi jadvalda keltirilgan (4.1-jadval).

¹⁷ Дурович А.П. Маркетинговые исследования в туризме. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2013. – 8-11 бетлар.

4.1-jadval

Axborotlar tasnifi va ularning mazmuni¹⁸

| Axborotlarning tavsifiy belgilari | Axborotlarning turlari | Axborotlarning mazmuui |
|-----------------------------------|------------------------|---|
| Mazmuni bo'yicha | Me'yoriy | Korxonalar faoliyatiga doir qomunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar. |
| | Hisob-statistik | Korxonaning faoliyatiga doir jarayonlarning hisob va hisobotlarda ifoda etilishi. |
| | Spravochnikdagi | Turli spravochnik, katalog, pasport va prospektlar kabilarda keltirilgan ma'lumotlar. |
| | Ilmiy-texnikaviy | Ilmiy-texnik tadqiqotlar natijalari, ixtirolar va boshqa ilmiy ishlamalar |
| Tizimlashtirish darajasi bo'yicha | Tizimlashtirilgan | Muddati, ko'rsatkichlari, davri, shakli, tarkibi kabi jihatlari tizimlashtirilgan axborotlar. |
| | Tizimlashtirilmagan | Yuqorida qat'iy tartibga amal qilihamagan tarzda turli manbalarda keltirilgan axborotlar. |
| Ma'lumotlar manbasi | Ikkilamchi | Buxgalteriya va statistik hisobotlar, |

¹⁸ Уша жойда, 8-11 бетлар. Таржима муаллифлар томонидан содлаштирилган холда ахборот турининг мазмунни ўзимизнинг иккисодиётимизга мослаштириб амалга оширилди.

| | | |
|--|-----------------------|---|
| bo'yicha | | me'yoriy hujjatlar, spravochniklar, normalar kabi oldindan tayyorlangan axborotlar. |
| | Birlamchi | Oldindan tayyor bo'lmagan, amma tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni turli so'rovlar, tadqiqotlar, kuzatuvlari va tajribalar natijasida to'plangan axborotlar |
| Davriyligi bo'yicha | O'tgan davr axboroti | Korxona va bozor faoliyati to'g'risida oldin sodir bo'lgan ma'lumotlar. |
| | Joriy davr axboroti | Hisobot davrida sodir bo'lgan jarayonlar to'g'risida tezkor tarzda keltirilgan axborotlar. |
| | Kelgusi davr axboroti | Kelgusida korxonaning ahvoli qanday bo'lishi to'g'risida ehtimollarni beruvchi axborotlar |
| Qarorlarni qabul qilish bosqichi bo'yicha | Ifoda etuvchi | Holat haqida to'liq ma'lumot ifodalangan axborotlar. |
| | Tushunturuvchi | Korxona faoliyatida sodir bo'lgan jarayonlarga izoh beradigan axborotlar. |

| | | |
|--|-------------------------|--|
| | Rejali | Korxonaning harakatini o'zida ifoda etadigan dasturiy tadbirlar. |
| | Nazoratda foydalanuvchi | Korxona faoliyati haqidagi real ma'lumotlar va hujjat asosida bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar taqposlanishini ifoda etuvchi axborotlar. |
| Axborotlarning xarakteri bo'yicha | Miqdoriy | Kuzatilayotgan obyekt haqida raqamlarda beriladigan ma'lumotlar (bozor hajmi, to'yinganlik darajasi, narxi kabilar). |
| | Sifatiy | Sifatiy jihatlarni ifodalaydigan (iste'molchilarning jinsi, yashash joyi bo'yicha, faoliyati bo'yicha) ko'rsatkichlar. |
| Barqarorligi bo'yicha | Doimiy | Uzoq muddat davomida bir xil holatda kelib turadigan (sotish hajmi, sofiq miqdori kabilar haqidagi hisobot) axborotlar. |
| | O'zgaruvchi | Tasodifan kelib tushadigan va tez o'zgarib turadigan turli hodisalar to'g'risidagi axborotlar. |
| Kelib tushush | Vaqti-vaqt bilan | Bir xil vaqt |

| | | |
|--------------------------------|---|--|
| davriyligi bo'yicha | | oralig'ida doimiy tushib turadigan axborotlar (oylik, choraklik, yillik hisobotlar). |
| | Uzluksiz doimiy ravishda | Doimiy ravishda sodir bo'ladigan hodisalar (kunlik pul tushumi, har kuni bajarilgan ishlar, kunlik tezkor hisobotlar kabi) to'g'risidagi ma'lumotlar |
| | Zarurat bo'lganda | Zarurat bo'lganda kelib tushadigan axborotlar bo'lib hisoblanadi. Masalan, yangi raqobatchilar to'g'risida yoki bozor haqidagi ma'lumot kerak bo'lishi mumkin. |
| Tipi bo'yicha | Demoskopik yoki segmentatsion(iste'molchilar tarkibi) | Iste'molchilar tarkibi (jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy ahvoli, daromad olish darajasi kabilar) bo'yicha axborotlar. |
| | Ekoskopik (umum-iqtisodiy vaziyat) | Mamlakat miqiyosida bozorning holati, umumiqtisodiy vaziyat, bahoning o'zgarish tendensiyasi kabilar. |

Mazkur 4.1 - jadvaldan ko'rinish turibdiki, marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan axborotlar 9 ta belgisi bo'yicha tasniflangan. Bunda axborotlarning 25 ta turi keltirilgan va unga

izoh berilgan. Ammo bu tizim mukammallikka davo qilmaydi, deb o'ylaymiz. Chunki tadqiqotning maqsadi va kutilayotgan natijasidan kelib chiqib, ularni yana bir qancha guruhlarga ham bo'lish mumkin. Mos ravishda keltirilgan guruhlarning ayrimlaridan foydalanish ham shart bo'lmaydi. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, axborotlar qanchalik ko'p bo'lsa, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish va o'rganish jarayonidagi yondashuvlar ham shunchalik ko'p bo'ladi. Shu jihatdan mazkur bo'limda metodologik asos sifatidagi fikrlar keltirilgan. Ushbu fikralar o'z xususiyatlari va mohiyatlariga ega, chunki har bir ma'lumotning o'z o'mni va uning zarurligini mutaxassis berilgan natijadan keyin aniqlaydi. Uni tadqiq qilishda va ulardan foydalanishda masalaga hamisha ijodiy yondashish maqsadga muvofiqdir.

4.2. Marketing tadqiqotlari uchun ma'lumotlarni to'plash

Marketing tadqiqotlarining samaradorligini ta'minlash uchun tadqiqotga zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashni taqozo qiladi. Ammo marketing tadqiqotlari uchun tayyor ma'lumotlar maxsus hisobotlarda yoki boshqa rasmiy hujjatlarda keltirilmaydi. Shu tufayli uni asosan sotsiologik so'rovlar natijasida to'plashni taqozo qiladi. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi:

- ma'lumotlarni to'playdigan xodimlarni tanlash va ularga tegishli tarzda malakaviy maslahatlar berish;
- xodimlarni uslubiy materiallar bilan to'liq ta'minlash;
- xodimlarni nazorat qilish shaklini ishlab chiqish;
- ma'lumotlarni tizimlashtirishda turli statistik usullardan foydalanish.

Bularning mazmuni quyidagicha ifodalash mumkin (4.2-jadval).

4.2-jadval

Marketing tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash tadbirlari

| Amalga oshiriladigan tadbirlar | Ushbu holatda bajariladigan ishlar |
|---|---|
| Ma'lumotlarni to'playdigan xodimlarni tanlash va ularga tegishli tarzda malakaviy maslahatlar berish | <ul style="list-style-type: none"> - ma'suliyatni his qiladigan va shu ishni uddalaydigan xodimlarni tanlash; - ularni ruhan tayyorlash; - so'raluvchilar bilan muomila qilish madaniyatini o'rgatish; - tegishli maslahatlar berish; - zarur hollarda treninglar o'tkazib o'qitish; - imkon qadar to'planadigan dalillarning to'g'riligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni qo'llash kabilar. |
| Xodimlarni uslubiy materiallar bilan to'liq ta'minlash | <ul style="list-style-type: none"> - nima maqsad uchun ma'lumotlar kerakligim bilish; - tegishli anketalar va so'rovnomalar bilan ta'minlash; - bir xillikka erishish uchun tegishli nizomlar bilan ta'minlash; - so'raluvchilarning to'g'ri yo'nalish olishi uchun ularga ham turli eslatmalarни tayyorlash kabilar. |
| Xodimlarni nazorat qilish shaklini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> - xodimlarning ma'lumotlarining ahamiyatidan kelib chiqib, ularni to'g'ri ma'lumot to'plashiga erishishi uchun tegishli nazorat usullarini ishlab chiqish; - olingan ma'lumotlarni tanlab qaytadan kuzatib ko'rish; |

| | |
|---|--|
| | <ul style="list-style-type: none"> - video kamера о'рнатилган joyda so'rovni o'tkazish; - so'raluvchilarning ayrimlaridan intervyu olish; - olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish kabilar. |
| Ma'lumotlarni tizimlashtirishda turli statistik usullardan foydalanish | <ul style="list-style-type: none"> -ma'lumotlarni guruhlashtirish; - ma'lumotlarning o'rtacha miqdorlarini aniqlash; - ma'lumotlarning tarkibiy tuzilishini aniqlash; - to'g'ri xulosha qilish uchun xatoliklar darajasini aniqlash kabilar. |

Axborotlarni to'plashda bir qancha xatoliklar bo'lishi mumkin. Axborotlarni to'plashda so'raluvchining madaniy va intellektual saviyasi yetarli bo'lsagina u qo'yilgan savollarga aniq va to'liq javob berishi mumkin. So'raluvchi masalaning mohiyatini to'g'ri tushunishi, ma'suliyatini his qilish darajasi yuqori bo'lishligi lozim. Shundagina anketadagi savollarni to'g'ri tushunsagina qo'yilgan savollarga bo'lgan munosabat boshqacha bo'ladi. Ayrim savollarga javob berishdan bosh tortishi (oilaviy ahvoli, daromadlar manbai, yoshi, millati kabilar) mumkin. Shu tufayli mazkur holatda yopiq so'rovlarni o'tkazish ma'qul bo'ladi. Bunda aniq familiyasi va yashash manzili qayd etilmaydi. Bular so'rovchilar tomonidan ham, so'raluvchilar tomonidan ham yo'l qo'yilishi mumkin. Bularning mazmuni ushbu jadvalda keltirilgan (4.3-jadval).

**So‘rovchi (korrespondent) va so‘raluvchilar (respondentlar)
tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar**

| Xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan subyektlar | Xatoliklarning turlari |
|---|---|
| So‘raluvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar | <ul style="list-style-type: none"> - so‘raluvchining madaniy va intellektual saviyasi; - masalaning mohiyatini to‘g‘ri tushunishi; - so‘raluvchining ma’suliyatini his qiliish darajasi; - anketadagi savollarni tushunish va ularga bo‘lgan munosabat darajasi; - ayrim savollarga javob berishdan bosh tortishi (oilaviy ahvoli, daromadlar manbai, yoshi, millati kabilar); - noto‘g‘ri javob uchun javobgarlikning yo‘qligi; - to‘g‘ri javob uchun rag‘batning yo‘qligi; - so‘raluvchining ruhiy holati kabilar |
| So‘rovchilar tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar | <ul style="list-style-type: none"> - so‘rovchining ma’suliyatsizligi va ishga yuzaki qarash ko‘nikmasining mavjudligi; - o‘zining toqatsizligi evaziga o‘zi tomonidan ham anketani to‘ldirish ehtimolining mavjudligi; - so‘rovchining so‘raluvchilarga til topa olmasligi; - so‘rovchining qo‘polligi; - so‘raluvchilarni o‘zi xohlagan, ammo reallikdan yiroq javoblarga undashi kabilar. |

Ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni to'plash va ularni xulosa chiqaradigan dallilar sifatida baholash darajasiga yetkazish uchun ancha murakkab jarayonlarni o'tishga to'g'ri kelar ekan.




4.2.- rasm. Marketing tadqiqotlaridagi axborotlarni tasniflashtirish

Ushbu jarayonda so'raluvchilar va so'rovchilar tomonidan qo'yilgan xatoliklar natijasida to'plangan ma'lumotlarning to'laqonliklari ta'minlanmaydi. Chunki arzimagan xato orqali bir tadqiqot olib borilayotgan obyektning bir nechta unsurlariga ta'sir ko'rsatish mumkin. Yuqoridaagi 4.2-rasmda biz marketing tadqiqotlarini o'tkazishda axborotlarning turlari yoki tasniflashtirish jarayonini ko'rshimiz mumkin. Har bir axbort turi iste'molchilarning ijtimoiy kelib chiqish holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologik so'rovning nozik jihatlaridan biri, noto'g'ri javob uchun javobgarlikning yo'qligi va mos ravishda, to'g'ri javob uchun rag'batning ham yetarli emasligi kabilalar so'raluvchining qonuniy mas'ulligini kuchaytirmaydi. Shu tufayli ushbu jarayonda, yuqorida ta'kidlanganidek, axborotlarning haqqoniyligi so'raluvchilarning saviyasiga bog'liq bo'lib qoladi.

4.3. Marketing tadqiqotlarida axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish tamoyillari (prinsiplari)

Har qanday tadqiqot jarayonida, shu jumladan marketing tadqiqotlarida ham asosiy foydalanadigan vosita axborotlar bo'lib hisoblanadi. Ularni shakllantirish masalasi ham o'ta murakkabdir. Chunki ushbu tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar bilan birga juda ko'p birlamchi ma'lumotlarni ham to'plashga to'g'ri keladi. Shu tufayli ushbu axborotlarni shakllantirish bilan birga ulardan foydalanish masalasi ham o'ziga xos. Bu holatlar o'z navbatida bir qancha prinsiplarga asoslanishini inobatga olish lozim.



"Prinsip" - so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izoh berilgan. Ushbu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "principium – asos, negiz, ibrido"¹⁹, degan ma'noni anglatishi ko'rsatilgan. Shuningdek, unga ikkita izoh berilgan:

1. Biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida.

2. Xulq-atvor, xatti-harakat me'yorlarini belgilaydigan, kishi og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtai nazar, qarash, maslik²⁰.

¹⁹Ўзбек тилининг изоҳли лутати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. ДИН. 2012. – 309- бет.

²⁰Ўта жойда. 309-бет.

Bulardan kelib chiqib, marketing tadqiqotlarida axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanishda asos bo'ladigan va tayanadigan yo'nalishlarni aniqlash lozib bo'ladi. Tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, marketing tadqiqoti ham bir qancha prinsiplarga tayanadi. Chunki har qanday tushunchani to'liq anglash uchun uni har tomonlarma o'rghanishni taqozo qiladi. Bulardan kelib chiqib mazkur prinsiplarga quyidagilar kirishini nazarda tutamiz:

- ishonchliligi;
- dolzarbliji;
- qamralganligi
- muvofiqlashtirilganligi;
- uzlusizligi;
- maqsadga muvofiqligi;
- tushunarligi;
- ko'paytirish mumkinligi;
- tejamkorligi kabilalar.

Ushbu prinsiplarning bir-biri bilan bog'liqligini quyidagi rasmda keltirilishni lozim, deb topdik (4.3-rasm).



4.3-rasm. Marketing tadqiqotlarida axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish prinsiplari

Mazkur 4.3-rasm marketing tadqiqotlarida axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanishning ham bir qancha prinsiplari mavjudligini ko'rsatib turibdi. Endi ushu prinsiplarning izohini ko'rib chiqamiz. Bular quyidagi jadvalda keltirilgan (4.4-jadval).

Ko'rinib turibdiki, marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish biroz murakkab bo'lganligi tufayli, ularning soni ham ancha. Shu tufayli ularni tizimlashtirgan holda foydalanish lozimligini qayd etamiz.

4.4-jadval

Marketing tadqiqotlarida axborotlarni shakllantirish va ulardan foydalanish prinsiplari

| Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan prinsiplarning nomlari | Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan prinsiplarning mazmuni |
|---|---|
| Dolzarblilik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar ayni zarur bo'lgan, faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ma'lumotlardan iborat bo'lmog'i lozim. |
| Ishonchlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar ishonchli dalillarga asoslangan bo'lib, turli o'zgartirishlar va manfaatdan kelib chiqib, soxtalashtirishlardan xoli bo'lmog'i lozim. |
| Keng qamrovlilik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar birorta qarorni qabul qilish uchun hamma omillarni hisobga oladigan, yetarli darajada to'liq bo'lishi lozim. |
| Muvofiqlashtirilganlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar solishtiriladigan, bir-birini to'ldiradigan, bir xil ko'rsatkichlarni o'zida ifoda etadigan ma'lumotlardan iborat bo'lishi lozim. |

| | |
|------------------------------|---|
| Uzluksizlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar tizimlilikni va kompleks tadqiqotni ta'minlash uchun bir maromda uzluksiz shakllantirilib turiladigan ma'lumotlardan iborat bo'lmog'i lozim. |
| Maqsadga muvofiqlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar ulardan foydalanuvchilarning maqsadini to'liq o'zida ifoda etadigan bo'lishi lozim. |
| Tushunarlılik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar foydalanuvchilar uchun tushunarli, ochiq-oydin ko'rinish turadigan, har qanday vaziyatda foydalanish mumkin bo'ladigan bo'lmog'i lozim. |
| Ko'paytiriladi-ganlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlar ko'p foydalanuvchilar tomonidan ishlatishtga va bitta foydalanuvchi uchun ko'p marta foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun ular ko'paytiriladigan bo'lishi lozim. |
| Tejamkorlik | Marketing tadqiqotlari uchun to'planadigan axborotlarga ketadigan xarajatlar, ularni ishlatishtdan olinadigan natijadan oshib ketmasligi, ma'lum darajada foydani ta'minlaydigan darajada tejamkor bo'lishi lozim. |

Marketing tadqiqotlari tizimi. Marketing tadqiqotlari – firma oldida turgan marketing vaziyati bilan bog'liq ma'lumotlar doirasini sistematik aniqlash, ularni to'plash, tahlil qilish va natijalar haqida hisobot tuzishdir. Firma marketing tadqiqotlarini o'z kuchi bilan yoki ixtisoslashgan tashkilotlar yordamida amalga oshiradi. Yuqorida ta'kidlanganimizdek, marketing tadqiqotchilarining eng tarqalgan vazifalari quyidagilar hisoblanadi: bozor tavsifnomasini o'rganish, bozorning potentsial imkoniyatlarini o'lchash, firmalar o'rtasida bozor ulushlarining taqsimlanishini tahlil qilish, sotuv tahlili, ishbilarmonlik faolligi

tendensiylarini o'rganish, raqobatchilar tovarlarini o'rganish, qisqa muddatli bashoratlash, yangi tovar va uning hajmiga reaksiya ni o'rganish, uzoq muddatli bashoratlash, narx siyosatini o'rganishdan iborat.

4.4. Marketingda axborot to'plash usullari

Marketingda axborot to'plash uchun quyidagi usullardan foydalaniadi: so'rov, kuzatuv va ma'lumotlarni avtomatik qayd etish (eksperiment faqat o'ziga xos tadqiqot rejaimi ifodalaydi), panel. Muayyan usulni tanlash o'rganilayotgan xislat (odam, predmet) maqsadiga bog'liq bo'ladi. Axborot olish usullari va ularning ayrim tavsifnomalari quyidagi 4.5 -jadvalda keltirilgan.

4.5-jadval

Marketingda axborot to'plash usullari

| Usul | Ta'riflanishi | Shakli | Misol | Afzaalligi va muammolari |
|------------------------|---|--|--|--|
| 1.Birlam-chi tad-qiqot | Ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan ularni to'plash | | | |
| Kuzatuv | Sezgi organlari orqali his qilinuvchi holatlarni utarga ta'sir ko'rsatmasdan qamrab olish | dala va kabinet, shaxsiy, kuza-tuvchi ishtiroki-da yoki usiz | Do'konda yoki rasta oldida iste'molchi lar xulq-atvorini kuzatish | Ko'pincha obyektiv va so'rovga nis-batan aniqlik. Ko'p fakt-larni kuzatib bo'lmaydi. Xarajat katta |
| Intervyu | Bozer qatnashchilari va ekspertlar o'rtaida so'rov o'tkazish yo'li bilan | yozma, og'zaki, telefon orqali | Birlanchi iste'molchi haqida ma'lumot to'plash, firma va marka imajini o'rganish | Kuzatib bo'l-maydigan narsalarni tadqiq qilish, ishonchlilik |

| | | | | |
|---------------------------------------|---|------------------------------------|---|--|
| <i>Panel</i> | Bir xil vaqt oralig'ida bitta guruhdan qayta ma'lumotlar to'plash | Savdo, iste'mol | Do'konlar guruhid savdo zaxitalarini doimiy kuzatib borish | Vaqt bo'yicha rivojlanishni aniqlash |
| <i>Sinov</i> | Bir omilning boshqasiga ta'sirini bir vaqtining o'zida boshqa omillarni nazorat qilgan holda tadqiq etish | Dala, laboratori ya, tajriba | Bozor sinovi, mahsulotni tadqiq etish, reklama tadqiqoti | O'zgaruvchil ar ta'sirini alohida kuzatish imkoniyati. Vaziyat nazorati. Vaqt va pul sarfi |
| <i>2.Ikkilam chi tadqiqot</i> | Mavjud ma'lumotlarni qayta ishlash | | Tashqi statistika va hisobga olingan ma'lumot- lar asosida bozor ulushini tahlil qilish | Xarajatlar kamligi, tezkorlik. Ma'lumotlar ning eski va to'liq emasligi |

So'rov bu odamlarning nuqtai nazarini aniqlash yoki ulardan biron-bir savol bo'yicha ma'lumot olishdir. So'rov marketingda axborot to'plashning eng tarqalgan va muhim shaklidir. Tadqiqotlarning qariyib 90%ni aynan shu usulga asoslanadi. So'rov og'zaki yoki yozma ravishda o'tkazilishi mumkin. Og'zaki va telefon orqali so'rovlar odatda intervyyu deb ataladi. So'rovlar quyidagi turlarga taqsimlanadi:

- so'ralayotgan doirasi bo'yicha (xususiy shaxslar, ekspertlar, tadbirkorlar va hokazo);
- bir vaqtning o'zida so'raladiganlar bo'yicha (yakka holdagi yoki guruqli intervyyu);
- so'rovga kiritilgan mavzular bo'yicha (bitta yoki bir nechta);

- standartlashtirish darajasi bo'yicha (erkin sxema yoki strukturalangan, to'liq standartlashtirilgan struktura);
- so'rov tezligi bo'yicha (bir yoki ko'p martalik so'rov).

Yozma so'rovda qatnashuvchilarga so'rov varaqalari berilib, ular to'ldirilishi va ko'rsatilgan manzilga jo'natilishi talab qilinadi.

Axborot olishning kuzatuv usuli bozor tadqiqotlarida so'rovga nisbatan ancha kam uchraydi. Ilmiy kuzatuv bir jarayon sifatida qabul qilinib, u:

- ma'lum bir tadqiqot maqsadiga xizmat qiladi;
- bir tekisda va tizimli (sistemali) o'tadi;
- umumlashtiruvchi mulohazalar uchun xizmat qiladi, faqat qiziqarli ma'lumotlarni to'plash bilan cheklanib qolmaydi;
- aniqlik va ishonchfilik nuqtai nazaridan doimiy nazorat qilinadi.

Ushbu usulning so'rov usuliga nisbatan afzallikkari quyida keltirilgan:

- obyektning hamkorlikka tayyorligiga, tadqiq etiluvchilarning ishning mohiyatini so'z bilan ifodalash qobiliyatiga bog'liq emasligi;
- obyektivlik darajasining yuqori bo'lishini ta'minlash imkoniyati;
- anglamagan holda amalga oshirilgan xulq-atvorni tushunish imkoniyati (do'kon rastalarida tovarni tanlash);
- atrofdagi vaziyatni, ayniqsa, asbob-uskumalar yordamida kuzatishda hisobga olish imokniyati.

Shu bilan birga mazkur usul ayrim kamchiliklarga ham ega:

- ✓ namoyish etishni ta'minlash qiyin;
- ✓ kuzatuvchining subyektivligi;
- ✓ ochiq kuzatuv paytida obyektlar xulq-atvori tabiiy xulq-atvordan farq qilishi mumkin (kuzatuv samarası).

Kuzatuvning quyidagi usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- atrofdagi vaziyatning xarakteri bo'yicha *dala kuzatuvi* bo'lishi mumkin – bu jarayonlar tabiiy muhitda (do'konda) ro'y berishini anglatadi, yoki *laboratoriya kuzatuvi*, ya'ni sun'iy yaratilgan vaziyatda amalga oshiriluvchi kuzatuvlar. Birinchi


shaklning afzalligi kuzatilayotgan shaxslarning xulq-avtori tabiiy bo'lishidadir. Ikkinci shakl kuzatuv shart-sharoitlarining barqarorligini ta'minlaydi hamda bir qator texnik vositalarni qo'llashga imkon beradi;

- kuzatuv joyi bo'yicha bevosita tadqiqotchining ishtirokidagi kuzatuv va chetdan kuzatuv farqlanadi;
- obyektni qabul qilish shakli bo'yicha personal kuzatuv va asbob-uskunalar yordamida yoki xulq-atvor natijalarini qayd etish yordamida kuzatuvni ajratish mumkin;
- standartlashuv darajasi bo'yicha standartlashtirilgan va erkin kuzatuvga taqsimlanadi.

Standartlashtirish bu yerda xulq-atvor sxemasining ma'lum bir mezonlarini belgilashni nazarda tutadi. Masalan, vitrinadagi reklama ta'sirchanligini kuzatish uchun yo'ldan o'tib ketayotganlarning quyidagicha xulq-atvor vraiantlarini ajratib ko'rsatish mumkin: shaxs reklamaga e'tibor qaratmasdan do'konga kiradi; shaxs avval reklamaga qarab, keyin do'konga kiradi; shaxs reklamaga qarab, do'konga kirmaydi; vitrinaga qaramay o'tib ketadi.

Eksperiment(sinov) deb bitta yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarning o'zgarishi boshqa bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadigan tadqiqotga aytildi. Ushbu usulning o'ziga xos belgilari:

- izolyatsiya qilinuvchi o'zgarishlar (ayrim kattaliklar tadqiqotchi tomonidan variatsiyalanadi, boshqalari iloji boricha doimiy bo'lishi lozim);
- tadqiqotchi ma'lumotlarning paydo bo'lish jarayoniga faol aralashadi;
- sabab-oqibat aloqalari tekshiriladi (masalan, mahsulot o'rovi rangining sotuv hajmiga ta'siri).



4.4-rasm. Panellar turlari²¹

Amaliyotda panellar qatori paydo bo'ldi. Panelni tadqiqotlari deb, bir vaqt oralig'ida bitta obyekt yoki guruhdan qayta – qayta ma'lumotlar to'planadi. Ushbu ma'lumotlar oldingi ma'lumotlar bilan solishtiriladi va taqooslanadi. Unda ushbu taqqoslash orqali o'sish yoki kamayish, ko'tarilish tushish tendensiyalari kuzatiladi. Quyidagi 4.4-rasmda panellar turlari aks ettilrilgan.

Panel bir nechta asosiy belgilarga ega:

- tadqiqot predmeti va mavzusi doimiy;
- ma'lumot to'plash bir xil vaqt oralag'idan so'ng amalga oshiriladi;

tadqiqot obyektlarining doimimyligi – uy bekalari, savdo korxonalari, ishlab chiqarishdagi iste'molchilar.

4.5. Marketing tadqiqotlarida iqtisodiy tahlilning ahamiyati

Marketing tadqiqotlarini statistik tahlil qilish fanining mohiyati va mazmuni ham islohotlar davrida tubdan o'zgardi. Oldin tahlilning natijasi asosan rejani bajarish uchun ichki imkoniyatlarni axtarib topishga qaratilgan bo'lsa, endilikda har bir

²¹ Завьялов П.С. Маркетинг в схемах и рисунках. –М.:Инфра-М, 2012, 98-б

korxonaning ichki imkoniyatlarini moliyaviy-marketing tadqiqotini yaxshilash uchun safarbar qilishga qaratiladigan bo'ldi.

Shuningdek, har bir korxona va tarmoqdagi o'sish yoki pasayish dinamikasini statistik usullar orqali tahlil qilganda, to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishimizni kuzatib turibmiz. Bundan ko'rinish turibdiki tahlilning maqsadi ham o'zgardi. Oldin tahlil yaxshi yutuqlarni oshkora etgan bo'lsa, endilikda yaxshi usullarning tijorat siri ekanligini ko'rsatib beradi. Bu bevosita marketing tadqiqotlarini tahlil qilishga ham daxldordir.

Bozor munosabatlariiga xos bo'lган raqobat har bir korxonani o'z tijorat sirlarini saqlashga majbur qiladi. Bunday sharoitda marketing tadqiqotlarini tahlil qilishning umumiyligi usuli bo'lishi lozim. Lekin har bir korxona ushbu umumiyligi usullar orqali o'zining ichki imkoniyatlarini topadi va u o'ta muhim bo'lsa tijorat siri sifatida saqlashlari mumkin. Xullas, raqobat har bir korxonani, ularning mulk shaklidan qat'iy nazar, samarali ishlashini talab qiladi. Samaradorlikni uzlusiz oshirib borish uchun uning holatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo qiladi. Bu tadbir faqat tahlil orqali amalga oshishini e'tirof etgan hoida shuni ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha iqtisodiy mexanizmlar, jumladan statistik va iqtisodiy tahlil ham, uning usullari ham keskin takomillashtirilishini talab qiladi.

Marketing tadqiqotlarini tahlil qilishda bir qancha usullar qo'llaniladi. Hozir iqtisodiy tahlil nazariyasiga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar mavjud. Ammo ushbu adabiyotlarda tahlil usullarini yoritishga turlichay yondoshilgan. Ko'plari amaliyatga qo'llanilishi qiyinligidan tashqari, bozor iqtisodiyoti uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan, chunki ularning ko'pi, ta'kidlaganiimizdek, rejali iqtisodiyotga mo'ljallangan edi. Bundan tashqari adabiyotlarda tahlilda qo'llaniladigan usullarning soddalikdan murakkablik sari ifodalanishi ta'minlanmagan.

Marketing tadqiqotini tahlil qilishda juda ko'p usullar qo'llaniladi. Shu fan vujudga kelgandan so'ng ularni fanning metodi bilan birga berar edi. Endilikda esa, usullarga alohida

to'xtalib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lib bermoqdalar. Bu guruhlar mazmuni va mohiyati jihatidan bozor iqtisodiyoti sharoitiga ham to'g'ri keladi. Shu tufayli barcha usullarni hozirgi sharoitda ham ikki guruhga bo'lib o'rghanishni taklif qilamiz. Bunga quyidagilar kiradi:

- 1) an'anaviy usullar;
- 2) matematik usullar. Bularning tuzilishi quyidagi 4.5 - rasmida keltirilgan.



4.5-rasm. Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan iqtisodiy tahlil usullarining tasnifi

4.5 - rasmdan ko'riniib turibdiki iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar yirik ikkita guruhga bo'linadi. Ushbu usullardan marketing tadqiqotlarini tahlil qilganda ham bevosita foydalilaniladi. Chunki har qanday jarayonni to'g'ri va oqilona boshqarish uchun ularni tahlil qilishni taqozo qiladi. Bu ayniqsa, bozor bilan bog'liq bo'lган marketing tadqiqotlariga ham daxildordir. Zero, korxona faoliyatini optimallash-tirish, uning bozordagi o'rnnini barqaror ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, mahsulotlar va xizmatlarini diversifikatsiyalash uchun ushbu holatlarni tahlil qilishni taqozo qiladi. Ushbu holatlar o'z navbatida, mazkur jarayonlarning hammasiga innovatsiyalarni joriy qilish orqali amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, marketing tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil usullaridan foydaianish shunchaki oddiy tadbir bo'libgina qolmasdan, balki muhim iqtisodiy dastak sifatida obyektiv zarer ekanligini ko'rsatmoqda. Shu tufayli mazkur masala nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'ta muhimdir.

4.6. Ikkilamchi axborotdan foydalanish va ularning afzallikkari

Ikkilamchi axborotlar – bu shunday axborotlarki, aniq marketing tadqiqotlarining boshqa maqsadlar uchun to'plangan ma'lumotlarga aytildi. Ikkilamchi axborotlar ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi.

Ichki axborotlarga firma faoliyatining hujjatlari: byudjeti, hisobotlari, moliyaviy hisobotlari, zahiralar, dastlabki va oldingi ma'lumotlari va hk.)

Tashqi axborotlarning manbalariga quyidagilar kiradi:

- Milliy va xalqaro yuridik tashkilotlarning nashrlari;
- Davlat, munitsipal, vazirliklar va davlat organlarining nashrlari;
- Savdo – sanoat korxonalari va birlashmalarning nashr ma'lumotlari;
- Statistika qo'mitasi ma'lumotlari to'plami;
- Tarmoq korxonalar va qo'shma korxonalarining hisobt nashrlari;
- Kitoblar, gazeta va jurnallardagi e'lonlar;
- O'quv, ilmiy – tadqiqot, loyiha lashtirish institutlari va ilmiy – jamoat tashkilotlari, simpoziumlar, kongresslar va konferensiylar ma'lumotlari;
- Prays – listlar, kataloglar, prospektlar va boshqa firma nashrlari;
- Konsalting tashkilotlarining ma'lumotlari va boshq.

Ikkilamchi ma'lumotlar asosida to'plangan axborotlar, qoidaga ko'ra dastlabki xususiyatlariiga ega bo'lib yozuvli va ijodiy xarakterga ega. Bunda tadqiqotlar yordamida, odatda bozorning umumiqtisodiy xarakteristikasi, ayrim tarmoqlarning

holati chet el bozorlariga chiqishda alohida xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Ikkilamchi axborotlarni tadqiq qilishda ichki va tashqi ma'lumotlarga ega bo'lishda tadqiqotning va obyektning maqsadiga ko'ra aniqlanadi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda birlamchi va ikkilamchi axborotlar manbalaridan foydalanadilar.

Qoidga ko'ra, marketing tadqiqotlari ikkilamchi ma'lumotlardan boshlanadi, ushu ma'lumotlar odatda kabinet tadqiqotlari orqali foydalaniadi. Birlamechi ma'lumotlar esa dala tadqiqotlari asosida to'planadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ikkilamchi axborotlar – bu har xil maqsadlarda to'plangan va qayerdadir paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlarga tayanadi. Ikkilamchi ma'lumotlar tadqiqotchiga tarmoq vaziyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, sotuv hajmi va foydaning o'zgarish tendensiyalari, raqobatchilar faoliyati, san va texnika yutuqlarini kuzatishda yordam beradi.

Kabinet tadqiqotlari esa, ikkilamchi ma'lumotlarni boshqa maqsadlar uchun tayyorlangan va har xil manbalardan foydalanib tahlil qilish va qayta ishlashni taqozo etadi.

Kabinet tadqiqotlari orqali to'plangan ma'lumotlarning yutuqlariga:

- ma'lumotlarni to'plash tez va kam xarajat orqali;
- bozorning asosiy tendensiyalarini kuzatuvda ma'qul usul;
- mustaqil faoliyat orqali firma to'play olmaydigan ma'lumotlar bilan qabul qilish imkoniyatiga ega;
- bir necha manbalardan olingan ma'lumotlarning taqqoslash jarayoni imkoniyati tug'iladi va muammoning yechimi topiladi.

Kabinet tadqiqotlарining kamchiliklariga:

- axborotning to'laqonli emasligi;
- to'plangan ma'lumotlarning bir – biriga mos emasligi;
- bor ma'lumotlarning to'g'ri kemasi.

Ta'kidlab o'tamizki, kabinet tadqiqotlarini nashr qilingan materiallar, radio va teleko'rsatuvlar, anketa ma'lumolari, yo'riqnomalar va hokazolarda qo'llaniladi.

Endi ikkilamchi axborotlarning yutuqlari bilan tanishib chiqamiz:

- ❖ Birlamchi ma'lumotlarga ko'ra arzonligi;
- ❖ Bir necha mambalarni taqqoslashda;
- ❖ Birlamchi ma'lumotlar to'palashdan ko'ra, ikkilamchi ma'lumotlarni tezkor tarzda qabul qilinishi.

Kamchiliklari:

- ✓ to'liq ma'lumotlarga ega emasligi;
- ✓ eskirilishi;
- ✓ bir xil payt to'plash va tahlil qilishning ma'lum emasligi;
- ✓ ma'lumotlarni to'laqonli va haqqoniyligini baholash qiyinligi.

Ikkilamchi ma'lumotlarning kamchiliklarining xossasi shundaki, avvalom bor, ushbu malumotlar qandaydir maqsadlar uchun to'plangan, marketing tadqiqotlari uchun emas. Bundan kelib chiqaliki, ikkilamchi axborotlarning ishonchliligini baholashda 5 asosiy savollarga javob berish lozim:

1. Mazkur axborot kim tomonidan to'plangan va tahlil qilingan?
2. Axborotlarni to'plashda va tahlil qilishda qanday maqsadlar ko'zlangan ?
3. Qanday axborotlar va qay usulda to'plangan ?
4. Axborotlar qanday usullar bilan tahlil qilingan va qayta ishlangan ?
5. Mazkur axborot qay tarzda shunga yaqin axborotlarga mos keladi ?

Ushbu ma'lumotlar marketing axborot tizimi orqali foydalaniladi. Marketing axboroti turlari va ularning menejer faoliyatidagi rolini ko'rib chiqadigan bo'lsak, korxona menejerlari birlamchi va ikkilamchi axborotlardan keng foydalanadilar.

4.6-jadval

MTT menejerlarga taqdim etuvchi axborot turlariga misollar

| Lavozim | | Axborot | | |
|------------------------------------|---|---|---|--|
| | Davriy | Kuzatiluvchi | So'rov bo'yicha | |
| Marketing bo'yicha vitse-prezident | Tovarga to'g'ri keluvchi bozor ulushi | Bozordagi yondosh sohada ishlovchi yangi raqobatchilar; Raqobatchilar tomonidan yangi tovar chiqarish | Mahsulot reklamasi va narx moslashuvchanligi | |
| Reklama bo'yicha menedjer | Reklamning tanishligi | OAVda narxlar; Raqobatchilar reklama mavzulari; OAV samaradorligini o'rGANISH | Yangi tijorat narxlarini sinash; Raqobatchilar reklamasiga duch kelish | |
| Sotuv bo'yicha menedjer | Firmanın savdo nuqtalari ulushi; Qonunchilik va huquqiy jihatdan mahsulotga qo'yiluvchi cheklov | Mintaqaviy iqtisodiy o'zgarishlar; Raqobatchilar yangi faoliyati | Xaridorlar bilan hamkorlik; Raqobatchilar sotuvini oshirishda sa'y-harakatlar samaradorligi | |

4.6 - jadvaldan ko'rinib turibdiki, uch xil axborot turi orqali korxonadagi mas'ul shaxs uchn ajratilgan vazifalar belgilangan. Har bir shaxs o'z vazifasini yoki funksiyasiga tegishli bo'lgan maqsadni ko'zlaydi. Har bir mezondagi axborotlar korxona xodimlarining lavozimiga qarab belgilangan. Ya'ni:

- Davriy axborot – ma'lum bir vaqt oralig'ida taqdim etiluvchi axborot.
- Kuzatiluvchi axborot – munazam ko'rib chiqiluvchi manbalardan olinuvchi axborot.

– So'rov bo'yicha axborot – marketing bo'yicha menejerning o'ziga xos istaklari bo'yicha ishlab chiqiluvchi axborot.

Bundan ko'rinish turibdiki, masalan, sotuv bo'yicha menejerning vazifasi belgilangan va u o'z funksiyasidan tashqari boshqa vazifalar bilan chalg'imaydi. Chunki, boshqa vazifalarga ketkazilgan vaqt oralig'ida raqobatchiga pozitsiyani boy berib qo'yishi mumkin.

Quyidagi 4.7-jadvalda axborot toplash vositalari orqali so'rovlarning afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

4.7-jadval

Telefon va pochta orqali yoki shaxsan uchrashuv orqali anketa so'rovlarning afzallik va kamchiliklari²²

| Mezon | Telefon | Pochta | Shaxsan uchrashuv |
|--------------------------------------|---|---|--|
| Axborot aniqligi | ◎ | ○ | ● |
| Vaqt omili | ● | ○ | |
| Tashkiliy qiyinchiliklar | ◎ | ○ | ● |
| Xarajatlar | ◎ | ● | ○ |
| Savollar hajmi | ○ | | ● |
| Moslashuvchanlik | ◎ | ○ | ● |
| Respondent shaxsiga moslashuvchanlik | ◎ | ○ | ● |
| Boshqa talablar | -intervyu o'tkazishni rejalashtirish- da telefon raqami terish uchun ketuvchi vaqtini hisobga oling – respon- dentning uy | -savolning oddiy shakli – detallli bosma yo'riqnomा – ochiq savollar yo'qligi – respon- dentni xat ichiga | -muammoni respondent bilan detallli muhokama qilishni talab qiladi – turli vizual vositalardan foydalanish uchun qulay imkoniyat |

²² Завьялов П.С. Маркетинг в схемах и рисунках. –М.:Инфра-М, 2013, 81-6

| | | | |
|--|--|--|--|
| | telefonidan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqing | solingen biron sovg'a bilan mukofotlash | |
|--|--|--|--|

- | |
|--|
| <input checked="" type="radio"/> - yaqqol ustunlik |
| <input type="radio"/> - ustunik va kamchilik bir xil |
| <input type="radio"/> - yaqqol kamchilik |

Marketing tadqiqotlari tizimi. *Marketing tadqiqotlari* – firma oldida turgan marketing vaziyati bilan bog'liq ma'lumotlar doirasini sistematik aniqlash, ularni to'plash, tahlil qilish va natijalar haqida hisobot tuzishdir. Firma marketing tadqiqotlarini o'z kuchi bilan yoki ixtisoslashgan tashkilotlar yordamida amalga oshiradi. Marketing tadqiqotchilarining eng tarqalgan vazifalari quyidagilar hisoblanadi: bozor tavsifnomasini o'rghanish, bozorning potentsial imkoniyatlarini o'lichash, firmalar o'rtasida bozor ulushlarining taqsimlanishini tablil qilish, sotuv tahlili, ishbilarmonlik faolligi tendensiylarini o'rghanish, raqobatchilar tovarlarini o'rghanish, qisqa muddatli bashoratlash, yangi tovar va uning hajmiga reaksiyani o'rghanish, uzoq muddatli bashoratlash, narx siyosatini o'rghanish.

Marketing tadqiqotlari murojaat etuvchi boshqaruvchilar ularning o'ziga xosliklari bilan tanish bo'lislari hamda tadqiqot texnologiyalarini bilishlari lozim, chunki ular noto'g'ri axborot asosida qaror qabul qilishda xatolikka yo'l qo'yishga haqli emaslar.

Qisqa xulosalar

Marketing axborotlari manbai va ulardan keng foydalanish yo'llarini ko'rib chiqdik. Marketing tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash tadbirlari bilan tanishib chiqdik.

Marketing axborot tizimi marketingli rejalahtirishning takomillashtirish, marketing tadbirlarini amalga oshirish va tadbirlar ijrosi ustidan nazorat maqsadlarida foydalanish yuzasidan aniq qarorlar qabul qilish uchun zamonda axborotlarni

to'plash, qayta ishslash, tahlil qilish, baholash va tarqatish yuzasidan uzlusiz va o'zaro bog'liq kishilar, asbob- uskunalar va jarayonlar yig'indisiga kiradi.

Marketing tadqiqotlarining samaradorligini ta'minlash uchun tadqiqotga zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashni taqozo qiladi. Ammo marketing tadqiqotlari uchun tayyor ma'lumotlar maxsus hisobotlarda yoki boshqa rasmiy hujjatlarda keltirilmaydi. Shu tufayli uni asosan sotsiologik so'rovlar natijasida to'plashni taqozo qiladi.

Har qanday tadqiqot jarayonida, shu jumladan marketing tadqiqotlarda ham asosiy foydalanadigan vosita axborotlar bo'lib hisoblanadi. Ularni shakllantirish masalasi ham o'ta murakkabdir. Chunki ushbu tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar bilan birga juda ko'p birlamchi ma'lumotlarni ham to'plashga to'g'ri keladi. Shu tufayli ushbu axborotlarni shakllantirish bilan birga ulardan foydalanish masalasi ham o'ziga xos. Bu holatlar o'z navbatida bir qancha prinsiplarga asoslanishini inobatga olish lozim.

So'rov bu odamlarning nuqtai nazarini aniqlash yoki ulardan biron-bit savol bo'yicha ma'lumot olishdir. So'rov marketingda axborot to'plashning eng tarqalgan va muhim shaklidir. Tadqiqotlarning qariyb 90% i aynan shu usulga asoslanadi. So'rov og'zaki yoki yozma ravishda o'tkazilishi mumkin. Og'zaki va telefon orqali so'rovlar odatda intervju deb ataladi.

Ikkilamchi ma'lumotlar asosida to'plangan axborotlar, qoidaga ko'ra dastlabki xususiyatlariga ega bo'lib yozuvli va ijodiy xarakterga ega. Bunda tadqiqotlar yordamida, odatda bozorning umumiqtisodiy xarakteristikasi, ayrim tarmoqlarning holati chet el bozorlariga chiqishda alohida xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Ikkilamchi axborotlarni tadqiq qilishda ichki va tashqi ma'lumotlarga ega bo'lishda tadqiqotning va obyektning maqsadiga ko'ra aniqlanadi.

Shuningdek, ushbu bobda axborot to'plash mezonlari va ularning kamchiliklari va afzalliliklari yo'llarini ko'rib chiqdik.

Tuyanch iboralar: Axborot, MAT, axborotlar klassifikasiyasi, Demoskopik, Ekoskopik, birlamchi va ikkilamchi axborotlar, ishonchlilik, dolzarblilik, uzlusizlik, kuzatuv, panel, so'rov, eksperiment, telefon va pochta, kabinet tadqiqotlari, dala tadqiqotlari, axborot mezonlari va hk.


Nazorat savollari

1. Marketing tadqiqotlarida axborot to'plashning mohiyati nimadan iborat?
2. Axborot to'plash va undan foydalanish jihatiga ko'ra qanday turiarga bo'linadi?
3. Axborotlar qanday turlarga tasniflanadi?
4. Marketing tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar manbai haqida gapirib bering.
5. Birlamchi ma'lumotlarga nimalar kiradi va ular qanday to'planadi?
6. Ikkilamchi ma'lumotlar manbaiga nimalar kiradi?
7. Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan prinsiplarning mazmuni nimalardan iborat?
8. Kuzatuv orqali ma'lumotlarni to'plashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
9. So'rov uslubi qanday vositalar orqali o'tkaziladi?
10. Ikkilamchi axborotlarning kamchiliklari va afzalliklari nimadan iborat?

V BOB. INTERNET TARMOG'IDA MARKETING TADQIQOTLARI O'TKAZISHNI TASHKIL ETISH


5.1. Internetning rivojlanishi va marketing tadqiqotlaridagi o'rni

Internet inglizcha -“Internet” – umumjahon kompyuter tarmoqlarining birlashgan tizimi deb nomланади. U ma'lumotlar paketiga yo'naltirilgan IP protokolidan foydalanuvchi qurilmadan iborat.



Internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'plab yondosh va turdosh sohalar yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Bu tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi, operatsion tizimlarning takomillashuvi, dasturlash tillarining rivojlanishi va hokazolardan iborat. Qirq yildan ortiq rivojlanish tarixi davomida Internet ko'plab hodisalarni boshidan kechirdi. Ularning asosiyлари haqida quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.


Global tarmoqning vujudga kelishi. Internetning Vatani AQSh hisoblanadi. U o'tgan asrning oltmishinchи yillari oxirida ARPANET (Advanced Research Project Agency Network) paketlar kommutatsiyasi tarmoq loyihasidan kelib chiqqan. Dastlab Internet bir-biridan uzoqlikda joylashgan kompyuterlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida ishlab chiqilgan hamda axborot saqlash va tarqatishning ko'plab muqobil yo'llariga ega markazlashmagan hududiy taqsimlangan tarmoq sifatida ko'zda tutilgan. Bu AQSh Mudofaa vazirligi kompyuterlari o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatishi, harbiy harakatlар, masalan, atom bombasi portlashi natijasida ham tarmoqning ishdan chiqmasligini ta'minlashi taxmin qilingan.



World Wide Web. Biznesning, xususan, elektron tijoratning rivojlanish nuqtai nazaridan Internet tarixidagi eng muhim hodisalardan biri, gipermatnli texnologiyaga asoslangan «jahon o'rgimchak to'ri» — World Wide Web (WWW) muhitini yaratish hisoblanadi.

World Wide Web tarixi 1989-yilning mart oyida boshlangan bo'lib, bunda Tim Berns Li (Tim Bernes Lee) yuqori energiyalar fizikasi sohasida qo'shma tadqiqotlar o'tkazish uchun telekommunkatsiya muhit loyihasi bilan chiqdi. 1991-yilda esa Shveysariyada joylashgan Yevropa amaliy fizika laboratoriyasi (CERN) butun dunyoga World Wide Web yangi global axborot muhitining yaratilgani haqida xabar qildi.

Hujjatlarni formatlash uchun vositalar to'plamini ifodalovchi gipermatnli til (Hypertext Markup Language, HTM) yordamida WWW to'ri Internetda matn, tasvir va ovoz shaklida mavjud bo'lgan ulkan hajmli barcha axborotlarni bir qilib bog'ladi.



WWW va web-sahifalarni ko'rib chiqish uchun dasturlar — brauzerlarning paydo bo'lishi Internetdan foydalanuvchilarga ular ilgari MS Windows turidagi grafik «qobiq»lar bilan ishlash davomida olgan tajriba va ko'nikmalaridan foydalanish imkonini


berdi. Bunda tasvir, matn va boshqa shakldagi axborotlarni bitta hujjatga joylashtirish shart bo'lmay qoldi. Hujjatning tarkibiy qismlari, shuningdek, uning bo'limlari turli web-serverlarda saqlanishi, hujjat tuzilmasida joylashtirilgan URL-ko'rsatkichlar yordamida esa bog'lanishi va gipermatnli hujjatni tashkil qilishi mumkin.

Marketing tadqiqotlari zamonaviy korxonalar marketing axborot tizimining asosiy vositalaridan birini ifodalaydi.

Bozorni tadqiq etish, iste'molchi did-istiklarini tahlil qilish, sotuvni bashorat qilish, reklama samaradorligini baholash kabi ko'plab vazifalar faqat ular yordamidagina hal etilishi mumkin. Internet barcha bilimlar sohasida ulkan hajmdagi axborotlarni qamrab olgan, jahondagi yetakchi kompaniyalar va iste'molchilarining keng qatlamlarini aks ettiruvchi o'ziga xos muhit sifatida marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun samarali foydalaniishi mumkin.

Yuqorida boblarda ta'kidlaganimizdek, marketing tadqiqoti bu kompaniyaning tijorat faoliyatida operativ va strategik qarorlar qabul qilish uchun axborot izlash, to'plash, qayta ishlash va tayyorlash jarayonidir.

Samarali marketing tadqiqotlari beshta bosqichdan iborat (5.1-rasm).



5.1-rasm. Marketing tadqiqotlari o'tkazishning umumiy sxemasi

Internetda marketing tadqiqotlari o'tkazishni an'anaviy tadqiqotlardan ajratib turuvchi asosiy farqlar axborot to'plash usullari va ma'lumot manbalari hisoblanadi.

Ma'lumot manbalari

Tadqiqot rejasি birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanishni ko'zda tutishi mumkin. Birlamchi ma'lumotlar mazkur loyihani amalga oshirishda muayyan maqsadda to'planadi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa boshqa maqsadlar uchun olingan, ma'lum bir shakldagi axborotlar hisoblanadi.

Odatda, tadqiqotlar vazifani to'liq yoki qisman hal qilish uchun to'g'ri keluvchi hamda birlamchi ma'lumotlar to'plash uchun xarajatlarni qisqartirishga imkon beruvchi ikkilamchi ma'lumotlar tahlilidan boshlanadi. Ikkilamchi ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- korxona faoliyati haqidagi ichki ma'lumotlar;
- Internet orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Bu holatda web-sahifa va web-saytlar, ma'lumotlar to'plami, telekonferensiya va fayl serverlari manba vazifasini bajarishi mumkin.

Zarur ma'lumotlarni ikkilamchi ma'lumotlar tarkibidan topishning imkonini bo'lmagan yoki bu ma'lumotlar to'liq, aniq va yetarli darajada ishonchli bo'lmagan yoki eskirib qolgan hollarda birlamchi ma'lumotlarni to'plashga to'g'ri keladi. Birlamchi ma'lumot to'plashning asosiy usullari so'rovlar, kuzatuv usuli va eksperimentlar o'tkazish hisoblanadi.

Internetda ma'lumot to'plash usullari

Ma'lumot to'plashda foydalaniluvchi usullar o'tkazilayotgan tadqiqot turiga qarab ikki xil – birlamchi yoki ikkilamchi usullarga taqsimlanadi.

Ikkilamchi marketing tadqiqotlari o'tkazishda birinchi o'ringa Internetda zarur axborotlarni qidirish usullari chiqadi. Bugungi kunda asosiy qidiruv vositalari qidiruv tizimlari va kataloglar hisoblanadi. Bir qator hollarda, ulardan foydalanish yetarlichcha samara bermagan sharoitlarda tematik saytlar, «sariq sahifalar» va boshqa resurslar bo'yicha «qo'lida qidirish» amalga oshiriladi.

Birlamchi axborot to'plashda ma'lumot to'plashning asosiy usuli sifatida Internet-so'rovlari, kuzatuv va eksperimentlar xizmat qiladi.

1. Internet-so'rovlari o'tkazishning eng tarqalgan usuli anketa so'rovlari hisoblanadi. Anketa respondentlar fikrini bilish uchun kiritilgan bir qator savollardan iborat bo'ladi. Bu vosita moslashuvchanligi va universalligi bilan ajralib turishi sababli u birlamchi ma'lumotlar to'plashning eng tarqalgan vositasi sanaladi.

5.2-rasmida www.mail.ru. saytida bepul elektron pochta xizmatidan foydalanish niyatida bo'lgan foydalanuvchilarga to'ldirish uchun taqdim etiluvchi anketaning bir qismi aks ettirilgan.

Название: Елена Григорьевна
Возраст: 30
Пол: Женщина
Образование: Высшее
Семейное положение: Не замужем
Дети: Нет
Хобби: Путешествия

Какие вы используете электронные почты для связи?

- Нам не всегда достаточно денег для письма
- У меня нет времени для этого, но это интересно
- Крупные компании, которые имеют свои почтовые ящики для своих клиентов
- Мы можем лучше общаться благодаря тому, что не нужно тратить время на поиск места для общения
- Наша компания не имеет своего места для общения с клиентами

Интересно ли вам использовать электронную почту для общения с друзьями или коллегами?

Да
Нет

Согласен с тем, что электронная почта - это удобный инструмент для общения.

Да
Нет

Я всегда использую электронную почту для общения с друзьями и коллегами.

Да
Нет

5.2-rasm. www.mail.ru saytidagi anketaning bir qismi

An'anaviy anketa so'rovlari o'tkazishda bo'lgani kabi, har bir Internet-tadqiqoti o'tkazishdan avval anketada foydalanimuvchi savollarni puxta ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish zarur. Bu ishga noprofessional yondashuv voqelikni buzib ko'rsatishga yoki olingan natijalar noto'g'ri talqin qilinishi olib kelishi mumkin.

2. Kuzatuv usuli biror-bir obyekt yoki subyektning xulq-atvori muntazam ravishda o'rganiluvchi marketing tadqiqotlari shaklini

ifodalaydi. So'rov usulidan farqli o'laroq kuzatuv usuli kuzatilayotgan obyektning axborot haqida xabar qilishga tayyor ekanligiga bog'liq bo'lmaydi hamda uning xulq-atvori bilan bog'liq voqeа va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ochiq yoki yashirin to'plash va qayd etish jarayoni hisoblanadi. Kuzatuv predmeti, masalan, xaridotlar xulq-atvori yoki tavsifnomalari bo'lishi mumkin.

Bu usulga o'z web-serveri yordamida firmalar tomonidan o'tkaziluvchi marketing tadqiqotlari kiradi. Bu usul web-serverning jurnal fayllaridan (log files) yoki cookie fayllarini qo'llash asosidagi texnologiyalardan foydalangan holda olinuvchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdan iborat. Bu ma'lumotlar tashrif buyuruvchilarning xulq-atvoriga, ularning sahifalar bo'yab harakatlanish ketma-ketligiga yoki web-serverga tashrif buyurish tezligiga taalluqli bo'lishi mumkin. Saytda qidiruv tizimi joylashtirilgan hollarda foydalaruvchilar kirituvchi so'rovlari ham qo'shimcha ravishda to'planishi va tahlil qilinishi mumkin.

Serverga tashrif buyurish statistikasi tahlili imkoniyatlari eng samarali marketing vositalaridan biri sanaladi. Respondentlarning faol ishtiroy etishini talab qiluvchi so'rov o'tkazishdan farqli o'laroq, statistika tahlili foydalanuvchilarni faol harakatga jaib etmasdan turib qimmatli axborot to'plashga imkon beradi.

3. Eksperiment usuli ilmiy nuqtai nazaridan eng jiddiy usul bo'lib, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Eksperiment obyektlari maxsus tanlab olinishi hamda ularning reaksiyasi o'rtasida statistik ahamiyatga ega farqlarni aniqlash uchun tashqi muhitni nazorat qilgan holda rejalashtirilgan ta'siriga uchratilishi lozim. Ishga aloqasi bo'Imagan tashqi omillar nazorat ostiga olingan darajada kuzatilayotgan samaralar eksperiment olib boruvchilarning obyektiga ta'siriga kiritilishi mumkin. Shu tariqa voqeа-hodisalar o'rtasida aniqlanuvchi aloqalar sabab-oqibat aloqalari, eksperiment maqsadlari esa erishilgan deb hisoblanishi mumkin.

5.2. Marketing qarorlarini statistik tahlil qilishda umumjahon o'rgimchak to'ri axborotlaridan foydalanish

Internet yordamida ikkilamchi marketing tadqiqoti o'tkazishning asosiy jihatlaridan biri axborot manbalarini izlash hisoblanadi. Hozirgi kunda Tarmoqdagi yuz millionlab saytlar bu vazifani juda murakkab qilib qo'yadi. Bu jarayonni yengillashtirish va uni samaraliroq qilish uchun Internetda axborot izlash vazifasini hal qilishga yondashuvni tavsiflab beramiz.

Internetda qidiruvni amalga oshirishda sifatli natija olish uchun bir qator shartlarga rioya qilish zarur. Ularning asosiyлари resurslarni keng qamrab olish va topilgan axborotning ishonchliligi hisoblanadi.

Tarmoqda u yoki bu ma'lumotni topish imkoniyati avvalo, uning resurslarini qamrab olish to'liqligiga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha bunday qidiruv o'tkazish maksimal hajmdagi manbalardan foydalanishni talab qiladi, bunda web-saytlardan tashqari ma'lumotlar to'plamlari, mintaqaviy telekonferensiylar, FTP-arxivlar va hokazolardan foydalanish mumkin. Bunda bugungi kunda mavjud bo'lgan barcha Internet resurslari turlarini bilish, ularni axborot bilan to'ldirishning texnik va tematik xususiyatlarini tushunish qidiruv ishlari muvaffaqiyatlari rejashtirish va o'tkazishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Internet tarmog'ida marketing tadqiqotlarida statistik tahlilni amalga oshirish jarayonida bir qancha statistik usullardan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin (5.1-jadval).

5.1-jadval

Internet tarmog'ida marketing tadqiqotlarida statistik tahlilni amalga oshirishda qilinadigan ishlar

| Qilinadigan ishlarning nomi | Qilinadigan ishlarning mazmuni |
|------------------------------------|---------------------------------------|
| Guruhshtirish | Tipologik guruhlash |
| | Tarkibiy guruhlash |
| Mutlaq miqdorlar | Tahliliy guruhlash |
| | Og'irligi |

| | |
|----------------------------|--|
| | Maydoni |
| | Hajmi |
| | Vaqt o'ichovi |
| | Uzunligi kabilar |
| Nisbiy miqdorlar | Turli koefitsientlarda, foizda, promeilleda, prodetsinelleda ifodalananadi |
| | Rejaning bajarilishi |
| | O'zgarish su'ati (dinamikasi) |
| | Tarkibiy ko'rsatkichlar |
| O'rtacha miqdorlar | O'rtacha arifmetik |
| | O'rtacha garmonik |
| | O'rtacha xronologik |
| | O'rtacha kvadratik |
| | O'rtacha geometrik |
| Moda | To'plamda eng katta songa yoki salmoqqa ega bo'lgan ko'rsatkich |
| Mediana | To'plamningteng ikkiga bo'ladigan ko'rsatkichi |
| Variatsiya | To'plam birliklari o'tasidagi tafovut (farqlanish), o'zgaruvchanlik |
| Variatsiya kengligi | Beglining eng katta va eng kichik darajalari o'tasidagi farq |
| Dispersiya | Alohibda miqdorlar bilan ularning o'rtacha miqdori o'tasidagi farqlar kvadratining to'plamdagagi birliklar soni yig'indisiga bo'lgan nisbat natijasi |
| O'rtacha kvadratik tafovut | Dispersiyani kvadrat ildizdan chiqarish natijasida o'zgaruvchanlik-ning haqiqiy darajasi aniqlanadi |

Magistrlar statistika fanini bakalavr bo'sqichida o'rgangan. Aynan shu o'rgangan statistik usullar marketing tadqiqotlarida qo'llaniladi. Shuning uchun ularni mustaqil ravishda har bir magistr yana bir bor takrorlab chiqadi. Va ularning marketing tadqiqotlarida qanday qo'llash mumkinligiga ahamiyat beradi.

Internetda axborotlarni to'plash va marketing tadqiqotlarini o'tkazish turlaridan foydalanish tariqasida axborotlar manbai va reusrslaridan foydalaniladi.

Resurslarni qamrab olish to'liqligi bilan bir qatorda o'tkazilayotgan qidiruv sifati topilgan axborotning ishonchhlilik darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Axborotning ishonchhlilik darajasini nazorat qilish ma'lumotni topish va muqobil axborot manbalari bilan solishtirish, uning boshqa manbalar tomonidan foydalanish tezligini aniqlash, hujjat va u joylashgan sayt maqomini aniqlash kabi turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

5.3. Internetda tadqiqotlar turlari va ularni tasniflanishi

Tarmoq axborot resurslari. Tashkil qilish va axborotni saqlash usullari bo'yicha Internet manbalarini quyidagi toifalarga taqsimlash mumkin:

➤ fayl serverlari ma'lumotlar saqlashning an'anaviy usuli bo'lib, disk xotirasining ma'lum bir qismi Internet orqali ulanish uchun ochiq bo'lgan kompyuterlarni ifodalaydi. Bunday serverda ma'lumotga ulanish FTP - fayl uzatish protokolini qo'llab-quvvatlovchi maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur protokol umumiy holatda avtorizatsiya, ya'ni foydalanuvchi identifikatsiyasini talab qiladi va barcha standart brauzerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

➤ web-saytlar bugungi kunda Tarmoqdagi axborot resurslarining eng asosiy va eng tarqalgan turi hisoblanadi. Sayt grafik, ovoz, matn, videotasvir kabi turli ko'rinishdagi axborotlarni taqdim etishi mumkin;

➤ telekonferensiylar qoidaga ko'ra norasmiy xarakterga ega bo'lgan zarur axborotlar manbai bo'lishi mumkin. Telekonferensiya Internetga ulanish imkoniga ega bo'lgan shaxslarning biron-bir masalani muhokama qilish yoki axborot tarqatish uchun mo'ljallangan muloqot usulini ifodalaydi;

➤ ma'lumotlar to'plamlari turli mavzudagi axborotdan iborat bo'lishi mumkin: nashrlar, ma'lumotnomalar axboroti va b. Ma'lumotlar to'plamlariga standart brauzerlar orqali ulanish usuli

eng tarqalgan, chunki u axborot iste'molchilari muloqot doirasi maksimal darajada keng bo'lishini ta'minlay oladi. Ma'lumotlar to'plamlaridan bevosita axborot chiqarib olish bilan bir qatorda foydalanuvchi so'rovilarini bajarish jarayonida web-sahifa dinamik qurilishi keng qo'llanadi.

Sanab o'tilgan barcha manbalarni bir qator belgilar bo'yicha tasniflash mumkin:

➤ til bo'yicha - tarixiy-geografik sabablar tufayli Internetda eng tarqalgan til ingliz tili hisoblanadi, biroq Tarmoqda dunyodagi asosiy tillarning deyarli barchasidan foydalanilib, tadqiqot kompaniyalarining qayd etishicha, ularning ulushi yil sayin o'sib bormoqda. Ko'pincha bitta saytni bir nechta tilda taqdim etish hollari uehramoqda;

➤ geografik belgilari bo'yicha, odatda axborot resurslarining o'z maqsadli muloqot doirasi mavjud bo'lib, uning joylashgan o'rni ko'pincha biron-bir geografik mintaqaga bilan bog'lanishi mumkin. Aytib o'tish kerakki, hududiy taqsimot resursga ularish imkoniyatlariiga ta'sir ko'rsatmaydi, Tarmoqqa dunyoning istalgan nuqtasidan bir xil ulanish mumkin;

➤ taqdim etilayotgan axborot turi va xarakteri bo'yicha (yangiliklar, reklama axboroti, tematik axborot, ma'lumotnomha axboroti), bu amaliy nuqtai nazardan taqdim etilayotgan axborotni turi va xarakteri bo'yicha taqsimlashning eng muhim shakli hisoblanadi, chunki oxir-oqibatda aynan axborot bilan ta'minlanganlik manbani tanlab olishda hal qiluvchi abamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan bir paytda aynan shu jihat taqdim etilayotgan axborotlarning bir xil emasligi sababli eng qiyin ifodalanuvchi bo'lishi mumkin. Masalan, bitta web-saytning o'zi turli ko'rinishdagи axborotlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababdan keltirilgan guruhlarga taqsimlash shartli hisoblanadi.

Axborot izlash vositalari

Axborot izlash vositalarini tashkil qilish va foydalanish tamoyili bo'yicha quyidagi vositalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

➤ qidiruv mashinalari — axborot izlashning asosiy vositasi hisoblanadi, chunki Internet web-serverlarining aksariyati indekslarini qamrab oladi. Biroq aynan shu ustunlik uning

kamchiligi ham bo'lib chiqadi. Har qanday so'rovga ular, odatda juda katta hajmda axborot beradilarki, bu ma'lumotlarning orasida foydalanuvchi uchun kerakli axborot juda kam bo'ladi;

➤ qidiruv metavositalari — qidiruv argumentlarini, ya'ni tayanch so'zlarni bir vaqtning o'zida bir nechta qidiruv tizimlariga berish yo'li bilan so'rovni bajarish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi. Qidiruv qamrovi kengayib, jarayon tezlashgan sharoitda bu usul so'rov bilan ishslash natijalari bir nechta tizimdan kelib tushganda ularni vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish zarurati bilan bog'liq kamchiliklarga ham ega bo'ladi;

➤ ixtisoslashgan qidiruv vositalari — «o'rgimchak-dasturlar» bo'lib, avtomatik rejimda web-sahifalarni ko'rib chiqadi va kerakli axborotni qidirib topadi. Ularning ishslash mexanizmi qidiruv tizimlari o'z indeks jadvallarini yaratishda foydalanuvchi mexanizmga yaqin;

➤ kataloglar — qidiruv mashinalari kabi Internetdan foydalanuvchilar tomonidan zatur axborotni topish uchun foydalaniadi. Katalog barcha ma'lumotlar foydalanuvchilar tashabbusi bilan kiritiluvchi ierarxik tashkil qilingan tuzilmani ifodalaydi. Natijada ulardagi axborot hajmi qidiruv tizimlariga nisbatan biroz cheklangan, biroq shu bilan bir paytda ularning asosida yotuvchi ierarxik mavzu tuzilmasi sababli ancha tartibga solingen bo'ladi.

Axborot izlash usullari. Har qanday vazifaga jiddiy yondashuv uni hal qilish mumkin bo'lgan usullarni tahlil qilishdan boshlanadi. Internetda axborot izlashni ikkita asosiy usul yordamida amalga oshirish mumkin bo'lib, ular maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda birgalikda yoki bir-biridan alohida qo'llanishi mumkin:

1. Qidiruv tizimlaridan seydanish - bugungi kunda ushbu usul ma'lumot izlashning eng asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Uning qo'llanishi tizimga qidiruv argumenti sifatida beriluvchi tayanch so'zlarga asoslanadi. Natijada detallli ko'rib chiqish talab qilinuvchi Internet resurslari ro'yxati olinadi. Eng to'g'ri keluvchi

natijani olish tezaurus tuzish bo'yicha oldindan ishlashni talab qiladi;

2. Gipermatn ssilkalar bo'yicha izlash – Internetdagи barcha saytlar bir-biri bilan giperssilkalar orqali bog'liqligi sababli axborot izlash brauzer yordamida ssilkalar bilan bog'langan web-sahifalarni ketma-ketlikda ko'rib chiqish yo'li bilan amalgalashirilishi mumkin. Qidiruvning bu turiga kataloglar, tasnifiy va tematik ro'yxatlar va turli ma'lumotnomalardan foydalanishni kiritish mumkin. Bunday usul eng ko'p mehnat talab qiladi, biroq web-sahifalarni «qo'l bola» ko'rib chiqish chuqr tahlil talab qiluvchi axborot izlashning yakuniy bosqichlarida yagona to'g'ri usul bo'lib chiqishi mumkin.

Qidiruv mashinalari yordamida axborot izlash. Eng ko'p qo'llanuvchi, lekin shu bilan bir payda eng murakkab qidiruv usuli qidiruv tizimlaridan foydalangan holda axborot izlash hisoblanadi. Uning keng tarqalganligi qidiruv tizimlari ko'p sonli saytlar indeksini qamrab olishi va to'g'ri ifodalangan so'rov yordamida qiziqtirayotgan resurslarga tezda ssilkalar olish mumkinligi bilan asoslanadi. Usulning murakkabligi shundaki, natija sifatli bo'lishi uchun eng to'g'ri keluvchi qidiruv tizimlarini tanlay olish, unga so'rovlarni to'g'ri shakllantirish, uning o'ziga xos xususiyatlari va funksional imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Qidiruv tizimlarini tanlash.

Ushbu bosqich qidiruv mashinalaridan bu mashinalarning har birini qo'llagan holda kutilayotgan samaradorlikning pasayib borishiga muvofiq foydalanish ketma-ketligini aniqlashni talab qiladi.

Qamrab olish mintaqalari, qidiruv o'tkazish tamoyillari (demak, so'rovlar tili va xarakteri bo'yicha ham), indeks bazasi hajmi, axborotni yangilash tezligi, «nostandart» axborot izlash qobiliyati bo'yicha farqlanuvchi jami bir necha yuzga yaqin qidiruv mashinalari ma'lum. Qidiruv mashinalarini tanlashning asosiylarini serverning indeks bazasi hajmi va qidiruv mashinasining o'zi rivojlanganlik darajasi, ya'ni u qabul qilayotgan so'rovlarning murakkablik darajasi hisoblanadi.

Qidiruv mashinalariga so'rovlар tuzish va bajarish

Bu katta hajmdagi axborotni qayta ishlash bilan bog'liq eng murakkab va mehnat talab qiluvechi bosqichdir. Tezaurus asosida tanlab olingen qidiruv serverlariga so'rov shakllantiriladi. Dastlabki natijalar olingandan so'ng relevant bo'limgan axborotni chiqarib tashlash maqsadida so'rovni aniqlashtirish mumkin. So'ngra qidiruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda eng qiziqarli resursdan boshlab resurslarni tanlash amalga oshiriladi va relevant deb tan olingen resurslar ma'lumotlari tahlil uchun to'planadi.

So'rovlар formati ham, semantikasi ham qo'llanayotgan qidiruv mashinasi va muayyan predmet sohasiga qarab turli variantda bo'lishi mumkin. So'rovlар shunday tuzilishi kerakki, qidiruv sohasi maksimal darajada aniqlashtirilgan bo'lishi, ya'ni bitta kengaytirilgan so'rovdan foydalanish o'rniiga bir nechta kichik maxsus so'rovlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Turli mashinalar uchun so'rov tillari asosan quyidagi funksiyalarning birikvi hisoblanadi:

➤ hujjatlar qidirishni quyidagi operatorlari yordamida amalga oshirish: AND, OR, NOT, AND – u birlashtiruvchi barcha atamalar bor bo'lgan, OR – izlanayotgan matnda operator birlashtirgan atamalardan hech bo'lmasa bittasi mavjud bo'lgan; NOT – matnida mazkur operator ortidan keluvchi atamalar yo'q bo'lgan hujjatni izlash;

➤ atamalarni kesish imkoniyati – atamaning oxiri o'rniiga belgisidan foydalanish ro'yxatga so'zning boshlang'ich qismi shablonidan boshlanuvchi barcha so'zlarni kiritishga imkon beradi;

➤ til morfologiyasini hisobga olish – mashina qidiruv borayotgan tilda mazkur atamaning barcha shakllarini avtomatik ravishda hisobga oladi;

➤ so'z birikmasi, ibora bo'yicha ma'lumot qidirish imkoniyati;

➤ qidiruvni hujjat elementi bilan cheklash (so'rov so'zlarini aynan sarlavhada, birinchi abzatsda, ssilkada joylashishi mumkin va hokazo);

➤ hujjat chiqarilgan sana bo'yicha cheklash;

- atamalarning mos tushishi soni bo'yicha cheklash;
- grafik tasvirlarni izlash imkoniyati;
- kichik va bosh xarflarga qarab izlash.

So'rov natijasi, ya'ni tizim chiqarib bergan topilgan resurslarga ssilkalar ro'yxati ikki bosqichda qayta ishlanaadi. Dastlabki bosqichda ro'yxat tarkibiga qidiruv mashinasining mukamma'l emasligi yoki so'rovning yetarli darajada «intellectual» emasligi sababli kirib qolgan norelevant manbalar chiqarib tashlanadi. Parallel ravishda keyingi so'rovlarni modifikatsiyalash uchun tezaurusni aniqlashtirish maqsadida semantik tahlil o'tkaziladi. Keyingi ishlar topilgan har bir resurs bilan ketma-ketlikda ishlash va undagi axborotni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Resurslar tahlili va axborot to'plash

Axborot izlashning yakuniy bosqichi resurslar tahlili va axborot to'plash hisoblanadi. Resurslarning birlamebi tahlili agar bor bo'lsa annotatsiyalarga, yo'q bo'lsa resursning axborot mazmuniga asoslanishi lozim. Shundan keyin axborot tanlab olingan manbalardan chiqarib olinadi va mos keluvchi maqsadlarda foydalaniladi.

5.4. Internetda mijozlar xatti – harakatini o'rGANISH

Internet paydo bo'lgan kunidan boshlab axborot tarqatishning yaxlit bir muhitini yaratishi lozim bo'lgan loyihadan kundankunga tijorat uni harakatlantiruvchi kuchga aylanib borayotgan markazlashmagan tarmoqqacha bo'lgan yo'lui bosib o'tdi. Foydalanuvchilarning o'zi navigatsiya jarayonini boshqaruvchi Internet muhitida tijorat faoliyatining muvaffaqiyatga erishishi biznes va ularning manfaatlarini qanchalik hisobga olishi bilan belgilanishi mumkin, buning uchun esa ular kim, ularning ehtiyojlarini, did-istiklari, xulq-atvor modellari qanday ekanligini bilish zarur.

Internetda uning muloqot doirasi tavsifnomalarini o'rGANISHGA yo'naltirilgan tadqiqotlar bu savollarga javob topishi mo'ljallangan. Uning asosiy tavsifnomalari qatoriga Tarmoq va uning ayrim saytlari muloqot doirasi hajmi, uning ijtimoiy-

demografik sur'ati, iste'mol ko'rsatkichlari va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Internetda tadqiqotchilik agentliklari

Internetda eng ahamiyatli tadqiqotlar keng doirasini Nua Internet Surveys (www.nua.ie/surveys) serveridan topish mumkin. Bu yerda Internet muloqot doirasining nafaqat umumiy, balki ixtisoslashgan – mintaqaviy yoki tarmoq tadqiqotlari natijalari ham keltirilgan. Shu bilan birga Tarmoqning kelajakda rivojlanishiga doir bashoratlar ham ilgari surilmoqda. Yangi nashrlar haqida axborot olish uchun serverda jo'natnalar ro'yxati ishlab turibdi. Internet rivojlanishiga doir statistika axborotlari, yangiliklar va tahlillarning yaxshi manbalari sisatida Forrester Research (www.forrester.com), Cyber Atlas (cyberatlas-internet.com), AdKnowledge (www.adknowledge.com) va Internet Advertising Resource Guide (www.admedia.org)ni ko'rsatish mumkin.

Internet foydalanuvchilar umumjahon tavsifnomasi

Eng asosiy va o'ziga jalb etuvchi masalalardan biri Internetning jamiyatga ta'sirini ko'rsatuvchi Internetdan foydalanuvchilar umumiy soni hisoblanadi. Bu masalaga e'tiborni Internetdan tijorat yo'lida foydalanish an'anaviy OAV kabi ko'p jihatdan u mo'ljallangan muhitda keng tarqaganlik darajasi bilan izohlanadi.

O'tkazilayotgan tadqiqotlar Internetdan foydalanuvchilarning taxminiy sonini baholashga imkon beradi va shu tariqa Internetning o'sishi va rivojlanishi mezoni bo'lib xizmat qiladi. Nua Internet Surveys (www.nua.ie/surveys/) tadqiqotlariga ko'ra 2014-yilning may oyida Internetga 980 mln. kishi ulanish imkoniga ega bo'lgan. Bu o'sha paytda yyer shari aholisining 30 %dan kamini tashkil qilgan bo'lib, Internet bugungi kunda rivojlanishning faqat dastlabki bosqichlaridan birida turganligidan dalolat beradi.

"Global Digital 2018" hisoboti bo'yicha shu yilning yanvar oyiga Internetdan foydalanuvchilar soni 4.021 mlrd. yetdi.

Bashoratlarga ko'ra, 2019-yil yanvarga borib, Internetdan foydalanuvchilar soni sal kam 4.5 mlrd. kishidan ortib ketadi.

Internetdan foydalanuvchilar sonining o'sish dinamikasi turi tebranishlarga uchraydi. Bu ko'rsatkichning maksimal o'sishi yiliga qariyb 100 %ni tashkil etgan. Biroq AQSh va Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarda aholining 80 %dan ortig'i Internetga ulanish imkoniga ega bo'lib, bu ko'rsatkich vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni geografik ko'rsatkichlari bir xilda emas. 5.2-jadvallarda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo mintaqalari bo'yicha taqsimlangan holda keltirilgan.

5.2-jadval

Internetdan foydalanuvchilarning dunyo mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi (manba: Nua Internet Surveys)

| Mintaqa | Foydalanuvchilar soni, mln. kishidan ortiq |
|---|---|
| Shimoliy Amerika | 320 (88.1 %) |
| Yevropa | 660 (80.2) |
| Tinch Okeani va Avstraliya mintaqasi | 28 (69.6 %) |
| Latin Amerikasi | 404 (62.4 %) |
| Osiyo | 1 938 (49.7) |
| Afrika | 388 (31.2%) |
| O'rta Sharq | 147 (58.7 %) |
| Umumiy soni | 3 885 |

Internetdan foydalanuvchilarning ayrim Yevropa mamlakatlari bo'yicha taqsimlanishi (manba: Nua Internet Surveys)

Internet kompaniyalar va ularning mijozlari o'rtasida individual aloqalarni shakllantirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar taqdim etadi. Bu imkoniyatlar muvaffaqiyatli biznes yuritish bo'yicha zamonaqiy tendensiyalar bilan uzviy aloqada bo'lib, ular orasida asosiy raqobatli afzalliklardan biri mijozlarning kompaniyaga moyilligini shakllantirish va ularning qoniqsanlik darajasini oshirish uchun ular bilan o'zaro aloqani yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Mahsulot sotishning belgilangan darajada bo'lishini qo'llab-quvvatlash uchun kompaniya o'z faoliyatida ikkita asosiy yo'nalishni: yangi xaridorlarni jaib qilish va mavjud xaridorlar

bilan munosabatlarni qo'llab-quvvatlashni hisobga olishi zarur. Iqtisodiy foyda nuqtai nazaridan yangi xaridor topgandan ko'ra doimiy xaridorlar bilan o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlash arzon tushadi.

Ommaga keng ma'lum bo'lgan bir nechta dalilni keltirib o'tamiz:

➤ Pareto tamoyiliga ko'ra kompaniya daromadlarining 80%ini mijozlarning 20%i keltiradi;

➤ tovar birligini sotish uchun savdo vakiliga yangi xaridorlarni jalg qilish uchun ularga o'nlab marta murojaat qilish talab qilingan bir paytda doimiy mijozlarga o'rtacha 2-3-marta murojaat qilish kifoya;

➤ doimiy mijoz bilan bitim tuzish xuddi shu bitimni yangi xaridor bilan tuzishga nisbatan 5-10 baravar arzonga tushadi;

➤ doimiy xaridorlar sonining 5 %ga o'sishi umumiy sotuv hajmining 25 % o'sishiga olib keladi.

Kompaniyalarni mijozlar bilan munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga majbur qiluvchi sabablar boshqa tendensiyalar ham bo'lishi mumkin. Internetda foydalaniyotgan zamonaviy texnologiyalar shunga olib keldiki, endi xaridor bozorning istalgan qismiga eng kam tranzaksiya xarajatlari bilan murojaat qila oladi. Mavjud mijozlarni ushlab qolish bunday sharoitlarda birlamchi vazisiga aylanadi.

Mijoz va firma o'rtasidagi aloqa telefon va faksdan tortib telekonferensiya va elektron pochtagacha turli usullar bilan amalga oshirilishi sababli mijoz bu kanallar bo'yicha olinuvchi barcha axborotlar kompaniya tomonidan birqalikda ko'rib chiqilishini kutadi. Bunday sharoitlarda mijoz va u bilan aloqa haqidagi barcha axborotlarni hisobga olgan holdagini uni ushlab qolish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, reklama va sotuvni rag'batlantirish kabi iste'molchi talabining an'anaviy rag'batlari samaradorligining pasayish yo'nalishi ham kuzatiladi. Natijada kuchli raqobat sharoitlarida kompaniyalar mijozlarni jalg qilish va ushlab qolish uchun yangi imkoniyatlar izlab topishga majbur bo'ladi.

CRM tizimlari

Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri sifatida CRM (Customer Relationships Management) iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini joriy qilish mumkin.

CRM bu firmanın o'z mijozlariga «mijozlarga yo'naltirilgan» yondashuvni aks ettiruvchi konsepsiyaadir. Bu konsepsiyanı amalga oshiruvchi tizimlar firma mijozlari haqida axborot to'plashi, bu axborotlardan mijozlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish yo'li bilan kompaniya manfaatlari yo'lida foydalanishi ko'zda tutilgan.

CRM tizimi vazifalari qatoriga daromadlilik, sotuvning foydaliligi va mijozlarning qoniqqanligini oshirish kabilar kiradi. Ushbu konsepsiya doirasida kompaniya uning tasarrufidagi vositalar, texnologiya va yondashuvlardan foydalangan holda sotuv hajmini oshirish maqsadida mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtiradi.

CRM tizimi funksiyalari va ular bajaruvchi vazifalar

O'z oldida turgan vazifalarni bajarish uchun CRM tizimi quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi lozim: mijozlar haqida axborot to'plash, olingan axborotni saqlash va qayta ishlash, axborot va uni tahlil qilish natijalarini boshqa tizimlarga eksport qilish imkoniyati. Bu funksiyalarni mufassal ravishda ko'rib chiqamiz:

➤ axborot to'plash. Axborot to'plash vazifasi mijoz va uning kompaniya bilan aloqalari haqidagi barcha ma'lumotlarni tizimga kiritishni nazarda tutadi. Mijoz haqida shaxsiy ma'lumotlar uning yoshi, oilaviy ahvoli, yillik daromadi, mulki va hokazolardan, uning kompaniya bilan aloqalari haqidagi ma'lumotlar esa bu aloqalarning maqsadi – tovar xarid qilish, axborot olish, xarid paytida sotib olingan tovarni tavsiflash, uning narxi, miqdori, maqsadi, to'lov turi va boshqalardan iborat bo'ladi. Bu ma'lumotlar tizimga kompaniya xodimi yoki mijozning o'zi tomonidan, masalan, Internet-do'konda tovar xarid qilishda kiritilishi mumkin. Ikki tomon o'rtasidagi aloqa xoh mijozning kompaniyaga shaxsan tashrif buyurishi bo'lsin, xoh telefon, faks,

pochta yoki Internet orqali aloqa bo'lsin, ma'lumotlar yangilanib turishi lozim;

➤ axborotni saqlash va qayta ishlash. Tizim olingan ma'lumotlarni saqlash va belgilangan mezoniar bo'yicha qayta ishlashga imkon beradi;

➤ axborotni taqdim etish va eksport qilish. Axborotni taqdim etish CRM tizimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Tizimda saqlanuvchi ma'lumotlar turli bo'linmalar tomonidan istalgan ko'rinishda talab qilinib qolishi mumkin. Masalan, CRM tizimi tarixiy ma'lumotlarni ekstrapolyatsiyalash asosida muayyan mijoz qaysi tovarni afzal ko'rishini aniqlashi mumkin. Agar mijoz doimiy xaridor bo'lsa, tizim unga chegirma berish lozimligini eslatadi. Va nihoyat, kompaniya xodimiga mijozning firma bilan tarixiy aloqalari haqida axborot kerak bo'lib qolishi mumkin va tizim bu ma'lumotlarni yaqqol ko'rinishda namoyish eta olishi lozim.

CRM konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozim:

➤ mijozni tanib olish (identifikatsiya). Mijozning «qimmatli»ligini oshirish uchun kompaniya marketing bo'limi ma'lumotlari va o'zaro munosabatlar tarixi haqidagi ma'lumotlarga asoslangan holda u haqda ma'lum bir tasavvurga ega bo'lishi kerak;

➤ mijozlarni taqsimlash (differensiatsiya). Har bir mijoz kompaniya uchun alohida ahamiyat kasb etib, kompaniyaga o'z individual so'rov va talablarini bildirish huquqiga ega bo'ladi;

➤ mijoz bilan munosabatlar. Mijozlarga o'zgarishlar kerak bo'ladi. CRM nuqtai nazaridan mijoz bilan hamkorlikdan uzoq muddatli foyda olish muhim, shu sababli kompaniya u haqda ijtimoiy maqomi, oilaviy ahvolining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. CRM vazifasi mijozning did-istiklari va ehtiyojlarini kuzatib borishdir;

➤ personalizatsiya shunday jarayonki, unda mijozlarning har biri beqiyos birlik sifatida baholanadi va unga shu qoidaga asosan

xizmat ko'rsatadi. Shu tariqa mijozning kompaniyaga moyillik darajasini tartibga solish mumkin.

CRM tizimi tarkibi

Quyidagi jadvalda zamonaviy CRM tizimlari tarkib topuvchi asosiy modullar, shuningdek, ular bajaruvchi funksiyalar aks ettirilgan.

5.3-jadval

CRM tizimi modullari va ular bajaruvchi funksiyalar

| Nomi | Funksiyalari |
|---|---|
| Contact Management | Har bir muloqot bo'yicha kengaytirilgan yozuv, har bir mijoz uchun alohida foydalanuvchi profili, muloqotlar tarixi yuritish, tashkiliy diagrammalardan foydalanish, mijozlarni turli guruhlarga to'plash imkoniyati va b. |
| Account Management | Kontragentlar (jumladan, mijozlar, hamkorlar, agentlar, raqobatchilar) bo'yicha axborot yuritish, jumladan, o'zaro munosabatlar tarixi, rejadagi va amalga oshirilgan bitimlar, shartnomalar, moliyaviy va buxgalteriya ma'lumotlari yuritish |
| Sales Management | Bevosita oldi-sotdi bilan bog'liq axborot yuritish – sikllar, statistika, hududiy bog'lanish, hisobotlar tuzish, sotuv tarixi va h.k. Sotuvni samarali boshqarish va bashorat qilishga imkon beruvchi uni bosqich va qadamlarga bo'lib qarash |
| Time Management | Barcha bo'linmalar ishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish: kalendar, vazifalar ro'yxati, turli modullar bilan faks, elektron pochta va boshqa aloqa vositalari yordamida aloqa qilish |
| Customer Service | Mijozlarni interaktiv qo'llab-quvvatlash (Internet, virtual tarmoqlar va b) – mijozlarga zarur axborotni mustaqil olishga imkon beradi; mijozlar bilan ishlashtirish, muloqotlar statistikasi, hisobotlar tayyorlash, mutaxassislarning vaqt sarfini hisobga olish va b. |
| Field Force Automation, Telemarketing/telesales | Mintaqaviy, tarmoq va boshqa belgilarga ko'ra taqsimlangan mijozlar bilan guruh bo'lib ishslash, uzoq hududda joylashgan bo'linmalar bilan ishslash, buyurtmalarga ishlov berish markazi bilan integratsiya imkoniyati, statistika yuritish, standart savol va javoblarni yozib borish hamda elektron pochta, IP- |

| | |
|-----------------------|---|
| | telefoniya va boshqalardan foydalangan holda mijozlar bilan kommunikatsiya vositalarining boshqa turli imkoniyatlaridan to'liq foydalanish |
| Marketing | Statistik ma'lumotlar to'plash va taqdim etish, turli marketing aksiyalarini rejalashtirish va olib borish, samaradorlikni hisob-kitob qilish, modellashtirish, yordamchi (o'quv) materiali, iste'molchilar segmentatsiyasi va b. |
| Lead Management | Potentsial mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish: birlamchi axborot to'plash, sotuv bo'limmasi xodimlari o'rtaida muloqotni taqsimlash, birlamchi muloqot manbalari samaradorligini kuzatib borish |
| PRM | Hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish |
| Knowledge Management | Bilimlarni boshqarish, kompaniya faoliyati uchun zarur barcha axborotlarni (xaritalar, tarmoq axboroti, tahliliy materiallar, statistika ma'lumotlari) to'plash, alohida yangiliklar bo'limlari yaratish (masalan, qayta ishlash sanoati menejerlari uchun), Internetdagi manbalar va kuchli qidiruv tizimlari bilan integratsiya |
| e-Business | Mijozlar bilan Internet orqali aloqalarni tashkil qilish va mos keluvchi funksiyalarni qo'llab-quvvatlash: kompaniya web-sayti mazmunini boshqarish, telekonferensiya xizmati, chat, internet-do'kon, B2B savdo maydonchasi, internet-auktzionlar va hokazo |
| Business Intelligence | Muammolarni nazorat qilish bo'yicha avtomatik imkoniyatlar, oldini oluvchi harakatlarni amalga oshirish, shablon bo'yicha va individual hisobotlar tuzish, rejalashtirish, modellashtirish. |
| User support | Foydalanuvchini qo'llab-quvvatlash, unga yordam berish. |

CRM tizimini ishlab chiqqan kompaniyalar safida Siebel (www.siebel.com), Hyperion (www.hyperion.com), Epicor (www.epicor.com), People Soft (www.peoplesoft.com), Nortel Networks (www.nortelnetworks.com), Tranzline (www.tranzline.co.uk), People Link (www.peoplelink.com), Genesys (www.genesys.com), Open Market (www.openmarket.com), BroadVision (www.broadvision.com),

Vignette (www.vignette.com), SAS (www.sas.com), SAP (www.sap.com), Oracle (www.oracle.com), Baan (www.baan.com), Symix (www.symix.com), Microstrategy (www.microstrategy.com), Invest axberot texnologiyalari (www.pro-invest.com/it) kabi kompaniyalarni sanab o'tish mumkin. Sanab o'tilgan kompaniyalarning bir qismida elektron tijorat uchun ixtisoslashgan CRM tizimlari bor bo'lsa, boshqa qismida bu funksiyalarni ERP tizimi tarkibida bajaruvchi modul mavjud.

5.5. Internet va elektron pochta xizmati

Internet xizmatlaridan eng oddiyalaridan biri bu – elektron pochtadir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, elektron pochta – bu Internet tarmog'i orqali xabarlar almashish xizmati hisoblanib, asosan ikkita komponent ishtirokida tashkil etiladi:

A) elektron pochta serveri (SMTP, POP) – xabarlarni jo'natish va qabul qilishni ta'minlash;

B) elektron pochta klienti – xabarlarni yaratish, o'qish va javob qaytarish.

Elektron pochta xizmati quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

– Xabarlarni tezkor almashish (bir necha daqiqa);

– Xabarlarga qo'shimcha ma'lumotlarni ilova qilish;

– Xabarlarga rasm va multimedia ma'lumotlarini joylashtirish.



5.3 – rasm. Elektron pochta xizmati²³

Elektron pochta xizmati va uning afzalliklari:
 Internet-xalqaro tarmog'ining asosini Electronic mail (E-mail) - elektron pochta xizmati tashkil qiladi.

Elektron pochta xuddi odatdag'i pochtadek bo'lib, faqat bunda xatni qog'ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so'zlarni terib, elektron signallarning ma'lum tartibdagi ko'rinishiga keltiradi.

Elektron pochta maxsus dastur bo'lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya'ni ixtiyoriy faylni tezda (birnecha soniyalarda) jo'natish va qabul qilib olish mumkin.

Bundan tashqari ma'lum talablar mavjud, ya'ni bunda xat jo'natayotgan foydalanuvchi va qabul qilayotgan foydalanuvchi ham Internet tarmog'iga ulangan kompyuterga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Forumlar. Veb-forum - Internet tarmog'ida o'zaro muloqotni tashkil etish uchun mo'ljallangan veb-sayt sahifalari va uskulalari majmuasi. Qisqacha aytganda, forum bu veb-saytning tashrif buyuruvchilari muloqot o'rnatadigan maydonchasi. Foydalanuvchi forum veb-saytiga tashrif buyurib, o'zini

²³ Гейн А. Г. Изучение информационного моделирования как средство реализации межпредметных связей информатики с дисциплинами естественнонаучного цикла: Автореф. канд. пед. наук. - М., 2014г.

qiziqtirgan mavzuni o'rtaga tashlashi va veb-saytning boshqa tashrif buyuruvchilari bilan muhokama qilishlari mumkin. *Xalqaro internet forumlari*. Internet forumlari alohida yo'naliishlarga ixtisoslashgan yoki umumiy bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan forumlarda faqatgina mo'ljallangan sohaga oid mavzular muhokama qilinadi, umumiy forumlarda esa ixtiyoriy mavzuni o'rtaga tashlash mumkin.

Qisqa xulosalar

Internet inglizcha "Internet" – umumjahon kompyuter tarmoqlarining birlashgan tizimi deb nomlanadi. U ma'lumotlar paketiga yo'naltirilgan IP protokolidan foydalanuvchi qurilmadan iborat. Internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'plab yondosh va turdosh sohalar yutuqlari bilan uzviy bog'liq. Bu tarmoq texnologiyalarining rivojlanishi, operatsion tizimlarning takomillashuvi, dasturlash tillarining rivojlanishi va hokazolardan iborat.

Internetda marketing tadqiqotlari o'tkazishni an'anaviy tadqiqotlardan ajratib turuvchi asosiy farqlar axborot to'plash usullari va ma'lumot manbalari hisoblanadi.

Ma'lumot manbalari

Tadqiqot rejasi birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalinishni ko'zda tutishi mumkin. Birlamchi ma'lumotlar mazkur loyihami amalga oshirishda muayyan maqsadda to'planadi. Ikkilamchi ma'lumotlar esa boshqa maqsadlar uchun olingan, ma'lum bir shakldagi axborotlar hisoblanadi.

Odatda, tadqiqotlar vazifani to'liq yoki qisman hal qilish uchun to'g'ri keluvchi hamda birlamchi ma'lumotlar to'plash uchun xarajatlarni qisqartirishga imkon beruvchi ikkilamchi ma'lumotlar tahlilidan boshlanadi. Istalgan holatda ham ikkilamchi ma'lumotlar boshlang'ich nuqta bo'lib, nisbatan arzon va oson topiladi.

Ikkilamchi ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- korxona faoliyati haqidagi ichki ma'lumotlar;

➤ Internet orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Bu holatda web-sahifa va web-saytlar, ma'lumotlar to'plami, telekonferensiya va fayl serverlari manba vazifasini bajarishi mumkin.

Zarur ma'lumotlarni ikkilamchi ma'lumotlar tarkibidan topishning imkonini bo'lmagan yoki bu ma'lumotlar to'liq, aniq va yetarli darajada ishonchli bo'lmagan yoki eskirib qolgan hollarda birlamchi ma'lumotlarni to'plashga to'g'ri keladi. Birlamchi ma'lumot to'plashning asosiy usullari so'rovlari, kuzatuv usuli va eksperimentlar o'tkazish hisoblanadi.

Istalgan holatda ham ikkilamchi ma'lumotlar boshlang'ich nuqta bo'lib, nisbatan arzon va oson topiladi.

Ikkilamchi ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

➤ korxona faoliyati haqidagi ichki ma'lumotlar;

➤ Internet orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar. Bu holatda web-sahifa va web-saytlar, ma'lumotlar to'plami, telekonferensiya va fayl serverlari manba vazifasini bajarishi mumkin.

Ikkilamchi marketing tadqiqotlari o'tkazishda birinchi o'ringa Internetda zarur axborotlarni qidirish usullari chiqadi. Bugungi kunda asosiy qidiruv vositalari qidiruv tizimlari va kataloglar hisoblanadi. Bir qator hollarda, ularidan foydalanish yetarlicha samara bermagan sharoitlarda tematik saytlar, «sariq sahifalar» va boshqa resurslar bo'yicha «qo'lda qidirish» amalga oshiriladi.

Birlamchi axborot to'plashda ma'lumot to'plashning asosiy usuli sifatida Internet-so'rovlari, kuzatuv va eksperimentlar xizmat qiladi.

1. Internet-so'rovlari o'tkazishning eng tarqalgan usuli anketa so'rovlari hisoblanadi. Anketa respondentlar fikrini bilish uchun kiritilgan bir qator savollardan iborat bo'ladi. Bu vosita moslashuvchanligi va universalligi bilan ajralib turishi sababli u birlamchi ma'lumotlar to'plashning eng tarqalgan vositasi sanaladi.

2. web-serveri yordamida firmalar tomonidan o'tkaziluvchi marketing tadqiqotlari kiradi. Bu usul web-serverning jurnal

fayllaridan (log files) yoki cookie fayllarini qo'llash asosidagi texnologiyalardan foydalangan holda olinuvchi ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishdan iborat. Bu ma'lumotlar tashrif buyuruvchilarining xulq-atvoriga, ularning sahifalar bo'ylab harakatlanish ketma-ketligiga yoki web-serverga tashrif buyurish tezligiga taalluqli bo'lishi mumkin. Saytda qidiruv tizimi joylashtirilgan hollarda foydalanuvchilar kirituvchi so'rovlar ham qo'shimcha ravishda to'planishi va tahlil qilishi mumkin.

3. Serverga tashrif buyurish statistikasi tahlili imkoniyatlari eng samarali marketing vositalaridan biri sanaladi. Respondentlarning faol ishtirot etishini talab qiluvchi so'rov o'tkazishdan farqli o'laroq, statistika tahlili foydalanuvchilarini faol harakatga jalg etmasdan turib qimmatli axborot to'plashga imkon beradi.

4. Eksperiment usuli ilmiy nuqtai nazaridan eng jiddiy usul bo'lib, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Eksperiment obyektlari maxsus tanlab olinishi hamda ularning reaksiyasi o'rtaida statistik ahamiyatga ega farqlarni aniqlash uchun tashqi muhitni nazorat qilgan holda rejalashtirilgan ta'siriga uchratilishi lozim. Ishga aloqasi bo'limgan tashqi omillar nazorat ostiga olingan darajada kuzatilayotgan samaralar eksperiment olib boruvchilarining obyektga ta'siriga kiritilishi mumkin.

Internet yordamida ikkilamchi marketing tadqiqoti o'tkazishning asosiy jihatlaridan biri axborot manbalarini izlash hisoblanadi. Hozirgi kunda Tarmoqdagi yuz millionlab saytlar bu vazifani juda murakkab qilib qo'yadi. Bu jarayonni yengillashtirish va uni samaraliroq qilish uchun Internetda axborot izlash vazifasini hal qilishga yondashuvni tavsiflab beramiz.

Internetda qidiruvni amalga oshirishda sifatli natija olish uchun bir qator shartlarga rioya qilish zarur. Ularning asosiyлари resurslarni keng qamrab olish va topilgan axborotning ishonchliligi hisoblanadi.

Tayanch iboralar: -“Internet”, WWW, telekommunikatsiya, tarmoq, formatlash, protokol, gipermatn, web-sahifa, MS

Windows, URL-ko'rsatkichlar, ma'lumotlarni to'plash, Internet – so'rovlar, Internet-tadqiqoti, web-serveri, jurnal fayllari, kuzatuv, eksperiment, anketa, sayt, grafik, videotasvir, brauzer, gipermatn ssilkalari bo'yicha izlash, CRM, identifikatsiya, differensiatsiya, personalizatsiya, Kontragentlar, elektro pochta va forrumlar.

Nazorat savollari

1. – “Internet” tarmog'i qachon vujudga kelgan va nima maqsadda shakllantirilgan?
2. Internetda marketing tadqiqotlarining roli va o'mni nimalardan iborat?
3. Samarali Marketing tadqiqotlarini o'tkazish nechta bosqichdan iborat?
4. Internet tarmog'ida qaysi axborot turlarining ma'lumotlaridan ko'proq foydalanadilar?
5. Qidiruv mashinalar yordamida qanday axborotlar qidiriladi va marketing tadqiqotlari usullarining qaysi biriga to'g'ri keladi?
6. Qidiruv mashinalariga so'rovlar tuzish va bajarishda axborotlar to'plashning qanday mezonlari asosida tuziladi?
7. Internetda mijozlar xatti – harakatini o'rganishda qaysi omillarni inobatga oladi va uning muloqot doirasi nimalardan iborat?
8. CRM (Customer Relationships Management) iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarishda qanday yondashuvga asoslanadi?
9. CRM tizimida ekstropolyatsiya usuli orqali mijozning nimani afzal ko'rishini osonlashtiradi?
10. CRM tizimi tarkibi va modulini tavsiflab bering.

VI BOB. AXBOROT TO'PLASH: QIDIRUV VA DESKRIPTIV TADQIQOT USULLARI

6.1. Dastlabki axborot: sifatli va miqdoriy tadqiqotlar

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda axborot to'plash usullarini ikki guruhga – sifat va son usullariga ajratish mumkin.

Son tadqiqotlari odadta yopiq turdag'i strukturalangan savollardan foydalanishga asoslangan turli so'rovlarini o'tkazishga o'xshatiladi. Bunday tadqiqotlarga xos bo'lgan xususiyatlar: to'planuvchi ma'lumotlar shakli va ularni olish manbalarining aniq belgilanishi, to'plangan ma'lumotlarning faqat tartibga solingan jarayonlar vositasida o'tkazish hisoblanadi.

Sifat tadqiqotlari odamlarning nima qilayotganligi va nima deyayotganligini kuzatish yo'li bilan axborot to'plash, tahlil qilish va taqdim etishni qamrab oladi. Kuzatuv va xulosalar sifat xarakteriga ega bo'lib, standartlashtirilmagan tarzda amalga oshiriladi. Sifat ma'lumotlari son shakliga keltirilishi mumkin, biroq bunday oldin maxsus jarayonlarni o'tkazish talab qilinadi.

Sifat tadqiqotlari asosini kuzatuv usullari tashkil qiladi. Bu usullarning aksariyati psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga asoslanadi.

Marketing tadqiqotlarida kuzatuv usuli tanlab olingan odamlar guruhlari, harakatlar va vaziyatlarni kuzatish yo'li bilan o'r ganilayotgan obyekt haqida birlamchi marketing axboroti to'plashni ifodalaydi. Bunda tadqiqotchi o'r ganilayotgan obyektiga taalluqli va tadqiqot maqsadlari nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan barcha omillarni bevosita qayd etadi va ro'yxatga oladi.

Yuqoridagi boblarda ta'kidlaganimizdek, marketing tadqiqotlarining turlari va ularning tasnifi haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, mazkur jarayonning ko'lami juda keng. U bevosita bir qancha yo'naliishlarda amalga oshiriladi:

- bozorni tadqiq qiladi;
- iste'molni va iste'molchilarini tadqiq qiladi;
- ishlab chiqarayotgan tovarni (xizmat)ni tadqiq qiladi;
- tovarni (xizmati)ning bahosini tadqiq qiladi;

– raqobatdosh korxonalarni tadqiq qiladi.

Ushbu yo‘nalishlarning hammasida marketing tadqiqoti o‘tkaziladi va mazkur jarayonda uning turli xillaridan foydalaniladi. Biroq shunday turlari borki, ular nisbatan umumiy va barcha jarayonda ishtirok etishi mumkin. Bularga quyidagi kirtish mumkin (6.1-jadval).

6.1-jadval

Marketing tadqiqotlari ayrim belgilari bo‘yicha tasnifi


| Tasnifiy belgilari | Tadqiqotlarning turlari |
|---|--|
| Marketing tadqiqotlarini o‘tkazish usuli bo‘yicha | Kabinetda tadqiq qilish Dala tadqiqoti |
| Tadqiqotning maqsadi bo‘yicha | Qidiruv Yozib boruvchi Tahlil qiluvchi |
| Axborotlarni to‘plash xarakteri bo‘yicha | Miqdoriy tadqiqotlar Sifatiy tadqiqotlar |

Marketing tadqiqotining mazkur turlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar marketologlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu tufayli marketologlar qanday darajadagi korxona bo‘lmisin tadqiqot elementlarini va uni o‘tkazish usullarini yaxshi bilishlari lozim. Chunki yuqori samaradorlikni ta’minlash va bozorda o‘z o‘rnini va aholi o‘rtasida nufuzini mustahkamlab borishi uchun mazkur korxonadagi mutaxassislar ushbu talablarga javob beradigan bo‘lishlari kerak.

Marketing tadqiqotlari turining har biri bo‘yicha qisqacha tavsifini keltirish uchun har bir turining mazmuni bilan tanishish, ulardan qay darajada foydalanish uchun imkoniyat beradi. Shu maqsadda har birining qisqacha tavsifini keltiramiz (6.2-jadval).

6.2-jadval

Marketing tadqiqothari turlari va ularning tavsifi

| Marketing tadqiqotlarining turlari | Marketing tadqiqottarining mazmuni |
|---|---|
| Kabinet tadqiqoti  | Tayyor holdagi ikkilamchi ma'lumotlar (nashr qilingan, oldindan hisobot va boshqa shakllarda tayyorlangan) asosida xonada o'tkaziladigan tadqiqot. |
| Dala tadqiqoti  | Hamisha ikkilamchi ma'lumotlar tadqiqotlar uchun yetarli bo'lmaganda turli so'rovlar, kuzatishlar, anketalar va tajribalar yordamida birlamchi ma'lumotlarni to'plash |
| Qidiruv tadqiqoti  | Muammoga chuqur kirib borish va uni hal qilişning mukammal yo'llarini ishlab chiqish maqsadida tegishli ma'lumotlarni va g'oyalarni to'plash |
| Yozib boriluvchi tadqiqot  | Bevosita bozorda sodir bo'ladigan hodisalarni yozib borish asosida vaziyatni o'rGANISH va ularni tizimlashtirish orqali tegishli strategiyani ishlab chiqish |
| Tahliliy tadqiqot | Natijaning ijobiy yoki salbiy holati nimalar evaziga sodir bo'lganligini tegishli dalillar asosida chuqur o'rGANISH |
| Miqdoriy tadqiqotlar | Turli tahliliy usullardan foydalangan holda kim, qayerda, qachon va qancha degan savollarga javob topish uchun qilinishi |

| | |
|----------------------------|---|
| Sifatiy tadqiqotlar | Turli tahliliy usullardan foydalangan holda nima, qanday, nima uchun degan savollarga javob sifatiy baholash maqsadida chuqur tahliliy ishlarni amalga oshirish |
|----------------------------|---|

Ushbu holatlar marketing sohasining shu qirrasini bo'yicha batafsil xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Chunki ularning har bir turi tegishli tarzda tadqiq qilinadi. Bunday holatda bermalol marketing tadqiqoti natijasi asosida marketing strategiyasini ishlab chiqish mumkin.

6.2. Sifat tadqiqoti usullarini tasniflash

Aksariyat hollarda marketing tadqiqotini o'tkazishdan avval bozor jarayonlarini to'liq aks ettirish va axborot manbalarining ishonchligini aniqlash maqsadida marketing axborotlari chuqur tahlil qilinadi.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Masalan, korxonada band bo'lgan hodimlar soni miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, ularning mehnat unumdonorligi sifat ko'rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko'rsatkichidir. Yana boshqa bir misol keltirsak. Jamoa xo'jaligining bir yilda yetishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor ko'rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to'rtinchi navga topshirildi. Bular paxtaning sifat ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ular o'rtasidagi bog'liqlik ifodalanishi uchun hamisha ko'rsatkichlarni bog'liq ravishda ifoda etish mumkin.

Iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan marketing tadqiqotlarida statistik tahlil falsafiy kategoriyalarga to'liq asoslanadi.

Marketing axborotining shakllanishi o'tgan asming 60-yillaridan boshlangan. O'sha yillarning o'rtalarigacha ushbu bozorda asosiy ta'minotchi bo'lib yangiliklar xizmati va matbuot agentliklari xizmat qilgan. Biroz keyinroq bu bozorga banklarning axborot xizmatlari, turli ilmiy-texnik tashkilotlar va boshqa korxonalar ham qo'shildi.

70-yillarning boshida yirik axborot xizmatlari tomonidan tuzilgan axborot bazalari paydo bo'lib, ular ilmiy-texnik, akademik va davlat muassasalarini bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

XXI asr yillarida axborot xizmatlari bozori axborot xizmatlarini sotish va sotib olish bo'yicha axborot ta'minotchilari va iste'molchilar o'rtaida vujudga keluvchi iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy munosabatlar yig'indisini ifodalaydi.

Marketing axboroti bozorini shartli ravishda quyidagi asosiy sektorlarga ajratish mumkin:

- iqtisodiy axborot;
- birja va moliya axboroti;
- professional va ilmiy-texnik **axborot**;
- tijorat axboroti;
- statistik axborot;
- omnaviy va iste'molchi axboroti;
- buyurtma marketing tadqiqotlari.

Marketing axboroti bozorining asosiy sektorlari 6.3-jadvalda batassil ifodalangan.

Chet elda eng to'liq va samarali axborot manbalari professionallar uchun ma'lumotlar to'plami hisoblanadi. Bu to'plamlar turli tadqiqotlar samaradorligini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi, potentsial hamkorlar va investoriarni izlab topish, tovarlar va xizmatlar bozorini o'rganish, raqobatchilar to'g'risida ma'lumot to'plash kabi masalalarni bir zumda hal etishga imkon beradi.

6.3-jadval

Marketing axboroti bozorining asosiy sektorlari

| Sektor | Tavsifnoma | Manba va taqdim etish shakli |
|--------------------------------------|--|--|
| 1 | 2 | 3 |
| Iqtisodiy axborot | Tezkor va ma'lumotnomalar iqtisodiy axboroti va tahliliy iqtisodiy sharhlari | Asosiy taqdim etish shakli ma'lumotlar banki va professional bazasi, bosma spravochniklar hisoblanadi |
| Birja va moliya axboroti | Qimmatli qog'ozlar kotirovkasi, valyuta kurslari, hisob stavkalari, tovarlar va kapital bozori, investitsiyalar haqidagi axborot | Maxsus birja va moliya axboroti bo'linmalari, brokerlik kompaniyalari, banklar va boshqa firmalar tomonidan taqdim etiladi |
| Professional va ilmiy-texnik axborot | Mutaxassislar (yuristlar, iqtisodchilar, muhandislar va b.) uchun professional, ilmiy-texnik (referativ ilmiy-texnik jurnallar va b.), fundamental va amaliy fan sohalarida spravochnik ma'lumotlari | Davlat xizmatlari, turli tijorat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalar tomonidan taqdim etiladi |
| Tijorat axboroti | Kompaniyalar, firmalar, korporatsiyalar, ularning ish yo'nalishi va mahsulotlari, moliyaviy holati, ishbilarmonlik aloqlari, bitimlari hamda biznes va iqtisodiyot sohalaridagi yangiliklar bo'yicha axborot | Elektron ma'lumotlar to'plami yoki vaqt-i-vaqt bilan yangilanib turuvchi bosma nashrlar shaklda taqdim etiladi |
| Statistik axborot | Kompaniyalar, banklar va boshqa tashkilotlar bo'yicha, belgilangan bozor, geografik va ma'muriy hududlar bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar | Odatda davlat statistika organlari tomonidan va bosma yoki elektron shaklda statistik to'plamlar ko'rinishida taqdim etiladi |
| Ommaviy | Keng foydalanuvchilar | OAV, telekommunikatsiya |

| | | | |
|---------------------------------------|--|--|---|
| va iste'molchi axboroti | ommasisiga axborot, yangiliklar matbuot axboroti | mo'ljallangan masalan xizmati va agentliklari | tarmoqlari, turli (telefon, mehmonxona, restoran) spravochniklar |
| Buyurtma marketing tadqiqotlari | Marketing mijozlar bo'yicha firmalar axborotlar | tadqiqotlarini buyurtmasi bajaruvchi taqdim etuvchi | Marketing tadqiqotlari odatda maxsus tijorat firmalari tomonidan o'tkaziladi |

Ushbu sektorlarning ichida masalan, professional yo'naltirilgan ma'lumotlar to'plami bozorining asosiy ishtirokchilari quyidagilardan iborat:



6.1-rasm. Professional yo'naltirilgan ma'lumotlar to'plami

Ya'ni ushu omillarni kengaytirilgan holda batafsil ko'rib chiqamiz:

- axborotni ishlab chiqaruvchilar – axborotni to'plash va nashr qilish bilan shug'ullanuvchi (axborot agentliklari, OAV, nashriyotlar), shuningdek, axborotni qayta ishlash (ma'lumotlarni

tanlab olish, ma'lumotlar to'plamiga to'liq matn shaklida kiritish va hokazo) bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlar;

➤ axborotni sotuvchilar – global kompyuter tarmoqlari (masalan, internet) yoki o'z onlayn xizmatlari vositasida ma'lumotlar to'plamiga pullik ularish xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlar;

➤ axborotdan foydalanuvchilar (obunachilar).

Marketing axborotlarini to'plashda Internet, Infonet, Tymnet, Sprintnet, IBIS, EDGAR, NSFnet, EVnet kabi telekommunikatsiya tarmoqlari katta rol o'ynaydi. Ularning orasida eng tez rivojlanayotgani Internet tarmog'idir. Internet orqali turli bilimlar sohalari bo'yicha maqolalar, spravochniklar, ma'lumotlar to'plamlari, texnik hujjatlar, raqobatchilar to'g'risida ma'lumotlar, bozor holati haqida axborot, makroiqtisodiy ma'lumotlar, marketing tadqiqotlari natijalari va boshqa ko'plab axborotlarni olish mumkin.

Odatda marketing tadqiqotlarini o'tkazishda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar asosida olingan axborotlardan foydalilanadi.

Birlamchi ma'lumotlar muayyan marketing muammosini hal qilish maqsadida o'tkazilgan marketing tadqiqotlari natijasida olinadi; ularni to'plash kuzatuv, so'rov, eksperimentlar yordamida amalga oshiriladi.

Kabinet tadqiqotlarida qo'llanuvchi *ikkilamchi ma'lumotlar* deb ilgari ichki va tashqi manbalardan marketing tadqiqotlari maqsadlaridan farq qiluvchi maqsadlar uchun to'plangan ma'lumotlar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ikkilamchi ma'lumotlar maxsus marketing tadqiqotlari natijasi hisoblanmaydi.

Kabinet tadqiqotlari marketing tadqiqoti o'tkazishning eng arzon va tarqalgan usulidir. Kichik korxonalar uchun bu usul marketing axboroti olishning amalda yagona usuli hisoblanadi.

Kompaniyalarning ichki hisobotlari, sotuv bo'limi xodimlari bilan suhbatlar, marketing axborot tizimi, buxgalteriya va moliya hisoboti, rahbariyatning aksiyadorlar yig'ilishidagi hisoboti, savdo xodimlarining xabarları, iste'molchilarning ariza va

takliflari, ITTKI va ishlab chiqarish rejalar, majlis bayonnomalari, firmanın ish hujjatlari ichki manba bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi axborot manbalari qatorida xalqaro tashkilotlar (Xalqaro valyuta jamg'armasi, EXHT, BMT) ma'lumotlari; qonun, qaror va farmonlar; davlat, siyosiy va jamoatchilik vakillarining ma'ruzalar; rasmiy statistika, davriy matbuot, ilmiy tadqiqotlar natijalari, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari; oila byudjetlari; aholi jamg'armalari to'g'risidagi ma'lumotlar; turli firmalar kataloglari va prospektlari; firmalarning yillik moliyaviy hisobotlari; konkurslar natijalari; tarmoqlar, birja va banklar axboroti; aksiyalar kurslari jadvallari; sud ajrimlarini sanab o'tish mumkin.

Tashqi ikkilamchi axborot manbalari qatoriga shuningdek, ko'rgazma va yarmarkalar, majlis va anjumanlar, taqdimolar, ochiq eshiklar kunlari va tijorat bazalarini ham kiritish mumkin.

Oxirgi yillarda kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi bilan ularning xizmatlaridan foydalanish borasida ixtisoslashgan marketing firmalari uchun ham, tashkilotlarning mustaqil tadqiqot o'tkazuvchi marketing bo'linmalari mutaxassislari uchun ham keng imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Bu yerda sanab o'tilgan va boshqa manbalar amalda hamma uchun ochiqligi sababli gap axborotni diqqat bilan kuzatish, toplash va baholashda qoladi. Bunda xulosalar yagona manbagaga tayanimasligi lozim, chunki diqqat e'tiborga tushuvchi hujjatlaqning hammasi ham ishonchli bo'lib chiqavermaydi. Faqat bir nechta manbani solishtirib ko'rgandagina qimmatga ega xulosalarga olib kelishi mumkin.

Tadbirkorlar va menejerlarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanish unchalik to'g'ri kelmaydiganday tuyulishi mumkin. Lekin ko'p hollarda bu fikr xato bo'lib chiqadi. Aytaylik, sizning biznesingiz ma'lum bir yosh guruhining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsin. Tug'ilish bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish marketing faoliyatini yanada to'g'ri rejalashtirishga imkon beradi, chunki sizda bozor salohiyatining uzoq muddatli tendensiyalari haqida axborot paydo bo'ladı.

Rasmiy axborot manbalari qanchalik qimmatli bo'lmasin, shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, ulardag'i ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'lib, hech kimga yaqqol ustunlik bermaydi. Bu axborot «qattiq» axborot deb ataladi.

Ko'p hollarda raqobatchilarda yo'q bo'lgan axborotni olish yoki bunda ulardan o'zib ketish korxonaning strategik ustunligini ta'minlaydi.

Bu «yumshoq» axborot bo'lib, odatda norasmiy manbalardan olinadi. Bunday ma'lumotlar qatoriga korxonaning sotuv bo'limi, texnik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlaridan, shuningdek, tashqi manbalardan (vositachilar, ta'minotchilar, iste'molchilar va b.) olinuvchi axborotlar kiradi.

6.3. Fokus – guruhi, ularni rejalashtirish va faoliyatini yuritish

Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda, avvalom bor, axborot to'plash usullariga murojat qilamiz. Ushbu tadqiqotlarning eng samarali usullaridan biri bu – so'rov usulidir. Chunki so'rov orqali iste'molchilarning individual tarzda ichki kechinmalari va dunyosini aniqlab olish mumkin va bu olingen axborotlar natijasida kishilarning ichki tuyg'usi va dunyosidan ishonchili ma'lumotlarga ega bo'lamiz. So'rov kishilarga ularning bilim darajasi, mahsulotga munosabati, did-istiklari va iste'molchi xulq-atvoriga doira savollar berish yo'li bilan birlamchi axborot to'plashda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, so'rov o'tkazishda ijtimoiy sohada axborotlarni guruhi orqali to'plashda oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun, eng keng tarqalgan samarali va sifatlari uslublardan foydalanishadi. Bu uslubni guruhi orqali tadqiqotni tashkil etish ko'rinishini – fokus –guruhi deb atashadi.

Fokus guruhi usulini qo'llashning beshta asosiy maqsadini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. G'oyalar generatsiyasi – masalan, chiqarilayotgan mahsulotlar sifati, dizayni, o'rovini takomillashtirish yoki yangi mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha.

2. Iste'molchilarning so'zlashuv lug'atini o'rganish reklama kampaniyasi o'tkazish, savolnomalar tuzish va hokazolarda katta foyda keltirishi mumkin.

3. Iste'molchilar so'rovlar, motivlari, ularning o'rganilayotgan mahsulot va uning markasi, harakatlantirish usuliga munosabati bilan tanishish, bu marketing tadqiqotlari maqsadlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishda to'plangan ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish. Ba'zida fokus-guruh a'zolari o'tkazilgan so'rov natijalarini to'g'ri anglab olishga ko'maklashadi.

5. Ma'lum bir reklama turlariga his-tuyg'u va xulq-atvor reaksiyalarini o'rganish.

Odatda ishni guruhlar audio va videotexnika vositalari yordamida qayd etadilar, uning natijalari esa masalan, so'rov yo'li bilan miqdoriy tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, mazkur usuldan foydalanish imkoniyatlari va samaradorligiga turli mamlakatlar va mintaqalarning madaniyati, muloqot an'analari va hokazolar kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Fokus-guruhning optimal hajmi 8 kishidan 12 kishigacha hisoblanadi. Ishtirokchilar soni bundan kam bo'lsa, guruh ishi mahsuldarligi uchun zarur dinamika ta'minlanmaydi va guruhning ishini faollashtirish uchun guruh yetakchisining ko'p ter to'kishiga to'g'ri keladi. Guruh a'zolari soni 12 kishidan ortiq bo'lsa, mahsuldarligi yuqori munozaralar tashkil qilish qiyin bo'ladi. Guruh bir nechta kichik guruhlarga taqsimlanib, keraksiz mavzularda suhbat yuritilishi, munozaraning o'zi esa bir nechta kishigina ishtirok etishi mumkin.

Afsuski, guruh tarkibini oldindan belgilash qiyin. Masalan, munozarada 12 kishi ishtirok etish istagini bildiradi, amalda esa faqat 6 kishigina qatnashadi, xolos.

Guruh tarkibiga keladigan bo'lsak, uni qatnashchilar tarkibining gomogenligi (yoshi, faoliyat turi, oilaviy holati va hokazolar bo'yicha) tamoyilidan kelib chiqqan holda

shakllantirish tavsiya etiladi. Bu holatda munozaralar uchun eng qulay sharoit yaratiladi deb hisoblanadi.

Guruh qatnashchilarini tanlashni avvalo o'tkazilayotgan tadqiqot maqsadlari belgilab beradi. Masalan, agar tadqiqot maqsadi mahsulot o'rovi bo'yicha yangi g'oyalalar ishlab chiqish bo'lsa, fokus-guruh qatnashchilari sifatida ma'lum bir markali tovar xarid qilgan iste'molchilar taklif etiladi. Odatda munozaralarda ishtirok etish uchun potentsial qatnashchilar telefon orqali taklif qilinadi, ba'zida esa hohlovchilar do'konning o'zida xaridorlar orasidan tanlab olinadi. Guruhn shakllantirish jarayonida guruh yetakchisining ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Guruh qatnashchilarini «yollash»da ularning mehnatiga pul to'lash shaklidan ham, ma'lum bir tovarlarni bepul taqdim etish orqali natural shaklidan ham foydalaniladi. Ko'p hollarda fokus-guruuning ish kuni arafasida potentsial qatnashchilarga bu haqda eslatib qo'yiladi. Bu holda munozarada ishtirok etishdan bosh tortilsa, ularning o'rniga boshqa kishilarni jalg qilish imkoniyati bo'ladi.

Fokus-guruh ishining muvaffaqiyatga erishuvi ko'p jihatdan guruh yetakchisining faoliyati samaradorligiga bog'liq bo'ladi. U diskussiyaning maqsad va vazifalarini chuqur tushungan holda bevosita aralashmasdan uning borishini boshqarib turadi. Guruh yetakchisi qatnashchilar o'rtasida tabiiy munozara va muhokama qilinayotgan mavzu doirasidan chetga chiqish o'rtasida muvozanat bo'lishi intilishi lozim. U guruh qatnashchilarining nuqtai nazari va sharhlariga katta e'tibor qaratishi hamda har bir kishi bilan muloqotga kirisha olishi lozim. Odatda fokus-guruuhda munozara boshlanmasdan oldin guruh yetakchisi uning ishi bo'yicha detalli rejani ishlab chiqib, muhokama mavzusi bo'yicha o'z bilimlarini oshirishga harakat qiladi.

Fokus-guruuning asosiy afzalliklari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'z fikrini ochiq va erkin bayon qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati, ayniqsa, munozara davomida «miya hujumi» usulidan foydalanilgan hollarda.

2. Buyurtmachi uchun munozaraning maqsad va vazifalarini shakllantirishda ishtirok etish, guruh ishini kuzatish imkoniyati uning ish natijalariga ishonch darajasining yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bu natijalardan buyurtmachi ba'zida amaliy ishda rasmiy hisobot olmasdan turib ham foydalanishi mumkin.

3. Mazkur usuldan foydalanish yo'nalishlarining turli-tumanligi, bu haqda yuqorida aytib o'tildi.

4. Respondentlarni o'rganish imkoniyati, ularni rasmiy va strukturalangan vaziyatlarda o'rganish qiyin kechadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur usulning kamchiliklari qatoriga olingen natjalarni subyektiv interpretatsiya qilish, har bir guruh qatnashchisiga to'g'ri keluvchi xarajatlarning kattaligi kiradi.

Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish fokus-guruhdan foydalanish doirasini kengaytirish uchun imkon beradi.

Umuman olganda, fokus-guruhning asosiy maqsadi sifatli va samarali intervyu o'tkazishdan iboratdir.

Intervyu olishda so'rov uslubining boshqa shakllariga ham e'tiborni qaratamiz.

So'rov *strukturalangan va strukturalanmagan* xarakterga ega bo'lishi mumkin; birinchi holatda barcha so'ralayotganlarga bir xil savollar beriladi, ikkinchi holatda esa intervyuer olingen javoblarga qarab savol beradi.

So'rov o'tkazishda so'ralayotganlar guruhi bir yoki bir necha marta tadqiq etilishi mumkin. Birinchi holatda tanlab olingen guruh qat'iy belgilangan vaqt uchun bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha bir marta tadqiq etiladi. Masalan, jurnal va gazetalar redaksiyalari o'z o'quvchilari o'rtasida ularning yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi, mashg'ulot turi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha bir martalik tanlanma tadqiqot o'tkazadi.


Ikkinchi holatda *panel* deb nomlanuvchi so'ralayotganlar guruhi belgilangan vaqt davomida bir necha marta tadqiq etiladi. Ko'plab marketing tadqiqotlarini o'tkazishda turli turdag'i panellardan foydalaniлади.

Oldingi boblarda ta'kidlaganimizdek, *panel* bu — takroriy tadqiqot o'tkazilayotgan so'rovda ishtirok etuvchi shaxslarning tanlanma yig'indisidir. Ayrim iste'molchilar, oilalar, savdo va sanoat tashkilotlari, ekspertlar panel a'zolari bo'lishi mumkin. Panel usuli bir martalik usullardan bir qator afzalliklarga ega, xususan, u keyingi so'rov natijalarini oldingi natijalar bilan solishtirish va o'rganilayotgan hodisalardagi tendensiyalarni belgilashga imkon beradi.

Barcha turdag'i panellar vaqt bo'yicha, o'rganilayotgan birliklar (subyektlar) xarakteri bo'yicha, o'rganilayotgan muammolar xarakteri bo'yicha va axborot olish usullari bo'yicha taqsimlanadi.

Vaqt bo'yicha panellar qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (besh yilgacha) turlarga bo'linadi. Uzoq muddatli panellar uzlusiz yoki davriy axborot bershii mumkin. Uzlusiz axborot kundaliklarda har kuni qayd etib boriladi, kundaliklarning o'zi esa ma'lum vaqt oralig'idan so'ng tashkilotchilarga jo'natiladi. Davriy axborot anketalar shaklida so'rov o'tkazilishi bilan kelib tushadi.

O'rganilayotgan birliklar xarakteri bo'yicha panellar quyidagi turlarga taqsimlanadi:



6.2 – rasm. Xarakter bo'yicha panel turlari

Ya'ni, ushbu birliklarni kengroq ko'rib chiqamiz:

- *iste'mol*, ularning a'zolari yakka holdagi iste'molchilar, oilalar yoki uy xo'jaliklaridan iborat;
- *savdo*, ularning a'zolari savdo tashkilotlari va savdo bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslar hisoblanadi;
- *sanoat korxonalari*, tadqiq etilayotgan tovarlarni ishlab chiqaradi;
- *ekspertlar* – o'rganilayotgan muammo bo'yicha mutaxassislar.

So'rovlarni o'tkazishda olinuvchi axborot ko'p jihatdan panel tarkibiga ham bog'liq bo'ladi. Oila va yakka holdagi iste'molchilar panelini tuzish eng qiyin jarayon hisoblanadi. Savdo, sanoat korxonalari va ekspertlar panellarining ustunligi ularning a'zolari soni iste'molchilar paneliga nisbatan kamligida bo'lib, bu ularni shaklantirish va kuzatish xarajatlarini qisqartirishga imkon beradi.

O'rganilayotgan muammolar bo'yicha panellar umumiy va ixtisoslashgan turlarga taqsimlanadi. Ixtisoslashgan panellar ayrim tovar yoki tovarlar guruhibi o'rganish uchun tuzilishi mumkin. Masalan, ular yordamida tovarlar va yangi tovar konsepsiyalari sinab ko'rildi; bozor tendensiyalari kuzatib boriladi; iste'molchilar yangi tovar haqida ma'lumot oluvchi manbalar aniqlanadi.

Axborot olish usuli bo'yicha to'rt xil panelni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) panel a'zolari talab qilinuvchi axborotni (to'ldirilgan kundaliklar, so'rov varaqalari) pochta orqali jo'natadi;
- 2) panel a'zolaridan intervyu olinadi;
- 3) panel a'zolari kundalik yoki so'rov varaqalarini to'ldiradi, lekin axborotni maxsus xodimlar to'playdi;
- 4) panel a'zolaridan ma'lum vaqt oralig'idan so'ng intervyu olinadi, bu vaqt ichida axborot pochta orqali jo'natiladi.

So'rov o'tkazishda axborot respondentlardan uch usulda olinadi:

- 1) respondentlarga intervyuer tomonidan savol berish yo'li bilan, javoblarni intervyuer qayd etib boradi;

- 2) kompyuter yordamida savollar berish yo'li bilan;
- 3) respondentlarning anketalarni mustaqil to'ldirish yo'li bilan.

Birinchi usul quyidagi afzallikkarga ega:

1. Respondentlar bilan qaytuvchan aloqaning mavjudligi so'rov jarayonini boshqarishga imkon beradi.
2. Respondentlar va intervyuer o'rtaida so'rovning boshidayoq ishonchli munosabat o'rnatish imkoniyati.
3. So'ralayotganlar ma'lumot darajasi yoki xususiyatlarini hisobga olish imkoniyati – masalan, respondentga qo'llanuvchi shkalalar gradatsiyasida yordam berish.

Mazkur usulning kamchiliklari xuddi ikkinchi usulniki kabi bo'lib, keyinroq ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi usulning afzallikkari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mazkur yondashuvni shaxsiy intervyuga nisbatan tezroq amalga oshirish. Kompyuter oldingi savollarga moslashtirilgan savollarni juda tez berishi, tasodifan tanlangan telefon raqamlarini tez terishi, har bir so'raluvchining xususiyatlarini hisobga olishi mumkin.
2. Intervyuerning xatoga yo'l qo'ymasligi, kompyuter charchamaydi, uni «sotib olib» bo'lmaydi.
3. Rasmlar, grafiklar, videomateriallardan foydalanish.
4. Ma'lumotlar bilan real vaqt rejimida ishlash. Olingan axborot bevosita ma'lumotlar to'plamiga jo'natiladi hamda istalgan payt tahlil qilish uchun ochiq bo'ladi.
5. Intervyuerning subyektiv xislatlari olinadigan javoblarga ta'sir ko'rsatmaydi. Respondentlar intervyuerga yoqmaydigan javoblarni bermaslikka harakat qilmaydi.

Kompyuter usulining kamchiliklari kompyuter va dasturiy vositalarni xarid qilish va undan foydalanish, har bir tekshiruvdan so'ng kompyuterni viruslardan tozalash xarajatlarining nisbatan kattaligidan iborat.

Uchinchi usulning o'ziga xos bo'lgan asosiy jihat shundaki, respondent unga berilgan savollarga mustaqil, intervyuer yoki kompyuter ishtirokisiz javob beradi.

Ushbu usulning afzalliklari:

1. Intervyuer va kompyuter texnikasidan foydalanimmaslik sababli nisbatan arzonlik.
2. Respondentlar tomonidan savollarga javoblarning mustaqil berilishi, ular savolga javob berish tezligi va vaqtini o'zları belgilaydi.
3. Intervyuer yoki kompyuter tomonidan ko'rsatiluvchi biron-bir ta'sirning yo'qligi respondentlar uchun savollarga javob berishda yanada qulaylik yaratadi.

Bu usulning kamchiligi birinchi navbatda respondentning o'zi anketa savollariga javobni nazorat qilishi, uning javoblarida xatolar bo'lishi mumkinligi, so'rov muddati buzilishi yoki anketalarning umuman qaytarib berilmasligidan iborat.

6.4. So'rov o'tkazish usullari va ularni tanlash

So'rov bu – tadqiqot obyektlari bilan muloqot o'matgan holda axborot to'plash usulidir.

Bu usul axborot to'plashning marketingda eng tarqaigan usulidir. U tadqiqotlarning qariyb 90%ini o'tkazishda qo'llanadi.

So'rov usuli quyidagi afzalliklarga ega:

1. Yuqori standartlashuv darajasi, barcha respondentlarga bir xil javob variantlariga ega bir xil savollar berilishi bilan izohlanadi.
2. Amalga oshirishning osonligi, respondentlar oldiga kelish shart emas, ularga savollarni pochta yoki telefon orqali berish ham mumkin.
3. Chuqur tahlil o'tkazish imkoniyati ketma-ketlikda aniqlashtiruvchi savollar berilishidan iborat. Masalan, ishlayotgan bolali onalardan ularning ish joyi maktab yoki bolalar bog'chasiga qanchalik yaqin bo'lishi muhimligi so'raladi. Keyin esa nechta maktab variant sifatida ko'rib chiqilganligi haqida savol beriladi. Shundan so'ng mashg'ulot turi, daromad, oila hajmiga doir savollar beriladi.
4. Tabulyatsiya va statistika tahlilini o'tkazish imkoniyati matematik statistika usullari va shaxsiy kompyuterlar uchun mos keluvchi amaliy dasturlarni qo'llashdan iborat.

5. Muayyan bozor segmentlari bo'yicha olingan natijalar tahlili.

Ommaviy so'rovlarda axborot manbai bo'lib faoliyat turi bo'yicha tahlil predmeti bilan bog'liq bo'limgan aholi xizmat qiladi.

Maxsus so'rovlarda aynan mutaxassislar (ekspertlar) – professional faoliyati tadqiqot predmeti bilan bog'liq bo'lgan shaxslar asosiy axborot manbai vazifasini bajaradi.

Shu sababli maxsus so'rovlar ko'pincha ekspertlar so'rovi deb ham ataladi. Ular marketing tadqiqotining boshida muammoni aniqlash uchun yoki tadqiqotning oxirida qaror qabul qilish lozim bo'lgan hollarda qo'llanadi.

Bir martalik so'rovlar faqat bozor subyektlarining korxona faoliyati va uning mahsulotlariga joriy reaksiyasini ko'rsatgan bir paytda takroriy so'rovlar tovarning butun hayot davrini, iste'molchilar so'rovleri va did-istiklarini aniqlashga imkon beradi.

So'rovlar odatda ishlab chiqarish yo'nalishidagi tovarlardan foydalanuvchilar fikrini o'rganish uchun foydalaniadi, chunki ularning doirasi nisbatan cheklangan bo'ladi. Iste'mol bozorida potentsial iste'molchilar soni shunchalik ko'pki, amalda ushbu usuldan foydalanishning imkoniy yo'q. Bunday sharoitlarda tanlama kuzatuvlar o'tkaziladi.

Anketa so'rovleri usulining afzalligi uni amalda hech qanday cheklashsiz qo'llash mumkinligi, obyektning oldingi va joriy xulq-atvori, kelajakdagagi rejali haqida ma'lumot olishga imkon beradi.

Mazkur usulning kamchiligi so'rovlarni o'tkazish uchun katta xarajat va ko'p mehnat talab qilinishi, olingan axborotning noto'g'ri javoblar natijasida aniqlik darajasi pasayishi mumkinligidan iborat.

So'rovni o'tkazish bo'yicha tayyorgarlik ishlari quyidagilarni ko'zda tutadi:

- auditoriya bilan aloqa usulini tanlash;
- anketani tayyorlash;
- sinov o'tkazish va anketani to'ldirish.

6.4.- jadval

Amaliyotda quyidagi so'rovlardan foydalaniladi:

| Telefon orqali | Pochta orqali | Shaxsiy intervyyu |
|----------------|---------------|-------------------|
| N..... | N..... | N..... |

Ulardan har biri ma'lum bir afzallik va kamchiliklarga ega.

Telefon orqali so'rovning afzalliklari:

- yuqori tezkorlik,
- arzonlik,
- berilgan savolni tushuntirish imkoniyati.

Kamchiliklar:

- faqat telefon abonentlari o'ttasida so'rov o'tkazish imkoniyati tanlab olishning mos kelishini ta'minlay olmaydi;
- savollarga javob berishdan bosh tortish, ayniqsa shaxsiy xarakterli savollarga javob bermaslik ehtimoli yuqori;
- so'ralayotgan shaxsning bandligi (telefon qo'ng'irog'i kutishi, telefondan boshqalarning foydalanishi) sababli suhbатдан qisqa bo'lishi;

Pochta orqali so'rovning afzalliklari:

- intervyyuerning ta'sirini yo'q qilish,
- shaxsiy xarakterli savollarga javob uchun eng yaxshi zamin hozirlash,
- keng tarqalgan auditoriyani qamrab olishning nisbatan arzonligi.

Kamchiliklari:

- tezkorlikning pastligi;
- tarqatilgan anketalarning bir qismi qaytarilmaslik ehtimoli (odatda anketalarning yarmidan ko'pi qaytarilmaydi);
- savolni tushuntirib berish imkonining yo'qligi savollar doirasini cheklashga olib keladi (ular sodda va aniq ifodalangan bo'lishi zarur);
- savol yo'llanmagan kishilardan javob kelish ehtimoli.

Marketing tadqiqotlari o'tkazish amaliyotida pochta orqali so'rov, ayniqsa, panellar keng tarqalgan. Ular bir xil vaqt oralig'idan so'ng bir necha marta so'rov o'tkazish yo'li bilan katta guruhdagi iste'molchilardan keng doiradagi savollar bo'yicha axborot olishni ta'minlaydi. Panel so'rovlari oila xarid qiluvchi tovalar miqdori, moliyaviy xarajatlar, afzal ko'riluvchi narx darajasi, turli ijtimoiy guruhlardagi iste'molchilar xulq-atvori o'rtasidagi farqlar, tovar markasiga sodiqlik kabi ma'lumotlar bo'yicha axborot olish yo'li bilan tashqi muhitda ro'y beruvchi o'zgarishlarni muntazam hisobga olib borish imkonini beradi.

Shaxsiy intervju tadqiqot obyektlari bilan aloqa qilishning eng ommaviy va universal usulidir.

Uning afzalliliklari:

- javobdan bosh tortish hollarining kamligi;
- tadqiqotning nisbatan aniqligi;
- shaxsiy so'rovni kuzatuv bilan birgalikda olib borish imkoniyati.

Kamchiliklari:

- tashkiliy ishlarning ko'pligi va moddiy xarajatlarning kattaligi;
- intervjuerning respondentlarga bilib yoki bilmagan holda ta'sir ko'rsatish ehtimoli.

Shaxsiy intervju individual yoki guruh shaklida bo'lishi mumkin.

Anketa (so'rov varaqasi) bu – tadqiqot obyekti yoki predmeti tavsifnomalarini aniqlashga yo'naltirilgan savollar tizimidir.

Anketa savollarini tayyorlashda so'rovni sifatli o'tkazishga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillarga rioya qilish zarur.

Anketa savollari sodda, tushunarli, bir ma'noli va neytral bo'lishi lozim. Anketada savollar oddiyidan murakkabga qarab o'zgarib borishi talab etiladi.

Anketadagi savollar soni juda katta bo'lmagligi lozim, chunki anketa qanchalik katta bo'lsa, unga javob qaytarshi ehtimoli shunchalik pasayadi. Anketani to'ldirish vaqt 20-30 daqiqani tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Anketa va so'rov usullari orqali marketing tadqiqotlarini o'tkazishni batafsilroq keyingi boblarda ko'rib chiqamiz.

Axborotlarni to'plashda bir qancha xatoliklar bo'lishi mumkin. Bular so'rovchilar tomonidan ham, so'roluvchilar tomonidan ham yo'l qo'yilishi mumkin. Bularning mazmuni ushbu jadvalda keltirilgan (6.4-jadval).

6.4-jadval

So'rovchi va so'roluvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatoliklar

| Xatolikka yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan subyektlar | Xatoliklarning turlari |
|--|--|
| So'roluvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar | <ul style="list-style-type: none"> - so'roluvchining madaniy va intellektual saviyasi; - masalaning mohiyatini to'g'ri tushunishi; - so'roluvchining mas'uliyatini his qilish darajasi; - anketadagi savollarni tushunish va ularga bo'lgan munosabat darajasi; - ayrim savollarga javob berishdan bosh tortishi (oilaviy ahvoli, daromadlar manbai, yoshi, millati kabilalar); - noto'g'ri javob uchun javobgarlikning yo'qligi; - to'g'ri javob uchun rag'batning yo'qligi; - so'roluvchining ruhiy holati kabilar |
| So'rovchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar | <ul style="list-style-type: none"> - so'rovchining mas'uliyatsizligi va ishga yuzaki qarash ko'nikmasining mavjudligi; - o'zining toqatsizligi evaziga o'zi tomonidan ham anketani to'ldirish ehtimolining mavjudligi; - so'rovchining so'roluvchilarga til topa olmasligi; - so'rovchining qo'polligi; - so'roluvchilarni o'zi xohlagan, amma reallikdan yiroq javoblarga undashi kabilar. |

Ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni to'plash va ularni xulosa chiqaradigan dallilar sifatida baholash darajasiga yetkazish uchun ancha murakkab jarayonlarni o'tishga to'g'ri kelar ekan.

6.5. Kuzatuv usullari va ularning tasniflanishi

Kuzatuv usuli tadqiqotchilarning tadqiq etilayotgan obyektlar bilan bevosita muloqot o'rnatmasdan va ularning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni nazorat qilmasdan bu obyektlar faoliyatini qayd etish vositasida axborot to'plashni anglatadi. Kuzatuvning quyidagi usullarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- atrofdagi vaziyatning xarakteri bo'yicha *dala kuzatuvi* bo'lishi mumkin – bu jarayonlar tabiiy muhitda (do'konda) ro'y berishini anglatadi, yoki *laboratoriya kuzatuvi*, ya'ni sun'iy yaratilgan vaziyatda amalga oshiriluvchi kuzatuvlar. Birinchi shaklning afzalligi kuzatilayotgan shaxslarning xulq-avtori tabiiy bo'lishidadir. Ikkinci shakl kuzatuv shart-sharoitlarining barqarorligini ta'minlaydi hamda bir qator texnik vositalarni qo'llashga imkon beradi;
- kuzatuv joyi bo'yicha bevosita tadqiqotchining ishtirokidagi kuzatuv va chetdan kuzatuv farqlanadi;
- obyektni qabul qilish shakli bo'yicha personal kuzatuv va asbob-uskunalar yordamida yoki xulq-atvor natijalarini qayd etish yordamida kuzatuvni ajratish mumkin;
- standartlashuv darajasi bo'yicha standartlashtirilgan va erkin kuzatuvga taqsimlanadi.

Kuzatuv usuli odatda izlanish xarakteriga ega tadqiqotlarda qo'llanadi. U barqaror shart-sharoitlarni qo'llab-quvvatlash va texnik vositalardan foydalanishga imkon beradi. U yashirin (masalan, videokameralar yordamida) va ochiq (bevosita tadqiqotchi ishtirokida) bo'lishi mumkin. Tadqiqot maqsadlariga ko'ra u erkin va standartlashgan (tadqiqot uchun ma'lum bir mezonlar belgilanadi).

Kuzatuvni tayyorlash kuzatuv joyi va muddatini aniqlash, yashirinlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar va kuzatuvchilarga yo'riqnomaga berish bilan bog'liq.

Mazkur usulning afzaliklari:

- soddaligi va nisbatan arzonligi;
- tadqiqotchining obyektlar bilan aloqasi natijasida yuzaga keluvchi xatolarning yo'qligi.

Mazkur usulning kamchiliklari:

- obyektlarning ichki xulq-atvor motivlarini va ular tomonidan qaror qabul qilish jarayonlarini uzil-kesil belgilashga imkon bermaydi,

- kuzatuvchilar tomonidan noto'g'ri tushunilishi mumkin.

Marketing tadqiqotlarida kuzatuv turli maqsadlarga erishishga yo'naltirilishi mumkin. U gipotezalar tuzish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qilishi, uning yordamida o'rGANILAYOTGAN obyekt haqida qo'shimcha ma'lumot olish mumkin.

Kuzatuvni amalga oshirish usullarining xilma-xilligi ularni amalga oshirishga to'rt xil yondashuv bilan belgilanadi: bevosita yoki bilvosita kuzatuv, ochiq yoki yopiq kuzatuv, strukturalangan yoki strukturalanmagan kuzatuv hamda inson yordamida yoki mexanik vositalar yordamida kuzatuv.

Bevosita kuzatuv aytaylik, xaridorlarning do'kondagi xulq-atvorini bevosita kuzatishni nazarda tutadi. Bilvosita kuzatuvni qo'llashda ma'lum bir xulq-atvorning o'zi emas, balki uning natijalari o'rGANILADI. Bu yerda ko'pincha arxiv ma'lumotlaridan foydalaniadi, masalan, yillar bo'yicha ma'lum bir tovar zahiralari dinamikasi haqidagi ma'lumot bozor vaziyatidagi o'zgarishlarni o'rGANISHDA foydali bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim hodisalarning tabiiy isbotlari o'rGANILISHI mumkin. Masalan, axlat qutilari tarkibini o'rGANISH natijalari bo'yicha qaysi tovar o'rovlar va firmalar atrof-muhitni ko'proq ifoslantirishi haqida xulosa chiqarishi mumkin.

Ochiq kuzatuv odamlar ularni kuzatishayotganliklarini bilishini nazarda tutadi. Biroq kuzatuvchilarning borligi kuzatilayotganlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, shu sababli buni imkon qadar kamaytirish zarur.

Bu talablarni yopiq kuzatuv qondirishi mumkin. Unda kuzatilayotgan shaxslarning bundan xabari bo'lmaydi. Masalan, do'konlarda sotuvchi xaridorlar bilan qanchalik xushmuomala

bo'lishi va ularga xarid qilishda ko'maklashishi yashirin ravishda kuzatilishi mumkin.

Strukturalangan kuzatuv paytida kuzatuvchi nimani kuzatish va qayd etish kerakligini oldindan belgilab oladi. Boshqa barcha xulq-atvor turlariga e'tibor qaratilmaydi. Ko'pincha kuzatuvchining vaqt xarajatlarini minimallalshtirishga imkon beruvchi standart kuzatuv varag'idan foydalaniladi.

Uni qo'llash tadqiqot predmetini oldindan yaxshi bilishni talab qiladi, chunki strukturalangan kuzatuvni ishlab chiqish jarayonida tadqiqotchi kuzatilayotgan vaziyatni tashkil etuvchi hodisalarini tasniflash tizimini tuzishi va kuzatuv toifalarini standartlashtirishi lozim. Tasniflash tizimi keyingi tahlil o'tkazish mo'ljallanayotgan atamalarda bayon qilinishi lozim.

Strukturalanmagan kuzatuv o'tkazilganda kuzatuvchi o'rghanilayotgan epizodda barcha xulq-atvor turlarini qayd qiladi. Bunday xulq-atvor turi razvedka tadqiqotlarida ko'p qo'llanadi. Masalan, qurilish anjomlari ishlab chiqaruvchi kompaniya o'z xodimlarini mazkur anjomlardan uy qurilishida foydalanish yo'nalişlarini o'rghanish uchun yuborishi mumkin. Kuzatuv natijalari mazkur anjomlarni takomillashtirishda foydalaniladi.

Ba'zida kuzatuvchi shaxsni maxsus mexanik vosita bilan almashtirish mumkin. Bu almashtirish aniqlik darajasi yuqoriligi. Arzonlik yoki funksional sabablar bilan izohlanadi. Masalan, ko'cha harakatini o'rghanishda avtomatik vositalar maxsus plastinani bosib o'tgan har bir avtomobilni qayd etadi. Shuningdek, oilaning ma'lum bir teleko'rsatuvlarni tomosha qilishini maxsus qurilmalar yordamida kuzatish ham osonroq va ishonchliroq hisoblanadi.

Kuzatuv usulining kamchiliklari deyarli barcha sifat tadqiqotlariga xosdir. Bevosita kuzatuvda kichik guruhdagi kishilarning ma'lum bir sharoitlardagi xulq-atvori o'rghaniladi, demak, olingen ma'lumotlarning reprezentativligi masalasi vujudga keladi. Insonning qabul qilish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, shu sababli tadqiqotchi kuzatilayotgan vaziyatdagi ayrim muhim holatlarni o'tkazib yuborishi mumkin. Odatda tadqiqotchi kuzatuv usuli asosida olingen natijalarni chuqurlashtirish va

ma'lum bir xulq-atvor asosida yotuvchi manfaatlar, motivlar, munosabatlarni ochib bera olmaydi. Bundan tashqari, shuni ham e'tiborga olish joizki, kuzatuvchining mavjudligi kuzatilayotgan vaziyatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ta'sirning qanchalik ekanligini aniqlash juda qiyin.

Kuzatuv usuli juda ko'p mehnat talab qiluvchi usuldir. Kuzatuv natijalarini rasmiylashtirish ba'zida kuzatuvning o'zidan ko'ra ikki baravar ko'proq vaqt talab qiladi.

Atrof-muhit xarakteriga ko'ra kuzatuv dala tadqiqoti bo'lishi mumkin. Bu jarayonlar tabiiy holatda (do'konda, peshtaxta oldida) ro'y berishini anglatadi. Laboratoriya tadqiqotida esa kuzatuv sun'iy sharoitlarda o'tkaziladi.

Kuzatuv natijalari audio - yoki videotexnika orqali, shuningdek, yondaftarlarga qayd etiladi.

Kuzatuv usulini o'tkazishning qiyinchiliklari subyektiv (kuzatuvchi shaksi bilan bog'liq) va obyektiv (kuzatuvchiga bog'liq bo'limgan) turlarga taqsimlanadi.

Kuzatuvni o'tkazishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Maqsadni belgilash, vazifalarni qo'yish, kuzatuv obyekti va predmetini belgilash. Tadqiqot maqsadlariga bog'liq holda odatda kuzatuv predmeti sifatida obyekt faoliyatining bitta yoki bir nechta jihatlari olinadi, masalan, xaridorning do'kondagi savdo zali bo'ylab harakatlanish yo'nalishi o'r ganiladi.

Kuzatuvga kirishishdan avval tadqiqotini qiziqtirayotgan vaziyat haqida mulohaza yuritish uchun kuzatuv birliklarini tanlab olish lozim. Kuzatuv birligi (kuzatilayotgan shaxs tomonidan esa bu – xulq-atvor birligi) sifatida turli xarakterdagi xatti-harkatlar to'plamini ko'rsatish mumkin, masalan, xaridor biron-bir tovarga nazar tashlashi yoki qo'liga olib ko'rishi mumkin.

Reja ishlab chiqilgandan so'ng kuzatuvni o'tkazish, ma'lumot to'plash amalga oshiriladi.

Kuzatuv natijalarini qayd etish quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: a) qisqacha yozuv; b) kuzatilayotgan shaxs, hodisa va jarayonlarga taalluqli axborotni ro'yxatga olishga xizmat qiluvchi kartochkalar; v) kengaytirilgan kartochka variantini ifodalovchi

kuzatuv bayonnomasi; g) kuzatuvchining kundaligi; d) foto-, video-, audioyozuvalar.

Kuzatuv rejasini ishlab chiqishda kuzatilayotgan shaxslar faoliyati ro'y beruvchi vaziyat va sharoitlarning muhim tavsifnomalari aniqlab olinishi, ya'ni kuzatuvni qachon va qayerda o'tkazish zarurligi masalasi hal etilishi lozim.

Quyida chuqurlashtirilgan intervyu, bayonnomma tahlili, proektsiya usuli va fiziologik o'lchovlar kabi sifat tadqiqoti usullari qisqacha tavsiflab beriladi.

Chuqurlashtirilgan intervyu malakali intervyuer tomonidan respondentlar guruhiga nima sababdan ular o'zini u yoki bu tarzda tutishi yoki ma'lum bir muammo haqida nima deb o'ylashini tushunish uchun tekshiruvchi savollar berishda namoyon bo'ladi. Respondentga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha savollar beriladi va u bu savollarga erkin javob beradi. Bunda «Nima uchun siz bu tarzda javob berdingiz?», «Siz o'z nuqtai nazaringizni asoslab bera olasizmi?» kabi savollarni beradi.

Marketing tadqiqoti o'tkazish usulini tanlashning dastlabki vazifasi marketing axborotini to'plashda foydalanish mumkin bo'lган ayrim usullar bilan tanishishdan iborat. So'ngra resurslar imkoniyatidan kelib chiqqan holda ushbu usullar orasidan eng mos keluvchisi tanlab olinadi.

Qisqa xulosalar

Ushbu bobda biz dastlabki axborot to'plashning sifatiy va miqdoriy ko'rsatkichlari, qidiruv va diskriptiv usullari, fokus – guruh faoliyati, so'rov turlari, intervyu olish, va boshqa axborot turlari bilan batapsil tanishib chiqdik. Ular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Marketing tadqiqotlarini o'tkazishda axborot to'plash usullarini ikki guruhga – sifat va son usullariga ajratish mumkin.

Son tadqiqotlari odadta yopiq turdag'i strukturalangan savollardan foydalanishga asoslangan turli so'rovlarni o'tkazishga o'xshatiladi. Bunday tadqiqotlarga xos bo'lган xususiyatlar: to'planuvchi ma'lumotlar shakli va ularni olish manbalarining aniq belgilanishi, to'plangan ma'lumotlarning faqat tartibga solingan jarayonlar vositasida o'tkazish hisoblanadi.

Sifat tadqiqotlari odamlarning nima qilayotganligi va nima deyayotganligini kuzatish yo'li bilan axborot toplash, tahlil qilish va taqdim etishni qamrab oladi. Kuzatuv va xulosalar sifat xarakteriga ega bo'lib, standartlashtirilmagan tarzda amalga oshiriladi. Sifat ma'lumotlari son shakliga keltirilishi mumkin, biroq bunday oldin maxsus jarayonlarni o'tkazish talab qilinadi.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Masalan, korxonada band bo'lgan hodimlar soni miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, ularning mehnat unumdonligi sifat ko'rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko'rsatkich hisoblanadi. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko'rsatkichi bo'lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko'rsatkichidir. Yana boshqa bir misol keltirsak. Jamoa xo'jaligining bir yilda yetishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdor ko'rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to'rtinchi navga topshirildi. Bular paxtaning sifat ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

So'rov o'tkazishda ijtimoiy sohada axborotlarni guruuhlar orqali toplashda oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun, eng keng tarqalgan samarali va sifatli uslublardan foydalanishadi. Bu uslubni guruuhlar orqali tadqiqotni tashkil etish ko'rinishini – fokus –guruh deb atashadi.

Fokus guruhi usulini qo'llashning beshta asosiy maqsadini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. G'oyalilar generatsiyasi – masalan, chiqarilayotgan mahsulotlar sifati, dizayni, o'rovini takomillashtirish yoki yangi mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha.

2. Iste'molchilarining so'zlashuv lug'atini o'rganish reklama kampaniyasi o'tkazish, savolnomalar tuzish va hokazolarda katta foya keltirishi mumkin.

3. Iste'molchilar so'rovlarini, motivlari, ularning o'rganilayotgan mahsulot va uning markasi, harakatlantirish

usuliga munosabati bilan tanishish, bu marketing tadqiqotlari maqsadlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishda to'pfangan ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish. Ba'zida fokus-guruh a'zolari o'tkazilgan so'rov natijalarini to'g'ri anglab olishga ko'maklashadi.

5. Ma'lum bir reklama turlariga his-tuyg'u va xulq-atvor reaksiyalarini o'rGANISH.

Tayanch iboralar: son va sifat tadqiqotlari, kuzatuv, so'rov o'tkazish turlari, dala, kabinet, qidiruv, yozib boruvchi tadqiqotlar, statistik axborotlar, ochiq kuzatuv, yopiq kuzatuv va boshq.

Nazorat savollari

1. Qanday axborotlarga dastlabki axborotlar deb ataladi?
2. Son tadqiqotlari va sifat tadqiqotlari o'rtasidagi farq nimada?
3. Kabinet va dala tadqiqotlari marketing tadqiqotlarining qanday axborotlar turlariga kiradi?
4. Fokus – guruhning asosiy beshta maqsadlari nimalardan iborat?
5. Fokus – guruhning asosiy afzallikkari nimalardan iborat?
6. Strukturalangan va strukturalanmagan so'rov uslublarining xususiyatlari nimada?
7. Panel turlarini klassifikatsiyaini sanab o'ting. Iste'mol – turini referent guruhlarga ajratib bering.
8. So'rov usullarini afzallikkari va kmchiliklari nimalardan iborat?
9. Tabulyatsiya va statistika tahlilini qanday amalga oshiriladi?
10. So'raluvchi va so'rovchi tomonidan yo'l quygan xatoliklar nimalardan iborat?

7- BOB, SABAB-OQIBAT MARKETING TADQIQOTLARI: EKSPERIMENT (TAJRIBA)

7.1. Sabab – oqibat aloqalarining mazmuni

Sabab va oqibat kategoriyasi ham falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib, bevosita marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning metodologik asosi sifatida ham namoyon bo'ladi. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar mavjud. Bu sabablarni marketing tadqiqotlari statistik tahlilida omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) uning hajmi bir qancha omillarga, ya'ni hodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumдорлиги, qo'llanilayotgan texnologik jarayoni, xom ashyoning o'z vaqtida sifatli ta'minoti kabi omillarga (sabablarga) bog'liq.

Shuningdek, *sabab-oqibat tadqiqotlari (causal research)* – sabab-oqibat aloqalari mavjudligini isbotlash uchun foydalaniadi. Marketologlar doimiy ravishda qaror qabul qilishayotganida sabab-oqibat aloqalariga tayanadilar. Shu sababdan bunday taxminlarni isbotlash uchun marketing tadqiqotlari o'tkazilishi zarur bo'ladi. Uning o'tkazilishi davrida quyidagi ikkita vazifani hal etilishiga qaratiladi:

1. Qaysi o'zgaruvchilar sabab (mustaqil o'zgaruvchilar), qaysi birlari oqibatni (bo'yinuvchi o'zaruvchilar) tashkil etishini tushunish uchun.
2. Sabab va oqibat o'zgaruvchilar o'rta sidagi aloqaning mohiyatini aniqlash uchun kerakdir.

Sabab-oqibat tadqiqotlari (causal research) – marketingning yakuniy tadqiqotlar turi hisoblanib, uning vazifasi bo'lib, sabab-oqibat aloqalarining mavjudligini isbotlash uchun zarur bo'ladi.

Demak, sabab-oqibat natijasida "X" va "U" hodisalarning yuz berishiga sabablar aniqlanadi. Masalan, quyidagi 7.1 – jadvalda hodisaning yuz berishi va uning sabab ko'rinishlari aks ettirilgan.

“X”-hodisaning yuz berishi va “Y”- hodisasining yuz berishining sabab ko‘rinishlari

| Odatiy ma’nosি | Ilmiy ma’nosি |
|---|--|
| X hodisaning bo‘lishi- hodisaning yuz berishiga birgina sababdir. | X-hodisaning yuz berishi Y-hodisaning yuz berishiga sabab buluvchilardan biridir. |
| X hodisaning bulishi doimo Y hodisaning yuz berishiga sabab bo‘ladi (ular orasida aniqlovchi (determinatsiya) bog‘liqlik mavjud). | X hodisa yuz berishi Y xodisaning yuz berishi ehtimolini oshiradi (ular orasida taxminiy bog‘liqlik bulishi mumkin). |
| X hodisaning yuz berishi Y hodisaning yuz berishiga sabab deb isbotlash mumkin. | X hodisaning yuz berishini Y hodisaning yuz berishiga sabab deb isbotlash mumkinmas. Agar shunday bo‘lsa, undan chiqqan natijani taxmin kilish mumkin. |

Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan har bir ko‘rsatkich natija ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak oqibatdir.

Marketing tadqiqotlarida sabab – oqibat munosabatlarning odatdagidan ko‘ra ilmiy mohiyatidan foydalanish to‘g‘riroq bo‘ladi. Marketing harakatlarining natijalari bir qator omillar bilan belgilanadi va sabab va oqibat o‘rtasidagi munosabatlarni tabiatda ko‘proq ehtimollik hisoblanadi. Ko‘pgina hollarda tasodifiy bog‘liqlikni isbotlab bo‘lmaydi, shunchaki sabab-oqibat bog‘liqligining mavjudligini taxmin kilish mumkin. Boshqacha kilib aytganda, sabab-oqibat munosabatlarning real mavjudligi aniqlanmagan. Shuning uchun sabab-oqibat o‘rtasida munosabatlarning mavjudligi ilmiy tomonidan asoslangan va buning uchun ularning birligini aniqlash uchun bir necha shartlar mavjud.

Sabab-oqibat munosabatlari mavjud bo‘lishining shartlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, tasodifiy yoki sabab-oqibat munosabatlarning mavjudligini ishonch hosil kilish uchun 3ta shartga amal kilish lozim:



7.1 – rasm. Sabab – oqibat aloqalarining mohiyati

Bu shartlar muhim ammo sabab-oqibat bog'liqligi borligiga yetarli emasdir. Har biri alohida yoki uchchalasi bir vaqtda sabab-oqibat bog'likligini mavjudligini yakuniy tasdiqlay olmaydi. Bu shartlarni har birini ko'rib chiqamiz.

I. Birgalikda bo'ladigan o'zgarishlar (variatsiya). Bu (concomitant variation) birgalikda yuz berish darajasi yoki "X" sabab-oqibat hodisasining "Y" oqibatini birga yuz berish varianti bo'lib, sabab bog'liqligini mavjudligini taxminiy bashorat kiladi. Bu shartga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillar ham sifatli, ham miqdoriy bo'lishi mumkin.

Sifatli dalilga misol keltiramiz: univermag menedjerlari sotuv hajmi asosan xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatiga bog'lik deya taxmin qilishadi. Bu gipotezani birgalikdagi variatsiya shartlariga amal qilib tekshirib ko'rish mumkin. Bu holatda sabab omili-xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifati, oqibat omili- sotuv hajmidir. Bu gipotezada birgalikda variatsiya mavjudligi shuni bildiradiki, xaridorlarga o'rta sifatda xizmat ko'rsatuvchi univermaglar o'rta savdo hajmiga ega bo'ladi degani. Shu kabi past sifatda xizmat ko'rsatuvchi univermaglar kichik savdo hajmini ko'rsatib beradi.

Agarda bu taxminga qarshi ornillar ko'rinsa yoki kelib chiqsa, bu taxminni chippakka chiqaradi.

Miqdoriy dalilga misol sifatida ixtiyoriy 1000 respondentdan univermag model kiyimlar sotib olish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomani keltirish mumkin. Bu so'rov natijasi quyidagi jadvalda keltirilgan. Respondentlar o'z bilim ma'lumot darajasiga ko'ra past va yuqori guruhlarga ajratilgan. Bu jadval shunday taxminga asosan qurilganki, ma'lumot darjasini zamonaviy kiyim sotib olishga ta'sir kiladi. Yuqori ma'lumotga ega respondentlar ko'proq zamonaviy kiyimlar sotib olishi mumkin.

7.2 - jadval

Zamonaviy kiyimlar sotib olish va ma'lumot darjasini orasidagi bog'liqlik variatsiyasi

| | | Zamonaviy kiyimlar sotib olish darjasini, Y | | |
|--------------------------|--------|--|--------------|---------------|
| | | Yuqori | Past | |
| Ma'lumot darjasini, X | Yuqori | 363 (73%) | 137 (27%) | 500 (100%) |
| | Past | 322(64%) | 178 (36%) | 500 (100%) |

Jadvaldan ko'rib turibmizki, yuqori ma'lumotlilarning 73% foizi zamonaviy kiyimlar xarid qilishning yuqori darjasiga ega, past ma'lumotlilar orasida esa bu 64% nigma tashkil qiladi. Shu bilan birga bu natijalar 1000 respondentlarni orasida olingan ma'lumotlar natijasidir. Bundan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ya'ni yuqori ma'lumot darjasini yuqori xaridni keltirib chiqarishi mumkinmi? Albatta yo'q, bu holatdan kelib chiqib shunday deyish mumkin, bu munosabat taxminni haqiqatga yakin deb oladi, ammo uni isbotlamasligi mumkin.

Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda natija o'zgarishiga ornillar ta'siri aniq ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta'siri o'rganiladi. Bular o'rtasidagi

bog'liqlikni asosan formulalarda ifodalab, ularga amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda hal qilish mumkin.

7.3 -jadval

Zamonaviy kiyimlar xaridi daromaddan va ma'lumot darajasidan kelib chiqadi

| | | Daromad darajasi past bo'lganda zamonaviy kiyimlar xaridi | | |
|------------------------|-----------|---|---------------|--|
| Ma'lumot darajasi X | Yuqori | Past | | |
| | 122 (61%) | 78 (39%) | 200 (100%) | |
| | | Daromad darajasi yuqori bo'lganda zamonaviy kiyimlar xaridi | | |
| Ma'lumot darajasi X | Yuqori | Past | | |
| | 241 (80%) | 59 (20%) | 300 (100%) | |
| | 151 (76%) | 49 (24%) | 200 (100%) | |

Bu jadvalga asoslanib shuni aytish mumkinki, ma'lumot darajasi yuqori bo'lganlar zamonaviy kiyimlar xaridini ko'proq amalga oshirishi kuzatilmoqda. Bu jadvaldagagi zamonaviy kiyimlar xaridi hajmi yuqori va past darajali ma'lumotli va daromadlari turli darajadagi odamlarning orasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Daromad guruhi orasidagi munosabat qisqargan. Bu yuqoridagi jadval fikri noto'g'ri bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Sabab orqali oqibat yuzaga keladi. Xuddi shunday natijaning ham shakllanishiga bevosita omillar ta'sir qiladi. Ijobiy sabablar (omillar) yaxshi oqibatga, shuningdek, ijobiy omillar yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta'siri natijaning pasayishiga olib keladi. Shu

tufayli tahlil jarayonida natija ko'rsatkichlariga omillar ta'sirini batafsil o'rganishga to'g'ri keladi.

2. *Vaqt mobaynidagi hodisaning yuz berish tartibi.* Vaqt mobaynida hodisaning yuz berish tartibi sabab-oqibat munosabatlarining xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu shuni anglatadiki, sabab-hodisa va sabab oqibatdan avval yoki bir vaqtda yuz berishi kerak. U oqibatdan keyin yuz berishi kerak emas. Oqibat keyin yuz bersa, oqibatni aniqlash sababli deb aytib bo'lmaydi. Shu bilan birga sabab-oqibat bog'liqligidagi har bir hodisa boshqa hodisaning oqibati yoki sababi bo'lishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, o'zgarishlar sabab-oqibat munosabatlarining sababi va oqibati bo'lishi mumkin. Misol sifatida shuni aytish mumkinki, bu univermagdan doimo xarid kiluvchi xaridordar bu univermagni kredit kartochkasiga (masalan, "korzinka" tizimidagi karta) ega bulishi mumkin. Yoki bu univermagni kredit kartochkalariga ega xaridorlari o'sha yerda xarid qiliishga moyil bo'ladilar.



Univermagni savdo hajmi va xizmat ko'rsatish sifati misofiga qaytamiz. Agar savdo hajmi o'sishi xaridorlarga xizmat ko'rsatish

sifatiga bog'liq bo'lsa , unda savdo hajmini o'sishidan oldin yoki bir vaqtini o'zida o'sishini yaxshilash chora tadbirlari o'tkazish joyiz bo'lishi kerak. Bu choralar sotuvchilarни ko'paytirish yoki qo'shimcha qayta tayyorlash bilan xarakterlanishi mumkin. Keyingi oy univermagni savdo daromadi o'sishi mumkin. Yoki aksincha, savdo hajmi sotuvchilarни qayta tayyorlash yoki ularni ko'paytirish bilan bir vaqtda o'sishi mumkin. Agarda savdo hajmini sezilarli o'sganidan keyin univermag daromadini qaysidir bir qismini sotuvchilarни kayta o'qitishga yunaltirsa, bu xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshishiga olib keladi. Bu holatda xizmat ko'rsatishning oshishi savdo hajmini oshishga sabab bo'la olmaydi.

3. *Boshqa mumkin bo'lgan sabab omillarning yo'qligi.* Boshqa mumkin bo'lgan sabab omillarni yo'qligi ko'rileyotgan sababning bir donaligini bildiradi. Agar qachonki savdo hajmiga ta'sir etuvchi boshqa barcha omillar, jumladan narxlash, reklama, sotuv kanallari, tovar sifati, raqobat o'zgarishsiz yoki nazorat qilinadigan bo'lsagina xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni savdo hajmining o'sishini sababi qilib ko'rsata olishimiz mumkin.

Vaziyatni o'rganib chiqqandan so'ng, ko'rib chiqilayotganlardan tashqari barcha sabab omillarini chiqarib tashlash haqida ishonch bilan aytish mumkin. Bunga qarshi tajriba davomida ba'zi boshqa sabab omillarining ta'sirini nazorat qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytib o'tilgan uchta shartlarning yig'indisi ham tasodifiy (sabab-oqibat) bog'liqlikning mavjudligini shak-shubhasiz dalili ekanini bildirmaydi. Bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgani natijasidagi isbotlar tasodifiy bog'liqlik mavjudligini ishonchini oshirishi mumkin. Dalillarni sharplash muammoli vaziyatni chuqur anglash asosida amalg'a oshirilayotgan bo'lsa, bu ishonch yanada kuchayadi.

7.2. Tajribaning (eksperiment) ishonchiligi va unga ta'sir etuvchi omillar

Eksperiment(tajriba) deb bitta yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarning o'zgarishi boshqa bog'liq bo'lган o'zgaruvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadigan tadqiqotga aytildi. Ushbu usulning o'ziga xos belgilari:

- izolyatsiya qilinuvchi o'zgarishlar (ayrim kattaliklar tadqiqotchi tomonidan variatsiyalanadi, boshqalari iloji boricha doimiy bo'lishi lozim);
- tadqiqotchi ma'lumotlarning paydo bo'lish jarayoniga faol aralashadi;
- sabab-oqibat aloqalari tekshiriladi (masalan, mahsulot o'rovi rangining sotuv hajmiga ta'siri).

Tajriba odatda hodisa bilan sabab-oqibat munonasabatlarni aniqlashtirish uchun qo'llaniladi. Boshqacha aytganda, eksperiment deb, mustaqil o'zgaruvchilarning o'r ganilmayotgan boshqa ko'rsatkichlarga ta'sir ustidan nazoratni saqlagan holda bog'liq bo'lган ko'rsatkichlarga ko'rsatuvchi ta'sir darajasini aniqlash maqsadida ular bilan ishlash tushuniladi. Mustaqil o'zgaruvchilar (narx, reklama xarajatlari va hokazo) eksperiment o'tkazuvchining istagi bo'yicha o'zgartirilishi mumkin bo'lган bir paytda bog'liq bo'lган o'zgaruvchilar (sotuv hajmi, bozor ulushi ko'rsatkichi) uning beovsita boshqaruv sohasida bo'lmaydi. Ularni mustaqil o'zgaruvchilar kabi to'g'ridan-to'g'ri almashtirib bo'lmaydi.

Eksperimentlarning ikki xil turi mavjud: laboratoriya va dala tajribalari. Ulardan birinchisini o'tkazishda qo'shimcha omillarning ta'sirini yo'qqa chiqarish maqsadida sun'iy sharoitlar yaratiladi. Masalan, reklamaning har xil turlariga xaridorlarning reaksiyasini baholashda shunday xaridorlarni taklif etish kerakki, ular jinsi, yoshi, ijtimoiy holati bo'yicha reprezentativ bo'lsin. Laboratoriya eksperimentlari qo'shimcha omillar ta'sirini nazorat qilishdan tashqari nisbatan arzon hisoblanadi va ularni o'tkazish uchun kamroq vaqt talab qilinadi.

Oxirgi yillarda laboratoriya eksperimentlarini o'tkazishda kompyuter texnikasidan toboro keng foydalilmoqda. Kompyuterlashtirilgan dastur-savollar mavjud - bo'lib, iste'molchilarni supermarketga virtual tashrif buyurish va xarid uchun tovar tanlashga imkon beradi. Kompyuter ular qilgan xaridlarni qayd etadi va ularning marketing majmui ma'lum bir elementlarini (narx, tovar o'rovi rangi va shakli, do'kon ichida tovarni harakatlantirish usullari) qo'llashga reaksiyasini baholaydi.

Dala eksperimentlari real sharoitlarda: do'konlarda, iste'molchilarning uylarida va boshqa joylarda o'tkaziladi. Garchi bunday eksperimentlar natijalari laboratoriya eksperimenti natijalariga nisbatan ko'proq ishonchga loyiq bo'lsada, ularni o'tkazishda qo'shimcha omillar ta'sirini aniq hisobga olish qiyin, ular amalga oshirish uchun ko'proq vaqt va xarajatlar talab qiladi.

Marketingda dala eksperimenti xarakteriga ega eksperiment o'tkazishning ko'plab usullari «sinov tariqasidagi marketing» nomi ostida ma'lum. Kompaniyalar bunday eksperimentlarni bitta yoki bir nechta shaharda o'tkazishi mumkin. Eksperiment o'tkazishda odatda ikkita maqsad ko'zlanadi: yangi mahsulotning potentsial sotuv hajmini aniqlash va yangi mahsulotni sotishda marketing majmuining ayrim elementlarini qo'llash samaradorligini topish.

Bunday sinov marketingini o'tkazishda turli bozorlar tadqiqot obyekti sanaladi, shuning uchun eksperiment faoliyati ko'pincha bozorni sinovdan o'tkazish deb ham ataladi.

Bozorni sinovdan o'tkazish standart, nazorat qilinuvchi, elektron va imitatcion turlarga tasniflanadi.

Standart turini qo'llashda firma mahsulot va marketing majmuining boshqa elementlarini mazkur firma tomonidan foydaliluvchi odatiy sotuv kanallari orqali sinab ko'radi. Bu usul juda qimmat bo'lib, uni o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qilinadi, bundan tashqari, u konfidentsial sanaladi.

7.3. Tashqi omillar nazorati

Tashqi omillar nazoratini o'rganadigan bo'lsak, eng avvalo bozor tadqiqotlaridan boshlaymiz. Chunki har qanday firma yoki korxona tadqiqotlari bozorda ro'y beradigan tendensiyalarga borib taqaladi va bozorda sinab ko'rish usullarnini o'rganishni taqozo etadi.

Bozorni sinab ko'rishning nazorat qilinuvchi usuli tovarlarni sotishni eksperimentdagi ishtiroki uchun rag'batlantiriluvchi distrib yutorlar orqali amalga oshiruvchi ixtisoslashgan tadqiqot firmalari tomonidan o'tkaziladi. Ushbu usulning afzallikkleri va kamchiliklari mavjud. Mazkur usulning kamchiligi shundaki, distribyutorlarning sotuv kanallari firma tomonidan amalda qo'llanuvchi kanallarga mos kelmasligi mumkin. Ushbu usulning tadqiqot natijalari ma'lumotlarini elektron tizimda namoyon bo'lishi mumkin.

Bozorni sinab ko'rishning elektron usuli shunda namoyon bo'ladiki, iste'mol paneli ishtirokchilari tovari xarid qilishda taqdim etish uchun maxsus identifikatsiya kartochkalari oladi. Sinovdan o'tkazilayotgan va boshqa tovarlarni xarid qilishda xaridorning demografik belgilari avtomatik ravishda qayd etiladi. Bunday sinovlar faqat chakana savdo korxonasi bunday eksperimentda qatnashishga rozilik bergen shaharlarda o'tkaziladi. Elektron usul eksperiment o'tkazishning tez va arzon o'tkazilishi, olingen natijalarning maxfiyligini ta'minlaydi. Biroq bu usul real bozorga mos kelmasligi mumkin.

Amaliyotda elektron sinov usulidan kabel televideniesi orqali foydalanish kuzatilmoqda. Ularni birqalikda qo'llash kompaniyaning panel a'zolariga ma'lum bir reklamani namoyish etish imkonini yaratadi, bunda bitta panel tarkibijagi turli guruhlarga har xil reklama ko'rsatiladi. Bu guruhlar a'zolari bitta tumanda istiqomat qiladi va xaridni ham bitta do'konda amalga oshiradi. Xaridlar hajmining reklama xarajatlari bilan aloqasi o'rganiladi. Bunday eksperimentlarni o'tkazish qattiq nazorat ostida bo'ladi. Do'konlarda tovarlarning ochiqligi kafolatlanadi,

eksperiment o'tkazish haqidagi axborot maxfiy saqlanadi, reklama faoliyati aniq tartibga solinadi. Dastlabki va takroriy xaridlar, ularni amalga oshirish payti aniq qayd etib boriladi.

Imitatcion usul real sharoitlarga yaqinlashtirilgan sharoitlarda iste'molchilarining yangi mahsulotga reaksiyasini o'rganishni nazarda tutadi. Tanlab olingen iste'molchilarga ayrim tovarlarni sotib olish maqsadida pul beriladi, bu tovarlar orasida sinovdan o'tkazilayotgan tovar ham bo'ladi. Bunda turli tovarlarga, jumladan sinovdan o'tkazilayotgan tovarlarga yo'naltirilgan reklama va tovari ilgari surishning boshqa usullari namunalari sinovdan o'tkazilishi mumkin. Olingen natijalar tahlili yangi tovari baholash va uni ilgari surishning samarali usullarini tanlashga imkon beradi.

Bozorni sinovdan o'tkazish iste'mol tovarlari uchun ham, ishlab chiqarish-texnika yo'nalishidagi tovarlar uchun ham amalga oshiriladi.

Bozorni sinovdan o'tkazish usullarinnig asosiy kamchiliklardan biri ularning bir nechta shaharda yoki juda cheklangan dastur doirasida o'tkazilishida ancha qimmat bo'lishidir. Bundan tashqari, sinovdan o'tkazilayotgan mahsulot raqobatchilarga ma'lum bo'lib qoladi. Ular esa tezlik bilan xuddi shunday mahsulot yaratishi va bozorga birinchi bo'lib chiqishi mumkin. Eksperiment o'tkazish va marketing qarorlari qabul qilish erasidagi vaqt muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan vaqt emili ko'pincha hal qiluvchi omil bo'lib chiqadi. Eksperimentatorlar ikki alanga o'rtasida qoladi. Bir tomonidan, ishonchli natijalar olish uzoq muddatli eksperiment o'tkazishni talab qiladi. Boshqa tomonidan esa, bu holatda xarajatlar ortadi, eksperiment o'tkazishni boshlash va marketing qarorlari qabul qilish orasidagi vaqt uzayadi, eksperimentni o'tkazish sharoitlari o'zgarishi mumkin. Bozor eksperimentlari hech qachon laboratoriya eksperimentlari kabi yaxshi nazorat qiliymaydi. Masalan, tovar ishlab chiqaruvchi reklama xarajatlarini pasaytirgan eksperimental mintaqadagi distribyutorlar va chakana

savdogarlarning o'zlarini intensiv reklama kampaniyasi o'tkazishni boshlashi mumkin. Raqobatchilar ongli ravishda eksperiment natijalarini buzib ko'rsatishi, o'z reklama va narx siyosatini o'zgartirishi, eksperiment natijalarini buzib ko'rsatish maqsadida katta hajmda eksperimental tovarni xarid qilishi mumkin.

7.4. Tajriba modellarini tasniflash

Eksperimentni loyihalashtirish shundan iboratki, bog'liq bo'lgan o'zgaruvchiga faqat o'rganilayotgan mustaqil o'zgaruvchi tomonidan ta'sir ko'rsatishni kafolatlovchi sharoitlar yaratish va bunda qo'shimcha omillar ta'sirini yo'qqa chiqarish lozim.

Masalan, bizning maqsadimiz do'kon rastalarida bananlarning joylashuvi sotuv hajmiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlash hisoblanadi.

Siz barcha meva-cheva do'konlarini ikki guruhga – eksperimental va nazorat guruhiiga ajratasiz. Ikkala guruhi imkoniyati bo'yicha barcha jihatlardan bir xil kuchga ega, ya'ni shahar markazi va chetida joylashgan katta va kichik do'konlar soni bir xil va hokazo. Ikkala guruhdagi do'konlarda ma'lum bir muddat davomida sotilgan bananlar hajmi aniqlanadi. Shundan so'ng faqat eksperimental guruhi do'konlarida bananlarning do'kon rastalarida joylashuvi ma'lum tarzda o'zgartirib chiqiladi va belgilangan vaqt o'tgach ikkala guruhdagi do'konlarda sotuv hajmi yana bir bor o'lchanadi. Mazkur eksperiment natijalari bo'yicha bananlarning do'kon rastalarida joylashuvi sotuv hajmiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Biroq eksperimental do'konlarda aniqlangan sotuv hajmining o'zgarishi faqat bananlarning joylashuvini o'zgartirishgagina emas, balki ishlab chiqaruvchilar reklamasi, ob-havo kabi boshqa bir qator qo'shimcha omillarga ham bog'liq bo'ladi. Lekin bu omillar ta'siri nazorat guruhidagi sotuv hajmining o'zgarishini ham tavsiflaydi. Shu tariqa, nazorat va eksperimental guruhda sotuv hajmining o'zgarishi bananlarni sotish hajmiga (bog'liq bo'lgan

o'zgaruvchi) ularning do'kon rastasida joylashuvi (mustaqil o'zgaruvchi) ko'rsatuvchi ta'sirni tavsiflaydi.

Endi esa olingan natijalarning ishonchlilik darajasini baholash zatur. Bunda ichki va tashqi ishonchlilik foydalaniadi.

Ichki ishonchlilik bog'iqliq bo'lgan o'zgaruvchining qanday doirada o'zgarishi haqiqatda ham mustaqil o'zgaruvchining o'zgarishi bilan izohlanishini aniqlab beraadi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda nazorat va eksperimental guruhlarning to'liq ekvivalentlik sharti ta'minlanmagan — aytaylik, bu guruhdagi do'konlarga yoshi va moddiy ahvoli turlicha bo'lgan xaridorlar tashrif buyuradi. Bu farqlar nazorat qilinmaydigan omillar tarkibiga mansub bo'ladi va mazkur eksperiment ichki ishonchlilik talablariga javob bermay qoladi. Bunday eksperiment natijalari unchalik katta qiymatga ega bo'lmaydi.

Tashqi ishonchlilik eksperiment davomida olingan va aniqlangan bog'iqliklardan foydalansh mumkin bo'lgan doirani tavsiflaydi. Masalan, bananlarning do'kon rastasida joylashuvi va sotuv hajmi o'rtaсидagi bog'iqliknini (agarda u mavjud bo'lsa) boshqa turdag'i do'konlarga ham tarqatish mumkinmi?

Reklamani sinovdan o'tkazishda xaridorlarning har xil reklama turlariga reaksiyasi baholanadi, bunda sinovdan o'tkazish maxsus namoyish xonasida amalga oshiriladi. Biroq xaridorlarning tovari ni ilgari surishdagi turli usular, jumladan, reklamaga haqiqiy reaksiyasi namoyish xonasi va haqiqiy savdo zalida bir-biridan farq qilishi mumkin.

Amaliyotda muayyan marketing tadqiqoti o'tkazishda qoidaga ko'ra bitta emas, balki barcha tadqiqot turlaridan, buning ustiga istalgan ketma-ketlikda foydalaniadi. Masalan, tavsiflash xarakteriga ega tadqiqot asosida razvedka tadqiqoti o'tkazish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Buning natijalari kazual tadqiqot yordamida aniqlashtirilib, o'z navbatida, bu tadqiqotga asos qilib eksperiment o'tkazish olinadi.

Eksperiment usuli o'rganiшayotgan obyektlar xulq-avtori haqida axborot to'plashi usuli bo'lib, ushbu obyektlar faoliyatiga

ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillar ustidan nazorat o'rnatishni nazarda tutadi.

Bu usuldan maqsad marketing omillari va o'rganilayotgan obyektlar xulq-avtori o'ttasida sabab-oqibat aloqalarini aniqlashdir. Eksperiment natijalarining i'shonchligini ta'minlash uchun o'rganilayotgan omildan tashqari boshqa barcha omillar qiymati o'zgarmas bo'lishi lozim.

Eksperiment marketing tadqiqotlari usuli sifatida tahlil davomida o'rganilayotgan omildan boshqa barcha omillar ta'siri yo'q qilinishini nazarda tutadi. Shu sababli eksperiment kamida ikkita o'rganilayotgan guruh bo'lismeni talab qiladi, ulardan biri eksperimental, ikkinchisi esa nazorat guruhi sanaladi.

Sun'iy vaziyatda o'tkaziluvchi eksperimentlar laboratoriya eksperimenti, haqiqiy sharoitlarda o'tkaziluvchi eksperimentlar esa dala eksperimenti deb ataladi.

Dala tadqiqotlari eng murakkab va qimmatli bo'lsada, shu bilan bir paytda u bozomi o'rganishning eng samarali usuli hamdir. Uni faqat yirik kompaniyalargina qo'llaydi. U bozor talablari, sotuv usullari, narx va boshqa ko'plab shartlar bilan tezda va har tomonlama tanishib chiqish, potentsial xaridorlar bilan shaxsiy muloqot o'rnatish, mazkur bozorda talab eng katta bo'lgan tovar namunalarini xarid qilishga imkon beradi.

7.5. Dastlabki va haqiqiy tajriba modellari

Eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida uni o'tkazish joyi, muddati, doimimi yoki o'zgaruvchi omillar tarkibini aniqlab olish zarur.

Eksperiment usulining afzalliliklari:

- obyektiv xarakter,
- omilar o'ttasida sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish imkoniyati.

Eksperiment usuli kamchiliklari:

- barcha omillar ustidan tabiiy sharoitlarda nazorat o'rnatishning qiyinligi,

➤ laboratoriya sharoitlarida obyektning normal xulq-atvorini takror ishlab chiqarishning qiyinligi,

➤ yuqori xarajatlar.

O'xshatish (imitatsion modellashtirish) korxonaning taktika va strategiyasini belgilab beruvchi nazorat ostidagi va nazorat qilinmaydigan omillarning matematik, grafik yoki boshqa modelini ifodalaydi.

Imitatsion modellashtirish marketing strategiyasini belgilab beruvchi ko'plab omillarni har tomonlama o'rganishga imkon beradi. Imitatsiyani o'tkazishga tayyorgarlik tadbirlari obyektning faoliyat ko'rsatish modelini ishlab chiqish va uning mos kelishini tekshirishdan iborat.

Jamiyatimiz hayotida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar uzlusiz davom etmoqda. Ammo ularni axborotlarda ifodalash, jamlash va tegishli yo'nalishlar bo'yicha xulosa qilish hamda boshqaruq qarorlarini qabul qilish masalasi shu axborotlarni nima uchun jamlanish maqsadiga bog'liq. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun ham shunga dxildor axborotlar zarur bo'ladi. Chunki, axborotlarni toplash va ulardan foydalanish bir qancha masalalarni hal qilish imkonini beradi. Jumladan:

- korxonaning holatini bilish imkonini beradi;
- korxonaning bozordagi mavqeiga tashxis qo'yishga asos bo'ladi;
- raqobatchilar o'rtaсидаги ahvolini bilish imkonini beradi;
- qay darajada sarnarali faoliyat ko'rsatayotganliginiga baho berish mumkin bo'ladi;
- korxonaning marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi;
- korxonaning tashqi hamkorlariga tegishli qaror qabul qilishi uchun sharoit yaratadi;
- korxonaning o'z faoliyatiga tashxis qo'yish imkonini yaratadi.

Ko'rniib turibdiki, axborotlar korxona faoliyatida, xususan marketing tadqiqotlarida ham juda katta ahamiyatga ega ekan.

Modellashtirish xaridorlar xulq-avtorini o'rganishda eng ko'p qo'llanadi. Xaridorlar xulq-avtorini o'rganishning eng mashhur usullari *ehtimoliy* (*stochastic*), *chiziqli-eksperimental* va *axborotni qayta ishslash modellari* hisoblanadi.

Ehtimoliy modellar bundan oldingi va ayniqsa, oxirgi xarid iste'molchining bozordagi keyingi xulq-atvorini belgilab berishiga asoslanadi. Bu modellar yangi tovarlarga talabni bashorat qilish va tovar markalariga moyillikni aniqlashda foydalilanadi.

Chiziqli-eksperimental modellar odatda ta'riflash xarakteriga ega bo'lib, tovariarga potentsial talabni modellashtirish, muayyan tovarlarga nisbatan xaridorlar xulq-avtori tendensiyalarini aniqlash uchun qo'llanadi.

Imitatsiya usulining afzalligi marketing harakatlarining ko'plab variantlarini tezkorlik bilan tahlil qilish va shu asosda ularning ichidan eng yaxshisini tanlab olishdan iborat.

Mazkur usulning kamchiligi esa marketing omillari, uning tashqi muhiti va xaridorlar xulq-atvorini belgilab beruvchi omillar o'rtasida sabab-oqibat aloqalarini ifodalash va chuqr o'rganishni talab qiluvchi modelni yaratishning qiyinligi va ko'p mehnat talab qilishidir.

Qisqa xulosalar

Bu bobda biz *Sabab va oqibatli marketing tadqiqotlari bilan yaqindan tanishib qichdik*. *Sabab va oqibatli* kategoriyasi ham falsafiy kategoriyalardan biri bo'lib, bevosita marketing tadqiqotlarida statistik tahlilning metodologik asosi sifatida ham namoyon bo'ladi. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Ammo shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar mavjud. Bu sabablarni marketing tadqiqotlari statistik tahlilida omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) uning hajmi bir qancha omillarga, ya'ni hodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unumdarligi, qo'llanilayotgan texnologik

jarayoni, xom ashyoning o'z vaqtida sifatlari ta'minoti kabi omillarga (sabablarga) bog'liq.

Shuningdek, *sabab-oqibat tadqiqotlari* (*causal research*) – sabab-oqibat aloqalari mavjudligini isbotlash uchun foydalaniadi. Marketologlar doimiy ravishda qaror qabul qilishayotganida sabab-oqibat aloqalariga tayanadilar. Shu sababdan bunday taxminlarni isbotlash uchun marketing tadqiqotlari o'tkazilishi zarur bo'ladi. Uning o'tkazilishi davrida quyidagi ikkita vazifani hal etilishiga qaratiladi:

3. Qaysi o'zgaruvchilar sabab (mustaqil o'zgaruvchilar), qaysi birlari oqibatni (bo'ysinuvchi o'zaruvchilar) tashkil etishini tushunish uchun.
4. Sabab va oqibat o'zgaruvchilar o'rtaсидаги aloqaning mohiyatini aniqlash uchun kerakdir.

Sabab-oqibat tadqiqotlari (*causal research*) – marketingning yakuniy tadqiqotlar turi hisoblanib, uning vazifasi bo'lib, sabab-oqibat aloqalarining mavjudligini isbotlash uchun zarur bo'ladi.

Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda natija o'zgarishiga omillar ta'siri aniq ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta'siri o'rganiladi. Bular o'rtaсидаги bog'liqlikni asosan formulalarda ifodalab, ularga amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda hal qilish mumkin.

Sabab orqali oqibat yuzaga keladi. Xuddi shunday natijaning ham shakllanishiga bevosita omillar ta'sir qiladi. Ijobiy sabablar (omillar) yaxshi oqibatga, shuningdek, ijobiy omillar yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta'siri natijaning pasayishiga olib keladi. Shu tufayli tahlil jarayonida natija ko'rsatkichlariga omillar ta'sirini batafsil o'rganishga to'g'ri keladi.

Eksperimentlarning ikki xil turi mavjud: laboratoriya va dala tajribalari. Ulardan birinchisini o'tkazishda qo'shimcha omillarning ta'sirini yo'qqa chiqarish maqsadida sun'iy sharoitlar yaratiladi. Masalan, reklamaning har xil turlariga xaridorlarning reaksiyasini baholashda shunday xaridorlarni taklif etish kerakki,

ular jinsi, yoshi, ijtimoiy holati bo'yicha reprezentativ bo'lsin. Laboratoriya eksperimentlari qo'shimcha omillar ta'sirini nazorat qilishdan tashqari nisbatan arzon hisoblanadi va ularni o'tkazish uchun kamroq vaqt talab qilinadi.

Tayanch iboralar: sabab, oqibat, tajriba, "X" va "U" hodisalari, imitatsiya, variatsiya, ichki ishonchlilik, tashqi ishonchlilik, model, vaqt, dastlabki, haqiqiy eksperiment, *Chiziqli-eksperimental modeli*, *ehtimoliy* modeellar, standart, reklama va boshq.

Nazorat uchun savollar

1. Sabab – oqibat kategoriyasi nimalar kiradi va uning marketing tadqiqotlaridagi roli?
2. sabab-oqibat bog'liqligining mavjudligini isbotlab bering
3. Sabab – oqibat aloqalarining mohiyati nimalardan iborat?
4. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlilda natija o'zgarishiga omillar ta'siri qanday mezonlar bo'yicha aniqlanadi?
5. Vaqt mobaynidagi hodisaning yuz berish tartibini tushuntirib bering.
6. Tajribaning (eksperiment) ishonchliligi va unga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
7. Tajriba usulida tashqi va ichki omillarni ta'riflab bering.
8. Tajriba modellarini tasniflashda ichki va tashqi ishonchlilik o'zgaruvchanlikni aniqlang.
9. Dastlabki va Haqiqiy tajriba modellarning farqi nimada?
10. Imitatsiya nima va uning usullarini gapirib bering.

8-BOB. O'LCHASH VA SHKALALASHTIRISH

8.1. O'lchash va shkalalashtirish tushunchasi va mohiyati

Har qanday tadqiqot jarayonida, shu jumladan marketing tadqiqotlarida ham asosiy foydalanadigan vosita axborotlar bo'lib hisoblanadi. Ularni shakllantirish masalasi ham o'ta murakkabdir. Chunki ushbu tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar bilan birga juda ko'p birlamchi ma'lumotlarni ham to'plashga to'g'ri keladi. Shu tufayli ushbu axborotlarni shakllantirish bilan birga ulardan foydalanish masalasi ham o'ziga xos bo'ladi. Avvalom bor, korxonaning istiqbolini ko'zlashda va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda, bozorda o'z ulushiga ega bo'lish uchun va raqobat kompaniyalar tomonidan to'sqinlikka uchrashmaslik uchun to'g'ri tanlangan marketing tadqiqoti rejasini ishlab chiqish kerak. Chunki har bir tanlangan to'g'ri marketing tadqiqoti rejasni aniqlik va tejamkorlik omillarini ta'minlaydi.

Marketing tadqiqot rejasini ishlab chiqishda va aniqlashda, qanday axborot turini to'plash kerak?, degan savolda ko'pincha tadqiqotchilar to'g'ridan-to'g'ri o'lchash va shkalalashtirish muammosi bilan to'qnashadilar.

Demak, shkalalashtirish nima, nima uchun shkalalashtirish usulidan foydalanadilar?, ularning qanday turlari mavjud degan savollarga javob beramiz.

Shkalalarning asosiy to'rt xilini ko'rib chiqamiz: nominal, tartibli, intervalli va nisbatan. Undan tashqari qiyoslash va taqoslash turlari ham mavjud.

Masalan, sport sohasiga misol keltiradigan bo'lsak, ularning o'lchash, tartibga solish va ularni reytingini aniqlashda ushbu usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FIFA xalqaro futbol federatsiyasining reytingiga qaraganda, Braziliya 2012-yili 73,45 ballni, Germaniya esa 65,41ballni to'plab jahon 10 talik tarkida liderlikni qo'lga kiritdi.

Davlatlarning tartib raqami nominal shkala tartibini bildiradi, ranjirovka bo'yicha joylar tartibli hisoblanadi, (100-balldan) ifodalangan ballarning soni intervalli hisoblanadi. Shunday qilib 6-raqamli sonda Kolumbiya 10-o'rinni egallab 59,44 ballini yig'ganligi aniqlandi. Eslatib o'tamiz, Davlatlar raqami futbol borasida imkoniyatlarni belgilamaydi, uning identtsifikatsiya uchun ishlataladi. 7-raqam bilan Meksika davlati ifodalangan bo'lsada, lekin bu degani Meksika Kolumbiyadan yaxshi yoki yomon o'ynashida emas. Bu shkalalashtirishda ranjirovka o'rinalariga qaraladi. Meksikaning balli 60,80 bo'lsa Kolumbiyaniki 59,44 ballni tashkil etadi. Ballardagi farq esa intervalni anglatadi.


8.1- jadval

Shkalalashtirish tartibi

| Raqam | Davlat | O'rin | Ball |
|-------|-----------|-------|-------|
| 1 | Angliya | 4 | 61,26 |
| 2. | Braziliya | 1 | 73,45 |
| 3. | Germaniya | 2 | 65,41 |
| 4. | Daniya | 8 | 59,95 |
| 5. | Italiya | 9 | 59,59 |
| 6 | Kolumbiya | 10 | 59,44 |
| 7. | Meksika | 5 | 60,80 |
| 8. | Ruminiya | 7 | 60,35 |
| 9. | Fransiya | 6 | 60,36 |
| 10. | Chexiya | 3 | 64,92 |

Bundan kelib chiqadiki, O'lhash deb, oldindan aniqlangan qoidalarga asosan, obyektlar xarakteristikalarini son yoki boshqa simvollar orqali belgilanashini kuzatamiz. Shuni yodda tutish kerakki, o'lhash faqat xarakteristikalari va ba'zi parametrlari bilan aniqlanadi. Shunday qilib, biz iste'molchilarni o'lchamaymiz, ularni alohida tovarga bo'lgan munosabatlarini, ta'surotlarini, qabul qilishlarini, aloqalirini va boshqa relevant belgilari bo'yicha o'lchanadi. Birinchidan marketing

tadqiqotlarida olingen ma'lumotlar statistik ko'rsatkichlar uchun to'planadi. Ikkinchidan, esa, ular o' Ichash qoidalari va olingen natijalarning aloqalarini aniqlashga yordam beradi.



Shkalalashtirishda bir necha olimlar o' Ichov birliklari bilan tanishib chiqarniz. Buning uchun, anketa so'rov uslubidan foydalanamiz.

So'rovning navbatdagi bosqichida qaysi xizmat bo'yicha "yo'q" usuniiga ko'proq belgi qo'yilgan bo'lsa, o'shang ahamiyat beriladi va aynan qaysi jihatlaridan qoniqmayotganliklarini aniqlaydigan anketa tuziladi. Ushbu anketada belgilangan kamchiliklar aynan qaysi jihatlarga ahamiyat berilish lozimligi bo'yicha xulosa qilishga asos bo'ladi. Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilishga diqqatni qaratish va ularni zudlik bilan amalga oshirish lozim bo'ladi.

Ko'p variantli anketa so'rovchilar va so'raluvchilar uchun ham muhimdir. Buning ham bir qancha shakllari mavjud (8.2-jadval).

8.2-jadval
Ko'p variantli anketa - so'rovchilar shakllari

| Ko'p variantli anketa shakllari | Ko'p variantli anketa shakllarining mazmuni |
|------------------------------------|--|
| Nomi e'tirof etilgan shkala | Nomlari yozilgan xizmatlarga so'raluvchilar o'zlarining belgilarini qo'yadilar. Masalan: mehmonxonada 10 ta qo'shimcha xizmat turi |

| | |
|--|---|
| | ko'rsatiladi. Ularning ro'yxati tashrif buyurgan mehmonlarga tarqatiladi, ular mos ravishda zarurlariga belgi qo'yib qaytarib beradilar. |
| Tartibli shkala | Bu yerda so'raluvchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar asos qilib olinadi va shu jarayonga uiar tomonidan baho beriladi. Masalan: mehmonxonaning umumiy xizmatiga baho bering: a'lo, yaxshi, qoniqarli, yomon, juda yomon. Har birining to'g'risidagi kataknini qoralab belgilaydi. |
| Rensis Laykert shkalasi | Mazkur shkala muallifi. Ushbu holatda so'raluvchi o'zining rozilik darajasini bildiradi. Masalan, mehmonxona yuqori darajada xizmat qiladi: bu 1 dan 5 gacha baholanadi. 1-to'liq rozi emasman, 2-rozi emasman, 3-aytolmayman, 4-rozman, 5-to'liq rozman. |
| Semantik (mohiyatan) tabaqalinish | Bunda so'raluvchi bahosini qarama-qarshi antonimlar orqali baholaydi. Masalan "yomon-yaxshi", "foydali-befoyda", "arzon-qimmat", "shirin-achchiq", "toza-iflos", "yorug'-qorng'i" kabi. Baholashda 7 dan 1 gacha baho qo'yiladi. Eng yaxshi, 7 bo'lsa, 1 eng yomoni. O'rtaida 4 o'racha deb baholanadi. |
| Yan Stepel shkalasi | Mazkur shkala muallifi. Bunda yaxshi bilan birga salbiy jihat ham tabaqalangan holda baholanadi. Masalan, mehmonxona xizmatining sifati: yaxshi bo'lsa +5 dan 1 gacha. Yomon bo'lsa, -5 dan -1 gacha baholanadi. |
| Oraliqli shkala | So'raluvchilarning fikri ma'lum oraliqda belgilanadi. Masalan, Narxi: qancha so'mdan qanchagacha: Yoshi: necha yoshdan qancha yoshgacha; O'lchami: qanchadan qanchagacha va h.k. |
| Yuz qiyofasi shkalasi | Fikrni yuz qiyofasi bilan ifodalash |

Xuddi shu tarzda ochiq va yarim yopiq anketa shakli bo'yicha ham tegishli tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Anketaning qaysi shaklidan foydalanish bir qancha omillarga bog'liq:

- so'rovchining maqsadiga bog'liq, chunki mazkur anketa nima uchun kerakligi va qaysi muammoni hal qilishga qaratilganligi aniq bo'lishini taqozo qiladi;
- so'raluvchilarning qaysi kasbga, yoshga va tabaqaga mansubligiga bog'liq, chunki ular shu yo'naliishlar bo'yicha mehmonxona xo'jaligida ko'rsatiladigan xizmatlarga ham munosabati turlicha bo'ladi;
- so'rovchilarning qaysi vositadan foydalanishi qulayligiga bog'liq, chunki ayrim anketalar so'raluvchilarning vaqtি kamligi tufayli to'ldirish imkoniyati cheklangan bo'lishi yoki anketadagi qo'yilgan savollar hammaga ham tushunarli bo'lavermasligi mumkin.

Eng muhim, shu to'plangan ma'lumotlarni statistik tahlil qilib, tegishli xulosa chiqarish va marketing tadqiqotlari asosida qabul qilinadigan samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki to'plangan ma'lumotlarni albatta so'raluvchilarning ijtimoiy ahvolini inobatga olgan holda xulosa chiqarish lozim bo'ladi.

So'raluvchilardan olingan anketalarni quyidagi yo'naliishlar bo'yicha guruhlash maqsadga muvofiq:

- jinsi bo'yicha, chunki ayollar bilan erkaklarning xizmatlarga bo'lgan talabi bir-biridan farq qiladi. Buni tadqiqotning navbatdagi bosqichlarida albatta inobatga olish lozim;
- yoshi bo'yicha, chunki keksa kishi bilan yosh yigit yoki qizning talabi ham bir-biridan farq qiladi. Shu jihatdan yoshlar biroz erkin bo'lishi uchun keksalardan alohida bo'lishni xohlaydi;
- yashash joyi bo'yicha, odamlarning qishloqda yoki shaharda yashashiga qarab ham xizmatlarni tabaqaqlashtirish mumkin. Chunki shaharliklarning talabi bilan qishloq aholisining talab hamisha ham bir xil to'g'ri kelmaydi;
- ma'lumoti bo'yicha, chunki oliy ma'lumotli intellegentsiya bilan oddiy ma'lumotga ega bo'lmagan ishchining yashash tarzi ham xizmatlarga talabi ham turlicha bo'ladi;

- ijtimoiy ahvoli bo'yicha, chunki nafaqaxo'r, talaba, tadbirkor, o'qituvchi ular bir-biridan farq qiladi. Buni ham joyiga qo'yish kerak;
- daromad qilish darajasi bo'yicha, chunki serdaromad tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan turist albatta nafaqaxo'rga nisbatan xizmatlarga bo'lgan talabi va ehtiyoji ham ancha farq qiladi;
- kasbi bo'yicha, chunki ziyyoli insonlar bilan oddiy ishchi yoki fermerlarning xizmatlarga bo'lган talabi ham bir-biridan farq qiladi. Ushbu farqlarni qayerda qanday inobatga olishligini ham marketing tadqiqotlarini o'tkazayotgan mutaxassis yaxshi bilishi lozim va h.k.

Shkalalashtirish o'lchanayotgan obyektlarning ketma-ketlik kiritilishini aniqlaydi. Shkalalashtirish o'hashning davomi desak ham bo'ladi.

8.2. Shkalalarning asosiy turlari

Kundalik hayotda ko'philigimiz o'zimiz bilmagan holda turli hil o'lchov birliklariga duch kelamiz. Uyqudan uyg'onib soatga qaraymiz, kofega kerakli miqdorda shakar solamiz, kechikmasligimiz uchun transport vositalarini tanlaymiz. Taksi yoki avtobusda qancha daqiqada yetib borishimizni mo'ljallaymiz. Kechagi futbol qanday hisobda tugaganiga qiziqamiz va hk....

Biz o'lchaydigan ko'p narsalar aniq hisoblanib, ular pullar, bakdag'i benzin, telefonagi to'lov miqdori va boshqalarni bilgan holda hisoblab ularni kamchiliklarini va yetishmovchiligini bartaraf eta olamiz.


Ammo qanday qilib, insonlarning oddiy saqichga bo'lgan munosabatlарини о'hash mumkin ?

O'smirlarning husnbuzarga qarshi vositalarga qiziqishinichi ?

Oilalarning ijtimoiy holatinichi ?

Ushbu omillarni o'hash va ularni tartibga solish uchun bir qancha axborotlardan foydalanishimiz va toplashimiz zarur. Har


bir insonning biror bir tovarga yoki xizmatga bo'lgan shahsiy munosabatini bilish oson emas. Chunki har bir iste'molchining yashash tarzi, didi, istagi va xohishlari jihatdan ularni ehtiyojlarini bir-biriga yaqinlik va o'xshashlik xususiyatlaridan segmentatsion yondashuv orqali ifodaلانadi.



8.1.-rasm. Iste'molchining segmentatsion o'lchov birligi

Lekin bozor segmentatsiyasini aniqlagan va ularni guruhlarga bo'lib o'rgansa ham, ularning ehtiyojlarini o'lbash bir muncha mushkul masala hisoblanadi.

Shuning uchun biz, shkalalashtirishning turlari bilan tanishib chiqamiz. Yuqorida qayd etganimizdek, shkalalashtirish bir necha turlarga bo'linadi. Quyidagi 8.2-rasmda aks ettirilgan.



8.2. Marketing tadqiqotlarida shkalalashning turlari

1. Nominal shkala – identifikatsiya maqsadida obyekt yoki obyekt sinfini belgilaydi. Masalan: “Quyida keltirilgan ichimliklarni o’zingiz xoxlagan tarzda joylashtiring!”

1. “soke”
2. “dr. pepper”
3. “mountain dew”
4. “pepsi”
5. “seven up”
6. “sprite”

Ularni joylashtirish orqali qaysi ichimlikka bo’lgan moyilligingiz aniqlanadi. Ya’ni, “Sprite” ichimligini boshqa ichimliklarga nisbatan yuqori darajada yoqtirsangiz, ushu ichimlik nomini birinchi o’ringa va bu ichimlikdan so’ng oz-moz taqdirda shunga o’xhash ichimlik turini esa, masalan, “seven up” ichimligini ikkinchi o’ringa va shunga o’xhash harakatlar qilishingiz mumkin.

2. Intervalli (oralatib) shkala obyektning darajaviy jihatlarini belgilaydi. Ya’ni, har bir mahsulotga bo’igan munosabatingiz aniqlanadi.

Masalan: “Quyida keltirilgan ichimliklarni e’tiboriy darajaga muvofiq taqqoslang!

8.3-jadval

Intervalli shkalalashtirishning darajaviy jihatlari

| Juda yoqmaydi | Yoqmaydi | Yoqadi | Juda yoqadi |
|----------------|--------------|------------|-------------|
| “mountain dew” | “dr. pepper” | “seven up” | “sprite” |

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, bir mahsulot o’rnini vaqtı –vaqtı bilan ikkinchi mahsulot yoki bir ichimlik turi bo’limasa ikkinchi ichimlik turi chanqog’ini bosish borasida harid qilish va tanlash imkonini beradi.

Shuningdek, intervalli shkalalashtirish usuliga misol keltiradigan bo'lsak, Siz uyingizdan universitetgacha qancha vaqt oralig'ini bosib o'tasiz?

- 15 daqiqadan kam
- 15-20 daqiqqa
- 17-20 daqiqqa
- 30 daqiqadan ko'proq



Har bir daqiqqa oralig'iда ma'lum bir intervallni aniqlaymiz va ushbu intervalga keyingi kunlarda moslashamiz.

3. Nisbiy shkala – obyektning qiyosiy jihatlari miqdorini belgilaydi. Ushbu shkala turi interval va tartibli shkalalardan bir muncha afzalliliklarga ega. Chunki, ushbu tur tadqiqotchiga obyektning identsifikatsiyalaydi va tasniflab beradi. Shuningdek, intervallarni taqqoslaydi va farqini aniqlab beradi.



Masalan: "Quyida keltirilgan ichimliklarni ustunliklariga ko'ra 50 ballik tarzda baholang!"

8.4-jadval

Nisbiy shkalalashtirishning qiyosiy jihatlari

| 10 | 20 | 30 | 40 | 50 |
|-----------------|--------|----------|---------------|---------|
| “dr. pepper” | “soke” | “sprite” | “seven up” | “PEPSI” |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, iste’molchi o‘ziga yoqqan ichimlikni qiyosiy jihatda baholaydi. Ya’ni ichimliklarga nechchi ballik baholash usulini taqdim qilsayam, u o‘ziga yoqqan ichimlikni nisbiy shkalalashtirish tizimida yuqori ballni tanlaydi.

4. Tartibli shakalalashtirish turi – obyektning reytingi orqali tartib raqamini belgilaydi. Ushbu holda biron bir obyektning boshqa obyektga nisbatan berilgan tavsifnomasiga (xarakteristikasiga) qarab belgilanadi. Masalan: “Shahrimizdagi qaysi restoran Sizningcha birinchi beshtalikka kiradi?”

Shunday qilib, shakalalashtirishning turlari tadqiqotchi va izlanuvchilar uchun kerakli va yetarli aniq ma’lumotlar uchun juda katta foya keltiradi desak adashmaymiz. Chunki, ushbu ma’lumotlar orqali bitta obyekt uchun muntazam ravishda kerakli ma’lumotlarni yangilab turish va kuzatish orqali izlanuvchiga obyektning kamchiliklari yoki to’siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

8.3. Shkalalashtirish usullarini qiyoslash

Yuqoridagi bo‘limda biz shkalalashtirishning to‘rtta usullarini ko‘rib chiqdik. Ya’ni, nominal, tartibli, intervalli va nisbiy usullardir. Ushbu usllurga tegishli o‘lchov birliklari va qiymat darajasi orqali qiyoslanadi va taqqoslash darajalari belgilanadi.

8.5-jadval

Shkalalashtirish usullarini o'chovlari

| SHKALA | TAQQOSLOV CHI BIRLIGI | MISOLLAR | O'R TACHA QIYMATI |
|--------------------|------------------------------|----------------------------|--------------------------|
| NOMINAL | IDENTIFI-KATSIYA | FOYDALANISH/FOYDALANMASLIK | MODA |
| TARTIBLI | TARTIB | JITIMOY GURUHLAR | MEDIANA |
| INTERVAL LI | INTERVALNI TAQQOS-LASH | SAVDO BELGISIGA MUNOSABAT | O'R TACHA QIYMAT |
| NISBIY | USTUNLIKNI TAQQOS-LASH | SOTILGAN TOVARLAR MIQDORI | MIQDORIY MUNOSABAT |

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, har bir usul uchun berilgan qiyesiy darajalar belgilangan. Masalan, nisbiy usulni oladigan bo'lsak, unda o'rganilayotgan obyektlar yoki mahsulotlar nomlari ustunlari, sotilgan tovarlar hajmi va son jihatdan respondentlarning miqdoriy munosabati aniqlanadi.

Masalan, yuqorida misollardan birini qarasak, respondentlardan so'raladi: Coke yoki Pepsi istaysizmi?!. Bu taqqoslama shkala tartibli va rangli xususiyatlarga ega bo'lib, nisbiylik darajani anglatadi. Shuning uchun, taqqoslama shkalalashtirishni ba'zan o'chovsizlik deb ham atashadi.

Demak, *Taqqoslanaadigan shkalalar* obyektlarning to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash usullarining biridir.

Taqqoslama shkalalashtirishning asosiy afzalliklari shundan iboratki, ko'rinar-ko'rinnas farqlarni ajratib beradi. Ikki obyektni taqqoslashda respondentlar ikkalasidan birini tanlaydilar. Undan tashqari respondentlar berilgan ballar asosida moyillik vazifasini

bajaradilar. Shuning uchun taqqoslama shkalalashtirishni qo'llash va qabul qilishni izlanuvchilar e'tirof etadilar.

Yana boshqa afzalligi ushbu shkalalashtirishning shundaki, nazariy qo'llanmalarining ishlatalish ehtimoli kam va tanlash huquqi respondentlar uchun oson kechadi.

Taqqoslama shkalalashtirishning birgina kamchiligi, ularning tartibli tabiatidadir. Ya'ni, o'rganilayotgan ma'lum obyektlar sonining tahlil xossalari chegaralangan. Masalan, RC Colani Coke va Pepsilar bilan taqqoslashda yangi tadqiqot ishlarini olib borish lozim. Ushbu kamchiliklarni ma'lum bir darajada taqqoslanmaydigan shkalalashtirish usullari orqali bartaraf etishadi.

Taqqoslanmaydigan shkalalashtirish uslubi – (noncomparative scales) yuqoridaagi ikki usuldan biri bo'lib uning asosiy xususiyati har bir obyektning mustaqil baholash orqali aniqlanadi.



8.3-rasm. Shkalalashtirish uslublarning klassifikatsiyasi²⁴

Shkalalashtirish usullarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, marketing tadqiqotlarida ushbu uslublarning taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan uslublarga bo'lib o'rganish mumkin.

²⁴ Маркетинговые исследования Нэрш К. Малхотра Практическое руководство третье издания. Москва – Петербург. Киев. 2012. Перевод с англ. Переизд.

Taqqoslanadigan shkalalar (comparative scales) o'rganilayotgan obyektning to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan shkalalashtirish usulini qo'llashda ularni o'chovlashdirish deb ham atashadi. Unda har bir o'rganilayotgan obyekt boshqa obyektga tegishli emas bo'lib, mustaqil baholashda qo'llaniladi.

8.3-rasmdan ko'rinib turibdiki, taqqoslanadigan shkalalashtirishda juftli taqqoslash, tartibli taqqoslash va doimiy summali taqqoslash va boshqa operatsiyalar mavjud.

Shuningdek, taqqoslanmaydigan shkalalashtirish jarayonida olingen ma'lumotlar uzuksiz reyting yoki intervall shkalalashtirish asosida bajariladi. Masalan, respondentlardan Coke ichimligini 1 dan 6 gacha balli shkala bo'yicha baholash so'raladi. (1-judayam yoqmaydi, 6-juda yoqadi). Xuddi shu tarzda Pepsi va RC Cola ichimliklari ham baholanadi. Bunda 8.3-rasmga asosan taqqoslanmaydigan shkalalashtirish usuli bo'yicha shkalalalr uzuksiz yoki detallashtirilgan bo'lishi mumkin.

Detallashtirilgan reyting shkalasi bo'yicha o'z o'rinda yuqorida ta'kidlanganmizdek, quyidagi shkalalarga bo'linadi: Laykerta (Likert), Semantik (mohiyatan) tabaqlanish va Stepelya (Stapel) usullariga bo'linadi. Marketing tadqiqotlarida ko'pincha taqqoslanmaydigan shkalalashtirish o'chovlarini qo'llashadi.

8.4. Marketing tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil usullarini taqqoslash

Iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari eng qadimgi usullar bo'lib, ular tahlil vujudga kelgan kundan boshlab qo'llanilib kelinayotgan usullardir. Bularga qo'yidagilar kiradi: solishtirish usuli; muvozanat usuli (balans usuli); farqli usul; qayta hisoblash usuli; zanjirli almashtirish usuli; indeks usuli; integral usul; nishiy ko'rsatkichli usul, teng taqsimlash usuli kabilardir. Bundan tashqari, oldingi mavzularda ta'kidlanganidek, bir qancha statistik usullardan ham foydalilanadi.

Ushbu usullarning mazmuni quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan (8.6-jadval).

8.6-jadval

Marketing tadqiqotlarida qo'llaniladigan iqtisodiy tahlif usullarining mazmuni

| An'anaviy usullarning nomlari | An'anaviy usullarning mazmuni |
|-------------------------------|--|
| Solishtirish usuli | <p>Marketing tadqiqotini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullarning eng ko'p uchraydigan solishtirish usulidir. Bu usulni qo'llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko'rsatichning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo'ladi</p> $\Delta J = J_2 - J_{1,i}$ <p>Farq = Haqiqatda – Reja ; O'zgarish = Hisobot yili – asos yili ;</p> |
| Muvozanat usuli | <p>Muvozanat usulining qo'llanilishi iqtisodiyotning hamma sohalarida tuziladigan tovar va boshqa moddiy boyliklar muvozanati misolida ko'rish mumkin. Bunda asosan tovar muvozanati formulasidan foydalilanildi :</p> $3yb + KT = T + Xch + 3ox.$ <p>Bunda <i>Zyb</i> - tovar zaxirasining hisobot yili boshidagi qoldig'i;</p> <p><i>KT</i> - kelib tushgan tovarlarning hisobot yilidagi hajmi;</p> <p><i>T</i> - tovar oboroti (hisobot davrida sotilgan ovariarning hajmi);</p> <p><i>Xch</i> - tovarlarning turli sabablar bilan chiqib ketishi (tabiiy kamayishi, chirishi, sinishi va boshqalar);</p> <p><i>Zox</i> - tovar zaxiralarining hisobot yili oxiridagi qoldig'.</p> |
| Qayta hisoblash usuli | Bu usul natijaga bitta yoki ikkita omil ta'sir qilgan paytlarda qo'llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. |

| | |
|--------------------------------|---|
| | <p>Masalan, tovar oboroti (T) asosiy kapitalning o'rtacha qiymati (Ak) va shu kapitalning samaradorligi bilan funksional boqliq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:</p> $T = Ak \cdot Ks$ <p><i>Bunda Ks- Asosiy kapitalning samaradorligi.</i></p> <p>Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak_1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi (Ks_o), ya'ni: $T_{Ks} = Ak_1 \cdot Ks_o$</p> <p>Omillarning tovar oborotiga ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovar oborotining asosiy kapitalining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (Δ Tak) topish uchun tovar oborotining haqiqiy so'mmasidan (T_1) uning qayta hisoblangan miqdorini (T_{Ks}) ayirish kifoya (T_o): $\Delta Tak = T_{Ks} - T_o = (Ak_1 \cdot Ks_o) - (Ak_o \cdot Ks_o)$ <ol style="list-style-type: none"> 2. Tovar oboroti o'zgarishiga asosiy kapital samaradorligining ta'sirini (ΔT_{Ks}) aniqlash uchun tovar oborotining haqiqiy so'mmasidan (T_1) uning qayta hisoblangan miqdorini (T_{Ks}) ayirish kifoya : $\Delta T_{Ks} = T_1 - T_{Ks} = (Ak_1 \cdot Ks_1) - (Ak_1 \cdot Ks_o)$ <p>Ikki omilning ta'siri tovar oboroti farqining umumiy so'mmasiga teng bo'lishi kerak :</p> $\Delta T = \Delta Tak \pm \Delta T_{Ks}$ |
| Zanjirli atmashtirish usuli | <p>Natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sit qilsa, ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lsa ushbu usuldan foydalilanadi. Masalan, tovar oboroti (T) o'zgarishi xodimlarning ro'yxatdagi soni (X), ularning o'rtacha ish kunlari (K) va bir kunlik mehnat unurudorligi (M) ko'rsatkichlari bilan funksional boqliqdır. Bu quyidagicha ifodalanadi:</p> $T = X \cdot K \cdot M$ <p>Ushbu formula asosida natijaga uchta omil ta'sir, qilganligini ko'ramiz. Omilli tabdilning asosiy vazifasi natijaning shu har bir omil evaziga</p> |

| | |
|------------------------------------|---|
| | <p>o'zgarishini topishdan iboratdir. Zanjirli almashtirish usulidan foydalanadigan bo'lsak rejadagi natijani har bir omil evaziga qayta hisoblab olish lozim. Bu uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovar oboroti hajmining xodimlarning ro'yxatdagi soni o'zgarishi evaziga o'zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalilanildi: $\Delta T_x = T_x - T_0 = (X_1 \cdot K_0 \cdot M_0) - (X_0 \cdot K_0 \cdot M_0)$ <p>Bunda ΔT_x - tovar oborotining xodimlarning ro'yhatdagi sonining o'zgarishi ta'sirida o'zgargan qismi.</p> 2. Tovar oborotining ikkinchi omil, ya'ni xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha ish kunining o'zgarganligi evaziga o'zgarishini (ΔT_k) topish uchun quyidagi formuladan foydalilanildi: $\Delta T_k = T_k - T_0 = (X_1 \cdot K_1 \cdot M_0) - (X_0 \cdot K_1 \cdot M_0)$ 3. Natijaning uchinchi omil - mehnat unumdorligining ta'siri evaziga o'zgarishini topish uchun quyidagi formuladan: $\Delta T_m = T_m - T_0 = (X_1 \cdot K_1 \cdot M_1) - (X_0 \cdot K_1 \cdot M_0)$ <p>Bu uchta omilning ta'siri tovar oborotining umumiyl farqiga (ΔT) teng bo'lishi kerak:</p> $\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_k \pm \Delta T_m$ |
| Nisbiy miqdordan foydalanish usuli | <p>Bu usul ham omilli tahlilda keng qo'llaniladi, chunki amalda mutloq raqamlar bilan birgalikda nisbiy miqdorlarning qo'llanilishi ham tez uchrab turadilar.</p> <p>Nisbiy miqdordan foydalanish usulining mohiyati natijaga omillar ta'sirini aniqlashda ularning nisbiy o'zgarishi natijaning nisbiy o'zgarishidagi ulushida ifodalanishidir. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yalpi mahsuloti hajmi (M), ishchilar soni (I) va ularning mehnat unumdorligi darajasiga (MU) bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalandi :</p> $M = I \cdot MU$ <p>Nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish uchun ushbu formuladagi natija va omillarning o'sish sur'atlari olinadi. Hisob-kitoblarda ana shu nisbiy</p> |

| | |
|--------------|--|
| | <p>ko'rsatkichlar ishtirok etadi.</p> <p>Masalan, yalpi mahsulotning ishchilar sonining o'zgarishi evaziga o'zgarganligini topish uchun ishchilar sonining o'sish sur'atini (ΔI) yuzga ko'paytirib yalpi mahsulotning o'sish sur'atiga bo'linadi (ΔM):</p> <p>$\Delta I . 100$</p> <p>$\Delta M_i = \dots$</p> <p>ΔM</p> <p>Natijaga ikkinchi omilning - mehnat unumdorligining ta'sirini (ΔM_{mu}) aniqlash uchun yuzdan shu chiqqan natija miqdori, ya'ni birinchi omilning natijaga ta'siri ayrıldi:</p> <p>$\Delta I . 100$</p> <p>$\Delta M_{mu} = 100 - \dots$</p> <p>$\Delta M$</p> |
| Indeks usuli | <p>Indeks usulidan foydalanganda omillar ta'sirini individual indekslar orqali ham hisoblash mumkin. Masalan, poyafzal buyumlari bo'yicha tovar oboroti hajmiga xizmat ko'rsatilayotgan aholining soni (A), o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasi (I) va o'rtacha baho (R) ta'sir qiladi. Bu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:</p> <p>$Q = A . I . R$</p> <p>Bunda Q - poyafzal buyumlari bo'yicha tovar oborotining umumiy hajmi.</p> <p>Ushbu omillarning tovar oborotiga ta'sirini aniqlash uchun ularning individual indekslari aniqlanadi.</p> <p>Poyaſzal sotilishining umumiy hajmiga omillar ta'sirini individual indeksini qo'llab yechadigan bo'lsak u quyidagi bog'lanishga ega bo'ladi :</p> <p>$JQ = ia . ii . ip$</p> <p>Natijaga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi :</p> <p>1. Aboli sonining asos yiliga nisbatan 0,5 ming kishiga (10,9 - 10,4) oshishi poyafzal mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirgan va shuning evaziga poyafzal sotilishining umumiy hajmi 47,0 ming so'mga ko'paygan :</p> |

| | |
|--|---|
| | <p>$(Q_a = (Q_0 + i_a) - Q_0 = (978,8 + 1,048) - (978,8)$ $= 1025,8 - 978,8 = +47,0 \text{ ming so'm}.$</p> <p>2. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan poyafzal buyumlariga bo'lgan iste'mol darajasining 0,3 juftga (2,9 - 2,6) oshishi poyafzal sotilishi hajmini ko'paytirishning asesiy omili bo'lgan. Bu omil ta'sirida o'rganilayotgan ko'rsatkich 118,0 ming so'mga oshgan:</p> $(Q_i = (Q_0 + i_a + i_i) - (Q_0 + i_a) = (1025,8 + 1,115) - 1025,8 = 1148,8 - 1025,8 = + 118,0 \text{ ming so'm}.$ <p>3. Poyafzalning o'rtacha bahosi 1,2 so'mga oshgan (37,4 - 36,2)</p> <p>Bu omil evaziga tovar oboroti 38,4 ming so'mga ko'paygan :</p> $\Delta Q_t = (Q_0 + i_a + i_i) - (Q_0 + i_a) = 1143,8 + 1,034 - 1148,8 = 1182,2 - 1148,8 = + 38,4 \text{ ming so'm}.$ <p>Hamma omillar ta'sirining yig'indisi poyafzal sotilishi umumiyligi hajmining hisobot yilida, asos yiliga nisbatan umumiyligi farqini beradi:</p> $\Delta Q = \Delta Q_a \pm \Delta Q_i \pm \Delta Q_t = 47,0 + 118,0 + 38,4 = + 203,4 \text{ ming so'm}.$ <p>Omilli tahlilda qo'lliamiladigan usullardan ancha qo'layi indeks usutidir, chunki bu usulni qo'llash jarayonida bir vaqtning o'zida omillarning natijaga ham mutloq, ham nisbiy ta'sirini aniqlash mumkin.</p> |
|--|---|

Farqlash usuli

Farqlash usulining mohiyati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omillarning farqi olinib qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab asos yoki hisobot davridagi miqdori olinadi. Masalan, natija ko'rsatkichi (tovar oboroti) bilan unga ta'sir qiluvchi omillar xodimlarning ro'yxatdagi soni (X) va mehnat unumдорлиги (MU) o'rtaсидаги bog'ланиш quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$T = X \cdot MU$$

Ushbu formuladagi omillarning ta'sirini farqlash usuli bilan aniqlaydigan bo'lsak, birinchi omil, ya'ni xodimlarning ro'yxatdagi sonining tovar oborotiga ta'sirini (ΔT_x) hisoblash uchun shu

| | |
|---------------|--|
| | <p>omilning farqini ($X_1 - X_0$) ikkinchi omil, ya'ni mehnat unumdorligining asos (reja) ko'rsatkichiga (MU_0) ko'paytiriladi:</p> $\Delta T_x = (X_1 - X_0) \cdot MU_0$ <p>Ikkinchi omil, ya'ni mehnat unumdorligining tovar oboroti hajmi o'zgarishiga ta'sirini (ΔT_{mu}) topish uchun shu omilning farqi olinadi ($MU_1 - MU_0$) birinchi omil - xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi sonining hisobot davridagi miqdoriga (X_1) ko'paytiriladi:</p> $\Delta T_{mu} = X_1 \cdot (MU_1 - MU_0)$ <p>Shu ikki omilning ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:</p> $\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_{mu}$ |
| Integral usul | <p>Bu usul bir tomonidan an'anaviy usullarga, ikkinchidan esa matematik usulga mansub takomillashgan usuldır. Natija ko'rsatkichiga alohida omillar ta'sirini integral usuli bilan aniqlash farqlash, zanjirli almashtirish kabi usullarning takomillashgan shaklidir. Integral usulinining ijobiy tomonidan biri shundan iboratki, agarda zanjirli almashtirish yoki farqlash usullarida omillar, ketma-ketligi o'zgarsa, ularning natija o'zgarishiga ta'sir har xil bo'ladi. Bu usulda esa yoki bu omilning ta'sirini hisoblashda kelma-ketlikka rioya qilishni talab qilmaydi. Omillarning ketma-ketligi o'zgarishidan qat'iy nazar omillar ta'siri hamisha bir xil, eng muhimi to'g'ri topiladi. Integral usuli bilan bog'liq hisoblar bir tarafdan matematik tahlil asoslarini bilishni talab qilsa, boshqa tomonidan zanjirli almashtirish usuliga nisbatan hisoblarni bajarishni taqozo qiladi. Shu sababli bu usulning qo'llanilishi EXM sharoitida yaxshi samara beradi. Natija ko'rsatkichga omillar ta'sirini hisoblashning turli shakllari mavjud. Natijaga ikkita omil ta'sir qiladigan bo'lsa, quyidagi bog'liqlik bo'ladi:</p> $U = X_1, X_2$ <p>Bu holda omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi :</p> |

| | |
|------------------------------------|--|
| | <p>Natija o'zgarishiga birinchi omilning ta'siri:</p> <p>1 $\Delta Ux_1 = X_2^0 \cdot \Delta X_1 + (--- * (\Delta X_1, \Delta X_2))$</p> <p>2</p> <p>Natija o'zgarishiga ikkinchi omilning ta'siri:</p> <p>1 $\Delta Ux_2 = X_1^0 \cdot \Delta X_2 + (--- (\Delta X_1, \Delta X_2))$</p> <p>2</p> |
| Kichik sonlardan foydalanish usuli | <p>Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy - marketing tadqiqotini to'g'ri va haqqoniy baholash lozimligini hayot taqozo qilmoqda. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyat natijasini baholashning asosiy mezoni umumlashgan ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishi edi. Endilikda faqat bunday ko'rsatkichlar bilan natijaga to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun tahlilda qo'llaniladigan kichik sonlar usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.</p> <p>Bu usulning mohiyati shundaki, agar firma birdaniga birqancha faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, yoki birqancha mahsulot ishlab chiqarayotgan bo'lsa hammasidan foya olishi, manfaatdor bo'lishi lozim. Aks holda, hozirgi sharoitda bir qism faoliyat samarasiz bo'ladi, u faqat firmaga zarar keltiradi.</p> <p>Iqtisodiy tahlil jarayonida juda ko'p matematik modellar qo'llaniladi. Ularning ko'p uchraydiganlari qo'yidagilardir: additiv model, multiplikativ model, kasirli model</p> |

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan deyarli barcha usullarni marketing tadqiqotlarida ham foydalanish mumkin ekan.

Qisqa xulosalar

Har qanday hodisa va jarayonning vaqtı, belgisi, o'lchami bo'ladi. Ushbu bobda har qanday tadqiqot turlari jarayonini shakllantirish va axborot toplashda o'lcash va shkalalashtirishning mazmun va mohiyatini batafsil tushuntirib berildi.

Har qanday tadqiqot jarayonida, shu jumladan marketing tadqiqotlarida ham asosiy foydalanadigan vosita axborotlar bo'lib hisoblanadi. Ularni shakllantirish masalasi ham o'ta murakkabdir. Chunki ushbu tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar bilan birga juda ko'p birlamchi ma'lumotlarni ham toplashga to'g'ri keladi. Shu tufayli ushbu axborotlarni shakllantirish bilan birga ulardan foydalanish masalasi ham o'ziga xos bo'ladi.

Kundalik xayotda ko'pchiligidan o'zimiz bilmagan holda turli hil o'lebov birliklariga duch kelamiz. Uyqudan uyg'onib soatga qaraymiz, kofega kerakli triqdorda shakar solamiz, kechikmasligidan uchun transport vositalarini tanlaymiz, taksi yoki avtobusda qancha daqiqada yetib borishimizni mo'ljalaymiz. Kechagi futbol qanday hisobda tugaganiga qiziqamiz va hk....

Taqqoslama shkalalashtirishning asosiy afliklari shundan iboratki, ko'rinar-ko'rinas farqlarni ajratib beradi. Ikki obyektni taqqoslashda respondentlar ikkalasidan birini tanlaydilar. Undan tashqari respondentlar berilgan ballar assosida moyillik vazifasini bajaradilar. Shuning uchun taqqoslama shkalalashtirishni qo'llash va qabul qilishni izlanuvchilar e'tirof etadilar.

Yana boshqa afzilliki ushbu shkalalashtirishning shundaki, nazariy qo'llanmalarning ishlatish ehtimoli kam va tanlash huquqi respondentlar uchun oson kechadi.

Iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullari eng qadimgi usullar bo'lib, ular tahlil vujudga kelgan kundan beshlab qo'llanilib kelinayotgan usullardir. Bularga qo'yidagilar kiradi: solishtirish usuli; muvozanat usuli (balans usuli); farqli usul; qayta hisoblash usuli; zanjirli almashtirish usuli; indeks usul; integral usul; nisbiy

ko'rsatkichli usul, teng taqsimlash usuli kabilardir. Bundan tashqari, oldingi mavzularda ta'kidlanganidek, bir qancha statistik usullardan ham foydalaniadi.

Shkalalashtirish usullarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, marketing tadqiqotlarida ushbu uslublarning taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan usublarga bo'lib o'rganish mumkin. Taqqoslanadigan shkalalar (comparative scales) o'rganilayotgan obyektning to'g'ridan - to'g'ri qiyoslash hisoblanadi.

Shkalalashtirish usullarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, marketing tadqiqotlarida ushbu uslublarning taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan usublarga bo'lib o'rganish mumkin. Taqqoslanadigan shkalalar (comparative scales) o'rganilayotgan obyektning to'g'ridan - to'g'ri qiyoslash hisoblanadi.

Tayanch iboralar: o'lchash, shkalalashtirish, nominal, tartibli, intervalli, nisbatan, qiyoslash, taqqoslash, ranjirovka, ko'p variantli anketa, Laykret shkalasi, tartibli shkala, semantik shkala, Stepl shkalasi, oraliqli shkala, shkala klassifikatsiyasi, taqqoslama tahsil va boshq.

Nazorat uchun savollar

1. O'lchash va shkalalashtirishning mohiyati va mazmunini tushuntirib bering.
2. Shkalalashtirish tartibi xarakteristikasini gapirib bering.
3. Ko'p variantli anketaning shaklini tavsiflab bering va unimma uchun qo'llanilishini tushuntirib bering.
4. Laykret shkalasining mezonlari va ishlatalish tartibi qanday?
5. Shkalalarning asosiy turlari nimalardan iborat?
6. Nominal shkalada taqqoslaydigan va taqqoslanmaydigan uslublarning farqi nimada?
7. Intervalli shkalaning asosiy jihatlari nimalardan iborat?

8. Nisbiy obyektning qiyosiy jihatlari miqdorini belgilashda asosiy mezon nimadan iborat?
9. Detallashtirilgan oeyting shkalasi nima?
10. Solishtirish va muvozanat usulining farqi nimada?

1. Nisbiy obyektning qiyosiy jihatlari miqdorini belgilashda asosiy mezon nimadan iborat?

2. Detallashtirilgan oeyting shkalasi nima?

3. Solishtirish va muvozanat usulining farqi nimada?

9-BOB. STATISTIK TANLASHNI SHAKLLANTIRISH

9.1.Tanlovnii shakllantirish jarayoni

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish va unda ma'lumotlarni miqdoriy va sifat jihatidan saralashda albatta, statistika nazariyasidan foydalanimiz. Chunki statistik miqdoriy hisob-kitoblargina orqali ma'lumotimiz to'liq va aniq javobini izlanuvchi uchun taqdim etadi.

Bugungi kunda tadqiqotlarning oldiga shunday muammolar qo'yadiki, bu muammolar yechimini topish uchun va maqsadga erishishimiz uchun bir necha vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yadi. Ular quyidagilardir:

- tanlama to'plamning zaruriy miqdorini aniqlashning ayrim usullarini muhokama qilish;
- tanlama statistika va bosh to'plami tavsifnomalari konsepsiyasini taqdim etish;
- ishonch oralig'i va oraliqli baholash nima ekanligini bilib olish;
- oddiy tasodifiy tanlama to'plam miqdori qanday aniqlanishini ko'rsatish;
- stratifikasiya qilingan va ko'p pog'onali tanlama guruh miqdori qanday hisoblanishini ko'rsatishdan iborat.

Marketing tadqiqotlari davomida ko'pincha tanlama to'plam miqdorini aniqlash masala yuzaga keladi. Uni bilmagan holda so'rovni rejalashtirish va o'tkazishning ham imkon bo'lmaydi. Tanlama to'plam miqdorini aniqlashning yechimi tadqiqot qiymati bilan bog'liq, shu sababli u asoslangan bo'lishi lozim.

Mazkur bobda tanlama to'plam miqdorini aniqlashga bir nechta amaliy yondashuv taqdim etiladi. Ular guruh miqdorini aniqlash bo'yicha asosli qaror qabul qilishga imkon beradi va ko'pincha marketing tadqiqotlari o'tkazishda foydalilanadi. Biroq guruh miqdorini aniqlashga rasmiy – statistika nazariyasidan foydalangan holdagi yondashuv ham mavjud.

Mazkur yondashuvni tushunish bir nechta sababga ko'ra foydali hisoblanadi. Birinchidan, ayrim holatlarda u guruh miqdori bo'yicha aniqroq qaror qabul qilishga imkon beradi.

Ikkinchidan, bevosita nazariyadan foydalanish qiyin bo'lsada, u ko'pincha bunday qarerlar qabul qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mazkur bobda tanlama guruh bilan bog'liq bo'lgan, jarayonni eng yaxshi tushunishga xizmat qiladigan ayrim muhim konsepsiya va atamalar kiritiladi.

Umuman olganda, marketing tadqiqotlarida tanlash nima uchun zarur? Ushbu savolning javobi oddiy, ammo amalga oshirish mexanizmi biroz e'tiborni talab qiladigan jarayondir. Har bir tadqiqotchi oldida, masalan, bitta masalaning yechimini topish lozim bo'ladi. Bunga ma'lum tovardan qancha, qayerda va qay vaqtida sotish kerakligini aniqlashi lozim bo'ladi. Bunda juda ko'p do'konlar, tadbirkorlar ishtirok etishi mumkin. Agar to'g'ri va aniq xulosa chiqarish uchun ushbu to'plamga kiradigan barcha subyektlar o'r ganilsa yaxshi bo'lgan bo'lardi. Ammo ularning ko'pchiligi uchun buni amalga oshirishning imkonini bo'lmasligi mumkin. Bunday holda umumiyl xulosa qilish uchun ularning bir qismini tanlab olinadi. Bu tanlangan to'plamni tanlab kuzatish deyiladi.

Tanlab kuzatish natijasida umumiyl to'plam haqida umumiyl xulosa qilinadi. Bularning ketma-ketligi quyidagi rasmda keltirilgan (9.1-rasm).



9.1-rasm. Tanlab kuzatish orqali umumiyl xulosa qilish ketma-ketligi

Tanlab kuzatilgan to'plam barcha to'plamdagi mohiyatni o'z ichiga olishi va unga mos bo'lishi lozim. Masalan, to'plamdagi iste'molchilarining tarkibini oladigan bo'lsak, yarmi ayollar va yarmi erkaklar bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqib, kuzatishga tanlab olinganlarning ham yarmi erkaklar va yarmi ayollar bo'lishligini taqozo qiladi. Faqat erkaklar iste'molini tanlab

kuzatish natijasi butun to'plam bo'yicha aniq qaror qabul qilish imkonini bermaydi. Chunki ayollarning iste'moli erkaklarnikiga nisbatan farq qilishi tabiiy. Tovar turlari bo'yicha ham xuddi shunday misollarni keltirish mumkin. To'plamda o'nta tovar bo'lsa, faqat uning bittasini tanlab olib, hammasiga tadbiq qilib bo'lmaydi, chunki har bir guruh tovarning o'ziga xos jihatlari mavjud. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining ahvoldidan va aniq vaziyatdan kelib chiqib yondoshmoqlari lozim. Bunda mutaxassislar oldida quyidagi savollar bo'lishi mumkin:

- mahsulotni qancha ishlab chiqarish lozim?
- qanday mahsulot ishlab chiqarish mumkin?
- ushbu mahsulotlar qaysi bozorda sotiladi?
- bularning narxi qanchadan bo'ladi?
- bozorgacha qanday yetkaziladi?
- bozorda mahsulotlar qancha va qanday saqlanadi?
- sotish shakli (ulgurji yoki chakana) qanday bo'ladi va h.k.

Mutaxassis ushbu savollarga aniq javob topgach bevosita jarayonni amalga oshirishga kirishishi mumkin.

Tanlangan jarayonni samarali boshqarish uchun endi bevosita statistik kuzatishga o'tish mumkin.

Statistik kuzatish deganda, ijtimoiy hodisalar va jarayonlar haqidagi dalillarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan holda to'plash asosida ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni tushuniladi.

Statistik kuzatish bir qancha jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- statistik kuzatish orqali dastlabki ma'lumetlarni to'plash;
- ma'lumotlarni tizimlashtirish va guruhash;
- ma'lumotlarni har tomonlama tavsiflash;
- ma'lumotlarni umumlashtirish, hisoblish va tahlil qilish.

Shuni inobatga olish lozimki, iqtisodiy tahlilda ma'lumotlar asosan rasmiy hisobotlardan olinadi va hisob hamda hisobot ma'lumotlariga tayanadi. Statistik tahlilda ko'p hollarda ma'lumotlar hisobot ma'lumotlari bilan birga tayyor holda uchramaydigan ma'lumotlarni ham turli usullar bilan shakllantiradi. Bunday usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- anketa so'rovi (yo'zma, og'zaki);

- dalillarni (faktlarni) yozib borish;
- hisob va hisobotlar ma'lumotlaridan bevosita foydalanish;
- ommaviy tarzda ro'yxatga olish (aholi va boshqa ashyo va boyliklarning ro'yxati);
- bevosita jarayonni kuzatib, xronometraj qilish;
- aholi byudjetini tanlab o'r ganish kabilar.

Tanlama kuzatish deyilganda statistikada o'r ganilishi lozim bo'lgan to'plamdan zaruriy miqdordagi birliklarni maxsus usullar bilan tanlab olinishi va ularning bosh to'plamga tarqatilishi tushuniladi.

O'r ganilish lozim bo'lgan to'plam bosh to'plam, tekshirish uchun undan tanlab olingani esa tanlama to'plam deb ataladi. Bosh va tanlama to'plamlarning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

9.1-jadval

Bosh va tanlama to'plamlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar

| Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar | Bosh to'plamda | Tanlama to'plamda |
|---|---|---|
| To'plamdagи birliklar soni | N | n |
| To'plamda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar | | |
| a) soni | M | M |
| b) salmog'i | $P = \frac{M}{N}$ | $\varpi = \frac{m}{n}$ |
| O'rtacha daraja | $\bar{x} = \frac{\sum x}{N}$ | $\bar{x} = \frac{\sum x}{n}$ |
| Dispersiya | $\sigma^2 = \frac{\sum (x - \bar{x})^2}{N}$ | $\sigma^2 = \frac{\sum (x - \bar{x})^2}{n}$ |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinish turibdiki, to'plamda ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar soni ham qaysi tur tanlab olingan bo'lsa, o'shangaga mos bo'lishi kerak va mos ravishda,

ularning salmog'i ham to'g'ri kelishi kerak. Masalan, o'rganilayotgan mahsulot umumiy mahsulotlar ichida 9,5 %ni tashkil qiladi, deb faraz qiladigan bo'lsak, tanlab kuzatilgan miqdor ham aynan shu tur bo'yicha 9,5 %ga teng bo'lishi kerak. Shundagina tanlab kuzatilgan to'plamning vakolatliligi ta'minlanadi.

Tanlama kuzatish quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- vaqt va moddiy mablag'larni tejash;
- kuzatish jarayonida sifati buziladigan yoki qiymatini butunlay yo'qotadigan birliklar miqdorini qisqartirish;
- umumiy to'plam haddan tashqari katta bo'lib, uni yoppasiga kuzatish imkoniyati bo'limganda;
- kuzatish obyektni to'laroq o'rganish;
- yoppasiga kuzatish natijalarini tekshirish, nazorat qilish.

Tanlama kuzatish ma'lumotlari bilan bosh to'plamni taysiflash ularning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi. Buning uchun tanlama bosh to'plamning barcha muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Agar tanlamada bosh to'plamning muhim xususiyatlari namoyon bo'lsa, u holda u reprezentativ (vakolatli) deyiladi.

Tanlama qanchalik reprezentativ bo'lishidan qat'iy nazar, bosh va tanlama ko'rsatkichlar o'tasida doimo tafovutlar bo'ladi. Chunki bosh to'plamda tanlamaga kiritilmagan boshqa birliklar ham bor. Ana shu tafovutlar tanlamaning reprezentativlik xatolari deyiladi. Bu xatolar faqat tanlama kuzatishga xos bo'lib, ular ikki turga bo'linadi: tasodifiy va muntazamtanlash guruhlariга kiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy to'plam va tanlab olingan to'plamaар bir-biriga mos bo'lishligini ta'minlashni taqozo qilar ekan.

9.2.Tasodifiy tanlovni shakllantirish

Bosh to'plamdan birliklarni tanlab olish qoidalariга qarab, tanlash quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin: tasodifiy, mexanik, tipik, seriyali (uyali) kombinatsiyali va rayonlashtirib tanlash.

Tasodifiy tanlash. Bosh to'plamdan birliklar qur'a yoki chek tashlash yo'li bilan olinsa, bunday tanlash to'la tasodify tanlash deyiladi. Tanlashning bu usuli keng tarqalgan bo'lib, bunda to'plamning har birligi uchun tartib raqamli jeton yoki bilet tayyorlanadi. Keyin ulardan tasodifiy tartibda to'plam birligining kerakli bo'lgan miqdori (birligi) saraab olinadi. Bunday sharoitda to'plam birliklarining har biri tanlovga tushishining bir xil ehtimoliga ega bo'ladi. Tasodifiy tanlashga misol qilib yutuqli o'yin tirajlarini olishimiz mumkin, bunda chiqarilgan biletlarning umumiyligi miqdoridan tasodifiy ravishda tavakkaliga nomerlarning ma'lum qismi tanlanadi va ular yutiq chiqqan nomerlarni tashkil qiladi. Bunda hamma nomerlar uchun tanlanma to'plamga tushish uchun teng imkoniyat ta'minlanadi.

Mexanik tanlash. Bosh to'plamdan birliklar ma'lum oraliq bo'yicha tanlab olinsa, bunday tanlash mexanik tanlash deb yuritiladi. Mexanik tanlashni amalga oshirish uchun bosh to'plamning birliklari biror belgisi bo'yicha (masalan, alifbo, o'sishi, kamayishi va h.k.) tartib bilan joylashtiriladi va raqamianadi, so'ngra oraliq kattaligi aniqlanadi. Oraliq kattaligi (i) qilib bosh to'plam miqdorining (N) tanlama miqdoriga (n) nisbati olinadi, ya'ni

$$i = \frac{N}{n}$$

Tipik tanlash. O'r ganilayotgan to'plam birliklari muhim, tipik belgi bo'yicha sisfat jihatdan bir xil, bir turdag'i guruhlarga bo'linadi. Keyin har qaysi guruhdan tasodifiy usul bilan biriikkilar tanlanadi, bu tanlov guruhining bosh to'plamdag'i salmog'iga proporsional ravishda bo'lishi kerak.

Tanlamaning reprezentativ xatolari va o'rtacha xatoni aniqlash tartibi

Tanlamaning reprezentativlik xatolari (Δ) tanlama ($x, \tilde{\sigma}^2, \omega$) va bosh ($X, \bar{\sigma}^2, \rho$) ko'rsatkichlarning ayirmalariga teng, ya'ni:

$$\Delta = \tilde{x} - \bar{x}; \quad \Delta_{\sigma^2} = \tilde{\sigma}^2 - \sigma^2; \quad \Delta_{\omega} = \omega - \rho$$

Tanlama ko'rsatkichlarda ikki turdag'i xatoni aniqlash mumkin:

- tanlama ko'rsatkichlardi o'rtacha xatolar;
- tanlama ko'rsatkichlarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'igan xatolar.

Tanlama ko'rsatkichlarning o'rtacha xatolari quyidagicha hisoblanadi (9.2-jadval).

9.2-jadval

Tanlama to'plamda o'rtacha xato (μ) ni hisoblash tartibi

| Tanlash tarxlari | O'rtacha xato | |
|--------------------|--|--|
| | o'rtacha uchun | salmoq uchun |
| Takrorlanuvchi | $\mu_s = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}}$ | $\mu_w = \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}}$ |
| Takrorlanmaydi-gan | $\mu_s = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}(1 - \frac{n}{N})}$ | $\mu_w = \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}(1 - \frac{n}{N})}$ |

Tanlama ko'p marta qaytarilaversa, tanlama to'plamning umumlashtiruvchi natijalari bilan bosh to'plam natijalari o'rtasida tafovut, matematikada isbot etilganidek, o'rtacha kvadratik tafovut orqali tavsiflanadi:

$$\mu = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}} \text{ va } \mu = \sqrt{\frac{\omega(1-\omega)}{n}}$$

Agar har bir aniq sharoitda tanlama kuzatish bir marotaba o'tkazilib, olingan natijalarni baholash masalasi tug'ilgan bo'lsa, u holda R(t) ehtimol (ishonch darajasi) bilan xatolarning yuqori chegaralarini aniqlash usuli orqali yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato hisoblanadi:

$$\Delta_a = t \cdot \mu.$$

Demak, ixtiyoriy tanlama ko'rsatkich (a) xatosining yuqori chegarasi

(Δ_a) uning o'rtacha xatosi (μ) bilan **ishonch koeffitsientining** (t) ko'paytmasiga teng.

R(t) extimol bilan ishonch koeffitsienti (t) o'rtasidagi bog'lanish ushbu integral bilan ifodalanadi:

9.3 –jadval

Tanlama to‘plam o‘rtachasi bilan bosh to‘plam o‘rtachasi

| | | | | | |
|------|-------|-------|-------|-------|-------|
| t | 1,00 | 1,96 | 2,00 | 2,58 | 3,00 |
| P(t) | 0,683 | 0,950 | 0,954 | 0,990 | 0,997 |

Bu yerda t tanlama to‘plam o‘rtachasi bilan bosh to‘plam o‘rtachasi o‘rtasidagi farqning ($\tilde{x} - \bar{x}$) o‘rtacha kvadratik tafovutga (σ) bo‘linganiga teng:

$$t = \frac{\tilde{x} - \bar{x}}{\sigma}$$

Tanlama kuzatishni loyihalashtirishda oldindan berilgan tanlamadagi yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan tanlama to‘plamning sonini to‘g‘ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki bu kuzatish natijalarini ma’lum ehtimollikda aniq bo‘lishini ta’minlaydi. Tanlamaning zaruriy miqdorini aniqlash formulalarini tanlamaning xatosini topish formulalari asosida topsa bo‘ladi.

Tasodifiy takrorlanadigan tanlashda o‘rtacha uchun:

$$n = \frac{t^2 \sigma^2}{\Delta^2} \quad (\text{takrorlanadigan}); \quad \text{salmoq uchun } n = \frac{\omega(1-\omega)t^2}{\Delta^2};$$

Tasodifiy takrorlanmaydigan va mexanik tanlash uchun:

$$n = \frac{t^2 \sigma^2 N}{N \Delta^2 + t^2 \sigma^2} \quad (\text{takrorlanmaydigan});$$

Tipik tanlash uchun: $n = \frac{t^2 \overline{\sigma^2} N}{N \Delta^2 + t^2 \overline{\sigma^2}}$ (takrorlanmaydigan);

Seriiali tanlash uchun: $r = \frac{t^2 \delta^2 R}{R \Delta^2 + t^2 \delta^2}$ (takrorlanmaydigan)

Seriiali (uyali) tanlash: Bunda tekshirishga to‘plamning alohida birliklari emas, balki tasodifiy yoki mexanik usulda tanlangan bir butun guruhlari (seriyalar, uyalar) olinadi.

Har bir guruh (seriya)da yoppasiga kuzatish o‘tkaziladi va buning natijalarini bosh to‘plamga yoyiladi.

Takrorlanuvchi tanlash. Har bir tanlab olingan birlik yoki seriya bosh to‘plamga qaytariladi va yana tanlovga tushishi mumkin. Bu usul qaytib keluvchi shar sxemasi deb hani yuritiladi.

Takrorlanmaydigan tanlash. Har bir tekshirilgan birlik ajratib olinadi va to'plamga qaytarilmaydi, shuning uchun ham u birlik qayta tekshirishga tushmaydi. Bu usul qaytmaydigan shar sxemasi nomini olgan.

Takrorlanmaydigan tanlash takrorlanuvchi usulga nisbatan aniqroq natijalarni beradi, chunki bitta tanlov miqdorida kuzatish o'rganilayotgan to'plamning ko'proq birligini qamrab oladi.

Kombinatsiyalashgan tanlash. Yuqorida ko'rib chiqilgan tanlash turlari birligida, ya'ni kombinatsiyalashgan holda qo'llanilishi mumkin. Kombinatsiyalashgan tanlash bir yoki bir necha pog'onada o'tkaziladi.

Agar to'plamning tanlangan birliklari bir marta o'rganilsa - bu bir pog'onali tanlov deyiladi. Pul-buyum lotoreyasi tiraji, sportlovo tasodifiy tanlash yo'li bilan o'tkaziladi va ular bir pog'onali tanlovni ifoda etadi. Bu usulga ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sharoitini tekshirish uchun alohida partiyalarni seriyali tanlash yo'li bilan ajratib olish ham misol bo'lishi mumkin.

Agar to'plamning tanlovi pog'onalar bo'yicha, ketma-ketli keluvchi bosqichlar bo'yicha amalga oshirilsa - bu ko'p pog'onali tanlov deyiladi. Bunda tanlovnинг har bir pog'onasini, har bir bosqichi o'zining tanlov birligiga ega bo'ladi. Masalan, talabalarning o'zlashtirishini tekshirish uchun ularning tanlovinci ikki pog'onali tanlov usulida o'tkazish mumkin: dastlab akadem guruhlarning zarur miqdorini, keyin esa har bir tanlangan guruhdan talabalar sonini ajratib olish kerak. Har bir pog'ona o'zining tanlov birligiga ega: guruh va talaba.

Bosh va tanlanma to'plam o'lkovlarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagi ishora (harf)lar bilan belgilanadi:

N - bosh to'plamning hajmi (unga kiruvchi birliklar soni);

n - tanlov hajmi (tekshirilgan birliklar soni);

x - bosh o'rtacha (bosh to'plamdagagi belgining o'rtacha miqdori);

x_r - tanlov o'rtachasi;

p - bosh salmoq (bosh to'plamdagagi ma'lum belgi birliklarining salmog'i, hissasi);

ω – tanlov salmog‘i (hissasi);

σ^2 – bosh dispersiya (bosh to‘plamdagи belgining dispersiya);

σ_r^2 – o‘sha belgining tanlov dispersiyasi;

σ – bosh to‘plamdagи o‘rtacha kvadratik chetlanish;

σ_r – tanlovdagi o‘rtacha kvadratik chetlanish;

9.3. Tanlash ko‘lamini aniqlash usullari

Tanlama to‘plamning zaruriy miqdorini aniqlash: taxminiy usullar.

Taxminiy usullar mutaxassis o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda qaysi tanlama to‘plamning zaruriy miqdorini aniqlash lozimligini bilgan yoki tanlama to‘plam miqdorini belgilab beradigan turli tafovutlar (masalan, byudjet bilan bog‘liq) mavjud bo‘lgan hollarda foydalaniladi. Ushbu paragrafda tanlama to‘plam miqdorini aniqlashning bir nechta mashhur usullari ko‘rib chiqiladi.

Empirik qoidalar. Foydalanish mumkin bo‘lgan yondashuvlardan biri – ayrim empirik qoidalardan foydalanishdir. S.Syudman tanlama to‘plam miqdorini shunday tanlashni tavsiya qiladi, uni guruhlarga ajratishda har bir guruhda kamida 100 ta element bo‘lishi lozim.

Faraz qilaylik, shahar aholisi munitsipal parklar haqida nimalar o‘ylashi haqida axborot olish lozim. Xususan, shahar aholisining necha foizi parklarda tennis kortlari bo‘lishi lozim deb hisoblashini bilish kerak. Keyin esa parkka tez-tez tashrif buyuradiganlar (1); parkka vaqtiga vaqtiga bilan tashrif buyuradiganlar (2); parkka hech qachon tashrif buyurmaydiganlar (3) fikrini taqqoslash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shunday qilib, tanlama to‘plam miqdori bu guruhlarning har biriga 100 ta element to‘g‘ri keladigan tarzda belgilanishi lozim. Agar parkka tez-tez tashrif buyuradiganlar – aholining eng kam sonli guruhi – bosh to‘plamsining taxminan 10%ini tashkil qiladi deb hisoblanadigan bo‘lsa, oddiy tasodifiy tanlama to‘plamdan

foydalanish holatida uning miqdori 1000 ni tashkil qilishi, subyektlar soni esa 100 ga teng bo'lishi lozim.

Deyarli har bir holatda guruhlarni taqqoslash foydali axborot olishga imkon beradi va ko'pincha tadqiqot aynan shunday taqqoslash uchun amalga oshiriladi. Shunday qilib, minimal guruhnani aniqlash hamda uning miqdori yetarli ekanligi va zarur ishonchhlilikni ta'minlashiga ishonch hosil qilish lozim.

Asosiy guruhlarni taqqoslashdan tashqari tahlil ko'pincha quyiguruhlardan foydalanishni talab qilishi mumkin. Masalan, parkka tez-tez tashrif buyuradiganlarni yoshi bo'yicha guruhlarga ajratish hamda o'smirlar, yoshlar, o'rta yoshdagilar va katta yoshdagilar fikrini taqqoslash zarur. S.Syudman bunday quyiguruhlar hajmi 20-50 kishini tashkil qilishi lozim deb hisoblaydi. Bu shunga asoslanadiki, quyi guruhlar uchun aniqlik kamroq talab qilinadi. Faraz qilaylik, parkka tez-tez tashrif buyuradiganlar guruhidagi yoshi kattalar minimal quyi guruhi bosh to'plamning 1%ini tashkil qiladi. Shuningdek, har bir guruh tarkibi 20 kishidan iborat bo'lishi lozim deb faraz qilamiz. Oddiy tasodifiy tanlama to'plamdan foydalanishda ushbu holatda uning hajmi 2 ming kishiga yaqinini tashkil qilishi lozim.

Agar guruhlardan yoki quyi guruhlardan biri bosh to'plam tarkibida nisbatan kichik foizni tashkil qiladigan bo'lsa, bunda noproportsiyal tanlama to'plam foydalanish ma'qul bo'ladi. Faraz qilaylik, bosh to'plam tarkibida faqat 10% ta'limga oid teledasturlarni tomosha qiladi va bu guruh vakillarining fikrini bosh to'plam tarkibidagi boshqa a'zolarning fikri bilan taqqoslash lozim bo'ladi. Agar telefon orqali so'rovlardan foydalananiladigan bo'lsa, aholi bilan muloqot to bu teledasturlarni tomosha qilmaydigan 100 kishi to'plangunga qadar tasodifiy o'matilishi mumkin. Keyin esa so'rov davom etadi, biroq endi teledasturlarni tomosha qiladiganlar so'rov o'tkaziladi. Natijada ularning yarmi ta'limga oid teledasturlarni tomosha qiladigan 200 kishidan iborat tanlama to'plamga ega bo'linadi.

Byudjet chekllovleri. Tadqiqotchi ko'pincha qattiq byudjet cheklovlariga duch keladi. Aytaylik, muzey direktori tadqiqotga 500 dollardan ortiq sarflay olmaydi. Agar ma'lumotlarni tahlil

qilish 100 dollar talab qiladigan, respondent bilan har bir intervyu esa 5 dollar talab qiladigan bo'lsa, direktor faqat 80 kishigacha bo'lgan tanlama to'plam tanlishi mumkin. Shundan keyin bu tanlama to'plamdan foydalanish maqsadga muvofiqmi degan savol tug'iladi.

Qiyosiy tadqiqotlar. Yana bir yondashuv – aynan shunga o'xshash tadqiqolar topish va ularning tanlama to'plamidan yo'l-yo'riq sifatida foydalanishdir. Tadqiqotlar tanlama to'plamni taqqoslash maqsadlari uchun ajratish lozim bo'lgan guruhlari soni borasida taqqoslana oladigan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, aynan shunga o'xshash tadqiqotlarning ishonchilik darajasi maqbul keladigan bo'lishi lozim.

9.4-jadval ma'lumotlari bir necha yuz tadqiqotchini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, tanlanma to'plam odatiy miqdori haqida ma'lum bir tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Ta'kidlash joizki, milliy tadqiqotlar uchun tanlama to'plamlar miqdori odatda mintaqaviy tadqiqotlar uchun tanlama to'plamlar miqdoridan katta bo'ladi. Buning sababi shundaki, mamlakat miqyosida olib boriladigan tadqiqotlar odatda moliyaviy nuqtai nazardan muhimroq bo'lgan masalalarga taalluqli bo'ladi va shu sababli ko'proq aniqlik talab qiladi. Ehtimol, buning sababi shundaki, tashkilotlarni tadqiq etish odamlarni tadqiq etishdan qimmatroq sanaladi.

9.4-jadval
Tashkilotlar va shaxslar ularning a'zolari sanalgan tanlama
to'plamlar namunaviy miqdorlari

| | Shaxslar yoki uy xo'jaliklari | | Tashkilotlar | |
|--------------------------------|----------------------------------|---------------------------------------|--------------------|---------------------------------------|
| Quyigurublar soni | milliy tadqiqot | mintaqaviy yoki maxsus tadqiqot | milliy tadqiqot | mintaqaviy yoki maxsus tadqiqot |
| yo'q yoki kam sonli | 1000- 1500 | 200-500 | 200-500 | 50-200 |
| o'rtacha | 1500- 2500 | 500-1000 | 500-1000 | 200-500 |
| ko'p sonli | 2500+ | 1000+ | 1000+ | 500+ |

Bosh to'plam tavsifnomalari/ko'rsatkichlari

Faraz qilaylik, bizni simfonik musiqa kontserti mavsumiy abonenmenti a'zolarining ish kunlarida kontsertlarni soat 20 dan 19 ga ko'chirish masalasiga munosabati qiziqtiradi. Bosh to'plam 10 ming kishidan iborat. «Qat'iy ha» deb javob bergenlar soni 3 ming kishini (+2 sifatida belgilanadi) tashkil qiladi, yana 2 ming kishi «echtimol, ha» deb (+1) javob bergen. Talab qilingan axborot bosh to'plamning o'rtacha reaksiyasi bo'lib, u μ sifatida belgilanadi.

$$\mu = \text{bosh to'plamning o'rtacha qiymati} = 0,3$$

Bu o'rtacha ko'rsatkich bizni qiziqtirayotgan tavsifnomalardan biri hisoblanadi. Odatda u noma'lum bo'ladi va bizning vazifamiz keng bosh to'plamdan tanlanma to'plam shakllantirib, uni imkon qadar aniqroq topishdan iborat bo'ladi.

Bizni qiziqtiradigan boshqa bir xususiyat bosh to'plam dispersiyasi (σ^2) va uning kvadrat ildizi, bosh to'plamdan standart og'ish (σ) hisoblanadi. Bosh to'plam dispersiyasi turli abonenmentlar egalarining fikrlari tarqoqligi o'chami hisoblanadi. Dispersiya alohida javobning bosh to'plam bo'yicha o'rtacha javobdan qanchalik farq qilishiga bog'liq bo'ladi. Bu farq kvadratga ko'tariladi va barcha javoblar bo'yicha o'rtachalashtiriladi. Bizning misolda bosh to'plam dispersiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\sigma^2 = \text{bosh to'plam dispersiyasi} = 2,22$$

$$\sigma = \text{bosh to'plamdan standart og'ish} = 1,49$$

Tanlama to'plam miqdorini belgilab beradigan omillar

Tanlama to'plam miqdori to'rt omilga bog'liq. Birinchi omil – ularni tahlil qilish zarur bo'lgan guruhlar va quyiguruhlar soni. Ikkinci omil – tadqiqot taqdim etishi lozim bo'lgan axborot qimati va talab qilingan natijalar aniqligi. Uchinchi omil tanlama to'plam qiymatini aniqlash hisoblanadi: xarajatlar va foydani tahlil qilish lozim. Agar tanlama to'plam qiymati past bo'lsa, hajmi kattaroq bo'lgan tanlama to'plamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Va nihoyat, to'rtinchchi omil, tanlama to'plam guruh qiymatlari tarqoqligi.

9.4. Tanlama to'plam ishonchliligi

Albatta, turlicha tanlama to'plamlar \bar{X} (yoki s) turlicha qiymatini beradi. Agar o'nta elementdan iborat bo'lgan boshqa tanlama to'plam oladigan bo'lsak, $\bar{X} \approx 0,3$ yoki $1,2$ yoki $0,4$ yoki boshqa qiymatga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni \bar{X} bir tanlama to'plamdan boshqasiga qarab turli variantlarda bo'ladi. Tushunarlikki, \bar{X} tarqoqligi katta bosh to'plam dispersiyasi s^2 o'sishi bilan birga o'sib boradi. Eng chetki holatda, agar bosh to'plam elementlari o'rtasida farq bo'lmasa, \bar{X} tarqoqligi umuman bo'lmaydi. Shuningdek, tanlama to'plam miqdorining o'sishi bilan \bar{X} tarqoqligi pasayadi deb hisoblash o'rini bo'ladi. Agar tanlama to'plam kichik bo'lsa, tanlama o'rtacha ko'rsatkichga jiddiy ta'sir etish uchun ekstremal qiymatga ega bo'lgan bitta yoki ikkita element yetarli bo'ladi, natijada \bar{X} nisbatan katta yoki nisbatan kichik bo'ladi. \bar{X} tarqoqligi uning standart xatoligi orqali o'chanib, u quyidagicha aniqlanadi

Ta'kidlash joizki, \bar{X} standart xatoligi tanlama to'plam miqdori n ga bog'liq bo'ladi. n o'zgarganda standart xatolik mos ravishda o'zgaradi.

X o'zgaruvchi ehtimolliklar ma'lum bir taqsimotiga ega. Tanlama o'rtacha ko'rsatkich \bar{X} ham ehtimolliklar ma'lum bir taqsimotiga ega. An'anaviy ravishda taxmin qilinadiki, bir tanlama to'plamdan boshqasiga o'tib borishda \bar{X} o'zgarishlar norma taqsimotga rioya qiladi. Boshqacha qilib aytganda, odatda X bosh to'plam bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga yaqinroq va \bar{X} ning m dan katta bo'lish ehtimoli uning kichikroq bo'lish ehtimoliga teng bo'ladi.

Ishonch koeffitsientini aniqlash. $P(t)$ ehtimol bilan ishonch koeffitsienti (t) o'rtasidagi bog'lanish ushbu integral bilan ifodalanadi:

$$P(t) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^t e^{-\frac{z^2}{2}} dz. \quad (7.2)$$

Ishonch koeffitsientining berilgan qiymatlari uchun ehtimollarni hisoblash jarayonini qulaylashtirish maqsadida ular o'rtasidagi bog'lanishni xarakterlaydigan jadval tuzilgan. Bu jadval berilgan ishonch koeffitsientiga ko'ra ehtimolni va aksincha istalgan ehtimolga mos keladigan ishonch koeffitsientini aniqlash imkonini beradi. Amaliy yoki o'quv masalalari yechilganda ishonch koeffitsientining asosan quyidagi qiymatlari keng qo'llaniladi:

| | | | | | |
|------|-------|-------|-------|-------|-------|
| t | 1.00 | 1.96 | 2.00 | 2.58 | 3.00 |
| P(t) | 0.683 | 0.950 | 0.954 | 0.990 | 0.997 |

Tanlanma ko'rsatkichning o'rtacha xatosi - bu bosh to'plamdan u yoki bu usulda ko'p tanlamalar tashkil etib, uarning xatolaridan hisoblangan o'rtacha xatodir.

Tanlanma ko'rsatkichlarning o'rtacha xatolari (μ) tanlash usullari va shakllariga qarab turlicha aniqlanadi.

Tanlanma o'rtacha miqdorning (\bar{x}) o'rtacha kvadratik xatosi (μ_x) tanlash usullari va shakllariga qarab quyidagicha hisoblanadi::

| T/r | Tanlash usullari va ularning ko'rinishlari | Tanlash sxemalari | | 7.3 |
|-----|---|---|---|-----|
| | | Takrolanuvchi | Takrorlanmaydi gan | |
| 1 | Yakka tartibda tasodifiy tanlash | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}}$ | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n} \left(\frac{N-n}{N-1} \right)}$ * | 7.3 |
| 2 | Yakka tartibda mexanik tanlash | qo'llanilmaydi | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n} \left(\frac{N-n}{N-1} \right)}$ * | 7.4 |
| 3 | Guruhab (tiplarga ajratib) yakka tartibda tasodifiy tanlash | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}}$ | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n} \left(\frac{N-n}{N-1} \right)}$ * | 7.5 |

| | | | | |
|---|--|---|--|-----|
| 4 | Guruhab iplarga ajratib yakka tartibda mexanik tanlash | qo'llanilmaydi | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{n} \left(\frac{N-n}{N-1} \right)}$ | 7.6 |
| 5 | Seriyalab tasodifiy tanlash | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma^2}{s}}$ | $\mu_x = \sqrt{\frac{\sigma_x^2}{s} \left(1 - \frac{s-1}{S-1} \right)}$ | 7.7 |
| 6 | Seriyalab mexanik tanlash | qo'llanilmaydi | $\mu_{\bar{x}} = \sqrt{\frac{\sigma_x^2}{s} \left(1 - \frac{s-1}{S-1} \right)}$ | 7.8 |

Formulalarda foydalaniłgan belgilar:

N, n - bosh va tanlanma to'plam birliklarining soni;

S, s - bosh va tanlanma to'plamdagи seriylar soni;

σ^2 - tanlanma dispersiya;

σ^2 - o'rtacha ichki guruhiy dispersiya;

$\sigma_{x_i}^2$ - guruhlararo (seriylararo) dispersiya.

Tanlanma – bu to'plamdan saylab olingen ma'lum birliklar soni bo'lib, uning har biri mazkur to'plamning unsuridir. Mustasno hol sisatida tanlanma butun to'plamni o'z ichiga olishi mumkin. Tajriba va his-tuyg'ularga asoslangan umumiyl imon komiligiga binoan, tanlanma doimo boshlang'ich to'plam haqida biror narsa anglatadi.

O'r ganiladigan to'plamdan yetarli miqdorda birliklar maxsus yo'llar bilan tanlanib, ular ustida o'tkazilgan kuzatish ma'lumotlari asosida boshlang'ich to'plam haqida qoniqarli axborot olish imkonini beradigan usul tanlanma tekshirish deb ataladi.

Tanlanma tekshirish nazariyasining boshqa vazifasi bosh to'plam ko'rsatkichlarini baholash natijalarini ishonchlik darajasini iloji boricha obyektiv holda aniqlashdan iborat.

Tanlanmalar kichik hajinda bo'lganda, ularni tekshirish natijalariga asoslanib boshlang'ich to'plamda belgining chin qiymati yotadigan tor chegaralarni aniqlash juda qiyin. Bu holda

tekshirish vazifasi boshlang'ich to'plamdag'i korrelyatsiya me'yorini belgilash emas, balki moyori qanday bo'lishidan qat'iy nazar, to'plamda korrelyatsiya mavjudlig'i aniqlimi, boshqacha aytganda, tanlamada kuzatilgan korrelyatsiya muhimmi degan masalani oydinlashtirishdan iborat.

Shuning uchun kichik tanlanmalarga bag'ishlangan ko'pchilik tekshirishlar o'ziga xos xususiyatga ega. Ularda statistik ko'rsatkichlarning aniqliligin baholash, ularning muhimligini aniqlash asosiy maqsad deb qaraladi. Bunday baholashlar uchun ishlab chiqilgan usullar katta tanlamalarda ham qo'llanishi mumkin va haqiqatda tez-tez qo'llanadi.

Tanlanma o'rtacha miqdor xatosining chegarasiga (Δ_x) asoslanib, tasodifiy tanlash usuli uchun tanlanmaning zaruriy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

Tanlash takrorlanuvchi sxemada o'tkazilsa,

$$t \sqrt{\frac{\sigma^2}{n}} \leq \Delta_{\bar{X}},$$

bundan

$$n \geq \frac{t^2 \sigma^2}{\Delta_{\bar{X}}^2}$$

Bu tengsizlikdan ko'rindiki, tanlanmaning miqdori kamida

$$n = \frac{t^2 \sigma^2}{\Delta_x^2}$$

bo'lishi kerak ekan.

Tanlash takrorlanmaydigan sxemada o'tkazilsa,

$$n = \frac{t^2 \sigma^2 N}{\Delta_{\bar{X}}^2 N + t^2 \sigma^2}$$

Salmoqning xatosiga (Δ_t) asoslanib, yakka tartibda tasodifiy tanlash usuli uchun tanlanmaning zaruriy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \frac{t^2 \omega (1-\omega)}{\Delta_p^2} \text{ (takrorlanuvchi)}$$

va

$$n = \frac{t^2 \omega (1-\omega) N}{\Delta_p^2 N + t^2 \omega (1-\omega)} \text{ (takrorlanmaydigan)}$$

Marketing tadqiqotlarida tanlama to'plam

Marketing tadqiqotlari muvaffaqiyati ko'p jihatdan tanlama to'plamni samarali tashkil qilishga bog'liq bo'ladi: bir tomonidan, uning ishonchliligi, reprezentativligi, boshqa tomonidan – tadqiqotning optimal qiymati muhim ahamiyat kasb etadi.

Marketing tadqiqotlarida axborot reprezentativligini ta'minlash texnologiyasi

Marketing tadqiqotlari davomida to'planadigan axborot reprezentativligi, uning barqaror va asoslangan ekanligi bilan bir qatorda, marketingda foydalilaniladigan birlamchi axborot ishonchliligining asosiy mezonlaridan biri sanaladi. Ushbu munummoning mohiyati shunga borib taqaladiki, masalan, 300-500 kishi o'rtaida o'tkazilgan so'rov davomida olingan axborot butun massivga, ya'ni butun shahar aholisiga ekstrapolyatsiya qilinishi mumkin.

Reprezentativlik muammosini muhokama qilishdan oldin axborot to'plashning turli usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan marketing tadqiqotlari uchta katta guruhga taqsimlanishini aytib o'tish lozim:

- *umumiy (yaxlit) tadqiqotlar*, bu tadqiqotlar davomida tadqiq etiladiganlar soni o'r ganilayotgan bosh to'plamning barcha obyektlari soniga teng bo'ladi va reprezentativlik muammosi yuzaga kelmaydi;

- *lokal (monografik) tadqiqotlar*, bu tadqiqotlar davomida tadqiq etilayotgan umumiy bosh to'plamga kiradigan sohalar yoki alohida elementlar o'r ganiladi;

•*tanlama tadqiqotlar*, bu tadqiqotlar davomida tadqiq etiladigan bosh to'plam bu – doimo asosiy bosh to'plamning ma'lum bir (katta yoki kichik) qismi hisoblanadi.

Bunday tanlama tadqiqotlar – sotsiologiya tadqiqotlari va marketing tadqiqotlarida eng ko'p uchraydigan turdir; aynan tanlama tadqiqotlar empirik tadqiqotlarning mohiyatini tashkil qiladi deb aytish mumkin, chunki ular mintaqadagi, butun jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni o'rghanishga tamomila boshqacha yondashish imkonini beradi.

9.5. Marketing tadqiqotlarida tanlama to'plamlar turlari

Statistika, sotsiologiya va marketingda tanlama to'plam tushunchasi ikki xil ma'noda ko'rib chiqiladi. Birinchidan, bu o'rGANISHI lozim bo'lgan bosh to'plam elementlaridir. Ikkinchidan, tanlama to'plam bu – reprezentativlikni ta'minlash zaruriy shartida tanlama yig'indini shakllantirish jarayoni (mos ravishda: usullar, taomillar).

Marketing tadqiqotlariga aloqador maxsus adabiyotlarda tanlashning turli xillari ajratib ko'rsatiladi: oddiy tasodifiy tanlov; tizimli tanlov; klasterli tanlov; stratifikatsiyalangan tanlov; qulaylik tamoyili asosida tanlov; kvotalar asosida tanlov; proporsional tanlov va boshqalar. Biroq, agar tanlama to'plam birliklarini bosh to'plamdan tanlab olish yondashuvining asosiy tamoyillaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ularning soni uchtani tashkil qiladi (yuqorida aytib o'tilgan qolgan turlar – uchta asosiy yondashuvning xilma-xil variantlaridir).

•*tabiiy tanlov*, ya'ni bosh to'plam birliklarini tanlama to'plam birliklariga «ko'ngillilik» tamoyili bo'yicha tanlab olish. U juda ko'p, odatda pochta va matbuot orqali so'rovlarda foydalilanildi. Asosiy kamchiligi – bosh to'plamni sisatlari reprezentatsiya qilish imkonini yo'qligidir. Lekin shunga qaramay, tabiiy tanlov uning tejamkorligi, «ta'mirlash» imkoniyati (ya'ni talab qilingan hajm va elementlarga muvofiq qo'shimcha kiritish yoki chiqarib tashlash imkoniyati) hisobga olgan holda foydalilanildi.

•*ehtimoliy (tasodifiy) tanlov* – sotsiologik tadqiqotlar va marketing tadqiqotlarida foydalilaniladigan asosiy

yondashuvlardan biri. Bunday tanlovning asosiy tamoyili – bosh to‘plamning har bitta birligiga tanlama to‘plamga tushish imkoniyatini ta’minlashdir. Bu maqsadda tasodifiy raqamlar jadvallari, lotereyalı tanlov, mexanik tanlovdan foydalaniladi.

•*kvotali (stratififikatsiyalangan) tanlov*, uning asosida bosh to‘plamning sifatlari modelini tuzish, undan keyin esa – mavjud modeldan kelib chiqqan holda kuzatuv birliklarini tanlama yig‘indiga tanlab olish yotadi.

Tanlama to‘plamlar turlari bo‘yicha bir pog‘onali (bosh to‘plamdan tanlama to‘plamga mos keluvchi tamoyildan foydalangan holda oddiy tanlov); seriyali (tanlov birliklari sifatida seriyalar – oila, sinf, brigadalar ishtirot etadi); ko‘p pog‘onali (tanlov bir necha bosqichda bo‘lib o‘tadi: dastlab, masalan, shahardagi korxonalar, ulardagi tsexlar, tsexlardagi respondentlar tanlab olinadi) turlar ajratib ko‘rsatiladi.

Tanlama to‘plam hajmi va xatoliklari

Marketolog oldida turadigan asosiy muammo bu – tadqiqot davomida olingan axborotga ishonish yoki ishonumaslik bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: olingan axborot haqiqatda reprezentativliv bo‘lishi uchun ushbu tadqiqot doirasida necha kishi so‘rovda ishtirot etishi lozim. Afsuski, har qanday vaziyatda tanlama yig‘indi optimal hajmini hisoblab chiqish mumkin bo‘lgan umumiy bir formula mavjud emas. Gap shundaki, tanlama yig‘indi hajmini aniqlash statistik muammonadan ko‘ra ko‘proq mazmunga oid (sotsiologik yoki marketing) muammo hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, tanlama yig‘indi hajmini aniqlash tadqiqot o‘ikazish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab omillarga: uning maqsadlari, mazmuni, usullari va birinchi navbatda, quyidagilarga bog‘liq:

•tadqiqotda foydalilaniladigan uslubiyatlar birlamchi axborot to‘plash uslubiyatlari;

•bosh to‘plamning bir xilda tuzilganlik darajasi;

•tadqiqotning maqsad va vazifalari;

•olinadigan axborotning talab qilingan aniqlik darajasi.

Aytib o'tilgan omillarning birinchisiga keladigan bo'lsak, uning tanlama to'plam hajmiga ta'siri yaqqol ko'rinish turadi: usul qanchalik aniq va ishonchli bo'lsa, tanlama yig'indi hajmi shunchalik kichik bo'ladi.

Tanlama to'plam hajmiga shuningdek, tadqiqotning muayyan vazifalari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biz shahar aholisining iste'mol xulq-atvorini tadqiq etishni istaymiz. Toshkent shahri aholisini uchta kvotali belgi – tuman, yosh va jins bo'yicha taqsimlashni ifodalaydigan bosh to'plam strukturasini olaylik.

Ko'rinish turibdiki, agar tadqiqotda butun shahar aholisining fikrini o'rganish masalasi qo'yiladigan bo'lsa – bu bir vaziyat; agar yosh guruhlari bo'yicha o'rganish bo'lsa – boshqa vaziyat (bu yerda biz 3 ta guruhga ega bo'lamiz); agar yosh va jins guruhlari bo'yicha o'rganish kerak bo'lsa – bu uchinchi vaziyat (bu yerda biz oltita guruhga ega bo'lamiz); va nihoyat, agar tadqiqotda bizni jins, yosh guruhlari va shahar tumanlari bo'yicha axborot taqsimlanishi qiziqtiradigan bo'lsa (masalan, biz Chilonzor tumanida yashaydigan yosh ayollarning u yoki bu tovarlar xaridiga munosabatini aniqlashni istaymiz), bu yerda to'rtinchi vaziyat kuzatiladi (72 ta guruh). Aniqki, o xirgi holatda reprezentativ axborot olish uchun bu yetnish ikkita guruh kamida 25-30 kishidan iborat bo'lishi lozim. Mos ravishda, bu yerda tanlama yig'indi minimal hajmi 1800-2160 kishi doirasida bo'ladi.

Va nihoyat, tanlama yig'indi hajmiga ta'sir etadigan yana bir omil bu – olinadigan axborotning talab qilingan anqlik darajasidir. Bozorning faoliyat ko'rsatish va rivojlanish tendensiylarini aniqlash muhim. Albatta, aniqroq axborotga ega bo'lish lozim, lekin bunda shuni e'tiborga olish kerakki, anqlikning har 1 foizga ortishi tadqiqot keskin o'sishiga olib keladi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish borasida mashhur tadqiqotchi Dj.Gellap va uning instituti (Amerika jamoatchilik fikri instituti) aniqlashicha, umumrnmlakat miyisosida 100 kishidan iborat tanlama to'plamda xatolik \pm 11%; 200 kishida — \pm 8%; 400 kishida — \pm 6%; 600 kishida — \pm 5%; 750 kishida — \pm 4%; 1000

kishida — ± 4%; 1500 kishida — ±3%; 5000 kishida — ±2,5% atrofida bo'ladi. Aynan shu sababli Gellap instituti umummilliy so'rovlarini, qoidaga ko'ra, AQShda tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda 1500-5000 kishidan iborat tanlama to'plam orasida o'tkazadi. Ko'rib turganimizdek, u tadqiqot qiymatining bir necha marta ortishidan xatolikning 1% ortishini afzal ko'radi.

Marketing tadqiqoti o'tkazish va uning tanlama to'plamini loyihalashtirishda yuzaga keladigan eng muhim va murakkab masalalardan biri quyidagicha: tanlama to'plam xatoligini aniqlash, ya'ni olingen ma'lumotlarga ishonish mumkin bo'lgan doira chegaralarini aniqlash mumkinmi. Tushunarlikki, bu yerda tanlama to'plam turi, bosh to'plam elementlarini tanlab olishga yondashuv bilan bog'liq tafovutlar mavjud. Agar gap kvotali tanlov haqida boradigan bo'lsa, bu yerda xatolik haqida gapirishga hojat qolmaydi: axir kvotalarни shakllantirishda bu kvotalar chegaralari bosh to'plamning asosiy guruhi bo'yicha belgilanadi. Shu bilan bir paytda, bunday tadqiqotlar o'tkazishda statistik xatolik ehtimoli mavjud bo'lib, 5000 kishidan ortiq tanlama to'plamida u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$D=1/\bar{O}n$$

bu yerda n — tanlanma yig'indi hajmi;

D — tanlama to'plam eng so'nggi xatoligi.

Agar shaharda 840 kishidan iborat bo'lgan tanlama to'plam oladigan bo'lsak, statistik xatolik ±3,5% atrofida bo'ladi.

Agar gap ehtimoliy (tasodifiy) tanlama to'plam haqida boradigan bo'lsa, bu yerda tanlama to'plam xatoligini aniqlash uchun bosh to'plamning eng muhim tavsifnomalari borasida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim (ularni tanlama to'plamdag'i xuddi shunday ma'lumotlar bilan taqqoslash uchun). Afsuski, buning imkonи doim ham bo'lavermaydi, chunki tanlama tadqiqotning o'zi ham ko'pincha olingen natijalarni keyinchalik bosh to'plamga ekstrapolyatsiya qilish uchun amalga oshiriladi.

Agar tadqiqotchi tasarrufda bosh to'plamning eng muhim ko'rsatkichlari mavjud bo'lsa (misol uchun, aholini jinsi, yoshi, ma'lumoti, mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi), ayrim olimlarning

hisoblashicha, nafaqat tanlama to'plam xatoligini aniqlash, balki agar qator belgilari bo'yicha xatoliklar yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatolikdan katta bo'lmasa, uning hajmini oldindan hisoblab chiqish mumkin bo'ladi. Bu vaziyatda qo'llanadigan formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$n = t^2 d^2 N / (N D^2 + t^2 d^2),$$

bu yerda n – tanlama yig'indi hajmi;

N – bosh to'plam hajmi;

t – me'yorlashtirilgan chetlanish koeffitsienti;

D – yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatolik (odatda sotsiologik va marketing tadqiqotlarida $\pm 5\%$);

D – bosh to'plamda reprezentativlik u bo'yicha hisoblab chiqiladigan dispersiya qiymati.

Tanlama to'plam miqdorini hisob-kitob qilish va tanlama to'plam xatoligini hisoblab chiqish muammolari maxsus sotsiologik adabiyotlarda bat afsil ko'rib chiqiladi.

Tanlama to'plam hajmini aniqlash masalasi amaliyotda tadqiqot natijalarining aniqligi haqida taxmin va ularni amalga oshirish imkoniyatlari o'rtasida murosali hisoblanadi.

Tanlanma kuzatish ma'lumotlari bosh to'plamga quyidagi ikki usul orqali tarqatiladi.

1. gayta hisoblash usuli. Faraz qilaylik, tanlanma kuzatish o'tkazilib biror belgining o'rtacha miqdori (\bar{x}) va salmog'i (R) uchun ishonch oraliqlari aniqlangan:

$$\bar{x} - \Delta_x \leq \widetilde{x} \leq \bar{x} + \Delta_x$$

va

$$\omega - \Delta_p \leq P \leq \omega + \Delta_p.$$

Tengsizliklar bosh to'plam miqdoriga (N) ko'paytirilsa, belgi qiymatlarining (x) yig'indisi ($\sum xN$) va o'rganilayotgan belgiga ega bo'lgan birliklarning miqdori (PN) uchun ishonch oraliqlari

$$\bar{x}N - \Delta_x N \leq \widetilde{x}N \leq \bar{x}N + \Delta_x N$$

va

$$\omega N - \Delta_p N \leq PN \leq \omega N + \Delta_p N$$

hosil bo'ladı.

Bu miqdorlarning xatolari $P(t)$ ehtimol bilan mos ravishda $\Delta_x N$ va $\Delta_p N$ dan oshmaydi.

2. Koeffitsientlar usuli. Ba'zi hollarda yoppasiga kuzatish ma'lumotlari tanlanma kuzatish metodi bilan tekshirib ko'tiladi va unga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Amaliyotda tanlama to'plam hajmini aniqlash borasida bir nechta yondashuvdan foydalaniadi. Quyida ularning eng oddiylariga e'tibor qaratamiz. Ularning birinchisi ixtiyoriy yondashuv deb ataladi va u «bosh barmoq qoidasi»ni qo'llaga asoslanadi.

Masalan, aniq natijalar olish uchun tanlama to'plam besh to'plamning 5%ini tashkil etishi lozimligi dalil-isbotsiz qabul qilinadi. Mazkur yondashuv oddiy va ijro etish uchun ochiq bo'lsada, lekin aniq natijalar olishga imkon bermaydi. Uning afzalligi arzonlik, xarajatlarning nisbatan pastligi hisoblanadi. Keyingi yondashuvga muvofiq tanlama to'plam hajmi oldindan kelishib olingan shartlar bo'yicha belgilanishi mumkin. masalan, marketing tadqiqotiga buyurtma beruvchi jamoatchilik fikrini o'rganishda tanlama to'plam odatda 1000-1200 kishidan iborat bo'lishini biladi, shu sababli u tadqiqotchiga ushbu raqamga amal qilishni tavsiya etadi.

Uchinchi yondashuv shuni anglatadiki, ayrim holatlarda tanlama to'plam hajmini aniqlashda asosiy dalil so'rov o'tkazish qiymati bo'lishi mumkin. Garchi bunda olinadigan axborot qimmati hisobga olinmasada.

To'rtinchi yondashuvda tanlama to'plam hajmi statistik tahlil asosida aniqlanadi. Ushbu yondashuv olinadigan natijalar ishonchlilikiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda tanlama to'plam minimal hajmini aniqlashni ko'zda tutadi.

Beshinchi yondashuv nazariy jihatdan eng asoslangan va tanlama to'plam hajmini aniqlashda to'g'ri yondashuv hisoblanadi. U ishonch oraliq'ini hisob-kitob qilishga asoslanadi.

Ishonch oralig'i bu – uning chetki nuqtalari biron-bir savolga ma'lum bir javoblar foizini tavsiflaydigan diapazondir. Ushbu tushuncha «bosh to'plamda olinadigan belgining o'rtacha kvadratik chetlanishi» tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. U qanchalik katta bo'lsa, masalan, javoblarning 9,5%ini o'z ichiga olish uchun ishonch oralig'i shunchalik keng bo'lishi lozim.

Normal taqsimot egri chizig'i xossalardan kelib chiqadiki, 9,5%ga teng bo'lgan ishonch oralig'ining yakuniy nuqtalari 1,96 (me'yorashtirilgan chetlanish) va o'rtacha kvadratik chetlanish ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

1,96 va 2,58 raqamlar (99% ishonch oralig'i uchun) z sifatida belgilanadi.

«Ehtimollilik integrali qiymati» jadvallari mavjud bo'lib, ular turli ishonch oralig'lari uchun z hajmini aniqlashga imkon beradi. 95% yoki 99% ga teng bo'lgan ishonch oralig'i marketing tadqiqotlari o'tkazishja standart hisoblanadi.

Masalan, avtomobil sohiblarining bir yil davomida servis ustaxonlariga tashriflar soni borasida tadqiqot o'tkazilgan. Tashriflar o'rtacha soni uchun ishonch oralig'i 99% ishonch oralig'ida 5-7 ta tashrifga teng deb hisoblangan. Bu esa agar tanlama tadqiqotlarni 100-marta mustaqil amalga oshirish imkoniyati paydo bo'lsa, 99 ta tanlama tadqiqot uchun tashriflar soni o'rtacha qiymati 5 dan 7 gacha bo'lishini anglatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, avtomobil sohiblarining 99% ishonch oralig'iga tushadi.

Faraz qilaylik, 50 ta mustaqil tanlama to'plam tadqiq etildi. Bu tanlama to'plamlar uchun o'rtacha baholar tanlama taqsimot deb ataladigan taqsimot normal egri chizig'ini tashkil qiladi.

Bosh to'plam bo'yicha o'rtacha baho taqsimot egri chizig'ining o'rtacha bahosiga teng bo'ladi. «Tanlama taqsimot» tushunchasi shuningdek, V tanlama to'plamni aniqlash asosida yotadigan nazariy konsepsiya bazaviy tushunchalarini sifatida ko'rib chiqiladi.

Tabiiyki, bironqa kompaniya 10, 20, 50 ta mustaqil tanlama to'plam shakllantira olmaydi. Odatda faqat bitta tanlama to'plam foydalaniлади.

Qisqa xulosalar

Mazkur bobda tanlama to'plam miqdorini aniqlashga bir nechta amaliy yondashuv taqdim etiladi. Ular guruh miqdorini aniqlash bo'yicha asosli qaror qabul qilishga imkon beradi va ko'pincha marketing tadqiqotlari o'tkazishda foydalaniлади. Biroq guruh miqdorini aniqlashga rasmiy – statistika nazariyasidan foydalangan holdagi yondashuv ham mavjud.

Mazkur yondashuvni tushunish bir nechta sababga ko'ra foydali hisoblanadi. Birinchidan, ayrim holatlarda u guruh miqdori bo'yicha aniqroq qaror qabul qilishga imkon beradi. Ikkinchidan, bevosita nazariyadan foydalanish qiyin bo'lsada, u ko'pincha bunday qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mazkur bobda tanlama guruh bilan bog'liq bo'lgan, jarayonni eng yaxshi tushunishga xizmat qiladigan ayrim muhim konsepsiya va atamalar kiritiladi.

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish va unda ma'lumotlarni miqdoriy va sisat jihatidan saralashda albatta, statistika nazariyasidan foydalanimiz. Chunki statistik miqdoriy hisob – kitoblargina orqali ma'lumotimiz to'liq va aniq javobini izlamuychi uchun taqdim etadi.

Bugungi kunda tadqiqotlarning oldiga shunday muammolar qo'yadiki, bu muammolar yechimini topish uchun va maqsadga erishishimiz uchun bir necha vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'yadi. Ular quyidagilardir:

- tanlama to'plamning zaruriy miqdorini aniqlashning ayrim usullarini muhokama qilish;
- tanlama statistika va bosh to'plami tavsifnomalari konsepsiyasini taqdim etish;
- ishonch oralig'i va oraliqli baholash nima ekanligini bilib olish;
- oddiy tasodifiy tanlama to'plam miqdori qanday aniqlanishini ko'rsatish;
- stratifikasiya qilingan va ko'p pog'onali tanlama guruh miqdori qanday hisoblanishini ko'rsatishdan iborat.

Marketing tadqiqotlari davomida ko'pincha tanlama to'plam miqdorini aniqlash masala yuzaga keladi. Uni bilmagan holda

so'rovni rejalashtirish va o'tkazishning ham imkonи bo'lmaydi. Tanlama to'plam miqdorini aniqlashning yechimi tadqiqot qiymati bilan bog'liq, shu sababli u asoslangan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, marketing tadqiqotlarida tanlash nima uchun zarur? Ushbu savolning javobi oddiy, ammo amalga oshirish mexanizmi biroz e'tiborni talab qiladigan jarayondir. Bunga ma'lum tovardan qancha, qayerda va qay vaqtida sotish kerakligini aniqlashi lozim bo'ladi. Bunda juda ko'p do'konlar, tadbirkorlar ishtirot etishi mumkin. Agar to'g'ri va aniq xulosa chiqarish uchun ushbu to'plamga kiradigan barcha subyektlar o'r ganilsa yaxshi bo'lgan bo'lardi. Ammo ularning ko'philigi uchun buni amalga oshirishning imkonи bo'lmasligi mumkin. Bunday holda umumiy xulosa qilish uchun ularning bir qismini tanlab olinadi. Bu tanlangan to'plamni tanlab kuzatish deyiladi.

Statistik kuzatish deganda, ijtimoiy hodisalar va jarayonlar haqidagi dalillarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan holda to'plash asosida ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni tushuniladi.

Shuni inobatga olish lozimki, iqtisodiy tahlilda ma'lumotlar asosan rasmiy hisobotlardan olinadi va hisob hamda hisobot ma'lumotlariga tayanadi. Statistik tahlilda ko'p hollarda ma'lumotlar hisobot ma'lumotlari bilan birga tayyor holda uchramaydigan ma'lumotlarni ham turli usullar bilan shakllantiradi.

Tayanch iboralar: tanlanma to'plam, tanlanma statistika, stratifikatsiya, statistik kuzatish, tasodify tanlash, mexanik tanlash, tipik tanlash, ishonch koeffitsientining, takrorlanuvchi tanlash, takrorlanmaydigan tanlash, Kombinatsiyalashgan tanlash, zaruriy miqdorini, empirik qoidalar, byudjet cheklovlar, ehtimoliy (tasodify) tanlov, kvotali (stratifikatsiyalangan tanlov)

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun tanlanma statistikadan foydalanganamiz?
2. Statistik kuzatish deganda nimani tushunasiz?
3. To'plamdan zaruriy miqdordagi birliklarni maxsus usullar bilan yechish nima uchun kerak va ularni nima uchun bosh to'plamga tarqatiladi?
4. Tanlanma kuzatish qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
5. Lokal tadqiqotlar guruhiга nimalar kiradi?
6. Tasodifiy tanlovni shakllantirish xususiyati nimada?
7. Tanlash ko'laminani aniqlash usullarini aytib bering.
8. Yalpi tavsiiflar va tanlovli statistika konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Ishonchli oraliq va oraliqni baholash o'tasidagi farq nimada?
10. Stratifikatsiyalangan va ko'p bosqichli tanlov miqdori qanday hisoblanadi?

X BOB. VARIATSIYA QATORI, BELGILARNING BOG'LANGANLIK JADVALLARI VA GIPOTEZALARINI TEKSHIRISH

10.1. Variatsiya qatorining mohiyati

O'rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo'lgan alohida miqdorlarni umumlashtirib tavsiflasa-da, lekin o'ziga nisbatan alohida miqdorlarning qanchalik tafovutda ekanligini, u tafovutning qanchalik katta-kichikligini ifodalay olmaydi. Vaholanki, o'rtachaning real qiymatga ega bo'lishi bevosita alohida miqdorlar o'rtasidagi tafovutga bog'liq.

Agar alohida miqdorlar o'rtasidagi tafovut (*o'zgaruvchanlik*) qancha kichik bo'lsa, ular asosida hisoblangan o'rtacha shuncha real bo'ladi va aksincha, ular o'rtasidagi tafovut qancha katta bo'lsa, ular asosida hisoblangan o'rtacha shuncha ishonchsizroq, haqiqatdan uzoqroq bo'ladi.

Masalan, o'rtacha miqdor 30 soni 1 songa 59 sonini qo'shib, natijani ikkiga bo'lish natijasida olinishi mumkin. Ravshanki, bu o'rtacha tipik va real o'rtacha bo'la olmaydi, chunki 1 bilan 29 o'rtasidagi tafovut juda ham katta. Shu o'rtacha, ya'ni 30 soni 29 soniga 31 sonini qo'shib, uni ikkiga bo'lish natijasida ham olinishi mumkin. Albatta, bu o'rtacha oldingiga nisbatan haqiqatga yaqinroq, chunki u alohida miqdorga yaqin.

Demak, ijtimoiy hodisalarini tahlil qilinda faqatgina umumlashtiruvchi ko'rsatkich - o'rtacha miqdorni hisoblash bilan cheklanmasdan, balki shu o'rtachadan alohida miqdorlarning qanchalik tafovutda ekanini ham tahlil qilish lozim. Ushbu tafovutlarni o'rganishda statistik usulidan biri variatsiyadan foydalanamiz.

Statistikada variatsiya deyilganda to'plam birliklari o'rtasidagi tafovut (farqlanish), *o'zgaruvchanlik* tushuniladi.

Statistikada variatsiya quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ta'riflanadi (10.1-jadval).

10.1-jadval

Variatsiya ko'rsatkichlari

| Ko'rsatkichlar | Simvol | Hisoblash tartibi | |
|--|------------|-------------------------|-------------------|
| | | oddiy qatorlarda | vazali qatorlarda |
| 1. Variatsion kenglik | R | $R = X_{max} - X_{min}$ | |
| 2. O'rtacha mutlaq tafovut | \bar{d} | | |
| 3. O'rtacha kvadrat tafovut (dispersiya) | σ^2 | | |
| 4. O'rtacha kvadratik tafovut | σ | | |
| 5. Variatsiya koeffitsienti | v | | |

Variatsion kenglik (R) deyilganda belgining eng katta va eng kichik darajalari o'tasidagi farq tushuniladi. 10.1-jadvalda keltirilgan formulada:

X_{max} – belgining eng katta darjasи;

X_{min} – belgining eng kichik darjasидир.

Bu ko'rsatkich ranjirlangan qatorning ikkita chetki hadlariga asoslanganligi sababli ayrim hollarda o'zgaruvchanlikni noto'g'ri ta'riflashi mumkin. Bunday holat, odatda, chetki hadlar tasodifiy bo'lган taqdirda sodir bo'ladi. Bu ko'rsatkichdan qatorning hadlari bir-biridan unchalik katta miqdorda farq qilmaydigan sharoitlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'rtacha mutlaq tafovut (d) alohida miqdorlar bilan ularning o'rtacha miqdori o'tasidagi farqlarning to'plamndagi birliklar soni yig'indisiga bo'lган nisbat natijasидир. 10.1-jadvalda keltirilgan formulada:

x – variatsion qatorning alohida miqdorlari,

\bar{x} – ularning o'rtacha miqdori;

f – hadlar soni (vazn);

Sf – hadlar yig'indisi.

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, o'rtacha arifmetik miqdorning matematik xususiyatlaridan biri shunda ediki, alohida miqdorlar bilan ularning o'rtachasi o'rtasidagi farq yig'indisi nolga teng. Shuning uchun ham o'rtacha mutlaq tafovutni hisoblashda farqlar ishorasiga e'tibor berilmaydi, ular qavs ichiga olinmasdan to'g'ri chiziq ichiga olimadi. Natijada umumiy olingan yig'indi iqtisodiy, real ma'noga ega bo'lmaydi, shu sababli statistika amaliyotida bu ko'rsatkich deyarli qo'llanilmaydi. Uning o'rniغا dispersiya, ya'ni o'rtacha kvadrat tafovut ishlataladi.

Dispersiya (σ^2) alohida miqdorlar bilan ularning o'rtacha miqdori o'rtasidagi farqlar kvadratining to'plamdag'i birliklar soni yig'indisiga bo'lgan nisbat natijasidir. 10.1-jadvalda keltirilgan formulada va alohida miqdorlar bilan ularning o'rtacha miqdori o'rtasidagi tafovutning vazniga bo'lgan ko'paytmasidir.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda ham ayrim shartli momentlarga yo'l qo'yiladi. Jumladan, $(x - \bar{x})$ o'rtasidagi tafovut kvadratga ko'tariladi. Bu bilan biz, bir tomonдан, musbat ishorali tafovutga ega bo'lib, o'rtacha mutlaq tafovutni hisoblashdagi kamchilikni bartaraf qilsak, ikkinchi tomonдан, variatsiya (o'zgaruvchanlik) darajasini ikki baravar kattalashtiramiz, chunki tafovutlar (farqlar) kvadratga ko'tariladi, so'ngra o'rtacha hisoblanadi.

Agar dispersiyani kvadrat ildizdan chiqarsak, u holda o'zgaruvchanlikning haqiqiy darajasi kelib chiqadi. Bu ko'rsatkich o'rtacha kvadratik tafovut deb ataladi (σ).

Shuni qayd qilish lozimki, o'rganilayotgan hodisa qanday birliklarda (mutlaq miqdordami, puldamni, natura yoki shartli naturadami) ifodalangan bo'lsa, o'rtacha kvadratik tafovut ham shunday birliklarda ifodalanadi. Bu esa turli xildagi hodisalar o'zgaruvchanligini qiyosiy tahlil qilishga imkon bermaydi. Masalan, jami chakana tovar oboroti uchun o'rtacha kvadratik tafovut so'm va realizatsiya qilingan non uchun esa bu tafovut 10 kg bo'lsa, bunday holda variatsiyani qiyosiy tahlil qilish mumkin emas. Chunki tafovutlar turli o'chov birliklarida keltirilgan.

Mana shu sababli o'zgaruvchanlikni qiyosiy jihatdan tahlil qilish maqsadida variatsiya koeffitsienti hisoblanadi.

Variatsiya koeffitsienti (v) o'rtacha kvadratik tafovutning (σ) o'rtacha miqdorga (x) bo'lgan nisbat natijasiga teng. Bu koeffitsient qiymati, agar u foizda ifodalangan bo'lsa, 0 bilan 100 orasida yotadi. U 0 ga qancha yaqin tursa, o'zgaruvchanlik shuncha kuchsiz va qancha 100 ga yaqinlashsa, shunchalik o'zgaruvchanlikning kuchliligidan dalolat beradi.

Variatsiya koeffitsientini foizda ifodalash yordamida turlicha ifodalangan o'rtacha kvadratik tafovutlar bir xil asosga keltiriladi va shu tufayli turlicha hodisalar o'zgaruvchanligi qiyosiy tahlil qilinadi.

Quyidagi oddiy qatorlar misolida variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz (10.2-jadval).

10.2 – jadval

Variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi

| Ishchilar soni | Kundalik ish haqi, so'm | | Aloboida kundalik ish baqining o'rtacha ish haqidagi farqi | | $x - \bar{x}$ ning mutlaq miqdori | | $(x - \bar{x})$ ning kvadrati | |
|-----------------|--------------------------------------|--------------------------------------|--|----------|-----------------------------------|--------------|-------------------------------|---------------|
| | 1-br | 2-br | 1-br | 2-br | 1-br | 2-br | 1-br | 2-br |
| 1 | 1750 | 1650 | -90 | -190 | 90 | 190 | 8100 | 36100 |
| 2 | 1900 | 2220 | +60 | +380 | 60 | 380 | 3600 | 144400 |
| 3 | 1780 | 1840 | -60 | 0 | 60 | 0 | 3600 | 0 |
| 4 | 1820 | 1700 | -20 | -140 | 20 | 140 | 400 | 19600 |
| 5 | 1930 | 2050 | +90 | +210 | 90 | 210 | 8100 | 14400 |
| 6 | 1860 | 1850 | +20 | -260 | 20 | 260 | 400 | 57600 |
| o'rtacha | $\bar{X}_1 = 1840$ | $\bar{X}_2 = 1840$ | 0 | 0 | +340 | +1180 | 24200 | 311800 |

Dastlab variatsjon kenglik aniqlanadi:

$$R_{\text{max}} = X_{\text{max}} - X_{\text{min}} = 1930 - 1750 = 180 \text{ rubl};$$

$$R_{\text{min}} = X_{\text{max}} - X_{\text{min}} = 2220 - 1700 = 1220 = 640 \text{ rubl}.$$

Max!

Berilgan qator asosida o'rtacha arifmetik miqdori hisoblanadi:

$$\bar{x}_1 = \frac{\sum x}{f} = \frac{1750 + 1900 + 1780 + 1820 + 1930 + 1860}{6} = \frac{11040}{6} = 1840 \text{ сжм.}$$

$$\bar{x}_2 = \frac{\sum x}{f} = \frac{1650 + 2220 + 1840 + 1700 + 2050 + 1580}{6} = \frac{11040}{6} = 1840 \text{ сжм.}$$

Alohiда kundalik ish haqlari bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi tafovut aniqlanadi va olingan natijalar yig'indisi ishchilar soniga bo'linadi:

$$d_1 = \frac{\sum |x - \bar{x}|}{f} = \frac{(1750 - 1840) + (1900 - 1840) + (1780 - 1840) + (1820 - 1840) + (1930 - 1840) + (1860 - 1840)}{6} = \frac{340}{6} = 56,7 \text{ сжм.}$$

$$d_2 = \frac{\sum |x - \bar{x}|}{f} = \frac{(1650 - 1840) + (2220 - 1840) + (1840 - 1840) + (1700 - 1840) + (2050 - 1840) + (1580 - 1840)}{6} = 196,7 \text{ сжм.}$$

$|x - \bar{x}|$ o'rtasidagi tafovut kvadratga ko'tariladi, so'ngra ularning yig'indisi ishchilar soniga bo'linadi, ya'ni o'rtacha kvadrat tafovut aniqlanadi:

$$\sigma_1^2 = \frac{\sum |x - \bar{x}|^2}{f} = \frac{(1750 - 1840)^2 + (1900 - 1840)^2 + (1780 - 1840)^2 + (1820 - 1840)^2 + (1930 - 1840)^2 + (1860 - 1840)^2}{6} = \frac{2420}{6} = 403,3$$

$$\sigma_2^2 = \frac{\sum |x - \bar{x}|^2}{f} = \frac{(1650 - 1840)^2 + (2220 - 1840)^2 + (1840 - 1840)^2 + (1700 - 1840)^2 + (2050 - 1840)^2 + (1580 - 1840)^2}{6} = \frac{31180}{6} = 5196,7 \text{ сжм.}$$

σ^2 kvadrat ildizdan chiqarilib, o'rtacha kvadratik tafovut aniqlanadi:

$$\sigma_1 = \sqrt{\sigma_1^2} = \sqrt{403,3} = 20,1 \text{ сжм.}$$

$$\sigma_2 = \sqrt{\sigma_2^2} = \sqrt{5196,7} = 72,1 \text{ сжм.}$$

Nihoyat, o'rtacha kvadratik tafovut bilan o'rtacha miqdorning nisbati, ya'ni variatsiya koeffitsienti aniqlanadi:

$$\gamma_1 = \frac{\sigma_1 \cdot 100}{\bar{x}_1} = \frac{20,1 \cdot 100}{1840} = \frac{2010}{1840} = 1,09\%$$

$$\gamma_2 = \frac{\sigma_2 \cdot 100}{\bar{x}_2} = \frac{72,1 \cdot 100}{1840} = \frac{7200}{1840} = 3,91\%$$

10.2. Chastotalarni taqsimlash bilan bog'liq statistika

Ko'plab marketing tadqiqotlari ma'lumotlar bazaviy tahlili doirasidan chetga chiqmaydi. Tadqiqot yakunlari bo'yicha olingan natijalar ko'pincha jadval va grafiklar yordamida aks ettiriladi.

Ma'lumotlar bazaviy tahlili o'z-o'zidan qimmatli bo'lib, bundan rashqari, keyingi ko'p o'lehamli tahlil yo'nalishini ko'rsatadi. O'quvchi statistika usullariga xos bo'lgan xususiyatlarni yaxshi tushunishi uchun kross-tabulyatsiya, χ^2 -kvadrat mezonini va gipotezalarni tekshirishning qo'llanishiga misollar keltirib o'tamiz.

Universal magazinga taalluqli misol ma'lumotlar bazaviy tahlilining undan ko'p o'lehamli tahlilning boshqa usullari bilan uyg'unlikda foydalanishdagi rolini ko'rsatadi, qolgan ikki misol esa bu tahlil o'z-o'zidan ham foydalii ekanligini ko'rsatadi. Televizion reklama bilan bog'liq misolda kross-tabulyatsiya va χ^2 -kvadrat mezonidan foydalanish va tovarlarni katalog bo'yicha sotish bilan bog'liq misoldagi juft 1-mezondan foydalanish marketologlarga muayan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Ushbu bobda foydalaniladigan statistik tushunchalar respondentlarning internetdan shaxsiy (kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan) maqsadiarda foydalanishini ko'rsatadigan misol yordamida aks ettirilgan. 10.3-jadval 30 ta respondent haqida ma'lumotdan iborat bo'lib, quyidagi larni o'z ichiga oladi: jinsi (1-erkaklar, 2-ayollar), internet bilan tanishlik darajasi (1-deyarli notanish, 7-yaxshi tanish), internetdan foydalanish

(haftasiga soatda), Internet va Internet-texnologiyalarga munosabat (etti balli shkalada o'schanadi; 1-ma'qul topmaydigan, 7-xayrixoh), internetdan tovarlar xarid qilish yoki bank operatsiyalari uchun foydalanish (1-ha, 2-yo'sq). Tahlilning dastlabki bosqichida mos keluvchi o'zgaruvchilar variatsiya qatori yoki qiymatlar chastotasining taqsimlanishi o'r ganilishi lozim.

10.3-jadval

Internetdan foydalanuvchilar haqida ma'lumotlar

| Respondent raqami | Jinsi | Internet bilan tanishlik darajasi | Internetdan foydalanish darajasi | Internetga munosa batii | Internet-texnologiya lariga munosabati | Xarid uchun foydalanish | Bank operatsiya lari uchun foydalanish |
|-------------------|-------|-----------------------------------|----------------------------------|-------------------------|--|-------------------------|--|
| 1 | 1.00 | 7.00 | 14.00 | 7.00 | 6.00 | 1.00 | 1.00 |
| 2 | 2.00 | 2.00 | 2.00 | 3.00 | 3.00 | 2.00 | 2.00 |
| 3 | 2.00 | 3.00 | 3.00 | 4.00 | 3.00 | 1.00 | 2.00 |
| 4 | 2.00 | 3.00 | 3.00 | 7.00 | 5.00 | 1.00 | 2.00 |
| 5 | 1.00 | 7.00 | 13.00 | 7.00 | 7.00 | 1.00 | 1.00 |
| 6 | 2.00 | 4.00 | 6.00 | 5.00 | 4.00 | 1.00 | 2.00 |
| 7 | 2.00 | 2.00 | 2.00 | 4.00 | 5.00 | 2.00 | 2.00 |
| 8 | 2.00 | 3.00 | 6.00 | 5.00 | 4.00 | 2.00 | 2.00 |
| 9 | 2.00 | 3.00 | 6.00 | 6.00 | 4.00 | 1.00 | 2.00 |
| 10 | 1.00 | 9.00 | 15.00 | 7.00 | 6.00 | 1.00 | 2.00 |
| 11 | 2.00 | 4.00 | 3.00 | 4.00 | 3.00 | 2.00 | 2.00 |
| 12 | 2.00 | 5.00 | 4.00 | 6.00 | 4.00 | 2.00 | 2.00 |
| 13 | 1.00 | 6.00 | 9.00 | 6.00 | 5.00 | 2.00 | 1.00 |
| 14 | 1.00 | 6.00 | 8.00 | 3.00 | 2.00 | 2.00 | 3.00 |
| 15 | 1.00 | 6.00 | 5.00 | 5.00 | 4.00 | 1.00 | 2.00 |
| 16 | 2.00 | 4.00 | 3.00 | 4.00 | 3.00 | 2.00 | 2.00 |

| | | | | | | | |
|----|------|------|-------|------|------|------|------|
| 17 | 1.00 | 6.00 | 9.00 | 5.00 | 3.00 | 1.00 | 1.00 |
| 18 | 1.00 | 4.00 | 4.00 | 5.00 | 4.00 | 1.00 | 2.00 |
| 19 | 1.00 | 7.00 | 14.00 | 6.00 | 6.00 | 1.00 | 1.00 |
| 20 | 2.00 | 6.00 | 6.00 | 6.00 | 4.00 | 2.00 | 2.00 |
| 21 | 1.00 | 6.00 | 9.00 | 4.00 | 2.00 | 2.00 | 2.00 |
| 22 | 1.00 | 5.00 | 5.00 | 5.00 | 4.00 | 2.00 | 1.00 |
| 23 | 2.00 | 3.00 | 2.00 | 4.00 | 2.00 | 2.00 | 2.00 |
| 24 | 1.00 | 7.00 | 15.00 | 6.00 | 6.00 | 1.00 | 1.00 |
| 25 | 2.00 | 6.00 | 6.00 | 5.00 | 3.00 | 1.00 | 2.00 |
| 26 | 1.00 | 6.00 | 13.00 | 6.00 | 6.00 | 1.00 | 1.00 |
| 27 | 2.00 | 5.00 | 4.00 | 5.00 | 5.00 | 1.00 | 1.00 |
| 28 | 2.00 | 4.00 | 2.00 | 3.00 | 2.00 | 2.00 | 2.00 |
| 29 | 1.00 | 4.00 | 4.00 | 5.00 | 3.00 | 1.00 | 2.00 |
| 30 | 1.00 | 3.00 | 3.00 | 7.00 | 5.00 | 1.00 | 2.00 |

10.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Chastotalarni taqsimlashda, statistik yig'indiga ega bo'lamiz. Ya'ni, har bir respondentning Internetga munosabati chastotasi egiluvchanlik darajasini va moyillik darajasini belgilaydi. Masalan, 1-respondent jinsi – erkak, Internet bilan tanishlik darajasi 7.00 ga teng bo'lsada, lekin Internetdan foydalanish darajasi esa -14.00 ga teng, ya'ni ikki barobar oshiq. Internetga bo'lgan munosabati 7.00 bo'lsada, lekin xarid qilish va xarid uchun foydalanish esa -1.00 ni tashkil etadi. Bu esa nimadan dalolat beradi? Internetdan foydalanish chastotasi bir xil emas.

Yuqoridagi jadvalda 30 ta respondentning har bir chastotasi darajasini statistik usullar yig'idisi orqali hisoblab chiqamiz va ushbu bir-biriga yaqin respondentlar munosabatini aniqlaganimizdan so'ng ularni ajratib olamiz.

Marketing tadqiqotlari o'tkazishda ko'pincha bitta o'zgaruvchi haqida axborot olish zarur bo'ladi. Masalan:

Nechta iste'molchini ma'lum bir tovar markasiga sodiq iste'molchilar deb hisoblash mumkin?

Tovar iste'molchilarining turli guruhi o'rtasida nisbat qanday: ko'p foydalanuvchilar, o'rtacha foydalanuvchilar, kam foydalanuvchilar va foydalanmaydiganlar o'rtasida?

Taklif qilinayotgan yangi tovar haqida qancha iste'molchi yaxshi xabardor qilingan? Qancha iste'molchi yuzakni tanish, qanchasi – nimadir eshitgan, qanchasi esa ushbu savdo markasi haqida umuman bilmaydi? Tovar haqida xabardorlik o'rtacha darajasi qanday? Iste'molchilarning yangi tovar haqida xabardorlik darajasi kuchli farq qiladimi? Ushbu savdo markasi tarafdarlari uchun daromad taqsimoti egri chizig'i nimani ifodalaydi? Ushbu taqsimot daromadi past iste'molchilar guruhi tomon siljiganmi?

Bunday savollarga javobni variatsiya qatorini (frequency distribution) o'rganish yordamida olish mumkin. Bunday tahlilda faqat bitta o'zgaruvchi ko'rib chiqiladi.

Variatsiya qatori tuzishdan maqsad respondentlar o'zgaruvchining turli qiymatlarini keltirgan javoblarini hisob-kitob qilish yotadi. O'zgaruvchilar turli qiymatlari nisbiy chastotasi foizlarda ifodalanadi. O'zgaruvchi qiymatlari chastotasi taqsimotini hisob-kitob qilish o'zgaruvchining har bir qiymati uchun mos keluvchi ko'rsatkichlarni keltirgan holda jadval tuzishga imkon berdi.

10.4-jadvalda Internet haqida xabardorlik chastotalarini taqsimlash keltirilgan. Birinchi ustun o'zgaruvchining turli toifalariga berilgan qaydlardan, ikkinchi ustun – o'zgaruvchining har bir qiymatiga berilgan kodlardan iborat.


10.4-jadval

Internet haqida xabardorlik chastotalarini taqsimlash

| Mohiyatini belgilash | Mohiyati | (N) chastot talari | Chastota talar | Ishonchi chastotalar | Yig'ilgan chastotalar |
|---------------------------|----------|--------------------------|-------------------|-------------------------|--------------------------|
| To'liq xabardor bo'lmagan | 1 | 0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| | 2 | a | 6.7 | 6.9 | 6.9 |
| | 3 | b | 20.0 | 20.7 | 27.6 |

| | | | | | |
|----------------------------------|-----------|----------|--------------|------------------------------|-------------|
| | 4 | 6 | 20,0 | 20,7 | 48,3 |
| | 5 | 3 | 10,0 | 10,3 | 58,6 |
| | 6 | 8 | 26,7 | 27,6 | 86,2 |
| To'liq xabardor bo'lganlar | 7 | 4 | 13,3 | 13,8 | 100 |
| | 9 | 1 | 3,3 | O'tkazib yuborish | |
| Jami | 30 | | 100,0 | 100,0 | |

E'tibor qaratingki, kod 9 tushirib qoldirilgan qiymatlarga berilgan. Uchinchi ustunda javob bergen respondentlar soni keltirilgan. Masalan, uchta respondent anketada 5 qiymatini ko'rsatib, internet haqida nimalardir eshitganligini bildirgan. To'rtinchi ustunda anketada ushbu qiymatni belgilab qo'ygan respondentlar foizi ko'rsatilgan. Keyingi ustunda tushirib qoldirilgan qiymatlri hisobga olgan holda foizlar ko'rsatilgan. Agar tushirib qoldirligan qiymatlar bo'lmasa, demak 4 va 5 ustunlar aynan bir xil bo'ladi. So'nggi ustunda tushirib qoldirilgan holatlar (respondentlar javoblari) borasida tuzatish kiritilgandan keyingi to'plangan chastostalar ifodalangan. Ko'rinish turibdiki, so'rovda ishtirok etgan 30 ta respondentdan 10%i 5 qiymatni belgilagan. Agar qiymati tushirib qoldirilgan bitta respondentni chiqarib tashladigan bo'lsak, tez-tezlik 10,3%gacha ortadi. 5 qiymatga mansub bo'lgan to'plangan tez-tezlik 58,6ga teng. Boshqacha qilib aytganda, to'g'ri javob bergen respondentlarning 58,6%i xabardorlik borasida 5 yoki undan kichik qiymat ko'rsatgan.



15.1-rasm.Taqsimot gistogrammasi

Variatsiya qatori javob bermagan respondentlar ulushini aniqlashga (jadvalda 30 respondentdan bitti savolga javob bermagan) yordam beradi, shuningdek, noto‘g‘ri javoblar ulushini ko‘rsatadi. 0 yoki 8 ga teng qiymatlar xato javoblarga mos keladi. Bunday qiymatli holatlar sonini aniqlash va mos ravishda natijalarga tuzatish kiritish lozim. Bundan tashqari, ekstremal qiymatli holatlar mavjudligini aniqlash mumkin. Chastotalarni taqsimlash, shuningdek, o‘zgaruvchi qiymatlarini empirik taqsimlashni belgilab beradi. Chastotali ma’lumotlardan gistogramma yoki vertikal ustunli diagrammalar tuzish uchun foydalanish mumkin bo‘lib, ularda X o‘qi bo‘ylab o‘zgaruvchi qiymatlari, Y o‘qi bo‘ylab esa – mutlaq (chastota) yoki nisbiy (tez-tezlik) qiymatlar yotadi. Gistogramma bo‘yicha kuzatilayotgan taqsimot marketologlar taxmin qilgan taqsimotga mos kelishini tekshirib ko‘rish mumkin.

Fikr-mulohazalarni rasm yordamida ko‘rsatish uchun quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz.

10.5 – jadval

Reklama agentliklari rahbarlarining etik muammolari

| Muammo | javoblari | |
|---|------------|------------|
| | Soni | foizi |
| 1. O'z mijozlariga haqqoniy munosabatlari | 80 | 28 |
| 2. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, adashtirmaydigan haqqoniy reklama | 66 | 24 |
| 3. Sog'liqqa zarar bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan, kompaniyalarning xizmatlari | 34 | 12 |
| 4. Ta'minotchilarga, hamkorlarga va vositachilarga haqqoniy munosabatlari | 25 | 9 |
| 5. Xodimlar va menedjerlarga haqqoniy munosabatlari | 15 | 5 |
| 6. Boshqa reklama agentliklariga obyektiv munosabatlari | 7 | 3 |
| 7. Boshqalar | 11 | 4 |
| 8. Javoblar "yuq" | 43 | 15 |
| Jami | 281 | 100 |

Ushbu misolda ma'lumotlar turli axloqiy muammolar tarqalganligini ko'rsatadi. Bunda raqamli qiymatlar foydalaniishi sababli tavsifiy statistikalarni hisoblab chiqish uchun chastotalar taqsimotidan foydalanish kerak.

10.3. Statistik tahlil usulini tanlashga ta'sir etuvchi omillar

Ushbu usul ham omilli tahlilda keng qo'llaniladi. Mazkur usul natija ko'rsatkichining o'zgarishiga bitta yoki ikkita omil ta'sir qilgan paytlarda qo'llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olishdan iboratdir.

Bunda natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bir qancha ishoralar bilan ifoda etganda ham foydalanish mumkin. Masalan, tovar aylanmasii (T) asosiy vositalarning o'rtacha qiymati (A_k) va shu vositalarning samaradorligi bilan funksional bog'liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$T = Ak * Ks$$

Bunda Ks - Asosiy vositalarning samaradorligi.

Ushbu formuladan ko'rini turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalangan. O'ng tomonda joylashgan har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun natijaning rejadagi miqdorini qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak_1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi (Ks_0), ya'ni:

$$Tkx = Ak_1 \times Ks_0$$

Omillarning tovar aylanmasiga ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

1. Tovar aylanmasining asosiy vositalarning o'zgarishi evaziga o'zgarganligini (ΔTak) topish uchun tovar aylanmasining qayta hisoblangan miqdoridan (T_{kx}) uning rejadagi hajmini ayirish kifoya (T_o):

$$\Delta Tak = Tkx - T_o = (Ak_1 \times Ks_0) - (Ak_0 \times Ks_0)$$

2. Tovar aylanmasi o'zgarishiga asosiy vositalar samaradorligining ta'sirini (ΔTks) aniqlash uchun tovar aylanmasining haqiqiy summasidan (T_1) uning qayta hisoblangan miqdorini (T_{kx}) ayirish kifoya:

$$\Delta Tks = T_1 - Tkx = (Ak_1 \times Ks_1) - (Ak_1 \times Ks_0)$$

Yuqorida hisoblab topilgan ikki omilning ta'siri tovar aylanmasi farqining umumiy so'mmasiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta T = \Delta Tak \pm \Delta Tks$$

Ushbu nazariy tavsiyani aniq ma'lumotlarni qo'llab yechish yo'lini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (10.6-jadval).

10.6-jadval

Tovar aylanmasi hajmiga asosiy vositalar va ular samaradorligining ta'sirini qayta hisoblash usulini qo'llab aniqlash

| Ko'rsatkichlar | O'tgan yilda | Hiso- | Qayta | Farqi (+,-) | | |
|--|-----------------|------------|------------|---------------|--------------|--------------|
| | | bot yi- | hisob - | | Shu jumladan | |
| | | Iida | langan | Jami | Ak eva-ziga | Avs eva-ziga |
| Asosiy vositalar-ning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm | 26664,5 | 26531,6 | 26531,6 | - 132,9 | x | x |
| Asosiy vositalar-ning samaradorligi, so'm | 160,7 | 167,8 | 160,7 | + 7,1 | x | x |
| Tovar aylanmasi, ming so'm | 42850,0 | 44520,0 | 42636,3 | +1670 - 213,7 | | +1883,7 |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tovar aylanmasi hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 1670,0 ming so'mga oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan:

1. Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining 132,9 ming so'mga kamayishi tovar aylanmasi hajmini 213,7 ming so'mga kamaytirdi:

$$4236,3 - 42850,0 = - 213,7 \text{ ming sum}$$

2. Asosiy vositalar samaradorligining hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 7,1 so'mga oshganligi tovar aylanmasi hajmini 1883,7 ming so'mga oshirdi:

$$44520,0 - 42636,3 = + 1883,7 \text{ ming so'm}$$

Ushbu usullar mavjud bo'lgan ichki rezervlarni aniqlash imkonini beradi. Bizning misolimizda tovar aylanmasini oshirish uchun asosiy vositalarni ko'paytirish lozimligi aniqlandi.

Agarda asosiy vositalar hisobot davrida hech bo'lmaganda o'tgan yil hajmida qolganda edi tovar aylanmasi yana 1883,7 ming so'mga ko'paygan bo'lar edi. U holda haqiqiy tovar aylanmasi hajmi 44520,0 ming so'm emas, balki 46403,7 ming so'mni ($44520,0 + 1883,7$) tashkil qilgan bo'lar edi. Tovar aylanmasi rejasining bajarilishi 103,9 % emas, ($44520,0 \times 100 : 42850,0$), balki 108,3%ni ($46403,7 \times 100 : 42850,0$) tashkil qilgan bo'lar edi.

Qayta hisoblash usulini natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ayirish bo'lganda ham foydalanish mumkin.

Sotishdan olingen sof tushumni korxonaning yalpi foydasi deb ham atash mumkin. Bu odatda sotilgan mahsulotning umumiyligi qiymatidan uning tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. Bunga misol qilib foyda summasining o'zgarishiga sotilgan mahsulot () va tannarx o'zgarishining () ta'sirini hisoblash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlarning bir-biri bilan bog'liqligi quyidagi formulada ifodalangan:

$$F_{sm} = (S_{m_1} - T_{n_1});$$

Mazkur formulaga asosan sotilgan mahsulot hajmining ko'payishiga ikkita omilning, ya'ni sotilgan mahsulot hajmi va baho o'zgarishining ta'sirini aniqlash mumkin.

1. Foydaga sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini qayta hisobiash yo'li bilan quyidagicha hisoblash mumkin. Eng avvalo foyda summasi sotilgan mahsulotning haqiqiy miqdori va tannarxning rejadagi miqdori bilan qayta hisoblab olinadi:

$$F_{sm.qh} = (S_{m_1} - T_{n_0});$$

Endi qayta hisoblangan summadan ($F_{sm.qh} = S_{m_1} - T_{n_0}$) foydaning rejadagi miqdori ($F_{sm_0} = S_{m_0} - T_{n_0}$) ayrılatdi, ya'ni:

$$\Delta F_{sm.sm} = F_{sm.qh} - F_{sm_0} = (S_{m_1} - T_{n_0}) - (S_{m_0} - T_{n_0})$$

2. Foya summasining o'zgarishiga tannarx summasi o'zgarganligining ta'sirini (ΔF_{tk}) aniqlash uchun foyda summasining haqiqiy miqdoridan (F_{sm_1}) uning qayta hisoblangan miqdori ($F_{sm.qh}$) ayrılatdi. Bu quyidagi formula orqali yechiladi:

$$\Delta F_{sm.tn} = F_{sm_1} - F_{sm.qh} = (S_{m_1} - T_{n_1}) - (S_{m_1} - T_{n_0});$$

Shu ikki omilning ta'siri natijaning umumiyligi farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\Delta F_{sm} = \Delta F_{sm.sm} \pm \Delta F_{sm.tn};$$

Ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'tinib turibdiki, hisobot yilida foyda summasi 979,5 ming so'mga ko'paygan. Mazkur o'zgarishga ikkita omil ta'sir qilgan.

1. Sotilgan mahsulot (tovar aylanmasi) hajmining 1670,0 ming so'mga oshganligi foyda summasini 1670,0 ming so'mga oshirgan:

$$7368,8 - 5698,8 = +1670, \text{ ming so'm}.$$

2. Tannarx summasining hisobot yilidagi oshishi, foyda summasini 690,5 ming so'mga kamaytirgan:

$$6678,3 - 7368,8 = -690,5 \text{ ming so'm}.$$

10.4. Gipotezalarni tekshirish

Qaror qabul qilish jarayonida u yoki bu taklif foydasiga yaqqol va ishonarli dalillar bo'limgan vaziyatlarga ham duch kelinadi. Bundan tashqari, menejer ko'pincha o'z qarorlarining asoslangan ekanligini isbotlashiga to'g'ri keladi.

Bu holatlarda qaror qabul qilish jarayoni tarkibiy qismlaridan biri bo'lib gipotezalarni statistik tekshirish ishtirok etadi, u mavjud axborot asosida yakuniy tanlov qilishga imkon beradi.

Gipoteza atrof-muhit haqida ma'lum bir taxminni (fikrni) ifodalaydi, ya'ni asosiy bosh to'plamga mansub hisoblanadi. Bunday taxmin yoki haqiqat, yoki yolg'on bo'lishi mumkin. Tekshirish esa bu savolga javob berish uchun imkon yaratadi.

Statistikada tekshirilishi lozim bo'lgan ikkita gipoteza ko'rib chiqiladi: nolinchi gipoteza (N_0) va tadqiqotchilik (muqobil) gipotezasi (N_1).

Nolinchi va tadqiqotchilik gipotezasi bir-birini inkor qiladi. Nolinchi gipotezani isbotlash kerak emas. U «isbotlanganlik prezumtsiyasi»ga ega.

Tadqiqotchilik gipotezasi isbotlanishi lozim. Bunda agar isbotlar yetarli bo'lmasa, nolinchi gipoteza qabul qilinadi.

Nolinchi va muqobil gipotezalarni ifodalash uchun tadqiqotchi o'ziga «Gipotezalarning qaysi biri isbotlashni talab qiladi?» degan

savol berishi kerak. Tekshiruv natijasida tadqiqotchi ehtimoliy qarorlardan birini qabul qiladi:

1. Nolinchi gipotezani qabul qilish (isbotlar yetarli emasligi sababli);
2. Nolinchi gipotezani rad qilish va muqobil gipotezani qabul qilish.

Gipotezalarga misollar.

1. *Vaziyat*. Tasodifiy tarzda tanlab olingen 200 kishidan iborat guruh savdo markasi reklamasini tomosha qildi. Kelasi hafta davomida qayd etildiki, bu guruhning bir qismi reklama qilinayotgan tovarni xarid qilgan.

Nolinchi gipoteza. Reklama hech qanday samara bermagan. (xaridorlar foizi bosh asosiy to'plamdag'i foizdan farq qilmaydi).

Muqobil gipoteza. Reklama samarabergan. (xaridorlar foizi bosh asosiy to'plamdag'i foizdan farq qiladi).

2. *Vaziyat*. Siz benzinag qo'shiladigan, yoqilg'i sarfini pasaytirishga imkon beradigan qo'shimcha o'rgamoqdasiz (ishlab chiqaruvchi shunday deb ma'lum qilgan).

Nolinchi gipoteza. Qo'shimcha yoqilg'i sarfiga ta'sir etmaydi.

Muqobil gipoteza. Qo'shimcha yoqilg'i sarfiga ta'sir etadi.

3. *Vaziyat*. Sizning firmangizga gender belgisi bo'yicha ish haqida nomuvofiqliklar borasida da'volar bildirilmoqda.

Nolinchi gipoteza. Erkaklar va ayollar ish haqi miqdori bir xil.

Muqobil gipoteza. Erkaklar va ayollar ish haqi miqdori bir xil emas.

Rasmiy ko'rinishda ushbu gipotezalar qiladi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

$$N_0 : \mu = \mu_0$$

$$N_1 : \mu \neq \mu_0$$

bu yerda μ – bosh asosiy to'plamdag'i noma'lum o'rtacha qiymat (u bizni qiziqtirmaydi);

μ_0 – gipoteza unga nisbatan tekshiriladigan berilgan qiymat;

X – μ ifodalaydigan tanlama to'plam o'rtacha qiymati (tasodifiy ko'rsatkich).

Gipotezani tekshirish ma'lum bo'lgan ikkita X va μ_0 ko'rsatkichini taqqoslashdan iborat. Agar bu qiymatlar o'zarlo

«ancha yakin» ($X = \mu_0$) bo'lsa, demak nolinchgi gipoteza qabul qilinadi. Agar qiymatlar bir-biridan «kuchli farq qiladigan» ($X \neq \mu_0$) bo'lsa, bunda muqobil gipoteza qabul qilinadi. Qiymatlar «yaqinligi» S_x standart xato qiymati asosida aniqlanadi.

Gipotezalarni tekshirishning ikki xil usuli mavjud. Birinchni usul – ishonchli oraliqlar usuli. Ikkinci usul t-test nomiga ega bo'lib, amaliyotda kengroq tarqalgan va t-statistika hisob-kitobiga asoslanadi.

«Ishonchli oraliqlar» usuli 95% ishonchlilik darajasida qiymatlar doirasi qurishdan iborat:

10.7 – jadval

«Ishonchli oraliqlar» usuli

| | | |
|--|-------------------------------------|--|
| O'rtacha ko'rsatkich uchun | $X - t^*S_x \leq X \leq X + t^*S_x$ | $t^* = \frac{\sqrt{n}}{2} \cdot \frac{1}{\sigma}$ |
| Belgi ulushi uchun | $p - t^*S_p \leq p \leq p + t^*S_p$ | $t^* = \frac{\sqrt{n}}{2} \cdot \frac{1}{\sigma}$ |
| O'rtacha ko'rsatkich uchun standart xato | $S_x = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$ | $\sigma - st. og'ish$ $n - tanlama to'plam hajmi$ |
| Ulush standart xatosi | $S_p = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}$ | $p - o'rganilayotgan belgi ulushi$ |

Agar μ_0 qiymati ishonchli oraliq doirasidan chetda joylashgan bo'lsa, bunda u ehtimoliy qiymat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas, ya'ni $\mu = \mu_0$ tenglik bajarilmaydi. Mos ravishda, $\mu \neq \mu_0$ tenglik bajariladi, ya'ni muqobil gipoteza isbotlanadi. Bunday holatda nolinchgi gipoteza rad qilinadi va ishonchlilik darjasini 95% bo'lgan muqobil gipoteza qabul qilinadi degan xulosa chiqariladi.

I-misol. Faraz qilaylik, mahsulot chiqarishni oshirish uchun qo'shimcha qo'shishdan samara o'rganiladi. Qo'shimcha qo'shishdan foydalangunga qadar o'rtacha mahsulot chiqarish

kuniga 32,1 kg bo'lgan. Kuzatuv amalga oshirilgan 7 kun natijasi bo'yicha o'rtacha mahsulot chiqarish 39,6 kg darajada kuzatilgan.

Bunda standart xato 4,2 kg ni tashkil qilgan ($S_x = \sigma / \sqrt{n}$).

Savol shundan iboratki, qo'shimcha qo'shishdan haqiqatda samara bormi yoki natijalar «tasodifiy» xarakterga egami?

Echim.

Nolinchi gipotezaga ko'ra, qo'shimcha qo'shish hech qanday samara keltirmaydi (ya'ni eksperiment o'tkazishdan oldin va undan keyin mahsulot chiqarish farq qilmaydi). $N_0 : \mu = 32,1$.

Muqobil gipotezaga ko'ra, qo'shimcha qo'shishdan samara bor (ya'ni eksperiment o'tkazishdan oldin va undan keyin mahsulot chiqarish turlicha).

$N_1 : \mu \neq 32,1$.

Styudent koeffitsienti qiymati jadval bo'yicha topiladi: $n=7$ tanlama to'plam uchun $t = 2,447$.

Ishonchli oraliq quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$39,6 - 2,447 * 4,2 \leq \mu \leq 39,6 + 2,447 * 4,2$$

$$29,3 \leq \mu \leq 49,9$$

Xulosa: berilgan qiymat 32,1 ishonchli oraliqqa mos tushishi sababli eksperiment natijalari qo'shimcha qo'shishdan samara bor ekanligi haqida muqobil gipotezani tasdiqlamaydi. 32,1 natija qo'shimcha qo'shishda ham foydalanish mumkin hisoblanadi. Shu sababli muqobil gipoteza rad qilinadi va nolinchi gipoteza qabul qilinadi: qo'shimcha qo'shish mahsulot chiqarishga ta'sir etmaydi.

2-misol. O'r ganiladigan masala: agar yollarma xodimlarga kompaniya aksiyalarining ma'lum bir qismi berilsa, ish sifati haqiqatda ortadimi? Turli firmalarning 343 menejeri o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra aniqlandiki, chto sredniy ball po shkale «-2 dan (otritsatelnoe vliyanie) +2 gacha(polojitelnoe vliyanie)» shkala bo'yicha o'rtacha ball 0,14 standart xato bilan 0,35 ballni tashkil qiladi. Bunday natijalar nimadan dalolat beradi?

Echim.

Nolinchli gipotezaga ko'ra, aksiyalarni xodimlarga berish hech qanday samara bermaydi (ya'ni ish siati oshmaydi). $N_0 : \mu = 0$.

Muqobil gipotezaga ko'ra, aksiyalarni xodimlarga berish hech qanday samara bor (ya'ni menejerlar bahosi noldan farq qiladi).

$$N_1 : \mu \neq 0.$$

Styudent koefitsienti qiymati jadval bo'yicha topiladi: $n > 40$ tanlama to'plam uchun $t = 1,96$.

Ishonchli oraliq quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$0,35 - 1,96 * 0,14 \leq \mu \leq 0,35 + 1,96 * 0,14$$

$$0,076 \leq \mu \leq 0,624$$

Xulosa: «0» qiymati ishonchli oraliq doirasiga mos tushmaydi, bu yollanma xodimlarda korxona aksiyalarining mavjudligi ish sifatining ortishiga olib kelishining isboti hisoblanadi.

3-misol. Siz chiqarilayotgan mahsulotning kamida 10%ni sifat standartlari bo'yicha «Lyuks» sinfiga kiritish mumkin bo'lishidan manfaatdorsiz. Korxonada ayrim o'zgarishlar joriy qilingandan so'ng 500 namunadan iborat tasodifiy tanlama to'plam shakllantirasiz, ularning orasida 58 tasi ushbu mezonga javob beradi va bu 11,6%ni tashkil qiladi. Siz kutilgan natijaga erishildi deb ishonch hosil qila olasizmi?

Echim.

Nolinchli gipotezaga ko'ra, korxonada o'zgarishlar joriy qilish hech qanday samara olib kelmaydi (ya'ni «Lyuks» sinfiga oid mahsulot foizi 10%ga teng bo'lib qolaverdi). $N_0 : \pi = 10\%$.

Muqobil gipotezaga ko'ra, korxonada o'zgarishlar joriy qilishdan samara bor (ya'ni bunday mahsulot chiqarish foizi o'zgardi, o'sdi).

$$N_1 : \pi \neq 10\%.$$

Belgi ulushi (binominal taqsimot) uchun ishonchli oraliq quyidagini tashkil qiladi:

$$\rho - t^* S_p \leq \pi \leq \rho + t^* S_p$$

$$11,6 - 1,96 * 1,43 \leq \pi \leq 11,6 + 1,96 * 1,43$$

$$8,8 \leq \pi \leq 14,4$$

Xulosa: 10%ga teng bo'lgan qiymat ishonchli oraliq doirasida ekanligi sababli aytish mumkinki, olingan 11,6% qiymat 10%dan

jiddiy farq qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, «Lyuks» sinfiga oid mahsulot chiqarishning 10%dan kam ta'minlanmasligiga ishonchli dalillar yo'q.

Shunday qilib, gipotezalarni tekshirish natijalari bo'yicha muqobil gipoteza rad qilinadi va 95% darajada nolinchi gipoteza qabul qilinadi.

«*t-test*» usuli «*t-statistika*» ni hisob-kitob qilishga, uni jadval qiymati va xulosani ifodalash bilan taqqoslashdan iborat.

t-statistika, yoki Styudent *t*-koeffitsienti (*T*-jadval ilk bora taklif qilingan birinchi maqolada Guinness firmasining bosh mutaxassisini V.S.Gosset birinchi bo'lib qo'llagan) quyidagicha hisoblab chiqiladi

| | |
|-------------------------------|---------------------------------|
| o'rtacha ko'rsatkich uchun | $t = \frac{X - \mu}{S_x}$ |
| belgi ulushi uchun | $t = \frac{\rho - \pi}{S_\rho}$ |

Jadval qiymati bilan taqqoslash uchun *t mutlaq* qiymati, ya'ni «modul bo'yicha» qiymat foydalilanildi.

t - statistika tanlama to'plam bo'yicha (*X*) va asosiy bosh to'plam bo'yicha (μ) o'rtacha qiymatlar o'rtaqidagi standart xatolar qanchalik farq qilishini ko'rsatadi. Ishonchlilik darajasi 95%, $t=1,96$ bo'lganda, « $t > 2$ bo'lsa, nolinchi gipoteza rad qilinadi» empirik qoidasi mavjud bo'ladi.

Agar muqobil gipoteza 5% darajada qabul qilinadigan bo'lsa, tekshiruv natijasi statistik muhim ahamiyatga ega bo'ladi deb hisoblash qabul qilingan. Olingan natijalarni tavsiflash uchun odatda quyidagi atamalardan foydalilanildi:

10.8 – jadval

Natijalar atamalari

| | |
|-----------------------|---------------------------|
| Muhim emas | 5% darajada muhimlik yo'q |
| Muhim | 5% darajada muhim |
| Muhimligi yuqori | 1% darajada muhim |
| Muhimligi juda yuqori | 0,01% darajada muhim |

Excel dagi hisob-kitoblarda dastur ma'lumotlar nolinchi gipotezaga mos kelish ehtimolini ko'rsatadigan r -qiymat chiqaradi. Odatda agar $r < 0,05$ bo'lsa, N_0 rad qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, nolinchi gipoteza haqiqiy ekanligi ehtimoli 5%dan ortmaydi (bu statistik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi).

Ko'rib chiqilgan misollarda biz bitta tanlama to'plam bo'yicha ma'lumotlar bilan ishladi. Vazifa shundan iborat ediki, (X) tanlama to'plam bo'yicha o'rtacha qiymatni (μ_0) berilgan ma'lum bir qiymat bilan taqqoslash talab etilgan.

Amaliyotda ko'pincha bitta tanlama to'plamdan ortiq o'rtacha qiymatlarni taqqoslashga to'g'ri keladi. Bunday vaziyatlarda Stu'udent t-testi keng qo'llanadi.

Ikki va undan ortiq tanlama to'plam uchun t-test o'tkazish «Dispersiya tablili» bo'limida batafsil ko'rib chiqiladi.

10.5. Diskret variatsiya qatorlari

Odatda o'rganilayotgan belgi qiymatlari bir-biridan ma'lum bir yakuniy qiymatdan kam bo'Imagan darajada farq qilishi mumkin bo'lgan hollarda tashkil qilinadi.

Diskret variatsiya qatorlarida belgining nuqtali qiymatlari beriladi.

Diskret variatsiya qatorining umumiy ko'rinishi 10.9-jadvalda ko'rsatilgan.

10.9-jadval

Diskret variatsiya qatorining umumiy ko'rinishi

| | | | | |
|-----------------------|-------|-------|-----|-------|
| (x_i) belgi qiymati | x_1 | x_2 | ... | x_k |
| (m_i) chastotalar | m_1 | m_2 | ... | m_k |

bu yerda $i = 1, 2, \dots, k$.

Oraliqli variatsiya qatorlari odatda o'rganilayotgan belgi qiymatlari bir-biridan istalgan darajada kichik farq qilishi mumkin bo'lgan hollarda tashkil qilinadi.

Oraliqli variatsiya qatorlarida belgi qiymatlari oraliqlar ko'rinishida beriladi.

Oraliqli variatsiya qatorining umumiy ko'rinishi 10.10-jadvalda ko'rsatilgan.

10.10-jadval

Oraliqli variatsiya qatori

| | | | | |
|---|----------------------|----------------------|-----|--------------------------|
| Belgi qiymatlari (m_i) chastotalar | $a_1 - a_2$ m_1 | $a_2 - a_3$ m_2 | ... | $a_{l-1} - a_l$ m_l |
|---|----------------------|----------------------|-----|--------------------------|

bu yerda $i = 1, 2, \dots, l$.

Oraliqli variatsiya qatorlarida har bir oraliqda oraliqning yuqori va quyi chegarasi ajratib ko'rsatiladi.

Oraliqning yuqori va quyi chegarasi o'ttasidagi farq *oraliqli farq* yoki *oraliq uzunligi (masofasi)* deb ataladi.

Birinchi oraliq miqdori k_1 quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$k_1 = a_2 - a_1;$$

ikkinchi oraliq miqdori: $k_2 = a_3 - a_2; \dots$

uchinchi oraliq miqdori: $k_l = a_l - a_{l-1}$.

Umumiy ko'rinishda *oraliq farqi* k , quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$k_i = x_{i(\max)} - x_{i(\min)}$$

Agar oraliq ikkala chegaraga ega bo'lsa, u *yopiq* deb ataladi.

Birinchi va so'nggi oraliqlar *ochiq* ya'ni faqat bitta chegaraga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, birinchi oraliq «100 gacha», ikkinchi oraliq – «100-110»..., oxiridan oldingi oraliq – «190-200», oxirgi oraliq esa – «200 va undan ortiq» deb berilishi mumkin. Ko'riniib turibdiki, birinchi oraliq quyi chegaraga ega emas, oxirgi oraliq esa – yuqori chegaraga ega emas, ularning ikkalasi ochiq oraliqlar hisoblanadi.

Ochiq oraliqlar ko'pincha shartli ravishda yopilishiga to'g'ri keladi. Buning uchun odatda birinchi oraliq miqdori ikkinchi

oraliq miqdoriga teng deb, oxirgi oraliq miqdori esa – undan oldingi oraliq miqdoriga teng deb olinadi. Bizning misolda ikkinchi oraliq miqdori $110-100=10$ ga teng, demak, birinchi oraliqning quyi chegarasi shartli ravishda $100-10=90$; oxiridan oldingi oraliq miqdori $200-190=10$ ga teng, demak, oxirgi oraliqning yuqori chegarasi shartli ravishda $200+10=210$ bo'ldi.

Bundan tashqari, oraliqli variatsiya qatorida turli masofalni oraliqlar ham uchrashi mumkin. Agar variatsiya qatorida oraliqlar bir xil masofaga ega bo'lsa, ular teng masofali, aks holda – teng masofali emas deb ataladi.

Oraliqli variatsiya qatori tuzishda ko'pincha oraliqlar hajmini (oraliqlar tafovutini) tanlash muammosi vujudga keladi.

Oraliqlar optimal hajmini aniqlash uchun (teng oraliqli qator tuzilgan hollarda) Sterdjess formulasi qo'llanadi:

$$K = \frac{x_{(max)} - x_{(min)}}{1 + 3,322 \lg n}$$

bu yerda n – bosh to'plam birliklari soni,

$x_{(max)}$ va $x_{(min)}$ – qator variantlarining eng katta va eng kichik qiymatlarini.

Varaitsiya qatorini tavsiyflash uchun chastotalar va tez-tezliklar bilan bir qatorda to'plangan chastotalar va tez-tezliklar foydalananildi.

To'plangan chastotalar (tez-tezliklar) bosh to'plamning nechta birligi (ularning qaysi qismi) berilgan x qiymatidan (variantdan) ortmasligini ko'rsatadi.

Berilgan diskret qator bo'yicha to'plangan chastotalar (v_i) quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqilishi mumkin:

$$v_i = m_1 + m_2 + \dots + m_i$$

Oraliqli variatsiya qatori uchun bu – barcha oraliqlar chastotalari (tez-tezliklari) yig'indisi.

Diskret variatsiya qatorini chastotoalar yoki tez-tezliklar taqsimot poligoni rdamida grafik ko'rinishida aks ettirish mumkin.

Mening qatorda qatorni chiqishda qatorni qatorning

tez-tezliklari yoki chastotalari hisoblab chiqishni qo'shamiz.

Taqsimot poligoni tuzishda abstsissalar o'qi bo'yicha belgi qiymatlari (variantlar), ordinatala o'qi bo'yicha esa – chastotalar yoki tez-tezliklar joylashtiriladi. Belgi qiymatlari va ularga mos keladigan chastotalar (tez-tezliklar) kesishuida joylashgan nuqtalar, o'z navbatida, kesmalar bilan birlashtiriladi. Shu tariqa olinadigan siniq chiziq chastotalar (tez-tezliklar) taqsimot poligoni deb ataladi.

Abstsissalar o'qi bo'yicha histogramma tuzishda o'rganilayotgan belgi qiymati (oraliqlar chegaralari) joylashtiriladi.

Oraliqlar bir xil hajmda bo'lgan hollarda ordinatalar o'qi bo'yicha chastotalar yoki tez-tezliklar joylashtirilishi mumkin.

Agarda oraliqlar turli hajmga ega bo'lsa, ordinatalar o'qi bo'yicha mutlaq yoki nisbiy taqsimot zichligi qiymatlarini joylashtirish zarur.

Mutlaq zichlik – oraliq chastotasining oraliq hajmiga nisbati:

$$f(a)_i = \frac{m_i}{k_i}$$

bu yerda: $f(a)_i$ – i-oraliqnning mutlaq zichligi;

m_i – i-oraliq chastotasi;

k_i – i-oraliq hajmi (oraliq tafovuti).

Mutlaq zichlik oraliq birligiga nechta bosh to'plam birligi to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Nisbiy zichlik – oraliq chastotasining oraliq hajmiga nisbati:

$$f(o)_i = \frac{w_i}{k_i}$$

bu yerda: $f(o)_i$ – i-oraliqnning nisbiy zichligi;

w_i – i-oraliq tez-tezligi.

Nisbiy zichlik oraliq birligiga bosh to'plamning nechta birligi to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Qisqa xulosalar

Mazkur bobda biz, miqdorlarning tafovuti, statistikada variatsiya ko'rsatkichlari va ularning marketing tadqiqotlarini tahlil qilishdagidan o'rni haqida gapirib berdik.

O'rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo'lgan alohida miqdorlarni umumlashtirib tavsiflasa-da, lekin o'ziga nisbatan alohida miqdorlarning qanchalik tafovutda ekanligini, u tafovutning qanchalik katta-kichikligini ifodalay olmaydi. Vahołanki, o'rtachaning real qiymatga ega bo'lishi bevosita alohida miqdorlar o'tasidagi tafovutga bog'liq.

O'rtacha arifmetik miqdorning matematik xususiyatlaridan biri shunda ediki, alohida miqdorlar bilan ularning o'rtachasi o'tasidagi farq yig'indisi nolga teng. Shuning uchun ham o'rtacha mutlaq tafovutni hisoblashda farqlar ishorasiga e'tibor berilmaydi, ular qavs ichiga olinmasdan to'g'ri chiziq ichiga olinadi. Natijada umumiy olingan yig'indi iqtisodiy, real ma'noga ega bo'lmaydi, shu sababli statistika amaliyotida bu ko'sratkich deyarli qo'llanilmaydi. Uning o'rniغا dispersiya, ya'ni o'rtacha kvadrat tafovut ishlataladi.

Nolinchi va muqobil gipotezalarni ifodalash uchun tadqiqotchi o'ziga «Gipotezalarning qaysi biri isbotlashni talab qiladi?» degan savol berishi kerak. Tekshiruv natijasida tadqiqotchi ehtimoliy qarorlardan birini qabul qiladi:

1. Nolinchi gipotezani qabul qilish (isbotlar yetarli emasligi sababli);
2. Nolinchi gipotezani rad qilish va muqobil gipotezani qabul qilish.

Gipotezalarga misollar.

1. *Vaziyat.* Tasodifiy tarzda tanlab olingan 200 kishidan iborat guruh savdo markasi reklamasini tomosha qildi. Kelasi hafta davomida qayd etildiki, bu guruuning bir qismi reklama qilinayotgan tovari xarid qilgan.

Nolinchi gipoteza. Reklama hech qanday samara bermagan. (xaridorlar foizi bosh asosiy to'plamdag'i foizdan farq qilmaydi).

Muqobil gipoteza. Reklama samarabergan. (xaridorlar foizi bosh asosiy to'plamdag'i foizdan farq qiladi).

2. *Vaziyat.* Siz benzinag qo'shiladigan, yoqilg'i sarfini pasaytirishga imkon beradigan qo'shimcha o'rgamoqdasiz (ishlab chiqaruvchi shunday deb ma'lum qilgan).

Gipotezalarni tekshirishning ikki xil usuli mavjud. Birinchni usul – ishonchli oraliqlar usuli. Ikkinci usul t-test nomiga ega bo‘lib, amaliyotda kengroq tarqalgan va t-statistika hisob-kitobiga asoslanadi.

Gipoteza atrof-muhit haqidə ma’lum bir taxminni (fikrni) ifodalaydi, ya’ni asosiy bosh to‘plamga mansub hisoblanadi. Bunday taxmin yoki haqiqat, yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin. Tekshirish esa bu savolga javob berish uchun imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu bobda foydalilaniladigan statistik tushunchalar respondentlarning internetdan shaxsiy (kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘limgan) maqsadlarda foydalanishini ko‘rsatadigan misol yordamida aks ettirilgan.

Tayanch iboralar: tafovut, miqdor, variatsiya, dispersiya, koefitsient, chastota, gipoteza, histogramma, taqsimot, gipoteza, muqobil gipoteza, diskret variatsiya, nisbiy zichlik, oraliq miqdori, diskret variatsiya, mutlaq zichlik, Sterdjess formulasi, nolinchi gipoteza va boshq.

Nazorat uchun savollar

1. Variatsiya qatori deganda nimani tushunasiz va uning mohiyati nimadan iborat?
2. Tafavut (o‘zgaruvchanlik)ning katta kichikligi qaysi matematik usullarda aks etadi?
3. Statistik variatsiya deyilganda nima tushuniladi?
4. Dispersiyali miqdor lar bilan o‘rtacha miqdorning farqi nimada?
5. Variatsiya koefitsientining o‘rtacha kvadratik tafovutlardagi qiyosiy tahlili nimalardan iborat?
6. Xi-kvadrat mezoni va gipotezalarning tekshirishda bazaviy tahlilning ahamiyati nima?
7. Nima uchun gipotezalar tekshiriladi va gipotezaning asosiy funksiyasi nimadan iborat?
8. Nolinchi gipoteza bilan muqobil gipotezaning farqi nimada?
9. Ishonchli oaliqlar nima?
10. Styudent koefitsienti qiymati qaysi to‘plamga mos keladi?

11-BOB. DISPERSIYALI VA KOVARIATSION TAHLIL

11.1. Statistik tahlil usullarining o'zaro aloqasi

Marketologlar nazorat qilinmaydigan erkin o'zgaruvchilarning ta'sirini hisobga olish sharti bilan nazorat qilinadigan erkin o'zgaruvchilar ta'siri bilan ifodalangan bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati farqini o'rghanish uchun dispersion va kovariatsion tahlil usullaridan foydalananadilar. Mohiyatiga ko'ra, dispersion tahlil (analysis of variance – ANOVA) ikki yoki undan ko'proq yig'indi uchun tanlangan o'rtacha qiymat farqining statistik ma'nosi sifatida qo'llaniladi. Odatda nolga teng bo'lgan gipoteza, barcha o'rtacha oraliqlar tengligini tasdiqlaydi.

Masalan, tadqiqotchilar, quruq nonushta iste'mol qiluvchi turli darajadagi kishilar (ko'p, o'rtacha, kam yoki umuman iste'mol qilmaydiganlar) Laykertning to'qqiz ballik ustuni bo'yicha o'lchanan Total cereal ni haqiqatda afzal ko'rishlari bo'yicha farqlanishlarini bilish bilan qiziqadilar deb faraz qilaylik. Iste'molchilarning to'rt guruhi Total ni afzal ko'rishlari bo'yicha farqlanmasliklarini tasdiqlovchi nollik gipotezanı tekshirishni dispersion tahlildan foydalangan holda bajarish mumkin.

Dispersion va kovariatsion tahlilni bajarish usullarini yoritib beramiz, hamda ularning o'zgaruvchilar o'rtaсидаги boshqa aloqa usullarini tekshirish usullari bilan nisbatini muhokama qilamiz.

Keyin esa ushbu usullarning eng oddisi, ya ni bir omilli dispersion tahlilni, so'ng ko'pomilli – dispersion va kovariatsion tahlilni yoritib beramiz. Natijalarни talqin qilish masalalariga, aynan – omillarning o'zaro ta'siri, ularning nisbiy muhimligi va ko'plik tenglamalarga alohida e'tibor qaratamiz. Dispersion tahlilda takroriy o'zgaruvchilar, o'lebovsiz dispersion tahlil va ko'po'lchamli dispersion tahlil kabi ba'zi maxsus mavzularni keng yoritib o'tamiz. Dispersion tahlilni qo'llash misollarini ko'rib chiqamiz.

Dispersion tahlil (analysis of variance – ANOVA). Ikki yoki undan ko'proq yig'indi uchun tanlangan o'rtacha o'rtaсидаги farqlarни o'rghanishning statistik usulidir.

Dispersion tahlil oddiy shaklda, o'Ichamli hisoblanuvchi bog'liq o'zgaruvchiga (quruq nonushtani afzal ko'rish Total cereal) ega bo'lishi lozim. Undan tashqari bir yoki undan ko'proq erkin o'zgaruvchilar (mahsulotni: kuchli, o'rta, sust iste'mol qilish yoki umuman iste'mol qilmashlik) bo'lishi shart. Barcha erkin o'zgaruvchilar toifali bo'lishi (o'Ichamsiz) bo'lishi lozim, ularni Total cereal omilli deb ham ataydilar.

Dispersion tahlil asosan ornnaviy ma'lumotlar to'plash mumkin bo'lmagan, tanlama tariqasida kuzatiladigan kichik to'plamlarda kuzatish natijalarining qanchalik ishonchli ekanligiga obyektiv baho berish uchun keng qo'llaniladi.

Dispersion tahlil yordamida quyidagi masalalar yechiladi:

- ✓ Bir yoki bir necha belgi bo'yicha guruhlangan hodisalar o'rtachalari orasidagi tafovutga umumiyl ishonch bahosi beriladi.
- ✓ Bir yoki bir necha omillarning o'z ta'siri bo'yicha umumiyl ishonch baho aniqlanadi.
- ✓ Juft o'rtachalar orasidagi xususiy tafovutga baho beriladi.

Dispersion tahlilning prinsipial sharhi quyidagicha:

- birlıklar o'rtasidagi tafovutning asosiy manbalari, ularning ta'sir kuchlarini aniqlash;
- umumiyl tafovutga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha erkin o'zgaruvchan biriklar sonini aniqlash;
- tegishli dispersiyani aniqlash, ularning tahlili asosida "nol"ga barobar gipotezani tasdiqlash yoki rad etish hisoblanadi.

Kuzatilayotgan natijaviy belgilardagi umumiyl tavofut (σ_{um}^2) ikkita tafovutga bo'linada: bevosita guruhash belgisiga bog'liq bo'lgan variatsialarni tavsiflovchi tafovut, yani guruhlararo dispersiya (σ_{gr}^2) va bevosita guruhash belgisiga bog'liq bo'lmagan tafovut, ya'ni guruhlar ichidagi yoki qoldiq dispersiya (σ_q^2). Bu dispersiyalar o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$\sigma_{um}^2 = \sigma_{gr}^2 + \sigma_q^2; \sigma_{gr}^2 = \sigma_{um}^2 - \sigma_q^2; \sigma_q^2 = \sigma_{um}^2 - \sigma_{gr}^2.$$

Dispersion tahlilda oldida faqatgina bitta vazifa: guruhlar o'rtachalari orasidagi tafovut sababiga umumiyl ishonch bahosini berish vazifasi turadi.

Variatsiya ko'rsatkichlari

| № | Ko'rsatkichlar | Belgi-lash | Hisoblash tartibi | |
|---|--|------------|-------------------|-----------|
| | | | Oddiy k. | Vaznli k. |
| 1 | Variatsjion kenglik | | | |
| 2 | O'rtacha mutloq tafovut | | | |
| 3 | O'rtacha kvadrat tafovut (dispersiya) | | | |
| 4 | O'rtacha kvadrat tafovut | | | |
| 5 | Variatsiya koeffitsienti | | | |

O'lchov birliklari har xil bo'lganda o'zgaruvchanlikning qiyosiy jihatdan tahlil qilish maqsadida – variatsiya (tafovut) koeffitsienti hisoblanadi.

$$V = \frac{\delta \times 100}{X}$$

$V \geq 0$ ga yaqin bo'lsa, o'zgaruvchanlik shunchalik kuchsiz,
 $v \geq 100$ ga yaqinlashsa, o'zgaruvchanlikni kuchliligidn dalolat beradi.

Dispersion tahlil asosan ommaviy ma'lumotlar to'plash mumkin bo'lganda, tanlama tariqasida kuzatiladigan kichik to'plamlarda kuzatish natijalarining qanchalik ishonchli ekanligiga obyektiv baho berish uchun keng qo'silaniladi.

Dispersion tahlildan maqsad:

1) birliklar o'rtaсидаги таfovutni asosiy manbalarini, ularning ta'sir kuchlarini aniqlash;

2) umumiyl tafovutga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha erkin o'zgaruvchi birliklar sonini;

3) tegishli dispersiyalarni aniqlash, ularning tahlili asosida "nolga barbar gipoteza" ni tasdiqlash yoki rad etishni amalga oshirishdan iborat.

Dispersiyalar turlari. Statistika ma'lumotlari qanday taqdim etilganiga (umumiyl bosh to'plam yoki bir nechta bosh to'plam) qarab, quyidagi dispersiya turlari farqlanadi: guruh dispersiyasi; ichki guruh dispersiyasi; guruhlararo dispersiya; umumiyl dispersiya.

Guruh dispersiyasi guruh (tanlama to'plam) ichidagi belgi variatsiyasini o'lchaydi va mohiyatan ushbu qiymatlar guruh uchun tanlama dispersiya hisoblanadi. Guruh dispersiyasi guruh ichida ro'y beradigan sabablar hisobigagina vujudga keladigan o'zgaruvchanlikni aks ettiradi.

Ichki guruh dispersiyasi guruh dispersiyalari orasida o'rtacha hisoblanadi va guruhlashga asos qilib olingan omilni istisno qilganda qolgan barcha omillar ta'siri ostida ro'y beradigan belgi *tasodifiy* variatsiyasini aks ettiradi.

Guruhalaro dispersiya (guruhalar o'rtacha ko'rsatkichlari dispersiyasi) guruhlashga asos qilib olingan omilning ta'siri bilan asoslanadigan belgining *sistematiq* variatsiyasini tavsiflaydi. U guruh o'rtacha ko'rsatkichlarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichdan o'rtacha kvadratik og'ishiga teng.

Umumiy dispersiya ushbu variatsiyani belgilab beradigan barcha omillar ta'siri ostida butun bosh to'plam bo'yicha belgi variatsiyasini o'lchaydi. U alohida qiymatlarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichdan o'rtacha og'ishiga teng. Aytish mumkinki, umumiy dispersiya ichki guruh dispersiyasi va guruhalaro dispersiya yig'indisiga teng.

11.2-jadval

Dispersiyalarni hisob-kitob qilish uchun formula

| Guruh o'rtacha ko'rsatkichi | Guruh dispersiyasi | Ichki guruh dispersiyasi | Belgilar |
|--|--|--|---|
| $\bar{x}_j = \frac{\sum n_i x_i}{N_j}$ | | | $n_i - x_i$ qiymat chastotasi j - guruh raqami $N_j = \sum n_i - j$ guruh hajmi |
| umumiy o'rtacha ko'rsatkichi | Guruhalaro dispersiya | Umumiy dispersiya | $N = \sum N_j$ - barcha bosh to'plam hajmi |
| | $D_{\text{avers}} = \frac{\sum N_j (\bar{x}_j - \bar{x}_{\text{avers}})^2}{N}$ | $D_{\text{vers}} = \frac{\sum n_i (x_i - \bar{x}_{\text{vers}})^2}{N}$ | |

1-misol. Detallar guruhi tanlama o'lchoviari bitta nazorat uskunasi tomonidan bir smenada ikki marta o'tkazilgan. Uskunaning aniqlik darajasini ikkita tanlama to'plamdan iborat bo'lgan eksperiment ma'lumotlari bo'yicha baholash va o'lhash ushubiyati bo'yicha xulosalar qilish lozim.

| Birinchi seriya | x_i , mkm | 2 | 4 | 5 | Ikkinci seriya | x_i , mkm | 3 | 8 |
|--------------------|------------------|---|---|---|-------------------|------------------|---|---|
| | n_i | 1 | 7 | 2 | | n_i | 2 | 3 |

Dispersion tahlil. Bizni qiziqtiruvchi ko'rsatkich yoki jarayonga ta'sir etuvchi omillarning har birining ta'sir ulushini aniqlash yoki ularning barchasini birqalikda ta'sirini belgilash - dispersion tahlil vazifasi hisoblanadi.

Dispersion tahlil – o'rganilayotgan omillar ta'siri ostida yuzaga chiqqan belgi o'zgaruvchanligini noma'lum sabablarga ko'ra kuzatilayotgan o'zgaruvchanlik bilan taqqoslab, omillar rolini baholash usulidir.

Bu tahlil jarayonida belgining hisobga olingan va olinmagan xilma-xil omil va kuchlar ta'siridan kelib chiqadigan umumiyy dispersiyasi (o'zgaruvchanligini), ayrim omillarning xususiy dispersiyasi ya'ni o'rganilayotgan omillar ta'siri ostida yuzaga kelgan o'zgaruvchanlik va qoldiq dispersiya, ya'ni noma'lum sabablarga ko'ra ro'y berayotgan o'zgaruvchanlik haqida axborotlar hosil bo'ladi.

11.2. Bir omilli dispersiya tahlili

Bir omilli dispersion tahlil (one-way analysis of variance). Faqat bitta omildan foydalaniladigan dispersion tahlil usulidir.

Kuchli, o'rta, past va nolga teng iste'mol darajasidagi iste'molchilarining afzalliliklaridagi farqni bir omilli dispersion tahlil yordamida o'rganish mumkin, bunda omilli tajriba ma'lum omil darjasini bilan namoyon etilgan (o'rtacha iste'mol darajasiga ega foydalanuvchilar aynan omilli tajribani tashkil etadi). Agar ikki yoki undan ko'proq omil mavjud bolsa, u holda bu tahlilni ko'p omilli dispersion tahlil deb ataladi (n-way analysis of

variance). Agar mahsulotdan foydalanish omiliga qo'shimcha tarzda tadqiqotchi turli moyillik (yangi omil) darajasiga ega iste'molchilarining Total cereal ga munosabatini ham bilishni xohlasa, u holda buning uchun ko'p omilli dispersion tahlil mos keladi.

Ko'p omilli dispersion tahlil (n-way analysis of variance). Ikki va undan ko'proq omillarni o'z ichiga oladigan dispersion tahlil modeli.

Omilli (factors). Toifali erkin o'zgaruvchi. Dispersion tahlildan foydalanish uchun erkin o'zgaruvchilarining hammasi toifali (o'chamsiz) bo'lishi lozim.


Omillar darajasini muayyan murakkabligi omilli tajriba (eksperiment) (sinov shartlari) (treatment).

Omilli tajriba (eksperiment) (sinov shartlari) (treatment). Dispersion tahlilda omillar toifasi (darajasi)ning muayyan kombinatsiyasi hisoblanadi.

Kovariatsion tahlil ANCOVA (analysis of covariance – ANCOVA). Maxsus dispersiya tahlili usuli o'chovli ustunda ifodalangan bir yoki ko'proq tashqi o'zgaruvchilar samarasini dispersion tahlilni bajarishdan oldin bog'liq o'zgaruvchidan chiqarib tashlanadi.

Yuqoridagi misolga qaytsak, masalan, agar tadqiqotchi turli iste'mol darjasini va moyillik darjasini, ovqat iste'mol qilish usuli sifatida nonushtaning ahamiyati va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga respondentlarning munosabatini e'tiborga olgan holda foydalanuvchilarining afzalliklarini o'rganishni xohlagan hollarda kovariatsion tahlildan foydalaniлади. So'nggi ikki o'zgaruvchi Laykertning to'qqiz balli ustuni bo'yicha o'chanadi. Mazkur holatda toifali erkin o'zgaruvchilar (mahsulot iste'mol qilish va savdo markasiga moyillik)ni avvalgidek omillar deb ataydilar, bunda o'chamli erkin o'zgaruvchilar (oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga munosabat va nonushtaga berilgan ahamiyat) – kovariatlar (covariates) dir.

Kovariatsion tahlilda foydalaniлган o'chovli erkin o'zgaruvchi (ANCOVA) tahlil hisoblanadi.



11.1-rasm. *t* – mezon, dispersion va kovariatsion tahlil hamda regressiya o'rtaqidagi o'zaro aloqa

Ushbu barcha tahlil usullarida marketolog o'Ichovli bog'liq o'zgaruvchidan foydalanadi. Dispersion va kovariatsion tahlil bir necha erkin o'zgaruvchilarni o'z ichiga olishi mumkin (mahsulotdan foydalanish darajasi, savdo markasiga moyillik, munosabat, muhimlilik). Shu bilan birga erkin o'zgaruvchilardan biri toifali bo'lishi va toifali o'zgaruvchilar ikkitadan ko'proq tenglamaga ega bo'lishi mumkin. Boshqa tomonidan *t*-mezon yagona binar erkin o'zgaruvchidan foydalanish uchun mo'ljallangan. Masalan, moyil va moyil bo'limgan respondentlarda tovari ni afzal bilishdagi farqni *t*-mezon yordamida tekshiruvni bajargan holda bilib olish mumkin.

Dispersion va kovariatsion o'xshash regression tahlil ham bir nechta erkin o'zgaruvchilarni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, barcha erkin o'zgaruvchilar, asosan, oraliqli ustun bilan

o'chanadi, garchi binar yoki toifali o'zgaruvchilar soxta o'zgaruvchilarni kiritish hisobiga tahlilga moslashishi mumkin. Masalan, Total cereal mahsulotni afzal ko'rish, mahsulot tarkibiga munosabat va nonushtaning muhimligi o'rtasidagi aloqani regression tahlil yordamida o'rganish mumkin.

Shuningdek, dispersion tahlil eksperiment natijalariga turli, lekin nazorat qilinadigan omillar ta'sirini baholash uchun mo'ljallangan. Eksperiment natijasi shuningdek, javob (aks-sado) deb ham ataladigan ma'lum bir Y tasodifiy ko'rsatkich bo'lsin. Y tasodifiy ko'rsatkich qiymatiga n -darajadan iborat bo'lgan X omil ta'sir etadi. Tahlilga kiritilgan omillar soniga qarab, bir omilli, ikki omilli yoki omilli dispersion tahlil farqlanadi.

Eksperiment jarayonida X omil n -darajalarda qo'llab-quvvatlanadi. Omilning har bir darajasida m takrorlovchi sinovlar o'tkaziladi. m qiymati har bir daraja uchun bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Barcha o'chovlar natijalari jadval ko'rinishida taqdim etiladi va bu jadval kuzatuvlari matritsasi deb ataladi.

11.3-jadval

Kuzatuvlari matritsasi

| Omil darajasining raqami | Omil darajasi | Kuzatuvlari | Takrorlanadigan sinovlar soni |
|--------------------------------|------------------|--|----------------------------------|
| 1 | X_1 | $Y_{11}, Y_{12}, \dots, Y_{1j}, \dots, Y_{1m_1}$ | m_1 |
| \dots | \dots | \dots | \dots |
| i | X_i | $Y_{i1}, Y_{i2}, \dots, Y_{ij}, \dots, Y_{im_i}$ | m_i |
| \dots | \dots | \dots | \dots |
| n | X_n | $Y_{n1}, Y_{n2}, \dots, Y_{nj}, \dots, Y_{nm_n}$ | m_n |
| | | | $N = \sum_{i=1}^n m_i$ |

Dastlab takrorlanadigan tajribalarning har bir seriyasi uchun hisoblab chiqiladigan μ_i o'rtacha arifmetiklar takror ishlab chiqarish dispersiyalari va $M(Y_i)$ baholar hisoblanadi (11.3-jadval).

Shundan so'ng dispersiyalar qatori bir xilfigi yoki juftlab Fisher mezoni yordamida (agar m_i turlicha bo'lcha), yoki Kochren mezoni yordamida (agar m_i doimiy bo'lsa) tekshiriladi. Buning uchun nolinchgi gipoteza shakllantiriladi N_0 : $D(X_i) =$

$D(X_1) = \dots = D(X_L)$. Bitta hajm tanlama to'plamlari bo'yicha Kochren (Koxren) mezonini kuzatiladigan qiymati belgilanadi:

$G_{\text{max}} = S_{\text{max}}^2 / \sum_{i=1}^L S_i^2$. Kuzatiladigan mezon qiymati G_{kr} ($a; k; L$) o'ng tomon muhim sohasi muhim nuqtasi bilan taqqoslanadi, bu yerda $k = m - 1$ va dispersiyalar bir xil turda ekanligi haqida xulosa chiqariladi. Agar dispersiyalar bir xil turda bo'lmasa, keyingi tahlil amalga oshirilmaydi.

Dispersion tahlil o'chov natijalari bir xil dispersiya bilan normal taqsimot qonuniga bo'ysunadigan mustaqil tasodifiy ko'rsatkichlar hisoblangan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Bir omilli dispersion tahlilda bitta X omilning kutilayotgan $M(Y)$ matematik javobga ta'sir darajasi aniqlanadi. Bu omil sifat omili (eqish tezligi, tayyorlov hajmi va h.k.) yoki son omili (stanok modeli, instrumental material markasi va h.k.) bo'lishi mumkin.

Dispersiyalar bir xil turda ekanligi gipotezalar tasdiqlangach, tahlilga kirishish mumkin bo'ladi. Har qanday Y_{ij} o'chov natijasini quyidagi model bilan ifodalash mumkin deb hisoblanadi:

$$Y_{ij} = \mu + F_i + \varepsilon_{ij},$$

bu yerda

Y_{ij} – j -tartib raqamli omilning i -darajasida olingan tadqiq etilayotgan o'zgaruvchi qiymati;

μ – umumiy o'rtacha javob ko'rsatkichi Y ;

F_i – x_i omilning Y ga ta'sir samarasi: i -darajada μ_i o'rtacha qiymatining μ o'rtacha qiymatidan og'ish (ya'ni $F_i = \mu_i - \mu$);

ε_{ij} – qolgan barcha nazorat qilinmaydigan (hisobga olinmagan) omillarning Y_{ij} ga ta'sirini aks ettiradigan tasodify qoldiq.

Dispersion tahlilda quyidagilar asosiy faraz va taxminlar hisoblanadi:

- ostatki ε_{ij} qoldiqlari har qanday i va j uchun o'zaro mustaqil;
- ε_{ij} qiymatlari normal qonunga bo'ysunadi.

Dispersion tahlilning vazifasi omil darajasining o'zgarishi muhimligini baholashdan iborat. Nazorat qilinadigan omillar bilan izohlanadigan javob qiymati tarqoqligi omilli dispersiya (guruh o'rtacha ko'rsatkichlarining umumiy o'rtacha ko'rsatkich og'ishlari kvadratlari yig'indisi) bilan baholanadi.

Nazorat qilinadigan omillar ta'siri (ε_{ij} hissasi) takror ishlab chiqarish o'rtacha dispersiyasi (qoldiq dispersiya) - S_g^2 bilan baholanishi mumkin.

Ham nazorat qilinadigan omillar, ham nazorat qilinmaydigan omillar bilan izohlanadigan javob qiymati umumiy tarqoqligi umumiy (yoki to'liq) dispersiya (og'ishlar kvadratlari umumiy yig'indisi) bilan baholanadi.

Bunga misol tariqasida raqobatbardoshlik ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni qarab chiqamiz. Masalan, raqobatdagi mahsulotni sotish hajmining o'sish sur'ati ($R_{M,ay}$)ni olamiz. Ushbu ko'rsatkich yuqorida ta'kidlanganidek, quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$P_{M,RS} = \frac{R_{M,ay}}{P_{M,ay}}$$

Bunda: $R_{M,h}$ – raqobatdagi sotilgan mahsulotning xaqiqiy miqdori;

$R_{M,ay}$ – shu mahsulotning asos yilidagi miqdori.

Mazkur ko'rsatkichning o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ulardan bir guruhi xodimlar soni va mehnat unumdarligi bilan bog'liq omillardir. Bular tarkibiga tadqiqotlarimiz natijasida quyidagilar kirishi aniqlandi:

- raqobatdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchilar mehnat unumdarligi (v);
- raqobatdagi mahsulotni sotadigan do'konlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni (f);
- raqobatdagi mahsulot hajmining asos yilda do'konlar bilan ta'minlanganlik darajasi (t).

Natija bilan yuqorida keltirilgan omillarning bir-biri bilan bog'liqligi multiplikativ xarakterga ega. Bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = v * f * t;$$

Raqobatdagi mahsulot hajmini tahlil qilish uchun ularning farqini hisoblashdan boshlash lozim. Buning uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$\Delta Q = (v_h * f_h * t_h) - (v_r * f_r * t_r);$$

Endi har bir omilning natija ko'rsatkichiga ta'sirini **zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash** yo'lini ko'rsatamiz. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz:

1. Natija ko'rsatkichi, ya'ni raqobatdagi mahsulot hajmining o'zgarishiga raqobatdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchilar mehnat unumendorligi (v)ning ta'sirini aniqlash uchun natija ko'rsatkichini shu omilning o'zgarishi bilan hisoblab olinadi ($v_h * f_r * t_r$) va chiqqan natijadan uning rejadagi miqdori ($v_r * f_r * t_r$)ayriladi. Bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Q_v = (v_h * f_r * t_r) - (v_r * f_r * t_r);$$

2. Raqobatdagi mahsulot hajmining o'zgarishiga raqobatdagi mahsulotni sotadigan do'konlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni (f) o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun natija ko'rsaikichini shu omilning o'zgarishi bilan hisoblab olinadi ($v_h * f_h * t_r$) va chiqqan natijadan uning birinchi omil miqdori bilan qayta hisoblangan hajmi ($v_h * f_r * t_r$)ayriladi. Buni aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$\Delta Q_f = (v_h * f_h * t_r) - (v_h * f_r * t_r);$$

3. Natija ko'rsatkichi bo'lgan raqobatdagi mahsulot hajmining o'zgarishiga raqobatdagi mahsulot hajmining asos yilda do'konlar bilan ta'minlanganlik darajasining (t) ta'sirini hisoblash uchun natija ko'rsatkichining haqiqiy miqdoridan ($v_h * f_h * t_h$) uning birinchi va ikkinchi omillarning haqiqiy miqdori bilan hisoblangan hajmi ($v_h * f_h * t_r$)ayriladi. Bunda quyidagi formulaning qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

$$\Delta Q_t = (v_h * f_h * t_h) - (v_h * f_h * t_r);$$

Barcha omillarning ta'siri natija ko'rsatkichi o'zgarishining umumiy hajmiga teng bo'ladi. Buni aniqlash uchun ham formuladan foydalantish mumkin:

$$\Delta Q = \Delta Q_v \pm \Delta Q_f \pm \Delta Q_t;$$

Ushbu usulga amaliy ma'lumotlarni qo'llab, raqobatdagi mahsulot o'zgarishiga mehnat unumdonligi bilan bog'liq omillar ta'sirini hisoblash va ichki imkoniyatlarni axtarib topish mumkin. Mazkur ma'lumotlar tahlil natijasi bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi. Shuni inobatga olish lozimki, ushbu jarayonlarning hammasi raqobat bozorida sodir bo'ladi. Shu tufayli raqobat bozorining tavsiisi va undagi iqtisodiyot subyektlarining raqobatbardoshligini baholash masalalarini qarab chiqishni taqozo qiladi.

Ko'pincha marketologlar orasida bitta erkin o'zgaruvchi (omil)ning bir nechta toifasi uchun erkin o'zgaruvchilarning o'rtacha miqdoridagi farqni belgilash zarurati yuzaga keladi.

– Tovarning iste'mol hajmi nuqtai nazaridan turli bozor segmentlari farqlanadimi?

– Turli reklama roliklarini tomosha qilgan respondentlar guruhi tomonidan savdo markasining baholiari haqiqatda farqlanadimi?

– Chakana, ulgurji savdogarlar va savdo agentlarining firma tomonidan o'tkazilan taqsimlash siyosatiga munosabati farqlanadimi?

– Iste'molchilarining ushbu tovar markasini xarid qilish maqsadlari narx darajasidagi farqqa bog'liqmi?

– Iste'molchilarining do'kondan xabardorligi ushbu do'konning afzalliklariga ta'sir etadimi?

Shu va boshqa savollarga javobni bir omilli dispersion tahlilni bajarib olish mumkin. Tartibotni yoritib berishdan avval bir omilli dispersion tahlilda foydalanilgan asosiy statistikalarni aniqlab olamiz.

Endi bir omilli dispersion tahlilda foydalanilgan statistikani ko'rib chiqamiz.

Eta-kvadrat (η^2) – korrelyatsion nisbat. Uning yordami bilan X samaraning kuchini (erkin o'zgaruvchi, omil) Yga (bog'liq o'zgaruvchi) ta'sir darajasini ifodalaydi. η^2 qiymat 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda yotadi.

F-statistika (F-statistic). Ikkita tanlangan yig'indida toifali o'rtacha teng degan nollik gipotezani F-statistika yordamida

tekshiriladi, u guruhiar aro dispersiyaning xato dispersiyaga nisbatini namoyon etadi.


O'rtacha kvadrat (mean square) nazoratdan og'ishuvchi kvadratlar yig'indisi, bu unga mos keluvchi erkinlik darajalari soniga taqsimlanadi.

SS_{orasida} (SS_{between} , ss_x) guruhiari o'rtachalarni farqlash bilan ifodalangan Y o'zgaruvchining variatsiyasi. Bu X o'zgaruvchi toifasi qiymatini o'rtachasining variatsiyasi bilan bog'liq Y o'zgaruvchining variatsiyasidir. Bu X o'zgaruvchilar guruhidan har birining o'zgarishi bilan ifodalangan Y o'zgaruvchilar variatsiyasi. U X o'zgaruvchidan tashqari barcha omillar hisobiga amalga oshiriladi (cheklangan Xda).

$SS_{\text{kvadratlarning umumi yig'indisi}}$. Y o'zgaruvchining to'liq dispersiyasi.

Bir omilli dispersion tahlilning bajarilishi.

Bir omilli dispersion tahlilni bajarish tartiboti 11.2-rasmda keltirib o'tilgan.



11.2-rasm. Bir omilli dispersion tahlil

U bog'liq va erkin o'zgaruvchilarni, umumi variatsiyani parchalanishi samaralar o'zgarishi, natijalar talqiqni va

aharniyatini tekshirish. Bu bosqichlarni va ularning qo'llanilishini batafsil ko'rib chiqamiz.

Bog'liq va erkin o'zgaruvchilarning aniqlash

Y – bog'liq o'zgaruvchi, X – esa – erkin o'zgaruvchi; X – bu toifali o'zgaruvchi bo'lib, s toifaga ega (daraja, guruh). Har bir X o'zgaruvchi guruhi uchun 11.1-jadvalda ko'rsatilganidek, Y kuzatish n mavjud. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turganidek, har bir X guruhda tanlash miqdori n ga teng, umumiylashtirish uchun, X o'zgaruvchilar guruhlarida (guruhiy qiymatlar) tanlash miqdorlari tenglashishiga yo'l qo'yish mumkin, lekin bu shart majburiy emas.

To'liq variatsiyaning parchalanishi. O'rtachalar orasidagi farqni o'rganish uchun bir omilli dispersion tahlil bog'liq o'zgaruvchilar qiymatining to'liq variatsiyasi parchalanishini ko'zda tutadi.

Erkin X o'zgaruvchi

| <i>Guruhlar</i> | <i>To'liq tanlash</i> |
|--|-------------------------|
| $\begin{pmatrix} X_1 & X_2 & X_3 & X_4 \\ Y_1 & Y_1 & Y_1 & Y_1 \\ Y_2 & Y_2 & Y_2 & Y_2 \end{pmatrix}$ | |
| <i>Ikki guruhvariatsiyasi = SS_{\text{шрк}}</i> | Тұлық вариация = SS_y |
| $\begin{pmatrix} Y_n & Y_n & Y_n Y_n & Y_n & Y_n \\ \bar{Y} & \bar{Y} & \bar{Y} & \bar{Y} & \bar{Y} \end{pmatrix}$ | |

Guruhlararo variatsiya

To'liq variatsiya parchalanishi

Bir omilli dispersion tahlilda guruhlar ichida o'rtachalarning farqi bilan ifodalangan variatsiya va guruh ichidagi o'zgaruvchanlik bilan ifodalangan variatsiyasiga bog'liq o'zgaruvchilar variatsiyasi taqsimlanishi.

Samarani o'lchanish

X o'zgaruvchining Y ga ta'sir kuchi SS_x yordamida o'lchanadi. Binobarin SS_x X guruhlarining o'rtacha qiymati

variatsiyasi bilan bog'liq, SS_xning nisbiy qiymati X guruhlarida Y o'rtachi qiymatlari o'rtasidagi farq ortishi bilan o'sadi. SS_x ning nisbiy qiymati ham X guruh ichida Y variatsiya kamayishida ortib boradi. X o'zgaruvchining Y ga ta'sir samarasi quyidagi formulaga ko'ra hisoblanadi:

η^2 korrelyatsion nisbatlar qiymati 0 dan 1 gacha bo'lган doirada yotadi. Barcha o'rtacha guruhlar teng bo'lгanda u nulga teng bo'ladi, ya'ni X o'zgaruvchi Y ga ta'sir etmaydi. X o'zgaruvchilarning har bir guruhi ichida o'zgaruvchanlik mavjud bo'lmasa, η^2 1 ga teng bo'ladi, lekin guruhlar ichida ham ba'zi o'zgarishlar mavjud. Shunday qilib, η^2 X erkin o'zgaruvchining ta'sirini ifodalovchi Y variatsiya o'lchamini namoyon etadi. Biz nafaqat X ning Y ga ta'sirini o'lchashimiz, balki uning qiymatini tekshirishimiz ham mumkin.

Ma'noga egalikni tekshirish. Bir omilli dispersion tahlilda, ko'rib chiqilayotgan yig'indida guruhiy o'rtachalar (4) ga teng ekanligini tasdiqlovchi nolga teng gipoteza tekshiriladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak,

$$H_0: \mu_1 = \mu_2 = \mu_3 = \dots = \mu_c$$

Nolga teng gipotezaga muvofiq SS_x va SS_{xtolar} qiymati bitta variatsiya manbaiga bog'liq. Bunday holatda Y yig'indining dispersiyasini baholash guruhlararo yoki guruhlar ichidagi variatsiya bilan aniqlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, Y yig'indining dispersiyasini baholash

$$S_y^2 = \frac{SS_x}{(c - 1)}$$

= X ning ta'siri bilan ifodalangan guruhlararo dispersiya (o'rtacha kvadrat) = MS_x

Yoki

= X dan tashqari barcha omillarning ta'siri bilan ifodalangan guruhning ichki dispersiyasi

= MS_{qatorlar}

Nolga teng bo'lган gipotezani, ushbu dispersiyaning ikkita bahosi o'rtasidagi nisbat sifatida ko'rib chiqilayotgan F-statistika yordamida tekshirish mumkin.

Bu statistika ($s-1$) va $(N - c)$ ga teng bo'lgan erkinliklar darajasi soni (df)ga ega F-taqsimotga bo'ysunadi.

11.3. Dispersion tahlilda foydalaniладиган меzonlar (ANOVA)

Mustaqil o'zgaruvchi toifaviy, bog'langan o'zgaruvchi esa-metrik bo'lishi dispersiya tahlili o'tkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

ANOVA da ma'lumotlar to'plami k -mustaqil bir o'lchamli tanlama to'plamlardan iborat bo'lib, uning elementlari bir xil birliklarda (doll., kg., ball) o'lchanadi. Tanlama to'plamlar hajmi (o'lchami) turlicha bo'lishi mumkinligiga yo'l qo'yiladi.

1-bosqich. Tahlil uchun ma'lumotlar tayyorlar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

11.4-jadval

Mustaqil o'zgaruvchi omil tahlili

| | Mustaqil o'zgaruvchi – omil (masalan, faoliyat turi) (tanlanma to'plamlar soni $k = 4$) | | | |
|-----------------------------------|---|--|---|---|
| | 1-tanlama to'plami (iqtisodchilar) $X_{1,1}$ | 2-tanlama to'plam (muhandislar) $X_{2,1}$ | 3-tanlama to'plam (filologlar) $X_{3,1}$ | k-tanlama to'plam (kimyogilar) $X_{k,1}$ |
| Bog'langan tanlama to'plam: | $X_{1,2}$ | $X_{2,2}$ | $X_{3,2}$ | $X_{k,2}$ |
| Bog'langan tanlama to'plam: | $X_{1,3}$ | $X_{2,3}$ | $X_{3,3}$ | $X_{k,3}$ |
| Bog'langan tanlama to'plam: | $X_{1,4}$ | $X_{2,4}$ | $X_{3,4}$ | $X_{k,4}$ |
| Bog'langan tanlama to'plam: | $X_{1,5}$ | $X_{2,5}$ | | $X_{2,5}$ |

| | | | | |
|---|------------|------------|------------|------------|
| Bog'langan tanlama to'plam: | | $X_{1,6}$ | | $X_{k,6}$ |
| Bog'langan tanlama to'plam: | | $X_{2,7}$ | | |
| $n=n_1+n_2+n_3+\dots+n_k$ hajmi | $n_1=5$ | $n_2=7$ | $n_3=4$ | $n_k=6$ |
| O'rtacha ko'rsatkich | X_1 | X_2 | X_3 | X_k |
| O'rtacha chetlashish | σ_1 | σ_2 | σ_3 | σ_k |

Bir omilli dispersiya tahlilida nolinchı gipoteza turli (tanlama o'rtacha to'plamlar bilan ifodalangan) bosh to'plamlardan barcha o'rtacha qiymatlar o'zaro teng deb tasdiqlaydi.

$$H_0: \mu_1 = \mu_k \text{ (hammasi teng). (yoki } X_1 = X_2 = \dots = X_k\text{)}$$

Muqobil gipotezaning tasdiqlashicha, hech bo'lmasa ikkita istalgan o'rtacha to'plam o'zaro teng bo'lmaydi.

$$H_1: \mu_1 \neq \mu_k \text{ (hech bo'lmasa ikkitasi teng emas). (yoki } X_1 \neq X_k\text{)}$$

F-test F-statistika hisob-kitobida turadi va uning jadvaldagı qiymati bilan taqqoslanadi (t-test bilan bir xilda).

Nolinchı gipotezada barcha bosh to'plamlar o'rtacha ko'rsatkichi teng ekanligini tasdiqlashi sababli bu o'rtacha ko'rsatkichni barcha tanlama to'plamlar bo'yicha baholash, ya'ni umumiy o'rtacha ko'rsatkich hisoblab chiqish lozim. Umumiy o'rtacha ko'rsatkich barcha tanlama to'plamlardan barcha qiymatlar o'rtacha ko'rsatkichini ifodalaydi.

Agar tanlama to'plamlar hajmi teng bo'lmasa, bunda o'rtacha ko'rsatkich tanlama to'plam hajmini hisobga olgan holda o'rtacha o'lchanigan ko'rsatkich sifatida hisoblab chiqiladi.

2-bosqich. Bog'langan o'zgaruvchilar orasidagi tafovutlarni o'rganish uchun to'liq dispersiyani yoyish amalga oshiriladi:

$$X = \frac{\sum_{i=1}^k n_i * X_i}{n}$$

$$SS = SS_{between} + SS_{within},$$

bu yerda $SS_{between}$ – guruqlararo variatsiya

SS_{within} – ichki guruh variatsiyasi.

Guruqlararo variatsiya ($SS_{between}$) tanlama to'plamlar o'rtacha ko'rsatkichlari o'zaro qanchalik farq qilishini ko'rsatadi. Agar o'rtacha ko'rsatkichlar teng bo'lsa, u nolga teng bo'ladi va o'rtacha ko'rsatkichlar qanchalik ko'p farq qilsa, shunchalik katta bo'ladi. Gruppalararo $MS_b = \frac{SS_{between}}{k-1}$ dispersiya hisobii (variatsiyasi):

$$SS_{between} = \sum_{i=1}^k n_i * (X_i - \bar{X})^2 \quad \text{va o'rtacha kvadrat:}$$

Ichki guruh variatsiyasi (SS_{within}) har bir tanlama to'plam bo'yicha qiymatlar qanchalik farq qilishini ko'rsatadi.

$$SS_{within} = \sum_{i=1}^k (n_i - 1) * \sigma_i^2 \quad \text{va o'rtacha kvadrat: } MS_w = \frac{SS_{within}}{n-k}$$

3-bosqich. Mustaqil o'zgaruvchining bog'langan o'zgaruvchiga ta'sir samarasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan η^2 (eta-kvadrat) korreyaltsiya nisbati orqali hisoblab chiqiladi:

$$\eta^2 = \frac{SS_{between}}{SS}$$

Korrelyatsiya nisbatining qiymati 0 dan 1 gacha bo'lган oraliqda yotadi. U barcha tanlama to'plam o'rtacha ko'rsatkichlari teng bo'lganda, ya'ni mustaqil o'zgaruvchi bog'langan o'zgaruvchiga ta'sir ko'rsatmaganda 0 ga teng bo'ladi va aksincha, bu qiymatning o'sishi bilan ta'sir ham ortadi.

Boshqacha qilib aytganda, η^2 qiymati bog'langan o'zgaruvchiga

mustaqil o'zgaruvchining ta'siri bilan izohlanadigan bog'langan o'zgaruvchi variatsiya o'chamini ifodalaydi.

$$F = \frac{MS_{between}}{MS_{within}}$$

4-bosqich. Amalda F – statistika hisob-kitob qilish yo'li bilan o'rtacha ko'rsatkichlar tengligi (tafovutlar mavjudligi) haqida gipotezani statistik tekshirish jarayoniga borib taqaladi.

5-bosqich. Yakuniy xulosa chiqarish uchun haqiqiy nolinchi gipotezada F-statistika muhim qiymatlaridan iborat bo'lgan F-jadvalga murojaat qilish zarur. Muhim qiymatni topish uchun erkinlik darajalari soni (df – degree freedom) va mos keluvchi tekshiruv darajasini (odatga ko'ra 5%) hisobga olish zarur.

Guruhalaro variatsiya uchun erkinlik darajasi « $k - 1$ », ichki guruh variatsiyasi uchun esa « $n - k$ » ni tashkil qiladi.

F-test F-jadval muhim qiymati mavjud ma'lumotlari bo'yicha hisoblab chiqilgan F-statistikani taqqoslashdan iborat. Agar $F_{stat} > F_{so'ngi}$ holat bo'lsa, bunda natija muhim uest, chunki bu guruhalar bo'yicha o'rtacha qiymatlar o'rtasida muhim tafovutlar mavjudligidan dalolat beradi.

Excel yordamida hisob-kitob natijalari: bir omilli ANOVA – 11.5 - jadval.

1-misol. Sizning kompaniyangiz uchun mahsulot yetkazib berish uchta ta'minotchi («Mega+», «Kosta» va «Tramp») tomonidan turli vaqtarda amalga oshiriladi: kunduzgi vaqt, tungi smenada va hatto smenalar almashish vaqtida. Tabiiyki, siz tomoningizdan kunduzgi vaqtida mahsulot sifati ustidan nazorat boshqa vaqtdagidan ko'ra yuqori bo'ladi. Siz sifat bahosiga ega (ballda) bo'lgan ma'lumotlar to'plagansiz va turli vaqtida yetkazib beriladigan mahsulot sifatidan farq bor yoki yo'q ekanligini bilishga harakat qilmoqdasiz.

11.5 – jadval

Dispersion tahlil

| | Kunduzgi vaqt | Tungi smena | Smenalar almashtish vaqt |
|---------|---------------|-------------|--------------------------|
| «Mega+» | 77,06 | 93,12 | 77,05 |
| «Kosta» | 81,14 | 88,13 | 78,11 |
| «Tramp» | 82,02 | 81,18 | 79,91 |

| Bir omilli dispersiya tahlili | | | | | | |
|-------------------------------|----------------|-------|-----------------------------|----------------|----------------|-----------------|
| NATIJALAR | | | | | | |
| Guruqlar | Schet | Summa | O'rtacha ko'rsatki ch | Dispersiya | | |
| 1-ustun | 3 | 240,2 | 80,0733 333 | 7,00373 333 | | |
| 2-ustun | 3 | 262,4 | 87,4766 666 | 35,9610 333 | | |
| 3-ustun | 3 | 235,0 | 78,3566 666 | 2,09053 333 | | |
| | | | | | | |
| | | | | | | |
| Dispersiya tahlili | | | | | | |
| Variatsiya manbasi | SS | df | MS | F | P- qiymat | F- muhi m |
| Guruqlar o'rtasida | 140,930 688 | 2 | 70,4653 444 | 4,69192 377 | 0,05932 788 | 5,143 252 |
| Guruqlar ichida | 90,1106 | 6 | 15,0184 333 | | | |
| Jami | 231,041 288 | 8 | | | | |

Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatadiki, $F_{stat} < F_{so'nggi}$ holat ($4,691 < 5,14$), demak, turli vaqtida yetkazib beriladigan mahsulot sifatida farq yo'q. Bundan tashqari, P -qiymat (o'rtacha

ko'rsatkichlar tengligi haqida nolinchgi gipoteza haqiqatga yaqin ekanligi ehtimoli) 0,05 dan katta, ya'ni u rad qilinishi mumkin emas.

Etkazib beriladigan mahsulot sifati yetkazib berish vaqtiga bog'liq emas va turli vaqtida bir xil degan xulosani isbotlab berilgan deb hisoblash mumkin.

11.4. Ko'p omilli dispersiya tahlili

Marketing tadqiqotlarida ko'pincha bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning yakuniy natijaga (bog'langan o'zgaruvchiga) ta'siri bilan ishslashga to'g'ri keladi.

1. Reklama darajasi va narxlar darajasi qanday qilib bir vaqtning o'zida ushbu savdo markasi sotuviga ta'sir ko'rsatadi?

2. Iste'molchilar yoshi va ma'lumot darajasi ularning muayyan tovar xaridiga ta'sir etadimi?

3. Xaridorda tovar haqida xabardorlik va uning imidji xohish-istaklarni shakllantirishga ta'sir etadimi?

Ko'p omilli tahlil jarayoni bir omilli dispersiya tahlili jarayoniga o'xshab ketadi. Ko'p omilli tahlilning afzalligi shundaki, omillarning o'zaro aloqalarini o'rghanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Agar mustaqil o'zgaruvchilar sifatida ikkita omil (reklama darajasi va kuponlar bo'yicha savdo) ishtirot etadigan bo'lsa, to'liq variatsiyani yoyish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$SS = SS_{between_1} + SS_{between_2} + SS_{1;2} + SS_{within}$$

1-omilning ko'proq ta'siri $SS_{between_1}$ yuqoriroq qiymatida aks etadi, 2-omilning ko'proq ta'siri, mos ravishda, $SS_{between_2}$ yuqoriroq qiymatida aks etadi.

1 va 2 omillar o'rtasidagi aloqalar qanchalik kuchli bo'lsa, $SS_{1;2}$ qiymati shunchalik katta bo'ladi. Boshqa tomondan, agar 1-omil va 2-omil bir-birig bog'liq bo'lmasa, bunda $SS_{1;2}$ qiymati nolga yaqinlashadi.

Ikki omilning ta'sir darajasi to'liq samara yoki ko'plik korrelyatsiya deb ataladi:

$$\eta^2 = \frac{SS_{between_1} + SS_{between_2} + SS_{1;2}}{SS}$$

To'liq samara qiymati F-statistika yordamida hisoblab chiqiladi:

$$F = \frac{MS_{x1;x2;x1,2}}{MS_{within}} = \frac{(SS_{between_1} + SS_{between_2} + SS_{1;2}) / (k_1 * k_2 - 1)}{SS_{within} / (n - k_1 * k_2)}$$

Agar to'liq samara statistik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, keyingi bosqichda o'zaro aloqalar samarasi qiymati (muhimligi) hisoblab chiqiladi.

$$F = \frac{MS_{x1,2}}{MS_{within}} = \frac{SS_{1;2} / (k_1 - 1 + k_2 - 1)}{SS_{within} / (n - k_1 * k_2)}$$

Agar o'zaro aloqa samarasi statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib chiqadigan bo'lsa, boshqa omil mayjudligidan bir omilning mustaqil o'zgaruvchiga ta'siri o'ringa ega bo'ladi.

Agar o'zaro aloqa samarasi statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib chiqmasa, har bir omilning muhimligini alohida tekshirish kerak:

$$F = \frac{MS_{between_1}}{MS_{within}} = \frac{SS_{between_1} / (k_1 - 1)}{SS_{within} / (n - k_1 * k_2)}$$

$$F = \frac{MS_{between_2}}{MS_{within}} = \frac{SS_{between_2} / (k_2 - 1)}{SS_{within} / (n - k_1 * k_2)}$$

(Shunday bo'lib chiqishi ham mumkinki, har bir omilning alohida ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'ladi, ularning yakuniy natijaga birgalikdagi o'zaro aloqlari esa tasdiqlanmaydi).

1-misol. Reklama va kun savdosining savdo nuqtalari bo'yicha sotuv hajmiga ta'siri o'rganiladi. 30 ta magazin bo'yicha ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

11.6 – jadvat Reklamaning savdo nuqtalari bo'yicha sotuv hajmiga ta'siri

| № | Reklama darajasi (1-omil) | | | | | |
|-----------------------------------|---------------------------|--------|--------------|--------|----------|---|
| | yuqori (1) | | o'ttacha (2) | | past (3) | |
| Kupon savdosi mavjudligi (2-omil) | | | | | | |
| ha (1) | yo'q (2) | ha (1) | yo'q (2) | ha (1) | yo'q (2) | |
| Sotuv hajmi, ming sum (natija) | | | | | | |
| 1 | 10 | 8 | 8 | 4 | 5 | 2 |
| 2 | 9 | 9 | 8 | 5 | 7 | 3 |
| 3 | 10 | 7 | 7 | 5 | 6 | 2 |
| 4 | 8 | 7 | 9 | 6 | 4 | 1 |
| 5 | 9 | 6 | 6 | 4 | 5 | 2 |

Samarani o'lchash. «Samara» va «samaradorlik» tushunchalarini aniqlashtirib olamiz. Samara bu – kommunikatsiya vositalari va ma'lum bir bonuslardan foydalananishni hisobga olgan holda rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar yoki kompaniya o'tkazishdan olingan natijadir. Samaradorlik – natija va bu natijaga olib kelgan xarakatlar nisbati.

Rag'batlantirishdan iqtisodiy samara yakuniy ko'rsatkichi xuddi shu davrda rag'batlantirishsiz bashorat qilingan foyda bilan taqqoslaganda chora-tadbirlar o'tkazishda qo'shimcha foyda hisoblanadi:

bu yerda W_i – rag'batlantirishda amaldagi sotuv hajmi, so'm; Q_i – rag'batlantirishda amaldagi sotuv hajmi, dona; P_i –

rag^* batlantirishda tovar birligi narxi, so'm; W_0 – rag^* batlantirishsiz sotuv hajmi bashorati, so'm; Q^0 – rag^* batlantirishsiz sotuv hajmi bashorati, dona; P_0 – rag^* batlantirishsiz tovar birligi narxi, so'm; W – rag^* batlantirishdan sotuv hajmining o'sishi, so'm; F_1 – rag^* batlantirishda amaldagi foyda, so'm; F_0 – rag^* batlantirishsiz foyda bashorati, so'm; Z – rag^* batlantirishdan sotuv hajmining o'sishiga kiritiladigan umumiylar xarajatlar, so'm; Z_1 – rag^* batlantirishda amaldagi umumiylar xarajatlar (tannarx), so'm; Z_0 – rag^* batlantirishsiz umumiylar xarajatlar (tannarx) bashorati, so'm; F – rag^* batlantirishdan qo'shimcha foyda hajmi, so'm; PC – rag^* batlantirish ishlab chiqarish-tijorat xarajatlari, so'm; COM – rag^* batlantirish kommunikatsiya xarajatlari, so'm.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ikki xil asosiy ko'rsatkichi foydalilanadi: xarajatlar rentabelligi va foyda rentabelligi. Xarajatlar rentabelligi bu – foydalaning xarajatlarga (tannarxga) nisbati bo'lib, odatda «xarajatlar so'miga foyda so'mida o'chanadi, foizlarda ifodalanishi mumkin. Sotuv rentabelligi yoki foyda me'yori bu – foydalaning so'mdagi sotuv hajmiga (tushumga) nisbati. Foizlarda ifodalanadi va foydalaning tushumdagini ulushini ko'rsatadi. Ikka-la ko'rsatkichni maxsus belgilar yordamida ifodalaymiz, bunda xarajatlar rentabelligini foizda emas, 0 dan 1 gacha koeffitsientida ifodalaymiz:

$$\beta = P / Z;$$

$$\alpha = P / V;$$

$$P = V - Z,$$

bu yerda β – xarajatlar rentabelligi, so'mga so'm; P – foyda, so'm; Z – xarajatlar, so'm; α – sotuv rentabelligi, tushumdan foyda koeffitsienti 0 dan 1 doll.gacha; V – tushum, so'm.

Murakkab bo'limgan hisob-kitoblar yo'li bilan bir ko'rsatkichni boshqa ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin:

$$\alpha = \frac{\beta}{1 + \beta}; \quad \beta = \frac{\alpha}{1 - \alpha}.$$

Agar α va β ko'rsatkichlarni foizlarda ifodalaydigan bo'lsak, formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\alpha = \frac{\beta}{100 + \beta}; \beta = \frac{\alpha}{100 - \alpha}.$$

Iqtisodiy samaradorlik doimo baholanadigan xarajatlar turi bilan bog'liq bo'ladi. Rag'batlantirish bo'yicha kampaniyaning iqtisodiy samaraderlik ko'rsatkichlari umuman olganda bu – umumiy kommunikatsiya xarajatlari, shuningdek, umumiy ishlab chiqarish-tijorat va kommunikatsiya xarajatlari yig'indisidir:

$$E_C = \frac{F}{COM}, \quad E = \frac{F}{Z}, \quad E_1 = \frac{F_1}{Z_1},$$

bu yerda E_C – rag'batlantirish kommunikatsiya xarajatlari samaradorligi, so'mga so'm; E – rag'batlantirishdan foyda bo'yicha umumiy xarajatlar samaradorligi, so'mga so'm; E_1 – butun tadbirni o'tkazishda foyda bo'yicha umumiy xarajatlar samaradorligi, so'mga so'm.

Kommunikatsiya xarajatlari rentabelligi rag'batlantirish bilan bog'liq kommunikatsiya xarajatlarining bir so'miga qancha qo'shimcha foyda to'g'ri kelishini ko'rsatadi. E va E_1 to'liq xarajatlari bo'yicha samaraderlik ko'rsatkichlari mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari rentabelligi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Rag'batlantirish samarasi va samaraderligini aniqlashda asosiy muammolarni sanab beramiz.

1. Agar rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazilmagan bo'lsa, foyda va sotuv hajmini qanday aniqlash (bashorat qilish) mumkin?

2. Rejalshtirish bosqichida chora-tadbirlar o'tkazishda foyda va sotuv hajmini qanday bashorat qilish mumkin?

3. Qaysi xarajatlari rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlari qatoriga kiritilishi mumkin?

4. Rag'batlantirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlardan foydalanish samaraderligi normativlari qanday?

Sotuv hajmi statistikasi bo'yicha rag'batlantirish samarasini o'lhash to'rt bosqichdan iborat.

1. Rag'batlantirish vositasida ta'sir ko'rsatiladigan sotuv egri chizig'ini tahlil qilish.

2. Rag'batlantirishsiz erishish mumkin bo'lgan sotuv hajmi W_0 ko'rsatkich qiymatini aniqlash.
3. Rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazishni hisobga olgan holda W_1 sotuv hajmini o'lchash.
4. W_1 va W_0 o'rtasidagi farq sifatida rag'batlantirishdan W sotuv hajmini aniqlash

Ta'kidlash joizki, W_0 ko'rsatkichini bashorat qilishning biron-bir usulini qo'llamasdan turib rag'batlantirish chora-tadbirlar samaradorligini rejalashtirish va rag'batlantirish ehtimoliy xarajatlarini hisob-kitob qilishni amalga oshirish mumkin emas. W_1 ko'rsatkichi ham amaldagi, ham bashorat qiymatiga ega.

Sotuv hajmi statistikasini tahlil qilishning so'rovlar bilan taqqoslaganda kamehiliklari quyidagilar hisoblenadi:

- bonus ta'siri ostida xaridni amalga oshirish ehtimolini hisobga olish imkoniyatining yo'qligi;
- qo'llash uchun talab qilinadigan statistik ma'lumotlar qatori o'qligi (to'liqsizligi).

Usulning afzalliklari qatoriga yqiladilarni kiritish mumkin:

- statistika mavjudligida hisob-kitoblarni amalga oshirish tezligi; ayrim usullarni qo'llashda hisob-kitobni tadbir boshlanishidan oldin o'tkazish mumkin;
- so'rov o'tkazishga sarflanadigan mablag'larni tejab qolish (tadqiqot o'tkazuvchi chet tashkilot xizmatlariga haq to'lash va h.k.);
- ko'p sonli sotuv nuqtalari mavjudligida rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli umummilliy kampaniyalar samaradorligini baholash imkoniyati;
- sotuv egri chizig'i turini ko'rib chiqish rag'batlantirishni hisobga olgan va hisobga olmagan holda natijalarni bashorat qilishning eng to'g'ri keladigan usullarini tanlashga imkon beradi.

Quyida rag'batlantirishni o'tkazmasdan turib W_0 ko'rsatkich qiymatini bashorat qilish usullari sanab berilgan.

1. Uch nuqtali oraliqda chiziqli interpolatsiya.
2. Raqobatchilar savdosining o'sish sur'atiga muvofiq bashorat.

3. Boshqa savdo nuqtalaridagi yoki boshqa geografik bozorlarda savdoning o'sish sur'atiga muvofiq bashorat.

4. Joriy davrda butun tarmoqda savdoning o'sish sur'atiga muvofiq bashorat.

5. Tarmoqda o'tgan yilgi savdoning o'sish sur'atiga muvofiq bashorat.

6. Distributsiya ko'rsatkichlari o'zgarishini, savdo maydonining har bir kvadrat metridan sotuvni, «tashrif/xarid» nisbatini, tovar toifasi umumiy savdo hajmida bizning tovar savdo ulushini hisobga olgan holda o'tgan yil ma'lumotlari bo'yicha bashorat.

7. Vaqt qatorlarini tahlil qilish asosida bashorat.

Muayyan usulni qo'llash hisob-kitoblar uchun zarur ma'lumotlar mavjudligi va gipotetik savdo egri chizig'iga muvofiq qo'llash shartlariga bog'liq bo'ladi.

11.5. Ko'p omillik dispersiyali tahlil

Bu usul statistika nazariyasi fanida batafsil yoritilgan. Tahlil fani buxgalteriya hisobi va statistika fanlari assosida vujudga kelganligini oldingi boblarda ta'kidlangan edi. Shuningdek, tahlil fani xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda statistika fanining bir qancha usullarida foydalanadi. Shulardan biri indeks usuli hisoblanadi. Bu usul juda ko'p qirrali mavzu bo'lib, ushbu bobda shu usulning omilli tahlilida qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Indeks usulining boshqa usullardan farqi, ya'ni afzallikkleri mavjud. Xususan, omillar bilan natija o'rtaсидаги bog'liqliq bir qancha ishoralar (+, -, :, x) bilan belgilanganda va ularning turlari bir vaqtda kelganda ham qo'llanishi mumkin. Bundan tashqari, mazkur usul natija o'zgarishiga omillar ta'sirini bir vaqtning o'zida ham mutlaq, ham nisbiy miqdorda aniqlash imkonini beradi.

Indeks usulidan foydalinish uchun unda juda ko'p qo'llaniladigan bog'lanish: mahsulot hajmining (Q) o'zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (r) bog'liq ekanligidir. Mahsulotning rejadagi hajmini ($q_0 p_0$) va haqiqatdagagi hajmini (q_1

p₁) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi :

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

Bu formula natijaning nisbiy o'zgarishini ko'rsatadi. Mahsulotning hisobot davridagi o'zgarishining mutlaq miqdorini aniqlamoqchi bo'lsak, uning sur'atidan maxrajini ayirish kifoya :

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_0 p_0$$

Formuladan ko'rniib turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Bu omillar ta'sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, ya'ni q₁ p₀.

Natija o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini (ΔQ_q) nisbiy miqdorda topish uchun quyidagi formuladan foydalilanadi.

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Ushbu formula yordamida mahsulot hajmi faqat uning mutlaq miqdori o'zgarganligi evaziga necha foiz o'zgarganligini ko'rsatadi. Mahsulot hajmining baho evaziga o'zgarganligini nisbiy miqdorda topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Mazkur formula mahsulotning bahosi o'zgarishi evaziga natija qancha miqdorga o'zgarganligini ifodelaydi.

Natija o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini (ΔQq) mutlaq miqdorda topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\Delta Q q = \sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0$$

Mahsulot hajmining baho evaziga o'zgarganligini mutlaq miqdorda topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0$$

Ushbu hisob - kitobni aniq ma'lumotlarni qo'llab ham amalga oshirish mumkin (11.7-jadval).

11.7 - jadval

Mahsulot hajmining o'zgarishiga uning miqdori va bahosining ta'sirini indeks usuli bilan aniqlash

| Mahsulot turlari | Miqdori, doza | | Bahosi, so'm | | Mahsulot hajmi | |
|------------------|---------------|-----------|--------------|-----------|----------------|-----------|
| | Rejada | Haqiqatda | Rejada | Haqiqatda | Rejada | Haqiqatda |
| A | 450 | 500 | 15 | 16 | 6750 | 8000 |
| B | 230 | 235 | 8 | 6 | 1840 | 1410 |
| V | 670 | 710 | 7 | 9 | 4690 | 6390 |
| Jami | | | | | 13280 | 15800 |

Jadval ma'lumotlari asosida mahsulot hajmi bo'yicha rejaning bajarilish indeksi 1,190 ga teng:

15800

$$Jqp = \frac{15800}{13280} = 1,190 \text{ yoki } 119,0\%.$$

13280

Natijaning umumiy mutloq farqi 2520 so'mni (15800 – 13280) tashkil qiladi. Mahsulet fizik hajmining agregat indeksi (mahsulotning rejadagi va haqiqatdagagi miqdori bir xil bahoda hisoblanganda) quyidagi miqdorni tashkil qiladi:

$$Jq = \frac{\sum q_i p_i (500 \times 15) + (235 \times 8) + (710 \times 7)}{\sum q_0 p_0} = \frac{14350}{13280} = 1,081 \text{ yoki } 108,1\%.$$

Shunday qilib, hisobot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdori ko'payishi mahsulot hajmini rejadagiga nisbatan 8,1 % yoki 1070 so'mga (14350 – 13280) oshirgan.

Baho agregat indeksi (suratida mahsulot miqdori va bahosi rejada) 1,101 ni tashkil qilgan:

$$Jq = \frac{\sum q_i p_i 15800}{\sum q_0 p_0 14350} = 1,101 \text{ yoki } 110,1\%.$$

Demak, mahsulotning umumiy hajmi baho omili ta'sirida 10,1% ga oshgan, mutlaq miqdori esa 1450 so'mga (15800 – 14350) ko'paygan.

Natijada shu ikki omilning ta'sirini nisbiy va mutlaq miqdorda ham aniqlash mumkin. Ikki omil indeksining ko'paytmasi umumiy indeksga teng bo'lishi kerak:

$$1,081 \cdot 1,101 = 1,190$$

Natija o'zgarishining mutlaq miqdorini topish uchun shu ikki omil yig'indisi olinadi:

$$1070 + 1450 = + 2520 \text{ so'm}$$

Shunday qilib, disperion tahlilning maqsadi korxonalarining ulushi va xarajatlar, hamda tushumlarning o'zgarish koeffitsienti tavofutlarni o'rganib chiqdik.

Qisqa xulosalar

Ushbu bobda biz disspersiyali va kovaratsion tahlillar haqida gapirib o'tamiz. Marketologlar nazorat qilinmaydigan erkin o'zgaruvchilarning ta'sirini hisobga olish sharti bilan nazorat qilinadigan erkin o'zgaruvchilar ta'siri bilan ifodalangan bog'liq o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymati farqini o'rghanish uchun dispersion va kovariatsion tahlil usullaridan foydalananadilar.

Dispersion va kovariatsion tahlilni bajarish usullarini yoritib beramiz, hamda ularning o'zgaruvchilar o'rtasidagi boshqa aloqa usullarini tekshirish usullari bilan nisbatini muhokama qilamiz.

Keyin esa ushbu usullarning eng oddiysi, ya'ni bir omilli dispersion tahlilni, so'ng ko'pomilli – dispersion va kovariatsion tahlilni yoritib beramiz. Natijalarni talqin qilish masalalariga, aynan – omillarning o'zaro ta'siri, ularning nisbiy muhimligi va ko'plik tenglamalarga alohida e'tibor qaratamiz. Dispersion tahlilda takroriy o'zgaruvchilar, o'chovsiz dispersion tahlil va ko'po'lchamli dispersion tahlil kabi ba'zi maxsus mavzularni keng yoritib o'tamiz. Dispersion tahlilni qo'llash misollarini ko'rib chiqamiz.

Dispersion tahlil (analysis of variance – ANOVA). Ikki yoki undan ko'proq yig'indi uchun tanlangan o'rtacha o'rtasidagi farqlarni o'rghanishning statistik usulidir.

Dispersion tahlil oddiy shaklda, o'lchamli hisoblanuvchi bog'liq o'zgaruvchiga (quruq nonushtani afzal ko'rish Total cereal) ega bo'lishi lozim. Undan tashqari bir yoki undan ko'proq erkin o'zgaruvchilar (mahsulotni: kuchli, o'rtta, sust iste'mol qilish yoki umuman iste'mol qilmaslik) bo'lishi shart. Barcha erkin o'zgaruvchilar toifali bo'lishi (o'lchamsiz) bo'lishi lozim, ularni Total cereal omilli deb ham ataydilar.

Dispersion tahlil asosan ommaviy ma'lumotlar to'plash mumkin bo'lmasigan, tanlama tariqasida kuzatiladigan kichik to'plamlarda kuzatish natijalarining qanchalik ishonchli ekanligiga obyektiv babo berish uchun keng qo'llaniladi.

Dispersiyalar turlari. Statistika ma'lumotlari qanday taqdim etilganiga (umumiyl bosh to'plan yoki bir nechta bosh to'plan) qarab, quyidagi dispersiya turlari farqlanadi: guruh dispersiyasi;

ichki guruh dispersiyasi; guruhlararo dispersiya; umumiy dispersiya.

Guruh dispersiyasi guruh (tanlama to'plam) ichidagi belgi variatsiyasini o'lchaydi va mohiyatan ushbu qiyamatlar guruhni uchun tanlama dispersiya hisoblanadi. Guruh dispersiyasi guruh ichida ro'y beradigan sabablar hisobigagina vujudga keladigan o'zgaruvchanlikni aks ettiradi.

Ichki guruh dispersiyasi guruh dispersiyalari orasida o'rtacha hisoblanadi va guruhlashga asos qilib olingan omilni istisno qilganda qolgan barcha omillar ta'siri ostida ro'y beradigan belgi *tasodifyi* variatsiyasini aks ettiradi.

Guruhlararo dispersiya (guruhi ko'rsatkichlari dispersiyasi) guruhlashga asos qilib olingan omilning ta'siri bilan asoslanadigan belgining *sistematiq* variatsiyasini tavsiflaydi. U guruh o'rtacha ko'rsatkichlarining umumiy o'rtacha ko'rsatkichdan o'rtacha kvadratik og'ishiga teng.

Umumiy dispersiya ushbu variatsiyani belgilab beradigan barcha omillar ta'siri ostida butun bosh to'plam bo'yicha belgi variatsiyasini o'lchaydi. U alohida qiyatlarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichdan o'rtacha og'ishiga teng. Aytish mumkinki, umumiy dispersiya ichki guruh dispersiyasi va guruhlararo dispersiya yig'indisiga teng.

Mustaqil o'zgaruvchi toifaviy, bog'langan o'zgaruvchi esa – metrik bo'lishi dispersiya tahlili o'tkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

ANOVA da ma'lumotlar to'plami k -mustaqil bir o'lchamli tanlama to'plamlardan iborat bo'lib, uning elementlari bir xil birliliklarda (doll., kg., ball) o'lchanadi. Tanlama to'plamlar hajmi (σ^2) turliha bo'lishi mumkinligiga yo'l qo'yiladi.

Tayanch iboralar: ANOVA, dispersion va kovariatsion tahlil, gipoteza, Total cereal, bir omilli talil, ko'p omilli tahlil, kovariatsion, prinsipial sharh, Guruh dispersiyasi, tasodifyi variatsiya, Umumiy dispersiya, one-way analysis of variance, ANCOVA, Eta-kvadrat, F-statistika va boshq.

Nazorat uchun savollar

1. Dispersion tahlil (analysis of variance – ANOVA)ning ma’nosí nima va u nima uchun qo’llaniladi?
2. Dispersion va kovariatsion tahlilni bajarish usullari nimalardan iborat?
3. Bir omilli dispersion tahlil bilan ko‘p omilli dispersion tahlil o‘rtasidagi farq nimada?
4. Kovariatsion tahlil nima?
5. O‘lchovsiz dispersion tahlil va ko‘po‘lchamli dispersion tahlil qo‘llash jarayonini ko‘rsatib bering.
6. Dispersion tahlil yordamida qanday masalalar yechiladi?
7. Dispersion tahlilning prinsipial sharhi nima?
8. Dispersion tahlilda qanday foydalaniładigan mezonlarni bilasiz?
9. Guruhlararo va umumiy dispersiya tahlili o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib bering (misol tariqasida).
10. Mahsulot hajmining o‘zgarishiga uning miqdori va bahosining ta’sirini indeks usuli qanday aniqlanadi?

12-BOB. KORRELYATSIYALI VA REGRESSIYA TAHLILLAR

12.1. Korrelyatsion va regressiv tahlilning umumiy tushunchasi

Korrelyatsiya va regressiya bu – marketing tadqiqotlari o‘tkazishda foydalilanidigan iqtisodiy-matematik usullar guruhiga kiradigan usullardir. Ular marketing faoliyatini tavsiflaydigan o‘zgaruvchilar guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni belgilash uchun foydalilanadi.

Korrelyatsiya deyilganda ikkita tasodifiy miqdorlarning (X va U) bir-biriga bog‘liqligi (aloqadorligi) tushuniladi. Ularning tasodifiyligi shundaki, tahlil qilinayotgan miqdorlar bir-biriga umuman bog‘liq bo‘lmashligi ham mumkin. Bunday bog‘lanishni *yolg‘on korrelyatsiya* deb yuritiladi. Ikkiti miqdorning o‘rtachasidan farqlarining yig‘indisi **korrelyatsiya funkiyasi yoki korrelyatsiya** deb aytildi. Bu quyidagicha ifodalanadi:

$$r_{xy} = \sum \{(x - \bar{x}_{\cdot r})(u - \bar{u}_{\cdot r})\};$$

Korrelyatsiya funksiyasini dispersiyaga (σ_x^2 σ_y^2) bo‘lib **korrelyatsiya koeffitsientini** aniqlaydi. Buning formulasi quyidagicha:

$$R_{xy} = \frac{r_{xy}}{\sigma_x^2 \sigma_y^2};$$

Agar tahliliy ko‘rsatkichlar nochiziqli bog‘lanishda bo‘lsa bunday holat **korrelyatsiya indeksi**, deb yuritiladi.

Korrelyatsion tahlil natijasida olingan ma’lumotlarga qarab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bog‘liqligiga baho berish mumkin. Agar X bilan U bir-biriga bog‘liq bo‘lmasa $R_{xy} = 0$ bo‘ladi. Ular bir-biriga bog‘liq bo‘lsa $R_{xy} \neq 0$ bo‘ladi. Agar ular o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘liq bo‘lsa $R_{xy} = 1$ bo‘ladi. Agar ular bir-biriga bog‘liq bo‘lib, natiya kamayish ro‘y bersa $R_{xy} = -1$ ga teng bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, korrelyatsiya koeffitsienti -1 dan +1gacha o‘zgarish mumkin ekan.

Korrelyatsion tahlil yordamida asosan quyidagi ikki masala: birinchidan, bog'lanishlar yo'nalishini aniqlash va uni ehtiymollar nazariyasi bilan baholash va ikkinchisi, bog'lanishlar zichligini aniqlash masalalari hal etiladi.

Biroq korrelyatsiya va regressiya ta'siri (harakati) quyidagilar tufayli qiyin hisoblanadi:

- o'rghanish obyekti murakkabligi, marketing jarayonlari chiziqli emasligi;
- marketing o'zgaruvchilarini o'lhash qiyinligi. Iste'molchilarning ma'lum bir stimullarga, masalan, reklamaga reaksiyasini o'lhash qiyinligi;
- iste'molchilar didi, odatlari, baholari va h.k. o'zgarib turishi bilan asoslanadigan marketing o'zaro aloqalari beqarorligi.

Tashqi muhitning tez va chuqur o'zgarishi sharoitlarida matematik model avvalboshdan unda hisobga olinmagan o'zgarishlar ta'sirini oldinday aytib berishga qodir emas. Matematik model improvizatsiya qila olmaydi va tashqi muhit o'zgarishlariga moslasha olmaydi.

Korrelyatsiyalarni hisob-kitob qilish va regressiyalarni hisob-kitob qilish bu – marketingda korrelyatsion-regression tahlil deb ataladigan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonining ketma-ketlikdagi ikkita bosqichidir. Ular birinchi navbatda, vazifani to'g'ri qo'yish ketma-ketlikdagi rejimini va mavjud ma'lumotlar orasida mos keladigan tanlama to'plamni ta'minlash uchun mo'ljallangan tahliliy rejimda bajariladi. Korrelyatsion-regression tahlilni qo'llaydigan tadqiqotchi eng mos keladigen va ishonchli hududlarni, vaqt davrlarini, tadqiqot obyektlarini, omillar turlari va h.k ni tanlab oladi. Tahliliy rejim ma'lum bir «kitish» - ma'lumotlar orasidan tanlama to'piam va vazifani boshlang'ich qo'yish hamda «chiqish» - filtrlangan vazifa qo'yish va tanlama to'plamga ega bo'ladi. Qolgan jihatlardan u tahlil uslubiyatini chegaralamaydi.

1. Korrelyatsiya sifat tahlili uchun: bir-biri bilan bog'liq bo'lgan omillarni tanlab olish (skrining) va aloqa qaliligi maksimal bo'lgan tanlama to'plam qismini ajratish uchun foydalilaniladi. So'ngra tanlab olingen omillar va kichik omillar

guruhi uchun miqdoriy tahlil amalga oshiriladi: o'zaro aloqa regressiya funksiyalarini tuziladi. Ularni axborot konveyerida foydalaniishi mumkin. Axborot konveyeri dasturiy bloklar ketma-ketligini hosil qiladi: sifat - analog - miqdor - risk - narx - talab. Har bir blok hisob-kitobning oldingi bosqichida yoki ma'lumotlar to'plamidan olingan axborot asosida mos keluvchi tavsifnomalar guruhi hisoblab chiqadi. Natija navbatdagi blokka beriladi yoki darhol xuddi o'sha ma'lumotlar to'plamiga ulanadi.

Olingen regressiya funksiyalarining qo'llanish sohasi klasterli tahlil yordamida yoki ekstrapolyatsiya sohasida genetik algoritmlar qo'llagan holda belgilandi.

Klasterli tahlil – tanlama to'plamni guruhlarga (klasterlarga) ajratishdir. Klasterlar ixcham bo'lishi, boshqacha qilib aytganda, turli klasterlar orasidagi masofa bitta klasterning ichidagi nuqtalar o'rtaidagi o'rtacha masofadan katta bo'lishi lozim.

Genetik algoritmlar bir necha xil ko'rsatkichlar kombinatsiyalarini variantlari optimumini izlashni amalga oshiradi. Bu jarayon siklli ravishda takrorlanadigan uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi, chunonchi:

- evolyutsiya – variantning ham ko'rsatkichlar bo'yicha hosila mezon, ham stoxastik «sakrash»dan foydalangan holda kutilayotgan optimum tomon siljishi;
- «omadsiz» variantlar «g'alvirdan o'tkazish»;
- «omadli» variantlarni yasatishtirish: «ajdodlar» ko'rsatkichlarining omadli qiymatlarini birlashtiradigan «avlodlar» variantlarini yuzaga keltirish.

"Genetik algoritmlar" nomi shu bilan bog'liqliki, ular tabiiy tanlanish haqida zamonaviy tasavvurlarni ifodalaydi: genotiplarni chatishtirish – hosil qilingan fenotiplar muvaffaqiyatliligini aniqlash – kelgusida chatishtirish uchun hamkorlar to'plamidan omadsizlarni «g'alvirdan o'tkazish» hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlil belgilarning regressiya tenglamasida ishtirok etish shaklini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omillarning ro'yxati belgilanib ularning eng muhimlari tanlab olinadi. Tanlab olingan va regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar o'zaro chiziqli yoki juda kuchli

korrelyatsion bog'lanishda bo'lsa, ular ma'lum darajada bir-birini takrorlashi natijasida regressiya ko'rsatkichlari buziladi. Shu sababli barcha omillarning o'zaro bog'lanish kuchi just korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda bir-birini takrorlaydigan omillar aniqlansa tenglamadan chiqarib tashlanadi. Keyin esa regressiya tenglamasining ma'lum parametrlari ($a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$) aniqlanadi.

Regressiya tenglamasi aniqlangandan keyin uning ma'lum parametrlari hisoblanadi.

Korrelyatsion bog'lanish tushunchasi umumiyligi tushuncha – stoxastik (bilvosita) bog'lanishning xususiy holidir. O'zgaruvchan belgi U, X -dan staxistik bog'lanishda bo'ladi.

Korrelyatsion bog'lanishlarni o'rghanishning asosiy vazifasi o'rganilayotgan hodisalar va omillar o'zgarishining sababini aniqlashdan iborat. Omillar odatda sabab sifatida, natija ko'rsatkichi esa oqibat sifatida namoyon bo'ladi.

Korrelyatsion tahlil usuli bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- vazifaning qo'yilishi, omil va natija belgilarning tanlanishi;
- statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni tekshirish;
- grafik va analitik guruhlash usullari yordamida o'zaro bog'lanishlarni dastlabki o'rghanish;
- just bog'lanishlarni o'rghanish;
- ko'p omilli bog'lanishlarni tadqiqot qilish;
- tadqiqot natijalarini baholash, tushuntirish va tahlil qilish.

Shuni inobatga olish kerakki, omil va natijaning o'ttachadan farqining ko'paytmasining $\sum(x - x_{o;r})(u - u_{o;r})$ yuqori qiymati ularning ildiz ostidagi kvadratlari yig'indisiga teng, ya'ni:

$$\sum(x - x_{o;r})(u - u_{o;r}) = \sqrt{\sum(x - \bar{x})^2 + (y - \bar{y})^2}$$

Endi ushbu natija va omillar o'ttasidagi bog'lanishning zichligini aniqlashni taqozo qiladi. Buni aniqlash uchun omillar va natijalarning o'ttachadan farqining ko'paytmasining eng kichik miqdorini uning eng katta miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi:

$$Rxi = \frac{\sum(x - \bar{x})^2 + (y - \bar{y})^2}{\sqrt{\sum(x - \bar{x})^2 + (y - \bar{y})^2}}$$

Bu yerda: $r_{xy} = \text{to'g'ri chiziqli korrelyatsiya koefitsienti}$.

Ushbu koefitsientning miqdori -1 dan 0 gacha va 0 dan $+1$ gacha qiymatlarda bo'lishi mumkin.

Agar $r_{ij} < 0$ bo'lsa bu yerda bog'lanish to'g'ri chiziqli bo'ladi. Agar $r_{ij} > 0$ bo'lsa, uholda bog'lanish ular o'rtasida teskari bo'ladi. Bordiyu $r_{ij} = 0$ bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasida bog'lanish mutlaqo yo'qligidan dalolat beradi.

r_{ij} ning miqdoriga qarab bog'lanishning darajasini aniqlash mumkin. Buning hozirgi statistika fanida tan olingan miqdori quyidagicha:

12.1 – jadval

Miqdoriy bog'lanish darajasi

| Qiymati | 0,1 – 0,3 | 0,3 – 0,5 | 0,5 – 0,7 | 0,7 – 0,9 | 0,9 va undan yuqori |
|------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|---------------------|
| Bog'lanish kuchi | bo'sh | o'rtacha | sezilarli | yuqori | juda yuqori |

Bularning tenglamasi mos ravishda quyidagicha:

$$Y_i = a_1 + a_2 x - \text{to'g'ri chiziqli bog'lanish.}$$

$$U = x_0 + a_1 x + a_2 x^2 \text{ parabola tenglamasi.}$$

$$U = a_0 + \frac{a_1}{x}; \text{ - giperbola tenglamasi;}$$

$$U = a_0 x^{a_1} \text{ - ko'rsatkichli tenglama.}$$

Ushbu tenglamalarning hammasi marketing tadqiqotlarida keng qo'llanishi mumkin.

Korrelyatsiyadanidan omillar sifatida bitta yoki ikkita bloklar koordinata oralig'idan ma'lumotlar tanlab olinadi. Har bir juftlik omillar uchun oddiy correlyatsiya koefitsienti hisoblab chiqiladi. Bunda yig'indi chiqarish yoyilgan holat o'zgaruvchilari

Коэффициент корреляции

$$r = b \frac{\sigma_x}{\sigma_y} = \frac{\bar{xy} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

$$\sigma_x = \sqrt{\bar{x}^2 - (\bar{x})^2}$$

$$\sigma_y = \sqrt{\bar{y}^2 - (\bar{y})^2}$$

© Nauka

bo'yicha amalga oshiriladi. Yoyilgan holat o'zgaruvchisi – uning atrofida ma'lumotlar joylagan o'q rolini o'ynaydigan o'zgaruvchi, masalan, grafikdagи abstsissadir. Shu bilan bir paytda u statistika generatori rolini o'ynaydi: unda statistik ko'rsatkichlar korrelyatsiya koeffitsienti, regressiya koeffitsient va boshqalarini hisoblab chiqishda ma'lumotlar yig'indisini chiqarish amalga oshiriladi. Odatda bu zaman va/yoki makon bo'ladi. Shunday qilib, korrelyatsiya aytaylik, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni oshiri yoki unga talabning ortishi o'rtasidagi zamonga va makonga oid sinxronlikni aks ettiradi.

12.2. Juftli korrelyatsiya

Agar marketologni ikkita metrik ko'rsatkich o'rtasidagi aloqa qiziqtiradigan bo'lsa, bunda juft korrelyatsiyadan foydalaniлади. Ushbu korrelyatsiya Pirson korrelyatsiya koeffitsienti bilan tavsiflanadi. Korrelyatsiya xususiy koeffitsienti – o'zgaruvchilar samarasiga tuzatish kiritishdan so'ng ikkita o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik o'chovidir. Korrelyatsiya koeffitsienti -1 dan +1 gacha o'zgaradi. Koeffitsient mutlaq qiymati aloqa qalinligini tavsiflaydi, belgi esa uning yo'nalishini ko'rsatadi.

Juft korrelyatsiya quyidagi kabi savollarga javob beradi:

- talab reklama xarajatlari bilan qanchalik kuchli bog'langan?
- iste'molchilarning tovarlar sifatini qabul qilishi ularning narxni qabul qilishi bilan bog'liqmi?

Xususiy korrelyatsiya esa quyidagi savollarga javob beradi:

- agar talabning reklama xarajatlariga bog'liqligini oladigan bo'lsak, narx omilining ta'siri bormi?
- sifat va narx ta'sirini o'rganishda savdo markasi samarasi bormi?

Xususiy korrelyatsiya qalbaki bog'liqliklarni aniqlash uchun foydali bo'lishi mumkin.


Agar ma'lumotlar oraliqli yoki nisbiy shkalalar yordamida o'changan bo'lsa, bu korrelyatsiya turlarining birontasi bilan muammo yuzaga kelmaydi. Lekin nometrik o'zgaruvchilar ham mavjud bo'lib, ularni oraliqli yoki nisbiy shkalalar yordamida o'chab bo'lmaydi yoki ular normal taqsimot qonuniga bo'ysumaydi. Bunday holatlarda Spirmen koeffitsientlari yoki Kendal rang korrelyatsiyasi foydalilanadi, korrelyatsiyaning o'zi esa nometrik korrelyatsiya deb ataladi. Bu koeffitsientlarning farqi shundaki, Kendal rang korrelyatsiyasi kuzatuvlarning katta qismi nisbatan kam sonli toifalarga to'g'ri kelganda, Spirmen rang korrelyatsiyasi esa, aksincha – toifalar soni ko'p bo'lganda foydalilanadi.

Korrelyatsion tahlildan amaliyotda foydalanishga misol :

Iste'molchilarining savdo markalariga munosabatini o'rganish bilan shug'ullanadigan marketologlarning aniqlashicha, sotuvchilarining minimal ishtiroki bilan sotiladigan tovarlar uchun xaridorning reklamaga munosabati brendni tanib olish va unga munosabat o'rtaida oraliq bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Ular agar tovarlar kompyuter tarmog'i orqali xarid qilinadigan bo'lsa, bu oraliq o'zgaruvchi bilan nima bo'lishini bilishga harakat qilib ko'rdilar.

Vengriyada kompaniyalardan biri xaridlarga bevosita reklamaning ta'sirini tadqiq qildi. Marketologlar



ForexAW.com

o'tkazgan so'rov davomida turli ko'rsatkichlar o'chandi. Shundan so'ng brendga munosabat bilan unga ishoach o'rtaida xususiy korrelyatsiya koeffitsientini hisoblab chiqish va shu bilan bir paytda reklamaga munosabati istisno qilish zarur bo'ldi. Mazkur korrelyatsion tahlil reklamaga munosabat haqiqatda muhim ahamiyat kasb etishini va iste'molchilar xulq-atvoriga

ta'sir etishini ko'rsatdi, chunki xususiy korrelyatsiya koeffitsienti brendga ishonch va unga munosabat juft koeffitsientidan ancha kichik edi.


Tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalar va jarayonlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan bo'lib, bu hodisa va jarayonlardan birining o'zgarishi, albatda ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi va aksincha. Bunda birinchisi albatta funksiya yoki natija bo'lsa, ikkinchilari argument yoki omillar bo'lib hisoblanadi. Bunday hodisalar marketing jarayonida ham sodir bo'ladi. Shu tufayli marketing tadqiqotlariida ham ushbu bog'lanishlarni albatta o'rganishni taqozo qiladi.

Natija ko'rsatkichi bilan omillar o'rtasidagi bog'lanishlar xarakteriga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- funksional bog'lanishlar;
- korrelyatsion bog'lanishlar.

Bog'lanishlar yo'nalishiga qarab ham ikkiga bo'linadi:

- to'g'ri bog'lanishlar;
- teskari bog'lanishlar.



Analitik ifodalarning ko'rinishlariga qarab ham bog'lanishlar ikki guruhga bo'linadi:

- to'g'ri chiziqli bog'lanishlar;
- egril chiziqli bog'lanishlar.

Bir ko'rsatkichning o'zgarishi bilan ikkinchi ko'rsatkich albatta o'zgarsa va ular bir-biriga bevosita bog'liq bo'lsa bunday bog'lanishlar **funktional bog'lanishlar** deb aytildi. Funksional bog'lanishning eng muhim xususiyatlari shulardan iborat:

- natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bevosita arifmetik belgilardan iborat bo'ladi;

- ularning joylashuviga qarab qaysi omil ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi aniq bo'ladi;
- omilning qanchaga o'zgarishi natijani qanday o'zgarganligini ham aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi;
- ushbu ko'rsatkichlarning bog'liqligi (natija bilan omillarning) albatta matematik formulalarda tenglama shaklida ifodalanadi.

Ko'rsatkichlarning funksional bog'lanishlarini sxematik tarzda quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$Y_i = f(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n) = f(\mathbf{x}_i);$$

bu yerda: Y_i - natijaviy belgi;

$x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$ - alohida omillarning belgilari;

X_i - omillar belgisi;

$f(x_i)$ - bu belgilarning ma'lum funksional bog'lanishidir.

Ammo amaliyotda shunday bog'lanishlar ham borki, bir ko'rsatkichning (omilning) o'zgarishi ikkinchi ko'rsatkichning (natijaning) o'zgarishiga olib kelishi tabiiy. Biroq, ularning bir-biriga ta'sirini funksional holatdagidek aniqlash qiyin. Masalan, iqlimning o'zgarishi hosildorlikka ta'sir qilish tayin, lekin qanchaga o'zgartirganligini hisoblashning imkon yo'q. Bunday noaniq bog'lanish statistikada **korrelyatsion bog'lanish** deb atiladi. Ushbu so'zning ma'nosi lotinchadan olingan bo'lib, correlatio - narsalarning o'zaro nisbatini anglatadi, deyilgan.

Korrelyatsion bog'lanishning xarakterli xususiyati shundaki, natijaga ta'sir qiluvchi barcha omillarning to'liq ro'yxatini aniqlash qiyin, faqatgina formula yordamida korrelyatsion bog'lanishlarning taxminiy ifodalarini yozish mumkin, xolos. Korrelyatsion bog'lanishni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$Y_i = a_1 + a_2 x;$$

Bunda: Y_i - natija ko'rsatkichi;

a_1 - ikkinchi darajali va tasodifiy omillar ta'sirida yuz beradigan natija belgisining o'zgarmaydigan bir qismi;

$a_2 x$ - hisobga olingan natija belgisining ma'lum omil belgilari ta'siri ostida shakllangan o'zgariuvchining bir qismidir.

Muayyan davr ichida ko'rsatkichilar o'rtasidagi bog'lanishni asosan oddiy parallel qatorlar tuzish yo'li bilan o'rganiładi. Shu maqsadda eng avvalo, taqqoslanayotgan belgilar o'rtasida bog'lanish bor-yo'qligi nazariy jihatdan asoslab chiqiladi. Keyin esa har ikkala qator yonma-yon joylashtirilib, bir-biri bilan taqqoslanadi. Bunday korrelyatsion bog'lanishlar yuqorida aytilganidek bir qancha yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- to'g'ri chiziqli bog'lanish;
- qisman to'g'ri chiziqli bog'lanish;
- teskari chiziqli bog'lanish;
- qisman teskari chiziqli bog'lanish;
- nol koeffitsientli bog'lanish.

Marketing tadqiqotlarida barcha bog'lanishlar uchrashi tabiiy. Bularning har birini qisqagina qarab chiqish maqsadga muvofiq.

To'g'ri chiziqli bog'lanish deyilganda, omillarning ijobiy tomonga o'zgarishi natijaning ham ijobiy tomonga o'zgarishiga olib kelishi tushuniładi. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin:

12.2-jadval

To'g'ri chiziqli bog'lanish

| Omillar | X | 4 | 6 | 8 | 10 | X o'rtacha 7 |
|---|--------------------------------------|-------|------|------|-------|--------------------|
| Natija | U | 19 | 22 | 25 | 28 | U o'rtacha 23,5 |
| Omilning o'rtachadan farqi | (x- x _{o'rt}) | -3 | -1 | +2 | +3 | X |
| Natijaning o'rtachadan farqi | (u- u _{o'rt}) | -4,5 | -1,5 | +1,5 | +4,5 | X |
| Omil va natijaning o'rtachadan farqining ko'paytmasi | $\sum(x-x_{o'rt})$ $(u-u_{o'rt})$ | +13,5 | +1,5 | +3,0 | +13,5 | +31,5 |

Qisman to'g'ri chiziqli bog'lanish deyilganda, omilning o'zgarishi bilan natija bir o'zgarib so'ngra kamayadi va yana

o'sadigan holat tushuniladi. Bunga quyidagi misolni keltirish mumkin bo'ladi:

12.3 – jadval

Qisman to'g'ri chiziqli bog'lanish

| Omillar | X | 4 | 6 | 8 | 10 | X o'rtacha 7 |
|--|--|-------|------|------|-------|--------------------|
| Natija | U | 19 | 25 | 22 | 28 | U o'rtacha 23,5 |
| Omlining o'rtachadan farqi | (x - x _{0,7}) | -3 | -1 | +2 | +3 | X |
| Natijaning o'rtachadan farqi | (u - u _{0,7}) | -4,5 | +1,5 | -1,5 | +4,5 | X |
| Omil natijaning o'rtachadan farqining ko'paytmasi va | $\sum(x - x_{0,7})$ (u - u _{0,7}) | -13,5 | -1,5 | -3,0 | +13,5 | -4,5 |

Teskari chiziqli bog'lanish deyilganda, omillarning ko'payishi bilan natija ko'rsatkichining miqdori muttasil ravishda pasayib borishi tushuniladi. Ushbu bog'lanishga quyidagi misolni keltirish mumkin bo'ladi:

12.4 – jadval

Teskari chiziqli bog'lanish

| Omillar | X | 4 | 6 | 8 | 10 | X o'rtacha 7 |
|--|--|-------|------|------|-------|--------------------|
| Natija | U | 28 | 25 | 22 | 19 | U o'rtacha 23,5 |
| Omlining o'rtachadan farqi | (x - x _{0,7}) | -3 | -1 | +2 | +3 | X |
| Natijaning o'rtachadan farqi | (u - u _{0,7}) | +4,5 | +1,5 | -1,5 | -4,5 | X |
| Omil natijaning o'rtachadan farqining ko'paytmasi va | $\sum(x - x_{0,7})$ (u - u _{0,7}) | -13,5 | -1,5 | -3,0 | -13,5 | -31,5 |

Qisman teskari chiziqli bog'lanish deyilganda, omillarning bir xil o'sishi bilan natijaning bir kainayib, yana bir o'sib va kamayishi, ya'ni qisman bir-biriga to'g'ri kelishi tushuniladi. Ushbu bog'lanishga quyidagi jadvalda keltirilgan misolni ko'rsatish mumkin:

12.5-jadval

Qisman teskari chiziqli bog'lanish

| Omillar | X | 4 | 6 | 8 | 10 | X o'rtacha 7 |
|---|---------------------------|-------|-------|-------|-------|--------------------|
| Natija | U | 22 | 28 | 25 | 19 | U o'rtacha 23,5 |
| Omilning o'rtachadan farqi | (x- x _{o'r}) | -1,5 | +4,5 | +1,5 | +3 | X |
| Natijaning o'rtachadan farqi | (u- u _{o'r}) | +4,5 | -1,5 | +1,5 | +4,5 | X |
| Omil natijaning o'rtachadan farqining ko'paytmasi | $\sum(x - x_{o'r})$ | -6,75 | -6,75 | +2,25 | +13,5 | +2,25 |

Nol koeffitsientli bog'lanish deyilganda, omilning ko'payishi bilan natija ko'rsatkichining o'zgarishida deyarli bog'liqlik bo'lmasligi tushuniladi. Natijaning o'zgarishi boshqa tasoddifyi omillar evaziga o'zgarishi mungkin. Ushbu bog'lanishga ham quyidagi jadvalda keltirilgan misolni ko'rsatish mumkin:

12.6-jadval

Nol koeffitsientli bog'lanish

| Omillar | X | 4 | 6 | 8 | 10 | X o'rtacha 7 |
|------------------------------------|---------------------------|------|------|------|------|--------------------|
| Natija | U | 28 | 22 | 25 | 19 | U o'rtacha 23,5 |
| Omilning o'rtachadan farqi | (x- x _{o'r}) | -3,0 | -1,0 | +1,5 | +3 | X |
| Natijaning o'rtachadan farqi | (u- u _{o'r}) | +4,5 | -1,5 | +1,5 | +4,5 | X |

| | | | | | | | |
|---|----|----------------------|-------|------|-------|-------|-------|
| Omil natijaning o'rtachadan fargining ko'paytmasi | va | $\sum(x - x_{o'rt})$ | -13,5 | -1,5 | +2,25 | +13,5 | +0,75 |
|---|----|----------------------|-------|------|-------|-------|-------|

Ushbu bog'lanishlarni o'rganishda statistikaning korrelyatsiya, regressiya kabi usullaridan foydalaniladi.

12.3. Regression tahlil tushunchasi

Regressiya so'zi lotincha regressio so'zidan olingan bo'lib, orqaga harakatlanish degan lug'aviy ma'noga ega. Bu atamani statistikaga kirib kelishi ham korrelyatsion tahlil asoschilar F. Galton va K. Pirson nomlari bilan bog'liqidir.

Regression tahlil amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. U natijaviy belgiga ta'sir etuvchi belgilarning samaradorligini amaliy jihatdan yetarli darajada aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Shu bilan birga regression tahlil yordamida iqtisodiy hodisalarining kelajak davrlar uchun istiqbol miqdorlarini baholash va ularning ehtimol chegaralarini aniqlash mumkin.

Regression tahlil bu – metrik bog'langan o'zgaruvchi va bitta yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchi o'rtaсидаги aloqalarni o'рганиш ва shaklini belgilash usuli hisobланади.

Boshqacha aytganda, regressiya deyilganda qandaydir o'rtacha miqdorlarning tasodifiy bitta yoki bir qancha ko'rsatkichlarga bog'liqligi tushuniladi.

Regression tahlil quyidagi hollarda qo'llanadi:

- o'zaruvchilar orasida haqiqatda o'zaro aloqa mavjudligini aniqlash zarur bo'lsa;
- mustaqil va bog'langan o'zagruvchilar o'rtaсидаги aloqalar qalinligini aniqlash zarur bo'lsa;
- aloqa shaklini aniqlash zarur bo'lsa;
- bog'langan o'zgaruvchining ahamiyatini oldindan aytish lozim bo'lsa;
- muayyan o'zgaruvchilar hissasini aniqlashda mustaqil o'zgaruvchilar ustidan nazoratni amalga oshirish zarur bo'lsa.

Regression tahlil o'tkazish uchun quyidagilar zarur:

- uning ma'lumotlari bog'langan regressiya o'zgaruvchisini beradigan koordinatalar oralig'i undan olinadigan bitta blokni tanlash.
 - xuddi shu tarzda omillar mustaqil regressiya o'zgaruvchilarini olinadigan bitta yoki bir nechta blokni tanlash. Bunda bog'langan o'zgaruvchini beradigan blok va mustaqil o'zgaruvchini beradigan barcha bloklar regressiya egri chizig'i yoki yuzasi ular bo'yicha o'tkaziladigan nuqtalarni beradigan umumiy koordinatalarga ega bo'lishi zarur.
 - regressiyaga kiritilgan mustaqil o'zgaruvchilar turi va funksiyalar «darajasi»ni tanlash.
 - ularning ichida regressiya funksiyasi sezilarli o'zgarmasligi lozim bo'lgan taqposlash o'zgaruvchilarining koordinata oraliglarini berish.
 - oldindan aytib berish aniqligi belgilanadi. Buning uchun regressiyani baholash standart xatoligi aniqlanadi.

Regressiya mustaqil o'zgaruvchilar soni va regressiya funksiyasi darajasi o'sishi bilan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bunda umumtizimli optimizator yordamida regressiya egri chizig'i ma'lumotlari o'rtacha kvadratik og'ish minimumini topiladi.

Regressiya tenglamasi statistik bog'lanishni ifodalaydi, ya'ni bu tenglama U belgining o'rtacha darajasining o'zgarishiga X belgining o'zgarishi ta'siri ostida o'zgarishini ifodalaydi.

To'g'ri chiziqli bog'lanish mavjud bo'lganda natijaviy belgi omil belgi ta'sirida bir tekis o'zgaradi. Bu yerda o'zgaruvchi argument x bo'lib hisoblanadi. Agar uning qiymati mushbat bo'lsa, natija ko'payib boradi va aksincha manfiy bo'lsa, natija kamayib boradi. U holda regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Ux = a_0 + a_1 x$$

Bu yerda Ux - natijaviy belgining tekislangan qiymati (o'zgaruvchan o'rtacha).

Mazkur formula tahlil qilinayotgan natija ko'rsatkichining aniqlanishi lozimi bo'lgan omilga bog'liqfigining turli qiymatlarini

aniqlash imkonini beradi. Shu tufayli uni regressiya koeffitsienti, deb yuritiladi.

Agarda natija o'zgarishiga bitta emas, bir qancha omillar ta'sir qilsa, ular o'rtaqidagi bog'liqlik staxostik shaklda bo'lsa ko'pomilli regressiya formulasi qo'llaniladi:

$$Ux = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_px_p$$

Marketing tadqiqotlarida to'g'ri chiziqli bog'lanish tenglamasi keng ko'lamda qo'llaniladi, uning parametrlarini aniqlash va ularni ishlatalish oson. Lekin haqiqatda chiziqli bog'lanish kam uchraydi. Shu sababli to'g'ri chiziqli bog'lanishni tanlash oddiy emperik usul sifatida qaraladi.

Agarda emperik ma'lumotlar omil belgining ko'payishi natijaviy belgining tezroq o'tishiga olib kelsa, regressiya tenglamasi sifatida ikkinchi tartibli *parabola tenglamasi* olinadi.

Tenglama quyidagi ko'rinishga ega

$$Ux = a_0 + a_1x + a_2x^2$$

Giperbolal tenglmasi esa:

$$Yx = a_0 + a_1 \frac{1}{x};$$

yarim logarifmik egri chiziqli tenglama:


$$Ux = a_0 + a_1 \text{Log}x;$$

Ko'p omilli (chiziqli) regressiya tenglmasi ham ko'pomilli regressiya singari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Ux = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n;$$

Korrelyatsiya regressiya o'rtaqidagi tahlilida bog'lanishlar shaklini tanlash muhim bo'sib hisoblanadi, chunki keyingi hisob kitoblar qanchalik yaxshi amalga oshirilmasa, agarda bog'lanish shakli to'g'ri tanlanmagan bo'lsa, natija noto'g'ri xulosalarga olib keladi.

Bog'lanishlar shakli dastavval sifat tahlili natijasida aniqlangan. Bu o'rinda regressiya emperik chizig'inining grafigidan foydalananiladi.



Bog'lanishlar nazariy shaklini tanlash ma'lum miqdorda shartli bo'lib, u funksional bog'lanish bilan bog'liqdir. Lekin shu bilan birga hayotda bog'lanish ma'lum darajada funksional bog'lanishga yaqinlashadi xolos. Faqatgina bog'lanish yuqori darajada bo'lsagina bog'lanishning nazariy chizig'i va uning parametrlari amaliy ahamiyat kasb etadi va korrelyatsiya nazariyasining reja va iqtisodiy hisob kitoblaridan yaxshi yordamchisiga aylanadi.

Demak, qachonki bog'lanish yuqori darajada bo'lsagina bog'lanishning nazariy chizig'ini axtarish va uni aniqlash ma'lum bir mazmun va ma'no kasb etadi. Bog'lanishning bu nazariy chizig'i boshqacha qilib, regressiya chizig'i deb ataladi. Ularni aniqlash, tuzish va tablil qilish va amaliy qo'llanilishi esa regression tablil deb aytildi.

Ushbu formulalarga shartli ma'lumotlar asosida tuzilgan misolni keltiramiz (12.7-jadval).

12.7-jadval

Normal chiziqli tenglamalar tiziminining koefitsientlarini hisoblash

| Oila jon boshiga to'g'ri keladi-gan yillik daromad ming so'm (X) | Qand iste'mol i kg.(U) | X ² | Xu | Ux=22,55+0,017 x (kg) |
|--|------------------------|--------------------|------------------|-----------------------------|
| 450 | 30 | 202500 | 13500 | 30,2 |
| 750 | 35 | 562000 | 26250 | 35,3 |
| 1050 | 41 | 1102500 | 43050 | 40,4 |
| 1350 | 46 | 1822500 | 62100 | 45,5 |
| 1650 | 50 | 2722500 | 82500 | 50,6 |
| $\sum X=5250$ | $\sum U=202$ | $\sum X^2=6412500$ | $\sum Xu=227400$ | 202 |

$$\bar{Y}_x = a_0 + a_1 x$$

\bar{Y}_x – qand iste'molining faqat daromaddan bog'liqligi.

X – jon boshiga to'g'ri keladigan daromad.

$a_0 a_1$ lar – tenglamaning no'malum parametrlari.

a_0 – parametr natijaviy belgiga (qand iste'moliga) hisobga olinmagan omillarning o'rtacha ta'siri, ya'ni $X=0$ dagi U_x qiymati.

a_1 – parametr, regressiya koefitsienti bo'lib, omil belgining bir birlikka ko'payishi natija belgining o'rtacha qanchaga o'zgarishining ko'rsatadi.

To'g'ri chiziqli bog'lanishlar tenglamasining noma'lum parametrlari a_0 va a_1 lar kichik kvadratlar usuli asosida olingan tenglamalar tizimini hisoblash yo'li bilan aniqlaniladi:

$$na_0 + a_1 \sum X = \sum Y$$

$$a_0 \sum X + a_1 \sum X^2 = \sum xy$$

$$\begin{aligned} 5a_0 + 5250a_1 &= 202 \\ 5250a_0 + 6412500a_1 &= 227400 \end{aligned} \quad \left. \begin{array}{l} \\ 5250 \end{array} \right\}$$

Bu normal tenglamalar tizimini yechish uchun zarur ma'lumotlarni yuqoridagi jadvaldan olamiz:

$$a_0 + 1050a_1 = 40,4$$

$$\frac{a_0 + 1221,4a_1 = 43,314}{171,4a_1 = 2,914} \text{ bu yerda } a_1 = \frac{2,914}{171,4} = 0,017$$

a_1 ning qiymatini tenglamaga qo'yish yo'li bilan a_0 ni aniqlaymiz

$$a_0 + 1050 a_1 = 40,4$$

bu yerdan

$$a_0 + 1050 * 0,017 = 40,4$$

$$a_0 + 17,85 = 40,4$$

$$a_0 = 22,55$$

$$U_x = 22,55 + 0,017 x$$

a_1 parametr jon boshiga $to'g'ri$ keladigan daromadning 1 so'mga ko'payishi, qand iste'molini 17 gramga ko'payishini ko'rsatadi.

Daromad 100 so'mga ko'paysa, jon boshiga $to'g'ri$ keladigan qand iste'moli 1,7 kg ga va xokazo ko'payadi.

$$U_{450} = 22,55 + 0,017 * 450 = 30,2 \text{ va xokazo jadvalga qarang.}$$

Yana bir misol ham bevosita marketing tadqiqotlariga mos keladi.

Tumandagi 8 ta oila a'zolarining o'rtacha bir oylik daromadi (x) bilan bir sutkada har bir oila a'zosi tomonidan iste'mol qilinadigan yog' miqdori (u) o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish uchun regressiyaning chiziqli tenglamasini aniqlash kerak.

Quyidagi ma'lumotlarga asoslanib normal chiziqli tenglamalar tizimining koeffitsientlarini jadval yordamida hisoblab chiqamiz (12.8-jadval).

12.8-jadval

Normal chiziqli tenglamalar tizimining koeffitsientlarini hisoblash

| T/r | Oila a'zolarining o'rtacha bir oylik daromad, ming so'm (X) | Bir sutkada har bir oila a'zosi tomonidan iste'mol qiladigan yog', gr (U) | X^2 | XU | $UX = 22,55 + 0,017x \text{ (gr)}$ |
|----------|---|---|---------|--------|------------------------------------|
| 1. | 29,0 | 15,2 | 841,0 | 440,8 | 16,02 |
| 2. | 38,0 | 17,0 | 1444,0 | 646,0 | 19,77 |
| 3. | 46,0 | 25,0 | 2116,0 | 1150,0 | 23,11 |
| 4. | 54,0 | 26,3 | 2916,0 | 1420,2 | 26,44 |
| 5. | 62,0 | 32,0 | 3844,0 | 1984,0 | 29,78 |
| 6. | 70,0 | 34,1 | 4900,0 | 2387,0 | 33,11 |
| 7. | 79,0 | 38,0 | 6241,0 | 3002,0 | 36,87 |
| 8. | 97,0 | 42,0 | 9467,29 | 4086,6 | 44,50 |
| Σ | 475,3 | 229,6 | 31769,2 | 15116, | 229,6 |
| | | | 9 | 5 | |

Normal tenglamalar tizimiga jadvaldagi ma'lumotlarni qo'yib chiqamiz:

$$8a_0 + 475,3a_1 = 229,6;$$

$$475,3a_0 + 31769,29 a_1 = 15116,6.$$

Har bir tenglamaning hadlarini a_0 koeffitsientining oldidagi 8 soniga bo'lib chiqamiz:

$$a_0 + 59,412a_1 = 28,7;$$

$$a_0 + 66,84a_1 = 31,8.$$

Ikkinci tenglamadan birinchisini ayirib chiqsak, u holda:

$$2,428\epsilon_1 = 3,1. \text{ Bu yerda } \epsilon_1 = \frac{3,1}{7,428} = 0,417$$

a_1 qiymatini birinchi tenglamaga qo'yib, a_0 ning qiymatini aniqlaymiz:

$$a_0 + 59,412x_0 417 = 28,7;$$

bu yerda

$$a_0 = 28,7 - 24,755 = 3,925.$$

Tenglamadagi a_0 va a_1 parametrlarni quyidagicha ham hisoblash mumkin:

$$a_0 = \frac{229,6 + 31769,29 - 15116,6 * 475,3}{8 * 31769,29 - 475,3 * 475,3} = 3,925;$$

$$a_0 = \frac{8 * 15116,6 - 229,6 * 475,3}{8 * 31769,29 - 475,3 * 475,3} = 0,417.$$

Shunday qilib, korrelyatsion bog'lanish regressiyasining to'g'ri chiziqli tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$U_x = 3,925 + 0,417 X$$

Ushbu tenglama yordamida U ning qatordagi istalgan qiymatini aniqlash mumkin. Masalan,

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 29,0 = 16,02$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 38,0 = 19,77$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 46,0 = 23,11$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 54,0 = 26,44$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 62,0 = 29,78$$


$$U_x = 3,925 + 0,417 * 70,0 = 33,11$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 79,0 = 36,87$$

$$U_x = 3,925 + 0,417 * 97,3 = 44,50$$

Bu yerda a₁ regressiya koefitsienti natijaviy belgi (U) bilan omil belgi (x) o'rtaqidagi bog'lanishni belgilab beradi. Bu esa omil belgi bir birlikka ortganda natijaviy belgi necha birlikka oshadi, degan savolga javob beradi.

Bizning misolimizda a₁ ≈ 0,42 ga teng. Demak daromadning bir songa oshishi har bir oila a'zosi tomonida iste'mol qilinadigan yog'ning bir sutkada 0,42 grammga oshishiga olib keladi. Boshlangich ma'lumotlar (X_i , U_i) dekart kordinata tizimiga qo'yib chiqilsa, korrelyatsiya maydoni hosil bo'ladi. Bu quyidagi chizmada aks ettirilgan (12.1-rasm).



12.1-rasm. Normal chiziqli tenglamalar tizimining koefitsientlarining grafigi

Shu singari boshqa tenglamalarning ham miqdori va grafiklarini tuzish mumkin. Bunda marketing tadqiqotlarida qanday jarayon va ko'rsatkichlarning o'rganilaroyganligiga bog'liq.

12.4. Juft regressiya tahlili

Regressiya egri chizig'i uchun noaniqlik tavsifnomalari – regressiya qalinligi ko'rsatkichlari: ishonchli oraliq egri chiziqlari vadeterminatsiya koefitsienti hisoblab chiqiladi. Bularning so'ngisi «bog'langan o'zgaruvchi – mustaqil o'zgaruvchi» barcha kombinatsiyalari uchun birdaniga hisoblab chiqilishi mumkin.

Xuddi korrelyatsiya kabi, regressiya ham har bir taqqoslash o'zgaruvchisining qayd qilingan koordinata oraliqlari uchun

hisoblab chiqiladi. Regressiyaning xuddi shu ierarxiya darajaida koordinata oralig'ini almash tirishga barqarorligi tekshiriladi.

Xuddi korrelyatsion tahlil kabi, regression tahlil ham o'z xususiyatlari va yo'nalishlariga ega.

Ikkita matematik o'zgaruvchi – bog'langan va mustaqil o'zgaruvchi o'rtasida matematik bog'liqlikni aniqlash uchun just regressiya foydalaniladi. Ko'plik regressiya ikki yoki undan ortiq mustaqil o'zgaruvchilar va oralig'li yoki nisbiy shkalalar yordamida ifodalangan ko'p sonli bog'langan o'zgaruvchilar o'rtasidagi matematik bog'liqlikni aniqlash uchun foydalaniladi. Ushbu holatda aloqa qalinligi kuchi ko'plik determinatsiya yordamida o'lchanadi (xuddi korrelyatsiyadagi kabi). Qadammaqadam regressiyada mustaqil o'zgaruvchilar regressiyaga ketma-ket kiritiladi va chiqariladi.

Just regressiya quyidagi savollarga javob beradi:

– mustaqil va bog'langan o'zgaruvchilar o'rtasida bog'liqlik qanday?

– bozor hajmlari variatsiyasi savdo personali soniga bog'liqmi?

Ko'plik regressiya quyidagi kabi savollarga javob beradi:

– mahsulotga talab narx, raqobatchilar soni va bozordagi vositachilar nuqtai nazaridan tushuntiriladimi?

– bozor ulushi PR-aksiyalar xarajatlariga va promoaksiya byudjetiga bog'liqmi?

– talab benchmarking o'tkazishga, raqobatchilarning narx siyosati va h.k.ga bog'liqmi.

Regression tahlilga misol:

Sotuv hajmi bo'yicha *IBM* dan ham o'zib ketgan *Sun Microsystems* kompaniyasi misoli bunday tahlil uchun ajoyib misol bo'la oladi. Raqobatli ustunliklar regression tahlilini asos qilib olib, kompaniya texnologiyalar bozorida yetakchi bo'lib oldi. Regression tahlil quyidagi tartibda amalga oshiriladi: uchta mustaqil o'zgaruvchilar to'plami: raqobatchi kompaniyada mutaxassislar soni, reklama xarajatlari va ishlab chiqish xarajatlari olindi. Ularning barchasi ifgari o'tkazilgan benchmarking tufayli foydalanilgan. Bog'langan o'zgaruvchi esa

sotuv hajmi hisoblanadi. Ushbu tahlilni o'tkazish shuni ko'rsatadiki, aynan personal soni tufayli *Sun Microsystems* kompaniyasi aziyat chekdi va *IBM* yetakchi bo'lib oldi. Personal sonining katta ekanligi sababli *Sun Microsystems* kompaniyasida professional darajada tarqoqlik yuzaga keldi va ko'pincha u yoki bu mahsulotni joriy qilish bo'yicha yakdil fikr bo'limadi, loyihalarga pu'l ajratilmadi, lekin loyihalarning aksariyati loyihaligicha qolib ketdi va tatbiq etilmadi. Aksincha, personal soni kichikroq bo'lgan *IBM* kompaniyasida loyiha mualliflari bozorga ketib qoldi va darbo'l sotib olindi. Tahlil yakunlariga ko'ra, *Sun Microsystems* axborotning chetga chiqib ketishidan xavfsiragan holda personalni qiskartirishga qaror qilmadi, filiallarga bo'lindi va shu tariqa 3 yil davomida yetakchilik cho'qqisida bo'lib turdi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlar uzviy ravishda o'zaro bog'lanishga ega hisoblanadi.

Ushbu bog'lanish ijtimoiy hayotdag'i barcha hodisalar va ularning belgilari o'zaro uzuksiz ta'sir etishida ifodaلانadi. Shu sababli ijtimoiy hodisalarini o'rGANISHDA belgililar o'rtaсидаги bog'lanishni aniqlash katta ahamiyatga ega.

Ba'zi belgililar boshqa belgilarga ta'sir etib, ularning o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni ayrim belgililar erkin o'zgaruvchan bo'lsa, boshqalari esa ularga qaramdir. Shu nuqtai nazardan belgililar ikkiga bo'linadi. Boshqa belgilarga ta'sir etib, ularning o'zgarishiga sabab bo'ladigan belgi omil belgisi va boshqa belgilaming ta'sirida o'zgaruvchi belgi natija belgisi deb ataladi.

Masalan, talabalarning o'zlashtirishi natijaviy belgi bo'lib, ularning darsga qatnashishi esa omil belgisi hisoblanadi.

Belgililar o'rtaсидаги bog'lanishlar xarakteriga ko'ra, ikki turga bo'linadi:

1. Funksional bog'lanish.
2. Korrelyatsion bog'lanish.

Omil belgilaringin har bir qiymatiga natijaviy belginining bitta yoki bir nechta aniq qiymati mos kelsa, ular orasidagi bog'lanish

funksional bog'lanish deyiladi. Masalan, doira yuzasi $S = \pi r^2$ faqat uning radiusiga (r) bog'liq bo'lib, yuqoridagi formula bilan to'la ifodalananadi.

Omissarning har biri qiymatiga zamon va makonning turli sharoitlarida natijaviy belgining aniq qiymatlari emas, balki har xil qiymatlari mos keluvchi bog'lanish korrelyatsion bog'lanish deyiladi.

Amaliy masalalarni hal etish jarayonida o'r ganilayotgan korrelyatsion bog'lanishni hatto tarkibiy ifodalovchi tenglamalarni aniqlash zarurati paydo bo'ladi. Statistikada korrelyatsion bog'lanishning tarkibiy ifodasini uning regressiya tenglamasi yoki iqtisodiy-statistik modeli deyiladi.

Regressiya tenglamasini aniqlash bilan bir qatorda uning korrelyatsion bog'lanishini ifodalash darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim regressiya tenglamalari bog'lanish xarakterini yetarlicha ifoda etmasligi yoki butunlay boshqacha qilib ko'rsatish mumkin.

Regression va korrelyatsion tahlil usulida bog'lanishning regressiya tenglamasi aniqlanadi va u ma'lum ehtimol (ishonch darajasi) bilan baholanadi, so'ngra iqtisodiy-statistik tahlil qilinadi.

Statistikada bir omilli modellarni aniqlash usuli just korrelyatsiya, ko'p omilli modelliarni aniqlash usuli esa ko'p omilli korrelyatsiya deyiladi.

Korrelyatsion bog'lanishlarni o'r ganishda ikki toifadagi masalalar ko'rildi. Ulardan biri o'r ganilayotgan hodisalar (belgilari) orasida qanchalik zich (ya'ni kuchli yoki kuchsiz) bog'lanish mayjudligini baholashdan iborat. Bu korrelyatsion tahlil deb ataluvchi usulning vazifasi hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlil korrelyatsiya koeffitsientlarini aniqlash va ularning muhimligini, ishonchliligini baholashga asoslanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, korrelyatsiya koeffitsientlari ikkiyoqlama xarakterga ega. Ularni hisoblash natijasida olingan qiymatlarni X bilan U belgilari yoki, aksincha, U bilan X belgilari orasidagi bog'lanish me'yori deb qarash mumkin.

Korrelyatsion bog'lanishni tekshirishda ko'zlanadigan ikkinchi vazifa bir hodisaning o'zgarishiga qarab, ikkinchi hodisa qancha miqdorda o'zgarishini aniqlashdan iborat. Afsuski, korrelyatsion tahlil usuli – korrelyatsiya koeffitsientlari bu haqda fikr yuritish imkonini bermaydi. Regression tahlil deb nomlanuvchi boshqa usul mazkur maqsad uchun xizmat qiladi.

Regression va korrelyatsion tahlilda bog'lanishning regressiya tenglamasi aniqlanadi va u ma'lum ehtimol (ishonch darajasi) bilan baholanadi, so'ngra iqtisodiy-statistik tahlil qilinadi.

Shu sababli ham regression va korrelyatsion tahlil quyidagi 4 bosqichdan iborat bo'ladi:



12.2 –rasmi. Regression va korrelyatsion tahlillarning bosqichlari

1. *Masala qo'yilishi va dastlabki tahlil.* Avvalo o'tkazilayotgan tekshirishning vazifasi va maqsadiga asosan natijaviy belgi va uning regressiya tenglamasida ishtiroy etish shakli, ya'ni belgini miqdoriy xarakterlaydigan ko'rsatkich aniqlanadi. So'ngra, natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omillarning ro'yxati belgilanadi, ulardan nazariy va mantiqiy tahlil yordamida eng muhim va mohiyatlari tanlab olinadi. Ammo nazariy va mantiqiy tahlil yo'li bilan muhim omillarni va ularning

regressiya tenglamalarida ishtirok etish shakllarini belgilash haqidagi masalani to'la hal qilib bo'lmaydi. Bu jarayon keyingi bosqichlarda ham davom ettiriladi.

2. Ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish. Ma'lumotlar to'plashni boshlashdan avval tekshirilayotgan to'plamni makon va zamonda chegaralash, shuningdek, uning birligini aniqlash kerak. Masalan, mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasida ilmiy tadqiqot va innovatsiya jarayonlarini moliyalashtirish bilan uning omillari o'rtaidagi bog'lanish o'rganilayotgan bo'lsa, tibbiyot muassasalari va ilmiy markazlari bo'yicha olingan bir necha yillik ma'lumotlar to'plam bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar qanday obyektlar to'plamiga tegishliliga qarab har bir tibbiyot muassasasi, ilmiy markaz va boshqa birlik to'plam birligi bo'ladi.

Har qanday statistik to'plamni regression va korrelyatsion usullar yordamida tahlil qilish mumkin emas. Buning uchun to'plam quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ma'lumki, regressiya tenglamasi natijaviy belgining o'rtacha miqdori bilan omillar o'rtaidagi bog'lanishni xarakterlaydi. Demak, natijaviy belgining o'rtacha miqdori soxta bo'lmasligi uchun to'plam sifat jihatidan bir jinsli bo'lishi kerak;

- regressiya va korrelyatsiya ko'rsatkichlari o'zaro bog'lanishning obyektiv qonuniyatlarini ishonarli darajada aks ettirishi, ya'ni katta sonlar qonuniga asosan tasodifiy xatolarning ta'siri deyarli yo'qolib ketishi uchun to'planning miqdori yetarlicha ko'p bo'lishi zarur;

- to'planningning birliklari o'zaro bog'lanmagan, erkin bo'lishi talab qilinadi, ya'ni har bir obyekt birligining kuzatish ma'lumotlari boshqa birliklar natijalariga bog'liq bo'lmasligi kerak;

- natijaviy belgi taqsimoti omillarning barcha qiymatlarda normal taqsimot qonuniga bo'ysunishi yoki unga yaqin bo'lishi zarur.

To'planning sifat jihatidan bir jinsli ekanligini, uning birliklari o'zaro bog'lanaganligini va natijaviy belgining normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish ma'lumotlarni tahlil qilish demakdir. Ma'lumotlarni tahlil qilishda χ^2 , Fisher (F),

Styudent (t) va boshqa mezonlardan foydalaniładi. Agar to'plam yuqoridagi talablarga javob bermasa, bog'lanishning regressiya tenglamasi obyektiv bo'la olmaydi.

3. *Bog'lanish shakli va regressiya tenglamasini aniqlash.* Tanlab olingen omillar regressiya tenglamasida turli ko'rinishlarda ishtirok etishi mumkin. Ma'lumotlarni dastlabki tahlil qilish natijalariga asosan regressiya tenglamasi biror ko'rinishda deb faraz qilinadi. Masalan, chiziqli

$$\hat{y}_X = a_0 + \sum_{i=1}^k a_i x_i$$

yoki chiziqsiz:

$$\hat{y}_x = a_0 + \sum_{i=1}^k a_i x_i + \sum_{j=1}^k \sum_{i=1}^k b_{ij} x_i x_j + \sum_{j=1}^k c_j \cdot \ln x_i$$

va h.k.

Regressiya tenglamasini aniqlashda omillarning barcha ko'rinishlardagi ifodalari (x_i , x_i^2 , $x_i x_j$, $\ln x_i$ va boshqalar) alohida-alohida omil deb qaraladi.

Regressiya tenglamasiga kiritiladigan omillar o'zaro chiziqli funksional yoki juda kuchli kerrelyatsion bog'lanishda bo'lmasligi kerak. Agar o'zaro kuchli bog'langan omillar modelga kiritilsa, ular ma'lum darajada bir-birini takrorlaydi va natijada regressiya ko'rsatkichlari buziladi. Bu holdan qutilish uchun barcha omillarning o'zaro bog'lanish kuchi o'lchanadi (masalan, juft korrelyatsiya koefitsienti bilan) va bir-birini takrorlaydigan omillar aniqlanib, ularning natijaviy belgi bilan kuchsizroq bog'lanishda bo'lganlari tenglamadan chiqariladi. So'ngra regressiya tenglamasining parametrlari (G_0 , a_1 , a_2 , ..., a_k) topiladi.

Regressiya tenglamasini baholash va tahlil qilish. Regressiya tenglamasi aniqlangandan keyin, unda ishtirok etayotgan omillarning natijaviy belgiga ta'sirining muhimligi va bu tenglama korrelyatsion bog'lanishni xarakterlash darajasi ma'lum ehtimol (ishonch darajasi) bilan maxsus ko'rsatkichlar va

mezonlar yordamida baholanadi. Agar model va unga kiritilgan barcha omillar talab etilgan ehtimol bilan mohiyatli bo'lsa, u adekvat model deyiladi.

Model adekvat bo'limgan holda, uning ko'rinishi o'zgartiriladi. Yangi model oldingisidan mohiyatsiz omillarni chiqarish yo'li bilan yoki butunlay boshqa ko'rinishda aniqlanishi mumkin. Demak, adekvat modellarni aniqlash jarayoni ko'p bosqichlidir. Adekvat modellarga asoslanib, korrelyatsion bog'lanish iqtisodiy – statistik tahlil qilinadi.

Statistikada bir omilli adekvat modellarni aniqlash usuli juft korrelyatsiya, ko'p omilli adekvat modellarni aniqlash usuli esa ko'p o'chovli (omilli) korrelyatsiya deyiladi.

O'rganilayotgan belgilari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni chiziqli tenglama $u = A + BX$ bilan ifodalash uchun uning parametrlarini (A , V) aniqlash kifoya. Avval uqtirib o'tilganidek, to'plamning barcha birliklari belgilarning bog'lanish xarakteri turlicha bo'ladi.

Demak, to'plam birliklari regressiya tenglamasining parametrlari o'ziga xos turli qiymatlarni (A_i , B_i) qabul qiladi, ya'ni uning har bir birligi uchun regressiyaning individual chiziqli tenglamasini yozish mumkin:

$$u^{(i)} = A_i + B_i x_i$$

Regressiyaning individual tenglamalarini aniqlash uchun o'rganilayotgan obyektning birliklari ustida qo'shimcha kuzatishlar o'tkazib, yetarlicha miqdorda ma'lumotlar to'plash kerak. Ammo aksariyat hollarda zaruriy ma'lumotlarni to'plash imkoniyati bo'lmaydi.

Shuning uchun natijaviy belgining o'rtacha darajasi (\hat{Y}_x) bilan omil belgi (X) o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishni ifodalaydigan regressiyaning chiziqli tenglamasi

$$\hat{Y}_x = a_0 + a_1 x$$

(bu yerda a_0 – ozod had, a_1 – regressiya koefitsienti) aniqlab, amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi. Regressiya tenglamasida natijaviy belgi umumiylashgan (o'rtacha) miqdor

bo'lganligi uchun uning parametrlari (a_0 , a_1) ham individual parametrlarning (A_i, B_i) o'rtacha miqdoridir, ya'ni

$$a_0 = \bar{A}_i a_1 = \bar{B}_i$$

Regressiya tenglamasining parametrlari (a_0 , a_1) o'rtacha arifmetik miqdorning quyidagi xossasiga asoslanib «eng kichik kvadratlar» usuli bilan topiladi: belgi variantalari (x) bilan o'rtacha arifmetik miqdor (\bar{x}) o'rtaсидаги тағовутлар kvadratlarining yig'indisi $\sum (x - \bar{x})^2$ ular bilan boshqa har qanday miqdor ($x_0 \neq \bar{x}$) o'rtaсидаги тағовулар kvadratlarining yig'indisidan kichikdir, ya'ni $\sum (x - \bar{x})^2 < \sum (x - x_0)^2$.

O'rtacha miqdorning keltirilgan xossasiga ko'ra ushbu funksionalning

$$\varphi(a_0, a_1) = \sum (y - \hat{y}_x)^2 = \sum (y - a_0 - a_1 x)^2 \text{ qiymati}$$

natijaviy belgining boshqa ixtiyoriy qiymati (u_0) uchun aniqlangan taғovutlar kvadratlarining yig'indisidan kichik bo'ladi. Demak, noma'lum parametrlar (a_0 , a_1) shunday aniqlanishi kerakki, ularning aniqlangan qiymatlarida funksional $\varphi(a_0, a_1)$ o'zining eng kichik qiymatiga erishsin. Ma'lumki, funksiya minimum qiymatlarga erishadigan nuqtalarda uning xususiy

hosilalari nolga teng bo'ladi: $\frac{\partial \varphi}{\partial a_0} \cong \frac{\partial \varphi}{\partial a_1} \equiv 0$. Bundan

regressiya tenglamasining parametrlarini aniqlash uchun quyidagi normal chiziqli tenglamalar sistemasi kelib chiqadi:

$$na_0 + a_1 \sum x = \sum y$$

$$a_0 \sum x + a_1 \sum x^2 = \sum xy$$

Bu yerda:

n - to'plamning hajmi (birliklar soni);

x_1, x_2, \dots, x_n - omil belgining haqiqiy qiymatlari;

y_1, y_2, \dots, y_n - natijaviy belgining haqiqiy qiymatlari.

Sistemaning parametrlarga nisbatan umumi yechimi ushbu ko'rnishda yoziladi:

$$a_0 = \frac{\sum y \cdot \sum x^2 - \sum xy \cdot \sum x}{n \sum x^2 - (\sum x)^2}$$

$$a_1 = \frac{n \sum y - \sum x \sum y}{n \sum x^2 - (\sum x)^2}$$

Regressiya tenglamasida X-omil belgi oldidagi a_1 koeffitsient iqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. U regressiya koeffitsienti deb nomlanadi va X-omilning samaradorligini ko'rsatadi: omil bir birlikka oshganda natija o'rtacha qancha miqdorga oshishi (yoki pasayishi)ni ifodalaydi.

12.5. Ko'p miqdorli regressiya bilan bog'liq statistika

Hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini o'rganish uchun bir qancha ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Bular ichida oddiylari ham murakkabлari ham mayjuddir. Lekin bu ko'rsatkichlarning barchasi bir - biriga yaqin natijani beradi.

Bunday ko'rsatkichlar jumlasiga kuyidagilar kiradi.

- Fexner koeffitsienti;
- ranglar korrelyatsiya ko'rsatkichi;
- korrelyatsiya koeffitsienti;
- korrelyatsion nisbat (emperik va nazariy korrelyatsion nisbat);
- korrelyatsiya indeksi;

Maxsus adabiyotlarda bog'lanishlar zichligini aniqlashda qo'llaniladigan eng oddiy ko'rsatkichlar batafsil yoritib borilganligi sababli, nisbatdan ko'proq qo'llaniladigan, aniqroq natija beradigan zichlik ko'rsatkichlariga korrelyatsiya koeffitsienti, korrelyatsion nisbat va korrelyatsiya indeksi singari ko'rsatkichlar kiradi.

Korrelyatsiya nazariyasida eng mukammal hasoblangan zichlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, korrelyatsiya koeffitsienti bo'lib hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri chiziqli bog'lanishlar

mavjud bo'lgan hollarda bog'lanishlar zichligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichni hisoblash uchun eng qulay shakli bo'lib, uning quyidagi formulasidir:

$$R = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \sum y}{n}}{\sqrt{\left[\sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n} \right] \left[\sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n} \right]}}$$

$R = 1$ bilan va $+1$ oralig'idagi qiymatlarni qabul qiladi va korrelyatsion bog'lanishlarning yo'nalishini ko'rsatib beradi.

- Egri chiziqli bog'lanishlar mavjud bo'lganda korrelyatsiya koefitsien-ti o'z mohiyatini yo'qotadi. Egri chiziqli bog'lanishlar mavjud bo'lgan hollarda korrelyatsion nisbat qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich nazariy va emperik korrelyatsion nisbat ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Nazariy korrelyatsion nisbat quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$h_1 = \sqrt{\frac{\sigma_{yx}^2}{\sigma_y^2}}$$

Bu_x^2 – natija belgining dispersiyasi omil belgining ta'siri natijasida natijaviy belgining tebranishini ifodalaydi.

U quyidagi formula yordamida aniqlaniladi:

$$\sigma_{yx} = \frac{\sum (yx - \bar{y})^2}{n}$$

b^2u = umumiy dispersiya bo'lib, barcha omillar ta'sirida natijaviy belgining tebranishini ifodalaydi va u quyidagi formula bilan hasoblaniladi.

$$\sigma_y^2 = \frac{\sum (y - \bar{y})^2}{n}$$

Nazariy korrelyatsion nisbat 0 bilan 1 oralig'idagi qiymatlarni qabul qiladi. Qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, belgilarni o'ttasidagi bog'lanish shunchalik zikh ekanligidan dalolat beradi.

Korrelyatsion nisbatning ildizdan olingan qiymati determinatsiya koeffitsientideb aytildi va u qaymatdagi formula bilan ifodalanadi:

$$D = \frac{b^2_{xy}}{bu}$$

Ogil belgi ta'sirida natijaviy belgi tebranishining hissasini ifodalab beradi.

Ko'p hollarda hisob-kitob ishlarini soddalashtirish maqsadida korrelyatsion bog'lanishlar zichligini aniqlash maqsadida korrelyatsiya indeksidan foydalaniladi:

$$R = \sqrt{1 - \frac{bu^2 - Ux}{bu^2}}$$

$bu^2 - ux$ — hisobga olinmagan boshqa omillar ta'siri ostida *natija belgi tebranishini tasvirlaydi*.

bu^2 — natija belgining barcha omillar ta'sirida tebranishini ifodalaydi.

Korrelyatsiya indeksi 0 bilan 1 oraliq'idagi qiymatlarni qabul qiladi.

$Bu^2 - Ux$ — dispersiya quyidagi formula yordamida aniqlamiladi:

$$bu^2 - Ux = \frac{\sum (y - y_i)^2}{n}$$

bu yerda,

$$R = \sqrt{1 - \frac{\sum (y - y_i)^2}{\sum (y - \bar{y})^2}}$$

Emperik korrelyatsion nisbat nazariy korrelyatsion nisbatni singari aniqlaniladi.

Emperik korrelyatsion nisbat quyidagi formula orqali aniqlaniladi:

$$n = \sqrt{\frac{bu^2}{bu^2}}$$

Bu yerda bu^2 — emperik ma'lumotlar dispersiyasi,

bu_i^2 — regressiya emperik chizig'ini tashkil qiluvchi Ux o'rtachaning dispersiyasi.

Korrelyatsiya koefitsientiga nisbatan, korrelyatsion nisbat ko'rsatkichi bog'lanishlar zichligining takomillashgan ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Qisqa xulosalar

Ushbu bobning asosini iqtisodiy - matematik va statistik usullardan biri korreylatsiya va regressiya nimaligini o'rgatdik.

Korrelyatsiya va regressiya bu – marketing tadqiqotlari o'tkazishda foydalilaniladigan iqtisodiy-matematik usullar guruhiga kiradigan usullardir. Ular marketing faoliyatini tavsiflaydigan o'zgaruvchilar guruhlari o'rtaсидagi o'zaro aloqalarni belgilash uchun foydalilanildi.

Korrelyatsiya deyilganda ikkita tasodifiy miqdorlarning (X va U) bir-biriga bog'liqligi (aloqadorligi) tushuniladi. Ularning tasodifiyligi shundaki, tahlil qilinayotgan miqdorlar bir-biriga umuman bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Bunday bog'lanishni *yotg'on korrelyatsiya* deb yuritiladi. Ikkiti miqdorning o'tachasidan farqlarining yig'indisi **korrelyatsiya funkiyasi yoki korrelyatsiya** deb aytildi. B

Korrelyatsion tahlil yordamida asosan quyidagi ikki masala: birinchidan, bog'lanishlar yo'nalishini aniqlash va uni ehtimollar nazariyasi bilan baholash va ikkinchisi, bog'lanishlar zichligini aniqlash masalalari hal etiladi.

Korrelyatsiya sifat tahlili uchun: bir-biri bilan bog'liq bo'lган omillarni tanlab olish (skrining) va aloqa qalinligi maksimal bo'lган tanlama to'plam qismini ajratish uchun foydalilanildi. So'ngra tanlab olingan omillar va kichik omillar guruhi uchun miqdoriy tahlil amalga oshiriladi: o'zaro aloqa regressiya funksiyalari tuziladi. Ularni axborot konveyerida foydalanilishi mumkin.

Korrelyatsion tahlil belgilarning regressiya tenglamasida ishtirok etish shaklini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omillarning ro'yxati belgilanib ularning eng muhimlari tanlab olinadi. Shu sababli barcha omillarning o'zaro bog'lanish kuchi juft korrelyatsiya koefitsientini hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, korrelyatsiya aytaylik, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni oshiri yoki unga talabning ortishi o'tasidagi zamonga va makonga oid sinxronlikni aks ettiradi.

Regressiya so'zi lotincha regressio so'zidan olingan bo'lib, orqaga harakatlanish degan lug'aviy ma'noga ega. Bu atamani statistikaga kirib kelishi ham korrelyatsion tahlil asoschilari F. Galton va K. Pirson nomlari bilan bog'liqidir.

Tayanch iboralar: korrelyatsiya, regressiya, dispersiya, koeffitsienti, indeks, axborot tahlili, dasturiy bloklar, miqdor, ekstropolyatsiya, genetik, algoritm, klaster, optimum, stoxastik, fenotiplar, koordinata, Kendal korrelyatsiyasi, Spirmen koeffitsienti, argument.

Nazorat uchun savollar

1. Korrelyatsiya va regressiya usullari qanday usullap qatoriga kiradi?
2. Korrelyatsion indeksi qanday bog'lanishda yotadi?
3. Korrelyatsion tahlil natijalari qanday jarayonlarning bog'liqligini anglatadi?
4. Klasterli tahlil nima?
5. Klasterli tahlil yordamida qanday natijalarga erishi mumkin?
6. "Genetik algoritmlar" nomi nima bilan bog'langan va uning marketing tadqiqotlari jarayonidagi ahamiyati nimada?
7. Korrelyatsion tahlilning bosqichlarini sanab o'ting.
8. Juft korrelyatsiya nima va u qanday ko'rsatkich o'tasidagi aloqani o'rnatadi?
9. Iste'molchilarning tovarlar sifatini qabul qilishi ularning narxni qabul qilishi bilan bog'liqmi?
10. agar talabning reklama xarajatlariga bog'liqligini oladigan bo'lsak, narx omilining ta'siri bormi?

13-BOB. DISKRIMINANT VA KANONIK TAHLIL

13.1. Diskriminant tahlil asoslari

Diskriminant tahlili qaysi o'zgaruvchilar yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq bosh to'plamlar (guruhanlar)ni farqlashi haqida qaror qabul qilish uchun foydalaniлади.

Marketing tadqiqotlarida ham diskiriminaт tahlilidan zarur hollarda foydalaniлади. Chunki, ushbu jarayonda ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasida ko'pmilli bog'lanishlarning bo'lishi tayin.

Diskriminant so'zi bizga lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, discriminans so'zi "farqlovchi, bo'luchchi" ma'nolarini anglatadi²⁵.

Misol uchun, ta'lim sohasida biron-bir tadqiqotchi o'sta maktab bitiruvchisini ba'zi ko'rsatkichlarga ko'ra quyidagi uch toifadan biriga kiritib tadqiq qilishi mumkin: kollejga o'qishga kiruvchilar (1), professional maktabga kiruvchilar (2), yoki ta'limni davom ettirishni rad qiluvchilar (3). Shu maqsadda tadqiqotchi maktab o'quvchilari bilan bog'liq bo'lgan turli xil parametrlarga oid ma'lumotlar to'plashi mumkin. Bitirgandan so'ng, talabalarning ko'pehligi tabiiy ravishda ushbu toifalarga kiradi. Keyin qaysi o'zgaruvchilar o'quvchilarning keyingi yo'lni tanlashining eng yaxshi bashoratlari berishini aniqlash uchun diskriminant tahlildan foydalish mumkin.

Tibbiyat xodimlari qaysi o'zgaruvchilar bemorning to'liq sog'ayib ketgani (1-guruh), qisman tuzalgani (2-guruh) yoki umuman sog'aymagani (3-guruh) aniqlash uchun bemor holati bilan bog'liq turli o'zgaruvchilarni qayd etishi mumkin. Biolog keyin eng yaxshi guruhanlar yoki turlarini ajratib, diskriminant funksiyasi tahlilini o'tkazish uchun gullarning o'xshash turlari (guruhlari) turli xususiyatlarini yozib borishi mumkin.

Diskriminant tahlili ko'po'lchamli statistik tahlil sifatida matematik statistikaning bir qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu tahlil ko'p o'lchamli statistik ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va qayta ishslash jarayonida qo'llaniladi. Mazkur tahlildan ko'p

²⁵Словарь иностранных слов. 16-е изд. М.: Русский язык., 2011. – 172-бет.

o'Ichamli statistik ma'lumotlar asosida natija va omillar o'rtasidagi tarkibiy (strukturaviy) bog'liqliklarga baho berishda va ular asosida ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishda foydalaniadi.

Ko'p hollarda matematik statistikada qo'llaniladigan usullar farazlarga asoslangan bo'ladi. Shu tufayli ehtimollar nazariyasidan ham foydalaniadi. Ammo diskiriminat tahlilida ehtimollar nazariyasi qo'llanilmasdan aniq ma'lumotlar va faktlarga tayaniadi.

Bulardan shunday natija qilish mumkinki, diskiriminat tahlili matematik statistikaning tarkibiy qismi sifatida bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- diskiriminat tahlilining xususiyatlaridan biri, bu ham ko'pomilli jarayonlarni o'rganishda albatta ko'po'ichamli ma'lumotlarga asoslanadi;
- ushbu usul orqali natija va omillar o'rtasidagi tarkibiy (strukturaviy) bog'liqliklarga baho berishda foydalaniadi;
- mazkur usullar orqali ilmiy va amaliy xulosalar chiqariladi;
- ushbu usul nafaqat amaliyotda, balki ITda ham keng qo'llaniladi;
- mazkur tahlilda ehtimollar nazariyasi qo'llanilmasdan, balki aniq ma'lumotlar va faktlarga tayaniadi.

Diskiriminat tahlililida klaster tahlilidan ham foydalaniadi. Mazkur tahlil tadqiq qilinayotgan birlikni bir qancha tarkibiy bo'laklarga bo'lib o'rganish imkonini beradi. Bunda inobatga olinadigan narsalar shundan iborat bo'ladiki, bosh birlik bilan uning tarkibiy qismlari bir-biridan farq qilishi barobarida, bir-birini takrorlaydigan juda o'xshash ham bo'imasligi kerak.

Ushbu tahlilni amalga oshirishda hisob-kitoblar juda murakkab bo'lganligi tufayli, mazkur amallar maxsus dasturlar asosida EHMdan foydalangan holda bajariladi.

Bunda juda ko'p modellardan foydalaniadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyoti bir qancha tarmoqlarga bo'linadi. Ularning modeli *ko'ptarmogli modeli* bo'lib hisoblanadi. Ushbu iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi sohalarga bo'linadi. Bu holda *ko'psohali modelni* qo'llashadi. Marketing

tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishning bir qancha variantlari ishlab chiqilgan bo'lsa, u holda qo'llaniladigan model *ko'variantli model* bo'lib hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvdan ham foydalilanadi. U holda *ko'ptizimli modeldan* foydalaniadi. Xillas, marketing tadqiqotlarida ham diskiriminat tahlilidan foydalanishda bir qancha *ko'po'lchamli* statistik usullar qo'llanilishini inobatga olish lozim.

Chiziqli diskriminant tahlili, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lган chiziqli Fisher diskriminanti – chiziqli kombinatsiyalar topish uchun qo'llanadigan, ikki yoki undan ortiq obyektlar yoki hodisalar sifini eng yaxshi tarzda ajratadigan usullardir. Olingan kombinatsiya chiziqli tasniflagich sifatida yoki keyingi tasniflash oldidan belgilar makoni o'chovlarini qisqartirish uchun foydalanishi mumkin.

Chiziqli diskriminant tahlili boshqa belgilar yoki o'chovlar chiziqli kombinatsiyasi yordamida o'zgaruvchining biron-bir bog'liqligini aks ettirishga harakat qiladigan dispersiya tahlili va regresion tahlil bilan bog'liq. Bu ikki usulda bog'langan o'zgaruchi – raqamlı ko'rsatkich, chiziqli diskriminant tahlilida esa u nominal ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan tashqari, chiziqli diskriminant tahlili ma'lumotlarni eng yaxshi tarzda tavsiyaydigan ko'rsatkichlar chiziqli kombinatsiyalarini izlaydigan omillar tahlili va bosh tarkibiy qismlar usuli bilan o'xshash jihatlarga egadir.

Chiziqli diskriminant tahlilidan foydalanish uchun belgilar uzluksiz ko'rsatkichlar bo'lishi lozim, aks holda muvofiqliklar tahlilidan (ingl. Discriminant Correspondence Analysis) foydalanish lozim bo'ladi.

Ma'lum bo'lган sinfli obyekt yoki hodisaning har bir namunasi uchun kuzatuvlar to'plami (belgi, o'zgaruvchi yoki o'chovlar deb ham ataladi) ko'rib chiqiladi. Bunday namunalar to'plami o'qitish tanlama to'plam deb ataladi. Tasniflashning vazifasi shundan iboratki, faqat kuzatuvga ega bo'lган holda xuddi shunday taqsimlangan har bir obyekt uchun sinf yaxshi bashoratini ishlab chiqish lozim.

Chiziqli diskriminant tahlilida ko'zda tutiladiki, va ehtimolliklarni taqsimlash birgalikdagi zichlik funksiyalari – normal hisoblanadi. Bunday taxminlarda optimal bayes yechimi – agar haqiqatga o'xshashlik nisbati T chetki qiymatidan past bo'lsa, nuqtalar ikkinchi sinfga kiritilishi lozim.

Agar boshqa hech qanday keyingi taxminlar qilinmasa, olingan tasniflash vazifasi kvadratik diskriminant tahlili (ingl. quadratic discriminant analysis, QDA) deb ataladi. Chiziqli diskriminant tahlilida gomoskedastiklik haqida qo'shimcha tahlil qilinadi (ya'ni kovariatsion matritsalar teng deb taxmin qilinadi) va kovariatsion matritsalar to'ling rangga ega deb hisoblanadi. Bunday taxminlarda vazifa soddalashtiriladi va chetki qiymat bilan skalyar ko'paytmani taqqoslashga borib taqaladi:

$$\vec{\omega} \cdot \vec{x} < c$$

ma'lum bir konstanta uchun, bu yerda

$$\vec{\omega} = \Sigma^{-1}(\vec{\mu}_1 - \vec{\mu}_0)$$

Bu esa shuni anglatadiki, yangi kuzatuvning sinfga mansubligi ehtimoli faqat ma'lum bo'lgan kuzatuvlar chiziqli kombinatsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Hisob-kitob yondashuvি. Hisob-kitob nuqtai nazaridan diskriminant tahlili dispersion tahlilga juda o'xshab ketadi. Quyidagi oddiy misolni ko'rib chiqaylik. Faraz qilaylik, tasodifiy tanlama to'plamda 50 erkak va 50 ayolning o'sishini o'lehash lozim. Ayollar o'rtacha olganda erkaklar kabi yuqori emas va bu farq har bir o'rtacha guruh uchun aks etishi lozim (*o'sish o'zgaruvchisi uchun*). Shuning uchun, *o'sish o'zgaruvchisi* erkaklar va ayollar o'tasida tafovutlarni yaxshiroq o'tkazishga imkon beradi, masalan, quyidagi so'zlar bilan ifodalananadigan ehtimol: «Agar bir kishining bo'yи uzun bo'lsa, uning erkak ekanligi ehtimoli yuqori, agar bo'yи past bo'lsa – u ayol».

Ushbu argumentlarni kamroq "ahamiyatsizlik" pastroq guruhlarga va o'zgaruvchilarga umumlashtirish mumkin. Misol

uchun, sizda o'rta maktabni bitirgan ikkita kollej bitiruvchisi - kollejni tanlaganlar va bularning ichida tanlamaydiganlar ham bor. Siz talabalarni bitiruvdan bir yil oldin kollejda o'qishni davom ettirish niyati haqida ma'lumot to'plashingiz mumkin. Agar ikkita bosh to'plam uchun (endi o'z ta'limni davom ettirishni istaganlar va buni rad qilganlar) o'rtacha ko'rsatkich turlicha bo'lsa, maktabni bitirishdan bir yil oldin aniqlangan kollejga kirish istagida bo'lganlar va buni istamaydiganlarga ajratishga imkon beradi deb aytish mumkin bo'ladi (bu axborot maktab kengashi a'zolari tomonidan mos keluvchi o'quvchilarga rabbarlik qilish uchun foydalanishi mumkin).

Shunday qilib, diskriminant tahlilining asosiy g'oyasi bosh to'plamlarning biron-bir o'zgaruvchining (yoki o'zgaruvchilar chiziqli kombinatsiyasi) o'rtacha ko'rsatkichi bo'yicha farq qilishini aniqlash va so'ngra bu o'zgaruvchidan yangi a'zolari uchun ular bir yoki boshqa guruhgaga tegishli ekanligini bashorat qilish uchun foydalanish mumkin ekanligini aniqlashdan iborat.

13.2. Dispersion va Regression tahlillarning o'zaro aloqasi

Dispersiya tahlili. Shu tariqa qo'yilgan diskriminant funksiyasi masalasi bitta kirishli dispersiya tahlili masalasi (ANOVA) sifatida qayta ifodalanishi mumkin. Xususan, ikki yoki undan ortiq bosh to'plam bir-biridan muayyan bir o'zgaruvchi bo'yicha jiddiy farq qiladimi deb so'rash mumkin.

Qadamma – qadam diskriminant tahlili. Ehtimol, diskriminant tahlilining eng ko'p qo'llanishi bosh to'plamlarni o'zaro eng yaxshi tarzda ajratadigan o'zgaruvchilarni aniqlash maqsadida tadqiqotga ko'plab o'zgaruvchilar kiritish hisoblanadi. Misol uchun, yuqoridaagi segmentni oladigan bo'lsak, o'rta maktab bitiruvchilari kelgusi ta'lim borasida qiladigan tanlov bilan qiziqadigan ta'lim sohasidagi tadqiqotchi aniqroq bashoratlar olish maqsadida o'quvchilarning ko'proq ko'rsatkichlarini, masalan, motivatsiya, akademik o'zlashtirish va h.k.ni qayd qilishni amalga oshiradi.

Kiritish bilan qadamma-qadam tahlil. Diskriminant funksiyalar qadamma-qadam tahliliida diskriminatsiya modeli

qadamma-qadam tuziladi. To'g'risi, har bir qadamda barcha o'zgaruvchilar ko'rib chiqiladi va guruflar orasidagi farqga katta hissa qo'shamdi. Ushbu o'zgaruvchining ushbu bosqichda modelga kiritilishi kerak bo'ladi va keyingi qadam olinadi.

Chiqarish bilan qadamma-qadam tahlil. Teskari yo'naliishda ham harakat qilish mumkin bo'lib, bunda barcha o'zgaruvchilar dastlab modelga kiritiladi, so'ngra har bir qadamda bashoratga eng kam hissa qo'shadigan o'zgaruvchilar chiqarib tashlanadi. Shunda muvaffaqiyatli tahlil natijasi sifatida modelda faqat «muhim» o'zgaruvchilarni, ya'ni diskriminatsiyaga boshqalardan ko'proq hissa qo'shgan o'zgaruvchilarni saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Ikki guruh uchun diskriminatsiya funksiyasi talqini. Ikki guruh uchun diskriminant tahlili ko'plik regressiya jarayoni sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Agar siz ikkita guruhni 1 va 2 sifatida kodlaydigan, so'ngra bu o'zgaruvchilardan ko'plik regressiyada mustaqil o'zgaruvchilar sifatida foydalananidan bo'lsangiz, bunda diskriminant tahlil yordamida olinadigan natijalar bilan bir xil natijalar olasiz. Umuman, ikkita bosh to'plam holatida quyidagi ko'rinishdagi chiziqli tenglamaga kelinadi:

$$\text{Guruh} = a + b_1 * x_1 + b_2 * x_2 + \dots + b_m * x_m$$

bu yerda: a konstanta, $b_1 \dots b_m$ regressiya koefitsientlari hisoblanadi.

Ikkita bosh to'plamli masala natijalarini talqin qilish ko'plik regressiya qo'llash mantiqiga jiddiy rioya qiladi: regressiya koefitsientlari eng katta bo'lgan o'zgaruvchilar diskriminatsiyaga eng katta hissa qo'shamdi.

Bir nechta guruflar uchun diskriminant funksiyalari. Agar guruflar soni ikkidan ortiq bo'lsa, yuqorida bajarilganidek, bittadan ortiq diskriminant funksiyasini baholash mumkin. Misol uchun, uchta bosh to'plam mavjud bo'lsa, siz quyidagilarni baholashingiz mumkin: 1-bosh to'plam hamda birgalikda olingan 2 va 3-bosh to'plamlar o'rtasida diskriminatsiya funksiyasi (1), 2 va 3-bosh to'plamlar o'rtasida diskriminatsiya uchun boshqa funksiya (2) ishlataladi.

Ko'plik diskriminant tahlili (multiple descriminant analysis). Diskriminant tahlili usuli bog'langan o'zgaruvchida ikki yoki undan ortiq toifa bo'lganda qo'llanadi.

Ular o'rtasida asosiy farq shundaki, ikkita guruh mavjud bo'lganda faqat bitta diskriminant funksiya chiqarish mumkin. Ko'plik diskriminant tahlildan foydalangan holda bir nechta funksiya hisoblab chiqish mumkin.

Marketing tadqiqotlarida diskriminant tahlilga ko'plab misollar keltirish mumkin. Xususan, ushbu usul yordamida quyidagi savollarga javob topish mumkin:

- demografik tavsifnomalar nuqtai nazaridan ushbu magazin taraforlari bunday taraforlik bo'limgan shaxslardan nimasi bilan farq qiladi?
- spirtli ichimliklarni kam, o'rtacha va ko'p iste'mol qiladigan xaridorlar muzlatilgan mahsulotlar iste'molida farq qiladimi?
- qaysi psixografik tavsifnomalar attorlik mollari xaridolarining narxga sezuvchanligi va sezuvchan emasligi o'rtasida tafovut o'tkazishga yordam beradi?
- turli bozor segmentlari ommaviy axborot vositalarini afzal ko'rishlari bo'yicha o'zaro farqlanadimi?
- mahalliy universal magazinlarning doimiy xaridorlari va umummmamlakat universal magazinlar tarmoqlarining doimiy xaridorlari o'rtasida turmush uslubi nuqtai nazaridan qanday tafovutlar mavjud?
- to'g'ridan-to'g'ri pochta reklamasiga javob beradigan iste'molchilar qanday o'ziga xos tavsifnomalarga ega?

Diskriminant tahlili modeli (discriminant analysis model) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$D = b_0 + b_1X_1 + b_2 \times 2 + b_3X_3 + \dots + b_kX_k,$$

bu yerda D – diskriminant ko'rsatkichi (diskriminant),

b – diskriminant koeffitsienti, yoki vazni

X – prediktor, yoki mustaqil o'zgaruvchi.

13.3. Ko‘p miqdorli va bosqichli diskriminant tahlili

Marketing tadqiqotlarida ham diskiriminat tahlilidan zarur hollarda foydalaniлади. Chunki, ushbu jarayonda ham ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o‘rtasida ko‘pomilli bog‘lanishlarning bo‘lishi таин.

Diskriminant tahlili ko‘po‘lchamli statistik tahlil sifatida matematik statistikaning bir qismi bo‘lib hisobланади. Ushbu tahlil ko‘po‘lchamli statistik ma’lumotlarni to‘plash, tizimlashtirish va qayta ishlash jarayonida qo‘llanилади. Mazkur tahlilidan ko‘po‘lchamli statistik ma’lumotlar asosida natija va omillar o‘rtasidagi tarkibiy (strukturaviy) bog‘liqliklarga baho berishda va ular asosida ilmiy va amaliy xulosalar chiqарishda foydalaniлади.

Ko‘p hollarda matematik statistikada qo‘llanиладиган usullar farazlarga asoslangan bo‘лади. Shu tufayli ehtimollar nazariyasidan ham foydalaniлади. Ammo diskiriminat tahlilida ehtimollar nazariyasi qo‘llanilmасдан aniq ma’lumotlar va faktlarga tayaniladi.

Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, diskiriminat tahlili matematik statistikaning tarkibiy qismi sifatida bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bularga quyidagi farni kiritish mumkin:

- diskiriminat tahlilining xususiyatlaridan biri, bu ham ko‘pomilli jarayonлarni o‘rganishda albatta ko‘po‘lchamli ma’lumotlarga asosланади;
- ushbu usul orqali natija va omillar o‘rtasidagi tarkibiy (strukturaviy) bog‘liqliklarga baho berishda foydalaniлади;
- mazkur usullar orqali ilmiy va amaliy xulosalar chiqарилади;
- ushbu usul nafaqat amaliyotda, balki ITIda ham keng qo‘llanилади;
- mazkur tahlilda ehtimollar nazariyasi qo‘llanilmасдан, balki aniq ma’lumotlar va faktlarga tayaniladi.

Diskiriminat tahlilida klaster tahlilidan ham foydalaniлади. Mazkur tahlil tadqiq qilinayotgan birlikni bir qancha tarkibiy bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish imkonini beradi. Bunda inobatga оlinадиган narsalar shundan iborat bo‘ладики, bosh birlik bilan

uning tarkibiy qismlari bir-biridan farq qilishi barobarida, bir-birini takrorlaydigan juda o‘xshash ham bo‘lmasligi kerak.

Ushbu tahlilni amalga oshirishda hisob-kitoblar juda murakkab bo‘lganligi tufayli, mazkur amallar maxsus dasturlar asosida EHMDan foydalangan holda bajariladi.

Bunda juda ko‘p modellardan foydalilanildi. Masalan, iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarga bo‘linadi. Bu holda **ko‘psohali modeldan** foydalilanildi. Marketing tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishning bir qancha variantlari ishlab chiqilgan bo‘lsa, u holda qo‘llaniladigan model **ko‘pvariantli model** bo‘lib hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvdan ham foydalilanildi. U holda **ko‘ptizimli modeldan** foydalilanildi.

Xullas, marketing tadqiqotlarida ham diskiriminvat tahlilidan foydalinishda bir qancha ko‘po‘lchamli statistik usullar qo‘llanilishini inobatga olish lozim.

13.4. Kanonik korrelyatsiya tahlili

Kanonik korrelyatsiya (canonical correlation). U diskriminant ko‘rsatkichlar va guruhlar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini o‘lchaydi. Bu yagona diskriminant funksiyasi va ushbu guruhga mansublikni belgilab beradigan soxta o‘zgaruvchilar to‘plami o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘lchovidir.

Kanonik korrelyatsiya tahlili. Agar bir necha guruhni diskriminant tahlil qilish amalga oshirilsa, guruhlarni turli xil diskriminatsiya funksiyalarini shakllantirish uchun qanday qilib birlashtirilishi kerakligini ko‘rsatmaslik kerak. Buning o‘rniga, siz avtomatik ravishda o‘zgaruvchilarning ayrim optimal kombinatsiyalarini belgilashingiz mumkin, bunda birinchi funksiya barcha guruhlar o‘rtasida eng yaxshi diskriminatsiya o‘tkazadi, ikkinchi funksiya eng yaxshi bo‘ladi va h.k. Bundan tashqari, vazifalar mustaqil yoki ortogonal bo‘lib qoladi, ya’ni ularning bosh to‘plamlarni ajratishga qo‘shgan hissasi qoplanmaydi. Hisob-kitob tizimi nuqtai nazaridan siz ketma-ketlikdag‘i kanonik ildizlar va funksiyalarni aniqlab beradigan

kanonik korrelyatsiyalar tahlilini o'tkazasiz. Funksiyalar maksimal soni bosh to'plamlar sonidan birini ayirib tashlashga yoki bu raqamlardan qaysi biri kichik ekanligiga qarab, tahlildagi o'zgaruvchilar soniga teng bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu atamalarning ta'riflari hamon yetarli darajada yoritilmaganligini inobatga olib, sinergetika atamasiga iqtisodiyot nuqtai nazaridan, uning tabiatini va mohiyatini o'rganib, quyidagicha ta'rif berish mumkin, degan xulosaga keldik.

Sinergetika deyilganda birorta sohani rivojlantirish yoki samaradorligini oshirish maqsadida alohida-alohida subyektlar kuchlarini bir joyga jamlagan holda harakat qilish yoki bir kuch bilan uzlaksiz holda belgilangan maqsadga erishish yo'lida ta'sir qilish tushuniladi.

E'tirof etish kerakki, ushbu holatga erishish iqtisodiyotning turli mulk shaklida tarkib topgan bozor munosabatlari sharoitida biroz murakkabdir. Chunki, turli sohalarda turli mulk egaligi hukm surmoqda, hatto bir sohada ham turli mulk egalariga asoslangan bir-biri bilan raqobatda bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat ko'rsatadi. Biroq, bugungi kunda kuchlarni birlashtirish va bir-biri bilan hamkorlik qilish obyektiv zaruratga aylanmoqda. Chunki, kuchlar birlashsagina katta samaradorlikka erishishi mumkin.

Mazkur ta'rifni iqtisodiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, shuni e'tirof etish kerakki, unda: birinchidan, birorta aniq sohani rivojlantirish yoki samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsad bo'lishi kerak. Ikkinchidan, uni amalgalashish uchun alohida-alohida faoliyat ko'rsatadigan subyektlar kuchlarini bir joyga jamlash lozim bo'ladi. Uchinchidan, birlashtirishda harakatga keltirilgan kuch orqali alohida harakat qilib erishilgan natijaga nisbatan ko'proq natijaga erishilganligiga guvoh bo'lamiz. To'rtinchidan, bitta kuch bilan ta'sir qilib samaradorlikka erishish maqsadi qo'yilsa, unda ushbu bitta kuch bilan uzlaksiz holda tizimli ravishda ta'sir qilish lozim bo'ladi.

Ushbu nazariy masalalarni asoslash uchun ayrim dalil va misollarni keltiramiz. Birinchidan, birorta aniq sohani, ya'ni

mahsulotlarni saqlash va sotish jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsad qo'yiladi.

Ikkinchidan, ushbu maqsadga erishish uchun esa, alohida-alohida faoliyat ko'rsatadigan subyektlar (ombor, ularga xizmat qiluvchi kommunal xo'jalik subyektlari, transport tashkilotlari kabilar) kuchlari bir joyga jamlanadi. Ularning hamjihatlikda faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, birlgilikda harakatga keltirilgan holatdagi samara, ya'ni har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan erishilgan foydaning jamlanganiga nisbatan, kuchni birlashtirish orqali erishilgan foya ko'p bo'ladi. Bu esa, turli tarmoq va sohalarni birlashtirishda ularning manfaatdorligining muvofiqligini ta'minlash imkonini vujudga keltiradi. Har bir korxonaning hamisha alohida harakat qilib erishilgan natijaga nisbatan birlashib qilingan harakat ko'proq natija berishi mumkin bo'lgan erishilganligiga guvoh bo'lamiz.

To'rtinchidan, ta'kidlanganidek, bitta kuch bilan ta'sir qilib samaradorlikka erishish maqsadi qo'yilsa, unda ushbu bitta kuch bilan uzuksiz holda tizimli ravishda ta'sir qilish lozim bo'ladi. Bunga tabiatdan bitta misol keltiramiz. Suv yurnshoq, ammo uni uzuksiz ravishda bir xil tomchilatib qo'yilsa qattiq toshni ham teshib yuborishi mumkin. Iqtisodiy sohadan misol qilib, ombordan yukni transportga ortishni keltirish mumkin. Odam bir idishda 50 kilogramm yukni ko'tarib ortishi mumkin. Agar uni tizimli ravishda davom ettirsa, u juda ko'p tonnalab yukni ortib qo'yadi. Ammo uni birdaniga ortish qiyin. Buning uchun bir qancha kuchlarni birlashtirishga to'g'ri keladi.

Bevosita mahsulotlarni saqlash jarayoniga keladigan bo'lsak, uni saqlaydigan ombor (sovutgich idorasasi) elektr tarmoqlari, gaz bilan ta'minlaydigan idoralar kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashlari lozim. Sovutgichga uzuksiz elektr ta'minoti lozim. Agar unda uzilish bo'lsa, mahsulotda buzilish ko'p bo'ladi. Elektr energiyasining uzilishi tufayli u iste'molchiga bir vaqt birligida kam sotilgan bo'ladi va boshqa tomonдан, mahsulotning bir qismi nobud bo'lishi natijasida uning egasi zarar ko'radi va h.k. Ko'rinib turibdiki, bitta elektr quvvatining uzilishi bir qancha

subyektlar manfaatiga zid bo'lib kelmoqda. Shu tufayli sovutgich korxonasi bilan elektr ta'minoti va shunga o'xshash korxonalar hamkorligini ta'minlash lozim bo'ladi. Ular bir-birlarini qo'llab-quvvatlab ishlashlari lozim bo'ladi.

Endi ushbu zaruratlardan kelib chiqib, sinergetik samaraga ham ta'rif berish mumkin, deb o'ylaymiz. Chunki iqtisodiy adabiyotlarda va tadqiqot jarayonida ulardan foydalanilsada, ushbu tushunchaning ta'rifi adabiyotlarda²⁶ keltirilmagan, faqat uning izohi bilan cheklanib kelinmoqda. Shunday qilib, biz ushbu tushunchaga ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Sinergetik samara deyilganda birorta sohada yoki birorta jarayonda yuqori samarani qo'lga kiritish hamkorlikda, barcha daxldor kuchlarni birlashtirgan holda erishish yoki bitta kuchni bir maqsad sari tizimli ravishda yo'naltirish evaziga erishish tushuniladi.

Ushbu ta'rifning ham matematik ifodasini keltirish mumkin. Bunda asosan natija ko'rsatkichi (sinergetik samara) kuchlarning jamlanishida o'z ifodasini topadi. Bizning fikrimizcha, ushbu jarayonning matematik modeli ifodalash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Ss = \sum_{i=0}^n Ki$$

Bunda: Ss -sinergetik samara;

i - kuchlarning tartib raqami;

n - alohida kuchlarning soni;

Ki - i -kuchning (subyektning) nomi.

²⁶Хамидуллин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления управления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: Банковско-финансовая Академия РУз., 2008. – С. 38., Туробова Х.Р. Фермерликни устувор ривожлантиришда кооперация муносабатларини тақомиллаштириш. Иктисолд фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси автореферати. Т.: УзР Банк-молия Академияси., 2012. – 27 б. Словарь иностранных слов. 16-е изд., испр. – М.: Рус. яз, 2011. - С. 467., Большой экономический словарь // под ред. А.Н.Азриляна, – 4-у изд. и перераб. – М.: Институт новой экономики, 2005. – С. 906. ва х.к.

Ushbu ta'rif va matematik modelni shu bilan asoslash mumkinki, birorta sohada yoki birorta jarayonda yuqori samarani, masalan foydani qo'lga kiritish uchun bitta sohadagi subyektlar yoki bir sohaga daxldor bo'lgan turli subyektlar (korxonalar)ning hamkorlikda harakat qilishlarini, ya'ni ularning dialektik birligini ta'minlagan holda tarqoq kuchlarni birlashtirishni yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Ularning tarqoq holda erishgan natijasiga nisbatan birqalikda qilgan harakati ko'proq natijaga erishish imkonini beradi. Ularning mana shu birqalikda erishgan muvoffaqiyati aynan sinergetik samarani tashkil qiladi.

13.5. Diskriminant o'zgaruvchilar omillari

Diskriminant funksiyalarni talqin qilish. Yuqorida aytib o'tilgandek, siz har bir o'zgaruvchi va har bir diskriminant (hozirda "kanonik" deb ataladigan) funksiya uchun *b* koeffitsientga (standartlashtirilgan beta-koeffitsientlarga) ega bo'lamiz. Ular odatiy usulda ham talqin qilinishi mumkin: koeffitsient qanchalik ko'p standartlashtirilgan bo'lsa, mos keladigan o'zgaruvchining bosh to'plamlar diskriminatsiyasiga hissasi shunchalik katta bo'ladi. Biroq, bu koeffitsientlar mos keluvchi funksiyalar qaysi bosh to'plamlar ajratib qo'yganligi haqida ma'lumot bermaydi. Siz barcha to'plamlarning o'rtacha funksiyalariga qarab har bir diskriminant (kanonik) funksiya uchun diskriminatsiya xarakterini belgilashingiz mumkin. Shuningdek, siz ikkala diskriminant funksiya oladigan qiyamatlarga qarshi qo'ygan holda guruqlar o'rtaida ikkita funksiya qanday farqlashini ko'rishingiz mumkin.

Oshibka! Zakladka ne opredelenia. Omillar struktura matritsasi. O'zgaruvchilar ma'lum bir diskriminant funksiyani belgilashi yoki «markalashi» aniqlashning yana bir yo'li omillar strukturasiidan foydalanishdir. Omillar strukturasi koeffitsientlari modeldag'i o'zgaruvchilar va diskriminatsiya funksiyasi o'rtaсидаги коррелятсиya hisobланади. Agar siz omillar tahlili bilan tanish bo'lsangiz, bu korrelyatsiyalarni har bir diskriminatsiya funksiyasiga o'zgaruvchilarning omillar yuki sifatida ko'rib chiqishingiz mumkin.

Ayrim mualliflar, strukturali koeffitsientlar diskriminatsiya funksiyasining haqiqiy "ma'nosini" izohlash uchun foydalanish mumkin degan fikrga qo'shiladilar. Bu mualliflar tomonidan berilgan tushuntirishlar quyidagilardan iborat:

- (1) – ehtimol, koeffitsientlar strukturasi yanada barqaror;
- (2) – ular omillarni (diskriminatsiya funksiyalarini) xuddi omillar tahlili bilan bir xil tarzda talqin qilish imkonini beradi.

Biroq, Monte-Karlo usuli yordamidagi keyingi tadqiqotlar (Barsikovskiy va Stivens, Xyuberti) shuni ko'rsatadi, diskriminatsiya funksiyasi koeffitsientlari va strukturali koeffitsientlar deyarli bir xilda beqaror ekanligini ko'rsatdi (masalan, kuzatuvlar soni o'zgaruvchilar sonidan 20 baravar ko'p bo'lsa). Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, diskriminatsiya funksiyasi koeffitsientlari har bir o'zgaruvchining alohida diskriminatsiya funksiyasiga xususiy hissasini, strukturali koeffitsientlar esa o'zgaruvchilar va funksiyalar o'rtasidagi oddiy korrelyatsiyani aks ettiradi. Agar diskriminatsiya funksiyasiga alohida "mazmunli" qiymatlar (faktlarni tahlil qilishda omillar bilan bog'liq izohlar) berilishi kerak bo'lsa, unda strukturali omillar qo'llanilishi (talqin qilinishi) kerak bo'ladi. Agar har bir o'garuvchi diskriminatsiya funksiyasiga qanday hissa qo'shishini aniqlash kerak bo'lsa, unda diskriminatsiya funksiyasi koeffitsientlari qo'llanadi.

Diskriminant funksiyaning ahamiyati. Bosh to'plamlar orasidagi farqga sezilarli darajada qo'shilgan ildizlarning sonini tekshirishingiz mumkin. Talqin qilish uchun faqatgina statistika jihatidan ahamiyatli hisoblangan ildizilardan foydalanish mumkin. Qolgan funksiyalar (ildizlar) e'tiborga olinmasligi kerak.

Shunday qilib, bir necha bosh to'plamlar va bir nechta o'zgaruvchilar uchun diskriminant funksiyasini talqin qilganda, avval ular turli funksiyalarning ahamiyatini tekshirish va keyin faqat mazmunli funksiyalardan foydalanish kerak bo'ladi. Keyin, har bir muhim funksiya uchun siz har bir o'zgaruvchisi uchun standartlashtirilgan beta-koeffitsientlar ko'rib chiqishingiz kerak. Standartlashtirilgan beta-koeffitsient qanchalik katta bo'lsa, mos keladigan diskriminant funksiyasi tomonidan bajariladigan

o'zgaruvchining nisbatan o'zgaruvchan hissasi kattaroq bo'ladi. Ayrim farqlovchi funksiyalarning alohida "mazmunli" qiymatlarini olish uchun, shuningdek, omil strukturasining matrittsasini o'zgaruvchilar va ajratuvchi funksiya o'rtasidagi korrelyatsiyalar bilan tekshirish mumkin. Natijada siz qaysi funksiyalarni va ularning o'rtasida farqni belgilashni aniqlash uchun mazmunli farqlash funksiyalari uchun o'rtacha qiymatlarni ko'rib chiqishingiz kerak.

Normal taqsimot. Tahlil qilinayotgan o'zgaruvchilar ko'p o'ichovli an'anaviy taqsimot namunasini ifodalaydi. Shuning uchun, o'zgaruvchilar odatda taqsimlanishini tekshirishingiz mumkin. Shunga qaramasdan, odatiy vaziyatning e'tiborsizligi odatda "o'lik" emas, natijada natijaga erishish mezonlari "ishonchli". Bundan tashqari, normallik maxsus mezonlarini va grafikalarni ham qo'llashingiz mumkin.

Dispersiya/kovariatsiyalarning bir xilligi. O'zgaruvchilarning dispersiya/kovariatsiya matritsalari bir hil deb hisoblanadi. Avvalgidek, kichik og'ishlar halokatli emas, biroq muhim tadqiqotlarda yakuniy xulosalar berishdan oldin dispersiya va korrelyatsiyalar ichki guruh matritsasiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, bu maqsad uchun juda foydali bo'lgan tarqoq matritsa diagrammasidan foydalanish mumkin. Biron-bir shubha tug'ilsa, bir-ikkita qiziqarli bo'limgan bosh to'plamni chiqarib tashlagan holda qayta-qayta tahlil qilishga harakat qiling. Agar umumiy natija (talqin) saqlanib qolsa, siz, ehtimol, oqilonan yechim topgan bo'lasiz. Shuningdek, ushbu taxmin sizning ma'lumotlariningizda buzilganligini yoki yo'qligini tekshirish uchun ko'plab mezon va usullardan foydalanishi mumkin.

O'rtacha ko'rsatkichlar va dispersiyalar o'rtasidagi korrelyatsiyalar. Muhimlik mezonlarini qo'llash to'g'rilibiga "real" tahdidlarning aksariyati dispersiyalar (yoki standart og'ishlar) va bosh to'plamlar o'rtasidagi yoki o'zaro o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha ehtimoliy bog'liqliklar tufayli vujudga keladi. Agar o'rtacha ko'rsatkich yuqori bo'lgan bir necha o'zgaruvchilarda juda katta o'zgaruvchanlik mavjud bo'lsa, unda bu yuqori o'rtacha ko'rsatkichlar ishonchsizdir. Biroq muhimlik

mezonlari birlashgan dispersiyalarga, ya'ni barcha bosh to'plamlar bo'yicha o'rtacha dispersiyaga asoslanadi. Shu sababli nisbatan katta o'rtacha ko'rsatkichlar uchun muhimlik mezonlari nisbatan kichik birlashgan dispersiyalarga asoslanadi va xato ravishda statistik muhimlikni ko'rsatadi. Bunday holatni aniqlash uchun tavsiflovchi statistika, ya'ni o'rtacha va standart og'ish yoki bunday korrelyatsiyalar uchun farqlar o'rganilishi kerak.

Yaxshi asoslanmagan matritsa bilan bog'liq masala. Diskriminant tahlilda yana bir taxmin shundaki, bosh to'plamlar o'rtasidagi diskriminatsiya uchun ishlataladigan o'zgaruvchilar mutlaqo ortiqcha bo'lmaydi. Diskriminant tahlil natijalarini hisoblashda modeldag'i o'zgaruvchilar uchun dispersiya/kovariatsiya matritsalari o'zgarishi ro'y beradi. Agar o'zgaruvchilardan biri boshqa o'zgaruvchiga nisbatan mutlaqo ortiqcha bo'lmasa, unda bunday matritsa yaxshi asoslanmagan hisoblanadi va uni o'zgartirib bo'lmaydi. Misol uchun, agar o'zgaruvchi uchta o'zgaruvchining yig'indisi bo'lsa, bu modelda ham aks ettiriladi va ushbu matritsa yaxshi asoslanmagan bo'ladi.

Tasnif. Diskriminant tahlilni qo'llashning yana bir asosiy maqsadi tasniflashni amalga oshirishdir. Model belgilanishi va diskriminatsiya funksiyasi olinishi bilan, ular qanchalik yaxshi bashorat qilinadi va muayyan namuna qaysi bosh to'plamga tegishli degan savol tug'iladi.

Apriori va aposteriori tasnifi. Baholashning turli tamoyillari detallarini o'rGANISHGA kirishishdan oldin bu farqni aniq tushunish muhimdir. Odatda agar siz ma'lum bir ma'lumotlar guruhi asosida bosh to'plamni eng yaxshi tarzda taqsimlaydigan diskriminatsiya funksiyasini baholaydigan, so'ngra xuddi shu ma'lumotlardan jarayon qanchalik aniqlishini baholash uchun foydalananadigan bo'lsangiz, bunda siz faqat tasodifdan umid qilishingiz mumkin. Umuman olganda, diskriminant funksiyasini baholash uchun foydalilmaydigan namunalarni tasniflash uchun, albatta, eng yomon tasnif olinadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, tasnif diskriminant funksiyasini baholash amalga oshirilgan tanlama to'plam uchun (aposterior tasnif) yangi tanlama to'plam uchun (apriori tasnif) baholashdan ko'ra yaxshiroq amal qiladi. Shuning uchun, tasnifi jarayoni sifatini

baholash hech qachon diskriminant funksiyasi baholangan tanlama to'plam bo'yicha amalga oshirilmaydi. Agar jarayondan kelajakda namunalari tasniflash uchun foydalilaniladigan bo'lsa, u yanggi obyektlarda sinab ko'riliishi lozim.

Tasniflash funksiyalarini. Tasniflash funksiyalarini diskriminant funksiyalari bilan adashtirmaslik kerak. Tasniflash funksiyalarini har bir obyektni qaysi guruhga topshirish mumkinligini aniqlash uchun mo'ljallangan. Guruhlar soni nechta bo'lsa, tasniflash funksiyalarini ham shuncha. Har bir funksiya har bir namuna uchun va har bir bosh to'plam uchun quyidagi formuladan foydalaniib hisoblash imkonini beradi:

$$S_i = c_i + w_{i1} * x_1 + w_{i2} * x_2 + \dots + w_{im} * x_m$$

Ushbu formulada indeks i mos keluvchi bosh to'plamni anglatadi, indekslar $1, 2, \dots, m$ esa m o'zgaruvchilarni anglatadi; c_i esa i -bosh to'plam uchun konstanta hisoblanadi, w_{ij} – bu i -bosh to'plam uchun tasniflash ko'rsatkichini hisoblab chiqishda j -o'zgaruvchi salmog'i; x_j – bu j -o'zgaruvchi mos keluvchi namunasi uchun kuzatiladigan qiymat. S_i tasniflash ko'rsatkichi natijasi hisoblanadi.

Shu sababli siz ayrim yangi qiymatlar uchun tasniflash ko'rsatkichini to'g'ridan-to'g'ri hisoblab chiqish uchun tasniflash funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

Kuzatuvlarni tasniflash. Kuzatuvlar uchun tasniflash ko'rsatkichlari hisoblab chiqilishi bilan kuzatuvlarni qanday tasniflash masalasini osonlik bilan hal qilish mumkin. Umumiy holatda kuzatuv eng yuqori tasniflash ko'rsatkichi olingan bosh to'plam uchun taalluqli deb hisoblanadi. Shu sababli siz bitiruvdan bir yil oldin olingan bir nechta o'zgaruvchi asosida olingan o'rta mabitabni bitirganda keyin o'quvchilar o'qish yoki karerani tanlashini (kollejga, kasb maktadiga o'qishga kirish yoki ishga kirish) o'rganadigan bo'lsangiz, har bir o'quvchi mabitabni bitirgandan so'ng nima qilishi ehtimoli eng yuqori bo'lishini bashorat qilish uchun tasniflash funksiyasidan foydalanishingiz mumkin. Biroq siz o'quvchi oldindan aytilgan tanlovni amalga oshirish ehtimolini aniqlashni istagan edingiz. Ushbu ehtimolliklar *aposteriori* deb ataladi va ular ham hisoblab chiqilishi mumkin.

13.6. Sinergetik samara usuli

Marketing tadqiqotlari tarkibida mahsulotlarni saqlash bilan bog'liq xizmatlar ham mavjud. Ularni takomillashtirishning bir qancha yo'llari mavjud. Ulardan biri sinergetik samara usulidir.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, ushbu usuldan foydalanish unchalik katta mablag' talab qilmagan holda katta samara berar ekan. Ammo ushbu muammoning nazariy va metodologik yechimi, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ayniqsa iqtisodiyotga oid adabiyotlarda yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Shu tufayli, iqtisodiy adabiyotlarda "sinergetika", "sinergetik samara" va "sinergetik samaradorlik" tushunchalariga aniq javob topish qiyin bo'ldi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, ushbu savolga javob topish maqsadida ilmiy va fundamental adabiyotlarga, turli lug'at va ensiklopediyalarga murojaat qildik. Ulardan biri 2012-yilda mualliflar jamoasi tomonidan nashr qilingan "Bolshaya ekonomicheskaya ensiklopediya"²⁷ bo'lib, unda sinergetika so'zining aynan o'ziga izoh berilmagan. Ammo "Sinergeticheskiy effekt" so'ziga izoh berib quyidagilarni ta'kidlaydi: ushbu so'zdan keyin "sinergiya" so'zini keltiradi va unga quyidagicha tushuncha beradi "alohida qismlarni umumiy tizimga integratsiyalashtirgan holda (tizimli samara) ta'sirida ish samaradorligini oshirishdir. Bunda birqalikda haraktning samaradorligi alohida harakat qilinganiga nisbatan yuqori"²⁸ (tarjima bizniki – O.P.), deb ta'kidlanadi.

Endi "sinergiya" so'zining ma'nosiga to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Chunki, aynan sinergetika so'zi boshqa lug'atlarda ham uchramaydi va ularda ham sinergiya atamasi ishlataligan. Ushbu so'zga izohni 1988-yilda nashr qilingan "Slovar inostrannix slov" kitobida berilgan. Unda e'tirof etilishicha "Sinergizm, sinergiya" so'zlari yunon tilidan olingan bo'lib, uning o'zagi "synergeia"ni tashkil qiladi va uning ma'nosi "birlashish, hamkorlik"²⁹, degan ma'nolarni beradi. Ushbu

²⁷Большая экономическая энциклопедия. – М.: Эксмо, 2012. – 581 6.

²⁸Ўша жойда - Б.181.

²⁹ Словарь иностранных слов. 16-е изд., испр. – М.: Рус. яз, 1988. - С. 467.

lug'atda "sinergist" so'ziga ham izoh berilgan. Ushbu so'z ham yunon tilidan olingan bo'lib, "synergos"ni anglatadi. Ushbu so'zning ham ma'nosi "birgalikda harakat qiluvchi"³⁰, degan ma'nolarni beradi. Ammo keyingi izohlarida bu atamaning odam organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlar, biologiyaga oid fanlarda qo'llanilishi e'tirof etilgan.

Xuddi shunga o'xhash holatni 1999-yilda A.N.Azriliyan tahriri ositda nashr qilingan "Bolshoy ekonomicheskiy slavr"da ham uchratish mumkin. Ushbu lug'atda ham sinergetika so'ziga izoh berilmagan, faqat "sinergiya" atamasidan foydalanib, unga izoh berilgan. Ushbu ishda "sinergiya" atamasiga iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondashilgan. Ushbu asarda ham e'tirof etilishicha, mazkur atama yunon tilidan olingan bo'lib, uning o'zagi "synergeia"ni tashkil qiladi va quyidagicha ta'kidlangan: "kompaniyalarning alohida faoliyatiga nisbatan birlashib faoliyat ko'rsatishi natijasida katta samaradorlikka erishishdir"³¹ (tarjima bizniki-O.P.), deb ko'rsatilgan.

Bu borada mamlakatimiz olimlari ham ayrim fikrlarni bayon qilganlar. Hozirgi paytda sinergetik samara atamasidan foydalanmoqda. Chunki iqtisodiy jarayonlarda, xususan marketing tadqiqotlarda ham muhim jihat – uning samaradoligini oshirishga qaratilmog'i lozimligi ta'kidlanmoqda. Shu tufayli uning asosini "Sinergetik samara" tashkil qilinishi e'tirof etilmoqda. Bu borada iqtisodiyotga oid ayrim tadqiqotlarda ham aynan shu atama qo'llanilmoqda³². Ushbu atamadan M.B.Xamidulining ishida³³ iqtisodiyotning moliyaviy sektorida,

³⁰Уша жойда. – С. 467.

³¹Большой экономический словарь // под ред. А.Н.Азрилияна. – 4-у изд. и перераб. – М.: Институт новой экономики, 1999. – С. 906.

³²Хамидуллин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления управления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Т.: Банковско-финансовая Академия РУз., 2008. – С. 38., Турбова Х.Р. Фермерликни устувор ривожлантиришда кооперация муносабатларини такомиллантириш. Иккисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси автореферати. Т.: УзР Банк-молия Академияси, 2012. – 27 б.

³³Хамидуллин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления управления. Автореферат диссертации на соискание ученой

xususan qimmatli qog'ozlar bozorida foydalanish bo'yicha tegishli tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. X.R.Turobovaning ishida³⁴ esa, qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirishda qo'llash mumkinligi ko'rsatib berilgan. Ammo yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ishlarida ushbu tushunchalarning ta'rif keltirilmagan. Shunday bo'lsada, ushbu tushunchalardan foydalanishga erishgan.

Bulardan ko'rinish turibdiki, birorta fandagi har qanday yangilikni boshqa bir qancha fanlarga ham qo'llash mumkin ekan. Chunki ushbu atama va usullar birinchi marfa aniq tabiiy fanlarda, tibbiyotda va fizikaga oid fanlarda qo'llanilgan bo'lsa, gumanetar fanlardan falsafa faniga kirib keldi. XXI-asrga kelib iqtisodiyotga oid fanlarda ham qo'llanilmoqda. Biz esa, iqtisodiyotning bir tarmog'i bo'lgan mahsulotlarni saqlash va sotish jarayonlarida qo'llash mumkinligi xususida ayrim fikrlarni aytmoqchimiz.

Ushbu tushunchani bevosita xizmat ko'rsatish sohasiga, uning tarkibiy qismi bo'lgan mahsulotlarni saqlash va sotish jarayoniga bog'liq marketing tadqiqotlarida qo'llaydigan bo'lsak, shuni e'tirof etish kerakki, sohani rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun ularni ikki bosqichda amalga oshirish mumkin. Birinchidan, bir sohadagi bir qancha bir-biriga o'xshash xo'jalik yurituvchi subyektlar kuchlarini birlashtirish lozim bo'lsa, ikkinchidan ushbu sohaga daxldor turli sohada xo'jalik yurituvchi subyektlar kuchlarini birlashtirish, ularning bir-biri bilan hamkorlida faoliyat ko'rsatishini ta'minlash lozim bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, u holda ham bu holda ham, sinergetika bilan bog'liq jarayonlarda tarqoq kuchlarni birlashtirish to'g'risida gap ketmoqda.

Barcha sohalarda, xususan marketing tadqiqotlarida ham birgalikda harakat hamisha muvaffaqiyatlar kaliti bo'slib kelgan.

степени доктора экономических наук. Т.: Банковско-финансовая Академия РУз., 2008. – С. 27.

³⁴Туробова Х.Р. Фермерликни устувор ривожлантиришда кооперация муносабатларини тэкомиллаштириш. Иккисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси автореферати. Т.: УзР Банк-молия Академияси., 2012. – 19 б.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, ushbu jarayonlarni o'zida ifoda etuvchi sinergetika, sinergetik samara va sinergetik samaradorlik tushunchalarining ta'riflari iqtisodiy adabiyotlarda hamon yetarli darajada yoritilmagan. Bularidan kelib chiqib, ularning nazariy masalalariga alohida ahamiyat berish taqozo qilinadi.

Ma'lumki, har qanday tushuncha yoki kategorianing nazariy masalasi, uning ta'rifini tadqiq qilish va ishlab chiqishdan iborat. Agar mazkur ta'rif oldindan ishlab chiqilgan bo'lsa, uni takomillashgan variantini variantini tavsiya qilish bilan bog'liq.

13.7. Marketing tadqiqotlarida kovariatsion tahlilning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Marketing tadqiqotlarida kovariatsion tahlilni amalgalashish uchun uning mohiyatini, amaliyot uchun ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashni taqozo qiladi.

Kovariatsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "so(n)" bilan, va "variare" o'zgartirish, turini o'zgartirish³⁵ ma'nolarini anglatadi. Ushbu usul bir vaqtning o'zida ko'p o'ichamli miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarning bog'lanishini o'rgatishda qo'llaniladi.

Kovariatsion tahlil ko'po'ichamli statistik tahlilning bir qismi bo'lib, bu ham naja bilan omillar o'rtasidagi murakkab bog'lanishlarni o'zida ifoda etadi. Shu biyan birga uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- ushbu model asosan ko'po'ichamli tahlilda qo'llaniladi;
- matematik modellarning barcha turlarida qo'llaniladi;
- bir vaqtning o'zida ta'sir etuvchi omillarni o'zgartirish bilan birga natijani ham o'zgartirib boradi;
- natija bilan omillar o'rtasida murakkab bog'lanishlar bo'lganda qo'llaniladi;
- bir vaqtning miqdoriy va sifatiy ko'rsatkichlarning bog'lanishini o'rgatishda qo'llaniladi.

³⁵ Словарь иностранных слов. 16-е изд.. М.: Русский яз., 1988. – 239-бет.

Bosh birlikdan tanlab olish natijasida natija va omillar o'rtaqidagi bog'liqlikni quyidagi matritsi bilan ifodalash mumkin:

$$A = \{a_{ji}\};$$

Bunda: A – natija;

a – omillar;

j – natijaga ta'sir etuvchi matritsiga kiritilgan omillarning tartib raqami ($j = 1, k$);

i – matritsiga kiritilgan ko'rsatkichlarning tartib raqami ($i = 1, n$).

k – natijaga ta'sir etuvchi matritsiga kiritilgan omillarning umumiy soni;

n – matritsiga kiritilgan ko'rsatkichlarning umumiy soni;

Bunda natija bilan omillar o'rtaqidagi bog'liqlik additiv bo'lsa quyidagi modelni yozish mumkin:

$$A = a_{j1}R_1 + a_{j2}R_2 + a_{j3}R_3 + \dots + a_{jn}R_n$$

Agarda ular o'rtaqidagi bog'liqlik multiplikativ bo'lsa quyidagi model ko'rinishida bo'ladi:

$$A = a_{j1}R_1 * a_{j2}R_2 * a_{j3}R_3 * \dots * a_{jn}R_n$$

Bularning umumiy ko'rinishini quyidagi chizmada ifodalash mumkin (13.1-rasm):



13.1-rasm. Dispersiyaning x , s , zelementlari bo'yicha kovariatsiya
modelining ko'rinishi

Ushbu chizmani quyidagicha izohlash mumkin. Natijani U deb oladigan bo'lsak, unda birinchi maydon U_x ga teng bo'ladi. Ikkinci maydon U_y va mos ravishda uchinchi maydon U_z ga teng bo'ladi. Mos ravishda ularning kesishgan joylari quyidagi ko'rinishni oladi:

$$U_{xs}, U_{sz}, U_{xz}.$$

Mazkur U_{xs} , U_{sz} , U_{xz} larning o'zgarishi yuqoridagi maydonni ham, ular kesishgan joydagi sathni ham o'zgartiradi. Bitta harakat bit qancha o'lchamdagи predmetlarning o'zgarishiga ta'sir qilganligi uchun bunday hisob-kitoblar ko'p o'lchamli deb yuritiladi.

Faraz qilamiz, marketing tadqiqotlarida tanlab olingan tovarning sotilishi X_j dan iborat. Buni quyidagi vektorda ifodalash mumkin:

$$\mathbf{X}_j = X_{j1}, X_{j2}, X_{j3}, \dots, X_{jn};$$

Tanlab olingan jamlamaning o'rtacha miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{X} = 1/n (X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_n);$$

Ushbu formuladan tanlab olingan jamlamaning (tovarning) sotilishi bo'yicha kavariatsion matritsanı aniqlash mumkin:

$$\mathbf{S} = \frac{1}{n-1} \sum_{j=1}^n (\mathbf{X}_j - \bar{\mathbf{X}}) (\mathbf{X}_j - \bar{\mathbf{X}})^T;$$

Bunda: $(\mathbf{X}_j - \bar{\mathbf{X}})$ – tanlab olingan jamlamaning parametrlari;

$(\mathbf{X}_j - \bar{\mathbf{X}})^T$ – shu tanlab olingan jamlamaning parametrlariga to'g'ri keladigan transponirovanga oid vektor.

Ko'rinish turibdiki kavariatsion matritsa tanlab olingan jamlamadan kelib chiqadigan ko'p o'lchovli statistik tahlilda qo'llaniladigan matematik usullardan biri ekan.

Qisqa xulosalar

Mazkur bobda biz diskreminant va kononik tahlililar haqida gaplashdik. Diskriminant tahlili qaysi o'zgaruvchilar yuzaga keladigan ikki yoki undan ortiq bosh to'plamlar (guruhlari)ni farqlashi haqida qaror qabul qilish uchun foydalaniлади.

Marketing tadqiqotlarida ham diskriminat tahlilidan zarur hollarda foydalaniлади. Chunki, ushbu jarayonda ham ijtimoiy-

iqtisodiy hodisalar o'rtasida ko'pomilli bog'lanishlarning bo'lishi tayin. Diskriminant so'zi bizga lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, discriminans so'zi "farqlovchi, bo'luchchi" ma'nolarini anglatadi.

Diskirimimat tahlilida klaster tahlilidan ham foydalaniadi. Mazkur tahlil tadqiq qilinayotgan birlikni bir qancha tarkibiy bo'laklarga bo'lib o'rganish imkonini beradi. Bunda inobatga olinadigan narsalar shundan iborat bo'ladiki, bosh birlik bilan uning tarkibiy qismlari bir-biridan farq qilishi barobarida, bir-birini takrorlaydigan juda o'xshash ham bo'lmagligi kerak.

Ushbu tahlilni amalga oshirishda hisob-kitoblar juda murakkab bo'lganligi tufayli, mazkur amallar maxsus dasturlar asosida EHMDan foydalangan holda bajariladi.

Bunda juda ko'p modellardan foydalaniadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyoti bir qancha tarmoqlarga bo'linadi. Ularning modeli *ko'ptarmogli model* bo'lib hisoblanadi. Ushbu iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi sohalarga bo'linadi. Bu holda *ko'psohali modelni qo'llashadi*. Marketing tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishning bir qancha variantlari ishlab chiqilgan bo'lsa, u holda qo'llaniladigan model *ko'pvariantli model* bo'lib hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarida mavjud muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvdan ham foydalaniadi. U holda *ko'pitizimli modeldan* foydalaniadi. Xullas, marketing tadqiqotlarida ham diskirimimat tahlilidan foydalinishda bir qancha ko'po'lchamli statistik usullar qo'llanilishini inobatga olish lozim.

Kanonik korrelyatsiya (canonical correlation). U diskriminant ko'rsatkichlar va guruhlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini o'chaydi. Bu yagona diskriminant funksiyasi va ushbu guruhga mansublikni belgilab beradigan soxta o'zgaruvchilar to'plami o'rtasidagi bog'liqlik o'chovidir.

Kanonik korrelyatsiya tahlili. Agar bir necha guruhnini diskriminant tahlil qilish amalga oshirilsa, guruhlarni turli xil diskriminatsiya funksiyalarini shakllantirish uchun qanday qilib birlashtirilishi kerakligini ko'rsatmaslik kerak. Buning o'rniga, siz avtomatik ravishda o'zgaruvchilarning ayrim optimal kombinatsiyalarini belgilashingiz mumkin, bunda birinchi funksiya barcha guruhlar o'rtasida eng yaxshi diskriminatsiya

o'tkazadi, ikkinchi funksiya eng yaxshi bo'ladi va h.k. Bundan tashqari, vazifalar mustaqil yoki ortogonal bo'lib qoladi, ya'ni ularning bosh to'plamlarni ajratishga qo'shgan hissasi qoplanmaydi. Hisob-kitob tizimi nuqtai nazaridan siz ketma-ketlikdagi kanonik ildizlar va funksiyalarini aniqlab beradigan *kanonik korrelyatsiyalar* tahlilini o'tkazasiz. Funksiyalar maksimal soni bosh to'plamlar sonidan birini ayirib tashlashga yoki bu raqamlardan qaysi biri kichik ekanligiga qarab, tahlildagi o'zgaruvchilar soniga teng bo'ladi.

Tayanch iborlar: diskriminant, chiziqli diskriminant, Fisher diskriminanti, kombinatsiya, *multiple discriminant*, quadratic discriminant, *Kanonik korrelyatsiya*, sinergetika atamasi, betakoefitsient va boshq.

Nazorat uchun savollar

1. Nima uchun diskriminant tahlil usllaridan foydalanadilar?
2. Diskriminant tahlildan foydalanish usuliga misollar keltiring.
3. Ko'p o'lchamli statistik ma'lumotlar asosida natija va omillar o'rtaсидаги bog'liqliкни nimada?
4. Diskriminat tahlili matematik statistikaning tarkibiy qismi sifatida qanday xususiyatlarga ega?
5. Ko'ptarmoqli model deb nimaga aytildi?
6. Fisher diskriminanti qachon qo'llaniladi?
7. Mahalliy universal magazinlarning doimiy xaridorlari va umummamlakat universal magazinlar tarmoqlarining doimiy xaridorlari o'rtaсида tur mush ushubi nuqtai nazaridan qanday tafovutlar mavjud? Qaysi tahlil usuliga mansub?
8. O'zgaruvchilarning dispersiya/kovariatsiya matritsalarining bir xilligi asosini ko'rsatib bering.
9. Apriori va aposteriori tasnifi qanday to'plailar orasida farqlanadi?
10. Kovariatsion tahlil ko'po'lchamli statistik tahlilning bir qismi sifatida uning hususitlarini gapirib o'ting.

14-BOB. OMILLI VA KLASTERLI TAHLIL

14.1.Omilli tahlilning mazmuni

Omilli tahlil bu – katta bir guruh ichidan eng muhim o'zgaruvchilar – omillarni ajratish va ajratilgan omillar o'rtasida o'zaro aloqalarni aniqlash uchun foydalaniladigan harakatlar va usullar to'plamidir.

Omilli tahlil (factor analysis) – ko'p o'lchamli statistik usul bo'lib, miqdoriy o'zgaruvchilar qiyamatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rghanish uchun qo'llanadi. Omillar tahlilining asosiy g'oyasi shundan iboratki, ko'p sonli boshlang'ich o'zgaruvchilar o'rtasidagi mavjud bog'liqliklar omillar deb ataladigan ancha kam sonli yashirin o'zgaruvchilar bilan aniqlanadi.

Omilli tahlil, alohida usullar guruhi sisfatida psixometrikada paydo bo'lgan va hozirgi kunda iqtisodiyot, statistika, sotsiologiya va marketing tadqiqotlarida keng foydalanib kelinmoqda.

Omilli tahlil natijasida mavjud kuzatuvlarga aloqador bo'lgan ko'p sonli o'zgaruvchilar omillar deb ataladigan kam sonli mustaqil o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga keltililadi. Bunda bir-biri bilan kuchli aloqada bo'lgan o'zgaruvchilar bitta omilga birlashtiriladi. Turli omillardan bo'lgan o'zgaruvchilar bir-biri bilan kuchsiz aloqada bo'ladi.

Shunday qilib, omilli tahlilning maqsadi – ko'p sonli ko'rib chiqilayotgan belgilarni mavjud bo'lgan lekin bevosita o'lchab bo'lmaydigan o'zgaruvchilar o'rtasida kuzatiladigan aloqalarni eng to'liq izohlab beradigan keng sig'imli kompleksli omillar orqali ifodalab, boshlang'ich axborotni markazlashtirishdir.

Omilli tahlilning asosiy usullari – bu birinchi navbatda, umumiy omillarni tahlil qilish va bosh tarkibiy qismlarni tahlil qilishdir. Quyidagi omilli tahlil usullari kamroq foydalaniladi:

- maksimal haqiqatga o'xshashlik
- o'lchanmagan eng kichik kvadratlar
- eng kichik kvadratlar umumlashtirilgan usuli
- namunalarni tanib olish
- Alfa - omilli

Omilli tahlil qachon foydalaniadi?

Omilli tahlildan marketing tadqiqotlarida foydalanshing ahamiyatiga noto'g'ri bahor berish qiyin. Marketologlar omilli tahlildan o'zgaruvchilar o'zaro aloqalari tushunarli bo'lgan tushunarli modellar – tuzilgan modeldag'i omillar tashkil qilish maqsadida ko'plab belgilarni gurublash uchun foydalaniadi.

Marketing tadqiqotlarida omilli tahlil ko'pincha quyidagilar o'tkazilganda foydalaniadi:

- iste'molchilarni segmentlash,
- mahsulot yaratish,
- marketing strategiyasi ishlab chiqish
- joylashtirish strategiyasi
- kommunikatsiya strategiyasi
- media – strategiya
- narx shakllantirish strategiyasi

Qoidaga ko'ra, omilli tahlil bir necha bosqichda **bo'lib o'tadi**.

Omilli tahlil bosqichlari quyidagilardan iborat:

- omillarni tanlab olish.
- omillarni tasniflash va tizimlashtirish.
- natijali va omilli ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni modellashtirish.

Natijali ko'rsatkich hajmi o'zgarishida omillarning ta'siri va rolini hisob-kitob qilish.

Omilli modeldan amaliy foydalansh (natijali ko'rsatkichning o'sish zaxiralarini hisob-kitob qilish).

Ushbu tahlil turi tadqiqotchiga ikkita asosiy vazifani hal qilishga imkon beradi: o'chash predmetini qisqacha va shu bilan bir paytda har tomonlama tavsiflash. Omilli tahlil yordamida kuzatilayotgan o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyalar chiziqli statistik aloqalar uchun javob beradigan omillarni aniqlash mumkin.

Omilli tahlilning asosiy maqsadlari o'zgaruvchilar sonini qisqartirish va o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalar strukturasini aniqlash hisoblanadi. Shu sababli omilli tahlil yoki

ma'lumotlarni qiskartirish usuli sifatida, yoki tasniflash usul sifatida foydalaniadi.

Omilli tahlil o'tkazish statistikaga oid tayanch bilimlar – ma'lumotlarni tavsifiy tahlil qilish usullari, statistik gipotezalarni tekshirish usullarini bilishni, korrelyatsion va regression tahlil bilan tanishlikni talab qiladi.

Omilli tahlilning negizida shunday gipoteza yotadiki, garchi o'z-o'zidan respondentlarning u yoki bu savollarga javobi tasodifiylikka bog'liq bo'lsada, bu javoblar respondentlarning ichki ko'rsatmalarini aks ettiradi.

Omilli tahlilni qo'llash borasida amaliyotda muhim bo'lgan qator misollar keltirib o'tamiz.

1.Ijtimoiy-siyosiy vaziyat indikatorlarini tuzish. Ijtimoiy-siyosiy taddiqotlar doirasida aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar ma'lumotlari bo'yicha, masalan, ijtimoiy fikr fondida mamlakatdagi vaziyatni umumlashtirgan tarzda tavsiflaydigan turli indikatorlar hosil qilinadi:

- mamlakatda ishlayotgan aholining mehnatga bo'lgan munosabati ko'rsatkichlari;
- aholining emotsional holati indikatorlari;
- norozilik kayfiyatları indeksi;
- iqtisodiy inqiroz ta'siri indeksi;
- jinoyatchilik bilan bog'liq vaziyat indeksi va h.k.

2. Iste'molchilarning psixografik profillarini o'rganish. Anketaga turmush tarzi haqida fikr-mulohazalar to'plami kiritiladi. Respondentlar tanlangan javoblarning omilli tahlili respondentlarning asosiy psixografik tavsifnomalarini aniqlashga imkon beradi.

3. Magazin imidjini baholash. Respondentlardan magazinni bir qator mezonlar bo'yicha baholash va bu bahoni semantik differentsial shkalasi bo'yicha ifodalash so'raladi. Eslatib o'tamiz: bu ikkita qarama-qarshi tushuncha o'rtasida tanlash uchun farqlarni aks ettiradigan yettita gradatsiyali shkaladir. Olingan baholar umumlashtirgan holda magazin imidjini tavsiflaydigan kichik sonli yashirin belgilarni topish maqsadida tahlil qilinadi.

4. Iste'molchilarning turli kompaniyalarni baholash mezoni. Respondentlarga besh balli shkala bo'yicha barcha kompaniyalar muhimligini baholash taklif etiladi: "muhim bo'limgan tavsifnomा" dan "juda muhim tavsifnomा" gacha.

Hajmi bo'yicha katta to'plamni yaqqol ifodalangan ko'rsatkichli kichik to'plamga aylantirish bu umumlashtirilgan o'zgaruvchilardan keyingi ko'p o'lchamli tahlillardan foydalanishga imkon beradi. Masalan, omilli tahlil yordamida tuzilgan qaysidir umumlashtiruvchi belgilar qiymati sodiq va sodiq bo'limgan mijozlarda uchli farq qilishini aniqlashimiz mumkin. Bu umumlashtiruvchi belgi bilan qaysi boshlang'ich ma'lumotlar kuchli korrelyatsiyada bo'lishini bilish esa bu tafovutlarning sermazmun ma'nosidan iborat bo'lishi mumkin.

Bu masalani hal qilishga boshqacha yondashish: aniqlangan psixografik omillardan mustaqil o'zgaruvchilar sifatida, sodiq va sodiq bo'limgan mijozlarni ajratib turadigan belgidan esa – bog'langan o'zagravchi sifatida foydalaniib, regression yoki diskriminant tahlilni qo'llash mumkin. Natijada topilgan koeffitsientlar sodiqlikni shakllantirishga qaysi o'zgaruvchilar va qay darajada ta'sir etishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bir nechta yangi, hajmi bo'yicha kichik, lekin o'zaro korrelyatsiya qilmaydigan ko'rsatkichlar – omillarga ega bo'lgan holda ular asosida turli to'plamlarga oid omillar o'rtaсидаги о'заро aloqalarni, masalan, regression yoki diskriminant tahlili yordamida o'rganish mumkin.

Shunday qilib, omil bu – boshlang'ich ma'lumotlar to'plami – ma'lumotlar matritsasi ustunida mavjud bo'lgan o'zaro korrelyatsiyalarni izohlaydigan yashirin o'zgaruvchining miqdoriy ifodasidir. Bu "ichki", "muhim", "jiddiy" tavsinfoma bo'lib, uning qiymatini to'g'ridan-to'g'ri o'lchab bo'lmaydi, lekin o'lchanadigan "tashqi", "bilvosita" o'zgaruvchilar qiymati qanday bo'lishi aynan ularga bog'liq.


Bu, masalan, shuni anglatishi mumkinki, agar respondentda oid yuqori qiymatga ega bo'ladijan bo'lsa, demak u omil bilan kuchli va musbat korrelyatsiyada bo'ladijan boshlang'ich

o'zgaruvchilarga yuqori baho bergen, u bisan kuchli, lekin manfiy korrelyatsiya qiladigan o'zaruvchilarga esa – past baho bergen.

Omillar tahlili o'zgaruvchilar sonini qisqartirish va ularni umumlashtirish uchun foydalaniladigan usullar sinfidir.

14.2. Omilli tahlil modeli

Marketing tadqiqotlari davomida ularning aksariyati o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab o'zgaruvchilarga duch kelish mumkin. Ma'lumotlarni qayta ishlash qulay bo'lishi uchun ularning sonini maqbul keladigan darajagacha pasaytirish lozim. Bu maqsadda korrelyatsiyalangan o'zgaruvchilar orasidagi aloqalar tahlil qilinadi va kam sonli omillar ko'rinishida aks ettiriladi. Omil bu o'zgaruvchilar to'plami o'rtasidagi korrelyatsiyani tushuntirib beradigan yashirin o'zgaruvchi hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarida omilli tahlil quyidagi maqsadlarda: iste'molchilarni guruhlash maqsadida yashirin o'zgaruvchilarni aniqlash uchun bozorni segmentlashda amalga oshiriladi. Masalan, yangi avtomobil xarid qiluvchilarni ularning xaridda nimaga (tejamkorlik, qulaylik, ishchi tavsifnomalar, chiroylilik, savlatlilik) asosiy e'tibor qaratishidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin. Tovar strategiyasini ishlab chiqishda omilli tahlil iste'molchi tanlovgiga ta'sir etadigan savdo markasi tavsifnomalarini aniqlash uchun foydalaniladi. Narx shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishda omilli tahlil narxga sezuvchanlik darajasi yuqori bo'lgan iste'molchilar tavsifnomalarini aniqlab beradi. Matematika nuqtai nazaridan omilli tahlil ko'plik regression tahliliga o'xshab ketadi: har bir X_i o'zgaruvchi (F_1, F_2, \dots, F_k) chiziqli omillar kombinatsiyasi ko'rinishida ifodalanadi. Omillar, o'z navbatida, kuzatilayotgan o'zgaruvchilar chiziqli kombinatsiyasi bilan ifodalanishi mumkin.



14.1-rasm. Omilli tahlil vazifasi

Omilli tahlilni bajarish bir necha bosqichdan iborat:

- 1) o'zgaruvchilar oraliqli yoki nisbiy shkalada o'chanishi mumkin bo'lgan;
- 2) tanlama to'plam o'zgaruvchilar sonidan 4-5-marta katta bo'lishi lozim.

Korrelyatsion matritsa tuzish. Ma'lumotlar asosida korrelyatsion matritsa tuziladi. Omilli tahlilni bajarish maqsadga muvofiqligi o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiyalar mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zarobog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar bir xil omil bilan korrelyatsiya qilishi lozim. Agar o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya kichik bo'lsa, omilli tahlil foyda bermaydi.

Statistikadan bir nechta ma'lumot:

Bartlettning sfera mezonii. Bosh to'plamda o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya yo'qligi haqida nolinchgi gipoteza tekshiriladi. Tekshiruv korrelyatsion matritsa aniqlovchisini χ^2 (xi-kvadrat) statistikaga aylantirishga asoslanadi. Statistika qiymati katta bo'lganda nolinchgi gipoteza inkor qilinadi. Kayzer-Meyer-Olkin (KMO) tanlovi moslik mezonii. KMO-statistika qiymati kichikligi (0,5 dan past) shuni ko'rsatadi.

juft o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyalarni boshqa o'zgaruvchilar bilan tushuntirib bo'lmaydi va omilli tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Bartlettning sfera mezoni. Bosh to'plamda o'zgaruvchilar o'rtasida korrelyatsiya yo'qligi haqida nolinchgi gipoteza tekshiriladi. Tekshiruv korrelyatsion matritsa aniqlovchisini χ^2 (xi-kvadrat) statistikaga aylantirishga asoslanadi. Statistika qiymati katta bo'lganda nolinchgi gipoteza inkor qilinadi. Kayzer-Meyer-Olkin (KMO) tanlovi moslik mezoni. KMO-statistika qiymati kichikligi (0,5 dan past) shuni ko'rsatadiki, juft o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyalarni boshqa o'zgaruvchilar bilan tushuntirib bo'lmaydi va omilli tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

3) Omilli tahlif usulini aniqlash

Ikki xil usul mavjud: bosh tarkibiy qismilar tahlili; umumiy omillar tahlili.

Bosh tarkibiy qismilar tahlilini tadqiqotning asosiy vazifasi kelgusida ulardan ko'p o'lchamli tahlilda foydalanish uchun ma'lumotlar dispersiyasiga maksimal hissa qo'shadigan omillar minimal sonini aniqlash hisoblangan hollarda bajarish tavsiya etiladi. Bu omillar bosh kadrlar qo'nimsizligi deb ataladi. Umumiyligini omillar tahlilida asosiy vazifa umumiy dispersiya va yashirin o'zgaruvchilarni aniqlash hisoblanadi. Umumiylilik – alohida o'zgaruvchining umumiy omillar bilan izohlanadigan dispersiya ulushi.

4) Omillar sonini aniqlash. Boshlang'ich ma'lumotlarda mavjud bo'lgan axborotni umumlashtirish uchun kam sonli omillarni ajratgan ma'qul. Bu borada bir nechta jarayon mavjud:

Dastlabki axborotga asoslangan aniqlash. Ba'zida tadqiqotchi dastlabki axborotlarga rioya qilgan holda qancha omil kutish mumkin ekanligini biladi.

Omillarning o'z qiymatlariga asoslangan aniqlash. Ushbu usulda faqat o'z qiymatlari 1 dan katta bo'lgan omillar hisobga olinadi, qolgan omillar modelga kiritilmaydi.

«toshli to'kilma» mezoniga asoslangan aniqlash. «Toshli to'kilma» mezonining grafik ko'rinishidagi tasviri omillar o'z

qiymatlarining ularning ajratish tartibidagi raqamlariga bog'liqligini ifodalaydi.

5.Omillarni aylantirish. Omilli yuklamalar matriksasi omillar va o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyalarni ifodalaydigan koeffitsientlardan iborat. Omillarni aylantirish omilli koeffitsientlar matriksasini oddiyroq va osonroq talqin qilinadigan matriksaga aylantiradi.

Varimaks usuli – yuklama qiymati yuqori bo'lgan o'zgaruvchilar sonini minimallashtiradigan omillarni aylantirish ortogonal usuli.

6. Natijalarni talqin qilish

Omillarni talqin qilish uchun bir xil omil bo'yicha yuklama qiymati yuqori bo'lgan o'zgaruvchilarni aniqlash zarur.

Omil qiymatini hisoblab chiqish

Agar omilli tahlilning maqsadi o'zgaruvchilar boshlang'ich sonini ko'p o'lchamli tahlilda foydalilanidigan kam sonli o'zgaruvchilar (omillar) to'plamigacha pasaytirishdan iborat bo'lsa, bunda har bir respondent uchun omillar qiymati hisoblab chiqiladi.

14.3. Klasterli tahlilning mohiyati

Klasterli tahlil keng doiradagi vazifalarni hal qilish uchun qo'llanadi, lekin ko'pincha gap aynan segmentlash vazifasi haqida boradi. Segmentlash muammosiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlar, qaysi usul foydalanilishidan qat'i nazar, ularning har biri o'xshash tavsifnomali obyektlarni o'z ichiga oladigan barqaror guruuhlar (odamlar, bozorlar, tashkilotlar) identifikasiya qilish maqsadini ko'zlaydi. Bu jarayonni amalga oshirar ekan, tadqiqotchilar qoidaga ko'ra, quyidagi kabi xatolarga yo'l qo'ydi: klasterlash ular asosida amalga oshiriladigan tavsifnomalar «ochiqroq, oddiyroq, arzonroq» tamoyili bo'yicha tanlanadi. Bunday yondashuv kelgusi tahlil maqsadga muvofiqligini shubha ostiga qo'ydi, chunki hatto bitta-ikkita muhim bo'limgan tavsifnomalar kiritilishi ham klasterlarga noto'g'ri taqsimlashga olib kelishi mumkin.

Iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilish. Klasterli tahlil apparatidan foydalishning ikkinchi, lekin ahamiyatli darajasi

bundan past bo'lmagan yo'nalishi har bir segmentdagi mijozlar o'zini qanday tutishi, nimalar uning xulq-atvorini belgilab berishi haqida maksimal darajada to'liq tasavvurga ega bo'lism maqsadida bir xil turdag'i iste'molchilar guruhini tuzish hisoblanadi.

Joylashtirish. Klasterli tahlil shuningdek, bozorga chiqarilayotgan mahsulotni qaysi «nisha»da joylashtirish ma'qul ekanligini aniqlash uchun ham qo'llanadi. Klasterli tahlil har bir tovar maqsadli segmentdan o'rinn olish uchun ega bo'lishi lozim bo'lgan tavsifnomalar va turli segmentlarda raqobat darajasini uning asosida aniqlash mumkin bo'lgan karta tuzishga imkon beradi. Bunday karta misol uchun, o'z qarorlarini ular uchun ishlab chiqish va ilgari surish mumkin bo'lgan yangi bozorlarni aniqlashga yordam beradi.

Sinov (test) bozorlarini tanlash. Ko'plab tadqiqotchilar klasterli tahlildan qaysi bozorlar (magazinlar, mahsulotlar) relevant tavsifnomalar bo'yicha bitta guruhga birlashtirilishi mumkin ekanligini aniqlash uchun qo'llaydilar. Gap shundaki, ma'lum bir qonuniyat mavjudligi haqida taxminni ilgari surib (elita tovarlar xaridorlari narx o'sishi bilan talabni ham oshiradi) yangi, tahlilda foydalaniilmagan, amaliyotda qo'llashdan oldin unda sinab ko'rish mumkin bo'lgan bozorni taklif qilishi lozim.

Kuzatuvlar sonini qisqartirish. Eng oddiy misol: hammaga ma'lum bo'lgan AVS tahlil, misol uchun, pozitsiyalarni bitta tavsifnomasi (masalan – daromad) bo'yicha bilashtiradi. Ya'ni klasterlash faqat bitta o'lchamda amalga oshiriladi. Natija – uchta guruh va ... (qoidaga ko'ra) unchalik mos kelmaydigan taqsimlash, chunki «daromad» pozitsiyasidan tashqari «daromadlilik», «aylanuvchanlik», «mavsumiylik» kabi ko'rsatkichlar ham mavjud. Bu ko'rsatkichlarning barchasini tasniflash jarayotida hisobga olish uchun ko'p o'lchamli tasniflash usullarini qo'llash zarur bo'lib, klasterli tahlil ham ular qatoriga kiradi.

Ba'zida 5000 ta mijozdan 20-30 guruhga o'tish va ularning har biri uchun individual xizmat ko'rsatish siyosati ishlab chiqish to'g'riqoq bo'ladi. Bu yerda tahlil obyektlarini ko'p marta

qisqartirish hisobiga mehnat sig'imiда jiddiy yutuqqa erishish mumkin.

To'plangan statistik ma'lumotlar turli tarzda tahlili qilinishi mumkin. Masalan, ko'p omilli regressiya tahlili, omillar tahlili, klaster tahlili va aloqalar tahlilidan foydalanish mumkin.

Omillar tahlili ta'sir ko'rsatuvchi omillar sonini eng asosiy omillar qolguncha qisqartirish maqsadida o'zgaruvchilar o'rtaсидаги о'заро aloqalarni tadqiq qilishga mo'ljallangan.

Klaster tahlili obyektlar yig'indisini nisbatan bir xil guruhlarga taqsimlashga imkon beradi.

Ko'p omilli shkalalash obyektlar o'rtaсиda mavjud bo'lgan munosabatlarni aks ettirish uchun imkon olishga xizmat qiladi.

U yoki bu tahlil usulidan foydalanish imkoniyati mustaqil va bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilarni shkalalash darajasiga bog'liq bo'ladi. Biron-bir usulni tanlash o'zgaruvchilar o'rtaсидаги aloqalar xarakteri va yo'naliши hamda shkalalash darajasigagina emas, balki birinchi navbatda hal etilayotgan muammoga bog'liq bo'ladi. 14.1-jadvalda marketing tadqiqoti vazifalarini hal etish uchun foydalanish mumkin bo'lgan usullar aks ettirilgan.


14.1 - jadval

Turli tahlil usullarida savollarning qo'yilishi

| Usul | Savolning qo'yilishi |
|----------------------|--|
| Regressiya tahlili | <p>Reklama xarajatlari 10% qisqartirilsa, sotuv hajmi qanday o'zgaradi?</p> <p>Kelasi yil mahsulot narxi qanday bo'ladi?</p> <p>Avtomobil sanoatiga investitsiyalar hajmi po'latga bo'lgan talabga qanday ta'sir ko'rsatadi?</p> |
| Variatsiya tahlili | <p>Mahsulot o'rovi sotuvga ta'sir qiladimi?</p> <p>Reklama e'loni xabari rangi reklamani eslab qolgan kishilar soniga ta'sir ko'rsatadimi?</p> <p>Sotuv yo'lini tanlash sotuv hajmiga ta'sir ko'rsatadimi?</p> |
| Diskriminant tahlili | <p>Chekuvchilar chekmaydiganlardan qaysi xislatlar bo'yicha farq qiladi?</p> <p>Sotuv bo'limi xodimlarining qaysi xislatlari ularni muvaffaqiyatlari va omadsizlarga taqsimlashda katta ahamiyatga ega?</p> <p>Ma'lum bir shaxsni uning yoshi, daromadi,</p> |

| | |
|------------------------|--|
| | ma'lumotini hisobga olgan holda kredit berish uchun yetarli darajada ishonchi deb hisoblash mumkinmi? |
| Omillar tahlili | Avtomobil xaridorlari muhim deb hisoblovchi ko'p sonli omillarni birlashtirish mumkinmi? Ushbu omillar nuqtai nazaridan turli markadagi avtomobilarni qanday ta'riflash mumkin? |
| Klasterlar tahlili | Mijozlarni ularning ehtiyojlari bo'yicha guruhlarga bo'lish mumkinmi? Gazeta turli o'quvchilar tipiga egami? Saylovchilarni ularning siyosat bilan qiziqishiga qarab qanday tasviflash mumkin? |
| Ko'p omilli shkalalash | Mahsulot iste'molchilar «ideal»iga qanchalik mos keladi? Tadbirkor qanday imijga ega? Iste'molchilarning mahsulotga munosabati yillar davomida qanchalik o'zgardi? |

Klaster tahlilida bir guruh iste'molchilari boshqa guruhdan keskin farq qiluvchi omillar izlanadi va shu tariqa bitta klaster boshqalardan «ichki bog'lanish» natijasida ajratiladi. Buni grafik yordamida quyidagicha tasvirlash mumkin (14.2-rasm).



14.2-rasm. Klaster tahlil natijalari

Nuqtalar zinchligi katta bo'lgan klasterlar koordinatalar o'qi ikkita bo'lgan tekislikda keltirilgan. Shu tariqa ayrim umumiyl tasvifnomalarga ega guruhlar va segmentlar identifikasiya qilinadi.

Quyidagi jadvalda klasterli tahlil apparatidan foydalangan ayrim marketing tadqiqotlari qisqacha tavsifnomasi berilgan.

14.2-jadval

Marketing tadqiqotlarida klasterli tahlilni qo'llash amaliyoti

| Modda | Tadqiqot maqsadi | Ma'lumotlar |
|---|---|--|
| Sexton 1974 | Mahsulot iste'molchilarini – oilalar guruhiarini identifikatsiya qilish. Brendni joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish | Respondentlar brendlari va mahsulotlarga beradigan reytinglar |
| Montgomery and Silk 1971 | Mijozlarni qiziqishlar sohasi bo'yicha segmentlash | Mijozlarning xohish-istaklari bo'yicha tavsiflaydigan o'zgaruvchilar |
| Anderson, Cox, Fulcher 1976 | Bank tanlashni belgilab beradigan omillarni aniqlash. Natijalardan mijozlarni segmentlash uchun foydalanish | Xaridorlar nuqtai nazaridan bank tavsifnomalari |
| Bass, Pessemier, and Tigert 1969 | OAV segmentlash | OAV tavsiflaydigan o'zgaruvchilar |
| Calaycone and Sawyer 1978 | Mijozlar segmentlari barqarorligini tahlil qilish | Bir nechta banklar bo'yicha «mayda» mijozlar tavsifnomalari |
| Slaxton, Fry, and Portis 1974 | Ularning xulq-atvorini belgilab beradigan omillarni aniqlash maqsadida mebel va mebel furniturasini xaridorlarini tasniflash. | Xaridorning xaridgacha xulq-atvori |

| | | |
|----------------------------------|---|---|
| Day and Heeler 1971 | Zaxiralarni tahlil qilish va pozitsiyalarni bir xil turda guruhlash | So'rovlarini tahlil qilish uchun relevant omillar |
| Morrison and Sherman 1972 | Respondentlar reklamadagi erkaklar va ayollar roliga qay tarzda munosabatda bo'lishini aniqlash | Respondentlar turli roliklarga beradigan reytinglar |
| Kiel and Layton 1981 | Yangi avtomobil xaridorlari xulq-atvorini tahlil qilish | O'zgaruvchilar to'plamini tahlil qilishda olingan omilli yuklamalar |

14.4. Klasterli tahlilni qo'llashdagi muammolar

Ko'p o'lchamli tahlilning boshqa aksariyat usullaridan farqli ravishda, klasterli tahlil parallel ravishda bir nechta fanda (psixologiya, biologiya, iqtisodiyot ...) rivojlangan, shu sababli aksariyat usullarning ikki va undan ortiq nomi mavjud, bu esa tadqiqotchilarning bir-birini tushunishini jiddiy tarzda qiyinlashtiradi, ayniqsa, gap turli bilimlar sohalari haqida ketadigan bo'lsa.

Boshqa bir muammo klasterlash usuli va metrikani tanlashda variantlar ko'pligi, shuningdek, ular o'rtasida muvofiqlashtirish muammosi bilan bog'liq. Gap shundaki, ko'pincha, u yoki bu metrikadan foydalanish shart-sharoitlaridagi farqlar unchalik katta emas, bundan tashqari, metrika tanlovi doim ham yo'l qo'yish mumkin bo'lган klasterlash usulini uzil-kesil belgilab bermaydi. Bunday vaziyatda «metrika-usub» muayyan kombinatsiyasini tanlash uchun turli manbalardan donalab to'plashga to'g'ri keladigan «tavsiyalar»ga tayanish lozim. Buni tushunish har bir muyyan usul va metrikaning nozik jihatlarini tushunib olishdan keyin ro'y beradi.

Shunga ham e'tibor qaratish kerakki, «klaster» tushunchasining o'ziga uzil-kesil ta'rif berilmagan. Uzil-kesil ta'riflashga zarurat ham yo'q – har bir muayyan tadqiqotda

«klasterlar» o'ziniki bo'ladi. Qoidaga ko'ra, quyidagi tavsiyaga amal qilinadi: ichki bir xillik va tashqi ajratliganlik.

Klasterlash usullari. Klasterli tahlil usullarining ikki xil guruhi ajratib ko'rsatiladi: ierarxik va noierarxik usullar.

Ierarxik klasterli tahlilning asosiy usullari yaqin qo'shni usuli, to'liq aloqa usuli, o'rtacha aloqa usuli va Vard usuli hisoblanadi. Vard usuli eng universal hisoblanadi. Shuningdek, tsentroid usuilar va medianadan foydalanadigan usular ham mavjud, lekin Sniat va Sokal 1973-yil shuni ko'rsatdiki, ularni qo'llash ayrim ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi.

Garchi ular bir xil tamoyillarda ishlasada, noierarxik usullar ko'proq. Mohiyatan, ular boshlang'ich to'plamni maydalashning iteraktiv usullarini ifodalaydi. Bo'lish jarayonida yangi klasterlar shakllanadi va to'xtatish qoidasi bajarilmagunga qadar davom etadi. Usullar o'zaro boshlang'ich nuqtani tanlash, yangi klasterlar shakllantirish va to'xtash qoidasi bilan farq qiladi. **K-o'rtacha** algoritmi eng ko'p foydalilanadi. Unga ko'ra, tahlilchi natijalovchi taqsimlashda klasterlar sonini oldindan qayd qilishi ko'zda tutiladi.

Muayyan klasterlash usulini tanlash haqida gapirganda yana bir bor ta'kidlash joizki, bu jarayon tahlilchidan usullar sharoitlari va tabiatini bilan yaxshi tanish bo'lishni talab qiladi, aks holda olingan natijalar «kasalxona bo'yicha o'rtacha harorat»ga o'xshab ketadi. Tanlab olingan usul haqiqatda ushbu sohada samarali ekanligiga ishonch hosil qilish uchun, qoidaga ko'ra, quyidagi jarayon qo'llanadi.

Apriori o'zaro farq qiladigan bir nechta guruh ko'rib chiqiladi va ularning vakillari o'zaro tasodifiy tarzda aralashtirib yuboriladi. So'ngra guruhlarga boshlang'ich taqsimlashni tiklash maqsadida klasterlash jarayoni amalga oshiriladi. Aniqlangan va boshlang'ich guruhlardagi obyektlarning mos tushish ulushi usulning ish samaradorligi ko'rsatkichi bo'ladi.

Klasterlash usullari qiyosiy tahlili. Ierarxik va noierarxik usullardan birini tanlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Noierarxik usullar metrikani noto'g'ri tanlash, muhim bo'lmagan mustaqil o'zgaruvchilarni klasterlash bazasiga kiritish

va h.k.ga nisbatan yuqoriroq barqarorlik namoyish etadi. Lekin buning uchun to'lov «apriori» so'zi hisoblanadi. Tadqiqotchi klasterlar natijalovchi sonini, to'xtatish qoidasini va agar bunga asoslar bo'lsa, klasterning boshlang'ich markazini oldindan qayd qilishi lozim. So'nggi jihat algoritmnning ish samaradorligida jiddiy aks etadi. Agar bu shartni sun'iy ravishda belgilarga asos bo'lmasa, umuman olganda, ierarxik usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Algoritmlarning ikkala guruhi uchun muhim bo'lgan yana bir fursatni aytib o'tamiz: barcha kuzatuvlarni klasterlash doim ham to'g'ri yechim bo'lavermaydi. Ehtimol, dastlab tanlama to'plamni tozalab olish, so'ngra tahlilni davom ettirish to'g'ri bo'ladi. Shuningdek, to'xtatish mezonini juda yuqori belgilamaslik lozim (misol uchun, kuzatuvlarning 90%dan ortig'i klasterlangan paytda to'xtatish qilinishi mumkin).

14.5. Klasterli tahlilni qo'llash bo'yicha tavsiyalar

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'riniib turibdiki, klasterli tahlilni qo'llash jarayonida tahlilchidan bir qator vazifalarni bajarish talab etiladi. Ularni quyidagi tarzda guruhlarga ajratish mumkin:

1. *Boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartirish:*

- metrika tanlash
- standartlashtirish usulini tanlash
- bog'langan tanlama to'plamlar bilan qanday ishlash

2. *Qarorlar qabul qilish:*

- qancha klaster shakllantirish zarur
- qaysi klasterlash usulidan foydalanish kerak
- barcha kuzatuvlidan foydalanish kerakmi yoki ayrim kichik tanlama to'plamlarni chiqarish tashlash zarurmi?

3. *Olingan natijalarni tahlil qilish:*

- olingan bo'linish tasodifidan qanchalik farq qilishi
- uning kichik tanalama to'plamlarda ishonchli va barqaror hisoblanishi
 - klasterlash natijalari va klasterlash jarayonida ishtiroy etmagan o'zgaruvchilar o'rtasida qanday aloqa borligi
 - olingan natijalarni talqin qilish mumkinligi

4. Klasterlashni qaysi o'zgaruvchilar to'plami bo'yicha amalga oshirish eng samarali bo'ladi?

Shunga e'tibor qaratish kerakki, umumiy holatda bu bosqichlarning barcha o'zaro bog'liq bo'ladi va ularning har birida qabul qil'ingan qarorlar bir-birini asoslab beradi. Endi dastlabki uchta muammoga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartirish. Ayrim mualliflar shunday xulosaga keladiki, standartlashtirish jarayonlari va metrika tanlash klasterli tahlilda asosiy jihat emas. Bunday fikr ham o'ringa ega, lekin ayrim qo'shimcha shartlar bilan. Birinchidan, u faqat qo'polroq – noierarxik – usullarga taalluqli. Ikkinchidan, nisa bo'lganda ham metrikani shunday tanlash kerakki, u klsaterlarni birlashtirishning tanlangan usuliga zid kelmasin. O'zgaruvchilar bog'langan bo'lgan hollarda ayniqsa matrikaga alohida e'tibor qaratish lozim. Mos keladigan metrika ushbu muammoning yechimi ham bo'lishi mumkin.

Qarorlar qabul qilish

Bundan oldingi masaladan farqli ravishda, bu yerda barcha mualiflar fkdl fikr bildiradi – klasterlash usulini tanlash muvaffaqiyatli klasterlash uchn muhim ahamiyat kasb etadi. ko'p jihatdan, usulini anlash bo'lg'usi klasterlarning o'ziga xosliklari (bo'rtiq yoki sharsimon shakl ko'zda tutilishi, o'xhash yoki jiddiy farq qiladigan hajmda bo'lishi ...) bilan belgilanadi, lekin shunga qaramay, bir qancha umumiy tavsiyalar berish mumkin.

Biz shunga e'tibor qaratib o'tgandikki, noierarxik usullar klasterlar markazlari va soni haqida apriori axborot mavjud bo'lgan hollarda samarali bo'ladi. Uni, o'z navbatida, ierarxik jarayonlar (masalan, Vard usuli) qo'llagan holda olish mumkin. **Ierarxik** klasterli tahlil noierarxik usul uning asosida ishlay boshlaydigan material sifatini oshirish maqsadida «chiqarilish»larni identifikasiya qilish va ko'rib chiqishdan olb tashlashga imkon beradi. **Bu g'oya ikki qadamli klasterlash deb ataladigan g'oyaning asosida yotadi.**

Olingan natijalarni tahlil qilish. Hattoki sifatlari amalga oshirilgan klasterli tahlildan keyin to'xtatish qoidasi keyingi hisob-kitoblarni to'xtatishni tavsiya qilgan bo'lsa ham, olinga yechimmi mos keladigan deb hisobla uchun asoslar yo'q. Klasterli

tahlil jarayoni natijalari rasmiy va norasmiy testlar yordamida tekshirishni talab qiladi.

Rasmiy statistika haqida gapirganda Arnold tomonidan 1979-yilda taklif etilgan «S» statistika qiymatini hisoblab chiqish tavsiya etiladi. Bu asarda turli miqdordagi kuzatuvarlar va o'zgaruvchilar uchun «S» taqsimlash jadvali mavjud. Biroq rasman hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar ahamiyatiga ortiqcha baho bermaslik lozim: ko'plab mualliflar shu nuqtai nazardan «yxash» bo'lgan natijalar amalda chuqur ma'noga ega bo'lmasligiga misollar keltirib o'tgan.

Klasterli tahlil natijalarini norasmiy tekshirish kichik tanlama to'plamlarda olingan natijalarni tahlil qilish, «tashqi» ma'lumotlarda kross-tekshiruv, kuzatuvarlar tartibini o'zgartirish, kam sonli kuzatuvlarni chiqarib tashlash va klsaterli tahlilni qisqa tanlama to'plamlarda takrorlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Qisqa xulosalar

Ushbu bobda biz, omilli tahlil, ko'pomilli va klaster tahlillarning mazmun va mohiyatini yoritib berdik.

Omilli tahlil (factor analysis) – ko'p o'lehamli statistik usul bo'lib, miqderiy o'zgaruvchilar qiymatlari o'rtasidagi o'zarlo aloqalarni o'rganish uchun qo'llanadi. Omillar tahlilining asosiy g'oyasi shundan iboratki, ko'p sonli boshlang'ich o'zgaruvchilar o'rtasidagi mavjud bog'liqliklar omillar deb ataladigan ancha kam sonli yashirin o'zgaruvchilar bilan aniqlanadi.

Omilli tahlilning asosiy maqsadlari o'zgaruvchilar sonini qisqartirish va o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zarlo aloqalar strukturasini aniqlash hisoblanadi. Shu sababli omilli tahlil yoki ma'lumotlarni qiskartiish usuli sifatida, yoki tasniflash usul sifatida foydalilanadi.

Omilli tahlil bu – katta bir guruh ichidan eng muhim o'zgaruvchilar – omillarni ajratish va ajratilgan omillar o'rtasida o'zarlo aloqalarni aniqlash uchun foydalilanadigan harakatlar va usullar to'plamidir.

Omilli tahlil, alohida usullar guruhi sifatida psixometrikada paydo bo'lgan va hozirgi kunda iqtisodiyot, statistika,

sotsiologiya va marketing tadqiqotlarida keng foydalanib kelinmoqda.

Omilli tahlil natijasida mavjud kuzatuvlarga aloqador bo'lgan ko'p sonli o'zgaruvchilar omillar deb ataladigan kam onli mustaqil o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga keltiriladi. Bunda bir-biri bilan kuchli aloqada bo'lgan o'zgaruvchilar bitta omilga birlashtiriladi. Turii omillardan bo'lgan o'zgaruvchilar bir-biri bilan kuchsiz aloqada bo'ladi.

Shunday qilib, omilli tahlilning maqsadi – ko'p sonli ko'rib chiqilayotgan belgilarni mavjud bo'lgan lekin bevosita o'lchab bo'lmaydigan o'zgaruvchilar o'rjasida kuzatiladigan aloqalarini eng to'liq izohlab beradigan keng sig'imli kompleksli omillar orqali ifodalab, boshlang'ich axborotni markazlashtirishdir.

Qoidaga ko'ra, omilli tahlil bir necha bosqichda bo'lib o'tadi. Omilli tahlil bosqichlari quyidagilardan iborat:

- omillarni tanlab olish.
- omillarni tasniflash va tizimlashtirish.
- natijali va omilli ko'rsatkichlar o'rjasidagi o'zaro aloqalarini modellashtirish.

Natijali ko'rsatkich hajmi o'zgarishida omillarning ta'siri va rolini hisob-kitob qilish.

Omilli modeldan amaliy foydalanish (natijali ko'rsatkichning o'sish zaxiralarini hisob-kitob qilish).

Ushbu tahlil turi tadqiqotchiga ikkita asosiy vazifani hal qilishga imkon beradi: o'lchash predmetini qisqacha va shu bilan bir paytda har tomonlama tavsiflash. Omilli tahlil yordamida kuzatilayotgan o'zgaruvchilar o'rjasidagi korrelyatsiyalar chiziqli statistik aloqalar uchun javob beradigan omillarni aniqlash mumkin.

Klasterli tahlil keng doiradagi vazifalarni hal qilish uchun qo'llanadi, lekin ko'pincha gap aynan segmentlash vazifasi haqida boradi. Segmentlash muammosiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlar, qaysi usul foydalanishidan qat'i nazar, ularning har biri o'xshash tafsifnomali obyektlarni o'z ichiga oladigan barqaror guruhiylar (odamlar, bozorlar, tashkilotlar) identifikasiya qilish maqsadini ko'zlaydi. Bu jarayonni amalga oshirar ekan, tadqiqotchilar qoidaga ko'ra, quyidagi kabi xatolarga yo'l qo'ydi:

klasterlash ular asosida amalga oshiriladigan tavsifnomalar «ochiqroq, oddiyroq, arzonroq» tamoyili bo'yicha tanlanadi. Bunday yondashuv kelgusi tahlil maqsadga muvofiqligini shubha ostiga qo'ydi, chunki hatto bitta-ikkita muhim bo'limgan tavsifnomalar kiritilishi ham klasterlarga noto'g'ri taqsimlashga olib kelishi mumkin.

Tayanch iboralar: omilli tahlil, Alfa – omili, Korrelyatsion matritsa tuzish, Omilli tahlil usulini aniqlash, Muammoni ifodalash, Kayzer-Meyer-Olkin, **Klasterli tahlil**, Joylashtirish, sinov, Bartlettning sfera mezoni, Kayzer-Meyer-Olkin, relevant, Vard usuli

Nazorat va mulohaza uchun savollar

1. Omilli tahlil nima va u qachon qo'llaniladi?
2. Omilliy tahlilning asosiy maqsadi nimada va uning qanday usullari mavjud?
3. Omilli tahlilni qo'llash borasida amaliyotdagi misollarni keltiring
4. Ijtimoiy-siyosiy taddiqotlar doirasiga nialar kiradi?
5. Iste'molchilarning psixografik profillarini o'rganishda qanday usullardan foydalaniлади?
6. Korrelyatsion matritsa qanday tuziladi?
7. Dastlabki axborotga asoslangan aniqlashning mohiyati nimada?
8. Klasterli tahlilning asosiy mohiyati va mezoni nimalardan iborat?
9. Mijozlar segmentlari barqarorligini tahlil qilish qaysi klasterli omilning turiga kiradi?
10. Ierarxik klasterli tahlilning asosiy usullarining xususiyati nimada?

15-BOB. KO'P O'LCHAMLI SHKLALASHTIRISH VA QO'SHMA TAHLIL

15.1. Ko'p o'lchamli shkalalashtirishning asosiy tushunchalari

Ko'p o'lchamli shkalalash bu – ko'rgazmali tasvirlar yordamida respondentlarning his-tuyg'ulari va nimalarni afzal ko'rishini namoyish qiladigan usullardir.

Obyektlar o'rtasidagi psixologik o'zaro bog'liqliklar ko'p o'lchamli makonda nuqtalar o'rtasidagi geometrik bog'liqliklar (aloqalar) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu geometrik tasvirlar ko'pincha makonga oid kartalar deb ham ataladi. Makonga oid kartada koordinatalar o'qi inson xulq-atvorining psixologik omillariga yoki, boshqa qilib aytganda, respondentlar obyektlarni idrok qilish va afzal ko'rishini shakllantirish uchun foydalanadigan asosiy o'lchovlarga mos keladi.

Ko'p o'lchamli shkalalash yordamida olingan axborot marketingda turli vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladi, chunonchi:

1. Imidjni o'lchash. Firmaning o'zini idrok qilishi bilan taqqoslaganda uning iste'molchilar va firma mahsulotlarini iste'mol qilmaydiganlar tomonidan idrok qilinishi.

2. Bozorni segmentlash. Idrok qilishi nisbatan bir xil bo'lgan iste'molchilar guruhi larini aniqlash uchun iste'molchilar va savdo markalarining bitta makonda joylashuvi.

3. Yangi tovar ishlab chiqish. Ko'p o'lchamli shkalalash makonga oid kartada yangi tovarlarni joylashtirish uchun potentsial imkoniyatlarni ko'rsatadigan kamchiliklarni qayd qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu tahlil test yordamida yangi tovarni va mavjud savdo markalarini baholash hamda shu tariqa iste'molchilar tovardan o'tin olgan yangi g'oyalarni qanday qabul qilishini aniqlash uchun foydalaniladi. Har bir yangi tovar uchun afzal ko'rishlar ulushi ushbu mahsulotning muvaffaqiyat indikatori bo'slib xizmat qiladi.

4. Reklama samaradorligini baholash. Makonga oid kartalardan savdo markasining bozorda kutilgan holatni egallashi

nuqtai nazaridan reklama samaradorligini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

5. Narx tablili. Narxni idrok qilishni hisobga olgan va hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan makonga oid kartalarni taqqoslash narxning xaridorlar xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

6. Sotuv kanallari soni haqida qaror qabul qilish. Respondentlarning savdo markalarini turli savdo nuqtalari bilan taqqoslash mumkinligi haqida fikri sotuv kanallari soni haqida qaror qabul qilish uchun foydali bo'lgan makonga oid kartalarga olib kelishi mumkin.

7. Nisbatlar (munosabatlar) shkalasi tuzish. Ko'p o'lchamli shkalalash usullari o'lchami va konfiguratsiyasi bo'yicha mos keladigan nisbatlar (munosabatlar) shkalasini ishlab chiqish uchun foydalaniadi.

Ko'p o'lchamli shkalalashda qo'llanadigan tushunchalar quyidagilardan iborat:

o'xshashlikni baholash – Laykert shkalasi bo'yicha o'xshashliklarni aks ettiradigan savdo markalari yoki boshqa obyektlar barcha ehtimoliy jufliklari reytinglari.

afzal ko'rish ranglari – ularning kamayib borish tartibida (kattadan kichikka qarab) savdo markalari yoki boshqa obyektlar ranglari. Odatda bu ma'lumotlar respondentlar orasida so'rov o'tkazishda olinadi.

stress – moslashtirilgan modelning boshlang'ich ma'lumotlarga muvosiqlik darajasi: stress qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, modelni moslashtirish sifati shunchalik past bo'ladi.

R-kvadrat – korrelyatsiya koeffitsienti kvadrati, u ko'p o'lchamli shkalalashda hisobga olinishi mumkin bo'lgan optimal aks ettirilgan ma'lumotlar dispersiya ulushini ko'rsatadi.

koordinata – savdo markalari yoki boshqa obyektlarning makonga oid kartada joylashuvini ko'rsatadi.

yoyilgan holat – savdo markalari va respondentlarni bir xil makondagi nuqtalar ko'rinishida ko'rsatish.

15.2. Ko‘p o‘lchamli shkalalashni bajarish tartibi

Ko‘p o‘lchamli shkalalashni bajarishni tartibga solish va muammoni ifoalashda tartib bo‘yicha bosqichma-bosqich faoliyat yuritadi. Muammoni ifodalashda tadqiqotchi ko‘p o‘lchamli shkalalash natijalaridan foydalanish maqsadini aniqlashtirishi hamda tahlil qilish ko‘zda tutilgan savdo markalari yoki boshqa obyektlarni tanlashi zarur. Aynan ular shkalalash o‘lchovlari va olinadigan konfiguratsiyalarni belgilab beradi. Yaxshi aniqlanadigan makonga oid karta olish uchun kamida 8 ta savdo markasi yoki obyektni kiritish lozim. 25 tadan ortiq savdo markasi kiritish so‘rov paytida respondentlarni toliqtirib qo‘yadi.

Ko‘p o‘lchamli shkalalashni bajarish tartibi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. muammoni ifodalash;
2. boshlang‘ich ma‘lumotlar olish;
3. usulni tanlash;
4. o‘lchovlar soni to‘g‘risida qaror qabul qilish;
5. o‘lchovlarni belgilash va makonga oid kartada nuqtalar konfiguratsiyasini taqin qilish;
6. ishonchlilikni baholash.

Bularning barchasini to‘liq holda ko‘rib chiqamiz. Ya’ni, har bir tartibga izoh beramiz va ushbu tartiblarning mazmun mohiyati bayon etiladi.

Muammoni ifodalash. Muayyan savdo markalari yoki obyektlarni tanlashga diqqat bilan yondashish kerak. Savdo markalari soni va ularning nomini tanlashning asosida muamno, marketing tadqiqoti, nazariy shart-sharoitlar va tadqiqotchining intuitsiyasi yotadi.

Boshlang‘ich ma‘lumotlar olish. Respondentlardan olingan boshlang‘ich ma‘lumotlar afzal ko‘rish yoki idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lishi lozim.

Respondentlarning idrok qilishi haqida ma‘lumotlar to‘plashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuvdan foydalanishda ularning o‘z mezonlaridan foydalangan holda turli mashhur markalar o‘zaro quanchalik farq qilishi yoki o‘xshashlilishini baholash so‘raladi. Respondentlardan ko‘pincha o‘xhalikni

Laykert shkalasi bo'yicha ko'rib chiqqan holda savdo markalari juftliklarni baholash talab etiladi. Bu ma'lumotlar respondentlarning tovarlar o'xshashligi haqidagi baholari bilan bog'liq. Masalan, tish pastasi markalari barcha ehtimoliy juftliklari bo'yicha o'xshashliklar baholari quyidagi jadvalda keltirilgan.

15.1-jadval

O'xshashliklarni baholash

| | Umuman o'xshamaydi | Juda o'xshash |
|-----------------------------|-----------------------|---------------|
| Crest bilan Colgate | | |
| Aqua-Fresh bilan Crest | | |
| Crest bilan Aim | | |
| ... | | |
| Colgate bilan Aqua-Fresh | | |

Ma'lumotlar to'plashning boshqa usullari ham mavjud. Respondentlardan barcha ehtimoliy juftliklarni juda o'xshashdan umuman o'xshamaydigan juftliklarga ajratish so'ralishi mumkin. Boshqa bir usulda respondentlar mashhur savdo markalarini belgilangan bazaviy savdo markasi bilan taqqoslaydi. Har bir savdo markasi, o'z navbatida, shunday baza bo'lib xizmat qiladi.

Misolda to'g'ridan-to'g'ri usul foydalanaligan. Respondentlardan yetti ballik shkaladan foydalangan holda barcha $45(10*9/2)$ juft tish pastasi savdo markalari o'xshashligi haqida o'z fikrini bildirish so'raldi. Respondentlardan olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

15.2-jadval

O'xshashliklar reytinglari

| | Aqua-Fresh | Crest | Colgate | Aim | Gleem | Macleans | Ultra Brite | Close-Up | Pepsodent | Dentagard |
|-------------|------------|-------|---------|-----|-------|----------|-------------|----------|-----------|-----------|
| Aqua-Fresh | | | | | | | | | | |
| Crest | | | | | | | | | | |
| Colgate | | | | | | | | | | |
| Aim | | | | | | | | | | |
| Gleem | | | | | | | | | | |
| Macleans | | | | | | | | | | |
| Ultra Brite | | | | | | | | | | |
| Close-Up | | | | | | | | | | |
| Pepsodent | | | | | | | | | | |
| Dentagard | | | | | | | | | | |

Respondentlar idrok qilishi haqida ma'lumotlar to'plashga bilvosita yondashuvlar obyektlar tavsifnomalariga asoslangan bo'lib, respondentlar obyektlarni Laykert shkalasi yoki semantik differentsial shkaladan foydalangan holda belgilangan tavsifnomalardan kelib chiqib baholashi talab etiladi.

Masalan, tish pastasining turli markalari quyidagi tavsifnomalar asosida baholanishi mumkin:

Tishlarni oqartiradi ----- Tishlarni oqartirmaydi

Kariesning oldini oladi ----- Kariesning oldini olmaydi

Yoqimli ta'm ----- Yoqimsiz ta'm

Ba'zida obyektlar to'plamiga ideal savdo markasi ham kiritiladi. Respondentlardan bir xil tavsifnomalar to'plami bo'yicha gipotetik ideal savdo markasini baholash so'raladi. Agar atributiv reytinglar olingan bo'lsa, savdo markalari har bir juftligi uchun o'xshashliklar o'chovi (Evklid masofasi) chiqariladi.

Bevosita usullar bilvosita usullar bilan taqqoslaganda. Bevosita usullar shunday ustunlikka egaki, tadqiqotchi yaqqol tavsifnomalar to'plamini aniqlashiga to'g'ri kelmaydi. Respondentlar o'z mezonidan foydalangan holda obyektlar o'xshashligini baholaydi. Bevosita usullar kamchiliklari qatoriga *shuni* kiritish mumkinki, mezonga ko'rib chiqilayotgan savdo markalari ta'sir etadi. Agar turli mashhur avtomobil markalari bitta narx segmentida bo'lsa, narx muhim omil bo'ladi. Tahlil boshlanishidan oldin kerak bo'lsa respondentlarning baholarini birlashtirish ancha qiyin. Buning ustiga, makonga oid kartada o'lchovlarga nom berish qiyin.

Bilvosita usulning afzalligi shundaki, respondentlarni ularning obyektgina munosabatiga muvofiq, ya'ni obyekt xususiyatlaringin baholaridan kelib chiqib bir xil guruhlarga ajratish mumkin. Shuningdek, o'lchovlarni makonga oid kartada belgilash oson. Usulning kamchiligi shundaki, tadqiqotchi barcha yaqqol tavsifnomalarni aniqlashi kerak, bu esa oson ish emas. Identifikatsiya tavsifnomalari asosida makonga oid karta olinadi.

Bevosita usullar bilvosita (atributiv) usullardan ko'ra ko'proq foydalaniлади. Biroq ikkala yondashuvdan bir-birini to'ldiradigan yondashuv sifatida foydalinish maqsadga muvofiq. Respondentlarning bevosita usul bilan olingan obyektlar o'xshashligi haqidagi sikrlari makonga oid karta olish uchun, atributiv baholar esa – idrok qilish kartasi o'lchovlarini talqin qilish uchun foydalaniлади. Shunga o'xshash tamoyillar respondentlarning xohish-istiklariga aloqador ma'lumotlar uchun ham foydalaniлади.

Respondentlarning xohish-istiklariga aloqador ma'lumotlar. Xohish-istiklari haqida ma'lumotlar yordamida marketolog respondentlarning obyektlarni ularning biron-bir xossasi nuqtai nazaridan afzal ko'rish tartibini ko'rishi mumkin. Bunday ma'lumotlar olishning oddiy usuli - xohish-istiklarni ranglarga ajratishdir. Respondentlardan savdo markalarini usfarni afzal ko'rish pasayib borishi tartibida ranglarga ajratish talab etiladi. Muqobil ravishda, respondentlardan juftlab taqqoslash va ushbu juftlikda qaysi savdo markasini afzal ko'rishini aytish so'ralishi

mumkin. Bunday ma'lumot to'plashning boshqa bir usuli – turli savdo markalari uchun xohish-istiklar haqida baholar olishdir. Agar makonga oid kartaning asosida xohish-istiklar haqida ma'lumotlar yotadigan bo'lsa, masofa xohish-istiklardagi tafovutni anglatadi. Xohish-istiklar haqida ma'lumotlardan chiqarilgan konfiguratsiya obyektlar o'xshashligi ma'lumotlari asosida olingan konfiguratsiyadan jiddiy farq qilishi mumkin. Ikkita savdo markasi idrok qilish kartasida turlicha, afzal ko'rish kartasida esa bir xil qabul qilinishini mumkin va aksincha.

Masalan, Crest va Pepsodent tish pastalari respondentlar guruhi tomonidan mutlaqo har xil deb qabul qilinishi mumkin va shu sababdan ularga mos keladigan nuqtalar idrok qilish kartasida bir-biridan uzoq joylashadi. Biroq respondentlar bu tish pastasi markalarini bir xilda afzal ko'rishi mumkin, shunda afzal ko'rish kartasida ushbu tis pastalari markalariga mos keladigan nuqtalar bir-biriga yaqin joylashadi. Ko'p o'lchamli shkalalash jarayonini aks ettirish uchun biz tish pastasi bilan bog'liq misolda idrok qilish ma'lumotlaridan foydalanamiz, so'ngra afzal ko'rishi haqida ma'lumotlar shkalalanishini ko'rib chiqamiz.

Usulni tanlash. Ko'p o'lchamli shkalalashning muayyan usulini tanlash aynan qaysi ma'lumotlar – idrok qilish haqida ma'lumotlar yoki xohish-istiklar haqida ma'lumotlar shkalalanishi lozimligi yoki ikkala turni tahlil qilish zarurligiga bog'liq bo'ladi.

Ko'p o'lchamli shkalalashning nometrik usullarida boshlang'ich ma'lumotlar tartibga oid ekanligi ko'zda tutiladi, lekin tahlil natijasida ular metrik ma'lumotlarga o'zgaradi. Faraz qilaylik, olingan makonga oid kartada masofalar oraliq shkalasida aks ettirilgan. Ko'p o'lchamli shkalalashning nometrik usullari berilgan o'lchovda savdo markalari yoki obyektlar o'rtasida baholangan rang tartiblari boshlang'ich ma'lumotlar rang tartiblarini saqlaydigan yoki takroralaydigan o'lchovlarda aniqlab beradi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, ko'p o'lchamli shkalalashning metrik usullari boshlang'ich ma'lumotlar metrik ekanligini nazarda tutadi. Kiruvchi ma'lumotlar ham metrik ekanligi sababli

boshlang'ich va chiquvchi ma'lumotlar o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik saqlanib qoladi, metrik shkalada ifodalangan boshlang'ich ma'lumotlar atributlari ham saqlanib qoladi.

Metric va nometrik usullar bir xil natijalarga olib keladi.

Usulni tanlashga ta'sir etadigan boshqa omil alohida respondent darajasida yoki agregat darajasida ko'p o'lchamli shkalalash qanday amalga oshirilishini belgilab beradi.

Respondent darajasidagi tahlilda ma'lumotlar har bir respondent uchun alohida tahlil qilinadi va har bir respondent uchun makonga oid karta olinadi. Garchi individual darajadagi tahlil tadqiqot istiqbollari nuqtai nazaridan foydali bo'lsada, menejment fikriga ko'ra, u unchaliq jalg etuvchan emas.

Marketing strategiyalari odatda individual emas, balki segment yoki agregat darajasida ifodalananadi. Agar tahlil agregat darajasida bajariladigan bo'lsa, individual ma'lumotlarni birlashtirishda ayrim taxminlarga yo'l qo'yish lozim. Odatda barcha respondentlar savdo markalari yoki obyektlarni baholash uchun bir xil o'lchovlardan foydalanadi, lekin turli respondentlar bu umumiy o'lchovlarni turlicha o'lchaydi.

15.2-jadvalda keltirgan ma'lumotlar uni olish uchun tartib shkalasi foydalanilgan idrok qilish ranglarga ajratigan bahosini ifodalandi. Shu sababli marketologlar ko'p o'lchamli shkalalashni nometrik usulidan foydalanadi. Bu ma'lumotlar bitta respondentdan olinganligi sababli tadqiqotchilar tahlilni individual darajada bajaradi. Makonga oid kartalar tuzish uchun bittadan to'rttagacha o'lchov foydalanilgan, so'ngra mos keluvchi o'lchovlar soni haqida qaror qabul qilingan. Bu qaror (o'lchovlar soni haqidagi) – ko'p o'lchamli shkalalashning markaziy punktidir.

15.3. Birgalikdagi tahlil (conjoint analyses)

Birgalikdagi tahlil - qo'shma (*conjoint analyses*) bu – marketing tadqiqotlarining ko'p o'lchamli usuli bo'lib, iste'molchilarning xohish-istiklarini shakllantirish va bozorning yangi mahsulot takliflarini qabul qilishi bo'yicha bashoratlarni modellashtirish uchun foydalaniladi. Mazkur usul atributlar

(attributes) yoki xossalardan yig'indisi sifatida mahsulot konsepsiyasiga asoslanadi; bunda iste'molchilar mahsulot taklifi foydaliliginning uning atributlari alohida darajalari (levels) foydaliligin qoshish yo'li bilan baholaydi.

Birgalikdagi tahlilning asosiy ustunligi shundaki, u ma'lum bir eksperiment uslubiyati va puxta ishlab chiqilgan matematik model asosida real xari'd vaziyatida iste'molchilarning xohish-istaklari haqida bashorat qiliishga imkon beradi.

Afzallikkari:

- iste'molchi bir nechta atributni birgalikda baholagan holda yo'li qo'yadigan psixologik murosalarini tahlil qiladi;
- shaxs darajasida xohish-istaklarni o'chaydi;
- respondent anglab yetmasligi mumkin bo'lgan real, ba'zida yashirin motivlarni ochib beradi;
- haqiqatdagi xohish-istaklarni tadqiq etadi (amalda magazin ichida tanlov kabi);
- tadqiqotning mos keluvchi dizaynida uning atributlar o'rtaсидаги о'заро aloqalarni modelllashtirish qobiliyati ehtiyojlar asosida segmentlash uchun foydalanilishi mumkin.

Kamchiliklari:

- samarali tadqiqot rejasi ishlab chiqishning qiyinligi;
- baholanadigan profillar keragidan ortiqcha bo'lganda respondent soddalashtirish strategiyasidan foydalanishga moyil bo'ladi;
- intervyu vaqtining ortishi, chunki respondent profilarni tanlash va baholashga ma'lum vaqt sarflashi kerak;
- katta miqdordagi atributlar yoki ko'p sonli atributlar qiyatlari (darajalari) bilan eksperiment o'tkazish qiyinligi;
- mahsulotni joylashtirish uchun foydalanish qiyin, chunki aktual tovar xususiyatlarini qabul qilish va kesik atributlar to'plamini qabul qilish o'rtaсада konvertatsiya jarayoni mavjud emas;
- respondentlar doim ham o'zining yangi toifalarga munosabatini ifodalay olmaydi, ba'zida esa kundalik hayotda e'tibor bermaydigan ko'rsatkichlar haqida o'ylashga majbur bo'ladi;

- tadqiqot dizayni yaxshi emasligi emotsional tarkibiy qismlarga juda katta ahamiyat berishi va muayyan jismoniy tavsifnomalarga yetarli bo'Imagan ahamiyat berishi mumkin;
- usul xarid hajmi kabi ko'rsatkichni e'tiborga olmaydi, shunday ekan, bozor ulushini u qadar aniq bashorat qilmashigi mumkin.

Birgalikdagi tahlil usulining ustunligi shundaki, u quyidagilarni ishlab chiqishga imkon beradi:

- bu mahsulot taklifini tashkil qiladigan elementlar tarkibiy qismlari optimal kombinatsiyasiga ega bo'lgan sug'urta mahsuloti taklifi konsepsiyasini shakllantirish mumkin bo'lgan sug'urtachilar xohish-istiklari miqdoriy modeli. Ushbu usulning boshqa bir ustunligi uning nisbatan kamxarjat ekanligi va bozorda test o'tkazish bilan taqqoslaganda moslashuvchan xarakterga ega ekanligi hisoblanadi, bu esa inqiroz sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xohish-istiklarni tahlil qilish mazkur usuli, marketing tadqiqotlarining boshqa har qanday usuli kabi, o'z cheklovlariga ega. uni qo'llash quyidagi holalarda qiyin bo'ladi:

- mahsulot xususiyatlari iste'molchi uchun mutlaqo yangi;
- mahsulot konsepsiysi haqida realistik tasavvurga ega bo'lish uchun e'tiborga olinishi lozim bo'lgan atributlar soni juda ko'p;
- respondentlarning kognitiv qobiliyatlarini cheklangan.

Birgalikda tahlil usuli bir qator g'oyalar va taxminlarga asoslanadi:

1. iste'molchi mahsulotni ularning har biri ma'lum bir darajalar to'plamiga, ya'ni ehtimoliy qiymatlar to'plamiga ega bo'lgan atributlar (xossalar) yig'indisi sifatida qabul qiladi.
2. mahsulot taklifini baholashda respondent u yoki bu atributning har bir darjasini bilan ma'lum bir qiymatni (foydalilikni) bog'laydi. Xususiy foydaliliklar deb ataladigan bu qiymatlar mijozning qiymattlar tizimini aks ettiradi.
3. sug'urta mahsuloti taklifining umumiy foydaligini aniqlash uchun mos keluvchi xossalar foydaliliklari yig'indisi chiqariladi.

4. umumiy foydalilikni aniqlash uchun xossalari yig'indisini chiqarishda kompensator qoida amal qiladi: mahsulotni umuman baholashda iste'molchi xayolar nisbatan kichik foydalilikka ega bo'lgan atributlarni nisbatan katta foydalilikka ega bo'lgan atributlar bilan kompensatsiyalaydi.

Birgalikda tahlil o'tkazishda eng muhim qarorlardan biri mahsulot taklifini tafsiflaydigan atributlar to'plami hisoblanadi. Buning uchun tanlov xaridorlik mezonlari haqida, shuningdek, ularning determinantlari haqida xabardor bo'lish kerak. Bunday axborotni, masalan, ekspertlar usuli yoki fokus-guruh vositasida elish mungkin. Muhimi, tanlangan atributlar quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- mahsulot konsepsiyasining umumiy qiymatini belgilab beradi;
- iste'molchilar mahsulotlarni ular asosida differensiatsiya qiladigan hal qiluvchi tanlov mezonlari hisoblanadi;
- mustaqil bo'ladi;
- amaliy qiziqish uyg'otadi, tijorat salohiyatiga ega.

Atributlar umumiy soni juda katta bo'imasligi kerak. Xossalari sonining ortishi bevosita tadqiqot natijalarining ishonchliligi va statistik ahamiyatiga ta'sir etadi.

Birgalikda tahlilning asosida yotadigan g'oya shundan iboratki, iste'molchilar mahsulot taklifini umuman, uning alohida tarkibiy qismlari qiymatidan kelib chiqqan holda baholaydi. Eng oddiy holatda mahsulotning umumiy foydaliligi uning tarkibiy elementlari foydaliliklari yig'indisini chiqarish yo'li bilan olinadi. Marketing tadqiqotlari doirasida respondentlar mahsulotning barcha xislatlariga bir xil foydalilik berishga moyil bo'ladi, amalda esa albatta, bunday bo'lishi mumkin emas. Birgalikda tahlilning muhimligi shundaki, respondentlar real xarid vaziyatiga maksimal darajada yaqinlashadi va ular uchun eng afzal bo'lgan, barcha elementlar ham maksimal foydalilik bilan ifodalananmagan mahsulot taklifini tanlagan holda murosaga kelishga majbur bo'ladi.

Birgalikda tahlil o'tkazishja xohish-istak haqida ma'lumot to'plash usulidan kelib chiqib, to'liq profilli usul va juftlab taqqoslash usulidan foydalaniladi.

To'liq profilli usulning kamchiligi shundaki, respondentlarga juda ko'p sonli konsepsiylar baholash taklif etilgan pallada ularning axborot bilan ortiqcha yuklanganlik tufayli toliqish xavfi yuzaga keladi. Juftlab taqqoslash usufida respondentlar ham konsepsiyalarni bir vaqtida emas, balki ularni juft-juft qilib baholaydi.

Iste'molchilar xohish-istiklari haqida ma'lumot to'plash usullaridan kelib chiqqan holda to'liq profilli (Full Profile) birgalikdagi tahlil, tanlovga asoslangan birgalikdagi tahlil (CBC, Choice-Based Conjoint Analysis), ranglarga ajratishga asoslangan birgalikdagi tahlil (xususan, adaptiv birgalikdagi tahlil (ACA, Adaptive Conjoint Analysis)) farqlanadi. Dastlabki ikki holatda respondentlarga mahsulotlarning (mahsulot konsepsiylarining) to'liq tavsiflari ko'rsatiladi va respondent konsepsiyanini umuman baholaydi. Adaptiv birgalikdagi tahlil holatida respondent atributlar va ularning darajalarini ranglarga ajratadi: dastlab alohida, keyin kombinatsiyada. Oxirgi holatda savollarning har bir keyingi bloki tadqiqotning bundan oldingi bosqichida aniqlangan respondentning qadriyatlariga mos keladi.

Birgalikdagi tahlilning har xil turlariga xos bo'lgan jihatlar, ularning ustunlik va kamchiliklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, to'liq rofilli tahlilda (Full Profile) respondentlar afzal ko'rish darajasi bo'yicha mahsulotning to'liq profilini tavsiflagan holda kartochka sbkalasi bo'yicha baholaydi yoki ranglarga ajratadi. Tanlovga asoslangan birgalikdagi tahlil (CBC, Choice-Based Conjoint Analysis) qo'llanadigan soha bo'lib real xarid simulyatsiyasi xizmat qiladi - respondent profillarni ranglarga ajratmaydi, baiki bitta mahsulotni tanlaydi yoki xariddan voz kechadi va hech narsani tanlamaydi, respondent muqobil variantlar orasidan birini tanlashi shart bo'lgan birgalikdagi tahlilning boshqa usullaridan farqli ravishda, CBC usuli bu holat ko'zda tutilgan. Birgalikdagi tahlilning bu turida ma'lumot

to'plashning boshqa variantlari bilan taqqoslaganda brend va narxga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Qisqa xulosalar

Ko'p o'lchamli shkalalash bu – ko'rgazmali tasvirlar yordamida respondentlarning his-tuyg'ulari va nimalarni afzal ko'rishini namoyish qiladigan usullardir.

Obyektlar o'rtasidagi psixologik o'zaro bog'liqliklar ko'p o'lchamli makonda nuqtalar o'rtasidagi geometrik bog'liqliklar (aloqlar) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu geometrik tasvirlar ko'pincha makonga oid kartalar deb ham ataladi. Makonga oid kartada koordinatalar o'qi inson xulq-atvorining psixologik omillariga yoki, boshqa qilib aytganda, respondentlar obyektlarni idrok qilish va afzal ko'rishini shakllantirish uchun foydalanadigan asosiy o'lchovlarga mos keladi.

Respondentlarning idrok qilishi haqida ma'lumotlar to'plashga to'g'ridan-to'g'ri yondashuvdan foydalanishda ularning o'z mezonlaridan foydalangan holda turli mashhur markalar o'zaro qanchalik farq qilishi yoki o'xshashlشini baholash so'raladi. Respondentlardan ko'pincha o'xshalikni Laykert shkalasi bo'yicha ko'rib chiqqan holda savdo markalari juftliklarini baholash talab etiladi. Bu ma'lumotlar respondentlarning tovarlar o'xhashligi haqidagi baholari bilan bog'liq.

Ko'p o'lchamli shkalalashning nometrik usullarida boshlang'ich ma'lumotlar tartibga oid ekanligi ko'zda tutiladi, lekin tahlil natijasida ular metrik ma'lumotlarga o'zgaradi. Faraz qilaylik, olingan makonga oid kartada masofalar oraliq shkalasida aks ettirilgan. Ko'p o'lchamli shkalalashning nometrik usullari berilgan o'lchovda savdo markalari yoki obyektlar o'rtasida baholangan rang tartiblari boshlang'ich ma'lumotlar rang tartiblarini saqlaydigan yoki takroralaydigan o'lchovlarda aniqlab beradi.

Birgalikdagi tahlil - qo'shma (conjoint analyses) bu – marketing tadqiqotlarining ko'p o'lchamli usuli bo'lib, iste'molchilarning xohish-istikclarini shakllantirish va bozorming

yangi mahsulot takliflarini qabul qilishi bo'yicha bashoratlarni modellashtirish uchun foydalaniladi. Mazkur usul atributlar (attributes) yoki xossalalar yig'indisi sifatida mahsulot konsepsiyasiga asoslanadi; bunda iste'molchilar mahsulot taklifi foydaliliginning uning atributlari alohida darajalari (levels) foydaliligin qo'shish yo'li bilan baholaydi.

Birgalikdagi tahlilning asosiy ustunligi shundaki, u ma'lum bir eksperiment uslubiyati va puxta ishlab chiqilgan matematik model asosida real xarid vaziyatida iste'molchilarning xohish-istiklari haqida bashorat qilishga imkon beradi.

Tayanch iboralar: Ko'p o'lchamli shkalalash, Imidjni o'lhash, Marx tahlili, o'xshashlikni baholash, afzal ko'rish ranglari, R-kvadrat, koordinata, yoyilgan holatmuammo, usul, metrik, nometrik, qo'ma tahlil, afzalliklar va boshqalar.

Nazorat uchun savollar

1. Ko'p o'lchamli shkalalash deganda nimani tushunasiz?
2. Ko'p o'lchamli shkalalash yordamida olingan axborot marketingning qaysi jarayonlarida qo'llaniladi?
3. Reklama samaradorligini baholashda ko'p o'lchamli shkalalashtirishning ahamiyati nimada?
4. *R-kvadrat* – korrelyatsiya koefitsienti kvadrati nima uchun qo'llaniladi?
5. Ko'p o'lchamli shkalalashni bajarish tartibining bosqichlari qanday tartibda ifodalanadi.
6. O'xshashlikni baholash
7. Birgalikda tahlil o'tkazishda eng muhim atributlar nimalardan iborat?
8. *Birgalikdagi – qo'shma (conjoint analyses) qo'shma marketing tadqiqotlarining qanday usulariga kiradi?*
9. Xohish-istiklarni tahlil qilishda qanday marketing tadqiqotlari usullaridan foydalaniladi?
10. Ko'p o'lchamli shkalalashning nometrik usullarida boshlang'ich ma'lumotlar tartibga solishning asosiy tartibi qanday?

16-BOB. MARKETING TADQIQOTLARINING NATIJALARI TO'G'RISIDA HISOBOTLAR TAYYORLASH VA UNING TAQDIMOTI

16.1. Natijalarini taqdim etish

Ushbu bob materiallarini o'rGANIB chiqqach, siz quyidagilarni biliб olishingiz lozim.

1. Hisobot tayyorlashga asosiy talablar, jumladan, uning shakli, yozishning borishi, grafiklar va jadvallar.
2. Og'zaki taqdimot strukturasi va ko'lamini muhokama qilish.
3. Mijozning marketing tadqiqotlari haqida hisobotga talablarini, shuningdek, hisobotni o'qish bo'yicha tavsiyalarni bayon qilish.
4. Xalqaro marketing tadqiqoti hisoboti va taqdimotini tayyorlash jarayonlarini tushunish.
5. Hisobot va taqdimot tayyorlashda Internet va kompyuterlarning rolini tushririb berish.

Hisobot tayyorlash va taqim etish

Marketing tadqiqotlari o'tkazishga buyurtma bergan firmanın marketing bo'yicha vitse-prezidenti natijalar haqida hisobot oldi. Xo'sh, u nimalardan iborat? 1-jildga kiradigan hisobotning asosiy qismi titul varag'i, jadval ko'rinishidagi mundarija, rahbariyat uchun annotatsiya, muammoning batafsil tavsisi, muammoga yondashuv, tadqiqot rejasi, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun foydalaniladigan metodologiya, natijalar, loyiha cheklari, shuningdek, xulosa va tavsiyalardan iboratdir. 2-jild titul varag'i, raqamli ma'lumotlar ro'yxati, barcha raqamli ma'lumotlar va grafiklardan (diagrammalardan) iborat. Va niyoyat, barcha statistik detallar, jumladan, jadvallar 3-jildda keltirilgan.

Hisobot yozish uslubiga marketing bo'yicha vitse-prezident va boshqa asosiy rahbarlarning qaysi uslubni afzal ko'rishi ta'sir qildi. 1-jildda texnik detallar yo'q ekanligi sababli u oson o'qiladi yozma hisobotga qo'shimcha ravishda butun loyihaning og'zaki

taqdimoti ham tayyorlanadi. Bu hisobotdagi menejment uchun ayrim tavsiyalar hayotga tatbiq etilgan.

Misol. Aviakompaniya uchun hisobot. Marketing tadqiqotining vazifasi – rahbariyatning axborotga ehtiyojini baholash, bunday axborot taqdim etish va rahbariyatga to‘g‘ri qaror qabul qilishda yordam berishdir. Shtab-kvartirasi Chikago shahrida joylashgan United Airlines aviakompaniyasi rahbariyati uning reyslarida uchadigan mijozlarning qoniqqanligini tadqiq etish davomida buni chuqur anglab yetdish. Har oy 900 ta aviareysning 192 ming yo‘lovchisiga to‘rt varaqdan iborat so‘rovnomadan savollar beriladi. Marketologlarni «yer usti xizmatlari»dan foydalanish (aviachiptalarni bron qildirish, aeroportda xizmat ko‘rsatish) ham, «parvoz davomidgai servis» dan ham (styuardessalar e’tibori, samolet bortida ovqatlanish, samoletdagi qulayliklar) qoniqqanlik darajasi qiziqtiradi. Yo‘lovchilar anketani smoletga chiqqan paytida oladi va ularda savollarga parvoz davomida javob berish uchun vaqt bo‘ladi.

United Airlines kompaniyasining marketing tadqiqotlari bo‘limi har oy yo‘lovchilarining servisdan qoniqqanlik darajasini oylik tadqiq etishga yakun yasaydigan hisobot chop etadi. Hisobot shuningdek, Internet dagi saytda ham joylashtiriladi, shu sababli United kompaniyasi menejerlari uchun dunyoning istalgan nuqtasidan ochiq bo‘ladi.

Tanlama to‘plam miqdori (1994-yil bilan taqqoslaganda uch baravar katta) kompaniyaning barcha bo‘lmalmalari foydalanadigan ma’lumotlar reprezentativligini asoslab beradi:

- marketing bo‘limi strategik rejalashtirish, joylashtirish va maqsadli guruuhlar borasida qarorlar qabul qilish uchun;
- moliya bo‘limi investitsiya sifatida kiritilgan mablag‘lardan olinadigan samarani aniqlash uchun;
- aeroport xizmatlari bo‘limi yyer usti servisi, jumladan, ro‘yxatdan o‘tkazish tezligi va samaradorligini baholash uchun;

➤ oly rahbariyat United Airlines kompaniyasining ichki va tashqi maqsadlarga erishishda raqobatchilarga nisbatan samaradorligini baholash uchun.

Yo'lovchilarning qoniqsanlik darajasi keng miyosli marketing tadqiqoti United Airlines barcha bo'linmalari xodimlarini iste'molchilarning ehtiyojlariga yo'naltiradi. Bu kompaniyaga barcha raqobatchilar aynan o'xshash aviareyslar ro'yxatlariga ega bo'lgan, bir xil xizmatlar taqdim etadigan va bu xizmatlarga bir xil tariflar belgilaydigan sharoitlarda o'z xizmatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Masalan, marketing tadqiqoti natijalariga asoslangan holda United Airlines kompaniyasi parvoz vaqtida ovqatlanish yo'lovchilarning qoniqsanlik darajasi muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligini aniqladi va bu servis sifatini yaxshiladi. Shuningdek, United Airlines oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha ayrim mashhur kompaniyalar, masalan, naprimer s Starbucks coffai Godiva Chocolates bilan hamkorlik o'rnatdi.

Univermag bilan bog'liq misol marketing tadqiqotlari natijalari haqida hisobotning asosiy qismi strukturasi marketing tadqiqotlari jarayoni bosqichlariga qay darajada mos kelishini ko'rsatadi. United Airlines kompaniyasi bilan bog'liq misol o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari haqida muntazam hisobot taqdim etish muhimligini ko'rsatadi.

16.2. Hisobot va taqdimot muhimligi

Hisobot va uni taqdim etish – marketing tadqiqotlari loyihasining eng muhim qismidir.

1.Ular bajarilgan ishlarning sezilarli natijasi hisoblanadi. loyiha yakunlangach va rahbariyat qaror qabul qilgach, yozma hisobotni istisno qilganda marketing tadqiqotini hujjatlar bilan tasdiqlashning boshqa bir yo'li yo'q. U bajarilgan loyihaning amaldagi guvohligidir.

2.Kompaniya menejmenti qaror qabul qilishda hisobot va taqdimotga amal qiladi. agar marketing tadqiqoti loyihasining

birinchi besh bosqichi puxta bajarilgan, oltinchisiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan bo'lsa, loyihaning buyurtmachi uchun qimmati keskin pasayadi.

3.Ko'plab holatlarda buyurtmachi kompaniyaning menejer-marketologlari loyihadagi o'z ishtiropini yozma hisobot va og'zaki taqdimot bilan chegaralaydi. Ular loyihaning ish sifatini hisobot va taqdimot bo'yicha baholaydi.

4.Menejmentning kelajakda marketing tadqiqoti o'tkazish yoki takroriy tadqiqot o'tkazish uchun muayyan firma bilan hamkorlikni davom ettirish haqida qaroriga hisobot va taqdimot foydaliligini idrok qilish ta'sir ko'rsatadi.

HISOBOT VA TAQDIMOT TAYYORLASH

Hisobot va taqdimot tayyorlashning borishi haqida gap ketganda, marketing tadqiqotining muammosi, muammoga yondashuv, tadqiqot va dala ishlari rejasি nuqtai nazaridan ma'lumotlarni tahlil qilish natijalarini sharhlashdan boshlanadi.

Ma'lumotlarni statistik qayta ishslash natijalarini qisqacha bayon qilish o'miga marketolog o'z xulosalarini shunday taqdim etishi kerakki, ulardan qaror qabul qilish uchun bevosita asos sifatida foydalanish mumkin bo'lishi lozim. Marketolog albatta xulosalar chiqarishi va amaliy tavsiyalar berishi lozim. Hisobot yozishdan oldin tadqiqotchi olingen asosiy ma'lumotlar, xulosalar va tavsiyalarni asosiy qaror qabul qiladigan shaxslar bilan muhokama qilishi lozim. Bu uchrashuvlar – hisobot mijozning talablariga javob berishi va yakuniy hisobda qabul qilinishining asosiy kafolatidir. Bunday muhokamalar davomida yozma hisobot va boshqa materiallar tuzish sanasini belgilash zarur.

O'tkazilgan marketing tadqiqotining natijasi alohida shaxslar uchun alohida yozma hisobot yoki bir nechta ma'ruzalar bo'lishi kerak. Odatda yozma ma'ruza og'zaki taqdimot bilan birga keladi.

Hisobot va taqdimot taqdim etilgandan so'ng, mijozlar bilan mijoz o'rtasidagi hamkorlik tugamaydi. Tadqiqotchi mijozga hisobotni tushunishga yordam berishi, olingen natijalarni amalgaga

oshirish, keyingi tadqiqotlar o'tkazish va tadqiqot jarayonini retrospektivada baholashda ko'maklashishi lozim. Hisobot va taqdimot tayyorlashga jaib qilingan tadqiqotchining roli quyidagi misolda ko'rsatilgan.

MISOL. Fokus-guruhi lar boshlovchilari uchun kim hisobot yozadi?

Konnektikut shtati Uilton shahrida joylashgan, sifat marketing tadqiqotlariga ixtisoslashgan Groups Plus. Inc. kompaniyasi prezidenti Tomas Grikbaum so'nggi yillarda fokus-guruhi lar o'tkazishda o'ringa ega bo'laytigan tendensiyani ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, ayrim fokus-guruhi lar boshlovchilari mijozlarga axborotni buzib ko'rsatadi, chunki ularning hisobotlari amalda fokus-guruhi lar ishida qatnashmagan boshqa odamlar tomonidan yozilgan bo'ladi.

Grinbaum ma'lumotlariga ko'ra, boshlovchilarining yarmidan ko'pi mijozlarga hisobot tayyorlash uchun boshqa odamlarning xizmatlaridan foydalanadi. Bunday yolg'on hisobotlar ko'pincha to'liqsiz ish kuni band bo'lган xodimlar yoki kichik marketolog-tadqiqetchilar tomonidan yoziladi. Grinbaum yolg'on hisobotlar yozishni tanqid qiladi, chunki fokus-guruhi qatnashchilarining noverbal reaksiyalarini yoki birgalikdagi guruhi faoliyati doim ham audioyozuvni tinglayotganlar yoki fokus-guruhi videosini tomosha qilayotganlar tomonidan aniq yetkazib berilmaydi. Grinbaum boshlovchilarini mijozlar bilan fokus-guruhi lar bo'yicha hisobot muallitligida halol bo'lishga undaydi, shuningdek, mijozlarni ular bilan shartnomaga bo'yicha ishlaydigan tadqiqotchilik guruhi lar ishiga yaanada talabchan bo'lishga chaqiradi.

"Garchi ushbu tarmoqdagi ayrim mutaxassislar hisobotni mijozga jo'natishdan oldin doimo tekshirib chiqishini yoki, ehtiymol, hisobotning asosiy bo'limlarini o'zi yozganligini aytgan holda bunday amaliyotni himoya qilsada, fokus-guruhi o'tkazish yakunlaridan foydalanadigan mijozlar bunday amaliyotga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi lozim, - maslahat beradi Grinbaum. ~ Agar mijozlar ularning hisobotini kimdir begona

shaxs yozishini oldindan bilsa, bu muammoni qisman hal qiladi, lekin bu maslahatchilardan olingan natijalar eng yaxshi bo'lishiini anglatmaydi".

Grinbaum hisobot sifatining yomonlashuvi ehtimoliga qo'shimcha ravishda qayd etadiki, boshqa odamlar tomonidan hisobot tuzish tizimi yakuniy hisobot taqdim etishni sekinlashtiradi. "Hisobotni o'zi yozadigan boshlovchilar oxirgi gurhda so'rov o'tkazilgan kundan 7-10 kun o'tgach hisobotni yakunlashga harakat qiladi, shu sababli olingan axborot yangi bo'ladi va undan hisobot yozishda foydalaniadi, - ta'kidlaydi Grinbaum. - Biroq hisobot yozish uchun boshqalardan foydalanadigan boshlovchiarning aksariyati mijozlarga oxirgi guruh bilan ish yakunlangandan so'ng uch-to'rt hafta davomida yakuniy hisobot taqdim etishga qodir bo'lmaydi".

16.3.Hisobot shakli

Hisobot shakli marketing tadqiqoti o'tkazadigan firmaga, tadqiqot uning uchun o'tkazilayotgan mijozga, loyihaning tabiatiga qarab turlicha variantlarda bo'ladi. Quyida tadqiqotchi ularning asosida hisobot yozish uchun shaklni oson ishlab chiqish mumkin bo'lgan tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot haqida hisobotlarning aksariyati quyidagi elementlarni qamrab oladi.

- I. Titul varag'i.
- II. Ilova xati.
- Sh. Tadqiqot o'tkazishga ruxsat beradigan xat.
- IV. Mundarija.
- V. Jadvallar ro'yxati.
- VI. Grafiklar ro'yxati.
- VII. Ilovalar ro'yxati.
- VIII. Rahbariyat uchun rezyume.
 - a) asosiy natijalar.
 - b) xulosalar.
 - c) tavsiyalar
- IX. Muammoning ta'rif.

- a) Muammoning manbalari.
- b) Muammoni ifodalash.

X Muammoga yondashuv.

XI. Tadqiqot rejası

- a) Tadqiqot turi.
- b) Zarur axborotlar
- c) Ikkilamchi manbalardan ma'lumot to'plash.
- d) Birlamchi manbalardan ma'lumot to'plash.
- e) Shkalalash usullari.
- f) Anketa ishlab chiqish va uni dastlabki sinab ko'rish.
- g) Tanlama to'plam belgilash usullari
- h) Dala ishlari.

XII. Ma'lumotlarni tahlil qilish.

- a) Metodologiya.
- b) Ma'lumotlarni tahlil qilish rejası.

XIII. Natijalar.

XIV. Cheklovlar va ogohlantirishlar.

XV. Xulosa va tavsiyalar.

XVI. Ilovalar.

- a) Anketalar va kuzatuv shakllari.
- b) Statistika natijalari.
- c) Adabiyotlar.

Bunday hisobot strukturasi, aytish mumkinki, marketing tadqiqtasi jarayoni mantiqi bilan chambarchas bog'liq. Natijalarni hisobotning bir nechta obida aks ettirish mumkin. Masalan, milliy so'rovda ma'lumotlarni tahlil qilishni to'liq tanlama to'plam uchun bajarish, so'ngra to'rtta geografik mintaqaning har biri uchun ma'lumotlar alohida tahlil qilinishi mumkin. Agar bu ish aynan shunday bajarilsa, natijalarni beshta o'rniga bitta bobda aks ettirish mumkin bo'ladi.

Titul varag'i (title page) hisobot nomi, tadqiqot o'tkazgan tashkilot yoki tadqiqotchi haqida axborot (ismi, manzili va telefon raqami), hisobot tayyorlangan mijoz-tashkilot nomi, hisobot

tuzilgan sanadan iborat bo'lishi lozim. Hisobot nomi loyiha xarakterini ko'rsatishi lozim.

Ilova xati. Hisobotda odatda ilova xati (letter of transmittal) mavjud bo'lib, u mijozga hisobot bilan birga taqdim etiladi va unda ushbu loyihaning olingan natijalar bilan bog'liq bo'limgan qisqacha yakuni keltiriladi. Xatda, shuningdek, mijoz tomonidan olingan ma'lumotlarni amalga oshirish yoki kelgusida amalga oshirish lozim bo'lgan tadqiqot kabi keyingi zaruriy harakatlar ko'rsatilishi lozim.

Ruxsat beruvchi, vakolat beruvchi xat (letter of authorization). Ushbu hujjat mijoz tomonidan tadqiqotchiga loyiha bo'yicha ishlar boshlanmasidan oldin jo'natiladi. Bu xat tadqiqotchiga loyiha bo'yicha ishlarni bajarish vakolatini beradi hamda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar hajmi va shartlarini ko'rsatadi. Ko'pincha ilova xatida vakolat beruvchi xatga havola qilinadi. Biroq ba'zida hisobotga ruxsat beruvchi xatning nusxasini kiritish zarur bo'ladi.

Mundarija. Mundarijada (table of contents) hisobot qismlarining ro'yxati mos keluvchi sahifalar raqamlari bilan keltiriladi. Ko'plab hisobotlarda mundarija faqat asosiy va qo'shimcha sarlavhalardan iborat bo'ladi. Mundarijadan keyin jadvallar, grafiklar, ilovalar va misollar ro'yxati keladi.

Rahbariyat uchun rezyume (executive summary) – hisobotning muhim qismi hisoblanadi, chunki ko'pincha mijoz-kompaniya rahbari faqat uni o'qiydi. Rezyumeda tadqiqot muammosi, usuli va rejasi qisqacha bayon qilinishi lozim. Rezyume bo'limlaridan biri asosiy natijalar, xulosa va tavsiyalarga bag'ishlanadi. Rezyume butun hisobot yozib bo'linganidan keyin tuziladi.

Muammoning ta'rifi. Hisobotning muammo ta'rifiiga (problem definition) bag'ishlangan bo'limida uning tarixi, qaror qabul qiladigan shaxslar va tarmoq ekspertlari bilan bat afsil muhokamalar keltiriladi, ikkilamchi ma'lumotlar tahlili, ko'rib chiqilgan omillar va o'tkazilgan sifat tadqiqoti muhokama

qilinadi. Bundan tashqari, u marketing tadqiqoti muammosi va boshqaruv muammosining aniq ifodasidan iborat bo'lishi lozim.

Muammoga yondashuv. Ushbu bo'limda muammoni hal qilish uchun qabul qilingan yondashuv ko'rib chiqilishi lozim (approach to the problem). U tadqiqotda rioya qilinadigan nazariy asoslar tavsifi, har qanday ishlab chiqilgan tahliliy modellar, tadqiqot rejasiga ta'sir etadigan omillar va gipotezalar tavsisidan iborat bo'lishi lozim.

Tadqiqot rejasি. Tadqiqot rejasiga (research design) bag'ishlangan bo'lim tadqiqot o'tkazishning detallarini aks ettiradi. U qabul qilingan tadqiqot rejasи strukturasini, zarur axborotlarni, birlamchi va ikkilamchi manbalardan ma'lumot to'plashni, shkalalash usullarini, anketa ishlab chiqish va uni dastlabki sinab ko'rishni, tanlama to'plam belgilash usullari va dala ishlарini o'z isiga oladi. Bu masalalar tushunish oson bo'lgan uslubda, maxsus atamalarni suiste'mol qilmagan holda bayon qilinadi.

Ma'lumotlar tahlili (data analysis). Ma'lumotlarni tahlil qilish rejasи tavsiflanadi, ma'lumotlarni tahlil qilish strategiyasi va foydalananidigan usullar aseslab beriladi. Usullar oddiy, texnik atamalarsiz tavsiflanishi lozim.

Natijalar. Hisobotning ushbu bo'limi odatda eng katta bo'lib, bir nechta bobdan iborat bo'lishi mumkin. Natijalar (results) ko'pincha nafaqat umumiyl, balki qismlarga bo'lingan (bozor segmenti, geografik hudud va b) taqdim etiladi. Natijalar ularning muvofiqlashtirilganligi (masalan, vaqt bo'yicha) asosida yoki mantiqiy ketma-ketlikda tavsiflanishi lozim. Masalan, tibbiy xizmatlar marketing tadqiqotida natijalar to'rt bobda ifodalandi. Birinchi bobda umumiyl natijalar, ikkinchi bobda – turli geografik hududlar o'rtaqidagi tafovutlar, uchinchi bobda – tijorat va notijorat kasalxonalari o'rtaqidagi farq, to'rtinchchi bobda esa – shifixonadagi o'rinalar bo'yicha farqlar keltiriladi. Natjalarning bayon qilinishi axborot ehtiyojlari va marketing tadqiqoti muammosining tarkibiy qismlarları bilan muvofiqlashtirilgan

bo'lishi lozim Detallarni jadval va grafiklar ko'rinishida ifodalash lozim, olingen asosiy ma'lumotlar esa matn ko'rinishida muhokama qilinadi.

Cheklovlar va ogohlantirishlar. Marketing tadqiqotlarining barcha loyihalari vaqt, byudjet va boshqa tashkiliy omillar bilan asoslanadigan cheklovlarg'a (limitations) ega. Bundan tashqari, ishlab chiqilgan tadqiqot rejasining cheklovlarini turli xatolar bilan bog'lash mumkin. Ushbu bo'lim ehtiyojkorlik bilan va puxta yozishni talab qiladi. Bir tomondan, tadqiqotchi rahbariyat natijalardan boshqa maqsadlarda foydalanmasligiga, masalan, ularni mos kelmaydigan bosh to'plamlarga tarqatmasligiga ishonchi komil bo'lishi lozim. Boshqa tomondan, bo'limdag'i ogohlantirshilar buyurtmachining tadqiqotga ishonchini pasaytirmasligi yoki uning muhimligii pasaytirib ko'rmasligi lozim.

Xulosa va tavsiyalar. Hisobotda tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash yakunini keltirish yetarli emas. Natijalar qo'yilgan muammoni hisobga olgan holda yoritib berilishi lozim. Tadqiqot natijalari va xulosalarga (conclusions) asoslangan holda, tadqiqotchi qaror qabul qiladigan shaxslarga tavsiyalar (recommendations) berishi mumkin. Ba'zida marketologlardan tavsiya ham so'ralmaydi, chunki ular qator holatlarda mijoz firmasidagi utun vaziyatni qamrab ola olmaydi. Agar tavsiyalar berilgan bo'lsa, ular amaliy bo'lishi va bevosita rahbariyat tomonidan qaror qabul qilishda foydalanilishi lozim.

Hisobotni yozish

O'quvchilar. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, hisobot o'ziga xos o'quvchilar turi – tadqiqot natijalaridan o'z ishida foydalanadigan marketing bo'yicha menejerlar uchun tayyorlanadi. Hisobot mualliflari o'quvchilarning maxsus tayyorgarligi va ularning loyihaga qiziqishini, shuningdek, ular ushbu hisobotni o'qiydigan va undan foydalanadigan vaziyatni hisobga olishlari lozim.

Hisobotda maxsus atamalar va jargon so'zlarni suiiste'mol qilmaslik kerak. Ekspertlardan birining aytishicha: "Sizning hisobotlarni o'qiydigan shaxslar – band bo'lgan odamlar; ularning kam sonli qismigina bir vaqtning o'zida ham tadqiqot haqida hisobot o'qishi, ham lug'at varaqlashi va kofe ichishi mumkin" [5]. Agar ayrim maxsus atamalarsiz ish bitmaydigan bo'lsa, ularning imazmuni ilovalarda bayon qilib o'tilishi lozim. Gap marketing tadqiqotlariga taalluqli bo'lganida odamlar ular tushunmaydigan yechim bilan rozi bo'lgandan ko'ra hal qilinmagan muammo bilan yashashga rozi bo'ladi.

Ko'pincha tadqiqotchi loyihaga qiziqish va maxsus tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan bir nechta guruuning ehtiyojlarini qondirishi lozim. Bunday nizoli so'rovlargaga yo'l qo'ymaslik uchun hisobotga turli o'quvchilar uchun turli bo'limlar kiritish yoki alohida maxsus hisobotlar tayyorlanishi mumkin.

O'qish osonligi. Hisobot o'qish uchun oson, chunonchi, mantiqan strukturalangan va tushunarli tarzda yozilgan bo'lishi lozim. Hisobot materiali, ayniqsa, uning asosiy qismi mantiqan o'zaro bog'langan bo'lishi lozim. Sarlavhalar asosiy mavzulr uchun, kichik sarlavhalar esa – kichik mavzular uchun foydalanimishi lozim.

Materialni mantiqiy tashkil qilish bog'langan hisobotga olib keladi. Tushunarlikni yaxshi tuzilgan, qisqa va mohiyatga tegishli gaplardan foydalangan holda oshirish mumkin. So'zlar tadqiqotchining fikrini aniq yetkazishi, murakkab so'zlar, jargonlar va qolip so'zlardan qochish lozim. Hisobot tushunarligi uning loyiha bilan tanish bo'limagan bir necha kishi tanqidiy ruhda o'qib chiqishi bilan tekshirish mumkin. Yakuniy hisobot qo'lga kiritilgunga qadar hisobotning bir necha variantini yoziga to'g'ri kelishi ehtimoli yuqori.

Prezentabellik, professional tashqi ko'rinish. Hisobotni rasmiylashtirishga katta e'tibor qaratish lozim. U sifatlari qog'ozda bosib chiqarilgan va muqovalangan bo'lishi lozim. Shriftlar

to'g'ri tanlanishi kerak, matnni o'qish qulay bo'lishi ko'p jihatdan shunga bog'liq bo'ladi.

